2024-yil. 9-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802



“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti” Milliy tadqiqot universiteti hamda O‘zbekiston Milliy universiteti jahonning Top-550, hamda Top-1000 universitetlar qatoridan joy oldi.

2024-YIL 9-SON

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Sanobar To‘laganova. Jadid nasrida komil inson konsepsiyasi....3

Nazzora Bekova, Bahriddinova Dilnura. BuxDU axborot resurs markazida saqlanayotgan qadimiy toshbosma kitoblar tavsifi....5

Dilnavoz Yusupova. Alisher Navoiy ijodida tarsi’ san’ati....7

Iroda Pardayeva. Shoh va buyuk shoir do‘stligi....10

Tilshunoslik

Durdona Xudoyberganova. O‘zbek tili metaforalarning leksikografik talqini xususida....13

Dilfuza Hasanova. Buvayda areali qipchoq shevalarida singarmonizm....16

Muxaram Alimova, Nilufar Babajanova, Iroda Ismoilova. Kognitiv yondashuvning chet til o'qitish jarayonidagi ahamiyati...18

Farxad Usmanov. Mehmondo‘stlik o‘zbek qadriyatining lingvomadaniy tahlili....21

Odinaxon Saidaxmedova. O‘zbek tilida -niki qo‘shimchasining o‘zlashtirilishi (bolalar bilan o‘tkazilgan tajribalar asosida)....26

Shoiraxon Toshxujayeva, Maxbubaxon Tojiboyeva. So‘z ko‘chma ma’nosining lingvopoetik imkoniyatlari....28

Махмуд Равшанов. Раскрытие значений многозначности слов и приемы семантизации....30

Гульчехра Давлятова, Замира Ахмадиллиева. Лингвопрагматические аспекты исследования языкового варьирования в процессе деривации и употребления существительных (на материале русского и узбекского языков)....32

Лариса Половина. Фразеологические антонимы русского языка....35

Нигора Каримова. Теоритические аспекты проблемы «время и пространство»....37

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar

Alimardon Ergashev, Ahmad Bolqiyev. Said Ahmadning “Qishdan qolgan qarg‘alar” asarini blum taksonomiyasi orqali tahlil qilish....41

Mohigul Fozilova, Solixaposhsho Xudoyorova. O‘zbek tili darslarini o‘qitishda video va audio materiallardan foydalanish....43

Mahliyo Elboyeva. Bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati....45

Dilafruz Bahriddinova. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-kasbiy mobilligini rivojlantirishda PRESS FORMULA va JIGSAW usullaridan foydalanishning ahamiyati....47

Oysara Maqsudova. Bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy-fonetik ko‘nikmalarini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyati....49

Gulruxsor Sharipova. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini innovatsion tashkil etishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati....52

Madina Mamatova. Maktabgacha yoshdagi alaliyali bolalar bog‘langan nutqining rivojlanishi xususiyatlari....54

Muhabbat Ro‘zmetova. Ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarning kreativlik malakasini rivojlantirish....57

Dilnoza Iminova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishning omillari....63

Saodat Shamaqsudova. Mediamatnlarda maxsus leksikadan foydalanish....65

Diyora Abdujalilova. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijalining didaktikaga oid qarashlari....68

Shaxnoza Muxtarova. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish....72

Barno Xusniddinova. Bo‘lajak

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay’ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To‘lqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo‘ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To‘maris Butunbayeva
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI

Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko‘chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
https: //oak.uz/pages/4802

Ilmiy-metodik elektron jurnal

logopedlarning deontologik yondashuv asosida kasbiy madaniyatini rivojlantirish....74
Махфуза Ахмедова. Общие вопросы развития и совершенствования речевой компетенции будущих учителей младших классов....76
Dilafruz Rahmonkulova. La pertinence du theme des relations familiales dans l'œuvre de marcel pagnol « le chateau de ma mere»....80
Shoxruh Faxriddinov. Role of teaching modern methods in learning English language....82
Nasiba Mirzayeva. Modern approaches and methods in teaching english....84
Zukhra Khakimova. The integration of sustainable development goals into curricula in higher education institutions: benefits and challenges....87
Kamola Abdukhakimova. Competent based learning approach in education system of Korea, Japan and Finland....89
Nilufar Mukimova. Filologik fanlarni o'qitishda FIGWORT va FARBWORT metodlaridan foydalanish metodikasi....92

Adabiyotshunoslik

Tadjixon Sabitova. Akbarshoh – Boburiylar sulolasining eng buyugi....95
Shahlo Karimova. Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida adabiy ta'sir va ijodiy mushtaraklik (Zavqiy ijodi misolida)....97
Oqiljon Mavlonov. Qorako'z – sochi boshdin-ayoq chin-u shikanli ma'shuqa qiz....99
Shaxnoza Choriyeva. "Qahramonning o'limi" romanining badiiy o'ziga xosligi....102
Mohinur Mansurova Shahzoda Xayrullayeva. O'zbek adabiyotida satira va yumor yo'nalishi rivoji....104
Dilnoza Xamroyeva. Abdulla Sher ijodi va folklor....106

Tadqiqot

Muhayyo Ergashova. Til sathlarida lokal ifodalanishlar....109
Odinaxon To'xtasinova. So'z turkumlarini o'rganishning tipologik tamoyillari....112
Adibaxon To'raxojayeva, Kamola Hamidova. O'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasini mazmuniy maydon asosida o'rganish....113
Mazmuna Otaboyeva. Holatni ifodalovchi fe'l leksemalarida darajalanish hodisasi (o'zbek va ingliz tillarida)....115
Malika Rajapova. Allegoriya badiiy tasvir vositasi va stilistik trop sifatida....118
Nodiraxon Ismatova. Rang nomlari bilan shakllangan toponimlarning lingvokulturologik tadqiqi....120
Feruza Mamatqulova, Muqaddas Saidakbarova. O'zbek va boshqird xalq og'zaki ijodidagi umumiy mavzular....122
Ozodjon Ochilov. Xitoyda vatanparvarlik she'riyat maktabining paydo bo'lishi va uning asosiy g'oyaviy yo'nalishlari....124
Akbarjon Hasanov. Ironiyaning pragmalingvistik va lingvopoetik tahlili....129
Nurislom Xursanov. Dramatik diskursning kognitiv maydoni....131
Dildor Bazarova, Jaxongir Qurbonov. O'tkir Hoshimovning maqollardan foydalanish mahorati....133
Nargiza Pazlitdinova. Manzili munavvar olima....134
Toxir Aglamov. Masal janrining yuzaga kelishi va uning ahamiyati haqidagi ba'zi fikrlar....137
Muqaddas Saidakbarova. Kubroviya tariqatida olami Sug'ro va olami Kubro masalasi....139
Gulandom Tog'ayeva. Tasavvufda ruhiy kamolot qirralari....142
Maftuna Rahimova. Falsafada so'zga belgi sifatida qarashning vujudga kelishi....143
Aziza Xolboboyeva. Sotsiolingvistikaning reklama diskursidagi ifodasi....145
Xurshida Ro'ziyeva. Abdulla Oripov she'riyatida frazeologizmlar badiiy tasvir vositasi sifatida....148
Berdibek Yusupov. O'quvchilarning ijtimoiymadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari....150
Sadokat Yusupova. Eyji Mano – "Boburnoma" tadqiqotchisi sifatida....152
Jaxongir Tursunov. Sifatlash – tilning badiiy tasvir vositasi (Odil Yoqubov asarlari misolida)....155
Nilufar Qurbonova. Tarjimon talabalarning deontologik kompetensiyasini shakllantirish....157
Gulhayo Xolmurodova. Identification criteria, structure and methods of studying semantic fields....159
Dildora Abdullayeva. Alisher Navoiy kichik lirik janrdagi asarlarining maktab darsliklarida berilishi....162
Nilufar Maxsudova. Maqol va matallar baholashni ifodalovchi kategoriya sifatida....164
Maxmud Babayorov. Xalq maqol va matallarida sport leksemalari qo'llanishining emotsional-ekspressiv jihatlari....167
Нилуфар Кахарова. Факторы, обуславливающие употребление тавтологий и плеоназмов в речевом общении....171
Махмуджон Бахтиёров. Организация рефлексивной деятельности студентов в обучении русскому языку....173
Dilafruz Ergasheva. Ingliz tilida frazeologik birliklar, frazeologik omonimlik sinonimlikning ingliz adabiyoti misolida tasnifi....176
Shoxida Mamadjanova. Boshlang'ich ta'limda chet tilini o'qitishda o'yin texnologiyalari asosida leksik ko'nikmalarni shakllantirish....179
Хусан Ахмедов. Роль критического мышления в формировании базовых навыков учащихся начальных классов....182
Толибжон Мирзалиев. Об эффективном применении игрового обучения на занятиях русского языка в вузе....185
Дилфуза Мирзалиева. О сущности инновационного подхода к обучению в вузах....187
Дилфуза Умарова. Совершенствование методики преподавания иностранного языка через художественную литературу в начальном образовании....189
Адолат Кенжаева. Нейролингвистические методы исследования: поведенческие методы....191
Феруза Иркабаева. Фольклорно-мифологические элементы романа Гузель Яхиной «Эшелон на Самарканд»....193

Gulyora Saidova. The stages of teaching written translation.....196
Diyora Madjidova. How to improve english translation skill.....198
Khadicha Rakhmatullayeva. Unveiling the power of imagery: exploring vibrant literary examples.....200

Kichik tadqiqot

Elyorjon Hasanov. O'zbek tilida biznes terminlarining o'zgarib borish masalalari.....203
Umida Muminova. Qadimgi turkiy tilda fe'lning o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlari.....205
Shohista Zoitova. Toshkent shahar joy nomlarining tasnifi va tadqiqi.....207
Farrux Qulsaxatov, D.Neslihan Bay. Integrativ yondashuv asosida o'qitish.....209
Nargiza Aliyeva. Ingliz tilidagi "baxt" va "baxtsizlik" konseptini ifodalovchi leksik birliklarning frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari.....211
Elmira Kochkarova. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi va imloviy savodxonlik masalalari.....213
Gulchehra Sobirxo'jayeva. Sifatli ta'lim-tarbiya – kelajak poydevori.....215
Zulayho Negmatova. O'quvchilar badiiy-ijodiy tasavvurini shakllantirishning nazariy asoslari.....216
Zuhraxon Bozorova. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida ota-onalar va tarbiyachilarning o'rni.....218
Ulug'bek Mashrabjonov. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv bilish kompetensiyalarini rivojlantirish.....220
Yulduz Sultonova. Zamonaviy ta'limda chet tili o'qitishning nazariy asoslari.....221
Musharraf Abdulxayeva. Ta'limiy diktant va uning turlari.....223
Mavluda Mavlonova. Axborot texnologiyalari sohasiga oid terminlarning leksik - semantik xususiyatlari.....225
Zarinaxon Azizova. Ilova konstruksiya sintaktik aloqaning bir turi sifatida.....227
Ra'no Mavlonova. Tarjima nazariyasi rivojlanish paradigmasi.....229
Islomjon Turdiyev. Ingliz va o'zbek tili ish yuritish terminlarining o'rganilishi.....231
Toshqobil Muqumov. Fransuz va o'zbek tillaridagi somatizmlar ishtirok etgan qofiyadosh frazeologik birliklarga doir.....233
Surayyo Saidova. Talabalarining o'qish kompetensiyasini CBI texnologiyasi orqali takomillashtirish.....235
Robiya G'afurova. Bo'lajak chet tili o'qituvchisi kasbiy terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....238
Dilafruz Umarova. Inklyuziv ta'lim sharoitida ingliz tilini o'qitish muammolari.....240
Maqsudaxon Saidova. Talabalarda xorijiy tilda pragmatik kompetensiyaining strukturaviy komponentlari shakllanishi.....242
Zilola Abidova. Tafakkur fe'llarining ingliz tili izohli lug'atlardagi talqini.....244
Muxlisa Sheraliyeva. Yoshlar orasida slenglardan foydalanishni psixologik xususiyatlari.....246
Dilnoza Tursunova. Lakunalarni tasniflash tamoyillari. Leksik lakuna.....248
Nigora Rustambekova. Boshlang'ich sinflardagi o'quv fanlari mazmunida o'quvchilarning ijtimoiy faol fuqarolik kompentatsiyalarini shakllantirish asoslari.....250
Rayxon Jumanazarova. Halima Ahmedova ijodida obrazlar uyg'unligi.....252
Дилнозахон Арипова. Лингвокультурное понятие семья в картине мира.....253
Dilnavoz Toxirova. Use of simile in "Oliver Twist" by Charles Dickens.....255
Sevara Muradova, Rustam Makhsumov. Some morphological features of roman german languages.....256
Kamola Alimova. The use of pauses in the translators' speech.....259
Diyora Karimova. A comprehensive guide to military phrase.....261
Nodira Qurbonova. Yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish: holat va muammolar.....263
Shukrullo Jo'rayev. So'z mulkiga sayohat yoxud Erkin Vohidov saboqlari.....265
Adolatxon Akramova. Vaqtni to'g'ri boshqarishning maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv samaradorligidagi ahamiyati.....267
Sharofat Abdurahmonova. Badiiy asarning kulturologik tahlilida zamon va makon masalasi.....269
Gulzoda G'ayratova. Sharof Rashidovning "Qudratli to'lqin" romanida sinonimlarning qo'llanishi.....271
Gulzoda Aliyeva. Unites phraseologiques françaises avec une composante zoonyme.....273
Umida Kuchkeldiyeva. Chet tilni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirish.....275
Shohista Abduqodirova. Leksemaning so'zlashuv nutqida pragmatik ma'nolar ifodalashi.....277
Nargiza Maxmudova. Abdulla Qahhor asarlarida badiiy mahoratdan unumli foydalanish.....279
Marjona Shomurodova. Nishotiy lirikasida badiiy san'atlar.....282
Gulmira Bozorova. The art of talmeh in the poetry of Mukhammad Yusuf.....285
Sevinch Tilabjonova. Pedagogik amaliyotni takomillashtirishda yangi pedagogik texnologiyalarning o'rni 287
Akmaljon Axmedov, Zarnigor Sherqo'ziyeva. Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak psixologlarning kasbiy muloqotida kompetentlikni shakllantirishning psixologik-pedagogik shartlari.....289
Кумушхон Рузиматова. Анализ риторической речи в рамках когнитивной лингвистики.....292
Amirxon Ne'matov. Shukur Xolmirzayevning "O'zbeklar" hikoyasi o'zbeklar ruhiga ochilgan oyna.....294
Hasan Amonov. Boshlang'ich sinflardagi she'rlardan yumoristik motivlar.....296
Taxmina Quziyeva. Marketing terminologiyasida abbreviaturalar.....298
Gulhayo Barotova. Teaching pronunciation of english.....300
Dilnoza Burkhanova. Kinship terms as an object of cognitive linguistics.....301
Munisa Abdulloyeva. Improving english instruction by including interactive games.....303
Fayyoza Dadaboyeva. Task-Based Learning (TBL) Methodology.....305

Sanobar TO‘LAGANOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori (DSc)
s.tulaganova@mail.ru

JADID NASRIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASI

Annotatsiya: maqolada yangi o‘zbek nasrining paydo bo‘lishidagi asosiy tamoyillar ochib berilgan. Jadid mafkurasining adabiyotda yetakchi g‘oya sifatida bo‘y ko‘rsatishi, davr yuzaga keltirgan ijtimoiy ideallarning badiiy estetik ideal sifatida aks etishi yangi o‘zbek adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri ekanligi yoritib beriladi. Fitrat, Cho‘lpon va Qodiriy ijodi misolida estetik idealning turli ko‘rinishdagi namunalari tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: *jadid, milliy mafkura, nasr, estetik ideal, komil inson obrazi.*

Аннотация: в статье раскрываются основные принципы возникновения новой узбекской прозы. Поясняется, что возникновение джадидской идеологии как ведущей идеи в литературе, отражение социальных идеалов, созданных эпохой, в качестве художественно-эстетического идеала является одной из важных особенностей новой узбекской литературы. Различные примеры эстетического идеала были проанализированы на примере творчества Фитрата, Чолпона и Кадири.

Ключевые слова: *джадид, национальная идеология, проза, эстетический идеал, совершенный образ человека.*

Annotation: the main principles of the emergence of new Uzbek prose are revealed in the article. It is explained that the emergence of Jadid ideology as a leading idea in literature, the reflection of the social ideals created by the era as an artistic aesthetic ideal is one of the important features of the new Uzbek literature. Various examples of the aesthetic ideal were analyzed on the example of the work of Fitrat, Cholpon and Qadiri.

Key words: *jadid, national ideology, prose, aesthetic ideal, perfect human image*

XX asr avvalida Turkiston hayotida yuz bergan diniy, ma’naviy, madaniy va ma’rifiy jabhadagi o‘zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy voqealar, ziddiyatlar millat tarixidagi boy sahifani tashkil qiladi. Mamlakatda yuz bergan iqtisodiy-siyosiy ko‘tarilishlar madaniy-ma’rifiy sohalarda ham yangilanish tomon yo‘l ochdi. Bu davrda publitsistika, dramaturgiya va she’riyat bir qadar tezkor taraqqiy etdi.

Davr taloto‘plari natijasida bo‘y ko‘rsatgan yangi o‘zbek nasri poetik mezon va janr talablarini ishlab chiqishi zarur edi. Dastlab milliy adabiyot qanday bo‘lmog‘i lozim degan savol jadidlarni mulohazaga undadi. Cho‘lpon “Adabiyot nadir” (1914) maqolasida adabiyotning nafaqat ijtimoiy jihatiga, balki uning obrazli tafakkur va badiiyatiga, adabiy ta’sir va talqin masalasiga alohida ahamiyat qaratadi. *“Ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk... yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk....Hozirda bizga birdan-bir lozim bo‘lg‘on narsa – adabiyot, adabiyot, adabiyot...”* [1:35]. Jadidlar adabiyotga tarbiyaviy vosita deb qarasalarda, Cho‘lpon singari ijodkorlar adabiyotni sa’nat hodisasi sifatida ko‘rishni istaganlar. O‘sha davrning faol ziyolisi A.Zohiriy adabiyot haqida shunday yozadi: *“Bir millatning o‘z tilidagi kitob, risola, gazeta, jurnal va boshqalariga bir so‘z bilan adabiyot (literatura) deyilur. ... adabiyoti bo‘lmog‘on, bo‘lsa ham borlik-yo‘qlik yoki sob va ado bo‘lg‘an chirog‘dek o‘char-o‘chmas bo‘lsa ul qavmning boshqalar oldida hurmat va e’tibori bo‘lmas va har nav’ hayoti ijtimoiya va madaniyatdin bahra ololmaydir” ...”* [2]. Muallif ona tili va adabiyoti bo‘lmagan millatning tarix sahnasida o‘rni bo‘lmasligi, millatning darajasi uning adabiyoti va madaniyati bilan o‘lchanishi, milliy ideal zarur ekanligini ta’kidlaydi hamda zamondoshlarini fidoyi bo‘lishga chaqiradi.

Jadid g‘oyalarini o‘zida aks ettiruvchi milliy nasr oldida zamon muammolarini o‘zida jamlagan, millatni ma’rifatga yo‘llovchi estetik ideal – Komil insonni yaratishdek jiddiy muammo paydo bo‘ldi. Jadid yozuvchilar zamonning muammolariga yechim topishni zimmasiga olgan qahramon qiyofasini yaratishni maqsad qildilar. Adabiyot oldiga esa inqilobiy ko‘tarilishlar davrining mahsuli – Yangi tafakkur egasi qiyofasini yaratish vazifasini qo‘ydi. Dunyoni yangicha idrok etadigan, ruhiy hurriyat sohibi siymosini gavdalantirish davrning tarixiy-adabiy ehtiyojiga aylangan edi. Jadid mafkurasiga ko‘ra olamni yangicha idrok qiladigan, din va dunyo ilmini egallagan, ma’rifiy-iqtisodiy sohadagi islohotparvar, jahoniy yangiliklardan xabardor taraqqiyparvar – O‘zbek xarakterini yaratish bosh maqsad edi. Bu davrgacha adabiyotning ideali qanday tarzda tasvirlangan degan savol tug‘iladi.

Adabiyotning obyekti inson ekan, uning zimmasidagi bosh vazifa ham insonni komillikka yetkazish hisoblanadi. Sharq-musulmon xalqlarida komil inson axloqiy-estetik idealning oliy maqomi sanalgan. Payg‘ambarlar va sahobalar, ulug‘ avliyolar, buyuk zotlarning hayoti Turkiston xalqlari uchun ibrat, to‘g‘rirog‘i, ideal-namuna vazifasini bajargan. Mumtoz adabiyotimiz an’analarining davomchisi sanalgan jadidlar tarbiya masalaga jiddiy e’tibor qaratishgan. Fitrat “Oila”, Behbudiy “Hifzi sihati oila” (“Oila sog‘lig‘ining himoyasi”), Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani millat hayot-mamotini

belgilab beruvchi faktor sifatida o‘rganishgan. Islomiy madaniyat va ma’rifat ta’limotining vorislari bo‘lmish Turkiston jadidlari ijtimoiy ideal g‘oyasini ilgari surdilar. *“M.Shermuhamedov, Xoji Muin, A.Zohiriy kabilarning badiiy adabiyotning mamlakat, xalq taraqqiyoti, ma’rifat uchun xizmatga yo‘naltirishi kerakligi haqidagi g‘oyalari sekinlik bilan bo‘lsa-da ijodkorlarga ta’sir kuchini o‘tkazdi. Adabiyot ijtimoiylikka qarab siljiy boshladi. Bu hol Tavallo, A.Avloniy, Mirmuhsin, Xurshid, Shavkat, Mirzo Toshkandiy, Nozimaxonim kabi adiblar ijodida yaqqolroq ko‘rina boshlaydi” ...*” [3:56.].

Jadidlar komil inson orqali jamiyat hayotini o‘zgartirish istagini odamlarga san’at orqali ta’sir qilishni maqsad qiladi. Bunda odam o‘zgarsa olamni o‘zgartirish mumkinligi nazarda tutildi. Estetik ideal davr va jamiyat hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir davr o‘z idealini yaratadi. Dastlab jadid davri nasrida estetik ideal millatni ozod va mustaqil ko‘rishni orzulagan ma’rifatparvar ziyoli qiyofasida gavdalandi. Sho‘ro davriga kelib yolg‘on g‘oyalarni tarannum etuvchi soxta, o‘tkinchi ideallar yaratildi. Bu esa adabiyotni asl ildizlaridan yiroqlashib ketishiga olib keldi. Idealsizlik adabiyot uchun jon tomiridan uzilish demakdir.

Estetik idealda ijodkor maqsadi inson va jamiyat haqidagi tasavvuri, dunyoqarashi badiiy tafakkuri bilan uyg‘un tarzda namoyon bo‘ladi. Bu esa ijodkor estetik idealini belgilashda muhim unsur vazifasini bajaradi. “Xalq o‘zining oliy darajadagi milliy idealini yaratar ekan, nafaqat idealga nisbatan muhabbatni, balki o‘zi yashayotgan tuzumga nisbatan nafratini ham ifodalaydi...” [4:32.]. Estetik ideal – tarixiy kategoriya sanalib, har bir davrning ideali ijodkorning estetik didini o‘zida mujassam etib, uning orzu-armon, istak-xohishlarining badiiy umumlashmasidir.

Milliy uyg‘onish davri adabiyotida janr va turlar, uslub va usullarning poetik takomiliga yo‘l ochildi. Adabiyot tarixida jadid adabiyoti deb ataluvchi tarixiy adabiy jarayonning yuzaga kelishga zamin tayyorladi. Millat fidoyisi M.Behbudiyning 1911-yilda yozilib, 1913-yilda nashr etilgan “Padarkush” dramasi orqali milliy dramaturgiyaga asos solindi. M.Shermuhamedovning “Befarzand Ochildiboy”, Hamzaning “Yangi saodat”, Cho‘lponning “Do‘xtir Muhammadiyor” asarlari milliy nasrning dastlabki namunalari sanaladi. Mazkur asarlarda ijtimoiy ideal sifatida yagona najot ma’rifat tasvirlandi. Bu davr namunalarida tarbiyaviylik va pand-nasihat ustuvor bo‘lib, adabiyotning ijtimoiy mavqeyiga ko‘proq urg‘u berildi.

Ma’rifat va jaholat mavzusi A.Fitrat ijodida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ldi. Uning “Oq mozor”, “Me’roj”, “Qiyomat”, “Zahroning imoni”, “Shaytonning Tangriga isyoni” asarlari yozuvchi tafakkuridagi evrilishlarni o‘zida aks ettirishi bilan e’tiborga loyiq. Mazkur asarlarning aksariyati diniy mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida davr muammolarini ham ochib beradi. Juda ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan mazkur asarlar turli davrda har xil talqin etildi. Holbuki, Fitrat ijodida din va millat qayg‘usi asosiy g‘oya sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Fitratning ijodiy ideali zamonasining ziddiyatlari, kurashi oralig‘ida tiriklik mazmunini izlayotgan taraqqiyparvar shaxs qiyofasida jonlanadi. Fitratning “Munozara”, “Bayonoti sayyohi hindi”, “Oila”, “Rahbari najot” asarlarida “o‘z millatining saodati va osoyishi uchun” qayg‘uruvchi qahramonlar ijodkor idealini o‘zida aks ettirdi. Muallif hikoyalardagi xayol va tush, qahramon kechinmasini ochib berishda qahramon taxayyulidan usul sifatida foydalanish evaziga o‘zbek nasrining poetik imkoniyatini boyitishga xizmat qildi deyish mumkin.

Fitrat singari Abdulla Qodiriy ijodida ham komillik masalasi, din va millat qayg‘usi bosh g‘oya sifatida o‘zaro bog‘liq holda ochib berildi. A.Qodiriyning “Juvonboz”, “Baxtsiz kuyov” asarlarida ma’rifat va johillik bir-biriga zid qo‘yildi. Mazkur asarlarda yozuvchi jadid ma’rifatparvarligiga ko‘ra voqelikni “ko‘rsatish” o‘rniga “voizxon”lik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Bu esa muallif ijodida hali estetik idealning xiraligini ko‘rsatadi. Adabiyotni sa’nat hodisasi sifatida qabul qilgan yozuvchi keyinchalik yozganlarida estetik idealga boshqa tarzda yondashganiga guvoh bo‘lamiz. Adib “Uloqda” hikoyasida Turg‘un obrazi orqali xalq orasida mashhur bo‘lgan uloqni hayot mazmuniga aylantirgan insonlar qiyofasini ochib berishni maqsad qiladi. Turg‘unning bobosi, otasi, akasi hayoti misolida umrini uloq singari ko‘cha tomoshalarga boy berayotgan xalq, bu hol yoshlar hayotida ham an’ana tarzida davom etayotganligi hayotiy misollar yordamida ochib beriladi. Abdulla Qodiriyning dastlabki asarlarida farzandlarning ilm olishi, savodli bo‘lib dunyo tanishi kabi masalalarga keragidan ortiq tarzda urg‘u berilishi tarbiyaviy ruhning yetakchilik qilishini ko‘rsatadi. “Uloq”da hikoyasidagi voqelik bola anglami va tuyg‘ulari vositasida ochib berilishi bilan o‘zbek hikoyachiligining nodir namunasiga aylandi.

Keyinchalik Abdulla Qodiriy zamondoshlaridan farqli ravishda Yangi o‘zbek xarakterini yaratish zaruratini anglab yetdi. Ehtiyoj va yangilanish hosilasi sifatida yuz ochgan “O‘tkan kunlar” romani estetik ideal tasviri aniq va tiniqligi bilan muallif tafakkuridagi yangi bosqichdan xabar beradi. Yozuvchiga ko‘ra u yaratgan yangi xarakter millat ruhiyatini yangilashi, yangi tipdagi odamga aylanishi lozim. Yangi odam – dunyoqarash va tafakkur tarzi eski qoliplardan voz kechuvchi, inqilobiy o‘zgarishlar arafasidagi shaxs. Aynan Otabek muallif ixlosi sezilib turgan namuna (ideal) maqomidagi – Yangi o‘zbek qiyofasida gavdalandi. Madrasaning “peshqadam” tolibi va dunyo ko‘rgan savdogar, zamonasining faol ziyolisi, davr siyosatini tushungan mustaqil shaxs, shuningdek, barcha sohada islohot tarafdori. Fikrlashi va dunyoqarashi, oila qurish borasida kutilmagan gaplari bilan davra

ahlini “og‘ziga” qaratgan Otabek nafaqat yozuvchining ideali, balki jadidlarning orzusini o‘zida jamlagan qahramon timsolidir.

Yozuvchi Otabek, Yusufbek hoji, Anvar misolida ijtimoiy-estetik idealning betakror qiyofasini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Qodiriy Otabek, Anvar obrazida XX asr boshlarida Turkiston ziyolisi, savodxon yoshlari qiyofasini aks ettiruvchi estetik idealini umumlashtirdi. Bu obrazlar qiyofasida *O‘zbek xarakterini va islom ma’rifatini* ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, yozuvchi asarlarining o‘ziga xos, betakrorligini ta’minlagan.

Jadid davri nasrida Behbudiy, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davr nasrida ma’rifat va johillik zidlangan bosh g‘oya sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Jadid adabiyoti estetik ideali milliy va diniy qadriyatlarni mahkam tutgan, dunyo tanigan, barcha sohada islohot tarafdori bo‘lgan, yurt istiqloli orzusidagi millatparvar ziyoli qiyofasida jonlandi. Bu davr nasri o‘zbek adabiyotining noyob durdonasi sifatida adabiy-estetik ahamiyatga molik madaniy-ma’rifiy xazina sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho‘lpon. Adabiyot nadir. – Toshkent: Cho‘lpon,1994.
2. Zohiriy A. Ona tili // Sadoi Farg‘ona, 1914. № 3.
3. Jalolov A., O‘zganboyev H. O‘zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o‘rni. – Toshkent: Fan, 1993. 56-bet.
4. Лихачев Д. Заметки о русском // Новый мир. 1980, № 3. – С.32.

Nazzora BEKOVA,
Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d.(DSc),
Bahriddinova DILNURA,
BuxDU Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

BUXDU AXBOROT RESURS MARKAZIDA SAQLANAYOTGAN QADIMIY TOSHBOSMA KITOBLAR TAVSIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada Buxoro davlat universiteti axborot resurs markazidagi nodir kitoblar, noyob va alohida qimmatli toshbosma nashrlar haqida ma’lumotlar berilgan. Buxoro davlat universiteti bosh kutubxonasining tarixiy manbalar bo‘limida necha yillardan buyon saqlanib kelinayotgan qadimiy toshbosma asarlar bugungi kunda o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay ahamiyatini saqlab kelayotgani yoritib berilgan. Maqolada keltirilgan asarlarda inson turmushidagi hodisalar chuqur amaliy asoslar bilan ijobiy nuqtadan sharhlab berilgan.

Kalit so‘zlar: *toshbosma kitoblar, kitobat san’ati, bosmaxona, manbashunoslik, devon, qo‘lyozma nusxa, darslik, nashr.*

Аннотация: в данной статье представлена информация о редких книгах, в том числе об уникальных и особо ценных литографиях, находящихся в Центре информационных ресурсов Бухарского государственного университета. Объяснено, как древние литографии, многие годы хранящиеся в главной библиотеке Бухарского государственного университета, сохраняют свое значение, не теряя при этом своей ценности. В представленных в статье произведениях события человеческой жизни трактуются с позитивной точки зрения, имеющей глубокие практические основания.

Ключевые слова: *литографские книги, книжное искусство, типография, источниковедение, библиотека, рукописный экземпляр, учебник, издание.*

Annotation: this article provides information on rare books, including unique and especially valuable lithographs, in the Information Resource Center of Bukhara State University. It has been explained how the ancient lithographs, which have been preserved for many years in the main library of Bukhara State University, retain their importance without losing their value. In the works presented in the article, events in human life are interpreted from a positive point of view with deep practical reasons.

Key words: *lithographic books, book art, printing house, source studies, library, manuscript copy, textbook, publication.*

Kitobat san’ati Sharq madaniyatining qadimiy va nodir turlaridan biri. Kitob Sharqda qadimdan izzat-ikromda bo‘lgan. Unda Vatan va millat tarixi, ilm, fan sirlari, kishilarning falsafiy va estetik qarashlari, turmush tarzi, orzu umidlari o‘z aksini topgan. Sharq kitoblarini sharqona donolik, ma'naviy barkamollik timsoli sifatida e'tirof etadilar. Unda xattot, naqqosh, rassom, muqovasoz, zarhal harf yozuvchisining yuksak mahoratli ishlab chiqarishdagi yuksak saviyasidagi asarlar darajasiga yetkazilgan.

O‘rganilgan manbalar orasida tarixiy, diniy, badiiy-falsafiy, islomiy-shar'iy, didaktik, adabiy, folklor va tilshunoslik

mavzularda yozilgan asarlar jamlanmasidan har bir soha vakillari bilimlarni boyitishlari mumkin. Men ushbu kutubxonada saqlanayotgan bir necha asarlar bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldim. Ular Amir Xusrav Dehlaviyning “Chor Darvesh” asari bo‘lib eski turkiy tilda yozilgan. Asarning muqovasi ko‘k rangli bo‘lib yuza qismidagi ikki naqshda tillo suvi yugurtirilgan va asar yaxshi holatda saqlanganligi uning ko‘rinishidan ma’lum. Ustozimiz Komiljon Rahimov tuzgan katalogda ushbu asarning Toshkent “Portsev” bosmaxonasida toshbosma holida nashr etilganini tarjimon va noshir Mullo Mir A’zam ibn Mir Sulton ekanligini va yana ushbu asar haqidagi ayrim noaniqliklar ham bor ekanligini ya’ni ayrim manbashunoslar ushbu asar hind xalq ijodiga tegishli namunalar deya baholashganligini ham e’tirof etib ketgan. bundan tashqari 30-inventar raqam ostidagi Husayn Voiz Koshifiyga tegishli “Anvori Suhayliy” toshbosmasining hindistonda nashr etilgan forscha nusxasining yaxshi holatda saqlanganligini muqovasi sariq rangda ekanligini va yana o‘lchamlari va yuzidagi muhrlar haqida atroflicha ma’lumot aytib o‘tganlar.

TOSHBOSMA KITOBLAR RO‘YXATI:

اسمعيل بن مصطفى الكلنبوي

“Hoshiyat ul-Kalanbaviy ala Jaloliddin ad-Davvoniy faqoid alazudiya”

حاشية الكلنبوي على جلال الدين الدواني في شرح العقائد العضدية .Toshbosma.

“Yosini sharif” – Sankt-Peterburgdagi imperator kutubxonasida saqlangan Usmon Mus’hafi (644-656) dan olingan nusxa. Ushbu asar kufiy xatida yozilgan. 1905-yili Sankt -Peterburgda qrimlik ma’rifatparvar olim Ilyos ibn Ahmadshoh al-Burog‘oniy al-Krimiy tomonidan imperatorning maxsus nazorati ostida 50 nusxada faksimel tarzda chop etilgan. Tili – arabiy. 22 betdan iborat, 20 beti saqlanib qolingan. Hajmi 40x37sm. Noyob kitob

“Tafsiri Husayniy” – Muallifi Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) Munbay (Hindiston) Muhammadiy bosmaxonasida 1312/1894 chop etilgan. Tili – arabiy va forsiy. Hajmi 968 bet 34x25sm. Muqovasi o‘ziniki. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan. Buxoro madrasalarida tafsir fanidan darslik sifatida o‘qitilgan.

“Siypora” (Qur’oni Karimning o‘ttizdan biri) - toshbosma asar Qozonda 1917-yil chop etilgan. Tili arabiy. Hajmi 79 betdan iborat 23x16sm. Qur’oni Karimning 7 ta surasi jamlangan. Titul varag‘i mavjud emas.

“Haftiyak” – toshbosma asar Qozonda 1917-yil chop etilgan. Tili arabiy. Hajmi 34 betdan iborat 26x12sm va 17x12. Kitob noqis, muqova va titul varag‘i mavjud emas. Oxirida “Habib” duosi xosiyati va Nosiriddin afandi bilan bog‘liq hikoya turkiyda yozilgan.

“Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo” – Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida Jannat bog‘i. Muallifi Mirxond (1433-1498). Lakhnav (Hindiston) Munshiy nulkishvar bosmaxonasida 1312/1905 chop etilgan. Tili – turkiy. Hajmi – 1-jild 270 bet, 2-jild 324 bet. Jami – 594 bet. 35x27sm. Muqovasi o‘ziniki, qo‘lyozma yaxshi saqlangan. Buxoro madrasalarida lug‘at va tarixdan darslik sifatida o‘qitilgan.

“Kulliyoti Temurnoma ba forsiy” – muallifi noma’lum. Noshir – Mirzo Muhammadqosim ibn Mirzo Abdulxoliq Buxoriy. Toshkent “Gulom Hasan Orifjonov” bosmaxonasi. Tili – forsiy. Hajmi 441 bet. 34x21 sm. Muqovasi qattiq, o‘ziniki. Qo‘lyozma yaxshi holatda saqlangan. “Temurnoma”ning yana bir fors tilidagi toshbosma nusxasi bo‘lib, “Kulliyoti Temurnoma deb yuritiladi.

“Majmua” – darsliklar to‘plami. 1. “Siroh fi-l-lug‘ot. 2.”Zamimai Latifa”. 3.”Takmila” 4. “Quroh” 5. “Nur us-saboh”. Noshir: Sayyid Abdulqayyum. Hindiston, Konpur, “Qayyumiy” bosmaxonasida chop etilgan 1829. Tili arabiy va forsiy 630 bet. 32x24. Buxoro madrasalarida lug‘atshunoslik fanidan o‘qitilgan darsliklar to‘plami.

“Maorij un-nubuvka fi madorij al-futuvka” (“Futuvvat pillapoyasida payg‘ambarlik me’roji”) Muniddin Farohiy Hirotiy vafoti 1501. Toshbosma 4 jild. Mumbay (Hindiston) Muhammadiy bosmaxonasi. Tili forsiy. 872 bet. 28x21. Muqovasi yo‘q.

“Nodir ul-me’roj va bahr ul-asror”, ya’ni “Me’roj durdonasi va sirlar dengizi”. Shayx ul-olam Akbarobodiy 1044/1635-yilda ishlagan. Noshir: Hoji Siddiqxo‘ja Xo‘jandiy. Hindistonda Nulkishvar bosmaxonasida chop etilgan. Tili forsiy, hajmi 656 bet 33x21. Kitob butun saqlangan. Muqovasi bor, yashil kartondan. Payg‘ambarimiz (S.a.v.)me’rojlari haqida oyat va hadis, rivoyatlar jamlangan.

“Sharhi Mullo Jomiy” (“Mullo Jomiyning Sharhi”) Abdurahmon Jomiy. Hindiston Mustafoiy bosmaxonasi 1303/1885. 380 bet 33x24. Kitob butun saqlangan, muqovasi bor, yashil kartondan. Buxoro madrasalarida arab tili grammatikasi fanidan o‘qitilgan darslik. “Sharhi Mulla Jomiy” asarini o‘rganishning foydalarini sanab o‘tar ekanmiz, ulamolar undagi qoidalarni va kitobda muallif bayon qilgan ma’nolarni tushunib yetib, undagi barcha masalalarni qalbiga joylagan kishi, albatta, ilmda yuqori martabaga Alloh taoloning izni bilan erishishini ta’kidlab o‘tishgan.

“Majmua” (Madrasa darsliklari to‘plami)

1. “Aqoidi Nasafiy ma'a hoshiyatiha”;
2. “Hoshiyai Mavlaviy ala sharhi Xayoliy”;
3. “Hoshiyai Mavlaviy Abdulhakim Siyolkutiy”.
4. “Hoshiyai Mavlaviy Muhammad Qosim”;
5. “Sharhi aqoidi Mavlaviy Ismatulloh”. Toshbosma.

Buxoroda 1900-yilda arabiy tilda bosilgan bo‘lib, 209-303-betdan iborat. Sahifa o‘lchami 27x17 sm.

Ismoil ibn Mustafo al-Kalanbaviy (1730–1790).

Istanbulning “Omira” bosmaxonasida 1307/1890 yilda arabiy tilda bosilgan. Asar 526 bet(5–526-betlar) dan iborat bo‘lib, sahifa o‘lchami 24x16 sm. Islom e'tiqodi (aqida)ga oid alloma ad-Davvoniyning “Sharh al-Aqoid al-azudiya ” asariga al-Kalanbaviyning yozgan hoshiyasi. Buxoro madrasalarida o‘qitilgan darslik. Avvalidan 4 beti yo‘q. Diniy-ilmiy asar.

Kitobning birinchi qismi to‘liq emas. 209-303-betlar. Old muqovasi yo‘q. Ushbu majmua Buxoro madrasalarida mantiq va aqoid fanlaridan darslik sifatida o‘qitilgan. Kitobning oxirida “Nikoh xutbasi” hamda nikoh o‘qish tartibi va odobi yozilgan qo‘lyozma varaq mavjud. Diniy-ilmiy asar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kutubxonadagi har bir asar biz uchun nihoyatda qiymatli va har bir asarni hozirgi kun manbashunoslari, tarixchilari, siyosatchilari, tilchilari o‘rganishganda ulardan arzirli ma’lumot topa bilishlariga ishonchimiz komil. Shu o‘rinda bir haqiqatni ham aytish joizki, asarlarning tabdil qilinishi esa alohida bir mas’uliyatni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқий Муҳсиний. – Тошкент, 2011
2. “Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo” Mirxond
3. Sharhi al-Jomiy kitobi. “Maktabat ul-Madiyana” nashriyoti, Pokiston.

Dilnavoz YUSUPOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
professori, filologiya fanlari doktori

ALISHER NAVOIY IJODIDA TARSI’ SAN’ATI

Annotatsiya: maqolada lafziy san’atlardan biri bo‘lmish tarsi' san’atining mumtoz adabiyotimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodidagi o‘rni tahlil qilingan. Maqola muallifi Alisher Navoiy garchi badiiy san’atlarga doir maxsus asar yozmagan bo‘lsa-da, o‘zining ko‘plab nasriy asarlarida badiiy san’atlarga doir o‘z qarashlarini bildirib o‘tganligini ta’kidlaydi. Maqolada tarsi' badiiy san’ati ham nazariy, ham amaliy jihatdan maxsus tadqiq etilib, mazkur san’atning shoir badiiy mahoratini ochib berishdagi ahamiyatiga diqqat qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *ilmi badi', shakliy san’atlar, tarsi', ruboiy, qofiya.*

Annotation: the article analyzes the role of the artistic technique of Tarsi in classical literature, in particular, in the works of Alisher Navoi. Although Alisher Navoi did not write a special work about artistic techniques, he emphasizes his views on this subject in many of his prose works. The article emphasizes both theoretical and the practical art of artistic research, and the importance of taking Tarsy in the disclosure of the poet’s artistic skills.

Key words: *science of techniques, formal techniques, tarsi’, quatrain (rubai), rhyme.*

Kirish. Musulmon Sharqi poetikasining tarkibiy qismlaridan biri nutqqa bezak beruvchi san’atlar, ularning o‘ziga xos jihatlari, fikrni go‘zal va mazmunli ifodalash usullarini o‘rganuvchi soha – ilmi badi’ bo‘lib, uning asosini mumtoz she’riyat, ba’zan nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo‘llanilayotgan badiiy san’atlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib ilmi badi’ sanoyi’ ilmi deb ham yuritiladi.

Ilmi badi’ga doir dastlabki asarlar arab tilida yaratilgan bo‘lib, ularga Ibn Mu’tazning «Kitob ul-badi’» (IX asr), Nasr binni Hasanning «Mahosin ul-kalom» (IX – X asrlar), Qudama ibn Ja’farning «Naqd ush-she’r» (X asr) asarlari kiradi. Ilmi badi’ fors-tojik adabiyotshunosligida o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Umar Roduyoniyning «Tarjumon ul-balog‘a» (XI asr), Rashididdin Vatvotning «Xadoyiq us-sehr» (XII asr), Shams Qays Roziyning «Al-mo‘jam» (uchinchi qismi, XIII asr), Vohid Tabriziyning «Jam’i muxtasar» (XVI asr) kabi asarlari shu sohaga bag‘ishlangan mumtoz asarlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Turkiy tilda ilmi badi’ masalalari nazariy jihatdan aks etgan dastlabki asar sifatida Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog‘a» (1436 – 1437) risolasini keltirish mumkin. Risolaning uchinchi qismi badiiy san’atlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda 97 san’at turi haqida so‘z boradi.

Ilmi badi’ga doir nisbatan mukammalroq asar Atoulloh Husayniyning «Badoyi’ us-sanoyi’» (XV asr) risolasi bo‘lib, unda ilmi badi’ tarixida ilk marta

badiiy san’atlar uch katta guruhga: ma’naviy, lafziy va mushtarak san’atlarga ajratilgan.

Alisher Navoiyning ilmi badi’ga doir qarashlari

Alisher Navoiy ilmi badi’ga doir maxsus asar yaratmagan bo‘lsa-da, o‘zining «Majolis un-nafois», «Xamsa», «Mahbub ul-qulub», «Muhokamat ul-lug‘atayn» va boshqa ko‘plab asarlarida ilmi badi’ning ba’zi nazariy jihatlariga to‘xtalib o‘tadi. Ushbu asarlar tarkibida buyuk so‘z ustasining ba’zi badiiy san’atlar haqidagi yo‘l-yo‘lakay qaydlari ham Alisher Navoiyning Sharq mumtoz poetikasi, xususan, ilmi badi’ni chuqur bilganligi, o‘zigacha mavjud badiiy san’atlarni mukammal o‘rganib chiqib, ularga daqiq she’rshunos sifatida munosabat bildirganligiga yaqqol dalildir.

Navoiy o‘zining filologiya sohasiga doir asarlarida ilmi badi’ga doir ba’zi istiloh va atamalar sharhiga to‘xtalib, o‘z qarashlarini bayon etadi. “Majolis un-nafois”da Atoulloh Husayniyning ushbu ilmga doir risola yozganligini ta’kidlab, shunday deydi: “Mir Atoulloh... Bovujudi donishmandlik, she'r va muammo va sanoye'da dag‘i mahorat paydo qildi va muammog‘a ko‘p mashg‘ul bo‘lur erdi. Holo sabaq kasratidin anga avqoti vafo qilmas, ammo sanoye'da kitobe tasnif qilibdur. “Badoye'i Atoyig‘a” mavsumdur”.

«Majolis un-nafois»da shoirlarning badiiy mahoratiga baho berishda maqlubi mustaviy (misra yoki bayt tarkibidagi ibora yoki jumlalarning teskari o‘qilganda ham ma’no anglatishiga asoslangan badiiy san’at)ga to‘xtalar ekan, Atoulloh Husayniyning bir baytini tahlil etadi va uning mahoratini aniqlash uchun ushbu san’at qo‘llangan bayt kifoya qilishini aytadi: «Bovujudi ixtisor maqlubi mustaviy san’atidakim, andin mushkulroq san’at bo‘lmas, bu bayt ul risolada aning xossa baytidurkim:

Shakkar dahano g‘ame nadoriy,
Dayr o daniyi mug‘ona darkash.
Aning tab’i diqqatig‘a bu bayt dalili basdur».

Shuningdek, Mavlono Shihob nomli ijodkorga baho berar ekan, uning tabiatida bo‘lgan o‘zgarishni maqlubi mustaviy san’ati asosida yozgan she’riga bog‘lab talqin qiladi:

Mushi xari farrux shavam,
Darki raqam qar kard.

Bunda har bir misra alohida teskari holda o‘qilganda yana o‘sha misra hosil bo‘ladi. Lekin baytda shaklga e’tibor kuchayib ketib, ma’noga putur yetgan. Birinchi misra «Farrux eshagining sichqoni bo‘lay» degan mazmunni bildirgani holda, ikkinchi misradan ma’no anglashilmaydi.

Shuningdek, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da omonimlik va so‘zlarning ko‘p ma’noliligi jihatidan turkiy tilning imkoniyati kengligini, ularning she'riyatda turli nozik ma’nolarni ifodalashdagi ahamiyatini (ot, it, bor, sog‘in, tuz, ko‘k kabi so‘zlar talqinida) ko‘rsatar ekan, shu orqali tajnis va iyhom san’atiga asos bo‘ladigan so‘zlarning forsiy tildagiga nisbatan ko‘pligini misollar bilan isbotlaydi, aynan tajnis orqali vujudga keladigan va forsiy she'riyatda qo‘llanilmaydigan tuyuq janrining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib beradi.

Navoiy she’riyati va badiiy san’atlar

Navoiy ijodining badiiy qimmati, shoir san’atkorligining o‘ziga xos qirralari uning badiiy tasvir vositalari va san’atlardan amaliyotda foydalanish yo‘llarida yanada konkretroq namoyon bo‘ladi. Navoiy lirikasida yuzdan ortiq badiiy san’atlar qo‘lanilgan bo‘lib, ularning ayrimlari misolida ham shoir badiiy tafakkurining yuksak darajasi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Shoirning badiiy san’atlardan foydalanish tamoyillarini quyidagi holatlarda ko‘rish mumkin:

Birinchidan, Navoiy ijodida badiiy san’atlarning qo‘llanilish usuli har bir she’rning mavzuyi va usluban qaysi turga mansubligi (tavsifiy, tasviriy, izhor, aralash) bilan bevosita aloqador. Masalan, muayyan timsol yoki predmet asosiga qurilgan g‘azalda boshdan oxirigacha biror san’at yetakchilik qilishi mumkin. Ikkinchidan, aksariyat she’rlarda badiiy san’atlar navbat bilan o‘zgarib boradi, natijada bitta she’r doirasida o‘nlab san’atlar ishlatiladi. Uchinchidan, bir qator she’rlar uchun (ba’zan bir bayt doirasida) bir nechta badiiy san’at yoki poetik usulning qo‘shilib ketgan holda – murakkab shaklda ishlatilishi xos holatlardandir. To‘rtinchidan, aksariyat hollarda shoir o‘z g‘oyaviy niyati ifodasi uchun bir badiiy san’atni birlamchi darajaga ko‘targani holda, boshqa san’atlarni uning ro‘yobi uchun xizmat qildiradi, boshqacha aytganda, shoir she’rlaridagi muayyan baytda ma’lum bir san’at yetakchidek ko‘rinsa-da, aslida, uning mohiyati baytda qo‘llanilgan boshqa san’atlar vositasida yanada yorqinroq ifoda kasb etadi. Beshinchidan, shoir qaysi bir san’atni qanday janr yoki maqsadda qo‘llamasin, har doim qat’iy tanosib talablari asosida ish ko‘radi. Ma’no, tasvir va tasvir unsurlarining o‘zaro mantiqiy mutanosibligi uning poetik tizimi uchun temir qonundir.

Alisher Navoiy ijodi va tarsi’ san’ati

Ma’lumki, tarsi' (ar. – gavharni ipga tizish) baytning birinchi misrasidagi barcha so‘zlarning ikkinchi misradagi so‘zlar bilan o‘zaro teng, vazndosh va qofiyadosh bo‘lishiga asoslangan badiiy san’at bo‘lib, bu san’at haqidagi dastlabki ma’lumot Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balog‘a” (11-asr) asarida keltirilgan bo‘lib, muallif tarsi’ni “baland darajada va sharif martabada” deb ta’kidlaydi.

Aynan shu asardan boshlab ilmi badi'ga doir barcha forsiy risolalar tarsi’ san’ati ta’rifi bilan ibtido topganligini ko‘rish mumkin. Tarsi’ san’ati g‘azal yoki qasida janrida qo‘llanganda asosan matla’da yuzaga keladi, chunki ushbu janrlarning qofiyalanish tizimi shuni taqozo etadi.

Alisher Navoiy asarlarida tarsi’ san’ati nazariy

jihatdan asoslangan bo‘lib, Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida Salmon Sovajiyning masnu' qasidasini ta’riflash munosabati bilan ushbu san’atga ta’rif beradi va Salmon Sovajiy qasidasidagi nuqsonni ham ko‘rsatib o‘tadi: “...tarsi' san’atikim, matla’din o‘zga baytda bo‘la olmas, ul qasidaning agarchi mustaxraj matla’i rostdur, ammo asli matla’da avvalgi misra’ning bir lafzida taxalluf qilibdur va matla’ budurkim,

b a y t:

Safoi safvati ro‘yat birext obi bahor,
Havoi jannati ko‘yat bibext mushki tator”.

Bu o‘rinda Navoiy Salmon Sovajiyning qasida matla’ida qo‘llagan tarsi’ san’atida bir so‘zda (obi – mushki) taxalluf qilganini, ya’ni qofiya qoidasidan chetga chiqqanini ko‘rsatib o‘tadi.

“Majolis un-nafois”da esa Darvesh Mansur bir masnu' qasida bitganligi va uning matla’sida tarsi’ san’ati qo‘llanilganligi haqida ma’lumot beriladi:

Bas davidam dar havoi vasli yor,
Kas nadidam oshnoi asli kor.

Shuningdek, Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da ushbu san’at borasidagi o‘z mahoratini ham namoyish etadi: “Bu matla’ga tatabbu' qilg‘on ko‘p suxanvarlar va nazmgustarlar chun muqobalada debdurlar, lat yebdurlar. Bu faqirning matlai budurki,

b a y t:

Chunon vazid ba bo‘ston nasimi fasli bahor,
K-az on rasid ba yoron shamimi vasli nigor.

Basorat ahli mulohaza qilsalar bilurlarki, bu matla’ tarsi'ga voqe' bo‘lur, aybdin muarro va murassa’g‘a kelur, e'tirozdin mubarrodur”.

Alisher Navoiyning tarsi’ san’ati asosida yozilgan ushbu bayti Atoulloh Husayniyning “Badoye’ us-sanoyi’” asarida ham tarsi’ bilan bog‘liq o‘rinda keltirib o‘tilgan.

Alisher Navoiyning tarsi’ san’atidagi badiiy mahorati yana shunda namoyon bo‘ladiki, Navoiyga qadar arab, fors va turkiy she’riyatda hech bir ijodkor ruboiy janrini boshdan-oyoq ushbu san’at asosida yaratmagan edi. Bu haqda shoirning o‘zi shunday ma’lumot beradi:

“Bu nav’ she’rning ta’kid va mubolag‘asi uchun yana bir ruboiy ham debmenki, to Xalil binni Ahmad ruboiy qoidasin vaz’ qilibdur, tarsi’ san’atida ruboiy aytilg‘on eshitilmaydur, balki yo‘qtur va ul budurkim,

r u b o i y:

Ey rui tu kavkabi jahon oroye,
V-ey bui tu ashhabi ravon osoye,
Be mu tu, yo rab, chunon farsoye,
Gisui tu chun shabi fig‘on afzoye”

Tarsi’ san’ati Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi dostonlarda ham keng qo‘llanilgan.

Dardini najotim et, Ilohi,
Yodini hayotim et, Ilohi!

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida qo‘llanilgan badiiy san’atlarni o‘rganish shoir badiiy tafakkurining salohiyati, ona tilining cheksiz go‘zalliklaridan foydalanish iqtidorini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Хазойинул маоний. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2011. 1 – 4-ж.
2. Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2011. 6 – 8-ж.
3. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
4. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1 – 2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Тошкент: Sharq, 2016.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006.
6. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
7. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X – XV вв.). – М.: Наука, 1989.
8. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
9. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996.
10. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetika asoslari. Darslik. – Toshkent: AKADEMNASHR, 2020.
11. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998.
12. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.

Iroda PARDAYEVA,
SamDChTI dotsenti, (PhD)

SHOH VA BUYUK SHOIR DO‘STLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk ijodkor Alisher Navoiyning do‘sti Sulton Husayn Boyqaro bilan nafaqat davlatni odilona boshqarishda shu bilan birga Husayn Boyqaro bilan adabiyot, san’at va ijod sohasida ham hamfikr ekanligini isbotlovchi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Husayn Boyqaro, “Risola”, “Majolis un-nafois”, komil inson, Iskandar, shoh, ilohiy, ma’naviy.*

Аннотация : в этой статье приводятся данные, доказывающие, что друг великого творца Алишера Навои, Султан Хусейн Бойкара, был единомышленником не только в справедливом управлении государством, но и в области литературы, искусства и творчества с Хусейном Бойкара.

Ключевые слова: *Хусейн Бойкара, “Рисола”, “Маджолис Ун-Нафойс”, совершенный человек, Александр, падишах, божественный, духовный.*

Annotation: : this article provides data proving that the friend of the great creator Alisher Navoi, Sultan Hussein Boykara, was a like-minded person not only in the fair management of the state, but also in the field of literature, art and creativity with Hussein Boykara.

Keywords: *Hussein Boykara, “Risola", “Majolis Un-Nafois", perfect man, Alexander, tsar, divine, spiritual.*

Husayn Boyqaro shaxs sifatida buyuk xislat va xususiyatlar egasi bo‘lgan. Temuriy shahzodalar orasida chavandozlik va qilichbozlik bobida unga teng keladigani bo‘lmagan. Uning eng e’tiborga molik jihati shunda ediki, zulmni va yolg‘onchilikni hech qachon kechirolmas edi. O‘g‘illaridan birini odam o‘ldirgani uchun xuntalablarga topshirganligini keltirishimiz mumkin. Mazkur fazilatlar bilan bir qatorda, Husayn Boyqaro san’atga, adabiyotga o‘ta qiziquvchanligi bilan ham alohida o‘rin tutgan. Husayn Boyqaro 1469-yilda taxtni egallagandan so‘ng mamlakatda ilm-fan, adabiyot va san’atning gullab-yashnaganligi, undan bizgacha “Devon” va “Risola” meros qolganligi fikrimizning isbotidir. Navoiy haqida turkiy tilda nisbatan ilk batafsil ma’lumot berilgan, ilmiy va badiiy adabiyotda Navoiy timsolining talqini tavsiflangan asar Husayn Boyqaroning “Risola”si hisoblanadi. Akademik Sh.Sirojiddinovning fikricha, Navoiyning turkiy tildagi ijodiga voqean asosli va munosib baho bera olgan zamondoshlaridan biri sulton Husayn Boyqarodir. “Boburnoma”da qayd qilinishicha, Sulton Husaynning “tab’i nazmi bor edi, devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi Husayniy edi… vale mirzoning devoni tamom bir vaznda” edi. [1;247]

Adabiyotshunos olim Izzat Sulton “Navoiyning qalb daftari” nomli kitobida Husayn Boyqaro haqida fikr yuritib, quyidagi savolni qo‘yadi: “Alisher Navoiyning birinchi hamkori – Husayn Boyqaro qanday kishi edi?” Bu savolga kitob tuzilishidan kelib chiqib, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan ma’lumotlar orqali javob beradi.[6;270-275]

Zahiriddin Muhammad Boburning qayd etishicha, “Sulton Husayn mirzoning zamoni ajib zamone erdi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxsis Hiriy shahri mamlu erdi” . Adabiyotshunos olim Izzat Sulton bunga “Ravzat us-safo” asarining yettinchi jildida keltirilgan quyidagi ma’lumotni sabab qilib ko‘rsatadi: “… Amir Alisherning amirligi va Xoja Majididdin Muhammadning nayobati (podshohga o‘rinbosarligi) sababi bilan podshoh saltanati rivoj topib, mamlakatni idora qilish ishlari ravnaq kasb etdi”.[1;300]

Adabiyotshunos olim H.Qudratullayev ulug‘ shoir “Vaqfiya” asarida Husayn Boyqaro haqida so‘z yuritib, asosan, shohning davlatchilik uslubi va o‘zining bu ishda ko‘rsatgan ta’siri borasida keng ma’lumot berar ekan, “Muallif o‘sha davr nasriga xos o‘xshatish, mubolag‘a badiiy san’atlardan mohirona foydalanganligi, har bir ibora Husayniy xarakterini, uning shaxsiyatiga doir xususiyatlarni ochishga, to‘ldirishga qaratilganligini qayd etadi. Olim Navoiy nasridagi badiiyat o‘rta asrning aksariyat tarixiy, badiiy, sarguzasht asarlariga xos bo‘lgan an’anaviy lafzbozlikdan tubdan farq qilishini ta’kidlaydi va “Bunda muallifning yuksak mantiqiy fikrlashi, shoirona taxayyuli, uslubiga guvoh bo‘lamiz”, deya xulosa qiladi” [3;294]. Olimning bu xususdagi yana bir fikri diqqat talab qiladi: “E’tibor beraylik, Navoiy ijodini o‘rganganimizda, ko‘pincha, Husayn Boyqaro haqidagi fikrlarda takalluf bilan berilgan yuqori baholarga odatdagi hol, deb qaraganmiz. Yuqoridagi parcha (“Vaqfiya”dan olingan-I.P) ulug‘ shoir ijodi qirralarining nozik jihatlarini anglash imkonini beradi. Bu o‘rinda Navoiy nasriy asarida badiiy san’atlardan foydalanish, o‘xshatishlar, obrazlardagi jozibadorlik talqini alohida tahlilga muhtojligini ham ta’kidlash joiz” [4;295]

Navoiy Husayn Boyqaro hokimiyat tepasiga kelgandan keyin yozgan deyarli barcha asarlarida uni adabiyot va san’at, ilm-fan va hunar ahliga saxovatli homiy, adolatli, vatanparvar shoh sifatida qayta-qayta madh etadi, ta’rif-tavsif qiladi, u bilan faxrlanadi. Bu ta’rif-tavsiflarda haqiqat ham, mubolag‘a ham mavjud. Navoiy bu o‘rinda, bir tomondan, shohning ijobiy fazilatlarini ulug‘lasa, qo‘llab-quvvatlasa, ikkinchi tomondan, hukmdor xarakteridagi ayrim salbiy qirralarni maqtov yo‘li bilan bartaraf etishga harakat qiladi.

Keyingi yillarda Husayn Boyqaroning shohlik va shoirlik faoliyatini chuqur tadqiq etish ancha rivoj topdi. A.Abdug‘afurov, A.Hayitmetov, S.Erkinov, B.Valixo‘jayev, Q.Tohirov, D.Salohiy, F.Karimova, U.Sotimov, J.Jo‘rayev, B.Oqbo‘tayev kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida Husayniyning hali fanga ma’lum bo‘lmagan jihatlarini ochib berishgan.

O‘z badiiy salohiyati bilan Hazrat Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidan to‘laligicha butun bir fasl – *“Sulton sohibqironning latif tabi natoyijining zebolari, husn va jamoli zikrida va sharif zehni xasoisining ra’nolari ganj va daloli sharhidakim, har qaysi zamon safhasi bo‘stonida ranginlig‘ va ravonlig‘din gul’uzoredur sarvqad va har birisi davronarsasi gulistonida ravonlig‘ va ranglikdin sarvi ozodedur”*[1;100-124] deb nomlangan sakkizinchi majlisdan joy olgan Husayn Boyqaro Navoiyning badiiy mahoratini uning “Xamsa”si bilan bog‘liq tafsilotda ko‘rsatib beradi: “Xotirg‘a o‘zi (Navoiy) ning masnaviylaridan bir necha bayt kelurkim, bu aytiladurg‘on ma’noda nazm qilibturur va ul budur, masnaviy:

Men ul menki, to turk bedodidur,
Bu til bila to nazm bunyodidur.
Falak ko‘rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kabi nazm aro qodire…” [4;13]

Husayn Boyqaro o‘z davrining adabiy an’anasiga ko‘ra, Navoiy ijodiga baho berish orqali uning timsolini tasvirlashda badiiy tasvir usullaridan o‘z o‘rnida unumli foydalanadi: “…Valhaq, chun bu humoyun fursatta va bu ro‘zafzun davlatta “Xamsa” panjasig‘a ilig urdi va aning itmomiga jild kelturdi… Bu fasohat maydonining safdari va bu balog‘at beshasining g‘azanfari, bo vujudi ulkim ko‘p afsonalarda dilpazir tafsirlar berdi va tab’pisand islohlar qildi, bunyodining ibtidosidin savodining intihosig‘acha hamono ikki yildan o‘tmadi. Aytilg‘an avqot hisobg‘a kirsa, desa bo‘lg‘aykim, olti oyg‘a etmadikim, aning afsonalari ranginlig‘in va abyoti sehroyinlig‘in va tarokibi matonatin va ma’oniysi latofatin mutola’a qilg‘an kishi bilg‘ay va mulohaza qilg‘an kishi fahm qilg‘ay” [4;13-14]. Keltirilgan parchada muallif saj’ (fursatta-davlatta, urdi-kelturdi, safdari-g‘azanfari, ranginlig‘in-sehroyinlig‘in, matonatin-latofatin), sifatlash (humoyun fursat, ro‘zafzun davlat, dilpazir tafsirlar), istiora (fasohat maydonining safdari, balog‘at beshasining g‘azanfari), tashbeh (tab’pisand islohlar, rangin afsonalar, sehroyin abyot) kabi badiiy vositalar yordamida Navoiy timsolini betakror usulda tasvirlagan.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida, “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr” va boshqa asarlarida Husayn Boyqaro madhiga maxsus boblar, katta-katta lirik parchalar bag‘ishlaydi. Ularda Sulton Husayn Boyqaroni ulkan davlatning elparvar, dono va adolatli hukmdori sifatida ko‘rish istagi aks etadi, ana shu istak “Tarixi mulki Ajam” ning oxirgi qismida bitilgan masnaviyda ham o‘z ifodasini topgan.

“Tarixi mulki Ajam”ning shoh Iskandarga bag‘ishlangan fiqrasi nihoyasida ham Alisher Navoiy sakkiz baytdan iborat bir masnaviy keltiradi. Asardagi uchinchi masnaviy Sulton Husayn Boyqaro vasfi bilan tugaydi. Masnaviyni eronzaminning to‘rtinchi tabaqa salotini-sosoniylar sulolasi vakillari tarixi bilan boshlagan shoir unga o‘z zamonasi shahanshohi Sulton Husayn madhini ulab yuborish bilan aniq bir niyatni nazarda tutadi. U Sulton Husayn Boyqaro shoir tavsiflarini keltirgan shavkatli shohlardan ham martabasi balandroq, fazilatda yuksakroq ekanligini ta’kidlashni istaydi. Shoir fikrlarini Sulton Husayn tabiati va mulkdorlik faoliyatidan qator misollar, dalillar keltirish bilan asoslashga harakat qiladi. Chunonchi:

Birovgaki ro‘zi bo‘lib shohliq,
Zamirig‘a solsa Haq ogohliq [1;252].

Ogohlik - bu bilim va hikmat. Bilimsizlik, bilishni istamaslik, qiziqmaslik - bu g‘aflatdir. Dunyoni, odamni, olamni bilish, osmonu zaminni, quruqlik va suv ostini o‘rganish - ogohlik, ma’rifatli bo‘lishdir.

Ma’rifat – bu, avvalo, Ilohni anglash, shuningdek, olamni, dunyoni va o‘zlikni anglay olishdir. Anglash, tafakkur qilish insonning eng go‘zal fazilati. Anglamoq-ma’rifatning boshi, ogohlikning asosiy sharti.

Demak, inson (shoh) qachon o‘zligini anglay olsa, olamning, borliqning mohiyatiga tushunib yetsa, asl Yaratuvchini taniy olsagina ma’rifatli bo‘lar ekan.

Navoiyning o‘zbek tilida dastlab “Xamsa” yaratishi o‘z davri uchun chinakam buyuk ijodiy jasorat edi. Bu yuksak jasorat Husayn Boyqaro tomonidan ham tan olinib, u Navoiy ijodiy qobiliyatining betimsolligini shayx Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sini yozishga o‘ttiz yil, Amir Xusrav esa olti-yetti yil sarflagan bo‘lsa, Navoiyning bu ishga sarflagan vaqti ikki yil, aniqrog‘i, aytilgan vaqtlar hisobga kirsa, olti oyga yetmaganligi bilan ko‘rsatadi.

Husayn Boyqaro Navoiy nazmiga baho berar ekan, uning devonlarini ichi sof gavharlar (so‘zlar) bilan to‘la ulkan bir kemaga hamda pok ma’nolar bilan to‘la yulduz bo‘lgan falak varaqlariga o‘xshatadi: *“Yo‘qkim, masnaviy uslubida, balkim har sinf nazmkim, arab fusahosi-yu, ajam bulag‘osi tazyin beribdururlar va tadvin qilibtururlar, bu ham barchag‘a xoma surubdurur va ta’arruz etkurub tururkim, sharhi devonining fihristida mazkur va masturturur. Ne devon, Olloh, Olloh, jungekim, sofiyi alfozdin to‘la gavhar bo‘lg‘ay va sipehr avroqikim, pok ma’oniydin mamlu axtar bo‘lg‘ay”* [4;14]. Husayn Boyqaro Navoiyning nafaqat masnaviy uslubida, balki nazmning arab so‘z ustalari va ajam qalam ahli ziynat berib, devon tartib etib orolagan har sinf (janr)ida qalam surganligini va yutuqlarga erishganligi, bu yutuqlar devoni sharhi mundarijasida zikr etilgan va pardalanganligini e’tirof etadi. Navoiyning badiiy salohiyatiga baho berar ekan, she’riy usulni ham qo‘llaydi:

Dema devon, g‘amu dard ahlig‘a ofat de ani,

Kuymagu, shu'layi ham birla qiyomat de ani! [4;14]

Ya'ni, uni (Navoiy qalamiga mansub devonni) devon emas, g'amu dard ahli (oshiqlar)ga ofat, kuymak va shu'lasi bilan qiyomat deb ta'riflaydi.

Navoiy podshoh davlat mol-mulkini o'yin-kulgi, maishat, aysh-ishrat uchun emas, balki mamlakatda adolatni tiklash, o'rnatish uchun sarf etsa, shoh sipohlari bilan sitamlarni yo'qotish uchun dushmanga qarshi kurashgandek kurash olib borsa, deb orzu qiladi.

Har ishkim bo'lur muddaosi anga,
G'araz bo'lsa tengri rizosi anga [3;252] .

Mamlakat boshlig'i yuritayotgan har bir amalda, avvalo, xalqning orzu-umidlari, manfaatlari, maqsadlari ko'zda tutilgan bo'lsa, uning har bir amalidan Tangri rozi bo'lsa, deb umid qiladi.

Bo'lib saltanat taxtida faqrjo'y,
Shah o'lsa, vale bo'lsa darveshxo'y [3;252] .

Bu baytda Navoiy orzusidagi odil shohning eng mukammal qiyofasi aks etgan. Ham shohlik, ham darveshlik xislatlariga ega bo'lgan insonni hayotda uchratish mushkul. Agar shohda darveshlik alomati ko'rina boshlasa, shu ondayoq shohlik taxtini tark etgan. Bunga misol qilib, Ibrohim Adham tarixini ko'rsatish mumkin. Chunki shohlik va darveshlik biri ikkinchisini rad etadi. Biri bu dunyo o'tkinchi mol-dunyosiga shaydo bo'lib yashasa, ikkinchisi u olam muhabbati bilan yashaydi. Ikkisining bir kishida jamligini ko'rish hayot haqiqatiga to'g'ri kelmaydi. Navoiy bu xususiyatlarni Husayn Boyqaroda jamlash orqali Husayn Boyqaroni ana shunday xislat egasi bo'lishga, haq amri yo'lida adolatli ish yuritishga chorlaydi. Xuddi shu mazmunda Navoiy "anga" radifli bir g'azal yozib, unda shoh suratli va darvesh sifatli Shohi G'oziy - Husayn Boyqaroni madh etadi:

Har gadokim bo'ryoi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidin hojat emas xil'at anga.

"Mazkur g'azalda sufiylik sulukiga qadam qo'ygan shaxsning axloqi xususida gap yuritiladi, lekin xulosaviy fikr Husayn Boyqaroni xayolga keltirish bilan bayon etiladi. G'azalning davomida bayon etilishicha, podshoh faqirlikni odat qilib, faqrga suyanib ish tutsa, davlati kamol topadi. Agar u xalqparvar bo'lmasa, uning saltanati zavolga uchraydi... Lekin Navoiyning fikrlariga ko'ra, ham shohlik, ham darveshlik xususiyatiga ega bo'lish zamona podshohlari uchun qiyin bir jumboq edi. Biroq Husayn Boyqaro ana shu jumboqni enga olgan buyuk shaxs sifatida gavdalanadi…" [5;60 – 61].

Adabiyotshunos O.Davlatov shoir ijodida adolatga quyidagicha umumiy fikr bildirib o'tgan: "Navoiy adolatni keng ma'noda tushunadi, uni insonning axloqiy fazilatlarining yuksak shakli sifatida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, adolat eng yaxshi fazilat bo'lib, ayniqsa, jamiyatning ilg'or qismi – hukmdorlar tabaqasida bo'lishi shart. Aslida, adolat – kishilar o'rtasidagi tenglikni nazorat qilishdir. Bir toifa ikkinchi toifaga tazyiq o'tkazmasligi, zo'ravonlik qilmasligi lozim. Navoiy adolatning huquqiy tomoni Qur'on va shariat qonun-qoidalariga so'zsiz amal qilishdan iborat deb tushungan. Yuqorida keltirilgan misol shuni ko'rsatadiki, islomda ham adolat bilan ish tutish Tangri taolo oldida namozu ro'za, zakotu hajdan afzalroq hisoblanadi.

Navoiy Sulton Husayn Boyqaroni barcha asarlarida odil shoh darajasida tasvirlab, uning mukammal qiyofasini aks ettiradi.

Husayn Boyqaro e'tiroficha, Navoiy so'z mulkining sultoni, qahramoni, sohibqironidir. Bu e'tirofdan ilhomlangan atoqli adabiyotshunos, taniqli shoir Maqsud Shayxzoda, ayni damda, Hazrat Navoiyga nisbatan barqaror va haqqoniy sifatlash bo'lib qolgan g'azal mulkining sultoni degan ta'rifni inkishof etdi.

Ko'rinib turibdiki, "Risola"da Navoiy kitobxon ko'z o'ngida buyuk sohibqiron, ya'ni nazm iqlimida har qanday berk qo'rg'on darvozasini ocholgan, har qanday ulug' mamlakatga ta'b lashkari bilan ot solib, u mamlakatni egallagan qahramon, ona tili ravnaqi uchun buyuk kurashchi, ulug' shoir sifatida gavdalanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, Navoiy timsolining o'zbek adabiyotshunosligiga kirib kelish tarixi Husayn Boyqaroning "Risola" asaridan boshlangan, deb ayta olamiz. Shu bilan birga, bu asarni navoiyshunoslik fanining o'zbek tilida yaratilgan tamal toshlaridan biri sifatida baholashga asosimiz bor, deyishga haqlimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. – Б. 100–124.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 16-жилд. – Тошкент: Фан, 2000. – 336 б
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент, Шарқ, 2002. – Б.334
4. Бойқаро Ҳ. Рисола. – Тошкент, Шарқ, 2016. – Б. 13
5. Ғаниева С. Алишер Навоийнинг "Мажолис ун-нафоис" асари ва самарқандлик шоирлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970.-№6.Б. 24-28.
6. Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – Б. 270–275.
7. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1977. – 460 б.

Durdona XUDOYBERGANOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti f.f.d.,prof.

O‘ZBEK TILI METAFORALARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI XUSUSIDA

Annotatsiya: maqolada o‘zbek tili antropotsentrik metaforalarining lug‘atini tuzishning ahamiyati va bunday lug‘atni tuzish tamoyillari haqidagi mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *metaforaning leksikografik talqini, antropotsentrik lug‘at, konseptual metafora, metaforik model, lingvomadaniy birlik, turg‘unlashgan assotsiatsiya, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik.*

Аннотация: в стате описывается важность создания словаря антропоцентрических метафор узбекского языка и принципы создания такого словаря.

Ключевые слова: *лексикографическая интерпретатсия метафоры, антропоцентрический словарь, концептуальная метафора, метафорическая модель, лингвокультурема, стереотип, прагмалингвистика, когнитивная лингвистика, лингвокультурология.*

Annotation: the article describes the importance of creating a dictionary of anthropocentric metaphors of the Uzbek language and the principles of creating such a dictionary.

Key words: *lexicographic interpretation of metaphor, anthropocentric dictionary, conceptual metaphor, metaphorical model, linguistic and cultural unity, stagnant imagination, pragmalinguistics, cognitive linguistics, linguocultural studies.*

Inson tafakkur qila olish qobiliyatiga ega bo‘lganidan boshlab o‘zini o‘zi o‘rganishga, o‘zini o‘zi tahlil qilishga kirisha boshlagan. O‘zligini izlash va kashf qilish ishtiyoqi, bir nafas bo‘lsa-da, insonni tark etmagan. O‘z shaxsiyatini mukammal o‘rganish istagi insonni o‘zini turli tomonlardan o‘rganishga, turli tomonlardan tasvirlashga yo‘naltirgan. Buning yorqin misoli sifatida madaniyatshunoslikda artefakt deb nomlanadigan predmetlarni keltirish mumkin. Toshdan yasalgan odam haykali, bo‘yoqlar yoki qalam bilan chizilgan odam surati kabi artefaktlarda inson nafaqat o‘zining tashqi tuzilishi, balki ichki dunyosini ham ifodalashga harakat qilishi ma’lum.

Insonning o‘zligini namoyon etuvchi vositalardan biri ramzlardir. Ramzlarning san’at asarlarida, badiiy asarlarda qo‘llanishi haqida ko‘p mulohazalar bildirilgan. Ibtidoiy inson tafakkuri dastlab obrazli-metaforik tarzdagi tafakkur bo‘lgani, uning intellektual darajasi yuqorilab borgan sari bu tafakkur tarzi ramziy tus olgani fanda isbotlangan.

Yuqoridagi mulohazalarni aytishdan maqsadimiz shuki, inson tafakkuriga xos bo‘lgan ramziylik uning tilida ham o‘z aksini topadi. Inson o‘zligini turli san’at asarlarida – haykallarda, suratlarda, badiiy obrazlarda namoyon qilishi bilan birga o‘z ona tilida ham o‘zining inson sifatidagi belgilarini ramziy xususiyatga ega bo‘lgan metaforalar vositasida ifodalab kelgan. Tilimizdagi odamga nisbatan qo‘llanuvchi tilla, farishta, gul, pari, chinor, it, ilon, shayton, eshak kabi metaforik ma’noli so‘zlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, ular insonning “so‘z orqali chizilgan suratlari” ekanini tasavvur qilishimiz mumkin.

Ma’lumki, metaforalarning nafaqat nutq bezagi, balki insonning obrazli tafakkuriga xos mental jarayonlardan biri ekanligi [1] umumtilshunoslikda e’tirof etilgan. Metaforalar til sohiblarining milliy tafakkuri va aksiologik nuqtayi nazarini namoyon etuvchi birlik ham hisoblanadi. Shuningdek, metaforik ko‘chim asosida yangi ma’no kasb etgan so‘z adresantning hissiy-subyektiv munosabatini aks ettirishi, tinglovchining esa his-tuyg‘ulariga ta’sir etib, muayyan assotsiatsiyalarni hosil qilishi mumkin. Binobarin, u pragmatik va psixologik belgilarni ham namoyon etadi. Metaforalarning yuqorida qayd etilgan kognitiv, psixologik, assotsiativ, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari uning antropotsentrik mohiyatidan dalolat beradi.

Jahon tilshunosligida metaforalarga bag‘ishlangan nazariy-tahliliy ishlarning miqdori juda ko‘p. [Qarang:2] Mazkur tadqiqotlarning aksariyatida metaforalarga semantik, stilistik, pragmatik, lingvomadaniy va kognitiv aspektlarda yondashilgan.

O‘zbek tilshunosligida ham metaforalar ancha batafsil o‘rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. [Qarang:2] Xususan, ushbu hodisaning kognitiv yondashuvda o‘rganilishi [2] o‘zbek tilining ifodaviyligini ko‘rsatuvchi mazkur birliklarning antropotsentrik tabiatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida metaforashunoslik yo‘nalishidagi dolzarb muammolardan biri metaforalarning antropotsentrik lug‘atini yaratishdir. Bunday lug‘atni yaratishning ahamiyati shundaki, birinchidan, lug‘atning so‘zligi o‘zbek tili turg‘un

metaforalarining bir yerga jamlanishiga xizmat qiladi. Metaforalarning antropotsentrik tavsifi esa o‘zbek tili sohiblarining voqelikni idrok etish tarzi – kognitiv faoliyati, aksiologik munosabati va ushbu munosabatning lisoniy shakllarda ifodalanish yo‘llari, ya’ni olamning lisoniy manzarasini yaratish usullari xususida muayyan xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Shu maqsadda O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan “O‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik lug‘ati”ni tuzish ishlari boshlandi. Mazkur maqolada ushbu lug‘atni tuzish tamoyillari haqida ma’lumot berishga harakat qilamiz.

Lug‘atning so‘zligi metaforik ma’noda qo‘llanuvchi, ushbu ma’nosi turg‘unlashgan so‘zlardan iborat bo‘lib, 6 jildli O‘TIL [4] dan va badiiy asarlar, matbuot nashrlaridan to‘planadi. So‘zlik qismi 3 ta guruhga ajratilgan: 1. Odam haqidagi metaforalar. Ushbu guruhga odam va uning belgilari, xatti-harakatlari haqidagi metaforalar kiradi. Masalan, ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘ri, lochin, gul, oy, asal, sayramoq, uchmoq kabi so‘zlar.

2. Tabiat haqidagi metaforalar. Ushbu guruhga tabiat hodisalari, tabiiy jarayonlar, tabiiy obyektlar haqidagi metaforalar kiradi. Masalan, ko‘chma ma’noda qo‘llangan gilam, injiq, yig‘lamoq, o‘kirmoq, shivirlamoq kabi so‘zlar.

3. Jamiyat haqidagi metaforalar. Ushbu guruhga ijtimoiy hodisalar va tushunchalar haqidagi metaforalar kiradi. Masalan, ko‘chma ma’noda qo‘llangan ildiz, gavhar, ostona, kitob, kurash, falaj qilmoq kabi so‘zlar.

Lug‘at maqolalarini quyidagi tarzda tuzish rejalashtirildi:

1. Izohlanuvchi so‘z. 2. Uning metaforik ma’nosi izohi. 3. Shu ma’noni izohlovchi illyustrativ misol. 4. Metaforik ma’noli so‘zning antropotsentrik izohi.

1-3-qismlarning tuzilishi an’anaviy izohli lug‘atlarning tuzilishi bilan bir xil. Masalan: **“AKILLAMOQ** Tayinsiz gaplarni gapirmoq. E-e, akillay berasan-da, Safar! ¬– dedi buqoq, – biz nima deyabbiz-ku, sen nima deyapsan! A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.”

Ko‘rinadiki, so‘zga berilgan izohda uning ko‘chma ma’nosi nazarda tutiladi.

4-qism esa antropotsentrik izohni o‘z ichiga oladi va bunda biz quyidagi yondashuvlarga asoslanishni ma’qul deb hisoblaymiz.

1. Kognitiv yondashuv. Yuqorida aytilganidek, metafora birinchi navbatda tafakkur birligi, dunyoni anglash vositasidir. Kognitiv tilshunoslikdagi nazariyalarga ko‘ra, ikki tushunchaviy maydonning kesishuvi natijasida uchinchi yangi maydon – konseptual metafora hosil bo‘ladi. Mental shakldagi ushbu birlik lisonga lingvistik metafora sifatida ko‘chib o‘tadi. Lingvistik metaforaning hosil bo‘lish jarayoni tilshunoslar tomonidan ko‘pincha kognitiv aysberg birikmasi bilan ifodalanadi. Bunda aysbergning yuza qismi – lingvistik metafora, uning ko‘rinmaydigan qismi esa ongdagi mental jarayonlar – kognitiv va konseptual metaforalarning yuzaga kelish mexanizmlaridir. Shu boisdan antropotsentrik izohda birinchi navbatda ko‘chma ma’noli so‘zning metaforik modeli ko‘rsatilishi lozim. Metaforik model – bu til sohiblari ongida mavjud bo‘lgan yoki shakllanadigan konseptual sohalar o‘rtasidagi aloqa sxemasi bo‘lib, uni ma‘um bir formula bilan ifodalash mumkin: ”X –Y”.[3] Metaforik modellar til sohiblari kognitiv faoliyatining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi omildir. Masalan, yuqorida izohlangan akillamoq so‘zi “Odam-hayvon” modelidagi metafora hisoblanadi. Itga xos harakatni ifodalovchi akillamoq so‘zining odamning nutqiy harakatiga nisbatan qo‘llanishiga “Odam-bu it” tarzidagi konseptual metafora asos bo‘lgan, ya’ni til sohibining fikrlash jarayonida odamning harakati itning harakatiga qiyoslangan. Akillamoq predikati ushbu qiyosning ifodachisi vazifasini bajargan.

2. Lingvomadaniy yondashuv. Ma’lumki, so‘zlarning metaforik ma’nosida har doim etnomadaniy uzvlar ham mavjud bo‘ladi. Bu mazkur birliklarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tavsiflashni ham taqozo etadi. Biz lingvomadaniy tavsifda lisoniy birlikning o‘zbek tili sohiblarining konseptosferasida tutgan o‘rnini, lingvomadaniy konsept sifatidagi vazifasini, uning aksiologik jihatlarini, ya’ni qadriyatlarga munosabatini yoritishni rejalashtirdik.

3. Psixologik-assotsiativ yondashuv. Metaforalar til sohiblari ongida turg‘unlashgan tasavvurlarni paydo qiladi. Masalan, odamga nisbat berilayotgan yuqoridagi akillamoq so‘zi tinglovchiga it so‘zini eslatadi. It so‘zi o‘zbek tili sohiblari tasavvurini ham ijobiy (It-vafo, xotin-jafo, itday sodiq) ham salbiy (itning keyingi oyog‘i, it emgan) turg‘unlashgan tasavvurlar (stereotiplar) bilan bilan bog‘laydi. Ushbu metaforada til sohiblarining salbiy aksiologik munosabati aktuallashgan. Bunday munosabat o‘zbek tilidagi Bo‘ynidan bog‘langan it ovga yaramas, itday quturmoq, itday qopmoq, it yotish, mirza turish kabi lingvomadaniy birliklarda ham o‘z aksini topgan.

4. Pragmastilistik yondashuv. Har qanday metaforaning hosil bo‘lishi muayyan pragmatik maqsadga bog‘lanadi. Metaforalar o‘z

semantikasida subyektiv munosabat bilan birga emotsional-ekspressivlikni ham namoyon qiladi. Xususan, bu obrazli metaforalarda yaqqol ko‘rinadi. Ayni vaqtda vazifaviy uslublarga xoslanish metaforalarga ham xosdir. (Masalan, akillamoq metaforasi asosan so‘zlashuv tilida qo‘llanib, so‘zlovchining salbiy subyektiv munosabatni ifodalashdan iborat pragmatik maqsadga xizmat qiladi.) Shunga ko‘ra, lug‘atda metaforalarning pragmastilistik xususiyatlarini ham izohlash lozim deb topildi.

Biz quyida yuqoridagi tamoyillar asosida izohlangan yo‘l va kuymoq metaforalarining izohini e’tiboringizga havola qilamiz.

YO‘L Muayyan shaxsning davomli tarzda, umrining oxirigacha amalga oshirgan ishlari, hayot tarzi, bunyod etgan narsalari, ilgari surgan g‘oyalari, kechirgan mashaqqatlari yoki baxtli kunlarini umumlashtiruvchi so‘z. Bu yil qutlug‘ yoshni qarshilayotgan ustozning hayot yo‘li va ish faoliyati haqiqatan ibratli. Gazetadan.

Jarayon – (masofali) obyekt modelidagi metafora. Inson haqidagi metaforalar guruhiga kiradi. Yo‘l so‘zi o‘zbek tilida umr, hayot so‘zlari bilan qo‘llanganidagina yuqoridagi metaforik ma’noga ega bo‘ladi. Yo‘l o‘zbek tili sohiblari tezaurusida konsept darajasidagi birlik hisoblanadi. Yo‘lning uzunligi, davomiyligi, nihoyasi borligi va ba’zan ravon, ba’zan notekis bo‘lishi til sohiblarining ushbu obyektni unga xos belgilar (umrning davomiyligi, yakuniga yetishi, hayotning ba’zan oson, ba’zan qiyin bo‘lishi kabilar) bilan muqoyasa qilishiga sabab bo‘lgan. Umr (hayot) yo‘li metaforasi asosan kitobiy nutqqa xos bo‘lib, tinglovchi ongida hayot uzun yo‘lni bosib o‘tish kabi mashaqqatlidir, tarzidagi turg‘un assotsiatsiyani qayta tiklaydi va obrazlilikni yuzaga keltirishdan iborat pragmatik maqsadda ishlatiladi. Yo‘l konsepti haqidagi milliy stereotiplar o‘zbek tilidagi yo‘l boshlamoq, yo‘ldan ozdirmoq, yo‘ldan qaytarmoq, yo‘li ochilmoq lingvomadaniy birliklarda o‘z aksini topgan.”

“KUYMOQ Iztirob chekmoq. Qoshing asli qoradir, o‘sma qo‘yganing yolg‘on, Sening uchun men kuydim, sening kuyganing yolg‘on. “Qo‘shiqlar”. Muhabbat o‘tida kuydim, faqirga Pisand ermas endi xavf-u xatarlar. Chorsham’.

Hissiyot – fizik jarayon modelidagi metafora. Inson haqidagi metaforalar guruhiga kiradi. Fizik jarayon hisoblangan kuymoq so‘zining insoniy tuyg‘ulardan birini ifodalovchi iztirob chekmoq so‘ziga nisbat berilishiga muhabbat (sevgi) – bu olov konseptual metaforasi asos bo‘lgan. Mazkur hissiyotning odam ruhiyatida ba’zan iztirobli tuyg‘ularni paydo qilishi, shuningdek, bu tuyg‘ularning nisbatan shiddatli tarzda kechishi uni olovga xos belgilar, ya’ni gurullab yonishi, baland haroratli bo‘lishi va inson tanasini kuydirishi kabi jarayonlar bilan qiyoslashga asos bo‘lgan. Bunda kuymoq so‘zi mazkur qiyosning ifodachisi vazifasini bajargan. Kuymoq metaforasi bilan bog‘liq etnomadaniy turg‘unlashgan tasavvurlar (stereotiplar) o‘zbek tilidagi yuragi kuymoq, ichi kuymoq, bag‘ri kuymoq, ishq o‘ti lingvomadaniy birliklarida o‘z aksini topgan. Kuymoq metaforasi badiiy, publitsistik, so‘zlashuv uslublarida faol qo‘llanadi va til sohiblari tomonidan emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltirish maqsadida foydalaniladi.”

O‘ylaymizki, “O‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik lug‘ati” o‘zbek lug‘atshunosligidan o‘ziga xos, yangi turdagi zamonaviy lug‘at sifatida o‘rin oladi hamda o‘zbek tilining antropotsentrik tabiatini yanada chuqur yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. — М.: Едиториал УРСС, 2004.

2. Махмараимова Ш. Оламнинг миллий-лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол.фан.бо‘йича фалсафа д-ри (PhD) автореф. – Qарши, 2018; Shu muallif. O‘збек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Филол.фан.д-ри дис. –Qарши, 2020.

3. Чудинов А.П. Политическая лингвистика. – М.:Флинта, Наука, 2012./ https://studfile.net/preview/9107652/.Murojaat sanasi: 2024-yil 20- may,15:00.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. I-VI jildlar. – A.Madvaliyev, D.Xudoyberganova tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022.

Dilfuza HASANOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)

BUVAYDA AREALI QIPCHOQ SHEVALARIDA SINGARMONIZM

Annotatsiya: maqolada Buvayda qipchoq shevalaridagi singarmonizm qonuniyati haqida fikr yuritiladi. Singarmonizm qonuniyati asosida sheva fonetik-fonologik tizimidagi tovush va fonemalarning o‘ziga xos voqelanish jarayonlari misollarni tahlilga tortish orqali yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Singarmonizm qonuniyati, lablanish, fonetik kuchsizlanish, tanglay va lab garmoniyasi, nazalizatsiya.*

Аннотация:в статье рассматривается закон сингармонизма в кыпчакских говорах Бувая. На основе закона сингармонизма путем привлечения примеров к анализу выясняются своеобразные процессы звука и фонем в фонетико-фонологической системе диалекта.

Ключевые слова: *закон сингармонизма, липизация, фонетическое ослабление, небная и губная гармония, назализация.*

Annotation: the article examines the law of synharmonism in the Kipchak dialects of Buvay. Based on the law of synharmonism, by involving examples in the analysis, the peculiar processes of sound and phonemes in the phonetic-phonological system of the dialect are clarified.

Key words: *law of synharmonicity, lipization, phonetic weakening, palatal and labial harmony, nasalization.*

Singarmonizm turkiy tillarning spetsifik hodisasi bo‘lib, u qadimdan mavjud. Lekin uning turkiy tillarda saqlanish darajasi har xil.

Ta’kidlash kerakki, turkiy tillar uchun palatal va labial singarmonizmning xosligi, palatal garmoniyada unlilar qatorga ko‘ra ohanglashuvi hech kimda e’tiroz tug‘dirmaydi. O‘zbek adabiy tilining hozirgi davri uchun garchi singarmonizm amal qilmasa-da, lekin o‘zbek shevalarida saqlanib kelayotganligi deyarli barcha shevashunos olimlar tomonidan e’tirof etiladi. Shu bilan birga, qatorga ko‘ra zidlanishni o‘zida saqlab kelayotgan o‘zbek shevalarida bir o‘rinda qator bo‘yicha korrelyatorlarning o‘zaro almashinib ma’no farqlashi mavjudligi qatorni unlilar uchun farqlovchi belgi sifatida ajratishga imkon beradi. Masalan, o‘zbek shevalarining ko‘pchiligida adabiy tildagi o‘t so‘zi o‘t – ɵt (organizm), o‘t (maysa, olov), o‘r (o‘tni o‘rmoq), ɵr (sochni o‘rmoq), ɵz (olmosh), o‘z (bosib o‘tmoq), үn (ovoz), un (g‘allaning tortilgani) kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. Bu so‘z orqali o‘zbek adabiy tilidagi orqa qator, o‘rta keng, lablangan o‘ tovushining fonematik xususiyatga ega old qator varianti. Bu unli fonema so‘z ma’nosini farqlash uchun xizmat qilishi mavjudligi o‘z isbotini topadi.

Biroq hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “o‘zbek adabiy tili singarmonizm qonuniyati amal qilmaydi” mazmunidagi fikrlarga zid hisoblanadi. Shuning uchun “hozirgi o‘zbek adabiy tili unli fonemalaridagi bu belgi tasnif asosi bo‘la olmaydi” [3.3].

Ammo adabiy tilda ham singarmonizm qonuniyati amal qiladi. Zotan uning ichki manbasi, ichki omili bu xalqimizning eng yuksak qadriyati bo‘lgan tili – shevalaridir. Nega amaliy jihatdan mavjud bo‘lgan qonuniyat nazariy jihatdan bo‘lmasligi kerak. Nega unda hozirgi turk adabiy tilida unlilarning ingichka (inja) yoki yo‘g‘on (kalin) ligi fonematik belgi sifatida qonunlashtirilgan?! O‘zbek adabiy tilida ham amaliy jihatdan bu qonuniyat amal qiladi. Sababi uning ildizlari o‘zbek xalqining qipchoq-qoraqalpoq lahjalaridagi qonuniyatlarga ham asoslanganligidir.

Buvayda tumani qipchoq shevalarida ham unlilar uyg‘unligi kuzatiladi. Lekin ularning o‘zak va affikslarga ta’sir darajasi bir xil emas. Har ikkala – tanglay va lab garmoniyasi Buvayda qipchoq shevalarida viloyatdagi boshqa shevalarga nisbatan kuchliroq. Lekin oltoy, xakas, boshqird va qirg‘iz tillaridagiga nisbatan kuchsiz.

Tanglay uyg‘unligining Buvayda qipchoq shevalaridagi ko‘rinishi:

a) o‘zakning birinchi bo‘g‘inida til orqa unlilardan biri bo‘lsa, so‘zning so‘nggi bo‘g‘inlarida ham til orqa (yoki qattiq) unli tovushlar ishlatiladi.

b) o‘zakning birinchi bo‘g‘ini til oldi (yumshoq) unlilardan biri bilan boshlansa, unda so‘zning keyingi bo‘g‘inlarida ham til oldi yumshoq unlilar ishtirok etadi.

Tanglay garmoniyasining bu asosiy qonuniyati Buvayda qipchoq shevalarida quyidagi ko‘rinishlarga ega:

1. so‘zning o‘zak qismi – tub leksik shakllarda. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlardagi birinchi bo‘g‘in tarkibidagi unliga qolgan bo‘g‘indagi unlilar uyg‘unlashadi – birinchi bo‘g‘indagi unli jihatlariga keyingi bo‘g‘indagi unlilar ham ega bo‘ladi. Masalan: bolыq (baliq), montы (manti), qotыq (qatiq), chochыq (sochiq), qoshqoldoq (qashqaldoq), chүməl (chumoli), tog‘oro (tog‘ora), sүmələk (sumalak), zambar (zambil), somovor (samovor), torg‘ыs// torvыs (tarvuz), somso (somsa) kabi bir talay tub so‘zlarda singarmonizm o‘z qonuniyatini saqlab qolgan.

2. So‘zning o‘zak qismiga qo‘shimcha qo‘shilganda. Buvayda qipchoq shevalarida qo‘shimchalar tarkibidagi unlilarning til orqa va til oldi variantlarga

egaligi affikslarning til orqa qattiq va til oldi yumshoq variantlarini yuzaga keltirgan. Ko‘plab so‘z yasovchi va shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar o‘zining kontrast juftlariga ega.

a) so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilganda yoki qo‘shma so‘zlarda: parmaləlevgich (parmalagich), yymələma (uymalama), savachip (savag‘ich), dumoloq//yumoloq, sortoroshxono (sartaroshxona), memoxono (mehmonxona), somsoxpыyos (sarimsoqpiyoz), kəzəynak (ko‘zoynak), nontoxto, qыymotoxto (nontaxta, qiymataxta) kabi juda ko‘p sodda yasama va qo‘shma so‘zlarda singarmonizm o‘z qonuniyatini saqlab qolgan.

b) sintaktik shakl hosil qiluvchi kelishik qo‘shimchalari qo‘shilganda:

– qaratqich va tushum kelishigi -dы//d’, -t’//tы: bunni// munnы (burni–assimilyatsion o‘zgarishda), qozondы ko‘tar, qozondы qulog‘ы (qozonni ko‘tar, qozonning qulog‘i), dadamd’ pыchoxlorы, enəmd’ kəynəhlar’ (dadamning pichoqlari, onamning ko‘ylaklari), bog‘lordы doroxlorы, sovchыlordы gaplar’ (bog‘larning daraxtlari, sovchilarning gaplari), toshtы təg’da, ott’ tyyog‘ы, osht’ yeң, tovohtы yuv (toshning tagida, otning tuyog‘i, oshni yeng, tovoqni yuv) kabi. Barcha qipchoq shevalarida qaratqich va tushum kelishigi qo‘shimchalari talaffuzda deyarli farqlanmaydi;

– jo‘nalish kelishigi -g‘o//-g‘a//-ңo, -g‘a//-gə, -qa//-kə: numoңo, numovg‘o,(“y”lovchi va “j”lovchi shevalarda nimaga, nega), numonga (aralash tip shevalarda nimaga, nega), qayg‘a, to‘yg‘o//to‘yg‘a//to‘yga, terahti uchiga chiht’ (terakning uchiga (eng baland joyiga) chiqdi), tog‘orog‘o so: (tog‘oraga sol), orыqqo chysh (ariqqa tush), terakkə chiht’ (terakka chiqdi) kabi.

Asos tarkibida burun tovushlari mavjud bo‘lgan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda nazalizatsiyaning kuchliligi kuzatiladi.

Nazalizatsiya unlilar artikulyatsiyasida burunda hosil bo‘lgan rezonator tonning qo‘shib berilishidir [5.306]. Bu asosan burun orqali hosil bo‘luvchi sonant talaffuzi bilan kontakt keluvchi unlilarda kuzatiladi: numoңo, numovg‘o, numonga kabi. Chunki avvalgi tovush artikulyatsion rekursiyasi keyingi tovush artikulyatsion ekskursiyasiga teng keladi. Shuning orqasida avvalgi tovushdagi unning davomi keyingi tovushga ulashib ketadi va burun tovushining ham rezonator toni keyingi unli rezonator toniga qo‘shiladi. Natijada unli artikulyatsiyasida ham burun rezonator toni qayd etiladi. Shuning o‘zi nazalizatsiya deb qaraladi. Buvayda shevasida odatiy hol deb qaralsa ham, Toshkent va boshqa shevalarga xos deb aytish to‘g‘ri emas. O‘zbek tilining boshqa shevalarida sonant ta’sirida unli nazalizatsiyasining sodir bo‘lishi ancha kuchsiz. U Buvayda va uning atrofidagi ayrim tumanlar shevasida odatiy hol ekanligi ko‘rinadi [1.26]. Farg‘ona, Toshkent shevalarida nazalizatsiya kuchsizligi sabab burun konsonantlari, masalan ng (ң) undoshi asliday talaffuz etilmaydi: uyga kirin, telefon qilin, menga berin, tezroq chiqin tarzida voqelantiriladi. Buvayda tumani va atrof qipchoq shevalarida:

– o‘rin-payt kelishigi -da//do//-də, -ta//tə: ko‘chada, uyda, tыlыzo‘rdo (televizorda), tomdo (tomda), kelidə tyy (o‘g‘irda tuy), məllədə (etakda), dəhchədə (tokchada), sohot beshta (soat beshda), eshihtə (eshikda), ovqotto (ovqatda) kabi.

– chiqish kelishigi -dan//don, -tan//-don//-ton// non//nan//nən: ukamdan (ukamdan), siynimdan (singlimdan), chekkadan (chetdan), olmodon (olmadan), somsodon (somsadan), boshqodon (o‘zgadan, birovdan), terahtan (terakdan), eshihtan (terakdan), otton (otdan), xurmodon (xurmodan), oshton (oshdan), boshqotton (yangidan, qaytadan) kabi. Agar so‘z o‘zagi burun konsonantlari bilan tugagan bo‘lsa yoki o‘zakka sintaktik shakl hosil qiluvchi qo‘shimcha burun konsonantlari bilan tugagan bo‘lsa, nazalizatsiya kuchayadi va til oldi portlovchilari d va t n va ң tovushiga almashadi: nonnon (nondan), enəmdən (onamdan), qo‘limnən yshlədi (qo‘limdan ushladi), chach’ңdən tortыmы (sochingdan tortdimi?), boshыңnon o‘girvər (boshing aylantirib yubor) kabi.

– egalik qo‘shimchalarining birligi -(’)m//-(ы)m; -(’)ng//-(ы)ң; -(s)’//-(s)ы qo‘shilganda: bynn’m (burnim), qonnыm (qornim); chach’ң (soching), boshың (boshing); enəs’ (onasi), otosы (otasi); ko‘pligi -(’)mis// -(ы)mыz; -(’)ңs//-(ы)ңыz;-’//-lər//-lorы: kel’n’mis (kelinimiz), qoshыg‘ымыz (qoshig‘imiz); et’g’ңs (etigingiz), qыzыңыz (qizingiz); qo‘shnыlordы p’chog‘ (qo‘shnilarning pichog‘i), səvzilər (sabzilari), pыchohlorы (pichoqlari) kabi.

– shaxs-son qo‘shimchalarining birligi -(’)m // -(ы)m; -(’)ng //-(ы)ң; -t’ //-dы qo‘shilganda: keld’m (keldim), qыldыm (qildim); kərd’ң (ko‘rding), bordың (bording); aytt’ (aytdi), qыldы (qildi); ko‘pligi -mis // -mыs //-mыz; (’)ң//-s’s//-sыs//sыz,-nar//-nər//-nor; -’//-lər//-lor: oң (oling), keң (keling), keləmis (kelamiz), qыynomoymыs (qiynamaymiz), o‘yloymыz (o‘ylaymiz); keləs’s (kelasiz), borosыs (borasiz), o‘ynoysыz (o‘ynaysiz), chiqinnar (chiqinglar), kennər (kelinglar), borыnnor (boringlar); kelad’ (keladi), kelallar (keladilar), borodilor (boradilar) kabi.

v) lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilganda: – ko‘plik qo‘shimchalari -lər //-lar //-lor: chevəllər (chevarlar), y’plər (iplar), quv’llar//qub’rlar (quvurlar), g‘o‘rolor (g‘o‘ralar – dovuchcha), qorovыllor (qorovullar), bollor (bolalar), tollor (tollar), duvollor (devorlar) kabi.

– sifatdosh qo‘shimchasi -gan//-kən//-qon//-g‘on: digan (degan), əytkən (aytgan), chыqqon (chiqqan), borg‘on (borgan) kabi.

– ravishdosh qo‘shimchalari -(’)p; g‘onы//gan’// kən’: tur’p (turib gapir), o‘q’p (o‘qib ko‘r); og‘onы (olgani), urg‘onы (urgani), ko‘rgani (ko‘rgani), bergani (bergani), aytkəni (aytgan), ekkəni (ekkani) kabi.

Xullas, Buvayda qipchoq shevalari arealida ham ko‘pgina so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi affikslar o‘zlarining kontrast juftlariga ega. Bular o‘zagida singormonistik yo‘g‘onlik darajasiga ega unlilar mavjud bo‘lsa, tarkibiga faqat til orqa unlisi, ingichkalik belgisiga ega bo‘lgan unli mavjud o‘zakka esa til oldi unlilari qo‘shiladi.

Lab uyg‘unligi. Ma’lumki, lab garmoniyasi qonuniga muvofiq o‘zakning birinchi bo‘g‘inida lablashgan unlilardan biri bo‘lsa, so‘nggi bo‘g‘inlardagi unlilar ham lablashadi.

Buvayda qipchoq shevalari arealida lab garmoniyasi qonuni, oz bo‘lsa-da, mavjud. Lablanish hodisasi birinchi, ikkinchi bo‘g‘inlarda sezilarli bo‘lib, uchinchi va so‘nggi bo‘g‘inlarga o‘tishi sporadik. Lekin lab garmoniyasi mufassal saqlangan oltoy va qirg‘iz tillaridan keskin farq qiladi. Mazkur tillarda affikslar faqat qattiq yumshoqligi bilan emas, balki lablangan va lablanmaganligi bilan ham ajralib turadi [2.142, 6.87].

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek shevalari hozirgi adabiy tilda uchramaydigan ayrim grammatik shakllar, leksik birlik elementlarini saqlab qolganki, ularni asosli ravishda ilmiy o‘rganish juda muhim tarixiy-lingvistik xulosalarni chiqarishga imkon tug‘diradi. Qatiy bir qonuniyat asosida tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlayotgan izlanuvchiga juda qimmatli material beruvchi manba bo‘ladi. Shuning bilan bir qatorda, bunday fonetik, leksik-grammatik faktlar – asoslar P.M.Melioranskiy ta’biri bilan aytganda: “...qadimgi yodgorliklarni tushunish va lingvistik tahlil qilishda noyob qo‘llanma vazifasini ado etadi” [4.3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atamirzayeva S. Eksperimental’no-foneticheskoye issledovaniye namanganskogo govora uzbekskogo yazыka. – Tashkent, 1974.
2. Isxakov F. G. Garmoniya glasnыx. (Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazыkov. I-ch). – M., 1968. s.142
3. Nabiyeva D. O‘zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo‘lishi. – Toshkent: Sharq, 2005.
4. Melioranskiy P. M. Arab-filolog o tureskom yazыke, SPb., 1900.
5. Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
6. Palmbax A. A. Grammatika tuvinskogo yazыka. – M., 1979

Muxaram ALIMOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU professori
E-mail: mukharam.alimova@mail.ru
Nilufar BABAJANOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsent v.b.
nilufartajimuratovna@gmail.com
Iroda ISMOILOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o’qituvchisi
ismoilovairoda87@gmail.com

KOGNITIV YONDASHUVNING CHET TIL O‘QITISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: maqola chet til o‘qitish jarayonida bilim sohibi, ya’ni kognizant maqomi hamda diskurs va matnning ahamiyatini bir-biri bilan jambarchas bog‘langan holda olib borilishi muammolarini yoritadi. Kognitiv yondashuv asosida matn/diskurs muloqotdosh shaxsini bilim sohibiga aylantirish yo‘lidagi eng ma’qul usul ekanligini yakkol namoyish etadi.

Tayanch so‘z va iboralar: *kognizant (bilim sohibi), umumta’lim kognizanti, sohaviy kognizant va ixtisoslik kognizanti, kommunikant, kompetensiya, matn, diskurs, yangi va foydali axborot.*

Annotation: the article demonstrates the preference for the inseparability of the text or discourse and the trainee /learner (in the article, the term cognizant is used) in the process of teaching a foreign language. The cognitive approach proves to be the most acceptable in developing communicants into so-called “cognizants," and text/ discourse may serve as one of the necessary sources for achieving this.

Key words and expressions: *cognizant, cognizant of general education, cognizant of certain area, speciality cognizant, communicant, competence, text, discourse, new and useful information.*

Аннотация: статья демонстрирует предпочтительность неотъемлемости текста/дискурса и обучающего (в статье применяется термин когнизант) в процессе обучения иностранному языку. Когнитивный подход является самым приемлемым в формировании коммуниканта в когнизант, и текст/дискурс служит как один из необходимых источников в реализации этой цели.

Ключевые слова и выражения: *когнизант, когнизант общеобразовательной сферы, когнизант отраслевой сферы, когнизант специальности, коммуникант, компетенция, текст, дискурс, новая и полезная информация.*

Dunyoni konseptuallashtirish va turkumlashtirish hamda insonning individual kognitiv qobiliyatlarining olam manzarasi tasvirida voqelanishi tamoyillarini kognitiv yonlashuv asosida lisonda namoyon etamiz. Insonning intellektual qobiliyatlari va uning iste'dodi, uning reallikka bo'lgan munosabati kognitiv tamoyillar bilan bog'lik. Kognitiv tamoyillar inson xotirasi, e'tibori, tashqi olamni idrok etish qobiliyati, fikrlash doirasi va tasavvuri, nutqning rivojlanganlik darajasi, atrof-muhitni qay darajada his eta olishi kabilarni o'z ichiga oladi. Olimlarning fikricha, "kognitiv yondashuv aql topishmoqlarini hal qilish imkonini beradi". Kognitiv tamoyillar faoliyati jarayonida shaxslarning hodisalarni o'rganishi va ma'lumotlarni bilib olishida o'zaro bilim almashinuvi, ularning psixologik va fiziologik holatlari hamda motivlar va ehtiyojlar almashinuvi natijasida ko'nikma va malakalar paydo bo'lib, rivojlanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar deb tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan matn, diskurs, va kognizant masalalarini o'rganish katta ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos Zellig Harris[8] tomonidan birinchi marta qo'llangan diskurs so'zi bugungi kunda tilshunoslikning markaziy masalalaridan birini ifodalovchi lisoniy hodisani anglatmoqda. Diskurs tushunchasi adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tarix, sotsiologiya, antropologiya, pedagogika, siyosatshunoslik kabi fan sohalarining har birida maxsus interpretatsiyaga ega bo'lishi bilan birga bugungi kunda yangi yo'nalishlardan biri hisoblanadigan diskursiv tahqiqning markaziy muammolaridan biriga aylandi.

Lisonshunoslikda diskursga beriladigan tushunchaga to'xtashdan oldin chet til o'qitish jarayonida bilim oluvchini yangi va foydali axborotni egallay oladigan axborot sohibi, ya'ni kognizant deb qabul qilish muammosiga to'xtalishni afzal ko'rdik, chunki chet til o'qitish jarayonida til o'rganuvchini yangi va foydali axborotni egallay oladigan axborot sohibiga, bilim sohibiga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Matn" degan tushuncha o'qish yoki tinglash jarayoni talabini sohaviy yoki mutaxassislik bo'yicha ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Tilshunos va lingo-didaktlar matnni lingvistik jihatdan tadqiq qilishni nimadan boshlamoq kerak va bunda qanday masalalarga asosiy e'tibor qaratilishi lozim, degan savollarga ham hozirgi vaqtda tilshunoslarning berayotgan javoblari bir-biridan farq qiladi. Masalan, matnni nutq kategoriyasi ekanligini dalillovchi olimlar uning belgilik tabiatini nimadan iborat, matnni nutqiy jarayon deb atash lozimmi yoki uni nutqning hosilasi natijasi sifatida talqin etish to'g'ri bo'ladimi, matnni og'zaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bog'lab o'rganish ma'qulmi kabi muammoni kun tartibiga qo'ymoqdalar.

Muhokamaga qo'yilgan masalalarni yechishda pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan hisoblangan "matn", "diskurs" va "kognizant" terminlari bilan nomlangan lisoniy hodisalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, tilshunoslikda matn 1) nutqiy faoliyat mahsuli va 2) nutqiy malaka sifatida talqin etiladi. Bunda yozma nutq nutqiy faoliyat mahsuli va o'gzaki nutq esa nutqiy jarayon deb izohlanadi.

Professor J. Jalolov fikricha, "matn" deganda nutq faoliyatining asosiy turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv) da yaratiladigan va idrok etib tushuniladigan nutqiy parcha nazarda tutiladi. Soddaroq qilib aytganda, matn gapirish va yozuv hosilasi bo'lib, tinglab va o'qib tushunish uchun obyekt hisoblanadi. Bular turlicha nomlar bilan atalib kelinishi mumkin: audiomatn (tinglab tushunishda), aytiladigan matn (gapirishda), grafik matn (yozuv va o'qishda).

Matn, filologiyada bir qancha fanlarning o'rganish obyekti bo'lib, jumladan, matnshunoslik, manbashunoslik, stilistika, matn lingvistikasi, matn tahlili, matn lingvodidaktikasi singari ilmiy sohalarda tahlil va tadqiq etiladi.

Matnni tushunishda uch omil o'zaro ta'sir ko'rsatadi:

1) lisoniy (matn qamrovidagi leksik va grammatik hodisalar),

2) texnikaviy (matn so'zlari dagi o'qilish qoidalari),

3) nutqiy (diskursiv - matndan olinadigan axborot).

Jahon tilshunosligida matnni o'qib tushunish bo'yicha ko'plab fikrlar mavjud:

1) Rus tilshunosi Ilya Romanovich Galperinning talqiniga ko'ra, matn har tomonlama mukammal holatga kelgan yozma nutq mahsulidir. O'g'zaki nutq esa turli qaytariqlarni, uzuk-yuluq gaplarni ham o'z ichiga oladi va shuning uchun uni tekshirish obyekti bo'la oladigan matn deb e'tirof etish maqsadga muvofiq emas.

2) Amsterdam universiteti (Gollandiya) professori T.van Deyk matn va uning o'ziga xos tabiatini pragmatika bilan bog'lab o'rganadi. Uning tadqiqotlarida asosiy e'tibor matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.T.van Deyk matnning grammatik jihatlarini dastlab logik va analitik falsafa qoidalari bilan bog'lab o'rganishga harakat qildi, keyinchalik u matn semantikasi masalalari bilan jiddiy shug'ullana boshladi.

3) T.van Deykning matn semantikasiga jiddiy e'tibor bilan qarashiga Koliforniya universiteti professorlari Lakoff Jori hamda Charlz Filmorlarning ta'siri salmoqlidir. T.van Deyk o'z tadqiqotlarida matn faqatgina gaplarning

o‘zaro bog‘lanishidan emas, balki kommunikativ aktlarning ham o‘zaro munosabatidan tashkil topishini ta’kidlaydi.

4) Rus olimi Maya Valentinovna Lapon ham matn tilshunosligi muammolarini murakkab sintaktik qurilmalar asosida talqin etishga intiladi va matnni tavsiflashda quyidagi to‘rt tamoyilga asoslanadi:

1. Matn- jumlaning o‘zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o‘rganishda birdan -bir manba bo‘lib xizmat qiladi;

2. Matn- so‘zlovchining nutqiy qobiliyatini ro‘yobga chiqaruvchi vositadir;

3. Matn- so‘zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir;

4. Matn- til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funksiya bajaruvchi eng yuqori bosqichidir.

5.Maya Valentinovna Lapon matnning shakllanishida inson o‘mili eng muhim faktorlardan biri ekankligini, inson matn shakllanishi uchun jonli manba bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi. "Inson omili," deydi M. V. Lapon, - "hozirgi zamon tilshunosligining diqqat markazida bo‘lib, "pragmatika – semantika – sintaktika" dasturining hayotga tatbiq etilishida muhim mavqega egadir."

6) Professor Vladimir Grigoryevich Gak fikricha, matn tahliliga "pragmatik nuqtai nazardan yondashish til birliklarini tasvirlash jarayonida an’anaviy tilshunoslikda e’tibordan chetda qolgan ko‘pgina istiqbolli yo‘llarni ochadi."

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1) tekshirish obyekti bo‘lgan matnning a) mazmun-mohiyatini aniq belgilab olish, b) uning doirasini nihoyatda kengaytirib yubormaslik va c) til o‘rganuvchilarning qaysi pog‘onada ekanliklarini aniqlagan holda matn tanlash;

2) "kichik" lisoniy birliklar, jumladan, so‘zga nisbatan munosabatni qayta ko‘rib chiqish;

3)tilshunoslikka yangidan kiritilayotgan terminlarga mas’uliyat bilan yondashish;

4) lisoniy kategoriyalarni nolisoniy kategoriyalardan aniq farqlash kabilar.

Lingvodidaktika sohasining rivojlanishida salmoqli hissa qo‘shgan Professor Jamol Jalolov O‘zbekiston sharoitida 11 va 15 yoshlik bolalarga matn o‘qishni o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirar ekan, quyidagi holatlarga e’tibor qaratish kerakligini ta’kidlaydi:

1) bolalarning psixik holati,
2) bolalarning dunyoqarashi va qiziqishi,
3) bolalarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi.

Bunday yondashuv turli yoshdagi o‘quvchilarda har xil miqdordagi chet til leksikasini o‘rgatishni inobatga oladi.Bilamizki, pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir.

Diskurs muhokama yo‘li bilan hosil qilinadigan mantiiy dalil – isbotli bilim demakdir, ya’ni "diskurs" deganda nutqiy faoliyatdagi yoki amaliyotdagi "matn"ni tushunish mumkin.

Diskursiv kompetensiyaning yana bir o‘ziga xos jihati– og‘zaki yoki yozma matn orqali o‘zgalarga axborot uzatishdir”(Jalolov J. J.)

Tilshunoslikda diskursga bag‘ishlangan ko‘plab fikrlar mavjud:

1) Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi tilshunos Nilufar Abdunazarovaning fikricha, diskursni “barcha ekstralingvistik faktorlar bilan birgalikda, dunyo, fikr, qarash, baholash va adresantning maqsadini o‘z ichiga olgan matn yoki harakatdagi nutq” deb tushunsa bo‘ladi.

2) T.A. Van Deyk fikricha “diskurs” 1) keng ma’noda kompleksli kommunikativ voqea; 2) tor ma’noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsulidir.

T.A. van Deyk diskurs va matn ortasidagi farqni shunday belgilaydi: “diskurs - aktual aytilgan matn, ya’ni faol nutqiy harakat, “matn” esa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning grammatik tuzilishidir. Demak T.van Deykning fikricha “diskurs – aniq suhbat, aniqlik esa matnga va obyektga birday taalluqlidır”.

Yuqorida berilgan fikrlar tahlilidan asosiy maqsad kommunikativ kompetensiya haqida ekanligidan dalolat beradi. Jalolov J.J aytganidek, chet til o‘rganuvchining nutqiy malakalarini oshirishda kommunikativ muloqot katta rol o‘ynaydi.

Til o‘rganuvchi avval berilgan matn bilan tanishadi, so‘ngra uning asosiy mazmunini monolog yoki diolog tarzida bayon etadi. Shunday qilib, til o‘rganuvchining o‘qish savodxonligini baholash jarayonida ikkiyoqlama metodik muammoni inobatga olish tavsiya etiladi:

1) Birinchidan o‘qish texnikasiga e’tibor qaratiladi;
2) Ikkinchidan kommunikativ kompetensiya inobatga olinadi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda til o‘rganuvchini bilim sohibi sifatida tarbiyalashimiz lozim. Bilim sohibi , ya’ni **kognizant** - o‘rganilayotgan til vositasida yangi va foydali bilim oluvchi shaxsdir (J.Jalolov).

Professor J.Jalolov lingvistikada ilk bor “kognizant” terminini qo‘lladilar va “kognizant” deganda bilim oluvchini tushunish lozimligini ta’kidladilar.

J.J. Jalolovning fikricha kognizant masalasini maxsus muhokamaga qo‘yishdan maqsad:

- birinchidan, nutqiy faoliyat jarayonida o‘quvchi yoki talaba kognizantlik sari qadam qo‘yishi,
- ikkinchidan, hayotiy tajriba orttirish jarayonida kognizantlik maqomini egallay boshlashi,
- uchinchidan, muloqot va muhokama chog‘ida kognizantlikning turli qirralari sayqallanib borishi,
- to‘rtinchidan, kognizant o‘zi o‘rgangan ma’lumotlari va orttirgan tajribalariga tayanib, mustaqil fikr yuritaolishi, ya’ni tanqidiy tafakkur bilan mashg‘ul bo‘lishi inobatga olinadi.

Bunda chet til o‘rgatish jarayonida kognizant oladigan ma’lumotlar o‘quv maskanlarida ikki turga ajratiladi:

1) Chet til o‘rganuvchi o‘zlashtiradigan axborot umumta’limiy mazmunda bo‘ladi (nolisoniy o‘quv maskanlarda).

2) Chet til o‘rganuvchi o‘zlashtiradigan nazariy bilim dasturiy talablar doirasida bo‘ladi (lisoniy o‘quv maskanlarda).

Yuqorida diskurs, matn, kognizant (bilim sohibi) ga berilgan tahlillarni inobatga olgan holda, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- og‘zaki va yozma matn til o‘rganuvchining bilim olishida, ya’ni uning kognizant sifatida shakllanishida birlamchi ahamiyatga ega ekanligi,
- verbal va noverbal - xatti-harakatlar majmui (inglizcha: body language; ruscha: язык жестов) yordamida ifodalangan matn til o‘rganuvchi nutqning rivojlanishiga hissa qo‘shishi,
- “matn” termini bir yoki birdan ortiq axborot eltuvchi jumla yoki jumlalar maqomiga egaligi,
- “matn” so‘zining ma’noviy qamrovi faqatgina o‘qishga mo‘ljallangan yozma manba bo‘lib kelmay, balki “matn” chet til o‘qitish jarayonida ma’lum darajada mukammal tadqiq etilgan nutq faoliyati turlarini qamrab, tinglab tushunish va o‘qishda audio/grafik matn , gapirish va yozishda og‘zaki va yozma matnni idrok etib tushunish va fikr bayon etish uchun mo‘ljallangan nutqiy hodisadir.
- o‘qituvchi chet til o‘qitish jarayonini bilim sohibi, ya’ni kognizant hamda diskurs va matnni bir-biri bilan chambarchas bog‘lagan holda olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Iqtiboslar /Сноски / References

1. Abdunazarova N. “ Diskurs”ni izohlashga bo‘lgan turlicha yondashuvlar. Academic research in educational sciences. Scientific Journal. 2021, Vol.2, issue 4, pp.1196-1200
2. Беляев Б. В. Психология в обучении иностранному языку. М., 1967, с.182
3. Гак В.Г. Прагматика, узус и грамматика речи. Иностранные языки в школе.1982, №5
4. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.,1981, 140 с.
5. Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. М., 1989, 312 с.
6. Jalolov J.J. Kognizant shaxsining shakllanishida matn muhim omildir. Til, ta’lim, tarjima. – Toshkent, 2021. 1-son , 2-jild. 71-78-betlar.
7. Ляпон М.В. Смысловая структура сложного предложения и текст. М.,1986
8. Zellig S. Harris. Discourse Analysis. Scientific Journal: Language. Vol.28, №1, 1952, pp.1-30
9. Fillmore, Charles. Lexical semantics and text semantics. New directions in linguistics and semiotics, ed. by James E. Copeland, pp.123-147. Houston: Rice University, 1984
10. George Lakoff. Cognitive semantics: The basic mechanisms of thought. In book: Ten lectures on cognitive linguistics. University of **California, Berkeley. 2018.**

Farxad USMANOV,
AndDU doktoranti, PhD, dotsent

MEHMONDO‘STLIK O‘ZBEK QADRIYATINING LINGVOMADANIY TAHLILI

Annotatsiya: maqolada konsept va qadriyatlar farqlanib, qadriyatlarni lingvomadaniy tahlil etish tamoyillari ishlab chiqilgan. Mazkur tamoyillar asosida mehmondo‘stlik qadriyati lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil etilgan.
Kalit so‘zlar: *konsept, qadriyat, nominatsiya, aksiogen vaziyat, mehmondo‘stlik, aksiologik marker.*
Annotation: the article differentiates between the concepts of "concept" and "value" and develops principles for the linguocultural analysis of values. Based on these principles, the value of "hospitality" is analyzed from a linguocultural perspective.
Key words: *concept, value, nomination, axiogenic situation, hospitality, axiological marker.*
Аннотация: в статье разграничиваются понятия концепт и ценность, а также разрабатываются принципы лингвокультурологического анализа ценностей. На основе этих принципов анализируется ценность “гостеприимство” с лингвокультурной точки зрения.
Ключевые слова: *концепт, ценность, номинация, аксиогенная ситуация, гостеприимство, аксиологик маркер.*

Zamonaviy lingvomadaniyatshunoslik asosiy e’tiborini olamning lisoniy manzarasi bilan birga, olamning qadriyatli manzarasini o‘rganishga qaratadi. Bunda u kognitiv tilshunoslik singari konsept bilan ish ko‘radi. “Konsept” lingvomadaniy yondashuvda – verballashgan madaniy mazmun, u bir vaqtning o‘zida lingvomadniy konsept – madaniyat “tili”ning birligi bo‘la oladi [1, 11]. “Lingvomadaniy konsept boshqa mental birliklardan

qadriyatli uzvga urg‘u berishi bilan ajralib turadi... Qadriyatli munosabatning mavjudligi baho predikatlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Madaniyat vakillari qaysidir fenomen to‘g‘risida “bu yaxshi” (yomon, qiziq, zerikarli va h.k.) deya olishsa ushbu holat konseptning mavjudligini ko‘rsatadi” [1, 14].

Konsept va qadriyatlar o‘zaro butun-qism munosabatida bo‘lib, jamiyat a’zolarining axloqiy xatti-harakatlarini tartibga soluvchi, millat hayotida o‘zining qadri bilan ajralib turadigan, ijobiy baholanuvchi konseptlar mazkur madaniyat uchun qadriyatlarga aylanadi. Shu nuqtai nazardan ular aksiologik konsept deb ham ataladi. Madaniyatning asosida aynan qadrlilik tamoyili yotadi. Bu unga berilgan ta’riflarda ham o‘z aksini topadi: Madaniyat deganda, “millat hayotidagi ustuvor qadriyatlar bilan shartlangan mavjudlik qoidalariga ega ijtimoiy organizm tushuniladi” [2, 11]; “jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig‘indisi madaniyatda gavdalanadi” [3, 6].

Shunday qilib, biror-bir konseptni tahlil qilish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. “Konseptlar antologiyasi” (“Антология концептов”) da M.Pimenova ushbu bosqichlarni quyidagicha tavsiflaydi: “Birinchi bosqich – konseptni ifodalovchi so‘zning leksik ma’nosi va ichki shaklining tahlili. Ikkinchi bosqich konseptning ifodalovchisi bo‘lgan leksemaning sinonimik qatorini aniqlash. Uchinchi bosqich – olamning lisoniy manzarasida konseptning kategorizatsiyasi usullarini tavsiflash. To‘rtinchi bosqich – konseptuallashtirish usullarini aniqlash, konseptual metafora va metonimiyani o‘rganish. Beshinchi bosqich – ssenariylar tadqiqi. Ssenariy – bu ma’lum zamon va makonda yuzaga keluvchi, amalga oshish uchun o‘z subyekti, obyekti, maqsadi, yuzaga kelish sharoiti, vaqt va o‘rniga ega bo‘lgan hodisa. Bunday hodisa yuzaga kelishi o‘zining aniq sabab va shartlariga ega” [1, 18]. “Shubhasizki, nominatsiya jarayonining o‘zidayoq madaniyatning “iz”lari – milliy idrok intizomi aks etadi. Shu ma’noda nominatsiyaning motivatsion asosini aniqlash – etimologik tahlil ma’lum natijalar berishi mumkin” [4, 80].

Biz, yuqorida ko‘rib chiqilgan fikrlarga tayangan holda qadriyatlarni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish quyidagicha yo‘sinda amalga oshirilishi mumkin deb hisoblaymiz:

Lisoniy aspekt. Leksika va frazeologiyada qadriyatning nomlari atash ma’nolari, ularning ko‘chishi va kengayishi masalalarini o‘rganish so‘zning “madaniy xotirasi” (Yan Assman termini) da yashiringan millatning idrok intizomini ko‘rsatishi mumkin. Ularning sinonimlari, shu sinonimlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omillar bilan qiziqish darkor. Chunki bir tilda absolyut sinonimlar bo‘lishi dargumon. Biror konseptning o‘zining ko‘psonli ifodalariga ega bo‘lishi ham ahamiyatli. Chunki, “biror konseptning ko‘p miqdordagi nominatsiyalari mavjudligi til tizimi mazkur qismining nominativ zichligidan dalolat beradi, millat ongida mazkur konseptning aktualligini ko‘rsatadi” [1, 8].

Frazeologiyada esa tahlil etilishi rejalashtirilgan qadriyat nomining qay o‘rinlarda uchrab, qanday ijobiy yoki salbiy ma’nolar tashiyotganini o‘rganish, undagi kod vazifasida kelgan obrazlar nimalardan iborat ekanligini bilish, ular bilan bog‘liq stereotiplarni tushunish imkonini beradi. Zero, yuqorida aytilganidek, ramziylashtirishda analogiya amal qiladi.

Madaniy-semiotik aspekt. Qadriyatlar tahlilida sof madaniy aspekt bilan ham qiziqish darkor. Har holda, madaniyat tildan alohida sistema bo‘lib, bu aspektga e’tibor orqali tahlil etilayotgan qadriyatning tarixiy madaniy namoyon bo‘lish shakllari, u bilan bog‘liq ijtimoiy tajribalarni kuzatish mumkin. Bunda, ehtimol, ma’lum bir kult yoki odatlar kuzatilishi (masalan, mehmon kuzatishdagi xatti-harakatlar), bayramlarda turli an’analar aks etishi mumkin. Bu ijtimoiy odatlar yoki odoblar orqali qadriyatning o‘rniga, tarixiga e’tibor qaratish imkonini beradi. Mazkur aspektni keng ma’noda tushunish lozim bo‘lib, bunda umuman belgilik xarakteridagi barcha narsani e’tiborga olmoqdamiz. Masalan, yangi xonadonga kelgan kelinga beriladigan ma’lum bir buyumlar, kuyovga to‘shaladigan yetti qavat to‘shaklar yoki mehmonning qayerga o‘tirishini ko‘rsatish kabi narsa-predmet va jestlar shulardan iborat. Ularning barchasi ma’lum simvolik mazmun tashiydi.

Emotsional aspekt. Bunda qadriyatning voqelanish shakllari qanday emotsional munosabatga sabab bo‘lishini kuzatish lozim. Zero, qadriyat o‘ziga nisbatan ijobiy munosabat uyg‘otuvchi konseptdir. Shu nuqtai nazardan har qanday konsept qadriyat bo‘la olmaydi. Demak, mazkur aspekt aksiologik baho bilan bog‘liq. Qadriyatning emotsional aspektiga e’tibor qaratish uning psixologik nuqtayi nazardan ahamiyatini ochishga ham imkon beradi – u madaniyatda shaxslararo munosabatlarga ham ta’sir etadi, ularni mustahkamlaydi.

Kommunikativ aspekt. Bunda aynan biror qadriyat doirasida kuzatiluvchi verbal va noverbal ifodalar qiziqish obyekti bo‘lib, masalan, ota-ona, ularga hurmat xususida xulosa berish uchun ular bilan bo‘lgan kommunikatsiyani kuzatish ma’lum tasavvurlar bera oladi.

Mif va afsonalar. Mazkur aspekt tahlil etilayotgan qadriyatning mif va afsonalar, folklorda qay darajada aks etganini, uning uchun aksiogen situatsiya qaysi ekanini tushunish imkonini beradi. Ular muloqot chog‘ida uning ongiga doimiy ta’sir etadi, so‘zlovchi unga havola qiladi (kuyovni payg‘ambarlar siylagan...;

mehmonning izzati uch kun...). Mif, afsonalar, umuman, folklor asarlari orqali qadriyatlarni tahlil etishda ularning talqini asliyatdan ancha uzoqlashgan bo‘lishi mumkinligini unutmaslik lozim. Bu haqda quyida mehmondo‘stlik qadriyati misolida yana to‘xtalamiz.

Qiyosiy va chog‘ishtirma aspekt. Bunda tahlil etilayotgan qadriyatni o‘zga madaniyatlar bilan qiyoslab yoki chog‘ishtirib o‘rganish milliy o‘ziga xoslikni aniqroq ko‘rish va bo‘rttirib ko‘rsatish uchun zarur.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, kommunikatsiya jarayonida nima yaxshi, nima yomon, qanday ish tutish yaxshi, qanday ish tutish yomon ekanini bilvosita ko‘rsatuvchi referent vaziyatlar aksiogen vaziyat maqomida bo‘ladi. Ularni aniqlash aksiologik markerlar yordamida kechadi. Ya’ni, albatta, bunday vaziyatlar ijobiy yoki salbiy baholanayotgani nutq mazmunidan anglashilib turadi. Aksiogen vaziyat (аксиогенная ситуация) terminini V.Karasik qo‘llagan bo‘lib, u “mazkur vaziyatlar dinamik – hodisalar ko‘rinishida va statik – stabil qadriyatli markerlangan vaziyatlar tarzida namoyon bo‘lishi” [5, 65] ni ko‘rsatadi. Olimning fikricha, aksiogen vaziyatlar odamlar xotirasida muhrlangan bo‘lib, afsona, masal, maqol, latifa va hayotiy voqealar ko‘rinishida verballashadi [5, 65]. Eng muhimi, “Aksiogen vaziyat mazmuni aksiogen me’yorlar – u yoki bu ta’qiq yoki tavsiyalar shaklidagi xulq-atvor qoidalari tarzida ifodalanishi mumkin” [5]. O‘zbek tilida mazkur vaziyatlarga yaqqol misol sifatida “...deganlaridek” qolipidagi sentensiyalarni keltirish mumkin. Masalan, “ishlagan o‘zar, ishlamagan to‘zar, deganlaridek...”, “chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin deganlaridek...”, “qimirlagan qir oshar deganlaridek...”, “karvon ko‘p rizqi bo‘lak deganlaridek...”. Ularning tub mohiyati madaniyatdagi u yoki bu me’yorni yetkazishdir.

Mazkur tamoyillar asosida o‘zbek milliy qadriyatlaridan bizning nazarimizda eng diqqatga sazovorlarini chiqmoqchimiz. Aynan qaysi qadriyatlarni tahlilga tortish borasida tanlovimiz ravshan – o‘zbeklar uchun mehmondo‘stlik, sabr, mehnatkashlik, do‘stlik, kattalarga hurmat kabi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar; yaxshilik, or-nomus, g‘urur kabi axloqiy qadriyatlar, ibodat, shukronalik kabi diniy qadriyatlar, farzand kabi ekzistensial qadriyatlar; vatanparvarlik, erk, sog‘lik kabi vital qadriyatlar, oila, adolat, do‘stlik kabi ijtimoiy qadriyatlar e’tiborga molik. Mazkur maqolada biz mehmondo‘stlik qadriyatini tahlil etmoqchimiz.

Mehmondo‘stlik. O‘zbek millatining avtostereotipiga aylangan mazkur xislat o‘zining turli voqelanish shakllariga ega. Mehmondo‘stlik bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va iboralarni o‘rganish, ularning etimologiyasi milliy ma’no qirralarini ochish imkonini beradi. Mehmondo‘stlik qadriyatining yadrosi mehmondo‘st hamda mehmonnavoz leksemalaridan iborat. Mehmon (f. – mehmon, tashrif buyuruvchi) 1 to‘y, ziyofat va sh.k. munosabati bilan yo‘qlab kelgan (borgan) shaxs; 2 majlis, yig‘ilish, kengash va sh.k.ga chetdan chaqirilgan shaxs; 3 chetdan tashrif buyurgan, vaqtinchalik qo‘ngan shaxs (O‘TIL) ma’nolarini anglatib, yangi tug‘ilgan yoki tug‘iladigan chaqaloq ma’nosini anglatuvchi yangi mehmon (O‘TIL) birikmasini yuzaga keltiradi. Ushbu so‘zning definitsiyalaridan mehmonning “vaqtincha o‘zga joyga kelgan shaxs” ma’nosi bilan birga har bir insonning bu dunyodagi hayoti vaqtincha, demak, u bu dunyoga mehmon ekanligi anglashiladi. Shuningdek, mehmondo‘stlik so‘ziga berilgan dastlabki definitsiyadagi “to‘y” va “ziyofat” semalari o‘z mohiyatiga ko‘ra unda mehmonlar bo‘lishini taqozo etadi.

Mehmon so‘zining etimologiyasi forscha “ulug‘” ma’nosini anglatuvchi sifat – “meh”ga borib taqaladi. Unga “o‘xsha-” ma’nosini anglatadigan “manestan” fe’lining “man” hozirgi zamon asosi qo‘shilib “mehman”, “muhman” shakllariga kelganligi aytiladi (O‘TEL). Sh.Rahmatullayev, o‘z navbatida, mezbon so‘zining etimologiyasi “miz” – “dasturxon yoziladigan kursi” so‘zi va “qara-” ma’nosidagi -bon qo‘shimchasiga borib taqalishini yozadi (O‘TEL). D.Edelman ushbu so‘z etimologiyasiga yanada aniqroq izoh beradi: “qurbonlik mahsulotlari iste’mol qilinadigan toamlanish”, “ziyofat”, “yozilgan mato” ma’nolaridagi “mēz” / “myz” so‘ziga “qo‘riqlash, himoya qilish, g‘amxo‘rlik qilish” ma’nosidagi *pā uzvining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan” [6, 364]. Demak, mezbon so‘zining asosida “dasturxon” hamda “g‘amxo‘rlik” ma’noli birliklari yotadi. Muallif yana shunday izoh beradi: “ziyofat”; “noz-me’matlar qo‘yilgan, yoyilgan mato” ma’nosidan “noz-ne’matlarni tuzash”; keyinchalik esa “stol” ma’nosining yuzaga kelishiga olib kelgan semantik siljishlar fors tili uchun xarakterli. Taomlar yoyilgan mato (dasturxon – F.U.) ustiga qo‘yilgan, taomlanuvchilar uning atrofida o‘tirgan va yonboshlagan O‘rta va Markaziy Osiyo hududlarida baland stol bo‘lmagan va bunday siljish tasodifiy emas” [6, 365].

Anglashiladiki, mehmonga g‘amxo‘rlik qilish va uni noz-ne’matlar bilan siylash ushbu so‘z madaniy xotirasiga muhrlangan.

Mehmon o‘zagidan mehmondor, mehmondorlik, mehmondorchilik, mehmondo‘st, mehmondo‘stlik, mehmonnavoz kabi so‘zlar yasalgan bo‘lib, ularning barchasi ijobiy konnotatsiyaga ega. Mehmondo‘stlik, ya’ni mehmondo‘st ekanlik “mehmonni, mehmon kutishni, mehmon chaqirishni yaxshi ko‘radigan, mehmonsevar” (O‘TIL) bo‘lishni taqozo etadi. Bunda ta’rifdagi “yaxshi ko‘radigan” sifati va keyingi so‘zlarning tarkibidagi “-sevar” va “-do‘st”

komponentlari aksiologik marker maqomida bo‘la oladi. Zero, do‘st – “ahillik, totuvlik munosabati bilan bog‘langan” etimologiyasiga ega.

Aksiologik marker qadriyatni “tanib olish” uchun qo‘l keladi va lisoniy ifodalarda madaniyat qoidalarini kodlashtiradi. Ular assotsiativ aloqalar hisobiga qadriyat yoki aks qadriyatga ishora qilishi mumkin. G.Komilova “implitsit usulda voqelangan qadriyat va baho talqinlarida leksemalarning ma’lum bir semalari aksiologik markerga aylanishi” [8, 86]ni qayd etadi.

Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan maqolidan o‘zbek oilalari mehmon kelishini haqiqatan yaxshi ko‘rishi, joiz bo‘lsa, uni nima bilan siylashning g‘amini qilmasligini ham tushunish mumkin. Sh.Usmonova ushbu maqol uchun asos bo‘lgan odatni shunday tasvirlagan edi: “Andijonda mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo‘shnilar dasturxon chiqazishadi. Shuningdek, o‘zbek xonadonlarida qo‘shnilar o‘rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo‘yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan hol-ahvol so‘rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan maqoli ana shu odatning ta’siri tufayli yuzaga kelgan” [9, 29].

Yuqorida madaniy aspekt deb sanagan aspektimiz mazkur qadriyat misolida quyidagilarda namoyon bo‘ladi: o‘zbek oilalari mehmonni, albatta, ochiq chehra va dasturxon bilan kutib oladi; o‘zi uchun qilinmagan taomlarni mehmon uchun tayyorlaydi; uning hurmatidan jonliq so‘yadi va h.k. K.Mahmudovning “Mehmonnoma” asarida o‘zbek madaniyatida mehmon kutish bilan bog‘liq odatlar shunday tasvirlangan: “...qadim zamonlardan buyon samarqandliklar mehmonni xuddi non-nasiba kabi hurmat qilar ekanlar. Mehmonga atab ataylab maxsus patirlar pishirilgan, nonni tayyorlaganlarida yuzini xamirdan naqshinli kungirador qilib bezatganlar. Hatto ba’zan nonning yuziga she’riy misralar va aziz mehmonlarning nomlari bitilgan. Mehmonlar ketar paytida bayot bitilgan, chiroyli bezatilgan nonlarni ularning qo‘liga tutqazishgan. Ushbu nonlarni mehmonlar e’zozlab san’at asari kabi o‘z uylari devorlariga osib qo‘yganlar. Yaxshi mehmondorchilikdan esdalik bo‘lgan non yana bezak vazifasini bajarib turgan” [10, 8].

Ko‘rib chiqilayotgan qadriyatning emotsional aspektini maqollar yaxshi aks ettira oladi. Ulardan aksiologik mazmunni chiqarib olish katta qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Masalan quyidagi maqollarda mehmonni azizlash mazmuni o‘z aksini topadi: Mehmon – atoyi Xudo; Mehmonning itini tur dema; Mehmonning oldida mushugini pisht dema; Mehmon – aziz. mezbon – laziz; Mehmon kelgan uy – barakali; Mehmon kelgan uyning chirog‘i ravshan; Do‘stlik oltinga sotilmas, Mehmon – pulga. Keyingi maqollarda esa mehmonning azizligi bilan birga, unga qanday e’tibor qilish to‘g‘risida yo‘l-yo‘riqlar ham anglashiladi: Mezbon borini qo‘ysa, Mehmon ozga sanamas; Mehmonni siylasang, itiga suyak tashla; Mehmon joyi ko‘z ustida; Mehmon izzatda, Mezbon xizmatda; Mehmon kelar eshikdan, Rizqi kelar teshikdan; Mehmon kelsa, pastga tush, Palov bermoq ahdga tush; Mehmon kelsa choptirar, Bor-yo‘g‘ingni toptirar; Mehmon kelsa, et pishar, Et bo‘lmasa, bet pishar; Mehmon ko‘rki – dasturxon (O‘zbek xalq maqollari).

Mehmonning azizlanishi o‘zbek tilida mehmonday e’zozlamoq hamda mehmonday aziz o‘xshatishlarining turg‘unlashishiga sabab bo‘lgan [11, 130]. Masalan: ...Boburni uch yuztacha navkari bilan yil bo‘yi mexmonday e’zozlab yurishibdi (P. Qodirov. Yulduzli tunlar); Xongirey bu tashrifdan norozi bo‘lsa ham, uni xuddi kutilgan aziz mehmonday karshi oldi (T. Malik. Shaytanat).

Ushbu maqol va o‘xshatishlardan o‘zbek mentaliteti egasi uchun mehmon hamisha matlub ekanini tushunish mumkin. Ammo o‘zbek tilida “Mehmonning izzati uch kun” iborasi ham mavjud bo‘lib, uning undan ortiq qolishi noto‘g‘ri va yoqimsiz holatdek tasavvur uyg‘otishi ham bor gap. Bunday mazmun quyidagi maqolda ham seziladi: Mehmonning otini asl derlar, Uch kundan so‘ng sasir derlar (O‘XM). Aslida, musulmonchilik ijtimoiy odoblariga ko‘ra, haqiqatan, mezbonning va mehmonning odoblari beligilab qo‘yilgan. Mezbonning mehmonga halol va pokiza taom tortish; mehmon kutishda biror g‘arazli maqsad yoki riyo bo‘lmasligi; mehmonni iltifot bilan kutib olish va yaxshi joyga o‘tirgizish; mehmonning qarshisida ochiq chehra bilan xushnud o‘tirish kabi ko‘pgina odoblari bo‘lsa, mehmonning odoblari sirasiga borgan uyga kirishda mezbondan oldin yurmaslik, uy yoki hovliga “Bismillah”ni aytib, o‘ng oyoq bilan salom berib kirish; mezbon qaysi joyni ko‘rsatsa, o‘sha joyga o‘tirish kabilar kiradi. Shunday odoblar bilan birga aytiladiki, “Aslida mehmonning izzati uch kundir. Bundan ortig‘i mehmon uchun sadaqadir” [12, 27]. “Sadaqa”ning xayr-ehson ekanligi hisobga olinsa, uning mukofoti, albatta, beriladi. Zero, “Islomda sadaqa qilishga ko‘p targ‘ibot qilinadi. Uning savobi, fazilati va foydasi to‘g‘risida Qur’on va hadislarda ta’kidlangan” (O‘zME). Demak, “Mehmonning izzati uch kun” degani uch kundan uning ketishi shart degani emas, mezbon mehmonga uch kun alohida izzat-ikrom ko‘rsatishi, oilada har doimgidan boshqacha taomlar tayyorlanishi kabilarni nazarda tutadi. Uch kundan so‘ng mezbon mehmonning sharoitini ta’minlagan holda odatdagi kun tartibiga qaytadi. O‘z navbatida, “Biror kishining xonadonida mehmon bo‘layotgan kishi mezbonni qiyin ahvolga solib qo‘yadigan darajada ko‘p muddat qolib ketmasligi kerak” [13]. Demak, mazkur maqolda so‘z mezbon yoki mehmondo‘stlik haqida emas,

ko‘proq mehmonning odobi haqida ketmoqda.

Bularga qo‘shimcha sifatida o‘zbek tilida turg‘unlashgan “mehmon qilmoq” iborasini keltirish mumkinki, unda ko‘pincha asosiy bo‘lgan mehmonning asosiy sharti – “qayergadir kelganlik yoki borganlik” ko‘rinmaydi. Masalan, quyidagi misolda ushbu ibora “egulik taom olib berish” ma’nosida qo‘llangan: Bufetga kuchi yetmaydiganlarni kuchi yetadiganlar mehmon qiladi. (U.Azim. Birovning umri) Demak, mehmon qilish “taomlantirish” ma’nosini beradi.

Qadriyatlarning chin istiqomatgohi jamiyat, madaniyat, insonlar ongidir. Ammo ularning bari mavhum va voqelanish ehtiyojiga ega. Qadriyatlarning lingvomadaniy aspektini yoritish uchun, albatta, matnga e’tibor berish darkor. So‘z mehmondo‘stlik xususida ketar ekan, o‘zbek adabiyotida Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasi, O‘tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi"da Robiya va dadasiga Husan dumaning yordami, mehmondo‘stligi, A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ida Usta Alimning tanimagan Otabekni uyiga kirgizishi kabi sahnalarning leytmotivi – o‘zbekning mehmonni ulug‘lashidan iborat. Birgina “O‘zbeklar” hikoyasida “to‘rt kishi siqilib qoladigan”, “bostirmaga o‘xshagan” uychada istiqomat qiluvchi, eri cho‘pon, xotini esa “tong otmasdan uyg‘onib, sigir sog‘adigan, erini kuzatib, keyin o‘rmak to‘qiydigan”, xullas, og‘ir sharoitda kun kechiradigan o‘zbek oilasining talabalarni xali quruq choy, xali tarvuz, xali non bilan mehmon qilishgani, ketar chog‘ida ularni ming-ming rahmatlar bilan kuzatgani yana bu oilaning nochorligini ko‘rib, ularning uyiga borishni, ularni ovora qilishni istamagan qahramondan “Pisand qilmadingiz bizni”-deya xafa bo‘lganligi aks ettirilgan. Hikoyaning so‘ngida shunday satrlar bor: “Men bu yerda oddiy jaydari, sodda o‘zbekning kengligi, to‘poriligini ko‘rdim. Ishonasizmi, avtobusga o‘tirganimdan keyin sovuq oynadan laylakqorga qarab yig‘lar edim: mana shu o‘zbeklarning bag‘ri kengligi uchun, ne-ne qiyinchiliklarga, faqirlikka qaramay, fe’li tor bo‘lmagan, ajib-afsonaviy mehmondo‘stligi instinkt kabi mavjud qolgani uchun... ichimda, ich-ichimdan quvonib yig‘lardim” (Sh.Xolmirzaev. O‘zbeklar). Mazkur aksiogen vaziyatdan o‘zbeklar mentalitetiga xos quyidagicha ijtimoiy-axloqiy me’yorlar kelib chiqadi: 1) mehmonga katta e’tibor bilan qarash lozim, 2) unga borini berish kerak, 3) mezbonning siylovlariga bee’tibor bo‘lmaslik kerak.

Shunday qilib, mehmondo‘stlik o‘zbek mentalligining ijtimoiy-axloqiy qadriyati hisoblanadi. Qadriyatlar turli shakllarda voqelanishiga qaramay, ularni tahlil etishda lisoniy material eng muhimidir. Shu sababli konsept tahlilida “til birliklari semantikasidan kontseptga tomon” tahlil yo'li eng ishonchli yo‘l hisoblanadi [1, 10].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Антология концептов. Под ред. В.И. Карасика, И.А. Стернина. Том 1. Волгоград: Парадигма, 2005. – С. 8.
2. Малюга Ю.Я. Культурология. – М.: ИНФРА-М., 2004. –С. 11.
3. Гулметов Э., Қобилжонова Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик. – Тошкент, 2000. – Б. 6.
4. Усманов Ф. Lingvomadaniyatshunoslik: metodologiya muammolari / “Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Андижон, 2023. – Б. 80. (79-85)
5. Карасик В.И. Аксиогенная ситуация как единица ценностной картины мира // Политическая лингвистика. 2014. №1. – С. 65. (65-75) URL: https://cyberleninka.ru/article/n/aksiogennaya-situatsiya-kak-edinitsa-tsennostnoy-kartiny-mira (дата обращения: 27.05.2024).
6. Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. Том 5. – М.: Наука – Вост. лит., 2000.– С. 364; 364. (566)
7. Эдельман Д.И. Ko‘rsatilgan lug‘at. – В. 365.
8. Комилова Г. – Б. 8, 86.
9. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – T., 2018. 29-bet.
10. Маҳмудов К. Меҳмоннома. –Т., “Ёш гвардия”, 1989. − Б. 8.
11. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 130.
12. Меҳмон ва мезбоннинг одоблари / Омина журнали. 1434, Ражаб, 5-сон. – Б. 27.
13. https://islom.uz/maqola/1069?ysclid=lwnqriuxt478622108 Murojaat sanasi: 15.05.2024

Odinaxon SAIDAXMEDOVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsent v.b.
Email: odinaxonsaidaxmedova@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA -NIKI QO‘SHIMCHASINING O‘ZLASHTIRILISHI
(bolalar bilan o‘tkazilgan tajribalar asosida)

Annotatsiya: maqolada o‘zbek tilida otning xoslik shakli -niki qo‘shimchasining o‘zlashtirish jarayoni, tajriba-sinov ishlari, tajriba usuli, tajribada qatnashgan respondentlar, tajriba natijalari aks etgan. Qo‘shimchaning o‘zlashishiga ta’sir qiluvchi semantik, shakliy murakkablik hamda chastotaning ahamiyati tajriba asosida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *til o‘rganish, til o‘zlashtirish, Tabiiy tartib gipotezasi, tajriba, respondentlar, -niki qo‘shimchasi*

Аннотация: в статье описан процесс освоения формы существительного -ники в узбекском языке, экспериментальная работа, метод эксперимента, респонденты, принимавшие участие в эксперименте, и результаты эксперимента. На основе опыта изучалось значение семантической, формальной сложности и частотности, влияющих на усвоение морфемы.

Ключевые слова: *изучение языка, овладение языком, гипотеза естественного порядка, эксперимент, респонденты, морфема -ники.*

Annotation: the article describes the process of mastering he noun form -niki in the Uzbek language, experimental work, the method of the experiment, the respondents who participated in the experiment, and the results of the experiment. The significance of semantic, formal complexity and frequency affecting the acquisition of the morpheme was studied on the basis of experience.

Key words: *language learning, language acquisition, Natural order hypothesis, experiment, respondents, the morpheme of -niki*

Kirish

Jahon amaliy tilshunosligi hamda psixolingvistika sohalarida o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab til o‘zlashtirish jarayonida universal lingvistik prinsiplarning mavjudligini tekshirish asosiy muammolardan biriga aylandi. Til o‘zlashtirishda qo‘shimchalar tartibini aniqlashga e’tibor qaratilib, grammatik morfemalar tartibini aniqlash orqali tilni birinchi (ona tili) hamda ikkinchi til sifatida o‘zlashtirilishini tadqiq etish dolzarb masala sifatida qaraladi. Jahon tilshunosligida J.Berko, K.Kazden, R.Braun, E.Beytis, J.Rankin, M.Perroni, S.Gammon, G.Olarte, A.Aksu, D.Slobin, E.Klark, U.Stefani, M.Voekova kabilar tomonidan til o‘zlashtirish va uning nazariy asoslari, ona tilida grammatik morfemalarning o‘zlashtirilishi, tartibga ta’sir qiluvchi omillar kabi masalalar turli tillar doirasida o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida M.S.Ismailov, O.Umarxo‘jayeva, N.S.Sayidiraximova, G.Iskandarova hamda M.Qurbonova tomonidan amalga oshirilgan qator tadqiqotlarda o‘zbek tilining ona tili sifatida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining fonetik hamda grammatik xususiyatlari, bolalarda nutq mahsulining paydo bo‘lishi va shakllanishi, bola nutqiy faoliyatida ijtimoiy muhitning ahamiyati, bolaning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog‘liq masalalar lingvistik, sotsiolingvistik, pragmalingvistik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqilgan. Shunga qaramay, ona tili hamda ikkinchi til sifatidagi o‘zbek tilining grammatik morfemalarini o‘zlashtirish ketma-ketligi bo‘yicha yaxlit tadqiqot yaratilmagan. Zero, grammatik morfemalarni o‘zlashtirish tartibini aniqlash til o‘zlashtirish jarayonida universal lingvistik prinsiplar ishlashi to‘g‘risida aniq va batafsil tasavvur hosil qilish imkoniyatini yaratadi.

Asosiy qism

Tabiiy tartib gipotezasi grammatik shakllar, qoidalar hamda birliklarning muayyan tartibda o‘zlashtirilishi haqidagi fikrni olg‘a suradi. Bu gipotezaga ko‘ra, til o‘zlashtirishda muayyan qo‘shimcha boshqa qo‘shimchadan avvalroq o‘zlashtiriladi [S.Krashen: 13] [2].

R.Braun morfemalar o‘zlashtirishi rivojiga bag‘ishlangan tadqiqotida ingliz tili ona tilisi bo‘lgan 3 ta bolaning (bolalardan biri 18 oylik, qolgan ikkitasi 27 oylik) so‘zlarni so‘z birikmalariga aylantirishini boshlagan vaqtidan boshlab 10-12 oy davomida kuzatgan hamda 14 ta grammatik morfemaning o‘zlashish tartibini aniqlagan. R.Braunning tadqiqotiga asoslanib, J.Villiers va P.Villierslar 16-40 oylik 21 ta bola bilan bir martalik tajriba o‘tkazishgan. Ular bolalarning bergan javoblarida muayyan qo‘shimchaning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashga uringan [De Villiers, J., De Villiers: 271] [1]. Ushbu tadqiqotdan keyin morfemalar o‘zlashish qatorini aniqlash uchun 2 ta yirik usul: muayyan vaqt oralig‘da ifodaning o‘rtacha uzunligi qiymatlarining oshishiga ko‘ra hamda har bir morfemaga nisbatan foizlar barcha bolalar bo‘yicha yig‘ilib, o‘rtacha hisob olingan va tartib bo‘yicha joylashtirish usullari yuzaga keldi.

O‘zbek tilining ona tili sifatida qo‘shimchalarning qay tartibda o‘zlashtirilishi jarayonini aniqlash maqsadida 2 turdagi tajriba-kuzatuv o‘tkazildi.

Birinchi tajribada bolalarning nutqi 10–12 oy davomida kuzatildi. Tajriba-kuzatuv ishtirokchilari:

tajriba-kuzatuv uchun O‘zbekistonning turli viloyatidagi o‘zbek tilini ona tili sifatida o‘zlashtirayotgan 4 nafar: 2ta qiz va 2ta bola tanlandi. Sinaluvchilarning yoshi tajriba-kuzatuv boshlangan paytdagi holatda berildi. Tajriba-kuzatuvga jismoniy sog‘lom, ruhiy hamda nutqi normal rivojlanayotgan bolalar tanlab olindi. Ular quyidagilar:

1. X.M. (1.4; Toshkent shahri)
2. Sh.M. (2.0; Namangan viloyati)
3. K.F. (2.2; Toshkent viloyati)
4. B.M. (2.9; Navoiy viloyati)

Tajriba usuli. Bolalarning 10–12 oy davomidagi kundalik so‘zlari ularning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari tomonidan qayd etilib, tadqiqotchi tomonidan tahlil qilib borildi. Tajriba-kuzatuv davomida sinaluvchilarga tadqiqotchi tomonidan qo‘shimchalar tartibini aniqlashga qaratilgan hech qanday stimuldan foydalanilmadi.

Tajriba natijalari statistik tahlil qilinib, bola nutqida qo‘shimchaning bor yoki yo‘q ekanligi hamda qo‘shimchadan to‘g‘ri foydalanish yoki foydalanmasligi holatlari aniqlandi va Spearman.rho korrelyatsiyasida hisoblandi.

Tajriba natijalarini tahlil qilar ekanmiz, bolalar nutqidagi qo‘shimchalar o‘zlashishi rivojini kuzatdik hamda o‘zlashish tartibini yuzaga keltiruvchi xususiyatlarga e’tibor qaratdik. Quyida har bir qo‘shimchaning o‘zlashtirish bosqichi, bola nutqida dastlab qo‘shimcha qaysi ma’noda hamda qaysi asos tarkibida kelishi, qolaversa, sintaktik strukturasi tahlil qilinadi.

Tajriba natijalariga ko‘ra, -niki shakli kundalik nutqi kuzatilgan sinaluvchilarda 6 tagacha asos tarkibida ishlatilganini kuzatdik.

-niki qarashlilik ma’nosini ifodalab, predmetning shu shakl qo‘shilgan so‘z bildirgan shaxs yoki narsaga tegishliligini bildiradi. Egalik qo‘shimchalaridan farqli o‘laroq -niki shaklida shaxs va son ma’nosi yo‘q. U, asosan, olmosh va otlarga qo‘shilib, tarkibida kelishik qo‘shimchalari mavjud bo‘lmagan hollarda gapda, ko‘pincha, kesim vazifasini bajaradi [A.Hojiyev: 52-53] [3].

Bolalar nutqida -niki shakli biror narsaga egalik qilish hissi ifodasi o‘laroq hukm sifatida maki, manki, menniki (meniki), maniki u kishilik olmoshi tarkibida qo‘llanganini kuzatish mumkin. Tajriba respondentlaridan birining nutqida meniki olmoshi o‘rnida o‘z ismiga -niki shaklini qo‘shib aytish kuzatildi. Muhammadali oilada yolg‘iz farzand, oilasidagilar biror narsaning kimga tegishli ekanini aytishganda Muhammadaliga nisbatan Ali so‘zini ishlatishadi. Shu sababli bolaning nutqida meniki olmoshi emas, Ayikiki (Aliniki) shakli atoqli ot tarkibida uchraydi. Keyinroq -niki shakli boshqa kishilik olmoshlari hamda shaxs otlari tarkibida ham qo‘llana boshlandi: u taniki (seniki), siziki (sizniki), bu adammiki, opamiki, ayimmiki, ammatonniki (ammajonniki) kabi.

-niki shaklini o‘zlashtirishda persepsiya va produksiyaning o‘zaro nomuvofiqligi kuzatildi. Masalan,

– Bu nima (telefonni ko‘rsatib)?
– Ayimmiki. (B.M.)

misolida bola savolni noto‘g‘ri tushungan, ya’ni undan narsaning kimga tegishli ekanligini emas, balki shu narsaning nomi so‘ralgan. Javob tarkibida qo‘shimcha mavjud, biroq javobning o‘zi savolni tushunilmaganligini tasdiqlaydi.

Keyingi holat -niki shakli qo‘shilgan so‘zning semantikasi bilan bog‘liq holatda namoyon bo‘ldi. Tajribada bolalarga xonadagi umumiy narsalar ko‘rsatilib, bu kimniki deb so‘ralganda, bolalar o‘zlariga tegishli bo‘lmagan buyumlarni ham meniki deb izohlashdi. Yana boshqa misolda,

– Bu kimning paypog‘i?
– Men(i)ki.
– Seniki emas-ku, Umarning paypog‘i-ku.
– Umarriki. (N.J.)

Bola savolni tushundi va garchi savol tarkibida -niki qarashlilik shakli bo‘lmasa ham, javob tarkibida ifodaladi, biroq mazmunan noto‘g‘ri javob berdi. Bu o‘rinda nomuvofiqlik shakl bilan emas, mazmun bilan bog‘liq holda yuzaga chiqqan.

Ifoda jihatiga ko‘ra, -niki shakli bola nutqida dastlab kesim vazifasida uchraydi: meniki. Bolalardan biror buyumning kimga tegishli ekanligi so‘ralganda, olingan javoblarda biror o‘rinda bu qo‘shimchaning nutqda tushib qolmagani kuzatildi.

Kuzatuvning keyingi oylarida -niki shakli bolalar nutqida quyidagi ketma-ketlikda qo‘llandi:

So‘roq olmoshi+kesim: kani (qani) maniki, kani uniki;

ega+kesim: aya(m) maniki, dada(m) maniki, hammasi meniki;

ega tarkibida+kesim: siziki kiy (sizniki kir), Atalliki yakmadi (Asalniki yoqmadi).

Tarkibida kelishik qo‘shimchalari bo‘lgan ikkinchi darajali bo‘lak sifatida gap tarkibida: buvimmikida bal (buvimnikida bor), Badinanikiga ket kaldim (Madinanikiga ketib qoldim), unikini qildi-ku (Unikini (uning sochini) o‘rdi-ku), annanikiga ketti (buvinikiga ketdi), Atal manikidan yatti (Asal menikidan yeyapti).

-niki qarashlilik shaklining inversiya holatida qo‘llanilishi bolalar nutqida kuzatildi: u meniki / meniki u kabi va bu shakl bolalar nutqida uzoq vaqt -ning qaratqich kelishigi o‘rnida ham foydalanilgani kuzatildi.

1-4 yoshli bolalar bilan o‘tkazilgan tajriba-kuzatuv natijalariga ko‘ra, o‘zbek tilining birinchi til (ona tili) sifatida grammatik qo‘shimchalar o‘zlashtirish tartibiga qo‘shimchaning semantik, shakliy murakkabligi hamda chastotasi ta’sir qiladi. Semantikasi hamda shakliy ifodasi sodda, chastotasi yuqori morfemalar dastlab o‘zlashtirilsa, u yoki bu xususiyati murakkab

qo‘shimchalar nutqda keyinroq namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Qo‘shimchaning semantik murakkabligi qancha ko‘p bo‘lsa, u shuncha kech o‘zlashtiriladi. Otning xoslangan shakli -niki qo‘shimchasi asosga qo‘shilib, qarashlilik ma’nosini ifodalaydi, ismlar tarkibida kelib, shaxs va sonni tanlamaydi; egalik qo‘shimchasi -im ham asosga qo‘shilib, u ham qarashlilik ma’nosini ifodalashi bilan bir qatorda, shaxs hamda son ma’nolarini ham ifodalaydi. Shu sabab -niki morfemasi -im egalik morfemasidan avvalroq o‘zlashadi.

O‘zbek tili agglutinativ tillar guruhiga kiradi hamda tildagi har bir ko‘makchi morfema muayyan funksiyani bajarish uchun xizmat qiladi. Shu jihatni inobatga olib, o‘zbek tilida morfemalarning o‘zlashtirish tartibini aniqlash shu tilning ona tili sifatida ham, chet tili sifatida ham o‘qitilishiga muayyan ta’sir o‘tkazadi hamda tadqiqotchilar oldiga tajriba o‘tkazish masalasini qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. De Villiers, J., & De Villiers, P. (1973). A cross-sectional study of the acquisition of grammatical morphemes in child speech. Journal of Psycholinguistic Research, 2. – P. 267-278. https://doi:10.1007/BF01067106.
2. Krashen, S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. New York: Pergamon Press. 1982. – P.13.
3. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.52-53.

Shoiraxon TOSHXUJAYEVA,
Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), QDPI dotsenti.
Maxbubaxon TOJIBOYEVA,
Filologiya fanlari nomzodi, QDPI dotsenti

SO‘Z KO‘CHMA MA’NOSINING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada metafora va uning yozuvchi badiiy mahorati, individual uslubi va asar badiiyatini ta’minlovchi muhim tasviriy vosita sifatidagi xususiyatlari lingvopoetik tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: *metafora, sinestetik metafora, lingvopoetika, yo’ldosh sema, idiolekt, aktualizator.*

Аннотация: в данной статье производится лингвопоэтический анализ метафоры и ее особенностей как важного изобразительного инструмента, обеспечивающего художественное мастерство писателя, индивидуальный стиль, художественность произведения.

Ключевые слова: *метафора, синестетическая метафора, лингвопоэтика, сема-компаньон, идиолект, актуализатор.*

Annotation: in this article, a linguopoetic analysis of the metaphor and its features as an important visual tool that provides the writer's artistic skill, individual style, and the artistry of the work is made.

Key words: *metaphor, synesthetic metaphor, linguopoetics, companion sema, idiolect, actualizer.*

Ijtimoiy hodisa hisoblangan til jamiyat taraqqiyoti natijasida, inson xayolot dunyosi, ijodiy tafakkuri, hissiyoti bilan uzviy ravishda doimo o‘sib va o‘zgarib, tobora rivojlanib boradi. Buning natijasida so‘z ma’no taraqqiyoti va semantik strukturasidagi semalari tarkibi va qo‘lanilish doirasi kengayib boradi. Leksemalarning bunday ma’no taraqqiyoti jarayonida sub’yektiv munosabatlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. [1;5] Chunki bunda sub’yekt o‘zining ideolekti bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lum bir tushunchani tilda ifodalash uchun uni borliqdagi ma’lum bir narsa-hodisa, belgi-xususiyat va harakat - holatga nisbatan qiyoslaydi. Lingvistikaga doir ba’zi tadqiqotlarda so‘zning ma’no mundarijasida atash, ifoda semalari bilan bir qatorda yo‘ldosh semalar ham borligi e’tirof etilgan.[4;58]

Ma’lumki, adabiy badiiy janrlar stilistikasining muhim muammolaridan biri nutqiy ekspressiya va shu bilan bog‘liq bo‘lgan badiiy matnning obrazliligi muammosidir. [1;22] Ijodkor badiiy asarning ta’sirchanligini oshirish, kitobxonda yuqori emotsional holat, his-tuyg‘u uyg‘otish maqsadida ularda ayrim tarixiy ma’lumotlarni jalb qilish bilan birga, ko‘plab badiiy tasvir vositalaridan (xususan, metafora, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa va boshq.) unumli foydalanishlari ma’lum. Shulardan eng faoli metafora usulidir.

Ma’lumki, metafora ko‘chimning asosiy turlaridan biri bo‘lib, nutqqa obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisalar (balki belgi va harakatlar) o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan so‘zlar va iboralarning ko‘chma ma’noda ishlatilishidir.

Erkin A’zam ijodida metaforik so‘zlardan ma’noni yashirin tarzda ifodalash, narsa-hodisani xarakterlashda taqqoslash, chog‘ishtirish, kitobxonning ko‘z o‘ngida o‘xshashlikni aniq gavdalantira olish maqsadlarda foydalangan. Yozuvchi ijodida qo‘llanilgan metaforalarni o‘zining biror xarakterli belgi-xususiyati bilan ajralib turuvchi predmet, shaxs, belgi

va harakatlar o‘rtasidagi ko‘chma ma’nosini quyidagi turlarga bo‘lib tasnif qilish mumkin:

1. Narsa-shaxslar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi. Yozuvchi qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini baholashda, ularning ijtimoiy mavqeyi, fiziologik holatini tasvirlashda ot-metaforalardan mohirona foydalangan. Masalan: Sen qattan bo‘lasan, yigit? Shoir qandaydir dag‘al, tergov ohangida so‘rardi. Nuriddin dovdirab qoldi, qo‘rqa-pisa aytdi qayerdanligini.

- Alpomishning yurtidan demaysanmi, sher! Tog‘ni yorib chiqqan tog‘ bolasiman, desang-chi! (“Javob”) Keltirilgan ushbu misolda metaforik qo‘llangan “sher” leksemasi o‘zining genetik semasini chetlashtirib, qo‘shimcha semasi bilan ko‘chma ma’no hosil qilgan. “Sher” leksemasi quyidagi semem strukturalarga ega:

Sher – 1) mushuksimonlar oilasiga mansub, kalta va sarg‘ish yungli (erkaklari esa qalin yolli) yirik sutemizuvchi yirtqich hayvon; arslon. 2) ko‘chma Shaxsni sherga nisbatlab ataydi (“azamat”, “botir”, “polvon” ma’nosida). [8;563]. Bunda 1-sema sher leksemasining bosh ma’nosi, genetik semasi hisoblanadi. Yuqoridagi parchada 2 - semasi metaforik ko‘chma ma’no hosil qilish va badiiy mazmun ifodalashda aktualizator bo‘lib hizmat qilgan. Yozuvchi Nuriddin obrazini individuallashtirish, yanada yorqinroq ifodalash maqsadida sher leksemasining xususiyatlari bilan qahramon xarakter-xususiyatlarini uyg‘unlashtirib, konnotatsiyali obrazli ifoda yaratgan. Adibning “Javob” qissasi qahramoni Nuriddinning Alpomish yurtidan ekanligi va bunda Alpomishlarga xos asosiy xususiyatlar aynan sher leksemasi strukturasidagi mazkur azamat, botir, polvon semalari orqali aniq ifodalangan. Adib qahramonining ana shunday xarakter-xususiyatini sherga qiyoslab, o‘zining ijobiy pragmatik maqsadini sher leksemasini metaforik ko‘chma ma’noda qo‘llash natijasida yuzaga chiqargan. Ko‘rinadiki, adib ijobiy xarakter-xususiyat va holatlarni ifodalash uchun ijobiylik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan metaforalardan foydalanadi.

2. Belgi o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi. Erkin A’zam belgi o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chirish natijasida asarlari tilining ifodaviyligini ta’minlash va ekspressivlikni oshirish maqsadida foydalangan. Misol, Endi ko‘rgan ko‘rishganimizda sovuqqina salom - alik qilardik, xolos. (“Pakaning oshiq ko‘ngli”) “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sovuq leksemasining genetik semasi quyidagicha izohlangan: «past harorat, past temperatura». Lekin matn doirasida bu leksema genetik semasini chetlashtirib, qo‘shimcha “ko‘ngilga yoqmaydigan, xush kelmaydigan; qo‘pol, dag‘al”[8;63]. ifoda semalari bilan ishtirok etgan va yozuvchining badiiy-g‘oyaviy maqsadini tinglovchiga yetkazishda pragmatik ko‘prik vazifasini o‘tagan. Yozuvchi sovuq leksemasining ichki mazmuniga implisit tarzda katta g‘oyaviy maqsadni yuklagan, ya’ni hikoya bosh qahramoni Pakananing ko‘ngilga yoqmaydigan, xush kelmaydigan; qo‘pol, dag‘al xarakterini yoqimsiz xarakat orqali individuallashtirib, uning ayni paytdagi ma’naviy tuban qiyofasiga ishora qilgan. Bo‘yi pastligi tufayli unda-bunda qizlardan pand yeyavergan, ammo ko‘ngli ulug‘, “go‘zallikka behad oshufta, o‘ta sevuvchan, mehru muhabbatga tashnai zor” Pakana qiyofasini ochishga hizmat qilgan.

3. Harakatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi. Erkin A’zam metaforik ko‘chma ma’no hosil qilishda harakatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi turidan ham mohirlik bilan foydalanib, ulardan voqelikni obrazli tasvirlashda, ekspressivlikni kuchaytirishda hamda o‘z asarlarining lingvopoetik qimmatini oshirishda foydalangan. A.Abdullayev fe’l-metaforalarda ekspressivlik asosan, holatning intensivlik nuqtayi nazaridan sodir bo‘lishi hamda fe’l-metaforalar hayvonot, parranda, o‘simlik, hasharot kabilarga xos harakat, xususiyatlarni insonga ko‘chirish asosida yaratilishini ta’kidlaydi. [1;30]. Bu jihati mendan o‘tganmikan desa, Elchiyev unaqa emas, tabiatan dali-g‘uli, suyunsa – yetti mahallaga jar solgudek, kuyinsa ham bir kun ichiga yutadi, ikki kun yutadi, axiyri, ochiq-oshkor portlaydi (“Javob”). Berilgan parchada portlamoq fe’li o‘zining “Gazlarning kuchli reaksiya yoki alangalanish natijasida juda tez kengayishidan yorilib parcha-parcha bo‘lmoq, bo‘laklarga ajralib sochilmoq” nominativ ma’nosini chetlashtirib, holatning intensivligi nuqtayi nazaridan metaforik ko‘chma ma’no hosil qilgan. Uning yuzaga chiqishida ijtimoiy shartlangan “kuchaymoq”, “avjiga chiqmoq”, “shiddatli tus olmoq” kabi g‘azablanish natijasida kelib chiqadigan ruhiy-asabiy holat semalari asos bo‘lib xizmat qilgan.

Ma’lumki, metaforalar ma’lum ma’noda nominatsiya jarayonini boshqaradi va shu jihatiga ko‘ra lingvistik hamda badiiy metaforalarga bo‘linadi. Lingvistik metaforalar borliqda nomi yo‘q bo‘lgan narsa-tasavvurlarga nom berish vazifasini bajaradi: stolning oyog‘i, o‘choqning og‘zi, radioning qulog‘i kabi. Badiiy metaforalar esa borliqda mavjud bo‘lgan narsa-tasavvurlarga qayta nom berish (ikkilamchi nominatsiya) jarayonida voqelanadi.

Erkin A’zam asarlarida metaforaning o‘z xarakteriga ko‘ra turli ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Bulardan ayrimlari umumxalq tilida uzoq vaqtlar faol ishlatilib o‘z ma’nosini yo‘qotib denotativ ma’no ifodalaydigan bo‘lib qolgan, ya’ni ko‘p ma’noli so‘zlardagi ko‘chma ma’noning uzoqlashishi natijasi o‘laroq omonimlar vujudga kelgan bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Erkin A’zam asarlarida metaforaning o‘z xarakteriga ko‘ra turli ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Bulardan ayrimlari umumxalq tilida uzoq vaqtlar faol ishlatilishi natijasida o‘z ma’nosini yo‘qotib denotativ

ma’no ifodalaydigan bo‘lib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983. 5-b.
2. Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari.–Toshkent, 2002. 73-b.
3. Mahmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati.–Toshkent, 2009. 2-nashr.80-b.
4. Ne’matov H. Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 58-b.
5. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filol.fan.nomz., diss., avtoreferati. – Toshkent, 2000. 28-b.

Махмуд РАВШАНОВ,
профессор Навоийского государственного горного и технологического университета, доктор филологических наук

РАСКРЫТИЕ ЗНАЧЕНИЙ МНОГОЗНАЧНОСТИ СЛОВ И ПРИЕМЫ СЕМАНТИЗАЦИИ

Аннотация: при работе со словарями важно выявить многозначность слов. Перевод – один из основных способов объяснения значения русских слов, но это не единственный способ семанизации значений слов.

Ключевые слова: *значение, полисемия, семантизация, словарная работа.*

Annotation: when working with dictionaries, revealing the polysemy of words is of great importance. Translation is one of the main ways to explain the meaning of Russian words, but not the only way to semantize the meanings of words.

Key words: *meaning, polysemy, semantization*

Annotatsiya: lug'atlar bilan ishlashda so'zlarning ko'p ma'noliligini ochib berish katta ahamiyatga ega. Tarjima ruscha so'zlarning ma'nosini tushuntirishning asosiy usullaridan biri bo'lib, so'zlarning ma'nolarini semantiklashtirishning yagona usuli emas.

Kalit so'zlar: *ma'no, polisemiya, semantizatsiya, lug’at ishi.*

В настоящее время издается научно-методические литература, в которой исследуются вопросы методики дидактики, идет речь об опыте работы, даются методические рекомендации по отдельным вопросам преподавания русского языка. Значительное место занимает литература, освещающая роль и значения словарной работы в системе преподавания русского языка. Во всех журналах, в том числе в журнале «Преподавание языка и литературы» проводятся обширные дискуссии о словарной работе, о составлении учебных словарей и т.п.

Несмотря на эти обширные работы в методической и дидактической литературе недостаточно освещены специальные теоретические, дидактические и методические основы словарных работ[2.31–32].

Словарная работа в процессе обучении нерусских русскому языку – это большой и сложной комплексе различных видов как методических, так и дидактических приемов, применяемых на занятиях по развитию речи, изучению и усвоению практических правил грамматики, по привитию навыков русского произношения, при чтении художественной и специальной литературы и т.п.

1. Eslash (Remember). Ma’lumotni eslash va esdan chiqarmaslik: Yodlab olmoq, nusxa, ko‘chirma, takrorlash, tanib olmoq.

1. Asardagi qahramonlarni sanab bering.
2. Salbiy qahramonlar
3. Ijobiy qahramonlar
4. Asardagi zargarlik buyumlari haqida ma’lumot bering.
5. “Urug‘imizda bunaqa odam bo‘lmagandi-ku” jumlasi qaysi qahramonga tegishli?
6. Asardagi qish fasli tasvirlangan holatni aytib bering.
7. Bosh qahramon qanaqa lavozimga tayinlangan edi?

2. Tushunish (Understand). Matnning ma’nosini anglab yetish, bu bosqichda talaba tushungan ma’lumotlari va g‘oyalarini ko‘rsatib, tushuntirib beradi: (Izohlamoq, batafsil qayta aytib berish, raport bermoq, tasvirlamoq, umumlashtirmoq)

1. Asarda “jigar”ni ko‘rish uchun kelish sababini tushuntiring.
2. Robiya xolaga xarakteristika bering.
3. Asaragi ikkiyuzlamachilik jarayonini izohlang.
4. Xolasi qizini nima maqsadda Nasibjonning uyiga olib kelgan edi?
5. Asar haqida qisqacha ma’lumot yozing.
6. Siz Nasibjonning qarindoshlarini aniq psixologik tasvirlab bera olasizmi?
7. Asardagi asosiy fikr nima edi?

3. Qo‘llash. (Apply). Yangi kontekstda mavjud bilimlardan foydalanish: Amaliyot, hisoblash, bajarish, ishlatmoq, foydalanish, misol keltirish, misol bilan ko‘rsatish.

1. Real hayotda asardagi kabi voqeani tasvirlab bera olasizmi?
2. Bu yerda qanaqa savollar bergan bo‘lar edingiz?
3. Asardagi yana qanaqa salbiy misollarni keltira olasiz?
4. Qahramonlar qanaqa tanlovga duch kelishgan?

4. Tahlil (Analyze). Munosabatlar, sabablar va bog‘liqliklarni aniqlash: Qiyoshlash, solishtirish, kategoriyalarga ajratish, tashkil etish, farqiga borish. Aloqalar va munosabatlarni o‘rganish uchun ma’lumotlarni qismlarga ajratish.

1. Asarda qaysi voqealar sodir bo‘lishi mumkin emas edi?
2. Asardagi burilish nuqtasini toping.
3. Asosiy muammo nimada edi?
4. Nima uchun asardagi insonlar hayotida shunaqa o‘zgarishlar yuz berdi?
5. Qanday qilib asar qahramonlari shunaqa vaziyatga tushib qoldilar?

5. Baho berish (Evaluete). Ovoz tahliliga asoslanib fikr qilish: Hukm chiqarish, baholash, qaror qilish, fikrni himoya qilish, tanqid qilish, tavsiya qilish. Mavqe’ yoki harakat yo‘nalishini himoya qilish yoki asoslash.

1. Asarning qiymatini baholang.
2. Sizningcha asardagi shunday munosabat yaxshimi yoki yomonmi?
3. Asardagi salbiy qahramonlarning barchasini o‘ylab ko‘rishiga ishonasizmi?
4. Agar ular (salbiy qahramonlar) o‘z haqlarida o‘ylab ko‘rsa, oqibatlari qanday bo‘lishi mumkin?

5. Nima uchun bosh qahramon bunaqa yo‘l tutdi?

6. Yaratish (Create). Mavjud bilimlardan foydalanib yangi fikr, g‘oya yaratish: Ixtiro qilish, rivojlantirish, loyiha tayyorlash, ishlab chiqarish, qurish. Yangi g‘oyalar, fikrlar va natijalarni yuzaga keltirish.

1. Asar haqida yangi yakun ixtiro qiling.

2. Salbiy qahramonlarning harakatlarini himoya qilish uchun nimalar keltira olardingiz?

3. Siz asardagi umumiy jarayonga qo‘shilasizmi?

4. Agar qarindoshlar haqiqatdan ko‘rishga kelganda nima bo‘lardi?

5. Asaragi mumkin bo‘lgan yechimga ko‘ra qahramonlarning keyingi faoliyati va holati qanaqa bo‘lishi mumkin?

Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy xarakterlarni shakllantirishda Said Ahmad ijodi alohida ahamiyatga ega. Ijodkor qaysi janrda ijod qilmasin, obrazlar psixologiyasini ochishda juda mahoratli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda, badiiy asarda inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma`lum.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Blum B., Engelhart M., Farst E., Hill W., Kratvull D. “Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals”. – NY.: Devid MakKey. 1956. 3-bet.

2. Kambarova S. “Blum taksonomiyasi – o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning muhim omili sifatida”. O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali. –T.: 2022. 4-bet. 2-son.

Mohigul FOZILOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
fozilova1204@gmail.com
Solixaposhsho XUDOYOROVA,
Stajyor-o‘qituvchi

O‘ZBEK TILI DARSLARINI O‘QITISHDA VIDEO VA AUDIO MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: ushbu maqola o‘zbek tili darslarida video va audio materiallardan foydalanishning samaradorligini o‘rganadi. Tadqiqot doirasida o‘zbek tili o‘qituvchilari va o‘quvchilari orasida so‘rovnoma o‘tkazildi, shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, video va audio materiallar o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, video materiallar, audio materiallar, til o‘qitish, samaradorlik.*

Аннотация: в данной статье рассматривается эффективность использования видео и аудио материалов на уроках узбекского языка. В рамках исследования был проведен опрос учителей и учащихся узбекского языка, а также проанализирована имеющаяся научная литература. Результаты показывают, что видео и аудио материалы повышают интерес учащихся к изучению языка, развивая их понимание на слух и навыки устной речи.

Ключевые слова: *узбекский язык, видеоматериалы, аудиоматериалы, языковое обучение, эффективность*

Annotation: this article explores the effectiveness of using video and audio materials in Uzbek language lessons. Within the framework of the study, a survey was carried out among teachers and students of the Uzbek language, as well as an analysis of the available scientific literature. The results show that video and audio materials increase students ' interest in language learning, developing their listening comprehension and verbal speech skills.

Key words: *uzbek language, video materials, audio materials, Language Teaching, efficiency*

Kirish. Bugungi kunda chet tillarini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Video va audio materiallar til o‘rganuvchilarga autentik til muhitini taqdim etish, ularning kommunikativ kompetensiyasini oshirish imkonini beradi [1]. O‘zbek tili ta'limi tizimida ham multimedia vositalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o‘zbek tili

darslarida qanday video va audio materiallardan qanday maqsadlarda foydalanish maqsadga muvofiqligi hali yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu tadqiqot ana shu masalani o‘rganishga qaratilgan.

Usullar va adabiyotlar tahlili.

Tadqiqot doirasida o‘zbek tili o‘qituvchilari va o‘quvchilar ishtirok etgan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalarini tahlil qilishda SPSS dasturidan foydalanildi. Shuningdek, mavzuga oid bir qancha ilmiy maqola va dissertatsiyalar o‘rganib chiqildi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi [2]. To‘plangan ma’lumotlar kontentni tahlil qilish (content analysis) usuli bilan qayta ishlandi.

Natijalar.

O‘qituvchilar va o‘quvchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- Video va audio materiallardan foydalanish o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.
- Bunday materiallar o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradi.
- O‘quvchilar video va audio materiallar asosida muloqot mashqlarini bajarishni yoqtiradi.
- O‘qituvchilar dars uchun video va audio materiallarni tanlash va tayyorlashga ko‘p vaqt sarflashadi.
- Video va audio materiallar o‘quvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, aksariyat o‘qituvchilar darsda foydalanish uchun video va audio materiallarni asosan internetdan qidiradi. Ular ko‘pincha til o‘rganish uchun mo‘ljallangan maxsus saytlar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ishlamaydi.

Tahlil va muhokama.

Tadqiqot natijalari o‘zbek tili darslarida video va audio materiallardan foydalanish samaradorligini tasdiqlaydi. Ma’lumki, bunday autentik materiallar o‘quvchilarga real hayotiy til muhitini namoyish etadi, ularni muloqotga undaydi [3]. Multimedia vositalari o‘quvchilarning bir vaqtning o‘zida eshitish va ko‘rish qobiliyatini ishga soladi, bu esa o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

Shu bilan birga, o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish uchun yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun til o‘qituvchilari uchun maxsus treninglar, malaka oshirish kurslari tashkil qilish tavsiya etiladi [4]. O‘qituvchilar dars uchun sifatli video va audio materiallarni tanlash, ulardan oqilona foydalanish metodikasini o‘zlashtirishlari zarur.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan yana bir muhim omil – o‘zbek tili darsliklarida multimedia materiallariga mo‘ljallangan mashqlar yetishmasligi. Darslik va o‘quv qo‘llanmalari audio va video materiallar bilan boyitilishi, ular asosida kommunikativ mashqlar ishlab chiqilishi lozim. Bu borada xorijiy til darsliklari tajribasidan foydalanish mumkin [5].

Xulosa. O‘zbek tili ta’limida video va audio materiallardan foydalanish o‘qitish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Video va audio materiallardan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini takomillashtirish, ularning muloqot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliyev, A. (2020). Using video materials in foreign language teaching. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics, 7(1), 67-75.

2. Мирсанов, У. (2018). Хорижий тажрибалар асосида ўзбек тили дарсларида инновацион технологиялардан фойдаланиш. Тил ва адабиёт таълими, 2, 32-38.

3. Norova, M. (2021). Authentic video materials as a tool for developing students' communicative competence in Uzbek language teaching. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 9(4), 112-117.

4. Рахмонов, А. (2019). Ўзбек тили ўқитувчиларининг мультимедиа воситаларидан фойдаланиш кўникмаларини ривожлантириш зарурати. Филология масалалари, 3, 93-99.

5. Sattarov, T. (2020). The role of video and audio materials in Uzbek language textbooks. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2020(1), 55-63.

Mahliyo ELBOYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbek adabiyoti ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati haqida so‘z borgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bolani mustaqil fikrlashga, muammoga turli rakurslardan qarashga va yechim topishga o‘rgatadi. Dars jarayonlarida o‘quvchini ijodiy yondashishga va asosiy ishtirokchiga aylantiradi, o‘qituvchi esa boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Bolalar adabiyotini o‘qitishda psixodiagnostik metodlardan foydalanish, bolanining badiiy asarni tushunishiga, tahlil qilishga va nutqiy fantaziyasining shakllanishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *kreativ, psixodiagnostik, eksprimental, innovatsiya, interaktiv.*

Annotation: this article talks about the practical importance of using modern pedagogical technologies in teaching children's literature. Modern pedagogical technologies teach the child to think independently, look at the problem from different angles and find a solution. It turns the student into a creative approach and the main participant in the lesson processes, and the teacher acts as a manager. The use of psychodiagnostic methods in the teaching of children's literature helps the child to understand, analyze, and develop his or her literary imagination.

Key words: *creative, psychodiagnostic, experimental, innovation, interactive.*

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida xususan, bolalar adabiyotini o‘qitishda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilganligidir. Zamonaviy texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarning bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlashda zamonaviy o‘qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlash demakdir. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

– o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

– o‘quvchilarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlanishi.

O‘quvchilarga adabiyotning ilk ostonalaridayoq ularga adabiyotdan lazzatlanish tuyg‘usini shakllantirishga harakat qilmog‘imiz darkor ekan. Shu sababli ham bu yoshda bolaga psixologik jihatdan ya’nikim uning ruhiyatiga mos ravishda metod va texnologiyalarni qo‘llab adabiyot olamiga olib kiramiz. Psixodiagnostik metodlardan 5-sinf o‘quvchilariga qo‘llab ko‘rsak. Sinfda mustaqil o‘qish uchun berilgan asarlardan foydalanamiz, sababi, mustaqil o‘qish jarayoni quyidagi maqsadlarga qaratilgan bo‘ladi:

– bolada kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash;

– ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish;

– ularning qiziqishini o‘rganish;

– adiblarning ijodi bilan elementarni tanishtirish;

– o‘qish malakalarini shakllantirish;

Mustaqil o‘qish uchun berilgan asarlar birinchidan, bolaning yosh xususiyatlarini, qiziqish doiralarini ikkinchidan, o‘qishga tavsiya qilingan asarlarning dastur mavzusiga mosligi va badiiy barkamolligini alohida inobatga olinishini taqozo etadi. Zero, sinfda o‘qish – hayotga tayyorlash, mustaqil o‘qish esa hayotning o‘zidir. Beshinchi sinf adabiyot darsligida Anvar Obidjonning hayoti va ijodi berilgan. Mustaqil o‘qish uchun esa “Avtoqishloq”, “Bahromning hikoyasi”, “Odam bo‘laman” she’rlari berilgan. Ushbu she’rlardan birini tanlab bolaga uyda mustaqil o‘qib, o‘rganib kelishni topshirishdan oldin, bolaning xotirasida she’rning necha foizi qolishi, qanchasini o‘zlashtira olishini, bolalarning eslab qolish qobiliyati va she’rning qancha qismini yodlay olishini bilishimiz uchun eksprimental metodikadan ya’ni tabiiy eksperimental metoddan foydalanamiz. Shu o‘rinda tabiiy eksprimental psixologiya va metodika terminiga to‘xtalib o‘tamiz.

Eksperimental metod – bunda tadqiqotchi o‘z xohishi bilan qandaydir ruhiy protsess yoki xususiyatni yuzaga keltirib ruhiy hodisaning tashqi sharoitga bog‘liqligini tekshirib ko‘rishi mumkin. Bu metodning afzalligi Empirik, ya’ni tajriba yo‘li bilan qo‘lga kiritilgan faktlardir. Bu metod asosan pedagogikada bola ruhiyatini o‘rganish uchun qo‘llanadi. Professor

A.F.Lazurskiy tomonidan eksprimental metodning alohida turi – tabiiy eksperimental metod 1910-yilda ishlab chiqilgan. Eksperimentning bu turidan bizda bolalar psixologiyasini o‘rganishda, pedagogika masalalarini, ayniqsa ta’lim psixologiyasi masalalarini ishlab chiqishda keng va unumli foydalanilmoqda. Bu metod yordamida oddiy kuzatish va o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan aniqlash qiyin bo‘lgan yoki butunlay mumkin bo‘lmagan ma’lumotlar aniqlanadi, bolalarda idrok, xotira, sohasidagi ba’zi bir qonuniyatlar ochilgan. [3,36] Psixologlarning aytishicha, eksperimental metodning usullaridan foydalanish amaliy faoliyatning turli sohalarida ayniqsa talim va o‘quv tarbiya ishlarida juda ko‘p foydalaniladi degan fikrni ta’kidlab o‘tganlar. Kuzatishlarimga ko‘ra bolaning qobiliyatlarini o‘rganmay turib unga biron topshiriq yoki vazifa berish bu bolani fandan va darsdan zerikishiga va borib-borib umumuman dars qilmaslikka, shu fanga umuman qiziqmay qo‘yishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tgan eksperimental metodni 5-sinf adabiyot darsligida Anvar Obidjonning mustaqil o‘qish uchun berilgan “Odam bo‘laman” she’rini tanladik.[1,243] Shuni ta’kidlab o‘tmoqchimizki, bolalarga biron topshiriqni berishdan avval, bolalarga ularga berilgan vazifani to‘g‘ri tushunganligiga ishonch hosil qilish kerak chunki, berilgan va bajarilayotgan vazifaning muvaffaqiyati ko‘p hollarda shunga bog‘liq.

Bolalarga “Odam bo‘laman” she’rini yaxshilab oxirigacha ikki-uch marta ifodali o‘qib, o‘quvchilarga quyidagicha topshiriq beramiz: “Hozir men sizlarga ushbu o‘qib bergan she’rimdan o‘nta so‘z aytaman va bir to‘xtab olaman, mana shu to‘xtab olgan vaqtimda aytgan so‘zlarimni eslab qolib uni qog‘ozga yozishingiz va rasmini chizishingiz kerak bo‘ladi. Tezroq yozishga va chizishga harakat qiling.

So‘zlar: shafyor, fazogir, oy, to‘p, futbolchi, do‘xtir, barmoq, bolalar, kitob, moy. Bolalarga yuqoridagi so‘zlar birin-ketin o‘qib beriladi, har bir so‘zni o‘qib bo‘lanidan keyin 20 sekund tanaffus qilinadi. Shu vaqt ichida bola aytilgan so‘zlarni yozishi va chizib borishi kerak. Mashg‘ulot tugagandan so‘ng, bolalardan yozgan so‘zlarini o‘qib berishini so‘raladi.

Natijalar tahlili:

1 ball – o‘z chizmalari va yozuvlaridan foydalanib so‘zlarni to‘g‘ri aytsa;

0.5 ball – chizgilarga qarab berilgan so‘zlarga yaqinroq so‘z aytsa;

0 ball – noto‘g‘ri so‘z aytsa.

Umumiy maksimal ko‘rsatkich o‘n ball. Demak, baholaydigan bo‘lsak bola maksimal ball to‘plasa xotirasi juda yuqori u bola she’rni bemalol yodlay oladi. Sakkiz-to‘qqiz ball to‘plasa bu bolada eshitish xotirasi yuqori darajada u she’rni ko‘proq tinglasa yodlay oladi. To‘rt-yetti ball to‘plasa xotirasi o‘rtacha darajada rivojlangan bunday bolalarga she’rni yarmini yodlashga qobilyat mavjud.[2,73-75] Ikki-uch ball to‘plasa bunday tipdagi bolalarda xotira past hisoblanib ular bilan darsda, darsdan tashqari mustaqil ishlarda ko‘proq xotira mashqlarini va aqlni charxlovchi turli xil metodlar orqali mashq qilishlari kerak bo‘ladi. Bunday jarayonlarda psixodiagnostik testlar ham asqotadi. Bu testlar yordamida bolaning aqlini o‘lchash uning qobilyat darajasiga qarab o‘qituvchi u bilan ishlashi, izlanishi kerak bo‘ladi. Psixodiagnostikaning yana bir muhim xususiyati shundaki, unda bolani ruhiy jihatdan o‘rganib, uni amaliyotda to‘g‘ri yo‘naltirishimizdir, bolani adabiyot olamiga olib kirishimizda yordamchi usul deb o‘yladik.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, maktab ta’limi tizimida, bolalar adabiyoti namunalarining berilishida ham bolaning yosh xususiyatlari, ularning psixologik holati atroflicha o‘rganilib keyin berilmog‘i darkor deb o‘ylaymiz. Taniqli metodist M.B.Cherkezova ko‘rsatganiday, “Milliy maktablarda asarlarni o‘rganish metodikasini tanlash uchun ilmiy adabiyotshunoslik mezonlari, adabiy hodisalarga nisbatan tarixiy-genetik, tarixiy-funksional va qiyosiy-tipologik yondashuvlar borligi asos bo‘lib xizmat qiladi”.

Masalan, darslikda berilgan Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasini o‘qitishdan avval, ularni hikoyaga qiziqtirish uchun “Quyoshcha” texnologiyasidan foydalanamiz. Bunda doskaga quyosh tasvirini yopishtirib qo‘yamiz yoki chizamiz. Quyoshning o‘rtasiga esa yaxshilik so‘zini yozib qo‘yamiz va o‘quvchilarga kim qanday yaxshilik qilgan bo‘lsa quyoshchaning “qo‘llariga” yozib chiqsin. Sinfdagi o‘quvchilar birin-ketin doskaga chiqib o‘zlarining qilgan yaxshiliklarini yozib chiqishadi. O‘quvchilarning barchasi o‘zlari qilgan yaxshiliklarini yozib bo‘lishgach, doskaga yana bir quyoshchaning tasviri ilib qo‘yiladi. Bundagi quyosh tasviri yana ham yorqinroq va xursand ko‘rinishda tasvirlangan bo‘ladi. Ya’ni, sizning kimgadir qilgan yaxshiligingiz xuddi manashu quyosh tasvirlaridek siz qanchalik ko‘p yaxshilik qilsangiz, sizning qalbingiz quyosh kabi yorqinroq nur sochadi va atrofdagi insonlarni xuddi, quyosh nurlari yer-u olamni isitgani kabi sizning qalbingizdan chiqqan nurlar yaqinlaringizni ham shunday isitib orom baxsh etadi.





2.2. “Quyoshcha” rasmi

Bolani asarga olib kirish uchun shu kabi texnologiyalardan foydalanish bolaning asarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada ortishiga olib keladi. Bu yoshdagi bolalarni badiiy asarni o‘rganishga, tushunishga, obrazlarini tahlil qilishga o‘rgatishimizda yana bir pedagogik-psixologik metoddan foydalanamiz “Nutqiy fantaziya” metodini qo‘llab ko‘ramiz. Bu metod ham yuqorida keltirib o‘tganimizdek psixodiagnostik metodikaning bir turi hisoblanadi. “Nutqiy fantaziya” metodikasida bolaga biror jonli mavjudot (odam, hayvonlar) haqida (bolaning xohishiga ko‘ra) hikoya tuzish va uni so‘zlab berish topshirig‘i beriladi. Buning uchun bolaga 10 daqiqa vaqt ajratiladi. Bola hikoyani so‘zlab berish jarayonida, uning fantaziyasi qay darajadaligini bilish uchun quyidagilarga e’tibor beriladi:

1. Xayol jarayonining tezligi.
2. Obrazlaming o‘ziga xosligi, originalligi.
3. Fantaziya (tasavvur)ning boyligi.
4. Obrazlarning chuqur ishlanganligi.
5. Obrazlarning hissiy - ta’sirchanligi.

Yuqoridagi belgilarning hikoyada aks etganligiga qarab, har biri 5 balldan 1 ballgacha baholanadi. Bola hikoyani so‘zlab berayotganida, o‘qituvchi yuqoridagi bolaning hikoya tuzishda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatlariga qarab ball qo‘yib chiqadi, oxirida bolalar tuzgan hikoyalar haqida umumiy xulosalar berib chiqadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda an’anaviy usullardan farqli o‘laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirish va ta’lim jarayonida qo‘llash samarali natijalar bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun. – Toshkent: “Sharq”, 2020. 243- bet.
2. Jalilova S., G‘ayibova N. Umumiy Psixodiagnostika. –Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2018. 73-75-betlar.
3. Nishonova Z., Qurbonova Z., Abdiyev S. Eksperimental psixologiya. –Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2011. 36-bet.

Dilafruz BAHRIDDINOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING IJTIMOIY-KASBIY MOBILLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PRESS FORMULA VA JIGSAW USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-kasbiy mobilligini oshirishda “O‘qish va yozuv amaliyoti” fani misolida PRESS FORMULA va JIGSAW usullarida foydalanish maqsadlari va qanday qo‘llanish usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *mobillik, kasbiy mobillik, press formula, jigsaw, texnologik madaniyat, ijtimoiy pedagogika*

Аннотация: в данной статье на примере предмета «Практика чтения и письма» для повышения социально-профессиональной мобильности будущих учителей поясняются цели и методы использования методов «ФОРМУЛА ПРЕСС» и «Jigsaw».

Ключевые слова: *мобильность, профессиональная мобильность, формула прессы, jigsaw, технологическая культура, социальная педагогика*

Annotation: in this article, the goals and methods of using the PRESS FORMULA and JIGSAW methods are explained in the example of the subject of "Reading and writing" to increase the socio-professional mobility of future teachers.

Key words: *mobility, professional mobility, jigsaw, technology, press formula, technological culture, social pedagogy.*

Kirish qismi: Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida ijtimoiy va kasbiy mobillik tizimi zamonaviy sharoitlarda oliy kasbiy ta’lim o’zining asosiy maqsadi sifatida mehnat bozorida talabga ega bo’lgan barkamol, muvaffaqiyatli va raqobatbardosh, umum madaniy va kasbiy kompetensiyalarga, ko’nikma va bilimlarga, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy fazilatlarga ega bo’lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo’lajak o’qituvchilarni o’qitish va kasbga tayyorlash, ta’lim sifatini xalqaro darajaga ko’tarish, kasbiy va ijtimoiy mobillikni rivojlantirish darajasini oshirish, modulli ta’limni yo’lga qo’yish bo’yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Biz “O‘qish va yozuv amaliyoti” fanidan yozuv ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida “PRES formula” dan (Position-Reason-Explanation or example-Summary), o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun esa Jigsaw usulidan foydalanish usullari to‘g’risida to‘xtalmoqchimiz.

PRES formula usulida o‘quv jarayonini samarali boshqarish uchun o‘qituvchi materialni o‘zlashtirish sifatini muntazam ravishda kuzatib borishi kerak. Bunday holda, o‘zini yakuniy ishlar bilan cheklab bo‘lmaydi, chunki darsning tarbiyaviy maqsadining amalga oshirilishini tekshirish, shuningdek, maktab o‘quvchilarining mantiqiy va analitik fikrlash darajasini kuzatish kerak. Monitoringning eng samarali usullari orasida PRES formulasi bo‘yicha javoblarni tayyorlash yetakchi o‘rinni egallaydi.

Ushbu texnikaning ahamiyati shundaki, u talabalarga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini ixcham shaklda ifodalash va uni juda tez bajarish imkonini beradi. Oxirgi omil ishi darsning qat’iy muddati bilan cheklangan har bir o‘qituvchi uchun muhim rol o‘ynaydi. Texnologiya har qanday turdagi auditoriyalarda qo‘llanilishi mumkin: kirishdan nazorat qilishgacha. Uni quyidagi bosqichda kiritish mumkin:

- ✓ uy vazifalarini tekshirish;
- ✓ o‘rganilayotgan narsani takrorlash bosqichida frontal tekshirish;
- ✓ testga tayyorgarlik, insho, insho yozish;
- ✓ mavzu yoki butun mavzular bloki bo‘yicha loyiha yaratish.

Dastlabki bosqichda talabalarga og’zaki javob PRES formulasidan foydalanish qoidalarini tushuntirish mumkin.

PRES formulasi bo‘lajak o‘qituvchilarga quyidagilarga imkon beradi:

- ✓ qisqa vaqt ichida bir nechta talabalar bilan suhbatlashish;
- ✓ talabaning mavzuni tushunish chuqurligi haqida ma’lumot olish;
- ✓ talaba u yoki bu hodisaga qanday axloqiy baho berishini aniqlash.

Bunday refleksiya, boshqa narsalar qatori, yordam beradi:

- ✓ talabalarda baholovchi fikrlashni shakllantirish;
- ✓ talabalarni o‘z fikrlarini qisqacha ifoda etishga o‘rgatadi;
- ✓ yozuvni amalga oshirish g’oyalari rivojlanadi.

Quyida PRES formulasiga misol ko‘rishingiz mumkin:

P- I think we should learn how to become good parents.

R- The more we learn, the more we realize.

E- Examples: We behave like our mothers and fathers, we need to see role models. Psychology is important.

S- Parenthood is the most difficult task in life.

Har qanday darajadagi talabalar ularga katta hajmdagi matn taqdim etilganda, hayratga tushishi mumkin. Jigsaw o‘qish - bu uzoq matnlarni kichikroq matn bo‘laklariga (bir-ikki paragraf) ajratadigan tashkil qilish usuli bo‘lib, talabalar mutaxassislar bo‘lish uchun guruhlarda birgalikda ishlaydi. Keyin har bir talaba yangi guruhga o‘tadi, uning har bir a’zosi matnning boshqa qismi bo‘yicha mutaxassisga aylandi. Keyin talabalar navbatma-navbat o‘zlarining yangi guruhiga matnning o‘z qismi haqida dars berishadi. Ushbu uslub talabalarga bir-birlarini tushunishga yordam berish imkoniyatini berib, hamkorlikda o‘rganishga urg’u beradi.

Jigsaw o‘qish nutqni o‘qish darsiga kiritishning ajoyib usuli hisoblanadi. Bu haqiqiy muloqot uchun haqiqiy imkoniyat beradi. Haqiqiy hayotda biz o‘qigan maqolamiz haqida odamlarga aytib berishimiz mumkin, shuning uchun bu juda haqiqiy bo‘lgan sinfdagi mashg’ulotdir.

A.A.Reanning fikricha, yuqori, ijobiy motivatsiyaning mavjudligi qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlanishi bo‘lmaganda yoki mutaxassislik bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarning yetarli emasligida kompensator rolini o‘ynaydi. Shubhasiz, bunday motivatsiyaning mavjudligi asosan kasbiy-pedagogik qadriyat yo‘nalishlari tizimini shakllantirishga bog‘liq.

Universitetda o‘qish jarayoni ko‘pincha kasbga qiziqish kursdan kursga pasayishiga olib keladi. Pedagogik amaliyot tuzilmasida ro‘y bergan o‘zgarishlar birinchi marta bo‘lajak o‘qituvchilarning yozgi sog‘lomlashtirish oromgohlarida ishlaganda faqat uchinchi kursdan so‘ng bolalar bilan bevosita aloqada bo‘lishiga olib keldi. Birinchi pedagogik aloqaning uzoqligi 1-2 kurslarda o‘qigan pedagogika va psixologiya kabi fanlarning bo‘lajak o‘qituvchilari ongida ahamiyatini pasaytiradi.

Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mehnatga, xususan, chet tilini o‘qitishga munosabati ko‘p jihatdan uning kasbiy barqarorligining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, u shaxsiy fazilatlarning sintezini ta’minlaydi. Turli vaziyatlarda, shu jumladan noan’anaviy, noodatiy, uzoq vaqt davomida minimal xatolar bilan o‘lchanadi. Kasbiy barqarorlik maqsadli faoliyat natijasida shakllanishi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy chidamliligining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

– motivatsion (pedagogik yo‘nalish, ishonch, o‘qituvchi sifatida o‘z faoliyatdan qoniqish);

– hissiy-irodaviy (hissiy zo‘riqishning yo‘qligi, hissiy holatini tartibga solish qobiliyati, irodaviy fazilatlari);

– shaxsiy (talabalarning xatti-harakatlariga re-aksiya tezligi, normal (past) charchoq);

– kasbiy va pedagogik (o‘qituvchining bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlari, nostandart holatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati, o‘z-o‘zini tarbiyalash zarurati).

A.A.Reanning so‘zlariga ko‘ra, faoliyatdan qoniqish sub’yektning tanlangan kasbga munosabatini aks ettiruvchi integral ko‘rsatkichdir. Kasbiy barqarorlikda faoliyatdan qoniqish ta’lim muassasasidagi pedagog kadrlarning barqarorligini ta’minlaydi, ularning malakasini oshirishga, o‘z fanini ko‘proq bilishga, psixologik-pedagogik bilimlarni kengaytirishga intilishni keltirib chiqaradi, ya’ni professional shaxsni shakllantirish uchun dastlabki turtki bo‘ladi. Pedagogik faoliyat tizimi, bu holda, deb hisoblash mumkin.

Xulosa qismi: Bunday ijobiy motivatsiyani saqlab qolish va rivojlantirishning amaliy usullari quyidagilar bo‘lishi mumkin: talabani turli xil kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim faoliyatiga jalb qilish; har bir talabaga individual reja bo‘yicha o‘qish imkoniyatini berish va individual faoliyat uslubini shakllantirish; turli zamonaviy pedagogik, xususan, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish; o‘qituvchilik amaliyotining har xil turlarini tashkil etish; talabalarning darsdan tashqari mashg‘ulotlari va bo‘sh vaqtlarini pedagogik yo‘naltirish: pedagogik to‘garaklar, pedagogikaning zamonaviy muammolariga bag‘ishlangan “davra suhbatlari”, pedagogik mahorat tanlovlari va festivallari, pedagogik QVZlar, brifinglar va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova N.M. The pedagogical conditions of effective training of future foreign language teachers for using game technologies in professional activity. O‘zMU xabarlari ilmiy-uslubiy jurnal. №4 T:. 2018, b. 110-115.
2. Raximov Z.T. Ta’limning mobillashuvi sharoitida masofaviy o‘qitish texnologiyasining uzluksiz rivojlanishi/ Zamonaviy ta’lim 2018, 11-b.
3. Riskulova K.J. Ingliz tili uqituvchisi kommunikativ qobiliyatining pedagogik shart-sharoitlari. // Zamonaviy ta’lim. –T., 2015. №28.
4. Sattarov T. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. – T., 2003.
5. Xolmurodova D.X. Oliy ta’lim muassasalarida uzluksiz ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ilmiy axborotlari” ilmiy-nazariy jurnali, 2021/ 4-сон, ISSN 2181-9580/ 137-145 b. (13.00.00 №32)
6. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. - М., 2002. -
C.145.
8. Реан А.А. Психология познания педагогом личности учащихся. - М., 1990.-С 64-70.
9. Реан А.А. Мотивация успеха и боязнь неудачи. - М., 1992. - С. 24-29.

Oysara MAQSUDOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING AMALIY-FONETIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY PEDAGOGIK ZARURIYATI

Annotatsiya: maqola chet tilini o'qitish doirasida dasturiy ta'lim va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muammolariga bag'ishlangan. Tanlangan mavzu fonetika va fonologiya sohasida nafaqat standart pedagogik lingvistik taktika va usullarni qo'llash orqali, masalan, tovushlar va intonatsiya naqshlarini qo'llash orqali sun'iy ikki tilli fonetik kompetensiyani rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlarning yetishmasligi tufayli juda dolzarbdir.

Kalit so'zlar: *fonetika, fonologiya, chet tilini o'qitish, fonologik tahlil, intonatsiya qoliplari, fonetik kompetensiyani rivojlantirish.*

Аннотация: статья посвящена проблемам программного образования и использования инновационных технологий в рамках обучения иностранному языку. Выбранная тема весьма актуальна в области фонетики и фонологии в связи с отсутствием исследований, связанных с формированием искусственной двуязычной фонетической компетенции не только с помощью стандартных педагогических лингвистических тактик и методов, например, с помощью звуков и интонационных моделей.

Ключевые слова: *фонетика, фонология, обучение иностранному языку, фонологический анализ, интонационные закономерности, формирование фонетической компетенции.*

Annotation: the article is devoted to the problems of software education and the use of innovative technologies within the framework of foreign language teaching. The selected topic is very relevant in the field of phonetics and phonology due to the lack of research related to the formation of artificial bilingual phonetic competence not only by using standard pedagogical linguistic tactics and methods, for example, by using sounds and intonation patterns.

Key words: *phonetics, phonology, foreign language teaching, phonological analysis, intonation patterns, formation of phonetic competence.*

Kirish qismi: Chet tilining fonetik kompetensiyasini rivojlantirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda, chunki u kompetensiyaga asoslangan yondashuv kontekstida ko'rib chiqishni talab qiladi, bu uning rivojlanishini boshqa til kompetensiyalari - chet tilining kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismlari, rivojlanishi bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'limning dastlabki bosqichidan boshlash maqsadga muvofiqdir, chunki o'quvchining nutqi va talaffuzi boshlang'ich maktab yoshida shakllanadi.

An'anaga ko'ra, talaffuz metodologiyada nutq tovushlarining artikulyatsiyasi xususiyati, shuningdek, tilning ma'lum bir xilma-xilligiga xos bo'lgan orfoepik me'yorlar majmui sifatida tushuniladi.

Talaffuzning psixologik talqini biroz kengroqdir, chunki "o'rganilayotgan tilning fonemalari va intonomlarini to'g'ri ishlab chiqish" ga e'tibor qaratiladi, bundan tashqari, talaffuz "undagi og'zaki nutqni eng xilma-xil shakllarida: monolog va dialogik; badiiy, ilmiy, notiqlik va kundalik” turlarida qo’llaniladi [1]. Chet tilining talaffuzini o'zlashtirish fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

"Zamonaviy psixologik va uslubiy adabiyotlarda mahoratning juda ko'p ta'riflarini topish mumkin. “Mahorat” va “fonetik mahorat” tushunchalarining mavjud talqinlarini tahlil qilishga harakat qilaylik.

Psixologlarning fikriga ko'ra, chet tilini o'rganish jarayoni an'anaviy ravishda ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, odatni rivojlantirishning umumiy jarayonini bir qator ketma-ket bosqichlarga bo'lish mumkin: ko'nikmalar, odatlar, avtomatizmlar va odatlarning rivojlanishi .

V.A.Artemov nutq mahoratini rivojlantirishdagi hal qiluvchi roli haqidagi pozitsiyani tanqid qildi, chunki bu qoida ushbu murakkab yaxlit dinamik faoliyatni mexanik tushunishni aks ettiradi: "Nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol takrorlashni emas, balki tushunishni talab etadi»[2]. Tadqiqotchi birlamchi malaka (harakatni to‘liq ongli ravishda bajarish) va ikkinchi darajali malakani (harakatni qisman ongli holda bajarish) farqlashni taklif qildi.

Aksariyat metodistlar fonetik ko'nikmalarni leksik va grammatik bilan bir qatorda nutq qobiliyatlari tarkibiy qismlari sifatida ham ko'rib chiqadilar. Shu bilan birga, nutq ko'nikmalarini rivojlantirish aniq eshitish qobiliyatini maqsadli rivojlantirishdan boshlanishi ta'kidlangan.

Talabalarda eshitish talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish darajasi nutq faoliyatining barcha turlarini o'zlashtirish vaqti va muvaffaqiyatiga va umuman muloqotning o’ziga bog'liq. Shuning uchun fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish vazifalari fonetik kursida hal qilinadi va rivojlanish va takomillashtirish butun o'qish davrida tuzatish va qo'shimcha kurslar doirasida amalga oshirilishi kerak.

Metodologiya yutuqlarini aks ettiruvchi mahorat nazariyasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

1) ko'nikma nutq operatsiyasi sifatida mahorat komponentidir;

2) malaka quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerak: avtomatizm, barqarorlik, xatosizlik, optimal bajarish tezligi;

3) ko'nikmalar turlari fonetik, leksik va grammatikdir;

4) idrok yoki nutq ishlab chiqarish malakalari retseptiv va mahsuldorlikka bo'linadi;

5) malakani rivojlantirish bosqichlarining ma’lum ketma-ketligi;

6) o'quv materiali ustida ishlashning to'rt bosqichi (shu jumladan fonetik) ajratiladi: bilimlarni o'zlashtirish bosqichi, ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichi, ko'nikmalarni takomillashtirish bosqichi, ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichi.

E.G.Azimov va A.N.Shchukin talaffuz va artikulyatsiya qobiliyatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yishni aytub o’tgan. Talaffuz qobiliyatlari alohida tovushlarning artikulyatsiyasi va ularni bo'g'inlarga, so'zlarga, ritmik guruhlarga birlashtirish bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

N.A.Lyubimovaning fikricha, “eshitish fonetik ko‘nikmalari – ma’lum bir tilning fonologik komponentining turli darajadagi birliklarini uning tizimi va me’yoriga muvofiq ham idrok etish, ham amalga oshirishni ta’minlaydigan avtomatlashtirilgan eshitish va nutq-harakat operatsiyalari” deb talqin qilgan.

G.V. Rogova fonetik ko'nikmalarni "avtomatlashtirilgan talaffuz qobiliyatlari, ya'ni begona tovushlarni talaffuz qilish va bu tovushlarni tovushli nutq oqimida tanlash, urg'ularni belgilash, chet tilining sintaktik tuzilmalarini to'g'ri intonatsion loyihalash ko'nikmalari" deb hisoblaydi .

Ko'rinib turibdiki, uslubiy tadqiqotlarda "eshitish qobiliyati" va "fonetik qobiliyat" atamalari bir-birining o'rnida ishlatiladi. Eshitish talaffuz qobiliyatlarining turlari artikulyatsiya, aksentuatsiya-ritmik va intonatsiya qobiliyatlaridir.

Bundan kelib chiqadiki, fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni maqsadli va uzluksiz bo'lishi kerak va fonetik kurslarni tashkil etishga kompleks yondashuv artikulyatsiya, ritm, urg'u, intonatsiyani o'zaro bog'liq holda o'qitishni hisobga olishi kerak.

Bizning tadqiqotimiz uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega: eshitish va talaffuz qobiliyatlarini rivojlantirishda talabalarning ona tiliga tayanishi zarur; birinchi navbatda artikulyatsiyaning alohida

elementlari bo'yicha izchil va tizimli ish, so'ngra bo'g'in va so'zning bir qismi sifatida ajratilgan tovush hosil qilish ko'zda tutilgan; talaffuz malakalarini rivojlantirishda, qoida tariqasida, taqlid va analitik-imitativ (ongli) o'qitish usullari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Nutqni idrok etishning psixofiziologik tomoni N.I.Jinkin asarlarida yetarlicha batafsil ko'rib chiqilgan. Tadqiqotchi nutqni quloq orqali idrok etish tovush belgilarini tahlil qilishdan boshlanib, so‘z elementi sifatida nutq tovushini sintez qilish bilan yakunlanishini ta’kidlab, nutqiy signallarni qabul qilishning quyidagi bosqichlarini belgilaydi:

1. “Eshitish retseptoridagi sintetik akustik komplekslarning tovushning alohida belgilariga (spektrlar va intensivlikning birlamchi kvantlanishi) birlamchi analitik parchalanishi va bu xususiyatlarning yangi tashuvchi signallarga – nerv impulslariga o‘tishi.

2. Qabul qilingan signallarni alohida oddiy xabarni (iborani) qabul qilish vaqti uchun ushlab turish.

3. Doimiy farqlovchilar mexanizmini yoqish, asosiy chastotani spektrdan ajratish, nutq formatlarini ajratish va shu munosabat bilan tembrlarda so'zning birlamchi sintezi.

4. O‘zlashtirilgan leksika tarkibidan so‘zni kategorik va individual belgilarga ko‘ra tanib olish va shu munosabat bilan bir so‘zni to‘liq sintez qilish.

5. Grammatika va mantiq qoidalarini o'rgangan holda qo'llash bo'yicha so'zlarni xabar tizimiga sintez qilish.

6. Intonatsion kvantlash bosqichlarini balandlik, ovoz balandligi va uzunlik jihatidan farqlash va shu bilan bog'liq holda, vaziyatga bog'liq holda og'zaki birikmalarning nomini o'zgartirish.

7. Alohida xabar haqidagi fikrni tushunish va uni qandaydir o‘rinbosar orqali saqlab qolish”.

N. I. Jinkinning fikriga ko'ra, birinchi bosqichning boshlang'ich nuqtasi - bu nerv impulslarini keyingi uzatish uchun segmentlarga (tovush belgilari) bo'linishi kerak bo'lgan sintezlangan sintetik kompleks orqali tovushning eshitish organiga kirishi bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, tovush talaffuzining lingvistik dasturida artikulyatsiyani rejalashtirishning 3 darajasi mavjud:

1) "maqsadli artikulyatsiya" (ma'ruzachi xotirasida uning motor-temporal dasturi bilan birga saqlanadigan nutq apparatining kerakli konfiguratsiyasi);

2) "ovoz yo'lining akustik muhim qismlarining maqsadli holatlari" (labial, til, burun, ovoz yo'llarining parametrlari);

3) artikulyar harakatlar.

Xulosa qismi: Bu barcha bosqichlar faqat artikulyatsiyani rejalashtirish bilan bog'liq va ular bilan chambarchas bog'liq bo'lsa ham, amalda bajarilish vaqtiga to'g'ri keladi, chunki nutqni ishlab chiqarish mexanizmi tovushlarni talaffuz qilishda harakatlarni vaqtincha muvofiqlashtirish uchun maxsus mexanizmga ega emas.Shunday qilib, talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan yana bir mexanizm - bu qayta aloqa mexanizmi. E'tibor bering, fikr-mulohazalarning samarali bo'lishi uchun fonemalarning to'g'ri eshitish tasvirlari kerak, faqat bu holda o'z yoki boshqa birovning nutqida noto'g'ri talaffuzlarni tanib olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Артёмов В. А. Психология обучения иностранным языкам. М.: Просвещение, 1969. 279 с.
2. Азимов, Э. Г. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) [Текст] / Э. Г. Азимов., А. Н. Щукин. – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.
3. Любимова Н. А. Лингвистические основы обучения артикуляции русских звуков. Постановка и коррекция. М.: Русский язык. Курсы, 2011. 240 с.
4. Рогова Г. В., Рабинович Ф. М. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе: Пос. для учителя. М.: Просвещение, 1991. 287 с.
5. Жинкин Н. И. Механизмы речи. М.: Изд-во Академии пед. наук, 1958. 378 с.
6. N.M.Akhmedova. Scientific Concept of Continuous Lingua Methodological Training of Foreign Language Teacher based on Integrated Approach// Eastern European Scientific Journal № 2. - 2018/4/9.

Gulruxsor SHARIPOVA,
MTTDMQTMOI, p.f.f.d.(PhD), dotsent

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI FAOLIYATINI INNOVATSION TASHKIL ETISHDA IJTIMOIY HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini innovatsion tashkil etishda ijtimoiy hamkorlikning o'rni, ijtimoiy hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari, mexanizmlari, maktabgacha ta’lim tashkiloti va ijtimoiy hamkorlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni amalga oshirish shakllari, maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatining barcha jihatlarini samarali rivojlantirish yo'nalishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, jamiyat, jamoatchilik, jarayon, innovatsiya, mazmun, munosabat, rivojlantirish, sifat, takomillashtirish, tizim, faoliyat, hamkorlik.*

Аннотация: в данной статье рассмотрены роль социального сотрудничества в инновационной организации деятельности дошкольных образовательных организаций, особенности и механизмы социального сотрудничества, формы взаимодействия дошкольных образовательных организаций и социальных партнеров, эффективное развитие всех сторон деятельности организации.

Ключевые слова: *дошкольное образование, общества, процесс, новаторство, содержание, отношение, развитие, качество, совершенствование, система, деятельность, сотрудничество.*

Annotation: this article examines the role of social cooperation in the innovative organization of acts of preschool educational organizations, features and mechanisms of social cooperation forms of interaction between preschool educational organizations and social partners, and the effective development of all aspects of the organization’s activities.

Key words: *preschool education, society, process, innovation, content, attitude, development, quality, improvement, system, activity, cooperation.*

Bugungi kunda ijtimoiy hamkorlik ta'lim muassasalarini boshqarishdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ijtimoiy hamkorlik nafaqat muammolarni birgalikda hal qilish imkonini beradi balki, uyg'unlashtirilgan o'zaro mas'uliyatni ham anglatadi. Ta'limda ijtimoiy hamkorlik zaruriyati zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy xilma-xillik jarayonlarining uzluksiz o'sib borayotganligi bilan bog'liqdir.

Respublikamizda ta'lim muassasalarning boshqa hamkor tashkilotlar bilan olib boradigan ijtimoiy hamkorligini talab darajasida deb bo'lmaydi. Boshqa xorijiy mamlakatlarda bo'lgani kabi ijtimoiy hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish bir necha yillarni talab qilishi mumkin, ammo zamonaviy jamiyatning bu yo'nalishni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishlari va rag'batlantirishi bu jarayonni bir muncha tezlashtirib yuboradi.

Innovatsiya bu - maqsadli yondoshuvlar sifatida tushuniladigan, o'zgarishlarni faoliyatga tatbiq etadigan barqaror omillar asosida ma'lum bir tizimga yangiliklarni joriy etib borishdir.

MTTlarida psixologik-pedagogik va innovatsion jarayonlar ta'lim jarayonida uning mazmunini dolzarblashtirish, ta'lim sifatini oshirish va tashkil etishga qaratilishi lozim. MTTning tashkiliy innovatsiyasi innovatsion tuzilmalar, mexanizmlar integratsiyasi kabi ijtimoiy hamkorlik, tizimli shartnomaviy munosabatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Ijtimoiy hamkorlikka qiziqish ortib borishi boshqaruv samaradorligiga olib keladi: hududlardagi ishlab chiqarish korxonalari, mahalliy hukumat va jamoa tashkilotlari birgalikda bolalarni maktab ta'limiga qamrab olish, MTTlar faoliyatini takomillashtirish va boshqa ijtimoiy muammolarni yechishda sezilarli natijalarga erishishlari mumkin. Hamkorlik MTT ortidagi katta olam - bolajonlarga ko'plab foyda va quvonch keltiradi, shu sababdan ham bu vazifa ham dolzarb, ham muhimdir.

Ta'limda hamkorlik tizimini yaratish MTTlar va boshqa manfaatdor tomonlar shu jumladan, hukumat organlari o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga olib keladi.

“Ijtimoiy hamkorlik” atamasi ko'p qirrali talqiniga ega bo'lib, ta'limda paydo bo'lganiga ko'p muddat bo'lmagan bo'lsada serqirra jarayondir. B.M.Genkinning fikricha, “ijtimoiy hamkorlik bu – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini muvofiqlashtirish mafkurasi, shakl va uslublari hisoblanib, o'zaro konstruktiv ta'sir ko'rsatishdir”. V.A.Mixeev esa, “Ijtimoiy hamkorlik – ish beruvchilar, tadbirkorlar, davlat organlari manfaatlarini muvofiqlashtirish va himoya qilishga asoslangan ijtimoiy-mehnat sohasidagi jamoatchilik munosabatlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining o'zaro shartnoma va kelishuvlar asosida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotining faol muammolari bo'yicha murosaga va konsensusga erishuvchi zamonaviy tizimdir” degan fikrni ilgari suradi.

“Ijtimoiy hamkorlik” tushunchasining asosiy mazmuni manfaatdor tomonlarning o'zaro konstruktiv hamkorligini ifodalaydi. Mazkur yondoshuvni ta'lim tizimidagi ijtimoiy hamkorlik faoliyatida ham

kuzatish mumkin. O.D.Nikolskayaning tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim tizimida ijtimoiy hamkorlik ta'lim muassasalari va ta'lim jarayoni ishtirokchilari, davlat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari va jarayon ishtirokchilarining umumiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan o'zaro munosabatlarning o'ziga xos turi sifatida qaraladi.

Biz uchun “ijtimoiy hamkorlik” atamasining mazmuni muhim ahamiyatga ega. L.G.Guslyakova ijtimoiy hamkorlikni ijtimoiy texnologiya turlaridan biri deb hisoblaydi. Uning fikricha, muloqot ijtimoiy ish uslubi – bu jarayon ijtimoiy xodim va mijoz o'rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarni oldini olish va hal qilishga qaratilgan o'zaro ta'sir jarayonidir. Bunday holda ijtimoiy sheriklik turli ijtimoiy guruhlar vakillariga, ayniqsa zaif qatlamlarga ijtimoiy kafolatlar berish ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshiradigan ijtimoiy ish uslubi sifatida ishlaydi.

«Ijtimoiy hamkorlik» atamasi ta'rifini tahlil qilish asosida ta'limga nisbatan ijtimoiy hamkorlikning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi:

– Maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislarining o'zaro ijtimoiy hamkorligi;

– MTT pedagoglarining boshqa soha vakillari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi;

– Maktabgacha ta'lim tizimi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan hamkorlik.

MTT va ijtimoiy hamkorlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik turli shakllarda amalga oshiriladi va MTT faoliyatining barcha jihatlarini ta'minlashga qaratiladi:

– MTTning rivojlanish strategiyasini shakllantirish;

– ta'lim mazmuni, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim sifatini nazorat qilish;

– aholi talab va ehtiyojlarini o'rganish;

– MTTni kadrlar bilan ta'minlash;

– qo'shimcha resurslarni jalb etish.

Mazkur jarayonlarni tahlil qilish bizga ijtimoiy hamkorlik kelgusida o'zaro ijobiy o'zgarishlarni shakllantirish va munosabatlarni tashkil etishga qaratilgan strategik boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'lishi haqida fikrlashga imkon beradi. MTT va jamiyatning boshqa fuqarolik institutlari o'rtasida ta'lim sohasidagi ijtimoiy hamkorlik:

a) ta'limni o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarga tegishli individual va guruhli ta'lim ehtiyojlariga moslashuvchan shaffof tizim sifatida rivojlantirish;

b) yagona mexanizm yaratish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va qo'llab-quvvatlash, ta'limni rivojlantirishning barcha jihatlarini qamrab olgan holda ta'lim sifatini oshirish;

c) yangi sharoitlarda shaxsga qaratilgan asosiy ijtimoiy, madaniy, nutq, axborot kompetensiyalarni shakllantirish, tarbiya funksiyasini ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida rivojlantirib borish;

d) bolalar salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash.

XX asrda bilishning ilmiy usullari orasida modellashtirishning universal va samarali metodi shakllandi.

Model bu – aniq obyektning tadqiqotchi uchun zarur bo'lgan alternativ shaklidir. Ilmiy model o'rganilayotgan tadqiqot mohiyatining mazmunini ifodalaydi. Modellashtirish o'xshashlik nazariyasiga asoslanadi va model tadqiqot ishining taxminiy analogi sifatida yuzaga chiqadi.

MTTlarida ijtimoiy hamkorlikni tashkiliy innovatsiya sifatida modellashtirish quyidagilarni aks ettiradi:

1. Tarbiyalanuvchilar va bitiruvchilar bilan ishlash:

– tarbiyalanuvchiga teng huquqli sherik sifatida munosabatda bo'lish (tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini anglash tamoyilini amalga oshirish);

– bola va MTT xodimlari o'rtasidagi munosabatlar hamkorlik va o'zaro hurmat asosida qurilishi, bola shaxsiyati va uning individual xususiyatlarga muvofiq rivojlanish erkinligini ta'minlash;

– tarbiyalanuvchilarda optimizm va o'z-o'zini hurmat qilish tuyg'usini rivojlantirish;

– bolalar salomatligini mustahkamlash va jismoniy rivojlantirish;

– maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv xususiyatlari va nutqni rivojlantirish darajasini oshirish;

– tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga hissa qo'shish;

– tarbiyalanuvchilar uchun tabaqalashtirilgan (individuallashtirilgan) rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish.

2. Ota-onalar bilan ishlash: ota-onalar majlislari, konsultatsiyalar, ochiq eshiklar kuni, pedagoglarning oilaga tashrifi; oilaviy suhbatlar; oila kuni (yiliga 2 marta); ishonch telefoni; ochiqlash konvertlari va h.k.

3. Jamoatchilik bilan ishlash:

– belgilangan vazifalarni hal qilishga mas'uliyat va javobgarlik hissini oshirish;

– bolalarning dunyoga hissiy va tolerant munosabatlarini shakllantirish, ularning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashda ishtirok etayotgan tashkilotlar (sog'liqni saqlash, mahalla, kuzatuv kengashi) ishtirokini kegaytirish;

– boshqaruv organlari: aholi ehtiyojini qondirishga qaratilgan davlat dasturlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish;

– ta'lim muassasalari: hamkorlikda ta'lim jarayoniga oid turli yo'nalishlarda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bosqichma-bosqich kompetent ijtimoiy sherik imidjini egallash;

– ta'lim muassasalari, mahalliy tashkilot va

korxonalar va mahalliy boshqaruv organlari bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etish;

– ijtimoiy dialog mobaynida u yoki bu hamkor tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nazarda tutilmagan vaziyatlarga qarshi “sug'urta” turini qo'llash;

– ijtimoiy hamkorlar o'rtasida o'rnatilgan kelishuvlar va bitimlarni amalga oshirishda majburiyat darajasini maqsadli oshirib borish.

4. Boshqaruv organlari bilan ishlash:

– Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish (ijtimoiy hamkorlar bilan oldindan kelishilgan holda);

– ko'p tomonlama shartnoma va bitimlar namunalarini yaratish, sinovdan o'tkazish, ushbu hujjatlarning bajarilishini barcha tomonlar uchun majburiylik darajasini bosqichma-bosqich oshirish;

MTTning hamkorlik faoliyati barcha ijtimoiy sheriklar bilan birgalikda asosiy faoliyat turlarini qamrab olishga qaratilishi lozim:

– MTTni rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

– ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish;

– ta'lim mazmunini takomillashtirish;

– ta'lim sifatini nazorat qilish;

– aholi talab va ehtiyojlarini o'rganish;

– moddiy-texnik boyitish;

– salohiyatli kadrlar bilan ta'minlash;

– qo'shimcha moliviy resurslarni jalb qilish yo'nalishlari ishlab chiqilishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy hamkorlik – manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab va serqirra turi bo'lib, boshqaruv va tashkiliy faoliyatning barcha yo'nalishlarida har tomonlama to'liq hamkorlik sharoitlarini yaratilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-son qarori. – T.2020y.

2. Bueva I. Sotsialnoe partnerstvo: detskiy sad i dopolnitelnoe obrazovaniye // Doshkolnoe vospitanie. - 2008.

3. Guslyakova I. Sotsialnoe partnerstva i sotsialnaya rabota: noviye vozmojnosti podderjki naseleniya/ Obrazovanie i sotsialnoe razvitie regiona. 2003.

4. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika // O'quv qo'llanma. – T.2014.

5. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika/ O'quv qo'llanma. – T.2013.

Madina MAMATOVA
Nizomiy nomidagi TDPU,
Logopediya kafedrasi Phd v/b dots
mmamatovam@icoud.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI ALALIYALI BOLALAR BOG‘LANGAN NUTQINING RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi alaliyali bolalar bog‘langan nutqini o‘ziga xos xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘langan nutqning sifatini yaxshilash shartlari haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *nutq, ruhiy jarayonlar, grammatika, rivojlanish, senzetiv davr, idrok, defektolog, talaffuz.*

Аннотация: в данной статье представлена информация об особенностях связной речи детей дошкольного возраста с алалией, условиях улучшения качества связной речи у дошкольников.

Ключевые слова: *речь, психологические процессы, грамматика развитие, синзетивный период, восприятие, мелкая моторика, дефектолог звукопроизношение.*

Annotation: this article presents information about the specific peculiarities of the connected speech of children with alalia of preschool age, the conditions for improving the quality of connected speech in preschool children.

Keywords: *speech, psychological processes, grammar development, sensitive period, perception, fine motor skills, defectologist sound reproduction*

Barkamol avlod orzusi, komil inson tarbiyasi hamma jamiyatlarda va hamma zamonlarda ham dolzarb masala bo‘lib kelgan. Dunyoda bironta ota-ona yo‘qki, zurriyotining jamiyatda o‘z o‘rniga, mustahkam mavqega ega bo‘lishini istamagan va shu farzand orqali boshini baland ko‘tarib, g‘ururlanib yurishni orzu qilmagan bo‘lsa. Sharqda bunga qadimdan alohida e’tibor berilib, o‘ziga xos ahamiyat kasb etib kelgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar lug‘at boyligini ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular maktabga kirish vaqtida amalda tilning grammatik va sintaktik shakllari tizimini egallagan bo‘lishlariga

qaramay, ularning nutqi yetuk bo‘lmaydi. Bola lug‘at zaxirasining kambag‘alligi faqatgina uning faol nutqida ko‘pgina leksik-grammatik kategoriyalar yo‘qligidan emas, balki so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash, ularning turli ma’nolarini hamda ko‘chma ma’nolarini noto‘g‘ri tushunishdan iborat. Bularning barchasi o‘z navbatida bolalarda bog‘lanishli nutqni rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, aslida bo‘lmagan ruhiy buzilishlarini hissiy-irodaviy sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakterdagi salbiy fazilatlarning rivojlanishi uchun yo‘l ochib berishi mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshi bolalarning nutqini faol egallash davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati muloqoti bilan uzviy bog‘liq. Bola jumlalarning mazmuni va shaklidagi o‘zgarish uning muloqot shakllari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bolaning so‘z-lug‘at boyligining o‘sishida ikki muhim tomoni miqdor va sifat tomoni mavjud. Bolaning nutqiy rivojlanishidagi muammolaridan biri – maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining grammatik tuzilishini, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish va nutqiy rivojlanmaganlikni bartaraf etishga qaratilgandir.

Og‘zaki nutqni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy shart-sharoiti bola nutqini motivatsiya tomonini rivojlantirish hisoblanadi. Nutqni rivojlantirish uchun atrofdagi predmetlar bilan faoliyat orqali muloqotga ehtiyojni yuzaga keltirish kerak. Shuni ta’kidlash joizki insonning yoshlik davrida predmet faoliyat jarayonida nutqiy qobiliyat shakllanadi. Ko‘pgina olimlar, nutq faoliyatini ma’lum sharoitlarda kattalar nutqiy "harakati va predmetlarning farqiy xususiyatlariga taqlid qilish orqali vujudga keladi, deb ta’kidlaydilar. Nutqni rivojlantirish – muloqot usulini rivojlantirishdir, muloqot jarayonida bola so‘z tovush tarkibi va ma’lum gap modellarini egallaydi. Muloqot qilishni bilish so‘zlarni turli gaplarda, turli vaziyatlarda mustaqil ravishda qo‘llay olishni anglatadi. Yangi so‘zlarni ularni muayyan mavzu ichida mazmuniga qarab birlashtirgan va ko‘rgazmali qurollarga (o‘yinchoqlar, suratlar va hokazo) tayangan holda muomalaga kirishish lozim, pedagog biror narsani ko‘rsatar ekan, yangi so‘zni 2–3 marta sekin va tushunarli qilib ifoda etishi, keyin ularni bolalarga jo‘r bo‘lib va yakka tartibda aytishni taklif qilishi lozim. Yangi so‘zlar birlamchi o‘rganilganidan so‘ng bolalar xotirasida saqlab qolish, leksikani faollashtirish va nutqiy malakani rivojlantirishga yordam beruvchi o‘yinlarni o‘tkazish kerak.

1-bosqich – tanib olish. Tarbiyachi bolalar bilan biror-bir buyum yoki narsalarni tanib olishga doir o‘yin o‘ynaydi. Bu o‘yinlarda bolalar u yoki bu buyumni yangi so‘zni o‘rgatib olishlari lozim.

2-bosqich – takrorlash. Bolalar tarbiyachi ketidan buyumlardan birining nomini takrorlashi lozim. Tarbiyachi bolalarga o‘zlariga yoqib qolgan o‘yinchoq, kiyim, meva va hokazolarni tanlab olish va tarbiyachining ketidan ushbu narsaning nomini takrorlashi lozim. Ushbu bosqichda “Sen onangga nima sovg‘a qilasan?”, “Yoqtirgan o‘yinchog‘ingni tanla va uning nomini ayt” kabi o‘yinlarni o‘tkazish tavsiya etiladi.

3-bosqich – nomini aytish. Bola tarbiyachi yordamisiz biron - bir buyum nomini aytishi darkor. Buning uchun “Toping-chi, bu nima?”, “Mo‘jizali qop”, “Sehrli qalpoqcha” o‘yinlari o‘tkaziladi.

Bolalarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishda yangi so‘zlarni o‘zlashtirib olishlariga doir bosqichma-bosqich ishlar ular xotirasida saqlab qolish va yangi vaziyatda qo‘llay olinishini ta’minlaydi.

Bizga ma’lumki bog‘cha yoshidagi davrda bolaning turli sohadagi bilimlari ancha ortadi va u inson faoliyatining murakkabroq turlarida ham ishtirok etila boshlaydi.

Ana shuning uchun ularning har turli o‘yin faoliyatlarida o‘tkaziladigan maxsus mashg‘ulotlarda va katta yoshdagilar bilan qiladigan turli muammolarida o‘sadi. Bolalarda nutqining takomillashuvi ular tafakkurining o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar konkret faol tafakkurga o‘tadilar, buning uchun avvalo yetarli so‘z lug‘ati talab etiladi. Bu esa o‘z navbatida bolalarni faol ravishda nutq iboralarini o‘zgartira boshlaydilar. Kichik yoshdagi bolalarning nutqi asosan ular ayni chog‘da idrok qilib turgan nursalar va bevosita harakatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqi hozir idrok qilib turgan narsalaridan tashqari ilgari idrok qilingan narsalar hamda xayoliy narsalar bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar katta kishilar aytib bergan yoki o‘qib bergan ertaklarini bir-biriga bog‘lanishli qilib aytib bera oladilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini juda tez egallaydilar, lekin ular faqat og‘zaki nutqni egallash bilan cheklanib qoladilar. Yosh xususiyatlariga ko‘ra, ularning imkoniyatlari ham nutqning yozma turini egallashga yo‘l bermaydi. Shuning uchun ular o‘z ona tillarining grammatik tuzilishini ham faqat og‘zaki tarzda o‘zlashtiradilar. Buning o‘ziga xos xususiyati bor ya’ni bolalarning grammatik qoidalarini o‘zlashtirishlari maktab bolalarining o‘zlashtirishlaridan tubdan farq qiladi. Bog‘cha bolalari grammatik qoidalarni o‘qib, tushunib, yodlab, saqlab qolmaydilar. Shuning uchun ular grammatikaning juda ko‘p qo‘llaniladigan

eng sodda qoidalarini kattalarning nutqlari orqali, mazmunli o‘yinlarda taqlidiy yo‘llar bilan amaliy o‘zlashtira boradilar.

Nutqning o‘sish jarayonida bolalar so‘z turkumlaridan otlarni tez o‘zlashtiradilar. Bunga asosiy sabab shuki, bolalar narsalar nomlarini o‘z nutqlarida ko‘p ishlatadilar. Bu yoshdagi bolalar so‘z boyliklarining asosiy ko‘pchiligi otlardan iboratligini aytib o‘tish lozim, shu bilan birgalikda ularda to‘g‘ri so‘zlash hissiyoti ham yuzaga keladi. Ular o‘zlaridan kichik bolalar grammatik jihatdan xato so‘zlaganlarida ularning nutqlarini to‘g‘rilaydigan bo‘ladilar.

Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga bog‘lanishli nutqini o‘stirishdan maqsad ularni muloqot vositasi sifatida eng oddiy nutq ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bu nutq dialog (ikki bolaning o‘zaro suhbati) shaklida va ayni paytda monolog (bitta bola hikoyasi) shaklida ham bo‘lishi mumkin. Muloqotning eng ko‘p qo‘llaniladigani dialogdir, shuning uchun bolalarga o‘rganilayotgan tilda so‘zlashuv bog‘lanishli nutqini o‘rgatishning eng dastlabki bosqichida tarbiyachi dialogik nutqni rivojlantirishga e’tibor qaratishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘langan nutqning sifatini yaxshilash shartlari:

1. Suhbatdoshning yoshi – bolalar bilan nutq, ancha to‘liq, sifatli bo‘ladi, kattalar bilan – ancha yoyiq, murakkab tashkil etiladi.

2. Muloqot qilinayotgan bola yoshi hisobga olinadi, agar bola yosh bo‘lsa, unda qisqa va ancha sodda so‘zlardan foydalaniladi.

3. Monologik nutq uchun motivning mavjudligi. Agar bola faqatgina kattalar tomonidan berilgan nutqiy topshiriqni bajarayotgan bo‘lsa, nutq agar bola Bilmasvoyga yordam beryapman deb hisoblaganidan ko‘ra, ancha sifatsiz bo‘ladi. Bu bolaning nutqida hissiy qiziqishning zaruriyati yoki bola nutqiy topshiriqni bajarish o‘zi yoki boshqalar uchun muhim ekanligini anglashi kerak.

4. Hikoya mavzusi bolaning yoshi, uning tajribasi va bilimga mos bo‘lishi kerak. O‘tgan yangi yil bayrami haqidagi hikoya, prezident saylovi haqidagi hikoyadan sifatliroq bo‘ladi.

5. Bolaning kayfiyati, o‘zini yaxshi his qilishi.

6. Oilaviy tarbiya uslubi. Qaysi bolalarning ota-onalari ularni kun hodisalari haqidagi nutqini bo‘lsa yoki ularni eshitishmasa, bu bolalarning monologik nutqi yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi.

Bog‘langan nutq fikrlar olamining ajralmas qismi bo‘lib, fikrlarning bog‘liqligi hisoblanadi. Bog‘langan nutqda bolaning mantiqiy fikrlashi, idrok etilayotganlarni tahlil eta olish aks etadi. Bolaning hikoya eta olishga qarab, uning nutqiy rivojlanishiga baho bera olish mumkin bo‘ladi.

Normal nutqiy rivojlanish jarayoni kechayotgan bola hayotning 5-yiliga kelib erkin ravishda yoyiq iborali nutqdan foydalanadi, murakkab, gaplarning turli tuzilishlarini qo‘llaydi. Ular yetarli darajadagi lug‘at boyligiga ega bo‘ladi, so‘z yasashi va so‘zlarni o‘zgartirish ko‘nikmalari ularda mavjud bo‘ladi. Bu vaqtga kelib tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish malakasi shakllangan bo‘ladi, tovush analizi va sinteziga bola tayyor bo‘ladi. Biroq ayrim eshituv va intellekt idroki normada bo‘lgan bolalarda birdan nutqning barcha komponentlari: fonetik, leksik va grammatik shakllanishi keskin orqada qoladi. Barcha nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda doim tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar, eshituv idrokining rivojlanmaganligi, yaqqol ravishda namoyon bo‘luvchi lug‘at boyligi va grammatik nutq tuzilishining shakllanishida orqada qolish kuzatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz lozimki, bolalarning shaxs bo‘lib shakllanishida nutq katta rol o‘ynaydi. Nutqning rivojlanmay qolishi bir qancha muammolar keltirib chiqaradi. Bu nuqsonlarning oldini olish, bu nuqsonlarning kelib chiqmasligi, bolalarda nutqning rivojlanishini to‘g‘ri va yaxshi kechishi uchun logopedik korreksion mashg‘ulotlarda bog‘lanishli nutqqa alohida e’tibor berishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
2. Filicheva T.YE. Deti s obshim nedorazvitiyem rechi. Vospitaniye i obucheniye/T.YE.Filicheva. T.V.Tumanov. – Moskva: Gnom-Press, 1999g.
3. Xrestomatiya po logopedii /pod red. L.S.Volkovoy., V.I.Seliverstova. – M.: 1997.
4. Xudenko YE.D. Kak nauchit rebenka dumat i govorit. – M.: 1993.
5. Seytlin S. N. Yazik i rebenok: lingvistika detskoy rechi. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2000.
6. Shashkina G.R., Zernova L.P., Zimina I.A. Logopedicheskaya rabota s doshkolnikami. – M., 2012

Muhabbat RO’ZMETOVA,
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),
O’zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi,
“TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti dotsenti.

INGLIZ TILINI O’QITISHDA O’QUVCHILARNING KREATIVLIK MALAKASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada o’quvchilarga ingliz tilini o’qitishda kreativlik malakasini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Ushbu malakani rivojlantirish uchun bir qancha yondashuvlrdan foydalanilgan. Xususan, G’arb lingvistlari tomonidan taklif qilingan “Run to the Board, Define it, Memory Story, Drawing, Running, Opinion Dictations” texnologiyalari yordamida o’quvchilarga ingliz tilini o’rgatish darajasi 12% ga osishga erishilganligi qayd qilingan.

Kalit so’zlar: *kreativlik, madaniy stereotiplar, chet til o’qitish metodikasi, tarixiy jarayonlar, xorij tajribasi, munosabatlarni mustahkamlash, tajriba va sinov guruhlari.*

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос развития творческий способностей при обучении студентов английскому языку. Для развития этого навыка использовалось несколько подходов. В частности, с помощью технологий Drawing, Running, Opinion Dictations” предложенных Западными лингвистами, отмечено, что уровень преподавания английского языка студентам увеличился на 12 %.

Ключевые слова: *творчество, культурные стереотипы, методика преподавания иностранного языка, исторические процессы, зарубежный опыт, укрепление связей опыт и тестовые группы.*

Annotation: in this article discusses the issue of developing creativity skills in teaching English to students. Effective approaches had used for developing Creative skill. In addition, Western linguists recommended techniques, such as “Run to the Board, Define it, Memory Story, Drawing, Running, Opinion Dictations” assisted to improve creativity skills to 12% to students when teaching English.

Key words: *creativity, Cultural Stereotypes, Foreign language teaching methodology, Historical processes, Foreign experience, Rapport relations, Experience group learners.*

Ta'limda yuqori natijalarga erishish hamda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda xorijiy tajribalar tahlili hamda hamkorlik zarur ahamiyatga ega. ning ahamiyati katta. Dunyo oliygohlari xalqaro reyting agentligi — Times Higher Education bilan "Yangi O‘zbekiston” universiteti hamkorligida mintaqada ilk marotaba Toshkent shahrida “Markaziy Osiyo universitetlari forumi”ni o‘tkazish, Portsmouth universiteti bilan hamkorlikda double degree (ikki diplom) loyihasi joriy etilishi, Norvich til instituti bilan ham hamkorlik memorandumi imzolandi. O‘qituvchilar va o‘quvchilarimiz uchun yangi imkoniyatlarni yaratish, ularga jahon standarti asosida ta'lim berish yo‘lida tizimli ravishda xalqaro darajada muzokaralar olib bormoqdamiz.

Har qanday chet tilni o‘rganishda uning amaliyoti, nazariyasi yoki ikkalasini ham qo‘shma tarzda egallashga kirishiladi. Lingvist olimlar fikricha, dunyo aholisi tomonidan o‘zi yashayotgan davlat madaniyatini boshqa xalqlarga tanitish uchun ingliz tili o‘rganiladi. Masalan, afrikalik Afrika millatiga mansub fuqaro ekanligini, xitoylik o‘zini Xitoy millati vakili ekanligini, o‘zbek o‘quvchilari o‘zlarini o‘zbek millatiga mansub madaniy merosni butun dunyoga tanitish uchun ingliz tilini o‘rganadi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga oid olib borilayotgan islohotlarda chet tillarni o‘rgatishning xususan, ingliz tilining ustunligi qayd etilgan. Demak, ingliz tilini o‘qitishning zamonaviylashtirilgan maqomi haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Ta'lim bosqichlarida chet tilning zamonaviy didaktik maqomi dunyoda turlicha talqin qilinadi. O‘zbekistonda chet til o‘rganishga tegishli amaliy harakatlar 1960 yillardan boshlandi (dastlab ushbu fan pedagogika negizida shallangan) va nihoyat XX asrda o‘z huquqiga ega bo‘ldi. Lingvodidaktlar ta'limotlariga ko‘ra Chet til o‘qitish tarixi sahifalarini varaqlaganda quyidagi maktab ta'limida chet til turli sinflarda o‘qitilganligining guvohi bo‘lamiz.

Chunonchi, chet til umumiy o‘rta maktab o‘quv rejasidan o‘rin olgan dastlabki davrlarda (1920-1930 yillarda) 3-sinfdan boshlab o‘qitilgan. 1947-yildagi hukumat qarori (Chet tillarni o‘rganishni yaxshilash haqida) qabul qilingandan boshlab, ushbu o‘quv predmeti 5-sinfdan o‘rgatiladigan bo‘ldi. 1980-yillar boshlarida esa, chet til 4-sinfdan o‘rgatila boshlandi. 1990-yillardan asrimizning 2013 yiligacha chet til 5-sinfdan o‘rgatib kelindi. 2013-14 o‘quv yilidan boshlab chet til o‘qitish/o‘rganish 1-sinflardan kiritildi. Ko‘rinadiki Respublikamizda va boshqa mamlakatlarda chet til o‘qitish turli sinflardan boshlangan. Biroq 5-sinfdan boshlashga ko‘proq odatlanilgan. Buning, albatta, bir qator sabablari bor. Birinchidan, boshlang‘ich sinflarda alohida fan sifatida o‘quv predmetlari o‘rgatilmaydi. Ikkinchidan, 1-4 sinfda ona tili va boshqa o‘quv predmetlarini o‘rganish asosida chet til o‘qitishga kirishiladi. Uchinchidan, psixologlarning ta'kidlashlaricha, 5-sinf o‘quvchilarining o‘zga til o‘rganishga bo‘lgan qobiliyati rivojlangan davrga to‘g‘ri keladi va h.k.

Ta'lim sohasi bo‘yicha etakchi davlatlar Kanada, Fransiya, Germaniya, Braziliya, Finlandiya olimlari tadqiqotlariga binoan, boshlang‘ich sinfdan yoki erta yoshdan ingliz tilini o‘rgatish samarali ustunliklarga ega emas. Buning bir qancha sabablari mavjud va ular quyidagilar. Birinchidan, boshlang‘ich sinfdan o‘quvchilar ona tilisida fikr yuritishni, o‘qishni va yozishni o‘rganishadi. Ikkinchidan, o‘quvchilarda boshlang‘ich sinflardan chet tillarni o‘rgatishda kommunikativ kompetensiyani egallash samarali natijalar bermasligi mumkin. Uchinchidan, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘rgatishda ona tili ustunligi sababli, yuqori interferensiya oqibatida hatolarga yo‘l qo‘yishga kirishiladi. To‘rtinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zi yashayotgan mamlakat madaniyati, axloq va odob namunalarini o‘zlashtirish bilan mashg‘ul bo‘lishadi, shu sababli chet mamlakatlar madaniyatini o‘rganishda ham ularda interferensiya hodisasi kuzatiladi. Yuqori sinfda o‘quvchilar nima maqsadda ingliz tilini o‘rganayotganliklarini aniq belgilay oladi. Bil-aks, maktab o‘quvchilari kelajakda ularga ingliz tili qanday muhim ekanligini ota-onalari, ta'lim muassasasi va o‘quv predmetlarni o‘zlashtirish davomida anglashga kirishadilar. Xususan, 10-12 yosh o‘quvchilar o‘zlarini kim ekanliklarini rivojlantirishlari (develop their identities) va o‘zlariga bo‘lgan ishonchsizlikni engishlari kerak (need to cope with their own insecurities). Bu holatni albatta ingliz tilini o‘qitish jarayoni orqali barham berish ijobiy natijalar beradi. Bu uchun ularning tafakkur qobiliyatlarini va o‘z-o‘zini hurmat qilish (self-esteem) malakalarini turli lingvistik amallar orqali rivojlantirish maqsadga muvofiq. Eng muhimi xorijiy til o‘qitish jarayonida o‘quvchi va muallim munosabatlarini (rapport) mustahkamlash hamda dars jarayoni madaniyatini (classroom culture) barpo qilish lozim. Natijada, kelajakda jahonda bo‘layotgan voqea-hodisalarga shahsiy munosabat bildira oladigan barkamol etuk shaxs voyaga etib boradi. Ingliz tilini o‘qitishda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani inobatga olish fransuz metodik maktabida “Til va sivilizatsiya” (Language at civilisation), qo‘shma shtatlari metodistlari istilohida “Madaniyatga yo‘naltirilgan chet til o‘qitish” (Culture oriented teaching of foreign language) hamda nemis tilshunoslari fikricha “Madaniyatshunoslik” (Kulturcunde) nomi bilan yuritiladi. Pid Korder mulohazalarida ingliz tilini o‘rganish nafaqat bilim olish, balki bir qancha malakalarni egallash jarayoni sifatida qaraladi. Uning fikricha, til nafaqat bilim berish emas, balki bir qancha malakalar uyg‘unligidir (Language is not knowledge, but a set of skills) [1; 5-p]. Gerberg Puxta tadqiqot natijalariga ko‘ra umumiy o‘rta ta'lim o‘quvchilari ingliz tilini o‘rganish bilan bir vaqtda ijodkorlik (creativity) bilan shug‘ullanadilar. Quyidagi jadvalda (1-Jadval) kommunikativ yondashuv asosida yuqori sinflarda ingliz tilini o‘qitishga tegishli ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishga oid texnologiyalar keltiriladi.

1-Jadval
Kreativlik malakasini rivojlantiruvchi technologiyalar

Useful Techniques for English teaching in Secondary schools (5-7 forms)
1. Technique: RUN TO THE BOARD **Time:** 10 minutes **Level:** A2 and above **Objective**: to improve students’ active learning process and engage them to work with a team. Check students language acquisition from the lesson. **Procedure:** this activity can be perfect way for creating an effective learning environment in a lesson. It is widely used by US numerous teachers. It is a good way to see how well students remember words learned at previous lesson. This technique really activate your students brains. By the help of this activity they try to remember the words they had learned. Let’s introduce with the procedure step by step. **Step 1.** Teacher should split the student into 2 groups, then she gives a different coloured whiteboard marker to each team. **Step 2.** Teacher have to divide the board into two halves. It should be one side for every team. **Step 3.** The next step is more interesting for students, because teacher writes the topic on the board. This topic might about the theme, that 167

have learned on the previous lesson. For instance: The topic “Holidays”. Teacher should say one example word belong to the holiday.
Step 4. At this point she explains the procedure to the students what they should do with their group. Teacher reminds the time that learners should spend in order to complete the task. Each student should write only one word connected with the topic on a board and puts down one by one.
Step 5. A student who have written a word should give the pen to the next pair. Students have to run up to the board and write quickly.
Step 6. After teacher’s command they should stop the writing. Teacher counts the words which have been written by the group. The winner team is the group which have written many words than another. This technique may used in order to test how students learned from the previous lesson. It can help to check the students’ language acquisition. This activity can be interesting for both students and teachers in a lesson

2. Technique: DEFINE IT
Time: 10-15 minutes
Level: A2 and above
Materials: A board, a chalk or a whiteboard marker
Objective: to improve students’ communicative language skills and to check students background knowledge from vocabulary
Procedure: this activity is an incredible simple. It recycles the vocabulary in a fasten and fun way and also gives learners practice and paraphrasing. The activity called as “Define it”, which recycles the new vocabulary when ss do not know the word. This activity can be done with students at any CEFR levels. This activity is very economical in terms of time and resources. It takes only 10 to 15 minutes. The necessary materials for conducting this activity are a board, a chalk or a whiteboard marker.
At the beginning of this activity, the teacher invites a volunteer from students to the board and gives instructions for doing this activity. Firstly, a teacher tells to the student to sit on the chair with his back to the board and look only directly (straight) and do not turn back on a board direction. Then a teacher writes the word “homework” on the board and asks the rest of the students to give one explanation or definition for this word to the volunteer without naming it. After that, students continue periphrases, give their own explanation and examples for this word. And finally the volunteer guesses the word written on the board. Then, the teacher invites another student and writes another word. And all this is repeated several times with different students.

3. Technique: MEMORY STORY
Time: 10-15 minutes
Level: A2 and above
Objective: to improve students’ active learning skills and engage them to work

with a team, a pair or an individual. To raise learners writing, reading, speaking, skills.
Materials: a board, written sentences on the board, whiteboard marker or a chalk
Procedure: Memory story is an excellent activity for new classes, students who are shy and will not talk. This technique was made a special for Asian countries to teach English by the method of “Memory Story”. The activity consists of 4 steps:
Step 1. Write up a passage or verse on the board;
Step 2. Ask the students to read the passage out loud together. You can do this 2 or 4 times depending on the length of the passage. According to initial step the tutor writes down 4 simple sentences and made the students to read out loud over and over.
191
Step 3. Then a teacher removes some of the words and ask the students again to read the passages they remember. In this process you can see if they can remember the missing words. The words you remove are up to you, depending on whether you want the activity to have a grammar or vocabulary focus.
Step 4. Keep removing more are more words until almost all of the passage is gone. Students should keep reading in orally form the sentences they remember in chorus
By using 4 steps, students improve their memory skills by learning heart whole passage

4. Technique: DRAWING DICTATION
Time: 15-20 minutes.
Level: A2, B1 and above.
Objective: to improve students’ active learning skills and engage them to work with a team, a pair or an individual. To broaden the memory and imagination of learners.
Materials: a board, whiteboard marker or a chalk, handouts with a picture.
Procedure: This is a simple communicative task where students immediately have concrete proof whether they have performed it successfully or not. Students practice describing pictures and you can also use it to work on prepositions of place and comparatives. One interesting thing about the activity is how the teacher moves out of the limelight and for a great portion of the activity is more an observer. The activity name is the “Drawing Dictation”, which shows how a simple drawing activity can stimulate lots of language work with the students doing all talking. Students practice describing.
At the beginning of this activity, the teacher invites a volunteer from students to the board and gives instructions for doing this exercise. In the drawing dictation, the students describe a simple drawing to their partner, who has to draw exactly the same picture on the board. Then a volunteer tries to draw a picture with a help of his/her classmates with descriptions. Beforehand a teacher distributes handouts with a drawing picture. After that, a teacher can correct if it has some mistakes with a handout picture. When feedbacks, the teacher explains some grammar mistakes in a students’ speech.

At the end, the teacher gives some advices that relate to this activity. And also gives tips on how to conduct this activity. The aims of this activity can broaden the memory and imagination of learners. The important thing that a student should do concentration and follow instructions.
It was excellent that the learners have done this as a whole group. They can work in pairs either with another of your picture or letting one person invent a picture and then describing it to the partner. Of course the artistic merits of the drawing is not important. The necessary thing is whether the students can be accurate giving an understanding descriptions and instructions. The task is a bit motivating and memorable for the students.

5. Technique: RUNNING DICTATION
Time: 10 minutes
Level: A2 and above
Objective: to improve students' active learning skills and engage them to work with a team, a pair or an individual. To raise learners writing, reading, speaking, listening, vocabulary and grammar skills.
Materials: a board, a piece of written sentences on the board, sentences or words which are hidden in different places of the room.
Procedure: It is a real favorite technique, because it is a good way to get students out of their seats and get them moving around. Especially, if you find yourself teaching last class of the day which means of course, children are really tired. This can revise vocabulary, grammar, word or sentence order and practices listening and speaking. As it is really enjoyable activity for the students and you can make this as easy or as difficult as you need to.
Step 1: First of all, you have to prepare your sentence strips in advance. If possible as well, it is a good idea to get to the class before the students as students you know are really noisy.
Step 2: Divide the students into pairs. One student is the writer and that student should not remain seats. The other is the runner. This first student runs around the class in order trying to find sentences and has to remember this sentences. He/she comes back and tells to the partner in orally remembered sentences. After finding all sentences they have to put sentences at the correct order. As a result, they make a story. If you are doing a longer activity, you can get students swap roles halfway through, so both can get a chance to read and write.
Step 3: Give the students a time limit
Step 4: Correct the task as necessary. If you have done a song, you can play a song and the students correct themselves and they usually really enjoy this activity. It is a lot of fun.

6. Technique: OPINION DICTATION
Time: 10 minutes
Level: A2 and above
Objective: to improve students’ active learning skills and engage them to work with a team, a pair or an individual. To raise learners writing skills with a class.
Materials: a board, a chalk, a whiteboard marker, copybooks
Procedure: This activity is a simple way of setting up the discussion. The activity begins as a normal dictation but the dictation where the students' opinions are the center of attention. Using it always good thing for age in 11-14 year students. A beauty of this exercise is that student practice listening, writing and speaking.
A teacher asks students to put a notebook in the table horizontally and dividing the page into three columns. On the first column, students should write "I AGREE", on the second column "I DISAGREE" and on the third column "IT DEPENDS…". Then, the teacher explains that he dictates short sentences and students should write on the column with expressing their opinion whether they agree, disagree or it depends. The first sentence is: "Football is the best sport in the world", the second is "Life without my mobile phone would be awful" and the third is "Everybody should speak English in today’s world". After writing their opinions, the teacher asks students to compare their sentences with their partner and explain why they agree or not each other. While students discussing to each other, a teacher may monitor the class and note common mistakes on learners ideas. Then an instructor stops them and asks a question. “Did you have similar/general ideas with your partner or not”
This activity is very simple but very effective way to set to discuss on any topic we like and we can dictate a group of sentences connected just one topic and conclude the activity by getting the students to share their opinion with the rest of the class.

“Run To The Board, Define It, Memory Story” usullari orqali o’quvchilarda kreativ malakalarning rivojlanganligi:

$$X^2_{n,m} = \frac{(179-128)^2}{179+128} + \frac{(138-118)^2}{138+118} + \frac{(27-100)^2}{27+100} = \frac{2601}{307} + \frac{400}{256} + \frac{5329}{127} =$$
$$= 8{,}47 + 1{,}56 + 41{,}96 = 51{,}99$$

ga teng.

“Drawing Dictation, Running Dictation, Opinion dictation” usullari orqali o’quvchilarda kreativ malakalarning rivojlanganligi:

$$X^2_{n,m} = \frac{(169-121)^2}{169+121} + \frac{(127-118)^2}{127+118} + \frac{(48-107)^2}{48+107} = \frac{2304}{290} + \frac{81}{245} + \frac{3481}{155} =$$
$$= 7{,}94 + 0{,}33 + 22{,}46 = 30{,}73$$

ga teng.

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Demak, tajriba sinfidagi o‘quvchilarning o‘rtacha o‘zlashtirishlari nazorat sinfidagidan

(81,3 – 69,3)% =12 ga ko’tarilganligi aniqlandi. Bu esa o’z navbatida $\frac{81,3\%}{69,3\%} = 1,17$ barobar ortiqligini bildiradi. Xuddi shuningdek, “Drawing Dictation, Running Dictation, Opinion dictation” usullari orqali o’quvchilarda kreativ malakalarning rivojlanganligi tajriba guruhidagi o’quvchilarning o’zlashtirganligi (78,3 – 68)%=10,3% ga yuqori ekanligini anglatadi. Bu o’z navbatida $\frac{78,3\%}{68\%} = 1,15$ barobar ortiqligini bildiradi. Bundan ma'lumki, TG rivojlanganligi o‘rtacha o‘zlashtirishi NG o‘zlashtirishdan 1,17 barobar yuqori hamda 12% ga oshgani aniqlandi. Shuningdek, “Drawing Dictation, Running Dictation, Opinion dictation” usullari orqali o’quvchilarda kreativ malakalarning rivojlanganligi TG.da 10,3 ga yuqori hamda NG o‘quvchilarining o‘rtacha o‘zlashtirishlaridan 1,15 baravar yuqori ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhlaridagi sifat ko‘rsatkichi nazorat guruhlaridagiga qaraganda yuqori ekanligiga iqror bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farrux HAKIMOV. https://strategy.uz/index.php?news=1198. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi bo’lim boshlig’i
2. Lizhen Shi, Arshad Muhammad Umer & Yanting Shi. Utilizing AI models to optimize blended teaching effectiveness in college-level English education. ISSN: (Print) (Online) Journal homepage: https://www.tandfonline.com/loi/oaed20
3. L. Ferguson, “Advancing Research Integrity Collaboratively and with Vigour,” 2022, https://www.hindawi.com/post/advancingresearch-integrity-collaboratively-and-vigour/
4. S. Makridakis, “The forthcoming artificial intelligence (AI) revolution: its impact on society and firms,” Futures, vol. 90, no. jun., pp. 46–60, 2017.
5. P. Fernandez, ““Through the looking glass: envisioning new library technologies” how artificial intelligence will impact libraries [J],” Library Hi Tech News, vol. 33, no. 5, pp. 5–8, 2016.
6. E. Vickers, “The strange child: education and the psychology of patriotism in recessionary Japan by Andrea Gevurtz Arai,” Monumenta Nipponica, vol. 72, no. 1, pp. 146–152, 2017.
7. M. Garcia, “Racist in the machine: the disturbing implications of algorithmic bias,” World Policy Journal, vol. 33, no. 4, pp. 111–117, 2016.
8. A. I. Review, “About the authors,” Artificial Intelligence Review, vol. 15, no. 6, pp. 1–6, 2016.

Dilnoza IMINOVA,
ADPI, Maktabgacha ta’lim nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI

Annotatsiya: yosh avlod tarbiyasi, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qilib belgilandi. Chunki har qanday davlat va jamiyatning kelajagi, uning ravnaqi, jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi masalalari kelajak avlodning bilimi, salohiyati, dunyoqarashi, ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga bog‘liqdir.
Kalit so‘zlar: *sharq olimlari, ta’lim-tarbiya, o‘quv faoliyati, motiv.*
Аннотация: вопросы воспитания молодого поколения и формирования совершенной личности определены приоритетными направлениями государственной политики. Потому что будущее любого государства и общества, его развитие и место в мире зависят от знаний, потенциала, мировоззрения и образования следующего поколения.
Ключевые слова: *востоковеды, образование, образовательная деятельность, мотивация.*
Annotation: the issues of education of the young generation and the formation of a perfect person have been defined as the priority directions of the state policy. Because the future of any state and society, its development, and its place in the world depend on the knowledge, potential, outlook, and education of the next generation.
Key words: *oriental scientists, education, educational activity, motivation.*

Jamiyat rivojining zamonaviy bosqichi mamlakatning bo‘lajak fuqarosi inson kapitali shakllanishi bilan belgilanar ekan, shaxs shakllanishi, tarbiyasi dunyoqarashi va ijtimoiylashuvida jamiyat va oila hamkorligini kuchaytirish lozim. Shu o‘rinda muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanadigan zamonaviy demokratik davlat qurishning o‘zini oqlagan xalqaro tajribalarini chuqur o‘rganish va kerakli jihatlarini qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonning ko‘plab mamlakatlarida ta’lim muassasalari asta-sekin ochiq ta’lim tizimiga o‘tib bormoqda. Umumiy o‘rta ta’lim tizimi pedagogik jarayoni yanada erkin, moslashuvchan, tabaqalashtirilgan bo‘lib, o‘qituvchilar ota-onalar bilan hamkorlik qilishga e’tibor berish kuchaymoqda. Davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyevning umumiy

o‘rta ta’lim tizimiga qaratayotgan e’tibori sohaning rivojlanayotgani yuksak darajaga ko‘tardi. Bu esa inson omilini ilk go‘daklik yoshidan tarbiyalashni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida “... umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish” [1] ustuvor vazifa etib belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 03.02.2022 yildagi F-22-son Farmoyishida: “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti, boy madaniy-tarixiy meros, milliy urf-odat, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar g‘oyalari asosida ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalashning samarali pedagogik shakl va metodlari tatbiq etilishini tashkillashtirish” [2] vazifasi belgilandi.

Bu esa, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishda salmoqli ishlar amalga oshirish, xususan, ota-onalarning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish zarurat hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ko‘maklashadi.

Boshlang‘ich sinflarda yuqori bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o‘quvchilarning motivlari sohasini o‘rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan ta’lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o‘quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Qayd etilgan muammolarni tadqiq etish qator shart-sharoitlarga bog‘liq. Avvalo, ta’limda o‘quvchilar maqomini yangilash, ularni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirish ehtiyoji tug‘iladi. Binobarin, bu masala muammoning ikkinchi tomoniga, ya’ni o‘quvchining ta’lim jarayoni subyektiga aylanish istagi va ehtiyojiga ham bog‘liq. Aynan, ana shunday ehtiyojni ularda paydo etish, ya’ni o‘quvchini o‘quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘sib kelayotgan yosh avlodda o‘quv-motivlarini rivojlantirish masalasida biz ko‘proq Sharq mutafakkirlarining asarlariga tayanamiz va bizga asos vazifasini o‘taydi. Qadim-qadimdan sharq mutafakkirlari ijodida ta’lim, tarbiya, o‘zaro do‘stlik, odob, axloq masalasi markaziy o‘rinni egallab kelgan. Kaykovusning «Qobusnoma»sidan tortib, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning ko‘plab asarlarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»), Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» («Haqiqat sovg‘alari»), imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-Adab Al-Mufrad» («Adab durdonalari») kabi jahonga mashhur asarlarida, Alisher Navoiyning o‘lmas she’riyatida, Munis Xorazmiyning «Savodi ta’lim»ida, Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», «Ravzati 26 shahodat» («Shahodat bog‘i») kabi asarlarida odob-axloq va o‘zaro do‘stlik masalalari keng yoritilgan [3]. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim barkamol shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki bu yoshdagi bolalar egallagan bilim va qadriyatlar uning keyingi hayotini belgilaydi. Ma’lumki, badiiy asarlarni o‘qish bilan bog‘liq holda shaxsni estetik tarbiyalash, ya’ni bilim berish, tarbiyalash va e’tiqodlarini shakllantirish; ya’ni maktabda o‘qitiladigan predmetlar kabi bolalar adabiyoti namunalarini san’at asari sifatida o‘rganish vazifalari o‘qish darslariga yuklatiladi. Har bir fan o‘zining o‘rganish obyekti va predmetiga ega bo‘lganidek, hozirgi kunda boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasi adabiy ta’lim metodikasi sifatida ish ko‘rishi lozimligi g‘oyasi ilgari surilmoqda. Haqiqatan ham, adabiyot o‘qitish sistematik kursiga tayyorlovchi predmet sifatida o‘qish metodikasi bolalar adabiyoti namunalari asosida o‘z maqsad va vazifalarini belgilaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari motivlari sohasini o‘rganishga oid anchagina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay, motivlar sohasining muammolari hali ham yetarli darajada o‘rganilmaganligi sezilmoqda. Keyingi yillarda o‘zbek pedagog olimlari tomonidan ham o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatini tadqiq etishga oid qator keng qamrovli didaktik tadqiqotlar olib borildi. Shunday ishlar qatoriga O.Roziqov, K.Zaripov, N.Ortiqov, B.Adizov, R.Safarova, R.Asadova, U.Musayev, H.Nazarova, G.Najmiddinova, A.Hamroyev kabi olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Garchand, bu ishlarda o‘quv-biluv faoliyatining turli qirralari yoritilgan bo‘lsa-da, ularda o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirishning ayrim masalalari bayon qilingan, xolos. Chunonchi, R.Safarova o‘quvchilarning amaliy faoliyati til materiallarini o‘zlashtirish ehtiyojiga ko‘ra boshqarilishi zarurligi xususida fikr yuritgan. U o‘quvchilarning qiziqishi, faolligi oshirilgan sari amaliy faoliyati ham rivojlana borishini ta’kidlagan. K.Zaripov esa o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish komponentlarini ajratib ko‘rsatadi. N.Ortiqov o‘quvchilar faoliyatida qiziqish, intilish, maqsad, ishonch kabi qator xarakterli xususiyatlarni ajratadi. Bular faoliyatning mahsuldorligi va yo‘nalishini belgilaydi. O.Roziqov o‘quv topshiriqlarida mazmun, maqsad, vazifa, usulni ularning invariantlari sifatida ajratgan. U o‘quv

topshiriqlari invariantlarini o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish, boshqarish vositasi sifatida asoslagan edi. B.Adizov boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etish orqali, A.Hamroyev esa boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi sharoitida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini kuzatib, uni an’anaviy ta’lim metodikasidan farqli o‘laroq, ijodiy tashkil etish natijasida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga rag‘bati, layoqati va qiziqishi oshirilishi mumkinligini asoslab beradilar. G.Najmiddinova tadqiqotlarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini shakllantirish masalalariga alohida yondashilib, o‘quv materiali va uning ustida ishlash orqali o‘quvchilarda o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirish mumkinligi asoslab beriladi. O‘quv-biluv faoliyatiga oid psixologik tadqiqotlar ilmiy izlanishlarning katta qismini tashkil etadi. L.S.Vigotskiy inson faoliyati va psixikasi – ruhiyatining uzviy bog‘liqligi tamoyilini asoslagan edi: psixika faoliyatsiz, faoliyat psixikasiz amal qilmaydi. L.S.Vigotskiyning qarashlarini S.L.Rubinshteyn o‘z tadqiqotlarida yanada rivojlantirdi. S.L.Rubinshteynning ta’kidlashicha, hissiyotlar faoliyat dinamikasi, sur’ati va tonusini belgilaydi. Shuning uchun ham har bir yosh davri uchun xos bo‘lgan motivlar sohasining belgilangan rivojlanish qonuniyatlari ta’limning yangi dasturlarini ishlab chiqish hamda unda maxsus vazifalarni belgilash orqali o‘quvbiluv motivlarini faollashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. A.N.Leontyev esa motivlar insonga faoliyati uchun, shuningdek, o‘quv faoliyati uchun ham turtki bo‘ladi va uni yo‘naltiradi deb hisoblaydi. [4] Uning ta’kidlashicha, faoliyat – bu subyektning borliqqa faol munosabatidir. Motivatsiya shaxs faolligi, xulqi va faoliyatini tartibga soluvchi muhim omildir. Chunki insonning har xil xatti-harakatlari ostida ushbu xatti-harakatlarga undovchi asoslar, ularning motivatsiyasi yotadi. Shuning uchun ta'lim jarayoniga faqatgina o‘quv-biluv motivlarigina emas, barcha keng qamrovli motivlar o‘z ta’sir doirasi bilan ta’sir etib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 03.02.2022-yildagi F-22-son Farmoyishi.
3. Sherova Latofat Hasanovna “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasini shakllantirish”. Technical science research in Uzbekistan. 25-27-b
4. U.A. Ismidiyarova, E.R. Hayitova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik omili sifatida”. Academic Research Uzbekistan. 384-388-bet

Saodat SHAMAQSUDOVA,
O‘zJOKU dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MEDIAMATNLARDA MAXSUS LEKSIKADAN FOYDALANISH

Annotatsiya: maqolada OAVda ilmiy-ommabop matnlardan foydalanish, maxsus leksika va uni matnga kiritish yo‘llari, talablari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mediamatnlarda qo‘llanilgan maxsus leksika tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *maxsus leksika, mediamatn, termin, matn, ilmiy-ommabop, qolip, dublet.*

Аннотация: в статье рассуждается об использовании научных и популярных текстов в средствах массовой информации, специальная лексика, способы и требования ее включения в текст. Также была проанализирована специальная лексика, используемая в медиатекстах.

Ключевые слова: *специальная лексика, медиатекст, термин, текст, научно-популярный, шаблон, дублет.*

Annotation: the article discusses the use of scientific and popular texts in the media, special vocabulary, methods and requirements for its inclusion in the text. The special vocabulary used in media texts was also analyzed.

Key words: *special vocabulary, media text, term, text, popular science, template, doublet.*

Bugungi kunda mediamatnlarning tilini maxsus leksikasiz tasavvur qilish qiyin. Maxsus leksika insoniyatning turli mehnat faoliyati sohasiga oid tushunchalarni ifodalovchi va umumiste’molda qo‘llanilmaydigan so‘z va so‘z birikmalaridir.

Shunday ekan maxsus leksikadan mediamatnlar, xususan, ilmiy-ommabop matnlarda qanday foydalanish kerak? Chunki ilmiy-ommabop asarlarni ham ilmiy, ham barchaga birday tushunarli etib yaratish lozim. Buning uchun muallifdan bilim va mahorat talab qilinadi. Muallif maxsus leksika haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi, uni matnga kiritish usul va yo‘llarini egallagan va amalda qo‘llay olishi talab etiladi.

Bugungi kunga kelib maxsus leksikani nafaqat ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarda balki badiiy adabiyotda ham uchratish mumkin. Nafaqat ixtisoslashgan ommaviy axborot vositalari, balki keng ommaga mo‘ljallangan gazeta va jurnallar tilini ham maxsus leksikasiz tasavvur qilish qiyin. Inson mehnat faoliyatini bayon etishda maxsus leksikadan foydalanish qo‘l keladi. Maxsus so‘zlar o‘quvchining dunyoqarashini kengaytiradi, u bilan tanishish, tushunchani o‘zlashtirishga yordam beradi. Lekin matnni o‘qish va tushunishda ortiqcha qiyinchilik tug‘dirmaslik uchun, uning ommabop bo‘lishi uchun maxsus leksikaning o‘ziga xos taraflarini e’tiborga olish kerak. Ya’ni, umumiste’moldagi so‘zlardan farqlay olish ommaviy matnlarda uni qo‘llashdagi prinsplarga amal qilish talab etiladi.

Matnni maxsus leksika bilan to‘ldirib tashlash to‘g‘ri emas. Terminlar yig‘indisi matnni tushunarli bo‘lishini qiyinlashtiradi va o‘quvchilarni norozilikka olib keladi. Ayniqsa, professional terminlarni turli uslubdagi matnlarda o‘rinsiz, haddan ziyod ishlatish o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Terminlarni umumiste’moldagi so‘zlarning metaforasi sifatida qo‘llanilishi keng tarqalgan. Lekin ulardan nutqda ko‘plab foydalanish matnning uslubiy bo‘yoqdorligini, ta’sirchanligini oshirib yuboradi. Maxsus leksikani matnga kiritish yo‘llari bir nechta:

1. Ommaviy materiallarda qolip (shtamp) holiga kelib qolgan bir qancha terminlar ko‘p uchraydi. Masalan, “Ustida ishlamoq”. “Dramaturg Erkin Huvaqtov bilan hamkorlikda ssenariy ustida ishlayapmiz.” “Hududlarda yangi liboslar ustida ishlayotgan modeler va dizaynerlar ishini muvaffaqiyatlashtirish ilmiy yo‘nalish bilan uyg‘unlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda”. Ya’ni hammaga tushunarli bo‘lgan terminlar hech qanday izohsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanilaveradi. Bunday misollarni quyida ham qo‘rish mumkin: “Tabiiy va sun’iy kristallarni radiatsiya yordamida bo‘yash tarixi XX asr ibtidosida fransuz olimlari Per Kyuri hamda Mariya Sklodovskaya-Kyurining alfa nurlar chiqaruvchi radiy tuzlari bilan o‘tkazgan tajribalaridan boshlangan.” (“Fan va turmush” jurnali) Ushbu jumlada kristal, radiatsiya, alfa nurlar, radiy tuzlar kabi terminlarni barcha tushunadi. Shuning uchun matnda hech qanday izohsiz qo‘llanilgan. Alfa, radiy terminlarning nurlar, tuzlar so‘zi bilan qo‘llanilishi ularni tushunarli bo‘lishiga xizmat qilgan.

2. Dublet terminlarni o‘quvchilarga tushunarli bo‘lgan variantlarini qo‘llash maqsadga muvofiq. O‘zbek va baynalminal variantlardan o‘z tilimizga xos bo‘lgan ko‘rinishini ishlatish yaxshiroq: Masalan, alternativ-muqobil, vakant-bo‘sh o‘rin, vizit-tashrif, garantiya-kafolat, gruppa-guruh va boshqalar. Bunday misollarni ilmiy-ommabop materiallarda ham uchratish mumkin. Masalan, “...qimmatli tabiiy minerallarning kristall strukturasini o‘rganishga kirishishdi. Olimlar kristallar tarkibini aniqlash asnosida ko‘p soatli rentgen nurlari ta’sirida kvars, flyuorit, turmalin, topas va hatto olmos kabi talaygina minerallarni bo‘yashga muvaffaq bo‘lishdi”. Ushbu jumlalarda bir o‘rinda struktura, ikkinchi o‘rinda tarkibi terminlari qo‘llanilagan. Aslida “tarkibi”ni o‘zi ishlatilsa ham bo‘lar edi.

3. Agar matn mazmuni tushunarli bo‘lsa, uning tarkibidagi tushunarsiz terminlarga izoh berib o‘tish shart emas: “Partiya g‘oyalarini targ‘ib qilishga oid ko‘plab bannerlar, pannolarni mamalakatimizning barcha yirik shaharlarida, viloyat markazlarida uchratish mumkin.”, “Orkestor uchun simfoniyalar, kontatalar “O‘zbekiston jahonim”, “Istiqlol taronasi” kabi she’rlarga kuylar ijro etdi.” Ushbu matnlardagi “banner”, “panno”, “simfoniya”, “kontata” kabi terminlarning ma’nosi matnning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda tushuniladi. Yana misollarga murojaat etsak: “Bu g‘oya mutlaqo xayoliydek tuyulsa-da, lekin Yerda neft va gaz tugaganida aynan termoyadro energetika inqirozini bartaraf etishga qodir bo‘ladi. Kremniy, temir, titan, alyuminiy zaxiralari serob bo‘lganligidan Oyda ularni qazib olish va qayta ishlashning sanoat korxonalarini barpo etish o‘ta istiqbollidir.” (“Fan va turmush” jurnali). Ushbu jumlalarda ko‘pchillikka notanish bo‘lgan termoyadro energetika terminining izohsiz qo‘llanilishi matnni tushunishga halaqit bermagan. Matnning umumiy mazmunidan ushbu terminning ma’nosini ham anglab olish mumkin.

Ko‘p hollarda so‘z va so‘z birikmalari va ularning ma’nosi o‘quvchilarga tushunarliroq bo‘lgan maxsus leksika ham izohsiz qo‘llaniladi. Birikmali va qo‘shma maxsus leksika tarkibidagi biron so‘z o‘quvchiga tushunarli bo‘lsa, u holda ham izoh talab etilmaydi. Masalan, “frontal yuklatgichlar”, “avtotransport filiali”, “O‘zbekiston banklar assotsiatsiyasi” va boshqalar. Bunday qo‘llanishlarni ilmiy-ommabop materiallada ko‘plab kuzatish mumkin: “O‘zak hujayralarining qanday manbalari bor? Birinchi manba bu suyak iligining stromal hujayralaridir. Bu hujayralarni punksiya orqali olib, laboratoriya sharoitida o‘stirib va maxsus moddalar ta’sirida har xil hujayralarga rivojlantirib, ularni odam organizmiga ko‘chirib o‘tkazish mumkin.” (“Fan va turmush” jurnali). Bu gapdagi suyak iligining stromal hujayralari birikmasidagi stromal so‘zi tushunarsizdir. Lekin birikmaning umumiy ma’nosidan uning mazmunini anglash mumkin. Punksiya terminini esa matning umumiy ma’nosidan tushunsa bo‘ladi.

Qoidaga ko‘ra bir turga oid tushunchalar ham izohsiz ishlatiladi: “Unda nerv sistemalarining buzilishlari paydo bo‘ldi: anareksiya va bulimiya”, “Suv temperaturasining keskin o‘zgarishi biologik vositalar – plankton va fitoplanktonlarning rivojlanishiga olib keladi.” Bu yerda uyushib kelgan bir turga oid tushunchalar izohsiz qo‘llanilgan. Undagi ba’zi tushunarsiz terminlani fahmlash qiyin emas.

4. Matn mazmunini va muallif fikrini tushunishga

qiyinchilik tug‘diradigan maxsus so‘z va so‘z birikmalarining ma’nolarini aytib (izohlab) o‘tish lozim. Masalan, “Nogiron bolalarni reabilitatsiya va integratsiya qilish klubi deyiladi. Reabilitatsiya – sog‘liqni qayta tiklash, integratsiya qilish – nogiron bolani sog‘lom bola bilan birga tarbiya qilish.” Ushbu misolda tushunish qiyin bo‘lgan terminga alohida izoh berish o‘rinlidir. Chunki ushbu terminlar matnda asosiy mazmunni ifodalashga yordam beradi, ya’ni matnning asosiy mavzusi shu termin bilan bog‘liq bo‘ladi.

5. Matn tarkibi va o‘quvchilar bilim doirasidan kelib chiqqan holda maxsus leksikadan unumli yoki unumsiz foydalaniladi. Ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotda termin-tushunchani ifodalash monografiya, maqola, to‘plamning mavzusi bo‘lishi (odatda sarlavhada aks etadi) mumkin, lekin ko‘pincha izohlar fikrni tushunishda yordamchi vazifani bajaradi xolos:

A) Termin ma’nosini ochib berish uchun uni tahlil qilishga harakat qilinadi. Ommaviy axborot vositalarida qo‘llanilgan maxsus leksikani tahlil qilish jarayonida uning faqat bir tomoni ochib beriladi. Ilmiy asarlarda terminlarning tahlili esa har tomonlama, mukammal bo‘lishi kerak. Ushbu misollarda gazetada qo‘llanilgan terminlarga berilgan izohlarni ko‘rish mumkin: “Leonardo tarqoqlik tamoyili – sfumatoni kashf etdi”, “Leonardo do Vinchi cherkov uchun loyihalar tuzishni boshlab bergan uning oktaedra shaklidagi tarixlari yana ixtiro – sharikli podshipnikka asos solinishiga olib keldi.” Yuqoridagi gaplarda “sfumato”, “oktaedra” kabi terminlar to‘liq izohlanmagan. Ularning ma’nosi bir tomonlama ochib berilgan.

B) Agar muallif ham maxsus leksikada, ham umumadabiy tilda qo‘llaniladigan so‘zlardan ijodiy foydalansa yoki ushbu tushunchalarni tadqiqot etayotgan bo‘lsa, u holda ushbu so‘zlarga izoh berib o‘tish talab qilinadi. Masalan, Natijada har safar yangidan adaptatsiya jarayoni, ya’ni moslashish jarayoni sodir bo‘ladi” yoki “Keyingisi – arterial gipertoniya. Gipertoniya bu – qon bosimining ko‘tarilishidir.”

D) Umumadabiy tilga kirgan leksik ma’nosi mavhum bo‘lgan maxsus va kasb-hunarga oid so‘zlarning mazmuni ochib berilishi talab qilinadi. Buni ko‘pincha ilmiy-ommabop materiallarda amalga oshirish kerak. Masalan, “Keyingi yillarda respublikamizda fan-texnikaning yangi yo‘nalishi – inteskopiya yuzaga keldi va rivojlanmoqda. Inteskopiya – tushunchasi tanaga yoki narsaga bevosita yuborish degan ma’noni anglatadi.”

E) Ilmiy-ommaviy matnlarda ma’nosi ifodalanmagan hamda polisemantik so‘zlar va omonimlar qo‘shtirnoqqa olinadi: “Passiv chekish”, ya’ni chekuvchilar oldida o‘tirib, sigareta tutunini yutishga majbur bo‘lgan bolalar va kattalar tish milklari ham qorayib ketar ekan”, “Xullas, “kechki soyalar”ning eng minimal narxi 500 ming dollar bo‘lib chiqdi”. Ushbu misolda qo‘shtirnoq ichida berilgan terminlar muallifning ularni ijodiy qo‘llashi mahsulidir. Ba’zi terminlarning izohsiz qo‘llanilishi yuqorida aytib o‘tilgan tamoyillar asosida amalaga oshirilgan. Bunday terminlarning ma’nosini matnning umumiy mazmunidan anglash mumkin.

F) Maxsus so‘zlarni izohlash davomida o‘quvchilarga tushunarsiz bo‘lgan so‘zlardan foydalanish kerak emas: “Teri, teri osti klechatkasi va fassiyada limfa hosil bo‘lishining buzilishi, shuningdek limfa oqsili tarkibining buzilishi bilan kechadigan kasallik filsimon oyoq kasalligi hisoblanadi. Uning tug‘ma formasi limfatik sistemaning o‘sib yetilmaganligi bilan bog‘liq”. Bu gapda izohda ham tushunarsiz terminlardan foydalanilgan. Natijada matnni tushunish osonlashish o‘rniga chalkashlik yuzaga kelgan.

G) Ilmiy-ommaviy materiallarni izohlashda terminlarning umumiste’moldagi sinonimlaridan foydalanish mumkin. Bu esa matnda bir so‘zni qayta-qayta ishlatmaslikka yordam beradi. Masalan, “Qand kasalligi dunyoda keng tarqalgan va eng og‘ir kasalliklardan biri hisoblanadi. Diabet yashash va ovqatlanish qoidalarini tez-tez buzuvchi kishilarda ko‘proq uchraydi”, “Keyingi yillarda ming va milion yillar davomida harakatsiz holatda yotgan turli xil jonli organizmlar hayotga qaytarilishi mumkin... Million yillardan beri anabioz holatidagi mavjudotlarni jonlantirish mumkinmikan?” Yuqoridagi gaplarda umumiste’moldagi qand kasalligi so‘zi diabet termini bilan, harakatsiz holatda yotgan – anabioz termini bilan yonma-yon qo‘llanilan va matnning uslubiy mukammalligiga erishilgan. Albatta, muallifnining ilmiy-ommabop matnlarga maxsus leksikani kiritishlarida ana shunday usullarni bilishlari shart. Matnni terminlar bilan pala-partish to‘ldirib tashlash uning saviyasini tushirib yuboradi.

H) Ilmiy-ommabop materiallarda qo‘llanilgan maxsus leksikani izohlashda muallifning qarashlari, his-tuyg‘ularini, fikrini ifodalovchi matnlar ham uchraydi. Tushuntirishning bunday usuli obrazli va tasviriy bo‘lgani uchun esda qolish oson bo‘ladi. Taqqoslang, “sunami” so‘zining ikki xil izohi: “Bu nima?.. Qandaydir tushunarsiz, notabiiy jimjitlik. Qo‘rqinchli jimjitlik. Urush paytida ham jimjitlik vahimali edi. Otishmalar, portlashlar, baqir-chaqirlar va birdan – sokinlik. Yomon alomat. Demak, nimadir sodir bo‘ladi. Ogoh bo‘l!

Bu yerda-chi? Okean sohilida nima bo‘ldi? Qattiq to‘lqin yuzaga keldi. Birdan suv orqaga qayta boshladi. Uzoqroq, uzoqroq va yanada uzoqroq... suv osti ko‘rinib, toshlar chiqib qolgan. Okean tezlik bilan orqaga ketmoqda. Bu nima? U qayerga ketmoqda? Boshqa savol berma. Qoch! Dengizdan uzoqroqqa qoch. Yo‘qsa to‘lqin seni olib ketadi. Mana u harakat qilmoqda. Hammayoqni vayron qilib, qirg‘oqqa qaytib kelmoqda. Birinchi to‘lqindan keyin – ikkinchisi, uchinchisi, yanada balandroq, yanada kuchliroq. Buning nomi sunami”.

Endi xuddi shu mavzudagi keyingi matnga e’tiborni qaratsak: “Sunami – yaponcha so‘z bo‘lib, suv osti yerlarining qimirlashi yoki, vulqonlarning yuzaga kelishi natijasida sodir bo‘ladigan suv to‘lqinidir. Sunami katostrofik oqibatlarga olib keladi”.

Birinchi matnda muallif obrazli vositalardan keng foydalangan va bu matnning ta’sirchanligini, esda qolish darajasini oshirgan.

6) Ba’zi hollarda terminlarni izohlashda chetdan o‘zlashgan so‘zlarni so‘zma-so‘z tarjima qilish, uning kelib chiqishiga va ishlatilishiga sabab bo‘lgan omillarni ko‘rsatib o‘tish lozim bo‘ladi: “Yurakni tashxis qilishdagi bu usul elektrokardiotoposkopiya deb ataladi. Kardio – grekcha so‘z bo‘lib, yurak, to‘p – joy, skope – ko‘raman ma’nolarini beradi. Birgalikda elektrichestvo yordamida yurakning jarohat joyini ko‘rish ma’nosini anglatadi”. Ushbu misollarda har bir terminga ilmiy yondashgan holda ta’rif berilgan. Bunday usul matnning izchilligi va aniqligini ta’minlaydi.

Demak, maxsus leksika va uni matnga kiritish yo‘llarini bilmay turib ijod qilish mumkin emas. Ko‘rib chiqqanimizdek, terminlarni qo‘llash usullari turlicha bo‘lib, ulardan o‘rinli foydalanish asarning o‘qishli va ta’sirli bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тошмухамедова Л.И., Шамақсудова С.Х. Махсус лексика. – Т.: Чинор, 2008.
2. Тошалиев И., Абдусатторов А. ОАВ тили ва услуби. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
3. Шамақсудова С.Х., Исраил М.И. ОАВда ёзма матн. Нутқ ва мунозара. – Т.: Iqtisod-moliya, 2018.
4. https://www.press

Diyora ABDUJALILOVA,
TOSHDO‘TAU o‘qituvchisi

ALISHER NAVOIY VA YAHYOBEY TOSHLIJALINING DIDAKTIKAGA OID QARASHLARI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” hamda usmonli turk shoiri Yahyobey Toshlijalining “Gulshan ul-anvor” dostonlaridagi odob-axloqqa doir maqolat va hikoyatlar haqida so‘z boradi. Maqola muallifi har ikkala dostondagi ushbu mavzuga doir hikoyalarni qiyoslar ekan, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida axloqiy masalalar iymon ta'rifidan boshlanib, adolatli shohlar, adab, qanoat, rostgo‘ylik, vafo va h.k. masalalar bilan davom etishini ta’kidlaydi. Ushbu masalalar maqolat nomi bilan berilib, ularning har biriga bittadan hikoyat ilova qilinadi. Toshlijali dostonida esa bir nazariy muammoga bir nechta hikoyat ilova qilingan bo‘lib, ba'zan ushbu hikoyatlar tamsillar va tanbehlar bilan to‘ldirib, boyitib boriladi.

Kalit so‘zlar: *doston, an’ana, xamsa, odob-axloq, hikoyat, adolat, vafo.*

Annotation: the article talks about stories about morality in the epics of Alisher Navoi “Khairat ul-Abrar” and “Gulshan ul-Anwar” by the Ottoman-Turkish poet Yahyabey Tashlijali. The author of the article compares plots related to this topic in both epics. In Alisher Navoi's epic "Khairat ul-Abrar", questions of morality begin with the definition of faith and include simply kings, manners, contentment, honesty, fidelity, etc. . These issues are given the title of the articles, and each of them is accompanied by one story. In the Tashlijali epic, several plots are tied to one theoretical problem, sometimes these plots are filled and enriched with parables and reproaches.

Key words: *epic, tradition, legend, morality, plot, justice, fidelity.*

Sharq musulmon adabiyotida odob-axloq mavzusi barcha davrlarda muhim ahamiyat kasb etgan masalalardan hisoblanadi. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida ham odob-axloq mavzusi markaziy o‘rin egallaydi. Ma’lumki, dostonning asosiy qismi maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 bobni o‘z ichiga oladi. Maqolatlar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, mavzu yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bayon qiladi, so‘ngra shu mavzuga mos ibratli hikoya keltiradi. Maqolatlarning barchasi, ularga ilova qilingan hikoyatlar ham bir-biri bilan izchil bog‘langan, mazmunan biri ikkinchisini davom ettiradi, to‘ldiradi, rivojlantiradi.

Dostondagi eng avvalgi maqolat iymon sharhiga bag‘ishlanadi. Bu bejiz emas, zero, dostonning bosh g‘oyasi komil inson timsolini vasf etishdir, komillikning bosh belgisi esa iymondir:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishoni anga iymon erur.

Shoir 3-maqolatda podshohlikning mezoni – asosi adolatda ekanligini sarlavhadayoq bayon etadi. Navoiyning talqini bo‘yicha, podshoh ham boshqa insonlar kabi tuproqdan yaralgan oddiy bandadir. Podshohlik imtiyoz emas, balki vazifadir, uni halol bajarish uchun haqni nohaqdan ajratib, adolat tamoyiliga so‘zsiz rioya qilish shart. Xalq birligi, mamlakat obodligi, turmush farovonligini ta’minlovchi asosiy omil ham adolat hisoblanadi. «Ammo, afsuski, – deb davom ettiradi o‘z mushohadasini Navoiy, – bu qoidaga hamma vaqt ham rioya qilinmaydi, zulm va zo‘ravonlikning boshida ko‘pincha maishatparast va

zolim hukmdorlar turadi».

Navoiy dostonning oltinchi maqolatida odob va kamtarlikni ulug‘lab, ta’lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Kishilarga ularning nasabidan sharaf kelmaydi. Lekin hayo va odob kishini yuksaklarga olib chiqishini ta’kidlaydi shoir.

Elga sharaf bo‘lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab.

Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o‘stirish, o‘qitish va balog‘atga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo‘lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta’riflaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a…
Tun-kunungga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh…

Navoiy maqolatni shu mavzuga mos hikoyat bilan davom ettiradi. Anushervon odil haqidagi hikoyat orqali hayo va odob shoh-u gado uchun bir hisoblangan insoniy fazilat ekanligi ta’kidlangan. Hikoyatda No‘shiravon axloq-odob va donishmandlik bobida ham beqiyos kishilardan biri sifatida ta’rif-tavsif qilinadi. Navoiy ham No‘shiravon an’anaviy obrazining bu jihatlarini e’tibordan chetda qoldirmay, “Hayrat ul-abror” dostonida nihoyatda ibratli bir hikoyatni bayon etadi:

No‘shiravon hali shoh bo‘lib ko‘tarilmagan vaqtda bir qizning ishqi bilan notavon ahvolga tushib qoldi. Ko‘ngli g‘uncha singari to‘la qon edi, lekin g‘am sirlarini pinhon tutardi. Unga visol muyassar bo‘lgunga qadar cheksiz azob-uqubat va tashvishlarni boshdan kechirdi.

Bir kun u chamanzordan xilvat joyni tanlab, gulruh yori bilan suhbat qurdi. Baxtiyor shahzoda yorini quchmoqchi bo‘lgan edi, gul’uzor ham bunga rozi bo‘ldi. Dilbar hamdami tomon u qo‘lini uzatganda, bir tup nargisga shahzodaning ko‘zi tushib qoldi. Shunda ahvoli o‘zgarib, u qo‘lini tortib oldi. Sumanbar yori hayron bo‘lib, so‘radi: – Qo‘lingizni uzatganingiz nimasi-yu, yana tortib olganingiz nimasi?

Adabli shoh bunga shunday javob berdi: – Shunday bir visol damida menga monelik qilgan narsa nargisning shahlo ko‘zi bo‘ldi. Hayo ko‘zi bilan olijanoblik bu ishda unga kuch bermadi. Uning nargisdek ko‘zlari yoshga to‘lib, o‘rnidan turdi-da, bu ishdan voz kechdi. Oxirida uning bu sof niyatliligi, shunday hayochanligining xosiyati uni butun olamga shoh qildi, adolati esa olamni panohiga oldi. Aysh, ey Navoiy, qancha dilkash bo‘lsa ham, lekin adab bilan hayo undan yaxshiroqdur:

Aysh, Navoiy, necha dilkash durur,
Lek adab birla hayo xush durur

Qanoat ta’rifidagi yettinchi maqolat badiiy timsollarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Navoiyning fikricha, kimki qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, u eng boy insondir. Oltin, kumush va zeb-u ziynatlarni boylik deb bilmaslik kerak, balki haqiqiy boylik qanoat xazinasidir:

Kimgaki ish bo‘ldi qanoat fani,
Bilki, ani qildi qanoat g‘ani.
Ganji tajammulni g‘ino bilmagil,
Balki g‘ino ganji qanoatni bil.

Mazkur maqolatda qanoat tushunchasi chiroyli tashbehlar va tamsillar vositasida ifodalab berilganligini ko‘ramiz. Masalan, osmon qanchalik katta bo‘lmasin, u bitta kulcha, ya’ni quyosh bilan kun kechiradi. Ko‘z doim shuning uchun ravshanki, u mehrob ostida turib, ikkita bodom bilan oziqlanadi. Shunday ekan, insonlar qanoat bobida osmon va ko‘z singari bo‘lishlari kerak. Maqolatda kitobot (harf) san’atining ham yetakchilik qilishini kuzatish mumkin:

Qushlar aro shohki anqo durur,
Nuktaye bu amrda paydo durur.
Bordur agar fikr ila topsang vuquf,
Qoni’-yu anqog‘a muvofiq huruf.

“Hayrat ul-abror”ning o‘ninchi maqoloti rostgo‘ylik, halollik va to‘g‘rilikka bag‘ishlangan. Navoiy unda kishilarni rostgo‘y va to‘g‘ri bo‘lishga chaqiradi, yolg‘onchilik va egrilikning zararli oqibatlarini keskin fosh etadi. Shoir yolg‘on so‘zlashning yomon oqibatini “Sher bilan Durroj” masalida ovchining tuzog‘iga tushgan Durroj timsolida hikoya qiladi.

Dostonning o‘n birinchi maqolotida Navoiy ilm-fanga, ilm ahliga yuksak baho beradi. Kishilarni ilm olishga, olimlarni izzat-hurmat qilishga chaqiradi. Shu bilan birga, shoir o‘sha davrda mehnatkash va musofir talabalarning ilm olish yo‘lida chekkan mashaqqatlaridan, ilm-fan egalarining muhtojlikda yashaganlaridan afsus-nadomatlar chekadi.

Navoiy ilmdan amalda foydalanish zarurligini ta’kidlaydi:

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,
Endiki ilm o‘ldi amal aylagil.

Navoiy yaramas odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralashi, oliyjanob insoniy fazilatlarni qadrlashi, bolalarni o‘qish, o‘rganish va yuksak odobli, a’lo xulqli bo‘lishga chaqiradi.

Yahyobey Toshlijali o‘z hikoyatlarda yomon odatlarni qoralaydi. Go‘zal xulqlilikni yuqori nuqtaga olib chiqadi. “Gulshan ul-anvor” dostonining avvalgi bobi – podshohlar haqidagi bobida podshohlarning yaxshi xulqli bo‘lishi kerakligiga alohida ahamiyat qaratadi.

Shoir umrini behuda o‘tkazib, ishni tashlab, ovga chiqqan sultonni tanqid qiladi. Odamlar ishini, kuchini tashlab, uzoqlardan kelib, unga shikoyat qiladi, topa

olmagach, bo‘ynini egib ortiga qaytib ketadi. Shoir bunday badxulq, xalqini o‘ylamadigan, odob-axloqda namuna ko‘rsata olmaydigan podshohlarni qattiq qoralaydi.

Vay aña kim ömrini isrāf ide
Maślaĥatın ḳoya şikāra gide

Çoġı ıraḳdan gele mānend-i Nįl
Aġlaya boynın bura ḳala źelįl

Žulm ile anuñ ki ola ḳaddi dāl
Sįnesini ŧaşlaya ħātem-miŝāl

Shoir xalq bilan faxrlanib, sharob ichib, mulkini zo‘rlik bilan tortib olgan, zolimlar bilan do‘stlashgan sultonni qoralaydi. Amali chap tomondan beriladigan bunday do‘zax ahliga yaqin bo‘lmaslikni maslahat beradi.

Toshlijali ushbu bobni No‘shiravoni Odil haqida hikoya bilan davom ettiradi. Aynan mana shu hikoya orqali podshohlarning o‘zi eng avvalo yoshlarga, atrofdagilarga namuna bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari suradi.

No‘shiravon bir kuni ov qilish uchun tog‘larga boradi. Atrof ovchi itlar va qirg‘iylar bilan to‘la edi. Qo‘l ostidagilardan bir qanchasi unga hamrohlik qiladi. Atrof mevali daraxtlar bilan qoplangan edi.

Şįr gibi ŧaġlara Nūşirevān
Azm-i şikār itmişidi bir zamān

Niteki ebrū-yı cefākār-ı yār
Ŧoldı uçar Şāhin ile lālezār

Beylardan biri u yerdagi mevali daraxt shoxidan uzib, tishlab yeya boshlaydi. Tasodifan bu vaziyatni ko‘rgan sultonning jahli chiqadi. Odamni shafqatsiz, uyatsiz va gunohkor deb atab, mevali daraxtni qadrlamaganlar yurtga mehr-shafqat qila olmaydi, kim biladi, uni oldida daraxtga zarar yetkazganlar o‘zi ko‘rmagan joyda nima qilayotgan ekan deya g‘azablanadi.

Beglerinüñ biri meger ol maĥal
Bir şecerüñ ucını kesdi sehel

Dişlerini ḳurcaladı nā-gehān
Gördi ḳażā ile şeh-i kāmrān

Erkakni urgan sulton uning martabasini olib, jazolaydi. Bir oz uzoqqa borib o‘ngga, chapga qarab, bir necha yoshlar tabiatga, dalaga zarar yetkazayotganini ko‘radi. Dala ahvolini ko‘rgan sulton rahm-shafqatidan yig‘lab, nola qiladi. Va barcha zulmga o‘zi sababchi ekanligini anglaydi. U boshqa ov qilmaslikka qaror qiladi.

Daĥı öte gitdi birez pādşāh
Śağına śolına iderken nigāh

Düşdi ŧoġan ardına birḳaç civān
Çignedi bir tarlaya itdi ziyān

Johillarning mashg‘ulotlari bilan band bo‘lish johillar bilan do‘stlashishga sabab bo‘ladi. Ushbu hikoyatda odam foydasiz tijorat bilan shug‘ullanmasligi, yomon odamlardan uzoq bo‘lishi, yaxshi odamlar bilan do‘stlashishi kerakligi haqidagi fikrlar ilgari suriladi.

Toshlijali Yahyobey podshohning ichkilikka berilishini eng katta odobsizlik deb hisoblaydi va o‘z asarida bunga jiddiy ahamiyat qaratadi. Ichkilikka berilgan shohning shayx bilan suhbatdan so‘ng to‘g‘ri yo‘lga kirishi va taqvo yo‘lini tanlagani haqidagi hikoya bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

O‘z nafsiga bo‘ysunib umr kechiradigan, ichkilik bilan mashhur, ishi gunoh qilish sulton bor edi. Kecha-yu kunduz qadahini qo‘lidan qo‘ymaydi. U o‘z aybini berkitish maqsadida Damashqda joyib masjid quradi. Arab shayxi sulton bilan masjidning ochilishida qatnashadi. Shayx podshoh bilan birga masjid atrofida aylanib yurarkan, sultonga masjid ichiga sharob idishlarini qo‘yishni taklif qiladi. Va Juma namoziga kelgan sharobxo‘rlar xursand bo‘lishini aytadi.

Cāmii bu resm ile oldı tamām
Cāmie cem oldı ħavāśś u avām

ġeyĥ-i Arab pįr-i mübārek-nažar
ġāh ile cemiyyete geldi meger

Shayxning gaplaridan g‘azablangan podshoh masjidning mayxona emasligini eslatadi. Shayx unga Alloh inson vujudini ilohiy sirlarga to‘la masjid qilib yaratganligi va unga g‘aflat bilan sharob quyganligini aytadi.

Didi ne sözdür bu söz ey şeyĥ-i pāk
Bu yaramaz söz beni itdi helāk

Saña düŞer mi hele böyle dimek
Mescidi meyĥāne mi itmek gerek

Bu so‘zlardan sulton g‘aflatdan uyg‘onadi. U tavba qiladi va ichishni tashlaydi.

Alloh uni avliyo darajasiga ko‘taradi. Ushbu hikoya orqali nafaqat ichkilikning yomonligi, balki, barcha axloqsizliklar uning oqibatida kelib chiqishi haqida so‘z boradi. Shu bilan birga shayxning zakiyligi, podshohni to‘g‘ri yo‘lga boshlash uchun nihoyatda aqlli yo‘ldan borganligi ham ushbu hikoyada o‘z

aksini topgan.

Shoir g‘ofillarning tarbiyasi haqidagi ikkinchi bobda ham odob-axloq masalalariga to‘xtalib o‘tganini ko‘ramiz.

Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoya fikrimizning dalili bo‘la oladi. Bir kuni Abdulloh Ansori otasining ziyoratiga keladi. Otasi unga turli xil noz-ne’matlar ila ikrom ko‘rsatadi.

Boshi oldinga bukilgan o‘g‘il taklif qilingan taomning birortasiga tegmaydi. Bu holatdan hayron bo‘lgan otasi undan bu holatning sababini so‘raydi. Gapni boshlashdan avval Ansoriy otasining xafa bo‘lishini xohlamasligini aytadi. O‘rim-yig‘im chog‘ida xirmon bosgan yetimning somonini shamol uchirib, otasining xirmoniga aralashib ketganini aytadi. Bu manzaranining guvohi bo‘lgan Ansoriy ovqatni iste’mol qilishni istamaydi.

Shoir harom narsalar inson ma’naviyatini xira qilishini, ibodatlarini nursiz qilishini aytdi. Shu bilan birga hikoyada Abdulloh Ansoriyning naqadar nazokatli ekanligi, otasini ko‘nglini og‘ritmaslik uchun taom yemasligi sababini ehtiyotkorlik bilan tushuntirganiga guvoh bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida axloqiy masalalar iymon ta’rifidan boshlanib, adolatli shohlar, adab, qanoat, rostgo‘ylik, vafo va h.k. masalalar bilan davom etadi. Ushbu masalalar maqolat nomi bilan berilib, ularning har biriga bittadan hikoyat ilova qilinadi. Toshlijali dostonida esa bir nazariy muammoga bir nechta hikoyat ilova qilingan bo‘lib, ba’zan ushbu hikoyatlar tamsillar va tanbehlar bilan to‘ldirib, boyitib boriladi.

Har ikkala dostonda No‘shiravoni Odil bilan bog‘liq hikoyat mavjud. Alisher Navoiy dostonida ushbu hikoyat adab bilan bog‘liq tarzda talqin qilingan va No‘shiravonning hali podshohlik martabasiga o‘tirmagan – shahzodalik davrini o‘z ichiga oladi. Toshlijali dostonida esa No‘shiravoni Odil haqidagi hikoyat qahramonning podshohlik davriga mansub bo‘lib, bunda No‘shiravon timsoli orqali podshoh qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerakligi uqtiriladi va mamlakat aholisi uchun No‘shiravon namuna sifatida ko‘rsatiladi.

“Hayrat ul-abror” dostonida shayx Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoyatda ibodatni do‘zaxdan qutulish yo jannatga kirish uchun emas, balki Haq taolo buyrug‘iga so‘zsiz amal qilish deb bilish lozimligi to‘g‘risida so‘z borsa, “Gulshan ul-anvor” dostonida keltirilgan Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoyatda ota-o‘g‘il munosabatlari tarbiya va odob masalalariga bog‘liq tarzda talqin qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1991. 7-жилд.
2. Афсахзод А. Лирика Абд Ар-Рахмана Джами.– М.:Наука, 1988.
3. Sağlam Ayşe. Taşlıcalı Yahya Bey ve Hemsesı. Doctora Tezı. – 2016.
4. Taşlıcalı Yahya. Gulşan ul-anvar. Ayşe Sağlam. – Diyarbakir – 2016.
5. Юсупова Дилнавоз. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Навоий даври). – Т.: TAMADDUN, 2016
6. Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1991. 7-жилд
7. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 томлик. Т.7. – Т.: Фан, 1991. – 392 б.
8. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Насрий баёни билан. Насрий баён матнини тайёрловчи А.Ҳайитметов. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2006. – 392 б.
9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. т.1. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.
10. Taşlıcalı Yahyâ Dukâgîn-zâde. şâh u Gedâ. (Ali Emirî Efendi Manzum Eserler) Millet Kütüphanesi. No: 986/3, Şstanbul. (51 varak)
11. Taşlıcalı Yahyâ Dukâkîn-zâde. GülŞen-i Envâr. (Ali Emirî Efendi Manzum Eserler) Millet Kütüphanesi. No: 993, Şstanbul (133 varak)
12. Taşlıcalı Yahyâ Dukâgîn-zâde. GülŞen-i Envâr. (Ali Emirî Efendi Manzum Eserler) Millet kütüphanesi. No: 993, Şstanbul (133 varak)
13. Tekin, M. (2001). Roman Sanatı I (Romanın Unsurları). Şstanbul: Ötüken Yayınları
14. https://tsuull.uz/sites/default/files/2022-2son._adabiyotshunoslik.pdf#page=4
15. https://tsuull.uz/sites/default/files/2022-2son_adabiyotshunoslik.pdf#page=4
16. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=_XlSriMAAAAJ&citation_for_view=8XlSriMAAAAJ:8k81kl-MbHgC

Shaxnoza MUXTAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
shaxnoza1977xon@.gmail.com

TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: maqolada zamonaviy ta’limni tashkil etish, ona tili darslarida turli interfaol metodlardan foydalanish usullari, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalar darajasini baholash haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiya, ta’lim metodlari, interfaol usullar, klaster, organayzer, ta’limiy o‘yinlar.*

Аннотация: в статье рассмотрены организация современного образования, методы использования различных интерактивных методов на занятиях по родному языку, передача учащимся определенных теоретических знаний в короткие сроки путем использования передовых педагогических технологий, а также формирование компетенций и умений в определенных видах деятельности. Речь идет о деятельности, контроле за деятельностью учащихся, оценке уровня приобретенных ими знаний, умений и навыков.

Ключевые слова: *педагогическая технология, методы обучения, интерактивные методы, кластер, организатор, обучающие игры.*

Annotation: in the article, the organization of modern education, the methods of using various interactive methods in mother tongue classes, the delivery of certain theoretical knowledge to students in a short time by using advanced pedagogical technologies, and the formation of competencies and skills in certain activities. it is about doing, monitoring the activities of students, evaluating the level of knowledge, skills and abilities acquired by them.

Key words: *pedagogical technology, educational methods, interactive methods, cluster, organizer, educational games.*

Milliy istiqlol tufayli jahonga yuz tutgan mamlakatimizda jahon andozalariga mos, raqobatbardosh yetuk mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga kuchayib borayotganligi hech birimizga sir emas. Zero, O‘zbekistonimizda barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Demak, har qadamda ilg‘or pedagogik texnologiyalarga ehtiyoj sezmoqdamiz. Vaholanki, ertangi kun mutaxassisi bugungi kun maktab partasida o‘tirgan yoshlardir. An’anaviy o‘qitish maktabiga tayangan ta’lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga qodir emas. Shuning uchun o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilar qiziqishini oshirish, o‘qitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yo‘llarini izlash ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o‘qituvchini izlanishga va o‘quvchini o‘z ustida ishlashga erkin fikrlashga undaydi. Metod shunday tanlanishi kerakki, unda o‘quvchi o‘zini erkin tuta olishi, fikrlarini ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o‘zlashtirilishi lozimligi muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergan. Keng qo‘llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so‘rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Bo‘g‘inlar zanjiri”, “BBB” metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta’minlab, o‘quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili darslarida ham yuqorida sanab o‘tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha…, yo‘q”, “Ta’rif egasini top”, “Domino”, “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha”, “Sirli sandiqcha metodi”, “Harfni his qilish” metodlari kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin vaqtida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o‘quvchida ishonch, qat’iyat paydo bo‘ladi. Munozaraga kirishishni o‘rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. O‘quvchilarga har darsda bir xil dars o‘tish

ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo‘lgan e’tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg‘ulotlari jarayonida turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini oshiradi.

“Klaster” metodi. “Klaster” grafik organayzeri “Fikrlarning tarmoqlanishi” degan ma’noni anglatadi. Bu metod turi o‘quvchilarning biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog‘langan ketma-ketlikda tarmoqlashni o‘rgatadi. U quyidagicha tashkil etiladi: 1. Xayolga kelgan har qanday fikr bir so‘z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi; 2. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi; 3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o‘zaro bog‘liqlik ketma-ketligini ko‘paytirishga harakat qilinishi lozim. Ona tili darslarida “So‘z turkumlari” mavzusini yoritishda “Klaster” usuli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod orqali o‘quvchilar mavzuga oid tushunchalar ustida ishlaydi. Masalan, sifat so‘z turkumiga oid tushunchalarni ular quyidagi tartibda tarmoqlarga ajratishlari mumkin. “Klaster” usulida so‘z turkumlari tushuntirilganda o‘quvchining diqqatini shu mavzuga qaratish maqsadida markazga so‘z turkumlariga oid tushunchalar yoziladi. O‘quvchilarlar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtirib yozadilar. Fikrlar bayon etilgandan so‘ng har bir fikr yoki so‘zni toifalarga ajratib chiqadilar. “Klaster” usuli quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi: 1. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish; 2. Yozma nutqni takomillashtirish; 3. Fikrlash qobiliyatini shakllantirish; 4. Toifalarga ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish. “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha” metodi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z (tushuncha, fikr) beriladi. O‘quvchilar ana shu so‘zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar. Yozuv ekranda ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ortiqcha so‘zni aniqlashadi. So‘ng bu so‘zlar ishtirokida gap tuzish topshirig‘i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

“Sirli sandiqcha” metodi. Bu metod o‘quvchining mantiqiy fikrlashini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu metoddan foydalanish uchun o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. O‘qituvchi doskaga 4 ta mavzu nomini ilib, ular haqida hech qanday ma’lumot yozmaydi. Masalan, “So‘z turkumlari” mavzusi o‘tilganda Ot, Sifat, Son, Fe’l kabi. “Sirli sandiqcha”da esa so‘z turkumlariga oid ma’lumotlar, misollar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar bu ma’lumotlar qaysi so‘z turkumiga tegishli bo‘lsa qog‘ozni shu so‘z turkumi tagiga qistirib boradi. O‘qituvchi bajarilgan ishni tahlil qiladi va rag‘bat kartochkalari beradi. Eng ko‘p rag‘bat kartochkasi to‘plagan guruh g‘olib bo‘ladi. «Tushunchalar tahlili» metodi. Bu metod quyidagicha mulohaza qilinadi. Nazorat ishi yakunlanib, baholar e’lon qilingandan so‘ng, har bir o‘quvchi nazorat daftarida o‘qituvchi tomonidan tekshirilgan va kamchiligi tuzatilgan so‘zlarni ko‘chirib yozadi. Bu metod ham o‘quvchini xushyorlikka chorlash bilan bir qatorda o‘z xatosini o‘z vaqtida tushunishga va bu xatoni boshqa takrorlamaslikka olib keladi.

Darslarni samarali tashkil etishda quyidagi o‘yinlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. “Baliq ovi”, “Kim hakam”, “Taqdimot-tadqiqot”, “Piramida”, “Matn tuzib ko‘r, aqling bo‘lar zo‘r”, “Xatosini top”, “Xotira mashqi”, “So‘zdan so‘z yasash” o‘yinlaridir.

“Baliq ovi” o‘yini. Doskaning bir tomoniga dengiz rasmi, ikkinchi tomoniga akvarium rasimi tushiriladi. Dengizda baliqlar bo‘ladi. O‘quvchi dengizdagi baliqlardan birini tutib uni orqa qismidagi savollarga javob beradi. Javob to‘g‘ri bo‘lsa, baliqni akvariumga, noto‘g‘ri bo‘lsa dengizga qo‘yib yuboradi.

“Xotira mashqi” o‘yini. Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida, ayniqsa, birinchi tanishuv darsida qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yin. O‘quvchi o‘z ismini aytadi va shu ism bilan boshlanuvchi biror adib ismini aytadi. Adham –Alisher Navoiy, Bahodir – Zahiriddin Muhammad Bobur, Gavhar – Gulxaniy. O‘yin shartiga ko‘ra o‘qituvchi bir nechta imlosi qiyin yoki o‘quvchilarga o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan so‘zlarni aytadi, o‘quvchilar esa bu so‘zlarni eslab qolib, daftarlariga imlo qoidalari asosida yozadilar.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar o‘quvchilarning savodxon bo‘lishiga, DTS talablariga qo‘yilgan bilim va ko‘nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o‘ynaydi. Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili darslarida qo‘llash natijasida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, o‘zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o‘zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
2. Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topishmoqlardan foydalanish. – Toshkent: Musiqa. 2009.
3. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. 254-b.
4. Muslimov N., Usmonboeva M., Mirsoliyeva M. – Innovatsion ta‘lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. – Toshkent, 2016.
5. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim talabalari uchun darslik. –Toshkent: Nosir, 2009.
6. Avlayev O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Navro‘z, 2017.

Barno XUSNIDDINOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi

BO‘LAJAK LOGOPEDLARNING DEONTOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak logopedlarning deontologik yondashuv asosida kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosi muhokama qilinadi. Logoped kasbiy madaniyatini oshirishning muhim sharti kasbiy ta’limning o‘rtasidagi uzluksizlik, shuningdek, zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassisning yangi modelini yaratishdir.

Kalit so‘zlar: *kasbiy madaniyat, kompetentlik, kasbiy faoliyat, professiogramma, komponent, kasbiy shakllanish, deontologiya, pedagoguk deontologiya, deontologik kometensiya.*

Аннотация: в данной статье рассматривается проблема развития профессиональной культуры будущих логопедов на основе деонтологического подхода. Важным условием повышения профессиональной культуры логопеда является непрерывность профессионального образования, а также создание новой модели специалиста, отвечающей современным требованиям.

Ключевые слова: *профессиональная культура, компетентность, профессиональная деятельность, профессионограмма, компонент, профессиональное становление, деонтология, педагогическая деонтология, деонтологическая компетентность*

Annotation: this article examines the problem of developing the professional culture of future speech therapists based on a deontological approach. An important condition for improving the professional culture of a speech therapist is the continuity of professional education, as well as the creation of a new model of a specialist that meets modern requirements.

Key words: *professional culture, competence, professional deyatelnost, professionogram, component, professional standing, deontology, pedagogical deontology, deontological competence.*

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyati sohasining xususiyatlari, axloq-odob, huquqiy normalar va qoidalarning ustuvorligi g‘oyasi asosida ta’lim munosabatlarini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish jarayonlari, o‘qituvchining kasbiy burchini anglashi va o‘z faoliyati natijalari uchun javobgarligi bilan belgilanadi. O‘qituvchi faoliyatidagi deontologik yo‘nalishning tarixiy va pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Mahalliy va xorijiy mualliflarning axloq muammolariga, pedagogik faoliyatning deontologik jihatlarini asoslashga bag‘ishlangan asarlarining sharhi o‘tkazildi.

O‘qituvchining deontologik me’yorlarga rioya qilishi uning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishidagi muvaffaqiyatni belgilab berishi, o‘z faoliyatini va ta’lim munosabatlarining boshqa ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish samaradorligini ta’minlashi ko‘rsatilgan. O‘qituvchining kasbiy faoliyatini deontologik postulatlarga rioya qilishga yo‘naltiruvchi tamoyillar ochib berilgan; o‘qituvchining kasbiy faoliyati uchun deontologik talablar belgilanadi. "O‘qituvchining deontologik kompetensiyasi" tushunchasiga ta’rif berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘qituvchining deontologik kompetensiyasini rivojlantirishda o‘qituvchining xulq-atvor traektoriyasida axloqiy va axloqiy imperativlarga rioya qilish ustuvorligi bilan ta’lim sohasidagi kasbiy standart talablari va boshqa me’yoriy hujjatlar bajarilishini boshqarishi kerakligi aniqlandi.

Ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida ro‘y berayotgan chuqur modernizatsiya jarayonlari bilan tavsiflanadi. Ushbu modeldagi ustuvor rol ta’lim tizimiga eng muhim ijtimoiy muassasa sifatida berilgan bo‘lib, uning faoliyati o‘quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirishni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga, ta’lim sifatiga erishish va ta’lim xizmatlari iste’molchilarini qondirish maqsadida innovatsion ta’lim traektoriyalarini amalga oshirishga qaratilgan. Davlat ta’lim siyosati va ta’lim sohasidagi huquqiy tartibga solishning asosiy tamoyillari sifatida belgilaydi: axloqiy-odob me’yorlari, me’yor va qoidalarga rioya qilish asosida ta’limni boshqarishning demokratik mohiyati, o‘zini ifoda etish va qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish qobiliyatiga ega shaxsning o‘ziga xosligi va qadr-qimmatini tan olish [11, p. 7]. Zamonaviy ta’lim modeli sharoitida o‘qituvchi nafaqat bilimlarning tarjimoni, balki pedagogik ishning professional va deontologik tekisligida yotadigan rolli xulq-atvorga asoslangan o‘quvchilarning ta’lim faoliyati dirijyorining funksiyalarini o‘quv jarayonida amalga oshirishni ta’minlaydigan shaxsdir. Shu munosabat bilan deontologik me’yorlar muayyan pedagogik vaziyatlarda pedagogik majburiyat va faoliyat natijalari uchun mas’uliyat jihatidan professional standart talablarini bajarilishini ta’minlovchi ko‘rsatma va muayyan pedagogik vaziyatlarni cheklovchilar rolini o‘ynaydi.

"Pedagogik deontologiya" tushunchasini yangilab, bir qator mualliflar (G.M.Kertaeva, G.M.Kodjaspirova, L.E.Kuderina, K.M.Levitan) uni kasbiy burch talablariga muvofiq o‘qituvchi xatti-harakatlari prizmasi orqali sharhlaydilar. Shu bilan birga, pedagogik deontologiya talablari o‘qituvchining kasbiy ongini talaba (ta’lim munosabatlarining boshqa ishtirokchilari) taqdiriga

aralashishga, ishonch, hamdardlik va adolat tamoyillariga rioya qilishga yo‘naltiradi. Tanlangan printsiplar asosida pedagogik faoliyatning deontologik jihati nuqtai nazaridan o‘qituvchiga qo‘yiladigan ustuvor talablar quyidagilardan iborat: o‘qituvchi shaxsining gumanistik yo‘nalishi, uning doirasida pedagogik harakatlarni anglash va interiorizatsiya qilish, axloqiy ko‘rsatmalarni mustahkamlash; o‘qituvchiga pedagogik faoliyatni amalga oshirishga va kasbiy burchiga muvofiq barqaror xatti-harakatni ta’minlashga imkon beradigan professional va shaxsiy deontologik fazilatlarning mavjudligi; o‘qituvchining deontologik pozitsiyasi kasbiy faoliyatning axloqiy yo‘nalishi, ijtimoiy ahamiyatli xulq-atvorida namoyon bo‘lgan, o‘qituvchining kasbiy va pedagogik burchini anglashi, bu sohada, o‘ziga va talabalarga ta’lim makonining faol subyektlari sifatida tushunishi asosida ta’limga bo‘lgan munosabatining integratsiyasi sifatida [3, p. 35]. Deontologik kompetensiya bu pedagogik adabiyotda (A.A. Derkach, A.K. Markova, V.D. Ivanov, Yu.G. Kuznetsov, E. asarlari) ancha keng ilmiy va nazariy tushunchalarni olgan keng ko‘lamli ta’limning – kasbiy kompetensiyaning muhim qismidir. (I. Ogareva va boshqalar).

"Deontologik kompetensiya" tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, biz N.A. Filatova [12, s. 110], u o‘qituvchining kasbiy faoliyat normalari va qoidalariga rioya qilish asosida kasbiy faoliyatga nazariy, amaliy va shaxsiy tayyorligidan iborat bo‘lgan ajralmas subyektiv xarakteristikani ifodalaydi. Deontologik kompetensiya – bu shaxsning kasbiy burchini bajarishga tayyorligini ta’minlashga qaratilgan bilim, qobiliyat, ko‘nikma, g‘oyaviy-axloqiy ideal va kasbiy xulq-atvor normalarini o‘z ichiga olgan tizimli shaxsiy sifat. "O‘qituvchining deontologik kompetensiyasi" konsepsiyasini talqin qilish bo‘yicha pozitsiyamizda biz bu kompetensiyalar tizimining mavjudligi bilan ajralib turadigan, shaxsiy hayotga oid integral ta’lim ekanligidan kelib chiqamiz va pedagogik ishning huquqiy va axloqiy jihatlari, muvofiqlik va yetishtirishni ta’minlaydigan shaxsiy va kasbiy fazilatlarni aks ettiradi – ongli kasbiy burchga asoslangan kasbiy xatti-harakatlar normalari va qoidalarining ta’lim makonida. Deontologik kompetensiya mazmunini o‘rganib chiqib, biz uning muammoli sohasida ushbu konsepsiyaning keyingi tarkibiy kelishuvining mohiyatini tashkil etadigan tadqiqotning ustuvor tomonlarini ajratib ko‘rsatamiz: normativ-huquqiy, xulq-atvor, axloqiy.

Ta’lim sohasidagi zamonaviy davlat siyosati ta’lim munosabatlarining barcha ishtirokchilarining manfaatlarini hisobga olgan holda ta’lim munosabatlarini insonparvarlashtirishni, ta’limning demokratik xususiyatini ta’minlashga qaratilgan. O‘qituvchining kasbiy sifatlari, o‘qituvchining turli xil professional funksiyalarni bajarishda faoliyatini, bolalarning madaniy farqlarini hisobga olgan holda, ularning qadr-qimmatini tan olish, qulay muhit yaratish asosida ta’lim faoliyatini tashkiletishnitartibgasoladi:ta’limmuhitida;talabalarning shaxsiy va yosh ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy, axloqiy va axloqiy-professional standartlarga rioya qilish, ta’lim yo‘nalishlarini amalga oshirish. Shubhasiz, ushbu hujjat o‘qituvchini o‘qitish va uning kasbiy muvofiqligi uchun ko‘rsatma bo‘lib, uning rivojlanish traektoriyasini, shu jumladan, deontologik kompetensiyani shakllantirishning asosiy yo‘nalishini belgilaydi. Deontologik kompetensiyani o‘rganishning xulq-atvor va tartibga solish jihatlari o‘qituvchining xulq-atvorining ekologik salbiy omillar ta’siriga individual barqarorligini ta’minlash, kasbiy faoliyatda psixologik va xulq-atvor barqarorligini saqlash g‘oyalariga asoslanadi. Bunday holda biz o‘qituvchining pedagogik vaziyatlarda xulq-atvori bilan javob berish shakllarini amalga oshirish qobiliyati tufayli uning barqarorligini o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz. Shu bilan birga, o‘qituvchi quyidagilarga ega bo‘lishi kerak:

1) ta’lim tizimida yuz beradigan o‘zgarishlarga javob berishga tayyorligi;

2) tanlangan xulq-atvor marshrutining to‘g‘riligiga ishonch;

Jahonga mashhur davlat arbobi Javoharla’l Neru Akbarshoh haqida ehtiros bilan shunday deydi: “Akbar 1556-yildan to 1606-yilgacha qariyb 50 yil Hindistonda hukmronlik qildi. Akbar nomi Hindiston tarixida buyuk nom bo‘lib ayrim jihatlari Ashikani eslatadi. Ajablanarlisi shuki, Hindistonning eramizdan avvalgi III asrida yashagan buddoyi imperatori Ashoka bilan Hindistonda eramizning XVI asrda yashagan musulmon imperatori Akbar deyarli aynan bir xil mavzularni tilga olib bir xil so‘zlarni ishlatishgan. Butun hindiston shu 2 buyuk farzandining tilida so‘zlagan bo‘lsa ajab emas." [T.Fayziyev, 1996]

Hindistonni idora etishda Akbar yangi bir siyosatni qo‘lladiki, undan ilgarigi uncha-muncha hukmdor bunday yo‘l tutmagandi. Uning siyosati Hindiston hind- larniki tamoyiliga asoslangan edi. Akbarning hukmi insoniylik asosida olib borilib, odamlarni millatiga, diniga qarab ajratmadi. Buning natijasida xalqning muhabbatini qozondi. Qobul va Qandahorni Hindga tobe viloyatlar deb e'lon qildi. Vaholanki, aksincha qilishi mumkin edi, buni ko‘rgan hinduslar va rojalar unga ixlos bilan itoat qilishdi, chunki bular yagona Vatan o‘g‘lonlarini bir-biridan ajratmay, birdek ko‘rish shioriga suyanib ish qilayotgan hukmdorni endi ko‘rishgandi.

Turk va arab tillaridan tashkil topgan urdu tili hayotga qadam qo‘ydi. Turk tili podshoh ahlining tili, fors tili davlat tili, arab tili esa Islom dinining tili bo‘lib qoldi. Zikr qilishlaricha, Akbar o‘z lashkariga, uning tashkiliy masalalariga katta e'tibor bergan. Hattoki, har bir zambarakka nom berib, ularning tarixi yozib borilgan.

Akbar davrining oxirlariga kelib, 1009-1600 yillarda Hind-Ingliz shirkati tashkil bo‘lgan. Uning rahbarlari Akbar bilan uchrashib, ba'zi savdo-sotiq imtiyozlarini olishgan. Undan tashqari Akbar ingliz qiroli Djeymsn I ning birinchi elchisi Tomas Runi o‘z saroyida qabul qilgan.

Akbar olimlarga katta hurmat ko‘rsatib, ularni avliyolar darajasiga ko‘targan. Lekin bu ishlar uning hukmronligining birinchi yigirma yillari davomida bo‘lgan. Keyinchalik esa muloyim, itoatgo‘y odamdan mutakabbir va kibrli odamga aylangan. Atrofidagilar uning ruhini buzadilar. Uni ko‘klarga ko‘tarib Ollohning yerdagi soyasi deb olqishladilar. Shuning uchun u olimlarning gapiga quloq solmasligi, ular tutgan yo‘lni tutmasligi kerak; o‘z fikri bilan nimani lozim topsa o‘shani qilishi kerak, chunki u tutgan yo‘l, martaba – uning oliy imomligi va xalifaligi oddiy mujtahidlardan balanddir. Bu fikr shia mazhabining imom haqidagi fikriga juda yaqin. Uning ongiga bu fikrlarni singdirgan shayxlar orasida shayx Muborak ham bor edi.

Akbar o‘zining yangi dini bilan solgan shovqini butun davlatda aks sado topdi. Ba’zi viloyatlar unga qarshi chiqishdi. Bosh ko‘targanlar yakson qilingan. Masalan, Shayx Abdulloh as-Sultonpurini Hijozga badarg‘a qilgan.

Boshqa tarafdan Akbar zamonida umummadaniy ko‘tarinkilik kuchli bo‘lgani uchun, bu zamonda kitoblar yozish nihoyatda rivoj topadi. Quyida misol tariqasida ulardan ba’zilarini keltiramiz:

1. "Hayvon hayoti" – Damiriyning "hayotul hayvon" kitobini Abul Fazl fors tiliga 1575-yilda tarjima qildi.

2. Abul Fazl keyingi yillarda yana Injilni fors tiliga tarjima qildi. "Kalila va Dimna"ni tushunarsiz qadimgi fors tilidan tushunarli fors tiliga tarjima qildi.

3. "Oyini Akbari" – Akbar hokimiyatining Nizom va qonunlari. Bu asarni ham Abul Fazl ta’lif etgan.

4. "Akbarnoma" – Akbar tarixi; bu kitobda hind tarixi Boburiy shohlarining birinchi kunidan Akbar zamonigacha yozilgan.

5. Hindlarda muqaddas bo‘lmish "Maxabxarata"ni al-Badayuniy va al-Qazviniy fors tiliga tarjima qilishdi.

6. Bag‘dod, Shom o‘lkasi, Misrdagi Abbosiy, Umaviy va Roshidiy xalifalarining tarixini al-Badayuniy fors tilida yozdi.

7. Badayuniyning "Muntaxabut-tavorix" – uch tomlik asari. Birinchi jild Humoyungacha bo‘lgan hamma podshohlarning tarixiga bag‘ishlangan, ikkinchi jild Akbar taxtga o‘tirgandan keyingi 40 yil ichidagi tarix. Bu jildda Balayuniy Akbar va Abul Fazl aqidalarini qo‘rqmasdan tanqid qilgan. Uchinchi jildda Badayuniy o‘ziga zamondosh bo‘lmish shayxlar, olimlar, shoirlar va tabiblarning hayotiga oid ma’lumotlarni yozgan.

Umuman, juda ko‘p ilmlar sohasida shunchalik ko‘p kitoblar yozilib, tarjimalar qilinganki, bu sohada olimlarning ta’biri bilan aytganda Akbarning qilgan juda keng ilmiy va madaniy harakatlari odamni hayratga soladi. Akbarshoh adabiyotga, tarixga, falsafaga qiziqqan. Juda ko‘p g‘azallarni, Hofiz qasidalarini, Jaloliddin Rumiy va Hofiz Sheroziy devonidagi she’rlarni yod olgan edi. Zero, u saroydagi 59 ta shoir va boshqa qobiliyatli kishilarni o‘z himoyasiga olgan edi. “Fors she’riyati bilimdoni”, “Hind she’riyati bilimdoni” kabi faxriy unvonlar ta’sis etib yetakchi shoirlarga bergan. Uning do‘stlaridan Fayziy va Birbol shunday unvonlarga sazovor bo‘lgan edi. Umuman olganda, Akbarshoh hukmronlik qilgan davr she’riyati forsiy va hind adabiyotining eng gullagan davrini aks ettiradi. Zero, adabiy nasr va musiqa san’ati ham shu davrda gullab yashnagan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Qayumov. Asarlar. 5 kitob. – T.: "MUMTOZ SO‘Z", 2009.
2. Gulbadanbegim. Xumoyunnoma. – T.,1959.
3. M.Nuritdinov Boburiylar sulolasi. – T.: Fan, 1994.
4. T.Fayziyev. Z.M.Bobur va uning avlodlari. – T.: Yozuvchi nashriyoti, 1996. 43-bet.
5. G‘.Satimov. Boburiyzodalar. – T.: Ma’naviyat, 2003.
6. S.M.Berk. Akbarshoh – Boburiylarning eng buyugi. “MUMTOZ SO‘Z”, 2009.

Shahlo KARIMOVA,
Oliy ta'lim muassasa dotsenti, PhD
“Al Bukhary University” oliy ta’lim muassasasi dotsenti.

QO‘QON ADABIY MUHITI SHOIRLARI IJODIDA ADABIY TA’SIR VA IJODIY MUSHTARAKLIK
(Zavqiy ijodi misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada shoir Zavqiy ijodiga xos bo‘lgan adabiy ta’sir masalasi va shoirning bu merosdan foydalanish mahorati ochib berilgan. Mavzu va obraz, badiiy tasvir va usullarni o‘zlashtirish iste’dodi ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so`zlar:** *adabiy an`ana, adabiy ta`sir, ijodiy mushtaraklik, badiiy uslub, mavzular ko`lami, ijodkor mahorati, devon, novatorlik.*

Аннотация: в данной статье раскрывается проблема литературного воздействия, присущего творчеству поэта Завкого, и возможности поэта использовать это наследие. Показано умение владеть темой и образом, художественным образом и приемами.

Ключевые слова: *литературная традиция, литературное влияние, творческая общность, художественный стиль, тематика, творческие способности, девон, новаторство.*

Annotation: this article reveals the problem of the literary impact inherent in the work of the poet Zavky, and the poet's ability to use this legacy. The ability to master the theme and image, artistic image and techniques is shown.

Key words: *literary tradition, literary influence, creative community, artistic style, themes, creativity, Devonian, innovation.*

XIX asrning II yarmi – XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti ravnaqini uzoq va yaqin xalqlar adabiyotlarining ta’sirisiz, adabiyotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va munosabatlarsiz tasavvur etish qiyin. Bu davr adabiyoti o‘zida mavjud an’analarni munosib davom ettirish bilan bir qatorda, boshqa xalqlar adabiyotining eng xalqchil, faol an’analarini o‘rganish natijasida taraqqiy etdi. Fors-tojik va o‘zbek adabiyotining aloqasi shu qadar qadimiy va mustahkamki, o‘zbek ijodkorlar Rudakiy, Xayyom, Sa’diy, Hofiz, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va Bedil asarlarini sevib mutolaa qilishgan, ularni o‘z shoirlari deb bilganlar. Sharq she’riyati daholari o‘z ijodlari bilan mumtoz shoirlar she’riyatiga ham barakali ta’sir ko‘rsatgan.

Ubaydullo usta Solih o‘g‘li Zavqiy (1853-1921) badiiy merosini o‘rganish uning she’rlaridagi mavzu va obraz, badiiy san’atlarni kuzatish uning Hofiz Sheroziydan katta ma’naviy oziq olgani, ba’zan unga ergashganini ko‘rsatadi. G‘azal va muxammaslarida dunyoning adolatsiz qurilganligi, yaxshilarning xor-zorlikda, muhtojlikda, tekinxo‘r va nodon kishilarning esa, aksincha, rohat va farog‘atda yashayotganini g‘oyat kuyunchaklik bilan tasvirlaydi, shoir she’riyatida uchraydigan tashbehlarning ko‘pchiligiga takror-takror duch kelinadi. Zavqiyda ham yor ko‘zlari nargisga, nafasini Iso bo‘yiga, labini durga, oshiq dilini lola bag‘riga, may to‘ldirilgan sog‘arga, ma’shuqani Layli, Shiringa, oshiqni Farhod, Majnunga o‘xshatish ko‘p uchraydi. Shoir sodda va ravon g‘azallar yaratishda, badiiy mahoratda, qofiya va radiflar tanlay bilishda, xalq og‘zaki ijodidan samarali foydalanish va boshqalarda Hofiz izidan bordi. “Charxi kajraftor” ishlaridan noliydi. Agar Hofiz Sheroziy shayx va zohidlar, muhtasib va so‘fiylarning qilmishlarini umumiy tarzda tanqid qilsa, Zavqiy boy va qozilar, xon amaldorlari, jamiyatdagi boshqa tekinxo‘rlarni nomma-nom sanab, qattiq hajv ostiga oldi. “Hajvi ahli rasta” fikrlarimiz isbotidir.

Zavqiyning iste’dodli shoir bo‘lib yetishuviga ijobiy ta’sir etgan omillardan biri buyuk ozarbayjon shoiri Fuzuliy g‘azaliyotining ta’siri yaqqol aks etib turadi. Fuzuliy yuksak mahoratli, iste’dodli ijodkorlardan bo‘lgani uchun ham uning ijodidan ta’sirlanish ham o‘ta kuchli. Uning g‘azallaridagi so‘z, ohang va ma’no o‘ziga xos joziba kasb etadi. Obrazlar olami esa turfa. Shoir qo‘llagan vaznlar yengil, o‘ynoqi. U tasvir usullari, badiiy vositalardan foydalanishda ham

juda mohir. Salaf ijodidagi sodda uslub, ta'sirchanlik, jozibadorlik shoir e'tiborini tortgan. Adabiy ta'sirni she'riy shakllardan, ayniqsa, muxammaslarda kuzatish mumkin. E'tiborga molik jihati shundaki, shoir ularda iloji boricha an'anaga o'zining ijodiy munosabatini tiklagan holda qalam yuritadi. Zavqiy o'z she'rlariga reallik berishga intiladi, real turmushda bor hodisalar va tushunchalarga ko'proq diqqat qaratadi, ya'ni fikrni real turmush bilan bog'lash uchun urinadi, o'xshatishlar, mubolag'alar va obrazlarni shu turmushdan yoki xalq o'rtasida singib qolgan tushunchalardan oladi. Lirik ifodani jo'n, sodda lekin jozibali ravishda bayon etadi. Bu ham bo'lsa Zavqiyning Fuzuliy ijodiga yondashuvining xarakterli xususiyatlaridandir.

Fikrlarimiz isbotini Fuzuliy g'azaliga taxmis bo'lgan Zavqiyning ishqiy lirikasida salmoqli o'rin tutgan "Ey mahi olam, yuzingga tut niqob" muxammasining tahlilida ko'rib chiqaylik. Unda shoirning oshif ruhiyatidagi nozik va murakkab holatlarni mahorat bilan tasvirlash salohiyati namoyon bo'ladi. Muxammas an'anaga muvofiq boshlanadi va shu maromda davom etadi:

Ey mahi olam, yuzingga tut niqob,
Ko'p kishining jonina qilma shitob,
Xurshidu mah injimak et ixtisob,
Subh solub mohruxingdan niqob,
Chixma tamoshoya, chixar oftob , –

– deya ma'shuqaning go'zalligidan xavotir bo'lgan oshiq ruhiy holatining darajasi bandma-band ortib, kayfiyat tarangligi kuchayib boraveradi. Shoir muxammasning har bandida ifodalanishi ko'zda tutilgan asosiy ma'noni aks ettiruvchi so'zni qofiya qilib tanlaydi.

Birinchi bandda ma'shuqa olam oyiga qiyos qilinib, uning chiroyidan oy va quyosh "injishi" mumkinligi bilan hisob-kitob qilishini ta'kidlasa, keyingi bandlarda fuzuliyona uslub va ohanglar yaqqol namoyon bo'ladi. Uning falsafiy dunyoqarashi, badiiy uslub tamoyillarida bu ulug' san'atkor g'azallaridagi huzurbaxsh va dardkash navolar ta'sirini sezish qiyin emas.

Zavqiy ijodida o'tmish adabiyot an'analari to'g'risida gapirganda, Alisher Navoiy ta'siri masalasini alohida ko'rsatish zarur. Chunki Navoiyning buyuk ijodi bitmas-tuganmas ma'naviy xazina bo'lib, o'zidan keyingi adabiyotga, shu jumladan, XIX asrning II yarmi XX asr boshlari adabiyotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Adabiyotshunos I.Haqqul Navoiy ijodiga baho berar ekan, haqli ravishda "Shoir she'riyati san'atkorlikning buyuk maktabi, haqiqiy mezoni", – deya bejiz ta'kidlamagan edi: Do'stlar, men telba ahvolig'a yig'lang zor-zor, Kim, soladur goh-goh o't ko'nglumga tushgan xor-xor, -bayti bilan boshlanuvchi g'azaliga bog'langan taxmisda, chunonchi, g'azal mazmuni ruhiga, vazni ohangiga, g'oyaviy yo'nalishi – kutilgan maqsadiga to'la muvofiq tushadigan misralar bita olgan. Uning taxmislaridan birida butun borlig'ini ma'shuqasi yo'liga baxshida etgan oshiqning dardchil, mahzun holati tasvirlangan. Shoir ustoz salaf g'azalini uzviy davom ettiradi, yangi mazmun va yangi poetik ifodalar bilan boyitadi, fikrlarini rivojlantiradi:

Ey ko'ngul, qilg'il xarid ishqi junun bozoridin,
Aylagil vasling talab husn ahlining sardoridin,
Tufroq uzra bosh qo'yub yotsam, turor yo'lloridin,
Vah, na hushdur, shahsuvorim kelsa maydon soridin,
Kirpigim birla oritsam gardini ruxsoridin.

Muxammasda shoir oshiqning nolalarini ifoda etish uchun ko'ngil obraziga murojaati biloan boshlanadi. Ko'ngil qo'yish mevasi siyaatida muhabbatning azobu rohati ham uniki. Zavqiy Navoiy baytida anglashilgan mazmun ma'shuqasining kelishidan baxtiyor oshiq yorining yuzidagi gardlarni kiprigi bilan artishga tayyor holatini rivojlantirib, ma'shuqa poyiga bosh qo'yib yotishni afzal ko'radi. Oshiq shunchalar yorining visoliga intizorki, hatto hoki poyi bo'lishga ham rozi. Oshiq nozi ko'p, jabru jafosi bisyor ma'shuqadan bir og'iz shirin so'z kutadi.

Xulosa o'rnida fikrlarimiz quyidagicha:

1. Zavqiyning ijodining ijtimoiy-falsafiy salmog'ini, badiiy qimmatini oshirishdagi yutuqlari Fuzuliy kabi zabardast g'azalnavislardan olgan ibrati va ilhomi samarasi edi.
2. Fuzuliyning oshiqona g'azallaridan ilhomlanib, ularning g'oyaviy motivlari va ifoda usullari ta'sirida yaratilgan she'rlar Zavqiy ijodida ham uchraydiki, bunda shoir faqat ta`sirlanibgina qolmasdan o`zi ham dilbar muxammaslar yarata olish iste'dodini namoyon qildi.
3. Zavqiyning Navoiyga bog'lagan boshqa taxmislari ham badiiy ta'sir quvvati hamda shoir iste'dodi darajasini ko'rsatishi jihatidan diqqatga sazovor asarlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohim Haqqul Mushohada yog'dusi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2009.
2. Abdug'afurov A. Qalb qa'ridagi qadriyatlar – Toshkent: "O'qituvchi", 1998.
3. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2006.

Oqiljon MAVLONOV,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani
faxriy o‘qituvchisi

QORAKO‘Z – SOCHI BOSHDIN-AYOQ CHIN-U SHIKANLI MA’SHUQA QIZ

(Adabiyot muallimlari e’tiboriga taqdimot)

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Qaro ko‘zum” g‘azali tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo‘shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo‘shildi.

Kalit so‘zlar: *“Qaro ko‘zum” g‘azali, qora ko‘zli ma’shuqa, mavhumiy timsol, takovar, chin-u shikan.*

Bu galgi maqolamiz yana o‘shal mashhur g‘azal “Qaro ko‘zum” asaridagi Yor obrazi borasida bo‘ladi. Shu mavzu navoiyshunos olimlar tomonidan juda ko‘p bahs-u munozaralarga sabab bo‘lgan. Misralarda shoir tarannum etgan bu timsol uzoq yillardan buyon shorihlarning qizg‘in tortishuvlar obyekti bo‘lib kelgan, ularni o‘ylantirgan, adabiy yechimi qiynagan, ba’zan chalkashtirgan ham. Bu muammo: g‘azaldagi obraz qizmi, er kishi (yigit)mi yo ovchi ma’shuqami degan bahs. Bilamizki , ushbu g‘azal shoir muxlislari va shorihlar o‘rtasida eng ko‘p munozaraga sabab bo‘lgan asar sifatida el orasida juda tanilgan. O‘ylab qolaman: balki o‘z vaqtida To‘ychi hofiz bu asar o‘rniga aytaylik boshqa bir g‘azalni shu kuyga joylaganlarida bugun ana o‘sha o‘zga g‘azal el aro dovrug‘ toparmidi? Ehtimolki, “Qaro ko‘zum” g‘azali xalq orasida bu qadar ommalashib ketishining tub boisi ham shu “Ushshoq” kuyiga solinganidadir balki... Bu g‘azalni shu kuyga solinmagan deb bir faraz qilib ko‘ring-a... Shu g‘azal shoirning boshqa asarlaridan farqi, o‘ziga xosligi nimada ?? Mazmunan bu g‘azal aniq yoshdagi, aniq shaxsga emas, umumlashgan yor timsoli tasviri va oshiq iztiroblari asosiga qurilgan. Asar bir mavhum (roq) fe’l-u xuyli, odamiylik (mardumlig‘) shevasidan (go‘yo) yiroq bir abstrakt yor – pari paykarga an’anaviy murojaatdan boshlangan... Unda bu asarning sirlilik xususiyati nimada ko‘rinadi? She’rning mazmun mundarijasidan anglashiladigan umumiy hissiy ta’sir moyasi – dard. Ko‘rinadiki ,bu dard aniq obyekt – tarixiy real shaxs (adresat)ga bag‘shlanmagan. Balki bu g‘azalning keng yoyilish mavqe obro‘si, afsuni ham mana shu mavhumlik, umumiylik DARDdadir. Bu asarni qaysi muxlis o‘qisa, o‘zining kechinmalarini, iztiroblarini, qalb azoblarini topishi, hissiyotlariga malham, hamdardona hamnishin-u taxayyuliy sohibi asror bo‘lishidadir. O‘zi asli nazm ibtidosi dunyo g‘am-u azobi, dard-u g‘ussalari, ahyon sevinch-u quvonchlari, komronlik tuyg‘ularidan boshlanmaydimi?! Demak, daslabki hissa: bu g‘azalni kim mutolaa qilsa, ozining dard-u g‘amini, dil iztiroblarini, qalbini azoblayotgan shaxsiy kechinmalarini ko‘rgandek bo‘ladi. Yo‘q-yo‘q bugina emas, balki bu ohangga yo‘g‘rilgan nazmiy matn orqali o‘z yarasiga qandaydir malham, shifo yoxud qalb o‘g‘rig‘iga bir mo‘jizaviy sohibi asror hamnishin, ruhiy taskin topganini, yengillashganini anglaydi, ehtimol. Oqibatda, shu she’rga mehri tushadi, ko‘ngil qo‘yadi va yana, va yana uni tinglagisi, shu malhamiy taxayyuliy hislar olamiga qayta-qayta sho‘ng‘igisi, xayolan dardlashgisi kelaveradi... Bu bayon bizning shaxsiy xayoliy ehtimoliy mulohazalarimiz. Bu mavzuga mutaxassis navoiyshunos olimlarimiz nima derkin? G‘azalning bu qadar ommalashuviga, o‘n beshdan ortiq sharhlar yuzaga kelsa-da, hamon bahs-u munozaralar davomiyligiga sabab nimada? Ularning professional kuzatuv xotimasi qanday ekan o‘zi? Chunki badiiy asarni har bir muxlis o‘z dunyoqarashi asosida har xil anglaydi-ku...

Navbatdagi fikr men boya yuqorida aytganimdek g‘azalning bu abstrakt – mavhumiy timsoli kim? G‘azalning lirik qahramoni qizmi, yigitmi yoki ovchi ayolmi ekanligi borasida mutaxassis-olimlar hanuzgacha biror ilmiy yoxud ehtimoliy ishonarli yakuniy munosabatlarini ochiqlashganlari yo‘q. Bu savolga balki otliq yor tasvirlariga bag‘shlangan shoir kulliyotida mavjud barcha g‘azal va baytlarni kuzatib undagi yor (qiz), ma’shuq (er kishi) yoki ovchi yigit tasvirlarining mana shu otliq umumlashma obrazlar aks ettirilgan turkumga oid g‘azallaridagi foizidan bir taxminiy (albatta, bu kuzatuv shoir asarlariga nisbatan ilmiy) xulosaga kelish mumkin bo‘lar. Buning uchun “Navoiy g‘azallarida otlig‘ obraz – chobuk (suvor) tasvirlari va talqinlari “ mavzusini biror iqtidorli bo‘lajak olimga ilmiy ish uchun berilmog‘i lozim bo‘lar. Ana shundagina har qalay bu bahs ilmiy yechimini topmasa ham, ehtimoliy yakuniy xulosaga olib boradi. O‘sha tanlanadigan nomzodning ustozi fors (tojik) tilini (qaniydi arab tilini ham) yaxshi bilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lurdi. Sababi: Navoiyga ma’naviy ilhom bergan salaf ustozlari ijodiga ham shu mavzu bo‘yicha yo‘l-yo‘lakay (qiyosiy) bir nazar solib o‘tish ham foydadan xoli emas... Balki, ”Devoni Foniy“ni ham obdon kuzatmoq lozimdir. Chunki bu g‘azal shoirning yoshlik yillarida yozilganini hisobga olsak, balki bu qora ko‘zli yor (pari) timsoliga turtki bergan, ilhom bag‘ishlagan manba o‘zanni ham topish ehtimoli bo‘lar. Yana bir qarash shuki, yorga nisbatan qorako‘z tasvirini berishning ibtidosi ham ehtimol forsiy she’riyatdadir. Chunki Navoiygacha bo‘lgan turkiy mumtoz manbalarda ma’shuqaga qora ko‘zli deb urg‘u berish va sifatlash holati sezilarli an’anaviy tasvir emas... Shu ma’noda

bunday chizgilar ildizi ham fors-tojik nazmidan topilsa ajab emas. Navoiy ijodining hosilasi o‘laroq Bobur ijodida qorako‘zga bag‘ishlangan bir nechta ruboiylari mavjud. Bizningcha, yorni qora ko‘zli ma’shuqa tarzida aks ettirish (turkiy she’riyatda) Navoiy nazmiga xos finomen, eks faktor deb o‘ylayman. Va bu holat shoirdan keyin ijod qilishgan mumtoz adabiyotimiz g‘azaliyotida ham siyrak, ko‘p uchrayvermaydi. Voqean, shoir she’riyatidagi: olam uyi, ahli olam, yana ko‘plab tasavvufiy timsollar singari bir qator obrazlarni boshqa turkiy lirika ijodkorlarida aslo uchratmaymiz... Balki bunday tasvirlar fors-tojik nazmiyatida an’anaviy mavjuddir.

Endi shoir shu g‘azalida aks ettirgan timsol qizmi yo er kishi degan savolga birinchi marta g‘azal tahlili tarixida nufuzli bir tilshunos alloma ustoz bu... “savolga yigit deb javob berishimiz kerak bo‘ladi” degan fikriy talqinlaridan so‘ng ayrim shorihlar bu qat’iy hukmga ergashib g‘azaldagi manzur yigit obrazi deyilgan munosabatlarini ochiqlay boshladilar. Men hurmatsizlik qilib bu nufuzli olimni rad etmoqchi emasman. Ehtimol, uning ilmiy asoslari bordir. Bu muammo hamon munozarali, hanuz iqtibosiy isbotlanmagan. Bu borada tahliliy an’anaga ko‘ra g‘azal matnining o‘zida bor dalil-iqtiboslardan chiqib kelib isbotlanishi shart, degan qarashlar mavjud. Lekin biz shunga qo‘shimcha boya yuqorida ta’kidlaganimizdek, shoir lirikasiga xos bo‘lgan otliq timsol aks ettirilgan kulliyoti (4 devonda ham)da mavjud barcha otliq obrazda tasvirlangan timsollarni mutaxassis-olimlar tomonidan sinchkovlik bilan obdon kuzatilib, ularni (tavsiflab: nechtasi qizga, nechtasida er kishi, qanchasida ovchi yor yo ma’shuq aks ettirilgan) guruhlarga ajratilib shu turkumda egallagan foizidan bir nisbiy xulosaga kelish ham o‘rinliroqdir.

Endi yuqoridagi olimning asardagi qahramon “yigit” deb javob berilishiga garchi men bir oddiy muxlis bo‘lsam-da, o‘z munosabatlarimni bildirish uchun yana bir mutaxassisning: “Bizningcha, asarda bor obrazdan chiqib kelishimiz kerak, yo‘q narsani to‘qib chiqarish kerak emas” (N.Jumayev) degan fikriga ko‘ra g‘azal matniga asoslanib ayrim mulohazalarni bildirmoqchiman:

Birinchidan, g‘azalning 2-baytida “qadding niholig‘a” iborasi qo‘llangan, an’anaviy bu tashbeh mumtoz she’riyatda (hech qachon) er kishiga nisbatan qo‘llanilmagan. Bir erkak chobuk (suvor)ni ko‘z oldingizga keltring-a... Keng yelkador, barvastaqad, mushaklari baquvvat, jang (harb) ilmi bilan chiniqqan, xullas, risoladagi suvoriy yigit. Unga nisbatan qanday qilib “qading niholi” tasvirini qo‘llash mumkin? Er kishiga atlas chopon yo lozim berilmaydi-ku...

Ikkinchidan, g‘azalning 3-baytidagi: “Takovaringg‘a bag‘ir qonidin hino bog‘la” misrasidagi hina so‘zi ham bir ramziy ishora, ma’noviy kalit bo‘la olur. To‘g‘ri, ovchilar qadimda ov oldidan qon chiqarish o‘rniga irim bilan otlari dumi, yoli va tuyoqlaridan yuqori qismi (shillik) ga hina surtishgan. Lekin umumiy planda foiz jihatidan qaralsa, o‘sha davrda ovchilar hunarmand ahlining oz qismini tashkil etishgan... Endi shu ozchilik foizi nisbatini ayollar tabiati: qizil rangga o‘chligi, hina bilan bezanishga o‘ta moyilliligi va yorning oshiq bag‘ir hamda ko‘z yoshi qoniga juda xumorligi, ishtiyoqmandligi (an’anaviy ramziy tasvir misolida) hisobga olinsa, bu takovardagi timsol er kishi emas, (shoshmay tur hali yigit, bir sening qoningni ichmasammi, deya) balki noz u ishva, g‘azmzali karashma-yu chobuklik mahorati bilan biiir oshiqni “o‘o‘o‘ldiirmak”ka azmi qaror qilgan, qo‘lida hina-yu qaddi nihol bir nozanin obrazi ekanligi ayonlashadi:

Oshiq “o‘ldurmak” ka chiqmish mast, vah ishqim so‘zin,
Ey raqib, etsang ul beboki nodonimg‘a arz.

Uchinchidan, 5-baytning 2-misrasidagi: “Sochingni boshtin-ayog‘ chin ila shikan qilg‘il” iltimos-niyozmandligidagi “soch” so‘zi ham yana bir ishora. Bu misrani er kishiga nisbatan aytilgan deyish qanchalar to‘g‘ri? Xo‘p, o‘shal yigitning sochi o‘sgan deylik. O‘sha davr muhitini esga olsak, o‘tsa ko‘z oldimizdan majnun yoki sochi o‘sgan darvesh timsoli tiklanar. Ularning sochi ham juda borsa, yelkasidan 3, 4 enli pastda bo‘lgandir... Sochi qopqog‘idan o‘tgan darvesh yoki Majnunni tasavvur qila olasizmi? Alhosil, olimning bu qarori noo‘rindek tuyuladi... Bu yerda gap zulfi taqmiga urgan, yor shilligini yopuvchi “bo‘yi-yu sochi teng” obraz haqda bormoqda... Bu sochlarning (misradagi ishqiy mubolag‘aga ko‘ra) “chin-u shikan”iga oshiq emas, uning ko‘ngil va tan xoklari yopishib qiz yuzi visoli tomon ko‘tarilish ilinji borasida gap ketmoqda. Demak, bunday uzun soch er kishida bo‘lishi aslo mumkin emas. Shu iqtibosiy keltirilgan dalillarga muvofiq g‘azaldagi otliq obraz yigit kishi emas...

To‘rtinchidan, agar g‘azalning maqta’sidagi novakni Najmiddin Komilov ustoz tahlilidagidek “boshoqlig‘ o‘q”qa nisbatan aytilgan bir talqin (garchi ayrim shorihlar buni inkor qilishayotgan bo‘lsa ham)ga asoslanib bu yoyni ramziy yor kiprigi deb qarasak, bu munosabat ham yana bizni quvvatlovchi bir dalil. Hali hech qachon tabiatan o‘zi ayollar vasfiga qaratilgan g‘azal janrida er kishi kiprigi tavsiflanmagan. (Busiz ham yuqorida uchta iqtobos otliq timsol er kishi ekanligini inkor etmoqda.) Bu obraz ”yigit“ deya qat’iy xulosa bergan olimimiz fikrini: “Chunki it bilan o‘qdan uning ovchi (yigit)ligi ma’lum” deb davom ettirganlar. Bu qarashga ham qo‘shilmaymiz. It va o‘q qiz (yor) da ham bo‘lishi tarixan aniq tabiiy hol. Bizningcha, u ovchi (ko‘ngil ovlashga, kuydirishga azmi qaror qilgan) yor timsoli. Bu haqda keyingi maqolalarimizda o‘z iqtiboslarimizni ochiqlaymiz...

Beshinchidan, gazal matla’sidagi “Qaro ko‘zum”

undalmasi ham yigit kishiga qaratilgan deb qat'iy hukm berolmaymiz. To‘g‘ri, ota va bola munosabatlarida: “ko‘zimning oq-u qorasi” ma’nosidagi ibora ishlatiladi. Biroq, bu she’rda ishq-sevgi munosabatlari borasidagi dard tavsiflanmoqda. Shoir devonlarida “qorako‘z, ey qora ko‘z” sifatlashlari ma’shuqa – qizga nisbatan qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz. Shu asoslarga ko‘ra ham bu undalma (yigit) er kishiga qarata aytilgan deya munosabat berish noo‘rin. Demak, bu qora ko‘z – sochi uzuuun manzura timsoli, bizningcha.

Endi navbatdagi yana bir bahsli savolga ham baholi qudrat to‘xtalsak. “Ma’shuq yuzida ter paydo bo‘lishi bilan oshiq joni tanani tark etishi o‘rtasida qanday mantiqiy bog‘liqlik bor? Bu tushunarli emas... Mana shu muammo g‘azal tadqiqotchi (mutaxassis-olim O.M.)larini ko‘p qiynagan, o‘ylantirgan, adashtirgan va hanuzgacha o‘z ilmiy, ishonarli yechimini namoyon etmagan“, deyilgan munosabatlar ham bor.

Avvalo, har bir narsaga ayniqsa, badiiy adabyotga baho berishda mantiqqa qattiq yopishib olmaslik kerak. Badiiy adabiyot va mantiq ayrim o‘rinlarda bir nuqtada kesisholmaydi. Adabiyot badiiylashtirish usullari: mubolag‘a, lof, bo‘rttirish, vahimalshtirish vositalaridan ko‘p va xo‘p foydalanishi boisidan mantiq qolipida turolmaydi. Luzumga qat’iy solib qo‘yilsa u badiiyligini yo‘qotadi. Adabiyot: tuyg‘u, shavq-hayajon, extiros, hissiy kechinmalar, xayoliy taxayyular, ruhiy evrilishlar, xirsiy junbushlar, tafakkuriy buxron(va hokazo)lar in’ikosi... Mantiq isbottalab, qolipli tafakkur shakli va qonuniyatlariga ko‘ra me’yoriy yechim kutuvchi soha. Shu ma’noda badiiyat va mantiq murosa qilolmaydi. Savolni: “...ter paydo bo‘lishi bilan oshiq joni tanani tark etishi o‘rtasida qanday mantiqiy bog‘liqlik bor” deb emas, “...qanday hissiy -emotsional bog‘liqlik bor” deb qo‘yilsa o‘rinli edi. Shunda bu savolga hayotdan va asardan javob olish mumkin bo‘lurdi. Masalan, biz kichikligimizda to‘ylarga olib kelingan o‘yinchi (raqqosa) xirom etib, turli noz-u ishvalar qilib, sho‘x va shaddodlik bilan o‘ynasa, yoshi katta tomoshabinlar: “ Ofarin, qoyil, ado qilding-u, o‘ltirding bizni, butkul tugatding-u; voydod, ado bo‘ldim-u” kabi luqmalar bilan davrani qizitishardi... E’tibor bersangiz bu so‘zlar barchasi muxlislar hissiy kechinmalarining so‘z vositasida ifodalanishi, ya’ni badiiy mubolag‘a, lof, bo‘rttirish, hissiy kechinmalar zuhuri.

Bizningcha, badiiy asarni juda olimona akademik mantiq ko‘zi bilan emas, oddiy muxlisning oddiy qabul qilish xayolot va hissiyot kechinmalari ko‘zi bilan kuzatmoq lozim. Shoir lirikasini kuzatsak, unda eng ko‘p qo‘llanuvchi, oshiqning ishqiy iztirob, intim hissiy tuvg‘ularini aks ettiruvchi so‘z: “o‘lsam”, “o‘lurmen”, “o‘lmagim emas ajabki”, “nechun o‘lmay men”, “jon berdi Navoiy”, “qatlim eliting”, “qabrim uzra” kabilar ekanligining guvohi bo‘lamiz. Shoirning har bir g‘azalidagi “o‘ldum” (zamonaviy aksi: kuydim) ini kulliyot bo‘yicha ilmiy yechimini izlayversak, bu aslo adabiy yo‘l emas. Voqean, Navoiy ijodida “balo” (sinov) so‘zi ham eng ko‘p reytingga ega leksik ifoda sarasiga kiradi:

Ko‘zing ne balo (ne sinovki) qaro bo‘luptur,
Kim jong‘a qaro balo (sinov) bo‘liptur.(I-161-g‘.)
(Ne sinovki, ko‘zing qaro yaralmish, Qarolik sinovi jonga qadalmish.)

Shoir: “O‘lganimdan so‘ngra keldi so‘ragali yor”, “Manga onsiz ming o‘lum” deganlaridek g‘azaldagi bu (turli grammatik yakundagi) “o‘lsam“ so‘zi oshiqning ishqiy azob kechinmalarini ifodalovchi bir hissiy ko‘rsatkich, belgi, mayoq xalos. Shoir boshidagi sochlar singari sanoqsiz bu har bir “o‘larman”dan so‘ng real-mantiqiy natija kutaversak, shoir bir devonini yakunlagunlaricha kamida **300 marta o‘lishlariga tog‘ri kelgan...** Endi shu holat mantiqqa sig‘adimi? Demak, bu ifodaviy tasvirlar barchasi badiiy to‘qima. Tinglovchiga o‘z hissiyotlarini yetkazish va muxlisni ham junbushga keltirish maqsadida qo‘llanilayotgan badiiy usul: lof, bo‘rttirish, mubolag‘a xalos. G‘azaldagi har bir “o‘lsam”, “o‘lurman”, “xoki tanim”, “qatl qildilar Navoiyni”, “Qabrim uzra qo‘ysangiz tosh”, “Ishq go‘ristonida qabrim” so‘zlaridan so‘ng uning mantiqiy yoxud ilmiy sababini isbotlab berishni talab qilish – badiiyatni anglamaslik, adabiy muammoni matematik tenglamaga qiyoslab, algebrik formulaga solib javob izlashdek noo‘rin hol. “O‘lsam” – bu bir badiiy obraz. Oshiqning dard, hajr, hijron, azob-u uqubatlari, shoirning nuktasanj ifodasi bilan aytganda: “balo”, ya’ni ko‘chma ma’nodagi sinovlari. Bu sinovning esa oxiri luzumiy mavhum. Visol ilinji – yechimsiz iztirob, so‘ngsiz hissiy kechinma. Uning intihosi: go‘yo yor yo‘lidagi vafo alomati – ”O‘LIM“ (ishqiy sinov). “Oshiq o‘ldurmakka ul ko‘zdek baloye ko‘rmaduk”, “Qatl hukmi aylasa o‘lturtubon ushshoqni”, “O‘lsam oni-o‘q mozorim toshig‘a marqum qil”, “Qatlim elting, aylasunlar eltibon ko‘yingda dafn”, “Qabrim uzra qo‘ysangiz toshki za’f ayyomida”, “Qatl qildilar Navoiyni va lekin bilmadim” singari tasvirlardagi oshiq o‘limini aslo (427-g‘azaldagidek) real o‘lim deb emas, balki badiiy-ramziy bo‘rttirish, vahimalashtirish, hissiyot va azoblar riyozatini kuchaytirib ko‘rsatuvchi badiiy usul tarzida qabul etmoq kutilgan yechim, bizningcha. Shu ma’noda “Qaro ko‘zum”ning: “Yuzida terni ko‘rib o‘lsam meni” misrasidagi “o‘lsam”ni ham oddiy hissiy badiiy mubolag‘a – lof tarzida qabul qilsak, mana shu muammo tadqiqotchilarni qiynamaydi, o‘ylantirmaydi va adashtirmaydi. Bu badiiy tasvirga ilmiy (mantiqiy) ishonarli yechim emas, **hanuzgacha tan olinmayotgan muxlisona sharhiy e’tirof zarur xalos.** Xullas, bu “o‘lsam” xalqona “o‘ldim-kuydim”ning shoirona badiiy tasviriy hosilasi xolos ekan. Oshiqning bunday ”o‘ldim-kuydim“i badiiy mubolag‘a, bir lof ekanligi borasida shoirning o‘zi ham juda ko‘p o‘rinlarda ta’kidlashgan va ishora qilganlar. Faqat bunga e’tibor

bilan qarab kuzatish, mulohaza qilish lozim bo‘ladi. Oshiq idealidagi visol – Yor qarshisida turib, ikki dunyodan kechib evaziga ”yuz tuman jon-u jahon “ berilsa-da, imkoni muyassar bo‘lmaydigan bir ko‘ngil yetmas ORZUlash haqidagi **LOF**.

Vasl gar bo‘lmas muyassar , yuz tuman jon-u jahon,
Gar berilsa o‘truda bermoq emas imkon evaz.
Ulki onsiz xasta ko‘nglumning yuz ohu voyi bor,
Hajridin **yuz ming meningdek** o‘lsa ne parvoyi bor.
Navoiy **nazm lofin** qo‘yki, ko‘z bir kunluki emas,
Agar yuz yil socharsen tab’ bahridin duri maknun .
Ey oshiq (Navoiy) bermayin jon ishqdin dam urmakim,
Har nekim der bo‘lmayin oshiq erur ul barcha lof.
(B) O‘lmayin ishq ichra kim lof ursa bovar qilmag‘il ,
Gar desam tarki lof etdim , erur ul dog‘i (bori) lof.

Shaxnoza CHORIYEVA,
O‘zDJTU Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi
shakhnozashukhratovna@gmail.com

“QAHRAMONNING O‘LIMI” ROMANINING BADIIY O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: mazkur maqola ingliz “Yo‘qotilgan avlod” adabiy yo‘nalishiga mansub «Qahramonning o‘limi» romanini badiiy o‘ziga xosligini o‘rganishga bag‘ishlangan. «Qahramonning o‘limi» romani “Yo‘qotilgan avlod” adabiy yo‘nalishiga mansub bo‘lib, unda muallif qarashlarining negizida suiqasd va qotillikka to‘la olamdan hafsalasi pir bo‘lish kayfiyati ustuvorlik qiladi.

Kalit so‘zlari: *“Yo‘qotilgan avlod”, nasr, urush, imajinizm, imajist, biografik, modernist, jaz.*

Аннотация: данная статья посвящена исследованию художественного своеобразия романа «Смерть героя», принадлежащего английскому литературному направлению «Потерянное поколение». Роман «Смерть героя» принадлежит к литературному направлению «потерянное поколение», в котором настроение разочарования в мире, полном покушений и убийств, является основным направлением взглядов автора.

Ключевые слова: *«Потерянное поколение», проза, война, имажинизм, имажинист, биографический, модернист, джаз.*

Annotation: this article is devoted to the study of the artistic originality of the novel “Death of a Hero”, which belongs to the English literature of the “Lost Generation”. The novel “The Death of a Hero” belongs to the “Lost Generation” literary trend, in which the mood of disappointment with the world full of assassinations and murders is the main focus of the author's views.

Key words: *“Lost Generation”, prose, war, imagism, imagist, biographical, modernist, jazz.*

Ingliz yozuvchisi Richard Oldingtonning (1892-1962) «Qahramonning o‘limi» romani Birinchi jahon urushi va uning oqibatlari haqida bo‘lib, asar bosh qahramon sifatida tanlangan erkak kishining notinch va mushkul damlardagi matonati, uning xarakter-xususiyatlari badiiy gavdalantiriladi. Shuningdek, urush sabab ayol va erkak o‘rtasidagi nozik tuyg‘ularning barham topishi va ba’zida unutilib ketishi ham mohirona tasvirlanadi.

Ilk marotaba 1929-yilda nashr qilingan «Qahramonning o‘limi» Richard Oldingtonning debyut romani hisoblanadi. Birinchi jahon urushidan oldin Oldington jurnalist, shoir va adabiy jurnallar muharriri sifatida tanilgan. O‘zining hamkasbi Ezra Paund singari Oldington ham imajistlar (yoki imajizm) (inglizcha “imagist”, “imagism”) harakati a’zosi edi. Imajinizm – (ing. image – ramz, obraz so‘zidan). XX asr tushkun burjua adabiyotida, dastlab Angliyada, keyin Rossiyada yuzaga kelgan adabiy oqimlardan biri. Imajinistlar (imajinizm oqimi tarafdorlari) badiiy ijodni ijtimoiy hayot bilan hech qanday aloqasiz bo‘lgan narsa sifatida talqin qilganlar va o‘zlari ham shu ruhda asarlar yozganlar. Imajinizm ko‘rinishlari realistik adabiyotning keng va kuchli taraqqiyoti oqibatida o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketdi [A. H. Николюкина. — Институт научной информации по общественным наукам РАН: Интелвак, 2001. — Стб. 292—293. — 1596 с.; O’rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. 37-bet. (170-b.)].

«Qahramonning o‘limi» romani ham urush memuari, ham modern xususiyatlarini o‘zida mujassam etganligi bois, bu asarni biografik roman deb atash mumkin. Avvalambor, hikoyani so‘zlab beruvchi roviyda ham, bosh qahramon Jorj Uinterbornda ham Oldingtonnikiga o‘xshash xususiyatlar mavjud. Romanga yozuvchi o‘z

hayoti bilan bog‘liq voqealar va personajlarni ham kiritadi. Jumladan, Ezra Paund, Medoks Ford, D.X. Lourens va T.S. Eliot kabi hamkasblari va rassom do‘stlari ham ushbu asardan o‘rin olgan edi.

Romanning shakli borasida so‘z yuritilarkan, Oldingtonning o‘zi ushbu kitobni «jaz yo‘nalishidagi roman» deb atagan. Adib roman so‘z boshida Xolkott Gloverga yozgan xatida: *“This book is not the work of professional novelist. It is apparently, not a novel at all. Certain conventions of form and method in the novel have been erected, I gather, into immutable laws, and are looked upon with quite superstitious reverence. They are entirely disregarded here”* deya izoh keltiradi. Xuddi shu o‘rinda u o‘z kitobini “This book is really a threnody, a memorial in its ineffective way to a generation” deb ham ataydi [Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. 12-bet.].

Asarni “jaz yo‘nalishidagi roman” deb atalishiga rus adabiyotshunosi M.Urnov ham romanga “Sinkop ritmi, jo‘shqin ifoda «Qahramonning o‘limi» romani uslubiga xos xususiyatdir. Bu ifoda qarama-qarshiliklarning keskin kombinatsiyasi, ularning tez o‘zgarishi va o‘tishlari asosida yuzaga keladi: qarama-qarshi ifoda shakllari – ehtirosli jurnalistika va vazmin tasvir, ayblovchi pafos va kaustik istehzo; qarama-qarshi kayfiyat – melanxoliya, g‘ayratli, umidsizlikka to‘la; matnning impulsiv artikulyatsiyasidir [Урнов М. Ричард Олдингтон. – М.: Высшая школа, 1968. – С. 52.], deya ta’rif beradi. Roman hissiy vaziyatlarning ko‘pligi bilan ajralib turgani bois voqeadan ko‘ra qahramon ruhiyati tahlili yetakchilik qiladi. Odatda, ruhiy tahlil voqealar tasvirini teran ifodalashga xizmat qilsa, Oldington asarlarida voqea-hodisa tasviri ruhiy holatni ochishga, kitobxon tasavvurida bu holatning aniq va ta’sirli tasvirini yaratishga ko‘maklashgan. Richard Oldington uslubidagi universallik oddiy tildan foydalanish, yangi ritmning mavjudligi, mavzuning erkinligi hamda tasvirning aniq taqdim etilganligi bilan izohlanadi.

Roman besh qismdan iborat:

1) Prolog (Prologue). Jorjning bolaligi va o‘smirlik davridan hikoya qiluvchi qism bo‘lib, adib ushbu prologni “Allegretto” (allegretto) [Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. 12-b.] deb nomlagan. Allegretto termini musiqashunoslikka oid bo‘lib, u notalar yozishdagi yo‘nalishlardan biri, musiqiy asarning muayyan qismi sanalib, ancha tez va jo‘shqin ijro etilishi lozimdir. Demak, Jorj hayotidagi jo‘shqin davr uning bolalik va o‘smirlik yillariga to‘g‘ri keladi. Muallif inson umrining eng yorqin lahzalari ham aynan ushbu davrga to‘g‘ri kelishiga ishora qiladi;

2) Keyingi qismi “Vivas” (Vivace) [Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. 12-b.] (“vivas” ham musiqiy termin hisoblanadi, bunda musiqa jo‘shqin va tez ijro etiladi) deb nomlanib, Jorjning oilasi tarixi haqida so‘z boradi;

3) “Andante kantabile” (Andante cantabile) (musiqa o‘rtacha tempda chalinib, biroz qo‘shiq kuylanadi) deb nomlangan qismida Jorjning Londondagi hayoti, uning Elizabetga uylanib, keyin unga xiyonat qilishi hamda Angliyaning Germaniyaga urush e’lon qilishi haqidagi voqealar o‘rin olgan;

4) “Adajio” (Adagio) (sokin va nafis musiqiy temp) deb nomlangan qismida esa Jorjning armiyaga qabul qilinishi, so‘ngra uyga qaytganida urush unga nechog‘lik ta’sir qilib, do‘stlari, jumladan, rafiqasi va ma’shuqasi bilan munosabatlarga kirisha olmaydigan darajaga kelib qolganligi tasvirlangan bo‘lib, hikoya Jorjning pulemyot o‘qi qarshisida tik turgan holda o‘limga yuzlashishi voqeasi bilan yakunlanadi. Muallif ham shu o‘rinda musiqiy termin “adajio” dan foydalanadi;

5) So‘nggi qism – epilog (Epilogue) qismi bo‘lib, u nolali qo‘shiq shaklida taqdim etiladi.

Rus adabiyotshunosi M.Urnov Oldington romaniga ta’rif berarkan, uni quyidagicha ta’riflaydi: “O‘ziga xos ong oqimi maktabi bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual subyektiv-psixologik roman, bu yigirmanchi asrning Lourens Stern tomonidan o‘stirilgan adabiy daraxt shoxidagi kurtaklardan biridir”. *«Qahramonning o‘limi» romanini fojiaviy roman deyish ham mumkin. Oldington amerikalik tanqidchi Goram Mansonga yo‘llagan maktubida shunday yozadi: “I kept a rough concept of the Euripidean tragedy in mind, which is why I give the whole plot of the story in the Prologue – the intention there being to avoid false surprise”* [Урнов М. Ричард Олдингтон. – М.: Высшая школа, 1968. – С. 52.]. Roman muqaddimasi Jorj Uinterbornning jangda halok bo‘lganligi haqidagi xabarni uning ota-onasi, rafiqasi va ma’shuqasi qanday qabul qilganliklari bilan bog‘liq bo‘lib, hikoyachi Jorjning o‘limi tafsilotlarini aytib berish zarurligiga izoh keltirishi bilan yakunlanadi: *“The death of a hero! What mockery, what bloody cant! What sickening putrid cant! George’s death is a symbol to me of the whole sickening bloody waste of it, the damnable stupid waste and torture of it. ... That is why I am writing the life of George Winterbourne, a unit, one human body murdered, but to me a symbol. It is an atonement, a desperate effort to wipe off the blood-guiltiness”.*

Yana bir ingliz adibi, ingliz dramaturgiyasiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan, Bernard Shou o‘z nutqlarining birida: “Birinchi jahon urushi jamiyatni 1914-yil avlodining ko‘plab vakillaridan mahrum qildi, ular har kim – yangi Nyuton, Eynshteyn, Betxoven, Mikelanjelo, Shekspir yoki hatto Shou bo‘lishlari mumkin edi” [Шоу Б. Автобиографические заметки. Статьи. Письма. – М., 1989. – С. 416-417.], deb ta’kidlaydi.

Muallif asarida urush manzaralari asosan jang maydonlarini, askarlarning bir-birlarini o‘ldirishi yoki yaralanishini emas, aksincha yaralanganlarning hayot uchun kurashishlari va hatto bir umr nogiron bo‘lib, kimgadir qaram bo‘lib yashashdan ko‘ra gospitalda o‘z jonini o‘zlari qatl etishi holatlarini badiiy gavdalantiradi. Yaralanganlar kuchga to‘lib jang maydonlariga qaytishganida yana yashashni xohlaydilar. Demak, urush shunday bir o‘ziga tortuvchi maydonki, agar yaralansang, seni qayta davolashadi, so‘ngra seni yana urush komiga jo‘natishadi. Bu urushdan yo o‘lib, yo o‘zingni o‘ldirib qutulasan. Ushbu fikrning isboti sifatida bosh qahramon bo‘lmish jangchi askarning ayanchli qismati orqali ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aldington R. Images Old and New. – London: Trieste Publishing, 2018. – P. 56.
2. Aldington R. Death of a Hero. – New York: Penguin Books Ltd., 2013. – P. 344.
3. Aldington R. The Colonel's Daughter. – London: The Hogarth Press, 1987. – P. 384.
4. Aldington R. All Men are Enemies. – London: Chatto & Windus, 2003. – P. 495.
5. Aldington R. Very Heaven. – London: Doubleday, 2003. – P. 344.
6. Aldington R. An Autobiography in Letters. – USA: Penn State University Press, 1992. – P. 440.
7. Aldington R. Death of a Hero. – New York: Penguin Books Ltd., 2013. – P. 51

Mohinur MANSUROVA
Shahzoda XAYRULLAYEVA
Toshkent davlat transport universiteti
1-kurs tayanch doktoranti

O‘ZBEK ADABIYOTIDA SATIRA VA YUMOR YO‘NALISHI RIVOJI

Annotatsiya: mazkur maqola o‘zbek adabiyotida satira va yumor yo‘nalishi rivoji va unga hissa qo‘shgan buyuk adiblar haqida muhim ma’lumotlar jamlaydi. Shuningdek, maqolada satira yo‘nalishining o‘ziga xos jihatlari va tarixiy rivojlanish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: *hajviyot geroizm, tragizm, dramatizm, demokratik satira, epik, dramatik, zukko kinoya, epigramma, pamflet, felyeton, komediyava satirik roman, hayotiy tiplar.*

Аннотация: данной статье обобщены важные сведения о развитии сатиры и юмора в узбекской литературе и великих писателях, внесших в это свой вклад. Также в статье раскрываются специфические аспекты сатиры и этапы ее исторического развития.

Ключевые слова: *комический героизм, трагедия, драма, демократическая сатира, эпопея, драматургия, остроумная ирония, эпиграмма, памфлет, фельетон, комедия и сатирический роман, типы жизни.*

Annatotion: this article summarizes important information about the development of satire and humor in Uzbek literature and the great writers who contributed to it. Also, the article describes the specific aspects of satire and the stages of its historical development.

Keywords: *comic heroism, tragedy, drama, democratic satire, epic, dramatic, witty irony, epigram, pamphlet, feuilleton, comedy and satirical novel, life types.*

KIRISH. Ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosimizningyillar o‘tgan sari qadr-qimmati ortib boradi. Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”[1]. Hajviyot geroizm, tragizm, dramatizm kabi ehtiros (pafos)lardan keyinroq kelib chiqdi, ammo har bir jamiyatni qayta qurish va taraqqiy ettirishda katta xizmat qila boshladi. Chunki u noqobil odamda og‘riq qoldiradi, oshkora, kerak bo‘lsa haqoratli savalaydigan, qattiq tegadigan bo‘ladi. Goho g‘arazliday ko‘rinadi, estetik ideal esa muallif obrazida ko‘rinadi, bu hol kulgi shaklida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotdagi satira - bu qoida tariqasida, grotesk yoki giperbolaga tayanadigan, tasvirlangan narsaning xususiyatlarini ataylab buzib ko‘rsatadigan, bo‘rttiradigan tasvir. Lekin u yoki bu kamchilikni masxara qilib, inkor etib, muallif estetik ideal nima ekanligini hamisha ochiq ko‘rsatib beradi. Satira (lot. satira — qurama, har xil narsa) — komiklik turi bo‘lib, tasvir ob’yektini ayovsiz kulgi vositasi orqali anglash[2]. Voqelikni badiiy aks ettirishning o‘ziga xos usuli bo‘lib, unda jamiyatdagi bema’ni, asossiz, noto‘g‘ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi. Voqealarning real ko‘rinishini o‘zgartirib, oshirib, bo‘rttirib, mubolag‘a qilish, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko‘pgina turlari yordamida yaratilgan obraz orqali Satira. Ob’yektiga "ishlov" beriladi. Satira muallifi komiklikning boshqa turlaridan (yumor,hikoyava boshqalar) ham foydalanishi mumkin, biroq satira

uchun salbiy tuyg‘u berib, keskin ifodalangan estetik obyekt xarakterli hisoblanadi. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining aksariyati ijodida satirik yo‘nalishning alohida o‘rni va ahamiyati bor. Zamona hodisalarini, davr xususiyatlarini, zamondoshlarning qiyofalarini aks ettirishda, voqelikni ta’sirchan ifodalashda shoirlar satira qurolidan ham unumli foydalanganlar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Demokratik satirada simvol, majoz o‘rnini hayotiy tiplar, mehnatkash xalqqa hamdardlik oldi, ko‘pgina hajviy xarakterlar prototipli edi, lekin satira, umuman, to‘qima obraz hayotdagi yaramaslikni fosh etadi, kishilar satira o‘zi to‘g‘risida yozilganday his qiladi, jiddiy o‘ylaydi va hayajonlanadi. Bu esa satirada o‘ziga xos tipiklashtirish mavjudligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, satirik asarda salbiy hodisalar va holatlar shakllanadi, ular bo‘rttiriladi, badiiy to‘qima mavqei ortadi[4]. Qo‘yilayotgan masalalarda majoziy obrazlardan foydalaniladi, ijobiylikni ma’qullash hajviy tasvir orqali amalga oshiriladi. Satirik tipning o‘zi hayotdan olinadi, badiiy to‘qima orqali to‘kislanadi, realistik detallar, o‘ta mubolag‘a, karikatura, shartlilik, mantiq, fosh etish, muhim qirralarni topish yo‘llari qo‘llaniladi. Shunda hayotda ko‘zga tashlanmay yurgan hajviy xarakterni el ko‘ziga olib chiqiladi. Shu boisdan, satirik qiyofa ichki tomondan tanlanadi, yorqin pozitsiyadan turib, ilg‘or qarash, taraqqiyparvarlik jihatidan shiddatli, keskin tasvirlanadi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida hajviy g‘azallarning chinakam ixtirochisi Navoiy bo‘ldi. Uning hajviy g‘azallarining mavzular ko‘lami keng va rang-barangdir. Shoir munofiq va hiylakor shayxlar, xudbin, badbin zohidlar, johil voizlar ustidan kuladi va ularni fosh etadi. Uning “Meni ishqdin man etar soda shayx” deb boshlanuvchi satirik g‘azalining o‘zi o‘zbek adabiyotida alohida turkumni tashkil etib, biz so‘z yuritayotgan Qo‘qon adabiy muhitida ham ko‘plab shoirlar ushbu g‘azalga naziralar yozdi. “Ul shayxki, minbar uza afsung‘a berur tul”, “necha yolg‘on so‘z-u muzhik harakot, ey voiz”, “Xonaqohda halqai zikr ichra g‘avg‘o qildi shayx”, “Masih oyin agar minbarda zohir qilsa dam voiz” singari o‘nlab g‘azallari hanuzgacha mashhur va sevib o‘qiladi. Bu g‘azallarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, ularda realistik tamoyil ustun bo‘lib, riyokor shayxlar, voizlarning haqiqiy qiyofalari real bo‘yoqlarda umumlashtiriladi.

Keyinchalik Turdi, Maxmur, Munis, Ogahiy, Muqumiy, Zavqiy, Avaz O‘tar, Faqiriy singari ko‘plab shoirlar hajviy hamda yumoristik g‘azallar yaratdilar. Ular she’riyatda satiraning mavqeyini mustahkamladilar. Hajviy hamda yumor g‘azallarning mavzular doirasini ancha kengaytirdilar, g‘azalga yangidan yangi tip hamda obrazlarni olib kirdilar. Muqimiy davri o‘zbek adabiyotida satiraning yangi bosqichga ko‘tarilishi omillarini adabiyotshunos A. Abdug‘afurov quyidagicha sharhlaydi: “O‘zbekiston territoriyasining Rossiyaga qo‘shib olinishi natijasida... Ikki yoqlama zulmning, adolatsizlikning nihoyatda kuchayib ketishi, kapitalistik munosabatlarning tobora yuzaga chiqa borishi, xalqimizning zulm va adolatsizliklarga qarshi o‘z ozodligi uchun kurashining faollashuvi, hukmron sinflar va tuzumning tartib-qoidalaridan noroziligining kundan kunga orta borishi, ikkinchi tomondan... O‘zbek adabiyotida tanqidiy realizm metodining shakllanishiga, bu adabiyotda, ayniqsa, satirik yo‘nalishning keng rivojlanishiga olib keldi [5]”.

Satiraga murojaat qilgan shoirlar ko‘proq g‘azal janridan foydalandilar. Buning sababi, fikrimizcha, bu janrning boshqalarga qaraganda xalqqa yaqinligi, o‘z taraqqiyoti davomida ko‘p asrlik tajriba va an’analarga ega bo‘lishidir. Buning ustiga, satirik va yumoristik g‘azallar xalq orasida juda tez tarqalar, hatto qo‘shiq qilib aytilar edi. Rost so‘zni ayta bilish, haqiqatni har qanday xolatda ham himoya qila olishga tayyor turish satirik shoirlarning g‘oyaviy pozitsiyasiga aylanganligini Muqimiyning quyidagi misralaridan ham ilg‘ashimiz mumkin[6]:

Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin,
So‘zki haq bo‘lsa, savolimga javobim kim desun.

Xorazm adabiy muhitining namoyandasi Avaz O‘tar ham Muqimiyga hamohang ravishda o‘z ijodiy prinsipini quyidagicha bayon qilgan edi:

Baloyi nogahondur kizbkim, andin panoh etgil,
O‘lar holatda ham deb rost so‘z holin taboh etgil.

Avazning “Xalq”, “Topar ekan qachon?”, “Fidoyi xalqim”, “Ulamolarga”, “Birovlar” kabi she’rlari ana shu ruhda yozilgan satirik ijodning ajoyib namunalaridir. Bu g‘azallarda shoir xalqning xonavayron bo‘lganini, zulm ostida qolganini, zamonaning nosoz qurilganini, jaholat hukmronligini achinish va alam, xolislik va haqgo‘ylik bilan tasvirlab bergan[7].

Mumtoz satirik asarlarda, xususan, Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalari tilida ham yangiliklar va yangilanishlar yuz beraboshladi. Ayniqsa, X1X asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot namunalarida xalq orasida ko‘p qo‘llanadigan, adabiy tildan mustahkam o‘rin olmagan so‘zlar izchil qo‘llanila boshladi. Bu hol satirik asarlar tilini xalqqa yanada yaqinlashtirdi, ommalashishini tezlashtirdi. Satira hayotdagi pastkashliklarni yuksak ideallar nuqtayi nazaridan kulgili tarzda keskin rad etish yo‘li bilan turmushdagi go‘zal, ijobiy tomonlar, eng yaxshi axloqiy munosabatlar, insoniy fazilatlar ravnaqiga, ularning qadrlanishiga keng yo‘l ochib berdi. Ijodkorlar xalq dardini badiiy adabiyotga olib kirdi. Lirikada o‘sha davr ijtimoiy ruhiyati aks eta boshladi. Ubaydulla Zavqiy lirikasida:

O‘tib bir qarn aqronim jahon obod ko‘rgaysiz!
Jahon ahlini zolim zulmidan ozod ko‘rgaysiz!
Giriftori alam ermas – hammani shod ko‘rgaysiz!

Bunda shoir mustamlaka asorati ostida ezilayotgan ona yurtning kulfatli kunlari unut bo‘lishi haqida so‘z ochadi, og’ir iqtisodiy hayot kechirayotgan xalqning baxtli taqdiri haqida, bo‘lajak kata ijtimoiy o‘zgarishlar haqida bashorat qiladi. Satirani xalq yaratgan. O‘z orzu-umidlari, hayotga bo‘lgan intilishlari aks etgan. Badiiy adabiyotda esa yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Xonliklar davrida satira lirikaning negizini tashkil etdi. Saroy adabiyoti xalq orasiga satira orqali kirib bordi[8].

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek adabiyotshunosligida satira folklor bilan paydo bo‘la boshlagan. Davrlar o‘tishi bilan rivojlandi va lirikaning asosiga aylana boshladi. Mumtoz adabiyotda Yusuf Xos Hojib, Navoiy asarlaridan boshlangan bo‘lsa, Maxmur, Turdi Farog’iy, Muqimiy ijodida yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Ayniqsa, X1X asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot namunalarida xalq orasida ko‘p qo‘llanadigan, adabiy tildan mustahkam o‘rin olmagan so‘zlar izchil qo‘llanila boshladi. Bu hol satirik asarlar tilini xalqqa yanada yaqinlashtirdi, ommalashishini tezlashtirdi. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, satira yo‘nalishi ko‘plab ijodkorlar yetishib chiqqan. Mavzuni o‘rganish davomida ko‘pgina manbalarga murojaat qilish orqali xonlik tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy shaxslar, ularning ijod namunalari va adabiy davra, ijod namunalarini o‘rganish, tegishli xulosalar chiqarish mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning O’zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan. Xalq so’zi. -2017. 4-avgust
2. G‘ayratbek Xolbutayev Oybek o‘g‘li. O‘ZBEK VA QIRG ‘IZ XALQ OG‘ZAKI IJODIDA SATIRA VA YUMOR.
3. Rasulova Soxiba Ulug‘bekovna. ADABIY HIKOYALARDA SATIRANING ASOSIY XUSUSIYATLARI. SCHOLAR ISSN: 2181-4147 VOLUME 1 | ISSUE 13 | 2023
4. Xudoyberdiyev Erkin. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., 2013. 361-b.
5. Abdurashid Abdug’afurov. «Muhammad Rizo Ogahiy». – Toshkent,1999-y.
6. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O‘qituvchi,1994.
7. Bobojon Tarroh. Xorazm navozandalari. – T.: Adabiyot va san’at,1994.
8. Qobulov N. Xorazm adabiy muhiti. – Urganch, 1992.

Dilnoza XAMROYEVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
d.j.xamroyeva@buxdu.uz

ABDULLA SHER IJODI VA FOLKLOR

Annotatsiya: serqirra ijodkor Abdulla Sher she’rlarida qo‘llangan mifologik obrazlar, shoir ijodi va folklor uyg‘unligi ushbu maqolada tahlil qilingan. Xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlar Abdulla Sher ijodida ham uchrashi va ayrim motivlar, o‘ziga xos xususiyatlarni shoir misralariga o‘ziga xoslik bilan singdirgani haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: *folklor, doston, o‘lan, yor-yor, Humo, Semurg‘, Anqo, Samandar, Go‘ro‘g‘li, Alpomish, Barchin, Qof tog‘i, pari, jin, dev.*

Annotation: this article analyzes the combination of mythological images, the poet's work and folklore used in the poems of the great artist Abdulla Sher. It is said that the characteristics of folklore are found in the work of Abdulla Sher and that he infused some motives and characteristics into the poems of the poet.

Key words: *folklore, epic, olan, yor-yor, Humo, Semurg, Anko, Samandar, Gorogli, Alpomish, Barchin, Qaf mountain, fairy, demon, giant.*

Аннотация: в данной статье анализируется сочетание мифологических образов, творчества поэта и фольклора, использованное в стихах великого художника Абдуллы Шера. Говорят, что черты фольклора обнаруживаются в творчестве Абдуллы Шера и что он вложил в стихи поэта некоторые мотивы и особенности.

Ключевые слова: *фольклор, эпос, олан, ёр-ёр, Хумо, Семург, Анко, Самандар, Гёроглы, Алпомиш, Барчин, гора Каф, фея, демон, великан.*

Insoniyat paydo bo‘lganidan boshlab o‘z tevarak-atrofida bo‘layotgan hodisalarni kuzatdi, o‘rgandi, ular haqidagi dastlabki dunyoqarashlarini yaratdi. Yozuv paydo bo‘lmasdan oldin insonlar o‘z orzularini og‘zaki ijod yordamida namoyon qildi. Shu tariqa, afsona, mif, hikoyat, rivoyat, askiya, lof, latifa, topishmoq, maqol, tez aytish, qo‘shiq, alla kabi folklor janrlari paydo bo‘ldi. Folklor an’analari asta-sekin yozma adabiyotga ko‘cha boshladi. Ushbu hodisani qadimgi davrlar adabiyotidan boshlab uchratish mumkin, ya’ni ijodkorlar maqol, topishmoq, xalq qo‘shiqlari

yoki folklordagi biror obrazni keltirishlari asarlarining qimmatini oshirishga xizmat qildi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida Xizr, dev, pari, alvasti, Humo, Anqo, Semurg‘, Qaqnus, Samandar kabi mifologik obrazlarni uchratish mumkin. Insonlarning dastlabki diniy dunyoqarashlari mifologik obrazlarga qorishiq holda vujudga kelgan. Butun dunyo adabiyoti va san’atining ibtidosida mifologik dunyoqarash turadi. “Folklorshunoslik fani tilshunoslik, jumladan, onomastika yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lib, unda qadimgi insonlarning ibtidoiy, mifologik tasavvur-tushunchalari, e’tiqodiy qarashlari asosida paydo bo‘lgan mifik obrazlarning nomlari, mifik obrazlarni ifodalovchi tushuncha va atamalar “mifonim” termini ostida birlashtiriladi” . Mumtoz adabiyotda Lutfiy, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy kabi; zamonaviy adabiyotda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo singari ko‘plab ijodkorlarning asarlarida folklor elementlarini ko‘rishimiz mumkin. Xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlar Abdulla Sher ijodida ham uchraydi. Ayrim motivlar, o‘ziga xos xususiyatlarni shoir misralariga o‘ziga xoslik bilan singdiradi. Uning “Manzarali daraxtlar” she’rida folklor an’analari kuzatish mumkin:

Ularning taglarida o‘ynamas pari, jin ham,
Namozshomda bolalar o‘tmas hovuchlab yurak .

Odamlar orasida shom vaqti “jinlar uyg‘ongan”, “jinlar yo‘lga chiqqan” vaqt sifatida e’tirof etish holati mavjud. Ayni shu paytda ovloq joylarda yurish, jiyda, atirgul kabi daraxt va butalar ostidan o‘tmaslik yoki, ostida uxlab qolmaslikka chaqiriladi. Pari va jinlar ayrim insonlarning ko‘zlariga ko‘ringani haqidagi gaplar ham keng tarqalgan. She’rga aynan shu afsonalar asos qilib olingan.

Sen rostdan ham keldingmi, Humo,
Barno qushim, baxti qaro qush?!
Ko‘zlaringda sayrar bir dunyo –
Biram xomush, biram faromush .

Sharq xalqlari orasida Humo qushi baxt va omad ramzidir. Xalq og‘zaki ijodida e’tirof etilgan Humo qushi afsonaviy qush bo‘lib, u tilla, kumush va qimmatbaho toshlar bilan bezalgan qush sifatida tasavvur qilinadi. Hatto Zardushtiylik dinida Humo qushi kimning boshiga soya solsa, o‘sha odam baxtli-saodatli va boy bo‘ladi deb hisoblashgan. Zavqiyning “Ajab ermas” muxammasida ham “Boshlar uzra soyalar solsun, Humo yetkur” satri uchrab, Zavqiyning shoirona bashoratiga tahsin aytish mumkin. Ammo yuqoridagi misolda shoir ushbu qushni baxti qaro sifatida e’tirof etadi. Ushbu she’r 1993-yilda yozilgan bo‘lib, mustaqillikning ilk yillariga to‘g‘ri keladi. Shoir Humo obrazi orqali istiqlol kelguniga qadar Humo qushi baxti qaroligiga va so‘ngra gerbimiz markazidan joy olganiga ishora qiladi.

Bundan tashqari, Abdulla Sherning “Yuksak tog‘ tubida…” deb boshlanuvchi she’ri to‘liqligicha Anqo qushiga bag‘ishlanadi. Ushbu she’rda shoirning tabiat bag‘ridagi o‘ylari aks ettiriladi. Ijodkorning o‘zi ta’kidlaganidek, u G‘irotdek xayol otiga minib, borliqdan Anqoni qidiradi. Uning borligiga ishonadi.

Shoirlar seni deb kelar dunyoga,
Ey Anqo – qanotli, boqiy haqiqat!
Na ixlos, na ruju mol-u dunyoga –
Men seni izlayman olamdan faqat.

Shoir Anqoni haqiqatga mengzaydi. Uni qidirishda davom etadi. Agar o‘zi topolmasa, she’rlari topishiga ishonadi. Anqo Qof tog‘ida yashagan afsonaviy qushning nomi. Anqo qushi qadimgi Sharq xalqlari ertak, doston va afsonalarida bosh qahramonlarga homiy sifatida e’tirof etiladi. Qolaversa, u Humo qushi kabi baxt, omad va davlat ramzidir. Juda kamchilikka ko‘ringani bois, taqchil narsalarga “anqoning urug‘i” jumlasi qo‘llaniladi. Sarkash shoir Abdulla Sher ham mana shunday tanqis bo‘lgan iste’dod egasi. U Anqoni qidirar ekan, aslida haqiqatni qidiradi. Butun umri davomida unga intiladi.

Abdulla Sher she’rlarida Semurg‘ (“Semurg‘ kabi yozadi qanot Qishloq uzra so‘lim yoz tongi”, “Ishonardi borligiga Semurg‘, Humoning”), Samandar (“Ular Samandardek boqiy, bezavol, Cho‘g‘ bo‘lib tug‘ilgan qo‘rli kullardan”, “Tug‘ildim men Samandardek davrning o‘tli chog‘inda”), Qaqnus (“Yonib-yonib kul bo‘lgan qaqnus”, “Qaqnus qushdan qolgan izga Kulingdir, deb, yo‘g‘rilib), dev (“Devni yiqqan pahlavonlar so‘zlasin”), pari (“Parilarning ro‘molimi yo? Ko‘zlaringni bog‘laydi mahkam”, “Parilardan madad so‘rab dod soldi ko‘ylak”), Xizr (“Qolgan yo‘limda endi duch kelmas menga Xizr”, “Ichgan-ku, uch edi Obi Hayvonni: Hizr, Zol va Quzg‘un; ko‘rki jahonni”) kabi mifologik obrazlar uchraydi. Abdulla Sher she’rlariga shunday chuqur ma’noni joylaydiki, uni anglash uchun kitobxondan yuksak tafakkur talab etiladi. Uning birgina bahor aks etgan she’rida bu hodisani yaqqol kuzatish mumkin:

O‘zaniga qarshi qayraydi
Daryoni, to‘sh urib qaldirg‘och.
Aqlli alaflar yayraydi:
“Boychechaklar – Mansuri Halloj! ”

Ushbu to‘rt misrada xalq qo‘shig‘i – “Boychechak”ka ishora bor. Xalq qo‘shig‘ida boychechakni tutga osib, qilich bilan chopishlari haqida gap ketadi. Tasavvufning yirik vakili Mansuri Hallojni ham aynan dorga osib o‘ldirishadi.

Boychechakni tutdilar, Tut yog‘ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar, Baxmal bilan yopdilar .

Shoir bahor elchilari bo‘lmish boychechaklarning tasvirini berishda xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilgan. Boychechak va Mansuri Halloj taqdirida o‘xshashlik bor:

– Ularning ikkalasi ham uyg‘oqlik ramzi, ya’ni boychechak – ko‘klam darakchisi, Mansuri Halloj ham tasavvufda mukammallikka erishgan, ammo uning g‘oyalari noto‘g‘ri talqin qilingan;

– Boychechakni baxmal bilan yopadilar. Mansuri

Halloj kesilgan qo‘llari qoni bilan yuzlarini bo‘yab, baxmal rangga keltiradi;

Hayoti bir xil yakun topadi. Boychechak tut yog‘ochga, Mansuri Halloj esa dorga osib o‘ldiriladi.

Bundan tashqari, Abdulla Sher she’rlarida xalq dostonlaridagi obrazlarga ham to‘xtalib o‘tadi. Uning “Surur” she’rida to‘liqligicha “Go‘ro‘g‘li” dostoni tilga olinadi. Obraz stilizatsiyasi mavjud. Shoir she’rni dostonga bog‘lagan holda yaratadi. “Qof tog‘i”, “Chambilbel”, “Go‘ro‘g‘li”, “G‘irot”, “Xunxorshoh” kabi kishi va joy nomlarini keltirish orqali shoir ma’lum maqsadni ko‘zlaydi. Go‘ro‘g‘lidan otini so‘raydi. Shoir g‘amdan “qalmoq bosgan O‘tror kabi vayron”. Ushbu she’r o‘tgan asrning 70-yillari oxirida yaratilgan bo‘lib, erk istash hodisasi ham mavjud. Endi shoirning o‘zi G‘irotga minib, nurli manzillarga oshiqadi. Shu bilan bir qatorda Abdulla Sherning boshqa she’rlarida ham “Go‘ro‘g‘li” dostoni obrazlariga murojaat qilinadi:

Suyukli G‘irotini Bol Avazga ilk bora
Ishongan Go‘ro‘lidek, tarix, bo‘lma, bezovta;
Ishonching oqlagaymiz, bo‘lmagay yuzlar qora,
Biz ham xuddi G‘irotdek! Yurmagaymiz yetovda .

Ushbu doston turkumidagi “Ravshan” dostoni qahramonlari tilga olinadi. Shoir tarix obrazini jonlantirib, bezovta bo‘lmasligini, u ham G‘irotdek yetovda yurmasligini ta’kidlaydi. Shu orqali shoir erkinlikni sevishini aytadi.

Abdulla Sher xalq dostonlariga murojaat qilishda davom etadi. U “Bolalikning so‘nggi qo‘shig‘i” she’rida “Alpomish” dostoni qahramoni – Barchinoyga murojaat qiladi. She’rning ifoda uslubi ham, xalq dostonlariga mos, musiqiy ohangda. So‘zlar takrori va a-a-a-b tarzida qofiyalanish uning o‘qilishini oson qilib, dostonga yaqinlashtiradi. “Alpomish” dostonidagi aksar she’riy parchalar ham yuqoridagi she’r kabi qofiyalangan va o‘n bir bo‘g‘inlidir. Abdulla Sher she’ri va dostondagi parchani solishtirib ko‘ramiz:

“Alpomish”dan			**“Bolalikning so‘nggi qo‘shig‘i”dan**		
Oh tortganda ko‘zdan oqar selob yosh,	a	11	Ko‘zda yoshim halqa-halqa, halqadir,	a	11
Barchinoyim bo‘y yetgandir qalamqosh,	a	11	Halqa ichra qaytmas dunyo qalqadir,	a	11
Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh,	a	11	Boychiborning ayili, oh, salqidir,	a	11
Alplar kelsa nima javob beraman[10]?	b	11	Barchin bika, chiqsangiz-chi dostondan!	b	11

Abdulla Sherning har bir satridan xalqona tarixiy ohang ufurib turadi. Uning she’rlari insonni chuqur o‘yga solib, tafakkur qilishga undaydi. Shoir kam qo‘llanuvchi obrazlarni yuqori pog‘onaga olib chiqib, kitobxonga yangi-yangi ma’lumotlar va estetik zavq beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулла Шер. Қадимги куй. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.51.
2. Абдулла Шер. Танланган асарлар. – Т.: “ШАРҚ” НМАК, 2021. – Б.263.
3. Абдулла Шер. Роз. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1980. – Б.18.
4. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. – T.: “ШАРҚ” НМАК, 2010. 75-bet.
5. Jo‘rayev M., O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2019. 47-bet.
6. Madayev.O, Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: “SHARQ” NMAK, 2010. 91-bet.
7. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. – T.: Aloqachi, 2008. 43-bet.

Muhayyo ERGASHOVA,
Filologiya fanlari nozmodi, Qo‘qon DPI dotsenti

TIL SATHLARIDA LOKAL IFODALANISHLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘zaro uzviy bog‘liq, bir-birini taqozo etuvchi elementlar munosabatidan tashkil topgan butunlik, makon konsepti, ko‘makchilar haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvistik maydon, formal-semantik, ko‘makchi, “makon” konsepti.*

Annotation: in this article stressed about the concept of integrity and space of the Uzbeklanguage, which consists of interrelated, interdependent elements.

Key words: *linguistic field, formal-semantic, formal-functional, symmetry, asymmetry, the concept of “place”.*

Аннотация:в данной статье подчеркнуто понятие целостности и пространства узбекского языка, которое состоит из взаимосвязанных, взаимозависимых элементов.

Ключевые слова:*языковое поле, формально-семантическое, формально-функциональное, симметрия, асимметрия, концепт «место».*

Borliqdagi narsa va hodisalar o‘zaro uzviy munosabatda bo‘lib, muayyan sistemani tashkil qiladi. Sistema tarkibidagi har bir a’zoning faollashishi makon va zamon bilan chambarchas bog‘liqdir.

Makon va zamon barcha moddalarning yashash shaklidir. Makondan tashqarida turuvchi obyekt ham va harakat qiluvchi materialdan tashqarida o‘z-o‘zicha bo‘ladigan makon va zamon ham bo‘lmaydi [Ахманова, 1966: 97].

Borliqning asosiy shakllari sifatida fazo va vaqtning belgilanishi barchamizga ayon. Falsafiy manbalarda fazo narsalarning ko‘lamini, hajmini, o‘zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalashi, vaqt esa hodisalarning ketma-ketligini, jarayonlarning davomiyligini aks ettirishi qayd qilinadi.

Ma’lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko‘lamga, hajmga ega. Fazo – vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro‘y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi. [Назаров, 2005: 137].

Fazo va vaqtni tushunish bo‘yicha substansial va relyatsion yondashishlar mavjud. Substansial konsepsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo‘shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o‘ziga narsalarni sig‘diruvchi substansiya. Hech narsasi yo‘q, ya’ni narsalar solinmagan fazo ham bo‘lishi mumkin, deyiladi. Relyatsion konsepsiya tarafdorlari esa narsalar fazoviy o‘lchamga ega, deyishadi.

“Hech narsasiz fazoning bo‘lishi mumkin emas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi A.Eynshteyn shunday tushuntirgan edi. Faraz qilib, bir kazarma soldatlarni ko‘z oldingizga keltiring. Nyuton fizikasiga ko‘ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo‘sh qoladi, ana shu substantsial konsepsiyadagi fazodir. Yangi fizikaga ko‘ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma ham yo‘qoladi. Bu relyatsion konsepsiyadagi fazodir [Назаров, 2005: 137].

Har bir narsa va hodisa, harakat va holat, belgi va xususiyat inson ongida aks etadi hamda til orqali o‘z ifodasini topadi. Fazo va vaqt tushunchalari ham undan istisno emas.

Fazoning lingvistik vositalar orqali ifodalanishi lokallik maydonini tashkil qiladi. Lingvistikada lokallik fazo bilan bog‘liq xilma-xil vositalarni o‘zida birlashtiradi.

Keyingi yillarda fazo va vaqtning ifoda asoslariga ko‘ra metrik va tipologik xususiyatlarga ega ekanligi e’tirof etilmoqda. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o‘lchanadigan, ko‘zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko‘lam, bir jinslilik, izotroplik kabi xususiyatlar kiradi[Назаров, 2005: 138].

Lokallik maydoni tarkibiga kirgan lingvistik tushunchalar geterogenlik xususiyatiga ega, chunki lokallik tilning turli sathida ifodalanadi.

Geterogenlik so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, heteros – boshqa, o‘zga ma’nolarini anglatadi[Лингвистический энциклопедический словарь,1990: 103]. Geterogen atamasi O.S.Axmanovaning “Lingvistik terminlar lug‘ati”da turli jinsga (rodga) mansublik sifatida izohlanadi.[Ахманова, 1966: 97].

Keyingi yillarda geterogenlik tushunchasi o‘zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi. Mavjud adabiyotlarda geterogenlikning universal hodisa ekanligi, unga gomogenlik tushunchasi zidlanib, gomogenlikning bir qator – sathga xos hodisa ekanligi e’tirof etilmoqda.

Xususan, D.Nabiyeva invariant-variantlilik xususida bahs yuritar ekan, yuqoridagi tushunchalarni shunday ko‘rsatib o‘tadi: “ ... sezgi a’zolarimizga ta’sir etuvchi har qanday real talaffuz qilinuvchi birliklar variant, bu birliklar ostida yashiringan imkoniyat tarzidagi umumlashma esa invariant sanaladi. Bundan invariant va variant o‘zaro bir qatordagi gomogen hodisalar emas, balki turli qatordagi geterogen hodisalar ekanligi ma’lum bo‘ladi”[Набиева, 2005:5]

Eng avvalo, nutqiy jarayon nutq a’zolarining faoliyat mahsuli sanaladi. Shunday ekan, nutq oqimini tashkil etgan har bir tovush muayyan nutq a’zosining harakati natijasida yuzaga chiqadi. Ana shu nutq a’zolarining

harakati belgisi fonetik birliklarda lokallik belgisini hosil qiladi. Xususan, undosh tovushlar o‘pkadan chiqayotgan havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘ining ma’lum bir joyida to‘siqqa uchrashi natijasida hosil bo‘ladi. Ana shu to‘siq bo‘lgan joy shu tovushning lokal belgisi sanaladi.

Demak, undosh tovushlar uchun lokal belgi, falsafadagi materiyaning birlamchi va ikkilamchi belgilari tushunchasi nuqtai nazaridan yondashadigan bo‘lsak, birlamchi belgi sanaladi.

Bundan tashqari, inson ongida aks etgan bizni qurshab turgan olam unsurlari va ularning turli-tuman belgilari uning tilida maxsus lingvistik vositalar yordamida, xususan, leksemalar yordamida o‘z ifodasini topadi. Ya’ni har bir tilning leksik sistemasidan o‘rin olgan muayyan leksemalar borki, ularning mazmuniy tuzilishida lokallik semasi markaziy o‘rinni egallaydi, bunday holda lokallik markaziy sema sanaladi. Bunday leksemalar lokallikni ifodalash uchun xoslangan leksemalar hisoblanadi. Shu tufayli bu leksemalar xuddi zamon ma’nosini ifodalash uchun xoslangan va shu birlashtiruvchi semasi bilan alohida leksik-semantik guruh (LSG)ni tashkil etuvchi temporal leksika kabi, lokal leksikani hosil qiladi.

Hozirgi o‘zbek tilida lokal ma’no ifodalovchi o‘rin, joy, makon, qishloq, shahar, ovul, o‘lka singari bir qator leksemalar borki, ularda lokallik semasi markaziy sema hisoblanadi va ana shu sema lokallik maydoniga birlashtiruvchi umumiy sema sanaladi.

Xarakterli tomoni shundaki, bunday so‘zlar gap tarkibida qanday kelishik qo‘shimchasini olishidan va qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelishidan qat’i nazar, lokallik semasini saqlab qoladi va ana shu semasi bilan bog‘liq qayer? so‘rog‘ini saqlab qoladi. Masalan, Shahrimiz tobora obod bo‘lmoqda gapida lokallik maydoniga kiruvchi shahar leksemasi gapda bosh kelishik shakli vositasida kesim bilan bog‘lanib, ega vazifasida kelyapti, lekin lokal semani aniqlashga qaratilgan qayer? so‘rog‘ini saqlab qolmoqda.

Yoki Shaharning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shilmoqda gapida xuddi shu leksema qaratqich kelishigi yordamida qaralmishga bog‘lanib aniqlovchi sintaktik vazifasida kelsa ham, so‘rog‘ida lokallik semasi o‘z ifodasini topadi, chunki bu bo‘lak qayerning? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Xullas, lokal leksikaga mansub bo‘lgan har bir leksema gap tarkibida turli gap bo‘laklari vazifasida kelishi mumkin, lekin uning lokal semasi saqlanib qoladi va so‘rog‘i shu semaga qarab beriladi. Ko‘rinadiki, gap bo‘laklari ichida faqat o‘rin hollarigina emas, balki barcha gap bo‘laklari lokallik semasiga ega bo‘lgan so‘zlardan ifodalanib, o‘rin ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin.

Lokallik belgisi har bir tilning lug‘aviy birliklari fonetik arxitektonikasi bilan ham bog‘liqdir. Fonetikada lokallikni ifodalash uchun anlaut, inlaut va auslaut atamalari qo‘llaniladi.

Har qaysi til so‘zlarning fonetik tuzilishi bo‘yicha boshqa oiladagi tildan farq qiladi. Leksemalarning fonetik tuzilishi va so‘zning bosh qismi, o‘rta qismi va oxirgi qismi o‘ziga xos xususiyatga egadir. Bu unli va undosh fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalarini ajratishda, qo‘llanish o‘rinlarining erkinligi va chegaraliligini belgilashda katta ahamiyatga egadir. Masalan, leksemaning oxirgi o‘rni, ya’ni auslaut undosh fonemalarning jarangli va jarangsizlik belgilarini ifodalash uchun kuchsiz o‘rin sanaladi. Shuning uchun, xuddi shu o‘rinda jarangli va jarangsiz undoshlar farqlovchilik belgisini yo‘qotadi. Yoki inlautda ochiq bo‘g‘inlik o‘rni tor unlilar uchun kuchsiz pozitsiya hisoblanadi, shuning uchun ular xuddi shu pozitsiyada reduksiyaga uchraydi va hokazo.

4. Polisillabik leksemalar bo‘g‘inlarining urg‘uli bo‘g‘inga nisbatan tutgan pozitsiyasi ham lokallik bilan uzviy aloqadordir. Urg‘uli bo‘g‘in unlilar talaffuzi uchun kuchli pozitsiya, urg‘usiz bo‘g‘in esa kuchsiz pozitsiya hisoblanadi.

5. Lokallik derivatsiya yo‘li bilan hosil qilingan ikkilamchi nomlarda ham ifodalanadi. Bunday lokal leksemalar maxsus yasovchi vositalar yordamida ma’lum bir tilning so‘z yasalish modeli asosida hosil bo‘ladi.

Tilida bunday leksemalar –zor, -iston, -goh, -lik kabi qo‘shimchalar yordamida hosil bo‘ladi.

6. Muayyan relyatsion shakllarni olgan leksema boshqa xuddi shunday shakldagi leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. So‘z shakllarning sintagmatik munosabatini ta’minlash uchun xizmat qiluvchi relyatsion morfemalarning bir qismi ham lokallik grammatik semasiga ega bo‘ladi.

Xususan, kelishik shakllari tobe so‘zni hokim so‘zga tobe munosabatini ifodalash bilan birga, hokim bo‘lakning leksik ma’nosidan ifodalangan harakat-holatning chiqish, yo‘nalish, yuzaga chiqish-chiqmaslik o‘rnini ham ifodalaydi. Bunday kelishiklar bosh va qaratqich kelishiklari bilan lokallik belgisi asosida zidlanadi. Chiqish, o‘rin, jo‘nalish kelishiklari belgiga egaligi, qolgan ikkitasi esa belgiga ega emasligi bilan xarakterlanadi. SHuning uchun birinchi guruh kelishiklari lokal kelishiklar deb ham yuritiladi. Bu jihatdan tushum kelishigi oraliq o‘rinni egallaydi. Chunki bu kelishik shakli o‘timli fe’llarga bog‘lanib, hokim bo‘lakdan anglashilgan harakatning tushish o‘rnini, tushish nuqtasini ifodalaydi. Faqat tushum kelishigi bilan lokal kelishiklarning o‘rin ma’nosini ifodalashdagi farqi shundaki, lokal kelishiklarning o‘rin semasi barqaror, doimiy, markaziy sema sanalsa, tushum kelishigining o‘rin semasi chegara sema hisoblanadi.

7. Lokal leksemalarning sintaktik vazifalari o‘rin hollari uchun xoslangan. Demak, sintaktik tuzilish birliklarida ham lokallikni ifodalash uchun xoslangan

vositalar mavjud. Bunday sintaktik birliklar sintaktik lokallikni ifodalashda markaziy vosita sanaladi. Bundan tashqari, sintaktik sathda gap bo‘laklarining kesimga nisbatan o‘rni (pozitsiyasi) tushunchasi ham borki, bu ham lokallik ma’nosi bilan uzviy bog‘liqdir. Gapning shakliy tuzilish birliklarining gapning yoki bo‘lakning bo‘lagi ekanligini, ya’ni gap tuzilishi uchun funksional va nofunksional bo‘lak ekanligini gapning kommunikativ tuzilishida tema-rematik vazifasini belgilashda sintaktik pozitsiya belgisi katta ahamiyatga ega. Lekin gap bo‘laklari va va gapning lokallik ma’nosini ifodalashda keyingi holat chegara belgi sanaladi.

Shunday qilib, lokallik til tuzilishining fonetik sathidan tortib eng yuqori sathigacha xos bo‘lgan mazmuniy kategoriyadir.

Har qaysi sathda bu mazmuniy kategoriyani ifodalovchi, shu sema uchun xoslangan markaziy birliklar bo‘lishi bilan birga, bu semani ifodalashda yordamchi vosita vazifasini bajaruvchi chegara birliklar ham mavjuddir.

Lokallik semasini ifodalashga daxldor barcha lingvistik birliklarni bir semantik maydonga – lokallik maydoniga birlashtirish mumkin.

Lokallik maydoniga birlashgan barcha lingvistik birliklar lokallik paradigmasiga birlashuvchi lingvistik birliklardan geterogenlik belgisi bilan farq qiladi. Ana shu geterogenlik belgisiga qarab lokallik maydoniga kiruvchi lingvistik birliklarni quyidagi ma’no guruhlariga tasnif etish mumkin:

1. Generativ lokallik. Bunday lokallik tovushlarning paydo bo‘lish (tug‘ilish) o‘rni bilan bog‘liq ravishda yuzaga chiqadi.

2. Pozitsion lokallik. Bunday lokallik lingvistik birliklarning o‘zidan kattaroq lingvistik birlik tarkibida o‘ziga o‘xshash boshqa lingvistik birliklar bilan sintagmatik munosabati natijasida sodir bo‘ladi. So‘z qismlarining butunning turli o‘rinlarida bir-biriga nisbatan joylashuv o‘rni, lingvistik birlikning so‘zning fonetik cho‘qqisi sanalgan urg‘uga nisbatan, gapning mazmuniy va grammatik cho‘qqisi sanalgan kesimga nisbatan o‘rinlashishi belgisini pozitsion lokallik deb belgilash mumkin bo‘ladi. Demak, pozitsion lokallik sintagmatika bilan uzviy bog‘liqdir, shuning uchun u faqat sintagmatika orqali voqelanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridagi har ikki lokallik lingvistik birlikning ichki tuzilishidan tashqarida bo‘lib, nisbiylik belgisiga egadir.

3. Nominativ lokallik. Bunday lokallik lokallik maydonining markazi (yadrosi) sanaladi va u obyektiv borliqdagi lokal belgilarni ifodalashga xoslangan nominativ birliklarni o‘z ichiga oladi. Lokallik bunday birliklarning denotativ ma’nosi, lokal birliklar esa shunday ma’nolarning nominali hisoblanadi.

4. Derivatsion lokallik. Bunday lokallik nominatsion lokallik bilan uzviy aloqador, uning tarkibiy bir qismi. Nominativ lokallik bilan derivatsion lokallik o‘rtasidagi farq nomlanish darajasidadir. Tub leksemalar o‘rin semasiga ega bo‘lsa, ular orqali ifodalangan lokallik nominativ lokallik sanaladi. Narsa va hodisalarni ifodalovchi asos qismga o‘rin-joy yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali hosil qilingan hosila leksemalar ikkilamchi nomlar sanaladi va ular orqali ifodalangan lokallik derivatsion lokallik hisoblanadi.

5. Relyatsion lokallik. Sintaktik munosabatlar ifodalovchi shakllar orqali ifodalangan lokallik relyatsion lokallik sanaladi.

Xullas, lokal leksikaga mansub bo‘lgan har bir leksema gap tarkibida turli gap bo‘laklari vazifasida kelishi mumkin, lekin uning lokal semasi saqlanib qoladi va so‘rog‘i shu semaga qarab beriladi. Ko‘rinadiki, gap bo‘laklari ichida faqat o‘rin hollarigina emas, balki barcha gap bo‘laklari lokallik semasiga ega bo‘lgan so‘zlardan ifodalanib, o‘rin ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, lokallik til tuzilishining fonetik sathidan tortib eng yuqori sathigacha xos bo‘lgan mazmuniy kategoriyadir.

Har qaysi sathda bu mazmuniy kategoriyani ifodalovchi, shu sema uchun xoslangan markaziy birliklar bo‘lishi bilan birga, bu semani ifodalashda yordamchi vosita vazifasini bajaruvchi chegara birliklar ham mavjuddir.

Lokallik semasini ifodalashga daxldor barcha lingvistik birliklarni bir semantik maydonga – lokallik maydoniga birlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: СЭ, 1966..
2.Философский словарь М., 1986, с.75.
3.Фалсафа асослари. (тузувчи ва муҳаррир Қ.Назаров) Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёт матбаа ижодий уйи, 2005.
4.Фалсафа асослари. (тузувчи ва муҳаррир Қ.Назаров) Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёт матбаа ижодий уйи, 2005.
5.Фалсафа асослари. (тузувчи ва муҳаррир Қ.Назаров) Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёт матбаа ижодий уйи, 2005.
6.Лингвистический энциклопедический словарь. М.: СЭ, 1990.
7.Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши.Тошкент: Шарқ, 2005.

Odinaxon TO‘XTASINOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.n.

SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGANISHNING TIPOLOGIK TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada so‘z turkumlari va leksikaning semantik sinflari, semantik so‘z turkumlari, semantik va grammatik sistemalarning avtonomligini haqidada fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *so‘z shakli, grammatik ma’no, tasnif, neyrolingvistik, distributsiya, semantik strukturasi, korrelyatsiya.*

Annotation: this article discusses the autonomy of word groups and semantic classes of the lexicon, semantic word groups, semantic and grammatical systems.

Key words: *word form, grammatical meaning, classification, neurolinguistics, distribution, semantic structure, correlation.*

Аннатация: в статье рассматривается автономность групп слов и семантических классов лексики, семантических групп слов, семантических и грамматических систем.

Ключевые слова: *словоформа, грамматическое значение, классификация, нейролингвистика, распространение, семантическая структура, корреляция.*

So‘z turkumlari va leksikaning semantik sinflari. Mustaqil ma’noli so‘z shakli leksik va grammatik ma’nolar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Leksemalar leksik ma’nolari va grammatik ma’nolariga ko‘ra tasnif qilinadi. Grammatik ma’nolarga morfologik va sintaktik ma’nolar kiradi.

So‘z turkumlarini an’anaviy semantik tasnif etishda ularning leksik ma’nolar bo‘yicha yaqinligi hisobga olinadi. XX asrning so‘nggi choragida rus va chet el tilshunosligida leksik semantikaga oid tadqiqotlar ko‘paydi. Semantika tilning alohida sohasi deb qarash paydo bo‘ldi. Uning o‘z qonuniyatlari mavjudligi aniqlandi. Mazkur qonuniyatlar sintaktik va morfologik qonuniyatlardan farq qilishi ta’kidlandi. Semantikaning avtonomligi neyrolingvistik tadqiqotlarda ham ko‘zga tashlandi. Leksikani semantik tasnif etishga muvofiq predikat va nopredikat leksika ajratildi. Predikatlar o‘z navbatida birinchi va ikkinchi qatorga bo‘lindi. Shuningdek, aktiv va stativ predikatlarga ajratildi. Bunday semantik sinflar “botiniy so‘z turkumlari”(glubinnыye chasti rechi) deb nomlandi [1.19-20].

Semantik sinflar an’anaviy so‘z turkumlariga mos kelmaydi, lekin nomuvofiqlik absolyut emas. Ayrim korrelyatsiyalar ko‘zga tashlanadi. Masalan, har qanday tilda ham ismlar sinfi haqida gapirilganda unga muayyan predmetlarni ifodalovchi leksemalar kiritiladi. Lekin bu sinf faqat predmetlar bilangina chegaralanib qolmasligi inobatga olinmaydi. Shuning uchun ham so‘z turkumlari sistemasining semantik asoslari masalasini maxsus o‘rganish zarur [2.77-95]. Shuni ta’kidlash kerakki, so‘z turkumlarini oddiy tarzda tushunish va leksik ma’nosiga ko‘ra tasnif etish neyrolingvistik tadqiqotlar bilan ham tasdiqlandi. A.R.Luriyaning e’tirof etishicha, yosh bolalar va afatiklar so‘zlarni so‘z turkumlari bo‘yicha emas, leksik ma’nolari bo‘yicha tasnif etadilar. Bemorlarga qaytadan so‘z turkumlari haqida ma’lumot berish zarur. Shundan keyin ham ular so‘z turkumlari o‘rniga semantik sinflarni ajratadilar. Bunday tasnif so‘z turkumlari tasnifiga muvofiq kelmaydi. Bunday bemorlar predmetlikni ifodalovchi otlarni, aktiv fe’llarni osonlik bilan aniqlaydilar, lekin ozodlik – fe’l yoki sifat, yugurish – fe’l, uxlamoq – fe’l emas, deydilar. Shuningdyek, yashamoq, o‘lmoq so‘zlarini qaysi sinfga kiritishga qiynaladilar [3.71-73]. Bu kuzatishlar semantik va grammatik sistemalarning avtonomligini ko‘rsatadi. Bemorlarda semantikani qabul qilish qobiliyati saqlangan, lekin uni grammatik aspektda qabul qilish mexanizmi anchagina buzilgan bo‘ladi.

Semantik so‘z turkumlari. So‘z turkumlarini tasnif etish tamoyillaridan biri semantik tamoyildir. Bunda so‘zlar sintaktik vazifalariga muvofiq tasnif etiladi. Bunday yondashuv universal bo‘lib, tipologik maqsadlarga qulay hisoblanadi. Shu bilan birga, asosiy sintaktik tushunchalar turlicha belgilanadi va har doim ham qat’iy bo‘lavermaydi. Shuning uchun ham sintaktik so‘z turkumlarini ajratishdan oldin asosiy sintaktik tushunchalarni aniqlab olish zarur. A.A.Xolodovich va uning maktabi tavsiya etgan sintaktik konsepsiya hozirgi zamon tilshunosligida keng tarqalgan.

Dastlab shuni ta’kidlash zarurki, sintaktik vazifasiga ko‘ra so‘zlarni tasnif etish uni sintaksema deb tushunilgandagina mumkin bo‘ladi.

Gapning sintaktik strukturasi muayyan semantik strukturani namoyon etadi. Semantik struktura esa hodisalar (vaziyatlar, faktlar) va ularning ishtirokchilaridan iborat bo‘ladi. Masalan, rus tilida Vanya byet Petyu gapining semantik strukturasi bit voqeligi va uning ikki qatnashchisidan iborat bo‘ladi. Yabloko krasnoye gapining semantik strukturasi esa bыt krasnыm voqeasi va uning yagona qatnashchisidan iborat bo‘ladi. Sintaksisda shunday standart struktura aks etadi: harakat va uning ishtirokchisidan iborat bo‘lgan gap, ya’ni kesim va gapning aktant bo‘laklari – ega va to‘ldiruvchi.

Sintaktik so‘z turkumlari semantika bilan muayyan korrelyatsiyaga ega, lekin ularni bir xildagi muvofiqlik deb tushunmaslik kerak.

Morfologik so‘z turkumlari. An’anaviy so‘z turkumlarini ajratish qadimgi grek va lotin tillarining morfologik belgilariga asoslangan. Leksemalarning qat’iy tasnifi ham morfologik tamoyil bo‘yicha amalga oshirilgan. Bu tasniflardan voz kechishga hech qanday asos yo‘q. Faqat leksemalarning boshqa tip tasniflari sirasida morfologik tamoyilning o‘rnini aniqlash zarur.

Morfologik sinflar turlicha ajratilgan. Yevropa tilshunosligi an’analarida morfologik tamoyilga tor ma’noda yondashilgan bo‘linsa, qadimgi grek, lotin va rus tillarida so‘z o‘zgartiruvchilar tipining rivojlanganligi hisobga olinib, keng ma’noda yondashilgan. Ingliz tili uchun ham morfologik tamoyilga tor yondashuv mos kelmaydi. Shuning uchun ham Amerika tilshunosligida so‘z turkumlarini tasniflashda distributsiyaga asoslanilgan. Tor yondashuv xitoy va yapon tillari uchun ham to‘g‘ri kelmaydi.

Morfologik tamoyil keng ma’noda qo‘llanganda, leksik birliklar (asoslar)ning faqat affikslar bilangina emas, boshqa har qanday grammatik elementlar, jumladan, yordamchi so‘zlar bilan qo‘shilishi ham hisobga olinadi.

Morfologik tasnif keng ma’noda tushunilganda, eng kichik detallargacha nazardan qochirilmaydi. Masalan, yapon tilshunosligida leksemalarning yordamchi so‘zlar bilan qo‘shilishi hisobga olinganda, aniq morfologik tasnif namoyon bo‘ldi.

Mustaqil so‘zlar sirasida o‘zgarmas so‘z turkumlari (so‘z o‘zgartiruvchi affikslarni olmaydigan so‘z turkumlari)ning bo‘lishi sintaktik so‘z turkumlari bilan morfologik so‘z turkumlarining o‘zaro muvofiq kelmasligini ko‘rsatadi. Lekin ayrim tillarda sintaktik va morfologik so‘z turkumlari orasida muayyan korrelyatsiyalar uchraydi. Bu korrelyatsiyalar uslubiy xarakterga ega bo‘ladi. I.Meshchaninovning e’tirof etishicha, “so‘z turkumlari – morfologizatsiyaga uchragan gap bo‘laklaridir” [4.].

Ayrim tillarda sintaktik sinflar ayrim morfologik sinflar bilan muvofiq kelishi mumkin. Masalan, rus tilidagi otlar, fe’llar, sifatlar; yapon tilidagi otlar [5.]

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Кибрик А.Е. и др. Опыт структурного описания арчинского языка. Т.1-3. М., 1977. т.1.с.19-20.

2.Тестелец Я.Г. Наблюдения над семантикой оппозиций. “Имя/глагол” и “существительное /прилагательное’‘ (к постановке проблемы) – В кн.: Части речи. Теория и типология. М., 1990. с. 77-95.

3.Лурия А.Р. О патологии грамматических операций. – Исвестия АПН РСФСР. Вып.3. М.-Л., 1946. с. 71-73.

4.Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. М.-Л., 1945

5. Алпатов В.М. Принципы типологического описания частей речи. – В кн.: Части речи. Теория и типология. М., 1990.

Adibaxon TO‘RAXOJAYEVA,
Qo‘qonDPI filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Kamola HAMIDOVA,
filologiya bo‘yicha falsafa doktori

O‘ZBEK TILI IJTIMOIY-SIYOSIY LEKSIKASINI MAZMUNIY MAYDON ASOSIDA O‘RGANISH

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining tematik tasnifi masalasi va mazkur sistemani makro va mikrosistemalar butunligi sifatida talqin qilish, “Ijtimoiy-siyosiylik”mazmuniy maydoniga mansub lug‘aviy birliklarni muayyan LSG va LSQlarga ajratish kabilar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *tematik tasnif, arxisema, sema, mazmuniy maydon, leksik-semantik guruh, leksik-semantik qator, arxisema, integral sema, differensial sema.*

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос тематической классификации общественно-политической лексики узбекского языка и толкования этой системы в целом на макро и микросистемы, а также деления лексических единиц, относящихся к содержательной области узбекского языка. Объясняются «социально-политические» на конкретные ЛСГ и ЛСР.

Ключевые слова: *тематическая классификация, архисема, сема, смысловое поле, лексико-семантическая группа, лексико-семантический ряд, архисема, интегральная сема, дифференциальная сема.*

Annotation: in this article, the issue of the thematic classification of the socio-political lexicon of the Uzbek language and the interpretation of this system as a whole of macro and micro-systems, as well as the division of lexical units belonging to the content area of "Social-Political" into specific LSG and LSQ, are explained.

Key words: *thematic classification, archiseme, sema, meaningful field, lexical-semantic group, lexical-semantic series, archiseme, integral sema, differential sema.*

KIRISH. Har qanday til, jumladan o‘zbek tili ham, sistemaviy tabiatga ega. Uning sistemaviyligi shunda ko‘rinadiki, har bir lingvistik birlik boshqasi bilan uzviy bog‘lanib, V.Gumboldt ta’biri bilan aytganda, ulkan bir to‘qimani hosil qiladi.[1]

O‘zbek tilining leksik sistemasi ham makrosistema sifatida bir qancha mikrosistemalarning o‘zaro munosabatidan tashkil topadi. Makrosistema tarkibidagi har bir mikrosistema leksik-semantik maydonlar (LSM)ni hosil qiladi. LSM tarkibidagi leksemalar bir umumiy sema (arxisema) asosida muayyan maydonlarga birlashsa, xususiy semalari orqali maydonga xos umumiy semadan farqlanadi. Demak, har bir leksema sememasi birlashtiruvchi va farqlovchi semalardan tashkil topib, farqlovchi semalar maydon tarkibidagi leksemalarning pog‘onaviy parchalanishi uchun xizmat qiladi.

ASOSIY QISM. Semema tarkibidagi semalarning birlashtiruvchilik va farqlovchilik vazifasi nisbiy xarakterga ega bo‘lib, yuqori pog‘ona uchun farqlovchi bo‘lgan sema keyingi pog‘ona uchun birlashtiruvchilik vazifasini bajaradi. Natijada tilning leksik- semantik sistemasi pog‘onaviy (iyerarxik) zanjirni vujudga keltiradi[6]. Pog‘onaviylik butun-bo‘lak, tur-jins munosabatida bo‘lgan birliklarni taqozo etadi. Bunday munosabat tilning barcha sathlariga xos universaliyalarga mansub bo‘lsa ham, ayniqsa, leksik sathda yorqinroq namoyon bo‘ladi.


“Ijtimoiy-siyosiy” arxisemasi asosida birlashgan leksik birliklar yaxlit bir maydonni tashkil qilar ekan, bu maydonga mansub barcha leksemalar sememasida “ijtimoiy-siyosiy” integral semasi ishtirok etadi. [2] Har bir maydon a’zosida takrorlanuvchi mazkur sema bu leksemalarni bir maydonga birlashtirish imkonini beradi.

Ijtimoiy-siyosiy leksemalarning semantik maydoni “davlat boshqaruvi”, “ijtimoiy-siyosiy munosabatlar” arxisemali ikkita mikromaydonga, bu mikromaydonlar esa o‘z navbatida muayyan ma’no umumiyligi asosida birlashgan LSG (leksik-semantik guruh)larga ajratildi.

Ijtimoiy-siyosiy lug‘aviy birliklarni ma’lum LSGlarga ajratishda komponent tahlilga asoslanildi. Garchi komponent tahlilda alohida olingan so‘z emas, balki to‘liq tarkibdagi LSGga e’tibor qaratilsa-da, bunday tahlil “oxir-oqibatda alohida so‘zlarning ma’no hajmini, uning barcha holatlarda namoyon bo‘ladigan semantik xususiyatlarini aniqlash”[3] imkonini beradi.

“Davlat boshqaruvi” mikromaydoni tarkibiga “organ”, “tuzum”, “mustaqillik”, “lavozim”, “hudud”, “hujjat”, “mustamlaka” kabi, “ijtimoiy-siyosiy munosabatlar” mikromaydoni tarkibiga esa “uyushma”, “guruh”, “oqim”, “shaxs”, “saylov”, “yig‘ilish”, “tartib”, “jarayon”, “tabaqa”, “diplomatiya” kabi LSGlar kiritildi. O‘zbek tilidagi “ijtimoiy-siyosiy” makro maydonning shajaraviy bo‘linishini quyidagicha ko‘rsatish mumkin.

1-chizma



“Davlat” deb ataluvchi ijtimoiy hodisa insoniyat tarixiy taraqqiyotining ibtidosidayoq vujudga kela boshlagan. O‘tgan uzoq davr mobaynida esa davlatni boshqarish ko‘p asrlik tajriba va an’analar asosida takomillashdi va rivojlandi[4].

“Davlat boshqaruvi – bu ijtimoiy boshqaruvning bir turi bo‘lib, jamiyatni boshqarishdir. Uni boshqaruv organlarining amaliy faoliyati sifatida tavsiflash mumkin. Shuningdek, davlat boshqaruvi ijroiya hokimiyat idoralari tomonidan davlat hayotining muayyan sohalariga va ob’yektlariga rahbarlikni amalga oshirish faoliyatidir”[9]. Biroq har qanday davlatni boshqarishda boshqaruv organlari tizimi va rahbarlik faoliyatidan tashqari, davlatning suvereniteti (yoki unga nisbatan olib borilayotgan mustamlaka siyosati), siyosiy tuzumi, ma’muriy-hududiy tuzilishi kabilar muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun “Davlat boshqaruvi” mikromaydoni tarkibiga “organ”, “tuzum”, “mustaqillik”, ”lavozim”, “hudud”, “hujjat”, “mustamlaka” kabi LSGlar kiritildi.

XULOSA. Ijtimoiy–siyosiy leksemalarning tahlil natijalariga ko‘ra polisemantik xususiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy leksemalar har bir sememasi bilan bir necha LSG yoki LSQni hosil qiladi[5]. Shuningdek, o‘zbek tilining ijtimoiy –siyosiy leksikasida organ va hujjat semali leksemalar miqdor jihatidan katta qismni tashkil etadi. Bu esa ana shu sohalarning siyosiy voqelikdagi asosiy bo‘g‘inlar ekanligini ko‘rsatadi. Mustaqillik sharoitida ish yuritish to‘la davlat tilida olib borilayotganligi, rasmiy hujjatlar leksikasining shakllanishi va me’yorlashuviga, o‘zbek tili leksik-semantik sistemasida “hujjatlar” arxisemali lug‘aviy-ma’noviy guruhning vujudga kelishiga qulay sotsiolingvistik imkoniyat yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках X1-X1У вв. – Ташкент: Ёзувчи,1991.-С. 13.

2. Исақова З. Алишер Навоийнинг “Мажолисун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент: 2010. –Б. 21.

3. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. – Тошкент: Фан, 2008.-Б. 4.

4.Бушуй Т., Сафаров Ш . Тил қурилиши: Таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007. –Б. 151.

5. Қаранг: Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. -368.б.

Mazmuna OTABOYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Xorijiy tillar fakulteti PhD
mazmuna.rahimovna@gmail.com

HOLATNI IFODALOVCHI FE’L LEKSEMALARIDA DARAJALANISH HODISASI
(O‘zbek va ingliz tillarida)

Annotatsiya: maqola o‘zbek tilidagi holat ingliz tilidagi tafakkur fe’llari asosida darajalanish qatorlari tuzishga bag‘ishlangan bo‘lib unda so‘z ma’nolari izohli lug‘atlar asosida tahlilga tortilgan.Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi holat va ingliz tilidagi tafakkur fe’llarining ma’no ifodalari bo‘yicha qiyoslab graduonimik qatorlar tuzishni masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *holat fe’llari, tafakkur fe’llari, darajalanish qatorlari, graduonimiya, izohli lug’at, antonim, sinonim.*

Annotation: the article is devoted to the creation of ranking lines based on the Uzbek state of thinking verbs in English, in which the word meanings are analyzed based on explanatory dictionaries. In this article, the Uzbek state of mind and English thinking verb The problems of creating comparative graduonymic series according to the meaning expressions of

Key words: *verbs of state, verbs of thought, gradation series, graduonymy, explanatory dictionary, antonym, synonym.*

Аннотация: статья посвящена созданию ранговых линий на основе узбекского состояния мышления глаголов в английском языке, в которых на основе толковых словарей анализируются значения слов. создания сравнительных градуонимических рядов по смысловым выражениям

Ключевые слова: *глаголы состояния, глаголы мысли, градационный ряд, градуонимия, толковый словарь, антоним, синоним.*

O‘zbek tilidagi holat fe’llari o‘z semasi doirasida ichki, tashqi, jismoniy va ijtimoiy holatlarni ifodalaydi. Ingliz tilida yuqoridagi fe’llarning ma’noviy guruhlari anglatgan ma’nolarini tafakkur fe’llar (mental verbs) guruhi deb nomlangan semantik bo‘linma o‘z ichiga oladi. Ushbu guruhga kiruvchi fe’llar tafakkur holati yoki jarayoni (mental states or process), his, munosabat yoki xohish (emotions, attitude, or desires), idrok qilish yoki qabul qilish (perceptions), muloqotni qabul qilish (the receiving of communication) kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘zlardan tashkil topgan. Biz tahlillar natijasida ingliz tilidagi ushbu guruh fe’llari anglatgan ma’no o‘zbek tilidagi holat, tafakkur va munosabat fe’llari ifodalaydigan ma’nolarga mos ekanligini aniqladik. Biz ushbu maqolamizda o‘zbel tilidagi holat va ingliz tilidagi tafakkur fe’llarining ma’no ifodalari bo‘yicha qiyoslab graduonimik qatorlar tuzishni masalalari yoritib berilgan. Quyida tahlillarni keltirib o‘tamiz.

O‘zbek tilidagi ichki holatni ifodalovchi ishonmoq fe’li ishtirokida darajalanish qatorini tuzib ko‘ramiz. Ishonmoq fe’lini o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ma’nolarini ko‘rib chiqamiz:

ISHONMOQ 1. Haqiqat, chin deb bilmoq. So‘ziga ishonmoq. Va’dasiga ishonmoq. – Safar aka ... shuning uchun mirzaboshining qilgan yaxshiligiga ishondim. (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.)

2. Ishonch bilan qaramoq, ishonch bog‘lamoq, pand bermaydi deb, bilmoq. Bobur bu gal yana aldanmaslik uchun shahar ichidagi tarafdorlarining hech biriga xabar bermasdan, faqat o‘z kuchiga ishonib, tavakkal qilib keldi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar.)

3. Umid bog‘lamoq, e’tiqod qilmoq; suyanmoq. Qomatiga ishongan – qaddini bukib ketadi, Ko‘pchilikka ishongan – maqsadiga etadi. Maqol.

Ishonmoq fe’lining yuqoridagi izohlaridan anglatgan ma’nolarining o‘zlaridan ham darajalanish qatori hosil qilish mumkin va ishonqiramoq so‘zini ham qo‘shishish mumkin.

ISHONQIRAMOQ Biroz ishonmoq, ishonganday bo‘lmoq. – Bilmadim, direktor meni shunchaki hovurimni bosish uchun yolg‘ondan aytdimi, deyman, – dedi ishonqiramay Alimjon. I.Rahim, O‘z kasbini sevgan yigit.

Masalan, ishonchning ortib borishiga ko‘ra: umid qilmoq→ishonch bog‘lamoq→ishonmoq kabi. Yoki aksincha ishonchning pasayib borishiga ko‘ra darajalanish qatori hosil qiladigan bo‘lsak ishonmoq so‘ziga qarama qarshi ma’noli so‘zlar shubhalanmoq, ikkilanmoq kabi so‘zlardan ham foydalanib, makrograduonimik qator hosil qilish mumkin. Quyida bu so‘zlarni o‘zbek tilining izohli lug‘atidan ko‘rib chiqamiz:

SHUBHALANMOQ Shubha qilmoq, ishonchsizlik bilan qaramoq; gumonsiramoq. Kimdan shubhalanasan?

IKKILANMOQ Ikki narsadan biri haqida muqim bir qarorga kelmaslik, shunday holatda bo‘lmoq. Qorovul chol idorada majlis bo‘layotganini aytgan edi, ostonada birdan to‘xtab, kirish-kirmasligini bilmay ikkilandi. Izohlar shuni ko‘rsatadiki, ikkilanmoq fe’lidan ko‘ra shubhalanmoq fe’lida ishonchning pastligi namoyon bo‘ladi, shuningdek, gumonsiramoq fe’li shubhalanmoq fe’li bilan bir xil ma’noda qo‘llaniladi. Demak, ishonchning pasayib borishiga ko‘ra ishonchning ma’nolarini ifodalovchi barcha ma’nodoshlari yordamida quyidagi darajalanish qatorini tuzish mumkin bo‘lib, semantik jihatdan teng bo‘lgan fe’llar / belgisi bilan birga berilgan:

ishonmoq→ishonch bog‘lamoq→ishonqiramoq→ umid qilmoq→ikkilanmoq

→shubhalanmoq/gumonsiramoq.

Ushbu darajalanish qatori ishonchning kamayib gumonga aylanib qolguniga qadar bo‘lgan fe’llarning darajalarini ko‘rsatib bermoqda. Ishonmoq fe’li ifodalayotgan ma’noni 100 % deb olinsa, to shubhalanmoq/gumonsiramoq fe’llarigacha bu ishonch foizlari kamayib bormoqda. O‘zbek tilida ishonmoq fe’lining antonimini ifodalovchi alohida leksema mavjud emas, “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”da ham ishonchli so‘ziga antonim sifatida ishonchsiz so‘zi keltirilgan. Ishonmoq fe’lining qarama-qarshi ma’nosi inkor yasovchi qo‘shimcha orqali ifodalanadi va shu sababli biz bu qatorni 0% gacha deb xil ma’noni ifodalamaydi ular orasida ma’noviy tafovut mavjud. Bu darajalanishni quyidagi chizma orqali ham ifodalash mumkin:

100%.....0%..

ishonmoq→ishonch bog‘lamoq→ishonqiramoq→umidqilmoq→ikkilanmoq→shubhalanmoq/gumonsiramoq

Shuningdek, ishonmoq fe’lini neytral so‘z deb olinsa, unga ma’nodosh va qarama-qarshi ma’noli so‘lar mavjudligini inobatga olib ikki qutbli darajalanish qatorini hosil qilish mumkin. Unda 0 nuqtadan o‘nga musbat, ya’ni ma’nodosh so‘zlari, 0 nuqtadan chapga manfiy tomonga qarama-qarshi ma’nodoshlari joylashadi:

...-3←-2←-1←0→1→2→3... . Ushbu formulada 0 nuqtadan, ya’ni neytral so‘z ishonmoq fe’lidan o‘ng tomonga ham chap tomonga ham ishonchning pasayishiga ko‘ra so‘zlar joylashtiriladi:

shubhalanmoq/gumonsiramoq→ikkilanmoq→.ishonmoq→ishonch bog‘lamoq→ ishonqiramoq→ umid qilmoq.

Ingliz tilidagi believe fe’li o‘zbek tilidagi ishonmoq fe’lining ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Believe fe’li ishtirokida dara-

jalanish qator hosil qilish maqsadida uning sinonimlari bilan birga izohlarini ko‘rib chiqamiz:

BELIEVE (opp. doubt) – 1. accept that (something) is true, especially without proof: The superintendent believed Lancaster’s story – biron narsani haqiqat ekanligiga dalillarsiz qabul qilish: Bosh direktor Lankestrning hikoyasiga ishondi.

Sinonimlari: be convicted by, trust, have confidence in, consider honest, consider truthful.

be convicted by-- a) strong persuasion or belief b) the state of being convinced-- a) kuchli ishontirish yoki ishonch b) ishonch hosil qilish holati;

trust – believe in the reliability, truth, or ability of -- ishonchliligiga, haqiqatligiga va qobiliyatiga ishonish;

Yuqorida keltirilgan izohlarga muvofiq believe fe’li ishtirokida ishonchning ortib borishi bo‘yicha: consider truthful/honest→believe→be convicted by →trust kabi darajalanish qatorini tuzish mumkin. Agarda ushbu graduonimik qatorni aksincha ishonchning kamayib borishi bo‘yicha tuzib, qatorni antonimlar bilan davom ettiradigan bo‘lsak, hesitate va doubt fe’llarini qo‘shishimiz mumkin:

HESITATE – pause in indecision before saying or doing something: She hesitated, unsure of what to say. – biron narsa deyish yoki qilishdan oldin qarorsizlik qilib to‘xtash: U nima deyishini bilmasdan ikkilandi.

Ushbu ishonchning kamayib borishi bo‘yicha tuzilgan ikki qutbli darajalanish qatorini ingliz tilida quyidagicha ifodalash mumkin:

doubt→hesitate→trust. →be convicted by → believe→ truthful/honest.

Believe fe’lining yana bir ma’nosi bo‘yicha ham, unga ma’nodosh so‘zlar bilan darajalanish qatorini tuzib ko‘ramiz. Bunda ushbu fe’l o‘ylamoq degan ma’noda keladi va unga ma’nodosh so‘zlarning izohlarini ham ko‘rib chiqamiz.

1. hold (something) as an opinion, think: I believe we’ve already met. – (biron narsani) fikr sifatida ushlab olmoq, o‘ylamoq: Men biz allaqachon uchrashganmiz deb o‘ylayman.

2. suppose or assume – 1. xayoliy timsol yoki tushunchani shakllantirish.

3. taxmin qilmoq yoki mo‘ljallamoq.

Suspect – have an idea or impression of the existence, presence, or truth of (something) without certain proof – aniq isbot dalilsiz nimadir haqida fikr yoki mavjudligi haqida taassurot, bor bo‘lish yoki haqiqatga ega bo‘lmoq;

suppose – think or assume that something is true or probable but lack proof or certain knowledge – isbotning yoki etarlicha bilimning kamligi bilan nimadir haqida haqiqat yoki taxminiy o‘ylash;

assume – suppose to be the case, without proof – dalilsiz holatni taxmin qilmoq.

Yuqorida keltirilgan izohlardan biron bir g‘oya yoki fikr bo‘yicha tasavvurning ortib borishiga ko‘ra: have an idea→imagine→ think→believe darajalanish qatorini hosil qilish mumkin. O‘zbek tilida esa bu darajalanish qatorini tafakkur fe’llari fikr uyg‘onmoq→tasavvur qilmoq→ o‘ylamoq tarzida ifodalash mumkin. Bu darajalanish qatoriga ishonmoq so‘zini kiritish unchalik ham to‘g‘ri kelmaydi, garchi ishonmoq so‘zining ishonch bilan qaramoq va umid bog‘lamoq kabi ma’nolari ham mavjud bo‘lsa-da, bu qatorga ishonmoq leksemasini kiritish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi deb hisoblaymiz. O‘zbek va ingliz tillaridagi holat, tafakkur va munosabatni anglatuvchi semantik kategoriyalarda darajalanish qatorlari tuzish imkoniyati yuqori. Chunki bu guruhlarga kiruvchi fe’llar sinonim va antonimlari orasida semantik jihatdan o‘zaro farqlanuvchi ma’nodoshlari ko‘pchilikni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish, f.f.doktori dissertatsiya. – Toshkent, 1997. 251-bet.

2. Rahmatullayev SH., Mamatov N., Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1980. 231-bet.

3. Djumabayeva J. “ O‘zbek va ingliz tillarida leksik xamda stilistik grduonimiya dok. diss. – Toshkent, 2016. 231-bet.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати www.ziyouz.com kutubxonasi.

5. Djumabayeva, Jamila. "On Gradable Contrariety and Graduonymy." Usbekisch-deutsche Studien 3 (2010): 401.

6. Отабоева, Мазмуна. "The study of grad on my in speech patterns and the principles of forming graduonymic rows." Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире 1.2 (2022): 175-180.

7. Rahimovna, Otaboyeva Mazmuna, and Karimova Vasila Vahobovna. "Graduonymy Of Activity Verbs In Uzbek And English Languages." Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 1372-1377.

8. Rahimovna, Otaboeva Mazmuna, and Jurayeva Zulayho Shamsiddinovna. "CREATING GRADUONYMIC ROWS IN VERB SEMANTIC CATEGORIES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.10 (2022): 322-326.

Malika RAJAPOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Email: malikarajapova1993@gmail.com

ALLEGORIYA BADIIY TASVIR VOSITASI VA STILISTIK TROP SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada allegoriyaning badiiy tasvir vositasi va stilistik trop sifatidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada allegoriyaning o‘ziga xos xususiyatlari, uning adabiyot va san’atdagi roli, shuningdek, boshqa stilistik vositalar bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Yozuvchi yoki shoirning uslubi, uning individualligi va ijodiy jarayonidagi betakrorligi asosida allegoriyaning qanday qo‘llanilishi tushuntiriladi. Allegoriyaning tilshunoslik va adabiyotshunoslikda tutgan o‘rni, uning ramziy ma’nolari va madaniy kontekstdagi ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *allegoriya, badiiy tasvir, stilistik trop, uslub, adabiyot, metafora, simvolizm, lingvokulturologiya, adabiyotshunoslik.*

Annotation: this article analyzes the role and significance of allegory as a literary device and stylistic trope. It explores the unique features of allegory, its function in literature and art, and its relationship with other stylistic devices. The paper explains how allegory is employed based on the individuality and creativity of the writer or poet, highlighting the distinctiveness of their style. The role of allegory in linguistics and literary studies, its symbolic meanings, and cultural context are also examined.

Key words: *allegory, artistic image, stylistic trope, style, literature, metaphor, symbolism, linguistic culture, literary studies*

Аннотация: в данной статье анализируется роль и значение аллегории как художественного приёма и стилистического тропа. Рассматриваются уникальные особенности аллегории, её функция в литературе и искусстве, а также её связь с другими стилистическими средствами. В статье объясняется, как аллегория используется на основе индивидуальности и творчества писателя или поэта, подчёркивая уникальность их стиля. Также изучается роль аллегории в лингвистике и литературоведении, её символические значения и культурный контекст.

Ключевые слова: *аллегория, художественный образ, стилистический троп, стиль, литература, метафора, символика, лингвокультура, литературоведение.*

Kirish. Borliqdagi biror-bir hodisaning aynan takrori yaratilmagan. Hatto qor qalinligi 50 sm bo‘lgan har metr kvadratda 1.000.000 dona atrofida qor uchqunlari bor. Shunga qaramay, butun yer yuzini qor qoplasa-da, hech bir qor zarrasi shaklan bir-birini takrorlamaydi. Bu haqiqat amerikalik tadqiqotchi Vilson Bentleyning 50 yil davomida olib borgan kuzatish va tajribalarining xulosasida — 1985-yilda ayon bo‘ldi . Xuddi shunday ovozlarni, siymolarni, barmoq uchlarining aynan o‘xshashi yo‘qligi bugungi kunda ko‘pchilikka ayon.

Ana shu betakror hayot qonunidan kelib chiqsak, ikkita bir xil yozuvchi(shoir)ning yoki aynan bir xil fikrlovchi kishilarning bo‘lishi ham mumkin emas. Chunki yaratilgan har bir insonning ichki va tashqi tuzilishi o‘ziga xos bir olamki, uning betakrorligi o‘zligida mujassam etilgan. Shunga asosan har bir insonning olami – hayotiy tajribasi, bilim darajasi, didi, go‘zallikni ko‘ra bilishi, tasavvuri, xayolot dunyosi, qalb ko‘zi o‘zigagina tegishlidir va ana shu o‘zlik uning har bir nutqida yoki asarida akslanadi. Shuning uchun “Uslub — odam” (Getyo) , “Uslub – hayot” (Alfred Adler) tushunchasi asosli va hayotiydir. Shunga asosan V.G.Belinskiyning “Yozuvchining mazmun bilan shaklga quyma bir holat bag‘ishlay olish qobiliyatini va shu bilan birga hamma-hamma narsaga o‘z shaxsi, o‘z ruhining takrorlanmas, haqiqiy muhrini tushirib o‘ta olish xususiyatini”, — uslub deb hisoblashi o‘rinlidir.

Adabiyotda uslub faqat “o‘zlik” bilan cheklanib qolmaydi va faqat individual belgilarning yig‘indisi ham emas. Unda, albatta, “o‘zlik”ni vujudga keltirgan, o‘stirgan ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘ladi, unda “shaxsiylik va umumiylik juda murakkab dialektik birlikda bo‘lib, o‘zaro shartlangan, bir-birini ifodalaydigan” tarzda voqe bo‘ladi. Shunga asosan romantik tasvir uslubi, realistik uslub, davr uslubi, zamonaviy uslub, milliy uslub, adabiyot uslubi, tasviriy san’at uslubi... degan sohalarning mavjudligini ham tan oladi.

Materiallar va metodlar

Uslubda obyektivlikning mavjudligini tan olgan holda shuni aytish lozimki, “o‘ziga xoslik”, ijodkor qalbining betakror urishi — uslubning bosh alomati sanaladi. Uslub asar yoki beriladigan konseptning “butun yaxlit sistemasida namoyon bo‘luvchi badiiy o‘ziga xoslik” (G. L. Abramovich), “Adabiy asar unsurlarining bir-biriga bog‘liqligi va ularning yozuvchi talantiga mos tarzda garmonik chatishuvidir. (Vuysitskiy)

Uslub bir vaqtning o‘zida — mazmun ham, shakl ham, g‘oya ham, motiv ham. Bularning barchasi birlashganda asar busbutunligini uslub ta’minlaydi. Shunga ko‘ra yozuvchi uslubini so‘zga, tilga — ulardan foydalanishdagi o‘ziga xoslikka bog‘lab qo‘yish noo‘rindir. To‘g‘ri, adabiyot — so‘z san’ati, til adabiyotning birinchi elementi bo‘lsada, uslubni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri — zaruriy elementi

sanaladi.

Uslubni yuzaga keltiruvchi eng zarur omillardan yana biri — so‘zlovchining hayotni, uning mohiyatini va uning qa’ridagi haqiqatni tadqiq va tahlil qila bilishi bilan bog‘liqdir. Inson ruhiyatining boy va yashirin sirlarini, ularning tub estetik qimmatini kashf etish san’ati — ruhiyat bilimdonligi bilan bevosita aloqadordir. Demak, uslub — yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularning qalbidagi haqiqatning kashf etishi va uni so‘z vositasida obrazli ifodalay olishi — bu vazifalarni individual tarzda yaratish san’atidir. Uslub doim notiqning butun borlig‘idan — tabiatidan kelib chiqadi va har bir yaratgan asarida ana shu o‘ziga xos olamning hayotbaxsh nurini – insoniylashgan tuyg‘ularini tiriltiradi, uni atrofdagilar bilan baham ko‘radi, ezgu tuyg‘ular tarbiyachisi vazifasini o‘taydi. Shuning uchun ham uslub “kuchsiz adib — yozuvchining asarlarida o‘zini ochiq ko‘rsata olmaydir. Kuchsiz yozuvchilarning uslublari bir-biriga o‘xshab qoladir” (Fitrat, 26-bet). “Uslub zamon bilan o‘zgargani kabi shaxs bilan ham o‘zgaradir. Aytish mumkinki, uslub — so‘zlovchi yoki ijodkorning o‘ziga xos va boshqalardan ajratib tura oladigan dunyosidir, uning xayoloti, tasavvuri, aqli, bilimi, so‘zshunosligi, talanti, geniysi, insoniyligi — butun borlig‘ini namoyon etuvchi badiiy hodisa, vositadir.

Izlanish va muhokamalar

Badiiy uslublardan allegoriya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish, perefraza, ironiya va onomatopia kabi tasvir vositalari, faqatgina badiiy tasvir vositalarigina emas stilistik troplar ham hisoblanadi. Chunki vositalar matnni yanada jozibali va rangdor bo‘lishini, o‘quvchi ma’lumotni tez va oson tushunishini ta’minlaydi. Shuningdek, aytib o‘tilgan stilistik vositalar tilshunoslikning bir bo‘lagi bo‘libgina qolmay adabiyotshunoslikning ham maxsus adabiyotida simvol-ramz sifatida turli ma’nolarda qo‘llaniladi. Bu ifoda vositalarning nafaqat tilshunoslik yoki badiiy adabiyotda, balki, san’atda, tarixiy yoki diniy manbalarda, kundalik nutqimizda ham uchratishimiz mumkin. Badiiy tasviriy vositalar adresatning ma’lumotni tez va oson tushunishini ta’minlaydi va tilimizni boyitadi. Shunday tasviriy vositalardan biri allegoriyadir. Adabiy vosita yoki badiiy shakl sifatida allegoriya xarakter, joy yoki hodisani axloqiy yoki siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan yashirin ma’noni ifodalash uchun talqin qilinishi mumkin bo‘lgan hikoya yoki vizual tasvirdir. Mualliflar murakkab g‘oyalar va tushunchalarni tomoshabinlar, o‘quvchilar yoki tinglovchilar uchun tushunarli yoki hayratlanarli tarzda tasvirlash yoki yetkazish uchun san’atning barcha shakllarida allegoriyadan tarix davomida foydalanganlar. Allegoriyaning tarixiga nazar solsak, adabiyot vujudga kelishi jarayonida bu stilistik trop ham vujudga kelgan deya olamiz, lekin dastlab bu vosita insonlar o‘zlari payqamagan holda, badiiy adabiyotda, satirada, yumorda, siyosatda qo‘llaganlar. Masalan, badiiy adabiyotga nazar solsak, xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan hikoyalar, masallar, maqollar, topishmoqlar, allalar va boshqa ko‘plab xalq og‘zaki ijodida allegoriyadan badiiy tasvirni yanada boyitishda keng foydalanilgan.

Ingliz tilida birinchi marta 1382-yilda foydalana boshlangan allegoriya atamasi lotincha “allegoria” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, yunoncha "allegoria" (allegoría), "pardali til, majoziy" kabi ma’nolarning lotinlashuvidir, ya’ni ἄλλος (allos) “boshqacha, farqli” va ἀγορεύω (agoreuo) “majlisda gapirmoq, aytib o‘tmoq” kabi ma’nolrni anglatadi, bu so‘zlar ἀγορά (agora), "assembly"(majlis, jamlanish) kabi so‘zlardan kelib chiqqan.

Allegoriya qadim zamonlardan beri insoniyat madaniyatining ajralmas qismi sifatida voqelikni anglash va ijodiy aks ettirish usullaridan biri sifatida mavjud bo‘lgan. Ba’zi manbalarga ko‘ra , allegoriya tushunchasi dastlab qadimgi ritorikada shakllangan va tushunilgan. Keyinchalik bu atama antik falsafa, xristian ilohiyoti, tasviriy san’at va adabiyotda mustahkam o‘rin egalladi.

I. Protopopovaning tadqiqotiga ko‘ra, allegoriya haqida birinchi ma'lum eslatma yunon faylasufi, Aristotelning shogirdi Demetriy Ritor yoki Phaler Demetriusga (miloddan avvalgi 350-283 yillar) tegishli bo‘lgan. "Epistollar haqidagi risolada" u yunoncha "allegoriya" so‘zining ma'nosini quyidagicha izohlaydi: "Yozuvning allegorik shakli, biz yozgan odamga bir narsani tushunishini xohlaganimizda, biz uni boshqasi orqali belgilaymiz". Shunday qilib, boshlangan odamlarning cheklangan doirasiga mavjud bo‘lgan yashirin ma'noni yetkazishda allegoriyaning alohida rolini nazarda tutadi. Keyinchalik, Rim faylasufi va davlat arbobi Sitseron (eramizdan avvalgi 106-43 yillar) o‘zining mashhur "Notiq" risolasida allegoriyaga quyidagi ta’rifni beradi: "ko‘p metafora davom etganda, bu so‘z yunonlar allegoriya deb ataydi". Demak, Sitseron uchun allegoriya ko‘p metaforalardan tashkil topgan ritorik qurilish vazifasini bajaradi.

Xulosa. Allegoriyaning kuchi shundaki, u ko‘p asrlar davomida insoniyatning adolat, yaxshilik, yomonlik va turli axloqiy fazilatlarni o‘z ichiga olishga qodir. Masalan, Yunon va Rim haykaltaroshlari tomonidan ko‘r-ko‘rona va tarozi bilan tasvirlangan ma’buda Temis abadiy adolat timsoli bo‘lib qoldi. Ilon va Gigiya idishi tasviri ham allegoriya bo‘lib, shifo, dori va shifoxona ma’nolarini anglatadi. Ko‘plab allegoriyalarning kelib chiqishi qadimiy urf-odatlar, madaniy an’analar (gerblar, timsollar), folklor – asosan, hayvonlar jonsiz jismlar haqidagi ertak va hikoyalar, Yunon va Rim mifologiyasi, Injil, Avesto va boshqa shu kabi diniy va tarixiy asarlarga borib taqaladi. Lekin aytish joizki, allegorik tasviriy ifodalar yozma asarlardan ancha ilgari keng qo‘llanila boshlangan. Ularning ishlatilinishi

dastlab, oilaviy muhitda, ona yoki buvilar farzandlariga vaqtni unumli o‘tkazishlari uchun, ularni tarbiyalash jarayonida effektiv hikoya va rivoyatlardan foydalanilgan paytda ishlatilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xotam Umurov, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. – Toshkent, 2004.
2. Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ilmiy axborotlari, Ilmiy-nazariy jurnali № 1 (14) 2018 й. Научный Вестник Ташкентского Государственного Педагогического Университета.
3. Galperin I. R. “Stylistics”. – Moskva, 1995.
4. Znamenskaya. Stylistics of the English language. – Москва, 2004.

Nodiraxon ISMATOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Email: nodiraismatova1981@gmail.com

RANG NOMLARI BILAN SHAKLLANGAN TOPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada rang nomlari bilan shakllangan toponimlarning lingvokulturologik tadqiqi amalga oshiriladi. Maqola toponimika, lingvistika, madaniyatshunoslik va tarix fanlarining uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib, rang nomlarining toponimlarda qanday aks etishini va ularning turli madaniy kontekstlarda qanday talqin etilishini o‘rganadi. Rang nomlari orqali shakllangan geografik nomlarning etimologiyasi, semantikasi, grammatik strukturalari va ramziy ma’nolari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada rang nomlari bilan bog‘liq xalq rivoyatlari, afsonalar va folklor elementlari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *toponimika, lingvokulturologiya, rang nomlari, geografik nomlar, lingvistik tahlil, madaniy kontekst, etimologiya*

Annotation: in this article, a linguistic and cultural study of toponyms formed by color names is carried out. The article examines how color names are reflected in toponyms and how they are interpreted in different cultural contexts, showing the interdependence of toponymy, linguistics, cultural studies, and history. Etymology, semantics, grammatical structures and symbolic meanings of geographical names formed by color names are analyzed. The article also examines folk tales, legends, and elements of folklore associated with color names.

Key words: *toponymy, linguocultural science, color names, geographical names, linguistic analysis, cultural context, etymology.*

Kirish. Dunyo tilshunosligida aksariyat joy nomlari eng qadimiy yozma yodgorliklarda ham qayd qilingan geografik nom sifatida keyinroq vujudga kelgan shakllari va hozirgi kundagi holati bilan solishtirilib, uning tarkibidagi dastlabki shaklida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar tilshunoslik qonuniyatlari orqali o‘z asoslariga ega bo‘lmoqda. Shu sababli insonlar istiqomat qiluvchi joy nomlarining uzluksiz o‘zgarishi, kengayishga sabab bo‘luvchi urbanizatsiya jarayonining davomiyligi va bular asosida ham toponimlarning ko‘paya borishi masalalaridagi hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar amaliy lingvistik tadqiqotlar orqali o‘z yechimiga ega bo‘lmoqda. Bu kabi tadqiqotlar tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarix bilan bog‘liq bo‘lib, o‘rganilayotgan mintaqaning til, madaniyat va tarixiy jarayonlari orqali uning geografik nomlari qanday shakllanganini tushuntirishga qaratilgan. Toponimlarning kelib chiqishi, ularning o‘zgarishi, shuningdek, ularning mahalliy aholi madaniyati va identitetiga ta’siri kabi masalalar qamrab olinadi. Demak, toponimiya juda keng qamrovli soha bo‘lib, u tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tarix va geografiya sohalari bilan chamcharchas bog‘liqdir.

Materiallar va metodlar.

Yuqorida ham ta’kidlab o‘tilganidek, bu tahlil tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarixiy aspektlarni o‘z ichiga oladi. Mana shu mavzuning asosiy jihatlari lingvistik tahlil va kulturologik tahlilni o‘z ichiga oladi. Lingvistik tahlil etimologiya ya’ni rang nomlarining kelib chiqishi va ularning toponimlardagi rolining tadqiqi bo‘lib, masalan, "qizil" so‘zi ko‘pincha qizil tuproq yoki toshli joylarni ifodalash uchun ishlatiladi. Semantikada esa rang nomlarining ma'no qatlamlari va ularning konnotativ xususiyatlari tadqiq etiladi. Ranglar ko‘pincha ma’lum bir hissiyot yoki xotirani ifodalaydi. Bu ifodalar turli madaniyatlarda turlicha talqin etiladi. Shuningdek, rang nomlari bilan shakllangan toponimlarning grammatik strukturalari ham lingvistik tahlil jarayonida ko‘riladi. Masalan, O‘zbek tilida "qizil" va "tepa" so‘zlari birikib, "Qiziltepa" joy nomining hosil bo‘lishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Kulturologik tahlil esa, berilgan joy nomlari ifodalarining turli madaniyatlarda turlicha yoki bir xil ifodalanishini ko‘rsatadi. Kulturologik tahlilni quyidagicha bo‘limlarda ko‘rishimiz mumkin.

a) Madaniy kontekst: Rang nomlarining madaniy va tarixiy kontekstda qanday qo‘llanilishi. Masalan, "qora" so‘zi ko‘pincha salbiy yoki sirli narsalarni

ifodalash uchun ishlatiladi.

b) Folklor va etnografiya: Rang nomlari bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar. Ba’zi toponimlar mahalliy afsonalar yoki tarixiy voqealar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

c) Simvolizm: Ranglarning ramziy ma’nolari. Har bir rang turli xalqlar madaniyatida turlicha ramzlarni ifodalaydi.

Lingvistik va kulturologik tahlilning birlashuvi orqali lingvokulturologik tahlil masalasi kelib chiqdi. Lingvokulturologiya til va madaniyatni birlashtiruvchi soha bo‘lib, ko‘plab Yevropa va Sharq olimlari bu sohada bir necha yillardan buyon ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Ulardan Antipov G.A., Donskix O.A., Markovina I.Y., Sorekin Y.A. va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e’tiborga molikdir.

Zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida lingvokulturologiya yigirmanchi asrning so‘nggi choragida rivojlana boshladi. Ko‘plab tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, "lingvokulturologiya" atamasi o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan bo‘lib, V.N. Telia rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizlari V. Von Gumboldtga borib taqalishini aytishadi. Tilshunos olimlarning fikrlari A.A. Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glints, X.Xolts, V.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, kabilar; va bu sohani rivojlantirishda Sepir, B. L. Uorf, G. Brutyan, A. Veybitskaya, D. Xaymslar muhim rol o‘ynagan. Shunday qilib, lingvokulturologiya yigirma birinchi asr boshlariga kelib jahon tilshunosligining yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Buning sabablaridan biri globallashuv asri bo‘lib, turli noqardosh millat va madaniyatlarning o‘zaro birlashuvi yoki aloqalari tufayli ularning o‘xshash va noo‘xshash jihatlari ko‘rib chiqila boshlandi.

Izlanishlar va muhokamalar

Rang nomlari bilan ifodalangan toponimlar turli tillarda va madaniyatlarda uchraydi. Quyida O‘zbek va Ingliz tillarida rang nomlari bilan bog‘liq ba’zi toponimlar misollarini tahlil qilsak:

O‘zbek tilida ayrim rang nomlari bilan berilgan joy nomlari:

1. Qoraqalpog‘iston – "Qora qalpoq" so‘zidan kelib chiqqan, bu atama Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tegishli.

2. Qiziltepa – "Qizil tepa" ma’nosini anglatadi, bu esa o‘z navbatida qizil rangdagi tepalikni bildiradi.

Ingliz tilida ham rang nomlari bilan berilgan toponimik atamalar mavjud bo‘lib, ulardan quyidagilarni ko‘rib chiqamiz:

1. Red River – AQSh va Kanadada joylashgan daryo. "Red" so‘zi "qizil" ma’nosini bildiradi, bu daryoning qizil tusga ega bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

2. Blue Mountains – Avstraliyada joylashgan tog‘ tizmasi. "Blue" so‘zi "ko‘k" ma'nosini anglatadi, bu esa bu tog‘larning ko‘k rangda ko‘rinishiga ishora qiladi.

Bu toponimlar, rang nomlarini o‘z ichiga olgan holda, ma'lum bir geografik o‘ziga xoslik yoki tarixiy hodisalarni aks ettirishi ehtimol.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rang nomlari bilan shakllangan toponimlar nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy ahamiyatga ham ega. Rang nomlari bilan bog‘liq toponimlar, ularning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va grammatik tuzilmalari orqali o‘zlarining geografik, tarixiy va madaniy kontekstlarini aks ettiradi. O‘zbek va boshqa tillardagi rang nomlari bilan shakllangan toponimlar misollari tahlil qilinib, bu toponimlarning mahalliy aholi madaniyati va identitetiga qanday ta'sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Shuningdek, lingvokulturologik tahlil usuli yordamida toponimlarning turli madaniyatlarda qanday talqin etilishi va ularning ramziy ma’nolari aniqlangan. Rang nomlari turli xalqlar madaniyatida turlicha ramzlarni ifodalaydi va bu ranglar bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar ham tahlil qilingan.

Natijada, rang nomlari bilan shakllangan toponimlar tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarix fanlari uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bu kabi tadqiqotlar orqali milliy va mintaqaviy madaniyatlar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lish mumkin va bu sohada olib borilgan tadqiqotlar kelgusida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Makhmudovna, I. N. (2022). TOPONYMS CONSTRUCTED BY COMPOUND NOUNS WITH THE COLOR COMPONENT. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).

2. Ismatova, N. (2023). TOPONIMIC NAMES WITH COLOR NAMES IN UZBEKISTAN AND ENGLISH SPEAKING COUNTRIES. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(22), 28-31.

3. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 80.

4. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореферат дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – С. 24.

5. Қораев С. Торонимика. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2006. – В. 320.

6. Makhmudovna, I. N. (2021). The relation between names and language. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1254-1256.

Feruza MAMATQULOVA,
Qo‘qon DPI,(PhD)
Muqaddas SAIDAKBAROVA
Qo‘qon DPI,(PhD)

O‘ZBEK VA BOSHQIRD XALQ OG‘ZAKI IJODIDAGI UMUMIY MAVZULAR

Annotatsiya: boshqird folklorshunosligida “Tohir va Zuhra” dostoni ilmiy tadqiq etilgan bo‘lmasa-da, “Boshqird xalq ijodi” ko‘p tomligining “Epos: qissa ham dastanlar” deb nomlangan oltinchi jildida “Qissa-i Yusuf” va “Buz’yeget” qissalari qatorida “Tahir menen Zəhra” dostonining boshqirdlar orasida ertak sifatida ommalashgan uch namunasi kiritilgan. Har uchala variant hajman g‘oyat qisqa bo‘lib, ulardan birini Orenburg o‘lkasining Qo‘tos ovulida istiqomat qiluvchi Rahila Telakayevadan 1960-yilda folklorshunos olim Kirey Mergen yozib olgan. Doston befarzandlikdan aziyat chekayotgan shoh saroyining oldiga bir tilanchi kelishi va podsho ham, uning tirnoqqa zor vaziri ham kelgusida farzandli bo‘lajaklarini bashorat qilishi tasviri bilan boshlanadi.

Kalit so‘zlar: *Boshqird, ertak, befarzandlik, vazir, farzand, ko‘ngil, sayr, hukmdor, bog‘, qabr, mushtarak.*

Аннотация: хотя эпос «Тахир и Зухра» в башкирском фольклоре научно не исследован, в шестом томе сборника «Башкирское народное искусство» под названием «Эпос: сказания и былины» среди рассказов «Кисса-и Юсуф» и «Буз» егет» «Тахир менен зохра» Приведены три примера эпоса, популярного у башкир как сказки. 171 Все три версии чрезвычайно кратки по размеру, а одна из них записана фольклористом Киреем Мергеном в 1960 году от Рахили Телакаевой, жительницы Котос-Овула Оренбургской области. Эпос начинается с образа нищего, приходящего ко двору царя, страдающего от бездетности, и и король, и его трудолюбивый министр предсказывают, что в будущем у них будут дети.

Ключевые слова: *Башкирский, сказка, бездетность, министр, ребенок, сердце, прогулка, правитель, сад, могила, общее.*

Annotation: although the epic "Tahir and Zuhra" has not been scientifically researched in Bashkir folklore, in the sixth volume of the collection "Bashkir Folk Art" called "Epos: Tales and Epics" among the stories "Kissa-i Yusuf" and "Buz'eget" "Tahir menen Zöhra" Three examples of the epic, popular as fairy tales among the Bashkirs, are included. 171 All three versions are extremely short in size, and one of them was recorded by folklorist Kirey Mergen in 1960 from Rahila Telakaeva, a resident of Kotos Ovul, Orenburg region. The epic begins with the image of a beggar coming to the court of a king who is suffering from childlessness, and both the king and his hard-working minister predict that they will have children in the future.

Key words: *Bashkir, fairy tale, childlessness, minister, child, heart, walk, ruler, garden, grave, common.*

Boshqird folklorshunosligida “Tohir va Zuhra” dostoni ilmiy tadqiq etilgan bo‘lmasa-da, “Boshqird xalq ijodi” ko‘ptomligining “Epos: qissa ham dastanlar” deb nomlangan oltinchi jildida “Qissa-i Yusuf” va “Buz’yeget” qissalari qatorida “Tahir menen Zəhra” dostonining boshqirdlar orasida ertak sifatida ommalashgan uch namunasi kiritilgan. Har uchala variant hajman g‘oyat qisqa bo‘lib, ulardan birini Orenburg o‘lkasining Qo‘tos ovulida istiqomat qiluvchi Rahila Telakayevadan 1960-yilda folklorshunos olim Kirey Mergen yozib olgan. Doston befarzandlikdan aziyat chekayotgan shoh saroyining oldiga bir tilanchi kelishi va podsho ham, uning tirnoqqa zor vaziri ham kelgusida farzandli bo‘lajaklarini bashorat qilishi tasviri bilan boshlanadi. Tilanchi xonning bolasi qiz, vazirniki o‘g‘il bola bo‘lishi, agar ana shu qizni vazirning o‘g‘liga bersalar ikkalasi ham baxtli bo‘lishini bashorat qiladi. Chindan ham oradan ko‘p o‘tmay, podsho bilan vazir farzandli bo‘lishadi. Podshoning qiziga Zuhra, vazirning o‘g‘liga Tahir deb ism qo‘yadilar. Bolalar birga o‘sib-ulg‘ayib katta bo‘ladilar. Ular voyaga yetishgach, Tahirning ko‘nglida Zəhraga bo‘lgan muhabbat hissi uyg‘onadi. Ular o‘z ko‘ngil dardlarini bir-birlariga bayon qiladilar:

Zəhra:
Vəzir ulы Tahirğyer,
Һəmma ishga mahirğyer.
Bir kүrүүğan Zəhranы,
G‘ishыk ila yanыrğyer.
(Vazir o‘g‘li Tohirdir,
Hamma ishga mohirdir.
Bir ko‘rishdan Zuhrani,
Ishq o‘tida sohirdir).

Tahir:
Zəhradir xanпың ҡыğы,
Auğay hыlыuğыr yoği.
G‘ishыk utы berlə tuldы,
Tahirgə əytkən hүğы.
(Zuhradir xonning qizi,
Oyday iliqdir yuzi.
Ishq o‘tir birla to‘ldi,
Tohirga aytgan so‘zi).

Tahir bilan Zəhra bog‘da sayr qilib yurishganida podshoning quli Qara g‘arap ularning birgaligini ko‘rib

qoladi va bu xabarni hukmdorga yetkazadi. Podsho Tahirni sandiqqa solib, Shat daryosiga oqizib yuboradi. Sandiq oqib-oqib Gəlpatsha ismli xonning yurtiga borib qoladi. Daryo bo‘yida sayr qilib yurgan xonning uch qizi suv betida oqib kelayotgan sandiqni ko‘rib qoladilar va sandiqni suvdan tortib chiqarib ochadilar va uning ichidagi barno yigitni ko‘rib “meniki, meniki” deb talashib qoladilar. Ammo Tahir bu mamlakatda qolmasdan, o‘z yurtiga qaytib keladi va qasrga borib, Zəhra bilan uchrashadi. Bularni yana Ҡara g‘arap ko‘rib qoladi va podshoga chaqadi. Podsho “Agar Zəhraning otini tilga olsang boshingni chopib tashlayman!” deb dag‘dag‘a qilib, Tahirni zindonga soladi. Tahir esa Zəhrani ismini aytib qo‘shiq kuylay boshlaydi. Zindon atrofiga xalq yig‘iladi. Bu qo‘shiqni eshitgan podsho darhol yetib kelib Tahirning boshini tanidan judo qiladi. “Tahirsiz menga bu dunyo kerakmas” deb Zəhra ham o‘zini o‘ldiradi. Ularni yonma-yon dafn etadilar. Tahir bilan Zəhraning qabrlaridan ko‘kargan gul-chechaklar bir-biriga chirmashib o‘sadi.

Dostonning boshqird folkloridagi bu versiyasida Tahirning otasi vafot etishi motivi uchramaydi. Boshqa milliy versiyalarga ham xos bo‘lgan epik raqib – Qora botir obrazi bu namunada podshoning quli Ҡara g‘arap qiyofasida gavdalanadi. Boshqird xalq ijodidagi “Tahir menen Zəhra” dostonining ikkinchi varianti Orenburg o‘lkasining Kurpas ovulida yashovchi 1927 yilda tug‘ilgan Zakariya Allamurad o‘g‘li Bolatovdan 1960 yilda Nig‘mat Shanqarov tomonidan yozib olingan. Bu variant mazmuni V.V.Radlov tarafidan Sibir tatarlaridan yozib olingan namunaga yaqin keladi. Unda epik qahramonlarning otalarining ismi Ylarxan va Ylmasxan bo‘lib, ular yaqin do‘st ekanligi bayon qilanadi. Bir kuni ular ovga chiqqanlarida oldidan yaqinda tug‘adigan ona quyon chiqib qoladi. Ylarxan bilan Ylmasxan o‘zlarining ayollari ham homilador ekanligini o‘ylab, irim qilib ona quyonni otmaydilar. Oradan ko‘p o‘tmay, Ylarxanning o‘g‘li, Ylmasxanning esa qizi tug‘iladi. O‘g‘il bolaga Tahir, qizga esa Zəhra deb ism qo‘yadilar. Bolalar yosh paytida Ylarxan vafot etib ketadi.

Dostonning Zakariya Allamurad o‘g‘li variantida talqin qilinishicha, yetim qolgan Tahirga Zəhrani bermaslik uchun biror hiyla o‘ylab topish kerakligini bolalarning muallimi maslahat beradi. Dostonning boshqa milliy versiyalaridan farqli ravishda boshqird xalq ijodida qayd etilgan bu namunada qizini yetim bolaga berishni istamagan Ylmasxan o‘zi yasattirgan sandiqni avval qiziga ko‘rsatib, uning ichiga kirib yotib ko‘rishni taklif qiladi. Bu motiv dostonda shunday tasvirlangan: “Shunnan Ylməsxan yetem balaga, zathız keshegə, kızın birməs əsən, yakındarı menən ultırıp torıp xəylə kora bashlag‘an. Ulməsxan, zur g‘ına handık eshlətep, ike balanı la sakırıp kiltergən-də: – Ҡızım, kerep ҡara əle, hıyahın mikən? – tigən. Zəhrə, kerep ҡaraha, hıya ikən. Shunnan xan: – Ulım Tahir, hin də kerep ҡara inde, – ti ikən. Tahir handıkka kerhə, tegene sey tiregə tərəp, handıҡtı shap itterep yabıp ta ҡuyg‘andar, ti. Ul da bulmay, xandın kushıuı buyınsa, handıҡtı ag‘ıʒıp ta yebərgəndər”.173 Epik qahramonni oqizish uchun tayyorlangan sandiqni suvga tashlashdan avval Zuhra uning ichiga kirib ko‘rishi va bo‘yiga loppa-loyiq kelishi tasvirlangan lavha dostonning boshqa versiya va variantlarida mavjud emas. Bu variantda ham sandiqqa solib oqizilgan Tahirni olis yurtda daryo bo‘yida yashovchi bir tegirmonchi qutqarishi, u “tashqarisi katta qizimga, o‘rtasi o‘rtancha qizimga, ichidagisi kenja qizimga” deb sandiqni suvdan tortib olishi lavhasi qiziqarli tarzda tasvirlangan. Shunday qilib, Tahir tegirmonchining kichik qiziga uylanadi, ular baxtiyor turmush kechiradilar va hatto, bir qiz farzand ham ko‘rishadi. Dostonning boshqa turkiy versiyalaridan farqlanuvchi bu motiv, ya’ni sandiqda oqib borgan Tahirning o‘zga yurt qiziga uylanib, farzand ko‘rishi tasviri dostonning ommalashishi jarayonida an’anaviy epik syujetning buzilishi belgilaridan biri deb hisoblaymiz. Chunki an’anaga ko‘ra, Tohir begona yurtga borganida ham sevgisiga sodiq qolib, Zuhraning vasliga yetishish uchun o‘zining ona diyoriga qaytib kelishi epos mohiyatiga mos tushadi. Zakariya Allamurad o‘g‘li variantida bayon etilishicha, Tahir daryoga oqib ketgach, Zəhra bir karvonboshining huzuriga boradi. Karvonboshi: “Tahirni topsam ne deb aytay?” deb so‘raganida Zəhra: “Agar Tahirning o‘zini olib kelolmasangiz loaqal taxiyasi (do‘pi)ni olib qayting”, - deb javob beradi. Karvonboshi bobo olis mashaqqatlardan keyin Tahirni izlab topadi va uni Zəhra kutayotganligini aytgach, yigit xotini va qizchasini qoldirib, yo‘lga tushadi. Yo‘lda qirq qaroqchiga duch kelganda ham mardlik va topqirlik bilan omon qoladi. Tahir yurtiga qaytib kelib, Zəhraning oldiga borganida Ylmasxanning soqchilari uning boshini uzib tashlaydilar. Buni ko‘rgan Zəhra ham o‘z joniga qasd qiladi. Ushbu variantning tugallanmasi ham boshqa versiyalar bilan mushtarak jihatga ega bo‘lib, bu dunyoda qovusha olmagan oshiq-ma’shuqlar vafot etganlaridan keyin bir-birlarining diydoriga yetishganliklari aytiladi. Buning isboti tariqasida har yili yozda ularning mozoridan undan gullar chirmashib o‘sishiga ishora qilinadi. Bu variantning boshqird folkloridagi Tahir va Zəhra muhabbati haqida hikoya qiluvchi boshqa asarlardan yana bir farqli jihati matnning hajman g‘oyat qisqaligi va deyarli nasrdan iboratligidir. Dostonning boshqird folkloridagi uchinchi variantini esa Boshqirdistonning Ishimbay tumanidagi Etko‘l ovulida yashovchi 1892 yilda tug‘ilgan Sabiryan G‘aribullindan 1960 yilda Nig‘mat Shanqarov hamda Nur Zaripovlar yozib olishgan. Bu dostonlarni nashrga tayyorlagan N.T.Zaripovning bergan izohidan ma’lum bo‘lishicha, Fanlar akademiyasi Boshqirdiston filialining folklor arxivida Arxangel tumanidagi Abzan ovulida yashovchi Ulmasbikadan yozib olingan “Yanzəhra

menen Yantahir”, Ishimbay tumanidagi Eptek ovulida yashovchi Marg‘ufa Xalilovadan yozib olingan “Tahir menen Zөhra” dostonlari ham saqlanadi.174 Xulosa qilib aytganda, Tohir bilan Zuhraning otashin muhabbati haqidagi doston syujetining boshqird folklorida ommalashiga asos bo‘lgan manba asosan Sayyodiyning “Dostoni Boboxon” asari hisoblansada, Volga bo‘yida yashovchi boshqa turkiy xalqlar, jumladan, tatar xalq ijodidagi og‘zaki epik an’ananing ham ma’lum ta’siri bo‘lgan. Ammo “Tohir va Zuhra” dostoni boshqird epik an’anasida mukammal kitobiy epos darajasiga ko‘tarila olmagan va ertak shaklida ijro etib kelingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shalgumbayeva J. Istoriya kazaxskogo knigoizdaniya: folklor xudojestvennaya literatura i ix syenzura (XIX – nach. XX vv.): Avtoref. diss. kand. filol. nauk. - Almatы, 1994. – S.15.
2. Almыspayeva Q. “Qissa Tahir-Zuhra” // Babalar sөzi: juz tomdыq. T.19 (g‘ashыqtыk dastandar). – Astana: Foliant, 2005. – B.285.
3. Subxanberdin U. Tahir-Zuhra // G‘ashыqname (Shig‘ыs xikayalarыnыn jelisine qұrilg‘an qazaq dastandarы). – Almatы: Jazushы, 1979. – B.460.
4. Babalar sөzi: juz tomdыq. T.19. – B.162
5. “Tahir-Zuhra” // G‘ashыqname (Shig‘ыs xikayalarыnыn jelisine qұrilg‘an qazaq dastandarы). – Almatы: Jazushы, 1979. – B.177-253.
6. “Tahir-Zuhra” // G‘ashыqtыq dastandar. – Almatы: G‘ыlym, 1994. – B.179-261.
7. “Qissa Tahir-Zuhra” // Babalar sөzi: juz tomdыq. T.19 (g‘ashыqtыq dastandar). – Astana: Foliant, 2005. – B.162-256
8. Eshonqulov J. O‘zbek folklorida ta’birchi obrazi talqini // O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 4-kitob (folklorshunos olim Abiyr Musaqulov tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar to‘plami). – Toshkent: Fan, 2011. 150-b.

Ozodjon OCHILOV,
TDSHU Xitoy filologiyasi kafedrasi dotsenti, PhD

XITOYDA VATANPARVARLIK SHE’RIYAT MAKTABINING PAYDO BO‘LISHI VA UNING ASOSIY G‘OYAVIY YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada XIX asr Xitoy she’riyatidagi o‘zgarishlar, Vatanparvarlik she’riyat maktabining paydo bo‘lishi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Ching sulolasi davridagi ijtimoiy va siyosiy inqirozlar, mustamlakachilik bosqinlari, yangi poetik yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi, vatanparvarlik she’riyati, realizm va romantizmning adabiyotga ta’siri batafsil o‘rganiladi. Vatanparvarlik she’riyat maktabi shoirlarning yangilik yaratish harakatlari va she’riyatning jamiyatdagi roli yoritiladi.

Tayanch so‘z va iboralar: *Hu Shi, Xitoy yangi she’riyati, baihua she’riyati, adabiyot islohotlari, G‘arb va Sharq integratsiyasi, lingvistik va madaniy o‘zgarishlar, baihua adabiyotining rivoji, adabiy nazariya, XX asr Xitoy adabiyotshunoslari, adabiy tanqid.*

Аннотация: в данной статье анализируются изменения и развитие китайской поэзии XIX века. Исследуются социальные и политические кризисы периода династии Цин, колониальные нашествия, появление новых поэтических направлений, патриотическая поэзия, а также влияние реализма и романтизма на литературу. Рассматриваются усилия поэтов по созданию новаторских произведений и роль поэзии в обществе.

Ключевые слова: *китайская поэзия XIX века, династия Цин, патриотическая поэзия, реализм, романтизм, социальный кризис, поэтические направления, колониализм, литературные новации.*

Annotation: this article analyzes the changes and development of 19th-century Chinese poetry. It explores the social and political crises of the Ching dynasty period, colonial invasions, the emergence of new poetic movements, patriotic poetry, and the influence of realism and romanticism on literature. The efforts of poets to create innovative works and the role of poetry in society are examined.

Keywords: *19th-century Chinese poetry, Ching dynasty, patriotic poetry, realism, romanticism, social crisis, poetic movements, colonialism, literary innovations.*

Xitoy tarixida XIX asr o‘rtalaridan boshlab keskin o‘zgarishlar davri boshlandi. U an’anaviylik hamda zamonaviylik o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajargan eng muhim davrdir. Bir tomondan Daoguang zamonidan (1821-1850) boshlab mustamlakachilik bosqinlari va dehqonlar qo‘zg‘olonining doimiy bosimi ostida bir vaqtlar katta qudratga ega Ching sulolasi sekin-asta jamiyatda ortib borayotgan ijtimoiy tartibsizliklar ichida susayib, eskirib qolgan hukmronlik tizimi davom ettirib bo‘lmaydigan holatga kelib qoldi, oqibat tashqi kuchlar yordamida

mavjudligini saqlab qolishga kirishib ketgan bo‘lsa, boshqa tomondan esa, 1839-yil Xitoyda afyunga qarshi qaratilgan “Humen voqeasi” va birinchi bor Britaniyaga qarshi 1841-yil 29-mayda sanyuanli xalqi qo‘zg‘oloni xitoyliklarning imperializmga va feodal tuzumga qarshi yangi kurashning alanga olishiga sabab bo‘ldi. Bu ikki tarixiy harakat hukmron doiraning “abadiy imperiya” orzusiga qaqshatqich zarba berdi, yopiq eski davrni yakunlab, jamiyatda chuqur o‘zgarishlar yuzaga kelishi uchun zamin yaratdi.[2, 13-14]

Umuman olganda har bir davr unda yashayotgan odamlar zimmasiga ko‘plab umumiy vazifalar va masalalar yuklaydi, shu sababdan bo‘lsa kerak har bir davrning ijodkorlari orasida bir xillikka moyil tendensiyalar paydo bo‘ladi. Hegel falsafasiga ko‘ra, har bir irodali shaxs maqsadlariga intilish bilan band, lekin shu bilan bir vaqtda yanada ulkan maqsadlar uchun vosita vazifasini ham o‘tashadi. Ehtimol ular buyuk maqsadlar yo‘lidagi o‘zlarining qanday rol o‘ynayotganligini anglamasliklari mumkin, biroq bilmagan holda katta jarayonlarga o‘z hissalarini qo‘shib boradilar. Shuning uchun ma’lum bir davrga oid adabiyot qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, qanchalik turli-tuman bo‘lmasin g‘oya, mazmun va shakl jihatdan umumiy asoslarga ega bo‘ladi, bu esa o‘sha davr adabiyotining asosiy oqimini tashkil qiladi.[1,498] Aynan shu davrda va aynan shu asosga ko‘ra Gong Zizhen, Wei Yuan, Zhang Jiliang, Zhang Weiping kabi vatanparvar ziyolilar yangi uslublarni yaratishga intilish orqali Ching sulolasining o‘rtalaridan boshlab she’riyat sahnasida hukmron mavqeyi yanada mustahkamlashgan an’anaviy qoidalarga dadil qarshi borishdi, vatanparvarlik hissiga to‘lgan she’rlar yoza boshlashdi, bu esa keyingi xitoy she’riyatiga uzoq va katta ta’sir ko‘rsatgan vatanparvarlik she’riy maktabining paydo bo‘lishiga imkon yaratdi.

Mazkur she’riyat maktabi vatanparvarlik ruhi hamda g‘oyaviy erkinlik targ‘ibotini olib borish bilan birga feodal mafkura ta’sirida qolgan she’riyatni tanqid qilish yo‘lidan bordi. Ular an’anaviy she’rlardan butunlay farqli pozitsiyani namoyish etishdi, she’riyat birinchi navbatda mantiqqa emas, his-tuyg‘ularga asoslanishi, haqiqiy insoniy hissiyotlarni namoyish etishi kerakligini ta’kidlashdi. Maktab vakillari tashqi tahdidlarga qarshi turish, vatan xavfsizligini ta’minlash, darz ketgan siyosiy mafkurani fosh etish, yangicha bilimlarni targ‘ib qilish, ma’rifatparvarlikni rag‘batlantirish, shaxsiy erkinlikka undash kabi mavzularni o‘z ichiga olgan she’riyatni targ‘ib qilishdi, bu esa ushbu maktab she’riyatini nafaqat keskin va chuqur ijtimoiy tanqidiy fikrlarga ega qilishi bilan birga o‘zida inson erki uchun kurashda umum ong va davr ruhining aks etishiga olib keldi. Shu bilan birga maktab she’riyatning til shakli va uslubiy yangilanishlariga ham e’tibor qaratganligi seziladi. Bu esa Vatanparvarlik she’riyati maktabi xitoy zamonaviy she’riyatining transformatsiyasida muhim boshlang‘ich nuqta vazifasini o‘tab berganligiga aniq ishora qiladi.

Ming va Ching davrlaridagi siyosiy-mafkuraviy jarayonlarda asosiy kurash neokonfutsizm targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi va unga qarshi turuvchi guruhlar o‘rtasida kechdi, bu kurash ayniqsa she’riyat sohasida kuchli tarzda aks etdi. Ming davrining oxirgi yillarida “Yetti shoir” (七子) deb ataluvchi shoirlar guruhidan Ching sulolasida ijod qilgan Wang Shizhen, Shen Dechian, Weng Fanggang kabi adiblargacha o‘z davrlaridagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarga javoban neokonfutsiychilik ta’limoti g‘oyalari asosida adabiyotda yangi yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun kuchli harakat qilishdi. Ular ilgari surgan poetik nazariyaga ko‘ra she’riyat avvalambor qadimgi donishmandlarning axloq prinsiplari, osmonga, ya’ni xudolarga hurmat ko‘rsatish, konfutsiychilik ta’limoti targ‘ibotidan iborat bo‘lishi kerak edi. “She’riyat tariqat sifatida ta’limotlar orqali his-tuyg‘ularni tartibga solish, yaxshilik qilishga undash, tabiat bilan uyg‘unlashish, ruhlarni his qilish, ta’lim, davlat boshqaruvi, hukmdor bilan muloqot qilish uchun muhim”[3, 48], deb sanaldi. Biroq, dastlab Gong’an va Jingling guruhi shoirlari, keyinchalik Yuan Mei boshchiligidagi “Tabiat va ruhiyat” (性灵派) oqimi vakillari adabiyotda, xususan she’riyatda ratsionalistik g‘oyalarga qarshi chiqib, adabiyotga inson ichki dunyosi, shaxsiy his-tuyg‘ulari va ijodiy ruhini ifoda etish vositasi sifatida qarashdi. Ular adabiyotda formalizm va an’anaviy mavzulardan ko‘ra, shoir yoki yozuvchining shaxsiy tajribasi va tabiatidagi go‘zallikni samimiy tasvirlashga ko‘proq e’tibor berishdi. Shu sababdan ham Ming va Ching davrlarida ta’limotlarga asoslangan ratsional yoki ruhiyat va inson tabiatiga asoslangan tuyg‘ular she’riyati ijod salmog‘ini o‘lchovchi asosiy mezon bo‘lib keldi. XIX asr o‘rtalaridan rivojlana boshlagan Vatanparvarlik maktabi shoirlari aynan “Tabiat va ruhiyat” oqimi g‘oyalariga asoslangan holda she’riyat uchun his-tuyg‘ularning muhimligi va zaruriyatini ta’kidlashdi. Vatanparvarlik she’riyat maktabi bu oqim g‘oyalarini yanada kuchaytirishga, bir qadar yangilashga ham muvaffaq bo‘lganligi kuzatiladi. Masalan, “Tabiat va ruhiyat” oqimi she’riyati ko‘pincha shaxsiy hayot tajribasi va mansabda yuksalish yoki pasayish hissiyotlarini kuylash bilan cheklangan bo‘lsa, vatanparvarlik maktabi jamiyatdagi haqiqiy hayot tajribasiga va zamonaviy o‘zgarishlarga bo‘lgan his-tuyg‘ularni ifodalashni birlamchi maqsadga aylantirganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu o‘z o‘rnida ularni she’riyat nazariyasini yangilashga undadi, shu tariqa his-tuyg‘u va zamonaviy dunyoda kechayotgan keng ko‘lamli ishlarni muhokama qilishni birlashtirgan

yangi avlodning yorqin tarixiy ongi va davr ruhini aks ettiruvchi yo‘lga qadam qo‘yishdi hamda amaldagi an’anaviy she’riyat nazariyasi tomonidan o‘rnatilgan chegaralar sekin-astalik bilan yorib o‘tila boshlandi.

Vatanparvarlik maktabi she’riyati o‘zini asosan ikki yo‘nalishda namoyon qildi: bir tomondan, Xitoyga qarshi agressiv hujumlarni amalga oshirgan bosqinchilarning shavqatsiz harakatlariga nisbatan g‘azab, xitoy xalqining chet el bosqinchilariga qarshilik ko‘rsatish harakatlarini qo‘llab quvvatlash, imperiyaning chirkin hukmronligi va ta’magir amaldorlarning xatti-harakatlarini beayov fosh etish, mehnatkash xalqning achinarli hayotiga hamdardlik bildirish; ikkinchi tomondan, shaxs erkinligiga intilish, o‘z-o‘zini anglashni namoyon etish, xorijning ilg‘or madaniyatini tanishtirish va unga faol intilish, kelajak uchun ideal lohiyalarni tasvirlash kabi mavzularni qamrab oldi. Vatanparvarlik she’riyatining mazkur ikki yo‘nalishi shubhasiz o‘sha davrda yuz berayotgan vatanparvar fuqarolarning imperializmga qarshi bosh ko‘tara boshlaganligi va milliy uyg‘onish zaruriyatining paydo bo‘lishi kabi bosh voqealar bilan hamohang edi, bu esa shubhasiz maktabning yirik jarayonlarda katta ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Xitoy she’riyatining rivojlanish tarixiga nazar solsak, qadim zamonlardan, xususan, “Nazmnoma” (诗经, mil.avv. XI-VI asrlar) dan boshlab agressiyaga qarshi kurashish mazmunidagi she’r va qo‘shiqlar paydo bo‘lgani va keyichalik bu yo‘nalish biroz taraqqiy etganligini ko‘ramiz. Biroq bunday mazmundagi she’riyat avvalgi davrlarda faqat bir nechta shoirlarning kam sonli asarlarida tarqoq holda namoyon bo‘ldi va hech qachon alohida katta she’riy ijod oqimi sifatida shakllanmadi. Bu jarayonni Afyun urushlari davriga qadar davom etdi deb bemalol aytish mumkin. Chunki aynan shu davrga kelib Xitoy ko‘p asrlik tarixidagi o‘ta yirik qaqshatqich tashqi agressiyaga duch keldi. Bu voqealar Vatanparvarlik she’riyati maktabining butunlay yangi yo‘nalishlarda harakatlanishga undadi. Gorizontal jihatdan qaraganda maktab vakillarining ijodi afyunning keng tarqalishi, Humen’da afyunning yo‘q qilinish voqeasi, urushning boshlanishi va mag‘lubiyatgacha bo‘lgan jarayonlarni, shuningdek, davlat huqularini poymol qiluvchi turli xil shartnomalarning imzolanishini batafsil yoritdi. Vertikal jihatda qaraganda ular imperializmning ambesiyalariga qarshi ogohlantirishdan tortib, bosqinchilarga qarshi kurash, ularning shafqatsiz jinoyatlarini qoralash, hukumat vakillarining sotqinligi, mamlakatni sotishga bo‘lgan urinishlarni fosh qiluvchi jarayonlarni chuqur ifodalashga harakat qilishdi. Bunday tendensiya keyinchalik ayrim shoirlarning emas, balki butun bir maktab shoirlari ijodining asosga aylangani kuzatiladi.

Vatanparvar shoirlar o‘z ijodlari bilan Afyun urushlarining tarixini to‘liq va jonli tarzda yoritib berishdi. Bir davrda va bir mavzu orqali Xitoyda sodir bo‘lgan shunday katta voqea haqida yozilgan she’rlar ko‘lami va teranligi jihatdan xitoy she’riyat tarixida kuzatilmagan hodisa edi.[2, 74] Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, vatanparvarlik mavzusidagi she’riyat xitoy an’anaviy she’riyatining ham ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Biroq bunday she’rlar asosan vatan sog‘inchi, chegarachilar ruhini ko‘tarish yoki hukmdorga sadoqat kabi motivlar ustiga qurilgan. Yangi paydo bo‘lgan maktab she’riyati esa nafaqat tamagir amaldorlar ayovsiz fosh etilgan, balki feodal sulola hukmdorlari ham ularning tanqid nishoniga aylangan. Bundan tashqari ular bosqinchilarga qarshi kurashish va taslim bo‘lmaslikdan kelib chiqqan holda feodal davlat boshqaruvining chirkinligini fosh qilishga, feodal hukmron guruh hamda eng yuqori mansabdorlarning vatan va xalq manfaatlarini sotib yuborishga bo‘layotgan harakatlarini keskin qoralashga o‘tdilar, bu esa anti-agressiya va anti-feodal kayfiyatni o‘zaro birlashishiga olib keldi. Natijada shoirlar xalqning ongini bir qadar yangilashga, abadiy deb ta’kidlab kelingan imperiya va muqaddaslashtirilgan imperatorga nisbatan qarashlarni o‘zgartirishga, oddiy xalq doimiy ravisda manipulyatsiya qurboni bo‘lib kelganligiga ishontirishga qisman bo‘lsada muvaffaq bo‘lishdi. Bu shubhasiz xitoy adabiyoti tarixida ilk marta she’riyat va ulkan xalq manfaatlarining birlashuviga olib keldi.

Vatanparvar shoirlar o‘z she’rlarida millat taqdiri va kelajagiga qattiq qayg‘urishayotganini aniq aks ettira boshladilar. Ularning she’rlarida nafaqat millatning fojialariga va milliy inqirozga bo‘lgan tashvishlarini ifoda etdilar, balki undanda muhimroq jihati, ular bu kabi muammolarga qanday qilib yechim topish, xalqni uyg‘otish va shu orqali davlatni xavf-xatardan qutqarish haqida ham o‘ylay boshladilar. Ular o‘z fikr va hissiyotlarini turli usullar bilan ifoda etganligini kuzatish mumkin: Afyun urushi Xitoyga keltirgan chuqur falokatlarni, davlatning kelajagi va millatning taqdiriga bo‘lgan chuqur tashvishlarni ifoda etdilar, shu bilan birga, shoir shaxsiyati va matonatli ruhini ham she’rlari orqali namoyon qildilar; ba’zi shoirlar G‘arb davlatlarining ilg‘or texnologiyalari, siyosiy tuzilishi va madaniy yutuqlariga qiziqish bildirib, bu ma’lumotlarni she’rlar orqali tanishtirishga harakat qildilar, bu esa vatandoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, islohot va ochiqlik zarurligini tushunishga yordam berish maqsadida edi; faqatgina hozirgi voqealarni aks ettirish va zamonaviy muammolarni tanqid qilish bilan cheklanib qolmay, bu shoirlar kelajakka umid bilan qarab, o‘zlarining ideal jamiyat tasavvurlarini chizib, odamlarni bu maqsadlar uchun kurashishga ilhomlantirdilar. Vatanparvarlik she’riyati maktabi

vakillari nafaqat milliy inqirozga bo‘lgan chuqur tashvishlarini va shaxsiy achinish hissini ifoda etdilar, balki yangi ma’rifatparvarlik g‘oyasini, ya’ni G‘arbning ilg‘or fan va madaniyatini o‘rganish, ichki islohotlar va xalqning uyg‘onishi orqali Xitoyning zamonaviy yo‘lini topish zarurligini ham yetkazdilar. Bu fikrlar keyingi yuz yillikda Xitoyning zamonaviy jarayoniga chuqur ta’sir ko‘rsatmasdan qolmadi.

Vatanparvarlik she’riyati maktabi hech shubhasiz zamonaviy xitoy she’riyati asoslarini yaratishda va yo‘nalishlarini belgilab berishda muhim rol o‘ynadi. Lekin hammamizga ma’lumki, o‘sha davrda xitoy jamiyati ko‘p asrlardan buyon o‘zini dunyodan “yakkalagan”ligi sabab shoirlarning imperializm yoki feodalizm haqidagi tushunchalari birmuncha chegaralangan. Ularning she’rlari ko‘proq mushkul vaziyatda o‘zini himoya qilish instinktining ifodasi sifatida namoyon bo‘ldi. Maktab she’riyati garchi feodal, ya’ni eskicha fikrlash tarzidan qutulishga bo‘lgan dastlabki urinishlarni ko‘rsatgan bo‘lsa-da, hali ham uning ta’siridan to‘liq qutulmagan va yangilik sifatida ko‘rilayotgan G‘arbning ilm-fani va ma’rifatparvarlik g‘oyalari mohiyatini to‘liq o‘zlashtirib ulgurishmagan edi. Shu sababdan maktab she’riyati ham gorizontal ham vertikal jihatdan cheklandi va o‘z oldilariga qo‘ygan yuksak maqsadlariga qisman erishdilar xolos.

Ayni paytda vatanparvarlik maktabi she’riyatining tiliga nazar solsak, unda tabiiy rivojlanish, ifoda aniqligi, yangilik va samimiylikka intilish tendensiyasini ko‘rishimiz mumkin. Bu borada Gong Zizhen, Wei Yuan, Wang Dong kabi mutafakkir adiblarning qarashlari muhim rol o‘ynadi. Ular faqat an’anaviy qoidalar bilan yashab bo‘lmasligi, tilda yangilanish bo‘lmasa, u o‘lishi, til zamon taraqqiyotiga moslashib borishi zarurligi bo‘yicha o‘z g‘oyalarini ilgari surdi. Bu kabi urinishlar nafaqat o‘sha paytdagi xitoy she’riyat tilining rivojlanishi uchun asos vazifasini o‘tadi, eskirgan va qotib qolgan qarashlarni yumshatdi, balki she’riyat tilining keyingi taraqqiyoti uchun ham yo‘l ko‘rsatdi. Maktab tabiiy, jonli til uslubini targ‘ib qilish orqali she’riyat ifoda usullarining o‘zgarishini ham rag‘batlantirdi, uni hayotga yaqinlashtirdi, sof his-tuyg‘ularni yetkazishni osonlashtirdi va shu orqali kelajak she’riyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Vatanparvarlik maktabi shoirlari ijodini an’anaviy she’riyat bilan solishtirganda yana bir farqni ko‘rish mumkin: ularning she’riyatida yangi obrazlar va ifoda uslublari qo‘llanila boshlandi. An’anaviy she’riyatda, ayniqsa Tang va Song va undan keyingi davrlarda obrazlarni yaratish orqali maqsadni to‘liq ifoda etish konsepsiyasidan foydalanib kelingan. Misol uchun, bir shoir tabiat manzarasini tasvirlayotganda, faqat tashqi ko‘rinishlarni emas, balki shu manzara orqali o‘zining his-tuyg‘ulari, falsafiy fikrlari yoki ijtimoiy-siyosiy mulohazalarini ham ifoda etishi mumkin bo‘lib, bu ularning tabiat, tarix, yoki shaxsiy his-tuyg‘ulari orqali umumiy haqiqatlarni yetkazishga urinishni anglatadi. Bunda she’riy obrazlar, metaforalar aniq va an’anaviy ma’nolarni o‘z ichiga olgan, shu tufayli ko‘p hollarda she’riyat muayyan qat’iy qoliplarga rioya qilib kelgan. Biroq vatanparvarlik maktabining yondashuvi boshqacha bo‘ldi. Ular o‘zlarining she’rlarida yanada shaxsiy va abstrakt ifodalarni qidirishdi, bu esa o‘z navbatida ijod namunalarida yangi va yangilangan obrazlarning yaratilishiga olib keldi. Ular masalan, tabiat manzaralarini emas, balki milliy istiqlol, xalq erkinligi va adolat kabilarni asosiy mavzu sifatida tanlashni ma’qul ko‘rishdi. Bu yangi mavzular maktab she’riyatida yangi obrazlar va metaforalar yaratishni talab qildi, chunki an’anaviy she’riy obrazlar bu yangi mavzularni to‘liq ifoda etish uchun yetarli emas edi. Ular shuningdek, she’riyatda shaxsiy his-tuyg‘ular va fikrlarni erkinroq ifoda etishga ko‘proq e’tibor qaratishdi. An’anaviy estetik chegaralardan chetga chiqib, o‘zlarining ichki dunyosi, shaxsiy tuyg‘ulari va siyosiy qarashlarini tog‘ridan-to‘g‘ri va ochiqchasiga ifoda etishga harakat qilishdi. Bu esa, she’riyatda shakl va mazmunning yangi muvozanatini yaratishni talab qildi. Umuman olganda vatanparvar shoirlarning yondashuvi she’riyatda yangi estetik mezonlarni o‘rnatdi va xitoy she’riyatining rivojlanishida yangi bosqichni boshladi. Ular she’riyatni faqat go‘zallikni kuylash vositasi sifatida emas, balki shaxsiy va ijtimoiy ifodaning kuchli vositasi sifatida qabul qilishdi.

Shakl jihatdan Vatanparvar shoirlar she’riyatida ko‘plab o‘zgarishlar kuzatiladi. Masalan, vazn va qofiyaga haddan ortiq e’tibor qaratmaslik, she’r misralarining soni va ularning ixtiyoriy tartibi, she’r shakllarining erkin tanlanishi, o‘zgartirilishi va hokazolar. Bu o‘zgarishlar shakliy jihatdan xitoy she’riyatining an’anaviy qoidalariga zid bo‘lib, ikki ming yildan ortiq vaqt davomida ilk marta yuz berayotgan edi.

Afyun urushining oqibatlari, boshqa tomondan G‘arb madaniyatining faol ta’siri ostida xitoy madaniyati va qadriyatlari tubdan o‘zgarish jarayoniga kirishdi. O‘zgarishlar ayniqsa adabiyot, san’at, diniy qarashlar va ijtimoiy jarayonlarda yaqqol sezildi. Shu tariqa vatanparvar shoirlar o‘z ijodlari orqali an’anaviy qarashlar va qadriyatlardan uzoqlashish kayfiyatini ifodalshni boshladilar. Ular Xitoy kelajagini qayta baholash fonida mavjud ijtimoiy muammolarga yechim topishda an’anaviy ortodoksal qarashlarga qiyosan yangi, ba’zan tanqidiy yondashuvlarni qabul qila boshladi hamda G‘arbga nisbatan moyillik ortib bordi. Bu o‘zgarishlar Xitoyning kelajak yo‘lini qanday belgilash borasida muhim bahslarni keltirib chiqardi. Umuman olganda yuzaga kelgan yangicha falsafiy va estetik qarashlar

natijasida Kong Zezhen va Wei Yuan kabi mutaffakir adiblar boshchiligida boshqacha bir mohiyatga ega bo‘lgan “yangi” romantizm va “yangi” realizm uslubi paydo bo‘ldi.

Kong Zezhen tomonidan ilgari surilgan yangi romantizm uslubi o‘tmishdagi ichki erkinlikning yo‘qligi sabab obyektga haddan ortiq bog‘liqlikni namoyon qilgan ijodiy uslubdan qochadi. Bunday poetika o‘z davrining ma’naviy holati va zamonaviy tafakkurini aks ettirgan holda ijodkorning shaxsiy erkinligi va ichki dunyosini asos qilib oladi. Yangi romantizm aql-idrok va ma’rifatparvarlik oqimlari bilan uyg‘unlikda rivojlanib, o‘zining estetik ideallarini namoyish eta boshladi. Yangi realizm esa Wei Yuan qarashlari va ijodi asosida imperiyaning reaksion va chirkin yuzi ochilib qolishi, shuningdek, imperializmning kirib kelishi va misli ko‘rinmagan talon-tarojlarning boshlanish fonida rivojlandi. Bu davrda shoir va adiblar, jamiyatdagi tangliklarni fosh qilish bilan birga, armon, g‘azab va qayg‘u kabi kuchli hissiyotlarni o‘z ichiga olgan yangi realizm uslubini yaratishdi. Ular o‘z asarlarida asosiy e’tiborni jamiyatdagi adolatsizliklarni ko‘rsatib berishga intilishdi.

Mazkur realistik poetika shu davrda adabiyot sahnasida mavjud bo‘lgan har qanday retrospektiv (o‘tmishga qaytuvchi) va formalizm uslublariga qarshi kuch sifatida namoyon bo‘ldi. Bu yangi uslub an’anaviy klassik va garmonik estetik qadriyatlarga, jumladan, mehribonlik va saxovat ruhida yaratilgan she’riyat uslubiga qarshi chiqdi. Bu o‘zgarishlar o‘sha davr adabiyotining asosiy qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqishga va yangi ijodiy yo‘nalishlarni qabul qilishga undadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan bu ikki uslub bir-biridan farq qilsa-da, ularning ma’lum darajada umumiy jihatlari ham mavjud. Romantizm uslubidagi asarlarda ham, ularning chuqur ma’nolarida tanqidiy ruh yashirin. Ya’ni, romantik asarlar faqat go‘zallik va shaxsiy his-tuyg‘ular haqida emas, balki jamiyatdagi muammolarga munosabat va haqiqatni qidirish jarayonida yaratiladi. Bu asarlarda ham o‘ziga xos tarzda, jamiyatdagi nohaqliklarga va mavjud vaziyatdan norozilikka ishoralar qilinadi. Realizm uslubida esa, garchi asosiy e’tibor jamiyatdagi real voqealarni, muammolarni yoritishga qaratilgan bo‘lsa-da, shu bilan birga, shoir yoki adibning shaxsiy qarashlari, subyektiv baho berishlari ham muhim o‘rin tutadi. Ya’ni, realizm asarlari ham muallifning shaxsiy fikr va hissiyotlarini aks ettiradi.

Bu ikki uslubning hamohang tarzda rivojlanishi, an’anaviy Xitoy she’riyatining cheklovlarini yengib o‘tishga va zamonaviy she’riyatning yangi yo‘nalishlarini belgilashga yordam berdi. Romantizm va realizm, o‘zaro farqlanuvchi uslublar bo‘lishiga qaramay, xitoy adabiyotida yangi tafakkur va ifoda erkinligining rivojlanishiga turtki berdi. Bu o‘zgarishlar keyinchalik Yangilanish harakatiga va zamonaviy xitoy she’riyatining umumiy uslubiy yo‘nalishlariga asos soldi. Umumiy qilib aytganda, bu ikki uslub xitoy adabiyotida muhim o‘rin tutdi va ularning har biri o‘ziga xos yo‘l bilan jamiyat hamda inson tafakkurining rivojlanishiga hissa qo‘shdi. Bu uslublar, o‘z navbatida, keyingi avlod adiblari uchun yangi ifoda vositalari va adabiy yo‘nalishlar yaratishda ilhom manbai bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr Xitoy she’riyati jamiyatdagi keskinlik, tashqi tahdidlar va ichki inqirozlar natijasida jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Shoirlar va adiblar yangi uslublar yaratish orqali adabiyotni rivojlantirishga hissa qo‘shdilar. Vatanparvarlik she’riyati va yangi poetik yo‘nalishlar xitoy she’riyatining zamonaviy yo‘nalishlarini belgilashda muhim rol o‘ynadi. Shu bilan birga, she’riyat jamiyatdagi muammolarni aks ettirish va ularga yechim topishga qaratilgan kuchli vositaga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г.В.Ф.Гегель: Лекции по истории философии. Наука, 2000.- 480 с.
2. 李金涛：艰难的突围；中国近代诗歌转型论. –北京: 中国文联出版社，2002，第13页.
3. 沈德潜:《说诗晬语》，何文焕辑《历代诗话选》，中华书局，1980年版.
4. 梁启超：《饮冰室合集•第五册•文集之四十五（下）•诗》，北京•中华书局，1988 年版第 1 版
5. 钱理群、 温儒敏 、 吴福辉:《中国现代文学三十年 》，北京大学 出版社，1998 年
6. 黄遵宪：《人境庐诗草•自序》，《人境庐诗草笺注》，钱仲联笺注，上海•上海古籍出版社，1981 年 6 月第 1 版

Akbarjon HASANOV,
f.f.n., dotsent
Qo‘qonDPI

IRONIYANING PRAGMALINGVISTIK VA LINGVOPOETIK TAHLILI

Annotatsiya: maqolada ironiya vositasining badiiy asar tili, uning estetik qimmatini oshirishdagi ahamiyati xususida izlanishlar olib borilgan. Ironiyaning mohiyatiga pragmalingvistik nuqtayi nazardan yondashilgan bo‘lib, uning asar badiiyatini ta’minlashdagi o‘rni Abdulla Qahhor hikoyalari misolida tadqiq etilgan.

Tayanch so‘zlar: *ironiya, kinoya, pragmalingvistika, lingvopoetika, badiiy asar tili, tanqidiy kulgi, til birliklari, uslubiy vositalar.*

Аннотация: в статье проведено исследование значения средства иронии в языке художественного произведения, повышения его эстетической ценности. С прагмалингвистической точки зрения рассматривается сущность иронии, исследуется ее роль в обеспечении художественности произведения на примере рассказов Абдуллы Каххора.

Ключевые слова: *ирония, сарказм, прагмалингвистика, лингвопоэтика, язык художественного произведения, критический юмор, языковые единицы, методический инструментарий.*

Annotation: in the article, research was conducted on the importance of the irony tool in the language of the artistic work, increasing its aesthetic value. The essence of irony is approached from a pragmalinguistic point of view, and its role in ensuring the artistry of the work is studied on the example of Abdulla Qahhor's stories.

Key words: *irony, sarcasm, pragmalinguistics, linguopoetics, language of artistic work, critical humor, language units, methodological tools.*

Yevropa adabiyotshunosligida «ironiya» termini ostida umumlashtiriluvchi kinoya vositasi shakl va mazmun zidligiga asoslangan, zamirida tanqidiy kulgi yotuvchi, so‘zlovchining salbiy munosabatini piching, qochirim, kesatiq yo‘li bilan ifodalovchi uslubiy vositadir. Uning lingvistik hamda stilistik belgilari o‘zbek tilshunosligida ham tadqiqot obyekti bo‘lgan.

So‘nggi yillardagi lingvopoetik tadqiqotlarda muayyan yozuvchi ijodida qo‘llangan kinoya vositasini tadqiq qilishga e’tibor qaratildi. Chunki kinoya badiiy asar tilida fikrning o‘ta ta’sirchanligini ifoda etuvchi uslubiy vosita sifatida muhim ahamiyatga molik. “Bu subyektiv baho ifodalashning asosiy negizi bo‘lib, muallif fikrining badiiy shaklidi[2].

Kinoya vositasining badiiy asar tili, uning estetik qimmatini oshirishdagi ahamiyati xususida hali atroflicha izlanishlar olib borish mumkin. Ayniqsa, uning mohiyatiga pragmalingvistik nuqtai nazardan yondashib, asar badiiyatini ta’minlashdagi o‘rnini muayyan yozuvchi asarlari misolida tadqiq qilish o‘zining dolzarblik darajasini saqlab turibdiki, bu tanlangan mavzuning nechog‘lik ahamiyatli ekanligini belgilaydi.

Pragmatika til birliklaridan foydalanuvchi shaxs yoki so‘zlovchining til belgilariga munosabatini o‘rganuvchi tilshunoslik aspektlaridan biri hisoblanar ekan, biz A.Qahhor hikoyalarida qo‘llangan kinoya vositalarini lingvistik pragmatikaning implikativ mazmun turlaridan biri bo‘lgan tagma’no ko‘rinishlaridan biri sifatida talqin etamiz. Chunki «kinoya va uning ko‘rinishlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib uni pragmatika sohasi bilan bog‘lamay turib, undagi yashirin mazmun ko‘rinishlarini aniqlamay turib, u haqida fikr yuritib bo‘lmaydi» .

Fotimaning achchig‘i keldi: − Orqaga qaytish bo‘lsa nima, ***nurli cho‘qqidan tushib qolasanmi?*** («Nurli cho‘qqilar»)

Badiiy matnda o‘rni bilan qo‘llangan kinoya vositasi personajning xulq-atvorini xarakterlab, baholash vazifasini bajarishi mumkin. Jumladan, yuqoridagi leksik qurshovda buning tasdig‘ini ko‘rish mumkin. Berilgan kinoya vositasi situativ xarakterga ega. Shuning uchun bunda so‘zlovchining ichki maqsadi aniq sezilib turadi. Chunki kinoya vositasining ishora qilish vazifasi subyektning ichki maqsadini yuzaga chiqarishda aktual vazifa bajargan. Hikoya personaji Fotima kinoya orqali Zuhraning bir vaqtlar ota-onasiga yozgan xatida «kelajakning nurli cho‘qqilari tomon bormoqdamiz» deganiga ishora qilib, u intilgan cho‘qqi faqat xudbinlik, manmanlik, kaltabinlik botqog‘i ustiga qurilgan cho‘qqi ekanligini kesatadi. Yozuvchi yuqoridagi situativ xarakterga ega bo‘lgan kinoyani dialogik nutqda qo‘llab, personajlar nutqiga jonlilik, tabiiylik bag‘ishlaydi. Buning pirovardida asar badiiyatiga xalqchillik ruhini olib kiradi.

Badiiy matnda kinoya vositasining ifodalanish jihatidan murakkab turi ham mavjudki, u assotsiativ ironiya deb ham ataladi. Bunda salbiy shaxsiy munosabat asta-sekinlik bilan yuzaga chiqib, so‘zlovchi ideolektiga xos illokutiv maqsad sekin-asta, darajalangan holda yuzaga chiqadi [6,37]. A.Qahhorning «Mayiz yemagan xotin» hikoyasida uning eng yaxshi namunalarini uchratish mumkin. Hikoyaning nomlanishidayoq yozuvchi assotsiativ kinoyadan foydalanganligini ko‘ramiz. Biblionim sifatida keltirilgan bu kinoya orqali hikoya personajlari mulla Norqo‘zi va uning xotini ma’naviy qiyofasiga ishora qilinadi. Unda ifodalangan yashirin mazmun asta-sekinlik bilan dara-

jama-daraja ochib borilgan. Masalan, hikoyada mulla Norqo‘zining xotiniga nisbatan «yetti qavat parda ichida o‘tiradigan», «farishta», «diyonatli», «pokdomon», «shariatni mahkam ushlagan» kabi kinoya vositalarining qo‘llanilishi progressiv holda amalga oshirilgan. Hikoya so‘ngida ayolning barcha sirlarining fosh bo‘lishi natijasida unga berilgan ijobiy sifatlarning teskari ma’noda kinoya usuli bilan qo‘llanganligi ma’lum bo‘ladi va kitobxonning ong sezimlarida bu holat regressiv harakat qila boshlaydi. Bunda kitobxon ko‘z o‘ngida haqiqiy ma’naviy buzuq, tuban ayol qiyofasi reallashadi.

Yozuvchi satirik-yumoristik xarakterdagi hikoyalarida ko‘proq kinoyaning assotsiativ usulidan keng foydalanganki, bu yozuvchi mahoratining muhim belgisidir. Ayniqsa, yozuvchining bunday hikoyalarida personajlarning xarakteri, tashqi qiyofasi kinoya vositasida nihoyatda original tasvirlangan:

Qani biron xolis odam bo‘lsa aytsin: butun O‘zbekistonni qidirganda Nurmatjonga o‘xshagan yigitdan bironta topilarmikan? Bo‘lgan taqdirda ham u, yoshligida oynaga qarab, Nurmatjonday «Men qanaqa xotin olar ekanman» degan emasdir.

Ba’zi odamlar – hazilmi, chinmi – har xil gaplar tarqatishadi: yozda uning ketidan pashsha ergashib yurar emish. Yolg‘on! Nima qiladi ergashib? Labining ikki burchi hamisha oqarib turadi deyishadi. Bu ham… qusur emas, balki fazilat – ma’sumlik nishonasi…

Hammadan ham uning qomatini ayting: afsuski, ming afsuski, qo‘li ikkita-da, yo‘qsa eng chiroyli nasha chilimga o‘xshar edi. («Qizlar»)

Yozuvchining hikoya ekspozitsiyasidayoq kinoya usulidan foydalanishi uning satirik asar yaratishdagi mahoratining bir qirrasi sifatida namoyon bo‘ladi. Kinoya murakkab mazmun ko‘rinishlaridan biri bo‘lgani uchun, ular sintaktik birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Chunki nutqning ta’sirchanligi, obrazliligi, tasviriyligi, emotsional-ekspressivligini yuzaga keltirishda sintaktik usul alohida ahamiyat kasb etadi . Jumladan, yuqoridagi mikrokontekst kinoya harakterida qo‘llangan bo‘lib, keng ijtimoiy qamrovga ega. Bunda yozuvchi eskilik sarqiti bilan miyasi g‘ovlagan, turmushdagi yangiliklarni hazm qilolmagan, qo‘lidan biror ish kelsa-da, jamiyatga foyda keltirishdan o‘zini tiyib, boshqalar hisobiga kun ko‘rishni ep biladigan shaxs timsolini komik planda tasvirlashni bosh maqsad qilib oladi. Buning pirovardida uning xarakter chizgilarini, tashqi ko‘rinishini obrazli tasvirlashda mikromatn ko‘rinishidagi kinoyadan unumli foydalanadi.

Kinoyaviy tagma’noning yana bir ko‘rinishi qochirim bo‘lib, unda ramzli gap ifodalanadi. A.Qahhorning kinoya vositasi asosiga qurilgan «Mayiz yemagan xotin» hikoyasida uning o‘ziga xos betakror namunalarini uchratish mumkin: Gapni ko‘ring-a, aytgani kishining yuzi chidamaydi: begona erkakning qo‘li oq sochni qoraytirar emish. …Qurib ketkurlar, biram sharmandaki… Badaningda naming borida besh-oltita erkakni ko‘rmasang, umr bo‘ladimi, bu umr deydi-ya! («Mayiz yemagan xotin»)

Hikoyadagi «ochiq» ayollarning buzuqligidan dalolat qiluvchi mulla Norqo‘zining xotini ham bu borada eridan qolishmaydi. Yozuvchi har ikki personajni hikoya fonida kinoya orqali komik planda tasvirlab boradi. Ular nutqida qo‘llangan qochirimlar ham aslida ularning xarakter-xususiyatiga ishora qilib turadi. Bir tomondan, ular nutqida qo‘llangan qochirimlar qoliplash vazifasini o‘tagan. Chunki mulla Norqo‘zining xotini bu orqali o‘zining «pokdomon»ligini isbotlamoqchi buladi go‘yo. Lekin bu kitobxonnning ong osti sezimlarini harakatga keltirib, personaj ustidan satirik kulgi qo‘zg‘atadi.

Yuqoridagi misolda yozuvchining qochirimlardan individual foydalanish mahorati ularni evfemik tarzda qo‘llaganligida ham ko‘rinadi. Yozuvchi aytilishi qo‘pol, uyat so‘z va birikmalarni evfemik tarzda qochirim ostiga birlashtirib, jumlaning ta’sirchanligini oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975;
2. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. – Toshkent: Fan, 1983;
3. Karimov S.A. Ko‘rsatilgan doktorlik dissertatsiyasi. 207-211-b;
4.Tohirov Z.T. O‘zbek tilida pragmatik semalarning hosil bo‘lishi va ularda sub’yektiv munosabatning yuzaga chiqishi: Filol.fan.nom… diss. avtoref. – Toshkent, 1994. 13-b;
5. Abdurahmonov Sh. O‘zbek badiiy nutqida kulgi qo‘zg‘atuvchi lisoniy vositalar: Filol.fan.nom… diss. – Toshkent, 1997. 65-104-betlar;
6. Ibragimova E. O‘zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari: Filol.fan.nom… diss. – Farg‘ona, 2001. 120 b; Sheraliyeva M. 80-yillar o‘zbek nasridagi kinoya xususida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2002. – №1. 40-42-betlar.
7. Normurodov R. Ko‘rsatilgan nomzodlik dissertatsiyasi. 79-85-betlar; Djalolova L. Ko‘rsatilgan nomzodlik dissertatsiyasi. 99-101-b.
8. Qosimova M Ko‘rsatilgan nomzodlik dissertatsiyasi. 103-107-betlar.

Nurislom XURSANOV
PhD, dotsent.
Renessans ta'lim universiteti,
E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com

DRAMATIK DISKURSNING KOGNITIV MAYDONI

Annotatsiya: kognitiv-kommunikativ yondashuv doirasida "dramatik matn" va "dramatik diskurs" tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar ko'p bora tilgan olingan bo'lib mazkur o'zaro bir biriga bog'liqlik faqat sahnada, personajlari kommunikativ vaziyatida yuzaga kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazaridan faqat muallif va o'quvchi/tomoshabin o'rtasidagi muloqot asosida yuzaga keladigan nutq tadqiqi etilishi va bu o'z navbatida nutqning kognitiv maydoni shakllantiradi va quyidagi ko'rinishda na'moyon bo'lishi mumkin: o'quvchi/tomoshabin – muallif. Mazkur maqol dramatik diskursning kognitiv maydoni, nutq nazariyasi hamda dramatik asarlar tahlilining nazariy jihatlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *dramatik matn, kognitiv maydon, muloqot, kommunikativ munosabat.*

Аннотация: в рамках когнитивно-коммуникативного подхода уже давно рассматривается соотношение понятий «драматургический текст» и «драматический дискурс». С этой точки зрения исследование дискурса происходит только на основе диалога автора и читателя/зрителя, а это в свою очередь формирует когнитивное поле дискурса и может проявляться в следующей форме: читатель /зритель - автор. Целью данной статьи является раскрытие когнитивного поля драматического дискурса, теории речи, теоретических аспектов анализа драматических произведений.

Ключевые слова: *драматический текст, когнитивное поле, общение, коммуникативная установка.*


Annotation: within the framework of the cognitive-communicative approach, the relationship between the concepts of "dramatic text" and "dramatic discourse" has long been considered. From this point of view, the study of discourse occurs only on the basis of a dialogue between the author and the reader/viewer, and this in turn forms the cognitive field of discourse and can manifest itself in the following form: reader/viewer - author. The purpose of this article is to reveal the cognitive field of dramatic discourse, speech theory, and theoretical aspects of the analysis of dramatic works.

Key words: *dramatic text, cognitive field, communication, communicative attitude.*

Antroposentrik paradigmada inson omili muhim ahamiyat kasb etadi. Inson kognitiv faoliyati va unga qiziqishning ortishi fanda o'ziga xos yondashuvlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. An'anaviy tilshunoslik til tizimini boshqa hodisalarga (masalan, psixika, tafakkur, miya, inson anatomiyasi va fiziologiyasi, jamiyat, madaniyat va boshqalar) murojaat qilmasdan, o'z ichida tasvirlash va tushuntirish mumkin degan g'oyaga asoslanadi. Ushbu nazariyalar tarafdorlari odatda tildan tashqaridagi hodisalarga tayanadigan lingvistik faktlarning har qanday izohini "til bo'lmagan" deb tavsiflaydilar.

Hozirgi sharoitda kognitiv tilshunoslik funksional lingvistikaning bir bo'limidir, u lingvistik shakl tilning funksiyalaridan kelib chiqadi, deb hisoblanadi [1, 151-152]. Shu bilan birga, funksionalizmning turli yo'nalishlari turli xil funksiyalarga qaratilgan - masalan, semantik rollar, matn uyg'unligi, kommunikativ munosabatlar va boshqalar.

Konsepsiyani ifodalovchi leksik-semantik sohalarni o'rganishda qo'llaniladigan kognitiv tahlil badiiy matn tahliliga ham tegishli, chunki semantik makonning tarkibiy qismlarini, shuningdek, ma'lum bir matn uchun zarur bo'lgan kognitiv-taklif tuzilmalarini umumlashtirish, matn tadqiqotchisiga konseptuallashtirilgan matn sohalarini tavsiflash va ular uchun asosiy tushunchalarni aniqlash imkonini beradi. A.P.Babushkin, Z.D.Popova va I.A.Sternindan kognitiv tuzilmalarni quyidagicha ajratadi:



Kognitiv tuzilmalar ajratilish tartibi (I.A.Sternin) [2, 229]

Shaxsning ichki dunyosining konseptual sohasiga nisbatan ko‘rinishning leksik-semantik maydoni konsepsiya tasviri bilan bog‘lanishi mumkin. Insonning ichki dunyosining konseptual sohasida muhim o‘rinni matnda ma’lum bir tarzda amalga oshiriladigan hissiy soha tushunchalari egallaydi. Badiiy matn tuzilishidagi hissiyotlarning vazifasi va o‘rni muammosi alohida ahamiyatga ega.

Qahramonning his-tuyg‘ulari matndagi o‘ziga xos dinamik to‘plamni ifodalaydi, syujet rivojlanishi bilan o‘zgarib turadi, adabiy qahramonning ichki dunyosini turli sharoitlarda, boshqa personajlar bilan munosabatlarda aks ettiradi.

Dramatik diskursda kognititv maydon dastavval hissiy-emotsional holat, hamda kognitivlik kombinatsiyasi muayyan kartinka orqali namoyon qilinmaydi. Adabiy janrlarning boshqa turlarida muammo izchillika konflikt , kulminatsiya, yechim singari sujet elementlari doirasida harakat qiladi. Dramatik diskursda esa bu asarning rollarning taqsimlanishi va shunga muvofiq harakat asnosida hissiy emotsional holat aktuallashadi. Masalan “Kelinlar qo‘zg‘oloni” dramasida asosiy hissiy emotsional holat drama mavzusiga muvofiq isyon bilan bog‘liq [3, 26]. Bunda aynan shu hissiy emotsional holatga sabab bo‘luvchi muammo yetkachi o‘ringa chiqadi. Dramaning turli qismlarida bu qahramonlar nutqi orqali ifodalanadi. Nasriy asarlarda esa tasvir, ta’rif orqali(konsept-kartinka) bu holat oydinlashadi. Masalan, quyidagi o‘rinlarda isyon hissiy-emotsional holatining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan muammolar tasviri mavjud:

1- Tasvir. *F a r m o n. Xo‘sh, menga ayt-chi, senga ona kerakmi, xotin kerakmi?*

T o‘ x t a (o‘ylab qoladi. Komil unga ikkita barmog‘ini ko‘rsatadi). Ikkovingiz ham keraksiz.

F a r m o n. Senga oq sut bergan onangdan xotin aziz bo‘pti-da. Yo‘q, bunaqasi ketmaydi. Xotiningni hozir oyisinikiga eltib qo‘yasan.

2-tasvir. *F a r m o n. Yap-yangi mashinada-ya? Esing bormi? Oqtoshning o‘nqir-cho‘nqir yo‘llarida mashina rasvo bo‘ladi. Har biri sakson so‘mli g‘ildirak yedirilib adoyi-tamom bo‘ladi-ku.*

O‘ r i n b o y. Choydan ber. Hukumatniki yedirilmaydimi?

F a r m o n. Hukumatnikini joni qattiq. Yubormaysanmi? Otaginang shundoq Azim sher bo‘lib bir gapimni ikki qilgan emas

3-tasvir. *F a r m o n. Voy sharmanda. Voy beyuz. Bu qanaqasi? (O‘g‘illariga.) Qochlaring. Indamay qarab turgani uyalmaysanmi? (O‘zi ham yuzini to‘sadi.) Kir uyga, kir deyapman! F a r m o n (To‘xtaga). Ermisan, nimasan? Xotining akalaring oldida yalang‘och yursa hameting jimirlamaydi-ya. Aslida sen o‘zingni xudo urgan. Opkir uyga. Etagi uzunroq ko‘ylak kiydir. Ko‘kragi o‘lgurga ham bir nima yopib qo‘y. [*4]

Dramaning birinchi pardasida isyon hissiy kognitiv holatining aktuallashishiga sabab bo‘luvchi tasvirlar ikkinchi pardada ham davom etadi. 1-tasvir, holatdan norozilik, 2-tasvir xasislik, 3-tasvir g‘azab. Nasriy janrlarda tasvir muallif tomonidan hissiy holatlarning so‘z orqali tasvirlanishi, qahramonning tashqi qiyofasidagi ifoda orqali ham ifodalanadi. Dramalarda esa to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, aktuallashgan hissiy-emotsional holat tasviri konsept-ssenariy vositasida tasvirlanadi. Ssenariy faktor freymidan vaqt o‘lchami orqali farq qiladi. Ssenariy o‘zida voqealarning syujetli rivojlanishi haqidagi bilimlarni jamlaydi va bu esa kishiga kundalik hayotiy hodisalarga diqqat qaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабушкин, А. П. Когнитивная лингвистика и семасиология: монография / А. П. Бабушкин, И. А. Стернин. – Воронезҳ : Ритм. 2018. – С. 229

2. Demyankov V.Z. Dominating theories and minority theories in linguistics by the end of 20th century // Лингвистика на исходе XX века: Итоги и перспективы: Тезисы международной конференции. М.: Московский гос. университет им. М.В.Ломоносова, филологический факультет, 1995. Т.1. – С. 151–152.

3. Khursanov N.I. The Ratio of Verbal and Non-verbal Components in Dramatic Discourse (on the Example of Works in Uzbek and English). Abstract of Dissertation for PhD. Andijan State University. Andijan. 2022:26.

4. Said Ahmad. Kelinlar qo‘zg‘oloni. Dramatik komediya. www.ziyonet.com

Dildor BAZAROVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti;
Jaxongir QURBONOV,
Qarshi davlat universiteti talabasi

O‘TKIR HOSHIMOVNING MAQOLLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqola O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”asarida maqollardan foydalanish mahoratiga bag‘ishlangan.
Kalit so‘zlar: *maqol, mahorat, janr, badiiy asar tili, nutq.*
Аннотация: в данной статье освещается мастерство использования пословиц в произведение “Меж двух дверей” Уткира Хашимова.
Ключевые слова: *пословицы, мастерство, жанр, язык художественного произведения, речь.*
Annotation: this article highlights the skill of using proverbs in the work “Between Two Doors” by Utkir Khashimov.
Key words: *proverb, skill, genre, the language of the work of art, speech.*

Maqol – so‘z ko‘rki, deydi dono xalqimiz. Maqol so‘zi xalq orasida hikmatlar deb ham yuritiladi. “Hikmat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi – donolik bilan aytilgan teran ma’noli gap deganidir. [1.7] Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janri hisoblangan ushbu janr maqol, matal, naql, masal, hikmatli so‘z va ibora, aforizm, donolar so‘zi, otalar so‘zi kabi so‘z va iboralar bilan aytiladi. Ana shu tushunchalar orasida maqol so‘zi nutqimizda faol qo‘llanadi.

O‘tkir Hoshimov nasri o‘zining xalqchilligi, soddaligi, samimiyati, betakror jozibasi bilan qalblarni maftun etib kelmoqda. Yozuvchi inson qalbidagi nozik tuyg‘ularini his qila olgan san’atkordir. Ana shu xislati bilan xalqimizning qalbidan mustahkam o‘rin oldi. Har bir yaratgan asarida xalq tilidan o‘rinli, mohirona, foydalandiki, buning isbotini birgina xalq maqollarini qo‘llash mahorati orqali his etishimiz mumkin.

“Ko‘rib turibsiz, Oqsoqol. Zamon shunaqa: oltin kumush kul bo‘lgan, arpa-bug‘doy pul bo‘lgan” [2.49].

Mazkur maqoldan zamonning og‘ir holati, ocharchilik, qiyinchiliklarni ifodalash maqsadida foydalanilgan. Yurtimiz tarixida kechgan o‘ta og‘ir zamonlarda, xususan, ikkinchi jahon urushi deb nom olgan yillardagi oziq-ovqat taqchilligi, iqtisodiy og‘ir ahvol tasvirlangan. Hech qanday boylik insondagi ochlik hissini qondirolmaydi. Oltin-kumushni yeb bo‘lmaydi. Och qolgan odamga oltin-kumushdan ko‘ra bir burda non afzalligi kundek ravshan haqiqat.

– Bahay, Oqsoqol, tinchlikmi?

– Tinchlik! Gap bundoq, Duma! – Oqsoqol dadamga imo qildi. – Samarqanddan mehmon obkeldim.

– Bahay! Mehmon otangdan ulug‘! – pakana kishi pildirab borib dadamga tirsagini tutdi [2,45].

O‘zbek xalqi dunyodagi boshqa xalqlardan mehmondo‘stligi bilan keskin farq qiladi. O‘zbek oilasida otaning o‘rni baland. Uyning to‘rida, dasturxon boshida ota o‘tiradi. Ovqatning boshi ham birinchi otaga suziladi, ovqat ham ota boshlagandan keyin yeyiladi, ota o‘tirgan uyning tomiga chiqilmaydi, otadan beruxsat biron ish qilinmaydi, uning roziligisiz hech qanday tadbirlar boshlanmaydi. Shuning uchun xalqimiz mehmonga nisbatan “Mehmon otangdan ulug‘” degan maqolni qo‘llaydi.

…Sho‘r yer qanaqa bo‘lishini mendan yaxshi bilsangiz kerak. Hammasi tosh. Ketmon ursangiz betingizga tosh sachraydi. Yerimiz –shunaqa. Yarmisi –to‘qay. Niyatingiz yaxshi-ku, holva degan bilan og‘iz chuchimaydi-da, o‘rtoq Xajayip! [2,60]

Bu maqol bilan adib faqatgina chiroyli xayollar bilan yaxshi yashashga erishish, shirin orzular bilan maqsadga yetib bo‘lmasligini, maqsdaga erishish uchun mehnat qilish lozimligini anglatgan.

Pastdagilar ancha tinchib qolgan, lekin chekka-chekkadan hamon norozi xitoblar eshitilardi:

– ***Kecha keldi yugurib, bugun olar sug‘urib...*** [2,68]

Yozuvchi bu o‘rinda kecha keldi yugurib, neni beray sug‘urib maqolining variantidan foydalangan.

Atrofimizda har xil toifadagi odamlar bor. Ayrimlari ishlari yurishsa va omadlari kelib, ozroq mablag‘ topsalar, birdan bosar-tusarlarini bilmay o‘zgarib, hech kimni nazar-pisand qilmay qoladilar. Davralarda hech kimga gap bermaydilar, katta odamlarga ham aql o‘rgatadilar, boriga qanoat qilishni istamaydilar, ushbu maqol ana shunday kimsalarga nisbatan ishlatiladi.

– *Tuppa-tuzuk mol ekanmiz-u, bilmay yurganimizni qara!*

– *Xaloyiq! – Oqsoqol kaftini boshi ustida baland ko‘tardi. – Bas! O‘rtoq Xo‘jayip bilmasdan gapirdi-qo‘ydi-da! Yoshlik qildi. Shungayam* ***ota go‘ri qozixonami!*** [2,68]

“Ota go‘ri qozixonami?” maqoli matnda o‘rinli qo‘llangan. Xaloyiqni bosish, shovqinning oldini olish maqsadida qo‘llangan. Hech narsa o‘zgarmaydi, hech nima qilmaydi degan ma’noda tushuniladi. Har bir aytilgan gapga e’tibor beravermaslik kerak, ayrim gaplar beixtiyor og‘izdan chiqib ketishi mumkin-ku, degan ma’noda.

Zakunchining dag‘dag‘asi xalqning ixlosini qaytardi. ***Kaltak yegan ho‘kiz yotog‘on bo‘ladi,*** *degandek, ba’zilar qaysarlik qila boshladi* [2,71].

Odamlarning xarakterlari har xil bo‘ladi. Kimdir yaxshi gap bilan yo‘lga kiradi, kimdir yomon gap bilan. Kimgadir ishora berilsa bo‘ldi, kimdir kaltak bilan ishlaydi. Xuddi shu ma’noda, matndagi “Kaltak yegan ho‘kiz yotag‘on bo‘ladi” maqoli qo‘llangan. Ya’ni, o‘shakishgan, g‘azabi kelgan, ixlosi qaytgan degan ma’zmunda ishlatilgan.

Oyim qorong‘i tushganda keldi. Tog‘am ham vo*enkomatga yugurmoqchi ekan, Ra’no yangam qo‘ymabdi. Oyim tog‘amni uzib-uzib olibdi.* ***“Podadan oldin chang ko‘tarma****, g‘unchaday xotiningni tashlab urush qilishni kim qo‘yibdi senga, – debdi* [2, 41].

“Ikki eshik orasi” romani matnida ko‘plab xalq maqollari qo‘llanganki, bu adibning xalq tili boyliklarini yaxshi bilganligini ko‘rsatadi. O‘tkir Hoshimov ishlatgan maqollar inson qalbida kechayotgan jarayonlarni to‘g‘ri baholay olishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Yuqoridagilardan tashqari, asar matnida *“Podadan burun chang ko‘tarma!” [2,79], “Yaxshi kelsa – hut, yomon kelsa – yut” [2, 97], “Yurtga kelgan to‘y...” [2.179], Yetti nomus – bir o‘lim! [2.180], “Ot o‘rnini toy bosar” [2.182],, “Sabrning tagi sariq oltin” [2.183],, “Mol egasiga o‘xshamasa, harom o‘ladi” [2.186],, “Bo‘sh qop tik turmas” [2.188],* kabi ko‘pgina maqollar o‘rinli qo‘llanilgan.

Misollar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, O‘tkir Hoshimov qahramonlarning ruhiy kechinmalarini maqollar yordamida ta’sirchan, yorqin ifoda etgan. Ushbu maqollar yozuvchining g‘oyaviy-badiiy g‘oyasini ochishda, badiiy matn latofatini ta’minlashda katta xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1990.
2. Hoshimov O‘. “Ikki eshik orasi”. – Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2012.

Nargiza PAZLITDINOVA,
Namangan shahridagi University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MANZILI MUNAVVAR OLIMA

Annotatsiya: maqolada namanganlik metodist olima, o‘zining mehnatkashligi, tirishqoqligi bilan butun O‘zbekistonga tanilgan, o‘z namunasi bilan yosh avlod ta’lim-tarbiyasining yuksalishiga ulkan hissa qo‘shgan, fidoiy ustoz, Namangan davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori Mahbuba Sobirovaning ilm nuri bilan nurafshon hayot va ijod bo‘stonidan so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *ilmiy-uslubiy, ilmiy-ommabop, pedagogik faoliyat, ta’lim texnologiyasi, oliy ta’lim tizimi.*

Аннотация: в статье упоминается Собирова Махбуба, учёный-методист из Намангана, известная на весь Узбекистан своими трудами, внесшая большой вклад в развитие образования подрастающего поколения; самоотверженный педагог, профессор Наманганского государственного педагогического института, доктор педагогических наук. Жизнь и научная деятельность Собировой озарены светом знаний.

Ключевые слова: *научно-методическая, научно-популярная, педагогическая деятельность, образовательная технология, система высшего образования.*

Annotation: the article mentions Sobirova Makhbuba, a methodological scientist from Namangan, known throughout Uzbekistan for her works, who made a great contribution to the development of education of the younger generation; dedicated teacher, professor of the Namangan State Pedagogical Institute, Doctor of Pedagogical Sciences. Sobirova's life and scientific work are illuminated by the light of knowledge.

Key words: *scientific and methodological, popular science, pedagogical activity, educational technology, higher education system.*

Hayotda shunday zahmatkash va baxtli insonlar bo‘ladiki, ular o‘zlari ishlayotgan sohalarida hamisha ilg‘or bo‘ladilar va yuksak muvaffaqiyatlarga erishadilar. Bunday mehnatsevar insonlar dunyoga kelishidan tortib to umri nihoyasiga yetgunga qadar dunyoda o‘zidan iz qoldirishga, avlodlari oldida o‘z burchini sharaf bilan ado etishga harakat qiladilar. Bugungi qahramonimiz ham zahmatli, ammo sharafli ilm yo‘liga kirishda, bu yo‘lda yutuqlarga erishishda o‘zining g‘oyat tartibli va odobli yurish-turishi, hayratomuz o‘ta intizomliligi, keng mushohadaga egaligi bilan kishilarning havasini keltiradigan qadrli inson, zahmatli olima, pedagogika fanlari doktori, professor Mahbuba Sobirova ustozimizdir.

Mahbuba Sobirova – Namangan diyorining kamtaringina oilasidan chiqqan, ammo mehnatkashligi, tirishqoqligi tufayli taniqli professor maqomiga erishgan, o‘z namunasi bilan yosh avlod ta’lim-tarbiyasining yuksalishiga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan, fidoiy olima, bugungi kunda har jabhada namuna bo‘la oladigan Hoji ona.

Mahbuba Sobirova dastlab maktabda, so‘ngra oliygohda ona tili va adabiyoti fanidan o‘quvchilarga va

talabalarga saboq berdi, fan asoslarini o‘rganish va o‘rgatish borasida ma’lum tajriba va malakalarni egalladi. Shundan so‘ng Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti qoshidagi aspiranturada ilm tahsilini davom ettirishga jazm qildi. Bu qarorini turmush o‘rtog‘i – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi, pedagogika fanlari doktori, professor Abdurashid Munavvarov domla qo‘llab-quvvatladi. M.Sobirova O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Mazluma Asqarova rahbarligida ilmiy izlanishlarini boshladi. Izlanishlar samarasi sifatida amaliy ahamiyatga molik tadqiqot yuzaga keldi. 1994-yili nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli tarzda himoya qilib, pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. Ustozning ona tili o‘qitish metodikasi sohasida ko‘rsatgan xizmatlari tahsinga sazovor. M.Sobirovaning sohaga oid ikki yuzdan ortiq ilmiy-uslubiy, ilmiy-ommabop maqolalari e’lon qilingan.

Ustoz M.Sobirova 30 dan ortiq risola, jumladan, o‘quv qo‘llanma, metodik tavsiya, metodik qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma va ilmiy-ommabop nashrlar muallifidir:

“Ona tili o‘qitish metodikasi”dan kurs ishi mavzulari” nomli dastlabki metodik tavsiyasi 1996-yilda tayyorlangan bo‘lib, unda kurs ishi yozish tartiblari izohlangan.

“O‘qituvchi” nashriyotida hammualliflikda chop etilgan “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasining “Ekologik tarbiya”, “Oilada bola tarbiyasi”, “Jinsiy tarbiya” kabi boblari M.Sobirova qalamiga mansub.

“Ayol va ma’naviyat: Muammolar. Yechimlar” nomli uslubiy qo‘llanmasida (1999-yil) ayol ma’naviyati xususida so‘z borsa, o‘zbek tilini o‘qitish borasidagi fikr-mulohazalari “Davlat tilini o‘rgatishga yangicha yondashuv” nomli uslubiy qo‘llanmasida (2003-yil) yoritiladi.

2005-yilda “Namangan” nashriyotida chop etilgan “Ma’naviy-axloqiy tarbiya: muammolari va yechimlari” nomli uslubiy tavsiyasida axloqiy tarbiyaga oid muammolar, uning yechimlari xususida so‘z yuritiladi.

“Namanganlik olimalar” nomli hammualliflikdagi ma’rifiy-ommabop risolasida (“Namangan” nashriyoti, 2005. 112-b.) ilmiy unvonli va darajali bo‘lgan, Namangan viloyatida yashayotgan xotin-qizlarning insoniy fazilatlari, olib borgan tadqiqot ishlari haqida fikr yuritiladi.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” fanidan amaliy va seminar mashg‘ulotlari uchun” nomli risola (Namangan, 2007. 64-b.) bakalavr yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallandi.

Hammualliflikda yozilgan “So‘z – ulkan xazina” nomli metodik qo‘llanmada o‘zbek tilining boyligini, jozibadorligini yoritishga uriniladi.

Bakalavr yo‘nalishidagi 1-kurs rusiyzabon guruh talabalari uchun 2008-yilda “O‘zbek tilidan amaliy mashg‘ulotlar uchun” deb nomlangan metodik qo‘llanmani tayyorlaydi. 2009-yilda yozgan “Pedagogik amaliyot” nomli metodik tavsiyasi bitiruvchi kurs talabalarimizga amaliyotni muvaffaqiyatli o‘tashlarida yordam berib kelmoqda.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi, pedagogika fanlari doktori, professor Abdurashid Munavvarovning hayoti va ilmiy-pedagogik faoliyati to‘g‘risida “Yaxshi inson xotirasi abadiy” nomli (Namangan, 2010. 140-b.); O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent T.No‘monovning ilmiy-pedagogik qarashlari haqida “Ezgulikka yo‘g‘rilgan umr” nomli (Namangan, 2012. 136-b.); ilg‘or, ijodkor ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilarining ish tajribalari haqida “Ustozlarning ibratli hayoti” (Namangan, 2014. 60-b); Tursunboy No‘monov – 90 yoshda (Namangan, 2017. 170-b); NamDUda ishlagan va bugungi kunda ham faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy-unvonli ayollar haqida “Namangan davlat universiteti olimalari” (Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2016. 156-b.) nomli ommabop risolalarni yozdi.

2013-yilda taniqli shoir, dramaturg N.Boboxo‘jayevning adabiy-ilmiy qarashlariga doir “Ezgulik kuychisi” nomli; 2014-yilda jurnalist, adabiyotshunos olim M.Ma’murovning adabiy-ilmiy va pedagogik qarashlari haqida “Ziyobaxsh inson” nomli; 2017-yilda taniqli jurnalist R.Majnunova haqida “Mohir so‘z san’atkori” nomli metodik qo‘llanmalar yaratdi.

Olimaning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan kurs ishlari (Namangan, 2014. 64-b.); “Zamonaviy texnologiyalar asosida nutg o‘stirish” (Namangan, 2016. 154-b.); “Bolalar – kelajagimiz” (Namangan, 2018. 80-b.); “Pedagogik amaliyot” (Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashri. – Namangan, 2015. 68-b.); “Boshlang‘ich ta’limda ta’lim texnologiyasi” (Namangan, 2019. 52-b.), “Bitiruv-malakaviy ish” (Namangan, 2018. 76-b.), “Kursni tugatish ishi” (Namangan, 2018. 92-b.), “Fanlar integratsiyalashuvining zamonaviy texnologiyalari” (Namangan, 2018. 28-b.), “Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish” (Namangan, 2019. 44-b.) kabi metodik qo‘llanma va tavsiyalari bugun talaba-yoshlarimizning o‘z kasbi ustasi bo‘lib yetishishlarida yordam bermoqda.

Magistratura mutaxassisligi 1-kurs talabalari uchun “Notiqlik san’ati” (Toshkent: Navro‘z, 2019. 148-b.) nomli o‘quv qo‘llanmasini yaratdi.

Shuningdek, “Ilmlilarning ishlari tadqiqi” (Ilmiy-ommabop risola. Germaniya: GLEBE edit, 2020. 230-b), “O‘quvchilar nutqini rivojlantirish” (O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –Toshkent: Fan ziyosi, 2021. 180-b), “Adabiy timsollar” (Uslubiy qo‘llanma. –Toshkent: Fan ziyosi, 2021. 35-b), “Ona tili o‘qitish metodikasi” (Izohli lug‘at. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2021. 200-b), “Modulli ta’lim texnologiyalari” (O‘quv qo‘llanma. –Namangan: Arjumand media, 2021. 200-b), “Antroposentrik yondashuv asosida ona tili o‘qitish” (Monografiya. – Namangan: Usmon Nosir media, 2022. 175-b), “Ta’limga antroposentrik yondashuv” (Monografiya. – Namangan: Usmon Nosir media, 2022. 152-b), “Notiqlik mahorati” (Darslik. – Toshkent: Muharrir, 2022. 286-b), “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” (Darslik. –

Namangan: Arjumand Media, 2023. 512-b) kabi o‘quv qo‘llanma darsliklar muallifidir.

Ustoz bir necha yillardan beri “Истиқлол ва илмий тараққиёт”, “Дарс самарадорлигини ошириш”, “Ҳозирги ўзбек шеърияти ва замонавий ўқитиш методикаси”, “Филология ва замонавий педагогик технологиялар” deb nomlangan ilmiy-metodik maqolalar to‘plamlarini nashrga tayyorlab, chop etib kelmoqdalar. Mazkur to‘plamlardan respublikamiz olimlarining, xususan, Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan ijodkor o‘qituvchilarning o‘zbek tili va adabiyoti, metodikaga oid dolzarb maqolalari o‘rin olgan bo‘lib, to‘plamlar metodika rivojiga sezilarli hissa qo‘shib kelmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mahbuba Sobirova ilm-ma’rifat sohasida barakali va mazmunli ijod qilib kelmoqdalar. Ustoz yaratgan ilmiy kitoblarning, maqola va tezislarining biblografiyasi katta. Prezidentimizning nutq madaniyati va notiqlik san’atiga bo‘lgan e’tiborlariga javoban 2019-yilda “Notiqlik san’ati”, deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasi nashr etilishi, 2017-2019-yillar mobaynida “Muloqot ta’sirchanligini ta’minlovchi omillar”, “Muloqot madaniyatini shakllantirish muammolari” nomli ilmiy maqolalari bu soha rivojiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Qolaversa, Mahbuba Sobirovaning o‘zi kabi Namangan diyoridan yetishib chiqqan va iste’dod kemalarini ilm ummonida munosib suzdira olgan zakiya olimalarga bag‘ishlangan “Namanganlik olimalar” nomli ilmiy-ommabop risolasi kitobxonlar davrasi tomonidan iliq kutib olingan. U viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan olima ayollar uyushmasiga ham ko‘p yillar rahbarlik qildi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jonlanishiga hissa qo‘shdi. Ustozning naqadar shijoatli va mehnatsevarligi viloyatda va o‘zi faoliyat yuritayotgan tashkilotlarda o‘tkaziladigan turli tadbir va tanlovlarda – Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga nomzodlarni saralash viloyat komissiyasi tarkibidagi faoliyatida, har yili viloyat miqyosidagi umumta’lim maktablari va litsey o‘quvchilari fan olimpiadasi hakamlar hay’ati a’zosi sifatida, Yoshlar ittifoqi bilan tashkil qilinadigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda, o‘zi istiqomat qiladigan mahalla tashkiliy ishlaridagi faolligida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Mahbuba Sobirova 2001-yildan 2010-yilgacha Namangan viloyati Olima ayollar assotsiatsiyaning raisi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Shu yillarda uning “Ayol va ma’naviyat: Muammolar. Yechimlar” nomli asari keng ommaga tatbiq qilindi.

Bugungi kunda O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori bo‘lgan barkamaol avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda uzluksiz ta’lim-tarbiya, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki ushbu maskanda ta’lim olayotgan har bir yosh yigit qiz u yoki bu sohada mutaxassisligiga ega bo‘libgina qolmay, balki jismoniy va ma’naviy jihatdan kamol topadi, jamiyatimiz hayotida faol ishtirok etadi. O‘zining bilimi, madaniyati, ma’naviyati bilan ozod va obod Vatan uchun mehnat qiladi. Albatta, bunday ulkan vazifalarni amalga oshirishda Sobirova Mahbubaxon ustozning xizmatlari katta. Ustozning barkamol avlodni voyaga yetkazishning nazariy masalalarini o‘zida mujassam etgan “Bolalar – kelajagimiz” nomli asarlari ham fikrimizning yorqin dalilidir. Shu o‘rinda eslab o‘tish joizki, murakkab va sharafli kasb bo‘lgan o‘qituvchilik ham Mahbuba Sobirovaning hayot yo‘lida katta ulushga egadir. Ustoz 1981-1991-yillarda Namangan shahridagi 11-maktabda ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi bo‘lib ishladi. Pedagogik faoliyati davomida yuzlab yoshlarda ma’naviyat tushunchasining shakllanishida, ona Vatanga mehr-muhabbat ruhida ulg‘ayishiga, ona tiliga bo‘lgan cheksiz hurmatni uyg‘otishda hormay-tolmay, barakali mehnat qilmoqda. “Ustozlarning ibratli hayoti” deb nomlangan risolaning yaratilishida ham shu yillarda orttirilgan tajribalarning o‘rni beqiyosdir. Uning o‘z kasbiga bo‘lgan mehri, hurmati, cheksiz sadoqatini ko‘rib, ko‘plab o‘quvchi yoshlar “Men ham kelajakda ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi bo‘laman!”, deb oldilariga ulkan maqsad qo‘yganlar, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Ushbu zahmatli harakatlarning natijasi o‘laroq ustozlar biz kabi o‘nlab shogirdlarga yo‘lboshchilik qilib, hayotda o‘z yo‘limizni topib ketishimizda nurli mayoq kabi yo‘limizni yoritadilar.

Metodist olima NamDU huzuridagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.28.09.2018. Ped.76.02 raqamli ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a’zosi sifatida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga ham munosib ulush qo‘shmoqda.

M.Sobirovaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining professorlik unvoni ko‘plab ilmiy-metodik ishlar: metodik tavsiya, uslubiy qo‘llanma, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar hamda darsliklar chop ettirganligi uchun doktorlik dissertatsiyasi himoyasidan oldin taqdim etildi.

Olima pedagogika fanlari doktori, professor O‘g‘ilxon Asqarova Mamashokirovna ilmiy maslahatchiligida yozilgan “Ona tili ta’limida antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini 2023-yilning 5-mayida Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Phd.03/04.06.2020.ped.76.02 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qildi.

Zahmatkash va zakiy olima, taniqli metodist Mahbubaxon Sobirovani barcha shogirdlari, kasbdoshlari va namanganlik olimalar nomidan bugungi erishgan yutuqlari va mehnatlari samarasi bilan muborakbod etamiz. Ustozga sog‘lik-omonlikda, ilm yo‘lidagi dovonlarni zabt etishda kuch-g‘ayrati so‘nmay, shogirdlari va yaqinlari ardog‘ida ko‘p yillar umrguzaronlik qilishlariga tilakdoshmiz.

Toxir AGLAMOV,
Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek va rus tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi

MASAL JANRINING YUZAGA KELISHI VA UNING AHAMIYATI HAQIDAGI BA’ZI FIKRLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada masal janrining rus adabiyotida yuzaga kelishi, ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida masalalar haqida qisqacha fikr yuritiladi.

Аннотация: в данной статье кратко рассматриваются вопросы о возникновении, значении и особенностях басенного жанра в русской литературе.

Annotation: this article briefly discusses the issues of the origin, meaning and features of the fable genre in Russian literature.

Qadim zamonlardan buyon bolalarni (va ba’zi kattalarni ham) “nima uchun qishda issiq kiyinib yurish kerak”, “nega jar yoqasida yurmaslik kerak”, “nima uchun kattalarga bo‘ysunish kerak” va shunga o‘xshash ming xil "nega" va "nima uchun" degan savollar qiynab keladi. Odamlarga ishonchli, sodda va tushunarli javob kerak. Faqat bunda aql o‘rgatish, uzundan –uzoq pand-nasihat bo‘lmasligi kerak. Nima uchun? Chunki hech kim birov uning xatosini ko‘rsatib, tanbeh berishini istamaydi. Ammo, zukkolik bilan o‘ylab topilgan, to‘g‘ri xulosa chiqarishga undaydigan va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan masal bu yerda juda o‘rinli bo‘lishi mumkin.

Bolaning nazarida ota-onasi unga ishonishmaydi, behudaga xavotirlanishadi va shu sababli hamma narsani ta’qiqlashadi. Ammo, bola ushbu ta’qiqlar ostida ota-onasining g‘amxo‘rligi yashiringanligini bilmaydi, u “kutilmagan, noxush hodisalarning menga daxli yo‘q, ushbu holatlar, albatta, men bilan bo‘lmaydi” – degan ishonch bilan o‘z hayotini xavf ostiga qo‘ygan holda tavakkal qilishdan to‘xtamaydi. Qanday qilib, uzundan-uzoq va’z o‘qimasdan, pand-nasihat qilmasdan, o‘zidan bezdirmagan holda bolani tarbiyalash, unga yillar davomida qo‘lga kiritilgan boy tajriba mahsulini yetkazish mumkin?

Shunda masal bizga yordamga keladi. Masal juda yaxshi tarbiya vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Chunki masal yordamida biz bir vaqtning o‘zida uchta muammoni hal qila olamiz: birinchidan u pand-nasihatdan xoli bo‘ladi, ikkinchidan qiziqarli voqea haqida so‘zlab beradi va uchinchidan masal bolaga birinchi odob-axloq sabog‘ini beradi.

Keling, avval masal nima ekanligiga aniqlik kiritaylik?

Masal – bu bolalar uchun mo‘ljallangan qisqa hikoya bo‘lib, uning qahramonlari, odatda, hayvonlar, hasharotlar yoki o‘simliklardir. Masalning asosiy maqsadi o‘quvchiga qaysidir axloqiy, ibratli ma’lumotni yetkazish, ya’ni tarbiya berishdir.

Bundan tashqari, masal janridagi asarlarda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar har doim yengil kulgu ostiga olinadi. Ular o‘quvchiga o‘z kamchiliklarini ko‘rish va tuzatishga yordam beradi. Umuman kamchiliklarga tashqi tomondan qarashni va nima uchun bunday bo‘lganini, qayerda xatolik o‘tganligi ko‘rishga va to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Shuningdek, yuqorida aytib o‘tganimizdek, masallar uzoq vaqt esda qoladi, dunyoqarashni, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, hodisalarning mohiyatini va ularning yashirin ma’nosini tushunishga yordam beradi. Dastlab, masallar kattalarga qaratilgan bo‘lib, diniy, ijtimoiy va siyosiy mavzularga bag‘ishlangan. Qadim zamonlarda esa masal kundalik turmushda donolikning namunasi, tarbiya vositasi va satiraning bir shakli bo‘lib xizmat qilgan.

Keyinchalik ular bolalarni tarbiyalashda asosiy qo‘llanma sifatida foydalanila boshlangan. Ba’zan hikoyadan olinadigan saboqni, masalning boshlanishida uchratish mumkin. Bu esa muallifning mahoratidan, zukkoligidan darak beradi. Aytilayotgan masalning mohiyati allaqachon ma’lum bo‘lsa-da, hodisani yangi syujet va go‘zal iboralar orqali hikoya qilinishi o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi. Masaldan olinadigan xulosa saboq shaklida taqdim etiladi, bu odatda birdan ko‘zga tashlanmaydi, ammo ibratomuz tarbiyaviy saboqlar bir umr esda qoladi.

Masalning asosiy maqsadi o‘quvchiga qandaydir ibratli saboqni yetkazish, ya’ni tarbiya berishdir. Masallarda tinglovchi o‘zlashtirishi ko‘zda tutilgan saboqni ko‘pincha hikoyaning oxirida kuzatish mumkin va u o‘quvchidan yashiringan bo‘ladi. Masalning janr xususiyatlari: saboq; allegorik ma’no; tasvirlangan vaziyatning odatiyligi; qahramonning o‘ziga xos xarakteri; odamlarning illatlari va kamchiliklari ustidan kulish.

Masalning shakli she’riy yoki hikoya tarzida bo‘lishi mumkin. Ammo bundan qat’i nazar, matnning mazmuni har doim satirik, ya’ni qahramonlardan birini ustidan kulish va hazil qilish.

Ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlar natijasida jahon adabiyotida yangi-yangi obrazlar paydo bo‘la boshlaydi. Xususan, masalnavislik janrida ushbu holat yorqin tasvirlanadi. Bunda kinoyaviy allegorik obrazlar – hayvonlar, hashoratlar – turli jonivorlar insoniylashtiriladi, ayrim odamlarning fe’l-atvoridagi kamchilik, illatlar achchiq kulgu, yengil hazil bilan fosh

qilinadi. O‘git va nasihatlar beriladi.

Dastlab, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ibratli hikoya prozaik shaklda bo‘lgan. Ezop va Fedr juda ibratli saboqqa ega bo‘lgan qisqa hikoyalar yaratishgan. Ularning tinglovchilari va tomoshabinlari hikoya mohiyatini fahmlashga ham ulgurishmagan. "Masalda xulosa qanday tuzilgan?" Ular oxirgi so‘zni eshitganlarida, qissaning ibratli mohiyati, xulosasi ularga ayon bo‘lgan.

Yunon masalnavisi Ezop va Rim shoiri Fedrning asarlari zamondoshlari orasida yangilik bo‘lib, ularda shu qadar kuchli taassurot qoldirganki, ushbu asarlar to‘planib, odamlar oila davrasida bir-birlariga hikoya qilib berishgan. Ammo vaqt o‘tishi bilan shakli o‘zgarmagan va eskicha odatda to‘qilgan masallarga nisbatan qiziqish so‘na boshlagan. Faqat yangicha shaklga ega bo‘lgan, zamonaviy tildagi purma’no iboralar bitilgan asarlargina o‘quvchi e’tiborini qozonishi mumkin.

Fransuz shoiri Jan Lafonten esa qadimgi asarlarni fransuz tilida yangicha ko‘rinishda, ya’ni she’r shaklida taqdim qildi. Natijada eski g‘oyalar yangi ranglarda jilvalandi va qadimiy afsonalar parijlik, keyinchalik esa rus ziyolilari orasida qizg‘in bahs-munozara obyektiga aylandi. Shu yerda ta’kidlash joizki, Lafontenning tarix va adabiyot nazariyasida ahamiyati shundaki, u qadimgi mualliflarning asarlarini tuzilishi va mazmunidan foydalanib, yangicha janr yaratishga erishdi.

O‘zbek adabiyotida qalam tebratgan Gulxaniyning “Zarbulmasal”dagi Toshbaqa, Chayon, Maymun, Tuya, Bo‘taloq kabilar yangi allegorik obrazlarga yorqin misoli bo‘la oladi.

Rus yozuvchilari: A.P.Sumarokov, V.K.Trediakovskiy – avval Lafontenning masallarini tarjima qilishdi va keyinchalik o‘zlari ham masal yozishga kirishishdi. Biroq, rus tilida so‘zlashadigan o‘quvchi uchun "masal" so‘zi she’riy shakldagi asar bilan bog‘liq.

Tabiiyki, A.P.Sumarokov va V.K.Trediakovskiylar o‘sha davr talabiga rioya qilgan holda o‘z masallarini katta bo‘lmagan, qofiyali asarlar shaklida yozishgan. Rossiyada mashhur masalnavislar: Vasiliy Andreyevich Jukovskiy ("Burgut va Kabutar" masali), Lev Nikolayevich Tolstoy ("Olmaxon va Bo‘ri", "Ikki o‘rtoq", "Bo‘ri va Qo‘zichoq"), Sergey Vladimirovich Mixalkov ("Chivin va Ari", "Romashka va Atirgul", "Laylaklar va Qurbaqalar"), Demyan Bedniy ("Bola va o‘tkinchi", "Asalari"), Denis Ivanovich Fonvizin ("Leonoraning gullari", "Asalarilar haqida"), Izmailov Aleksandr Yefimovich ("Ustritsa va ikki yo‘lovchi", "Oltin tor", "Gorlitsa va Malinovka").

«Kalila va Dimna», «Marzbonnoma», «Sindbodnoma», «Qobusnoma», Sa’diy Sheroziyning «Guliston»i, Muhammad Ali Habaliyning «Jome ut-tamsil» asarlari zarbulmasalga misol bo‘ladi. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari esa ushbu janrning mukammal namunalaridan biri hisoblanadi.

Rossiyada ushbu janrning cho‘qqisi I.A.Krilovning asarlari hisoblanadi. I.A.Krilovning masallari zamonaviy bolalar adabiyotining ajralmas qismi bo‘lib, juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

She’riy shaklda bitilgan masallar o‘ziga xos ustunlikka ega: masal, qoidaga ko‘ra, bitta ma’noni o‘z ichiga olgan bo‘lib, uning barcha qahramonlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lgan xatti-harakatlar namunasini ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan bo‘lsa, ushbu vazifani erkin va majburlamagan holda, biroz ayyorona tarzda, ma’lum bir ritmga rioya qilgan holda qofiya bilan yaratilgan asar yaxshi bajaradi.

Biroq, ko‘pchilik nasriy asar osonroq qabul qilinadi deb o‘ylashadi, chunki qofiya yaratish uchun ishlatiladigan turli xil usullar masal mohiyatini tushunishni qiyinlashtiradi va ba’zan e’tiborni chalg‘itadi. Ehtimol, bu haqiqatdir, lekin ushbu vaziyatga saboq oydinlik kiritadi. U muallif qaysi illat yoki fazilatni tasvirlaganini darhol ochib beradi, asarni qisqa, ixcham va ma’no jihatdan tugal qiladi.

Rossiya aholisi ijodning bunday turini Ivan Andreyevich Krilovning o‘chmas she’rlaridan bilishadi, chunki u rus xalqini haqiqiy masal janri bilan tanishtirgan. I.A.Krilovni kim bilmaydi? Bu muallifni yoshu qari hamma biladi. Biz ham bilamiz. Krilovning masallarining xulosasi uning qadimgi hamkasblari sabog‘idan unchalik farq qilmaydi. Men ta’kidlamoqchi bo‘lgan yagona narsa shundaki: Ivan Andreyevich o‘zi xohlagan yoki bilmagan holda masal syujetini rus voqeligiga moslashtirgan va uni mahalliy o‘quvchi yoki tinglovchi uchun yanada tushunarli qilgan, xuddi shu narsa Lev Tolstoyga ham tegishlidir.

Krilov bizning qalbimizdan o‘zining masallari – donishmandlikdan saboq beruvchi she’riy asarlari bilan o‘rin olgan. Bu hikmatlardan biri haqida misol keltiraman, ya’ni – "Kuchlilar oldida hamisha kuchsizlar aybdor", aks holda "Bo‘ri va Qo‘zichoq " masalini qanday izohlagan bo‘lar edingiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brajkina N.A. "Ezop shunday degan...", yoki maktabda masal o‘qish texnologiyasi, V sinf. N.A.Brajkina. Adabiyot maktabda: ilmiy-uslubiy jurnal. 2012. 9-son, 24-26-b.

2. Izlanish.Tajriba. Mahorat jurnali. – Moskva, 2012. 9-s. Bibliogr.: 34-b.

3. Bushuyeva L.S. «Masal janridagi asarlarni o‘rganishda ma’naviy tarbiya” L.S.Bushuyeva, N.I.Komaxa. Boshlang‘ich maktab: Oylik ilmiy-uslubiy jurnal. 2013. 6-son 38-47 b. (Til va adabiyot ta’limi muammolari).

4. Vayl P.L. Rodnaya rech: Yevangeliye ot Ivana/ P.Vayl, A.Genis// Bolalar adabiyoti: Adabiyot va san'at bolalar uchun Rossiya jurnali. 1991. 5-son. 46-48-b. (Klassikani bugun o'qiymiz).
5. Вачкова С. "...Он угадал эстетические законы басни": [Иван Андреевич Крылов]. Bolalar adabiyoti. 1999. 4-son. 72-75-b.-(Klassikani bugun o'qiymiz).
6. Gulxaniy «Zarbulmasal». – Toshkent: «Yangi nashr», 2019. 3-4-b.
7. Bakulina G. A. O'qish darslarida masal boshlang'ich maktab o'quvchilarining og'zaki nutqini shakllantiruvchi vosita sifatida // G. A. Bakulina, I. V. Patrusheva // Konsept. 2015. – 27 s. 26–30-b.

Muqaddas SAIDAKBAROVA,
Qo'qon DPI,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

KUBROVIYA TARIQATIDA OLAMI SUG'RO VA OLAMI KUBRO MASALASI

Annotatsiya: maqolada buyuk mutasavvuf olim Najmiddin Kubro shaxsi va faoliyati, kubroviya tariqatiga asos solinishi, ushbu tariqatning nazariy asoslari, Najmiddin Kubro asarlari, asarlarida ko'tarilgan falsafiy g'oyalar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: *fiqh, aqida, tasavvuf, olami kubro, olami sug'ro, komil inson, irfon, vujud, qadim*

Аннотация: в статье представлены сведения о личности и деятельности великого ученого-мистика Наджмиддина Кубро, основании Кубровианского ордена, теоретических основах этого ордена, трудах Наджмиддина Кубро и философских идеях, поднятых в его трудах

Ключевые слова: *юриспруденция, вера, мистика, мир Кубры, мир Сугро, совершенный человек, гнозис, существование, древний*

Annotation: the article provides information about the personality and activities of the great mystic scientist Najmiddin Kubro, the founding of the Kubrovian order, the theoretical foundations of this order, the works of Najmiddin Kubro, and the philosophical ideas raised in his works.

Key words: *jurisprudence, belief, mysticism, world of kubra, world of sugro, perfect human being, gnosis, existence, ancient*

Xorazm qadim tamaddunning beshigi hisoblanadi. Bu maskan ma'rifat-ma'naviyat tamal toshini qo'ygan buyuk zotlar vatanidir. Shunday shaxsiyatlardan biri shayx Najmiddin Kubro (Ahmad ibn Umar ibn Muhammad al-Xevaqiy al-Xorazmiy) 1145-yili Xivada tavallud topganlar. Xalq va ilm ahllari orasida "Najmiddin", "Valiytarosh", "Kubro", "Abuljannob" kabi unvon va laqablar bilan mashhur bo'lganlar. Manbalarda yozilishicha, "Kubro (Eng katta)" laqabini berilishi sababi qilib u shaxsiyatning o'ta zukko, dono, olim ekanligi, so'ralgan har qanday savolga mukammal javob berganliklari, muammolarga yechim topishda mujtahid bo'lganlari, har qanday bahs va munozaralarda g'olib chiqishlari ko'rsatiladi. Shayx Najmiddin Kubro o'n ikkita shaxsni tarbiyalab shayx maqomiga yetkazganlar. Majididdin Bag'dodiy (Farididdin Attorning otasi), Bahouddin Valad (Jaloliddin Rumiyning otasi), Sa'diddin Hamaviy, Najmiddin Doya, Sayfiddin Boharziy shular jumlasidandir.

Najmiddin Kubro – Ahmad yoshligidan ilmga chanqoq, zukko va favqulodda qobiliyatli bola bo'lgan. Madrasa ta'limini tezlik bilan o'zlashtirib olgan, Xorazmda istiqomat qiluvchi olimlardan o'zib ketib, ilm majlislarida turli ilmiy mubohasalarda hammadan g'olib chiqadi. Shuning uchun u shaxsga "Tammat ul-kubaro (ulamolarning yetugi)" unvoni berilgan.

Yosh Ahmad ibn Umar (Najmiddin Kubro) Xorazm shahrida madrasani tugatib, Iroq, Shom. Eron mamlakatlariga borib, fiqh, aqida, hadis ilmlarini mukammal o'rgandi. Shu davrda aqida va fiqh ilmlarini o'rganish bilan bir qatorda tasavvuf ilmlarini ham o'rgana boshlanadi, darveshlar suhbatida ishtirok etdi, xilvatga chekindi, riyozat chekib nafs ijtihodi bilan mashg'ul bo'ldi. Ustozlari Abu Jafar Samoniy, Abul Makkorim Lubon, Abu Mansur Haft, Abu Tohir Salafiy, Ro'zbehon Misriy, Shayx Ammor Yasir, Shayx Ismoil Qasriydan hadis va tasavvuf ilmlaridan ta'lim oldi.

Najmiddin Kubroning tariqat yo'lidagi pirlarining ustozi Shayx Abdulnajib Suhravardiy faqirlik va futuvvatni (javonmardlik) birga qorishtirib tushuntiradi. Faqirlik deganda moddiy qashshoqlik emas, balki Alloh oldida o'zni yo'qotishni anglatadi. Kubroviya tariqati asoslarida futuvvat – javonmardlik nazariyasi yotadi, Hadisda aytilgan "Oluvchi qo'ldan beruvchi qo'l afzaldir" g'oyasini o'zida jamlagan javonmardlik boylikni qoralamaydi, saxovatni targ'ib qiladi.

Najmiddin Kubro qirq yoshga yetganda, 1185-yili Xorazmga qaytib keldi. U yerda katta xonaqoh qurdirdi, shu xonaqohda shogirdlarga ta'lim berib o'z maktabini yaratdi, kubroviya tariqatiga asos soldi. Kubro xonaqohida yuzlab shaxslar tarbiyalanib, islom, irfondan bahramand bo'ldi.

Kubroviya tariqatining ham asosi Qur'on va sunnatga asoslangan bo'lib, uning ta'limotidan insonni sharaflash birinchi o'ringa quyiladi. Shayx Najmiddin Kubro ko'plab irfoniy asarlar yaratgan:

1. "Fi-odobus solikin" ("Soliklar odobi haqida").
2. "Risola attul xayf ul-xoim an lavmat il - loim" ("Qo'rquvchi ovvoralar va malomat etuvchi malomatiylar haqida").
3. "Favoyihul jamol" ("Go'zallikni egallash").
4. "Ruboiylar to'plami".
5. "Favoyihul jamol va favotihul jalol" ("Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi").
6. "Al-usul al – ashara" ("O'nta usul").
7. "Risola at-turuq" (Tariqatlar risolasi).

Najmiddin Kubro o'z asarlarida Alloh ma'rifatini anglash, ilm olish va ilm berish har bir muslim va muslimaning burchi ekanligini ta'kidlaydi. Najmiddin Kubroning "Ruboiylar to'plami" kitobi hali topilmagan. Sharqshunos olim E.Bertels turli bayoz va tazkiralardan Kubro qalamiga mansub deb taxmin qilgan 25 ta ruboiy ajratib olingan, hozircha ilm olmiga mana shu 26 ta (1 ta ruboiy Bertels jamlanmasiga kiritilmagan) ruboiy ma'lum.


Kubroviya tariqati o'z o'rnida naqshbandiya va mavlaviya tariqatlariga ham ta'sir qilgan. U asosan O'rta Osiyo, Rossiya, Eron mamlakatlarida keng tarqalgan. Kubroviya tariqatida chordona qurib, jahriy zikr majlislari tuziladi. Kubroviyadan mashhur quyidagi shahobchalar ajralib chiqqan: Firdavsi, bahoiyya, xilvatiya, rukniya, nuriya, nurbaxshiya, hamadoniya, barzanjiya.

Najmiddin Kubroning mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonovor kurashi tarixda qolgan. Kubroviya tariqati asoschisi Shayx Najmiddin Kubro 1221-yilda Xorazmda mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda xalok bo'lgan.

Olami kubro va olami sug'ro nisbati. Xojagon tariqati va uning yaratilishi . Tasavvufshunos olim N.Komilov buyuk mutafakkir Aziziddin Nasafiyning "Zubdat ul - haqoyiq" asarini tarjima qilgan. Ushbu asarda olami sug'ro va olami kubro haqida to'liq sharhlar berilgan. Biz shu asarga tayangan holda, olami sug'ro va olami kubro haqida fikrlar yuritamiz.

Aziziddin Nasafiyning aytishicha, Olam – zot (mohiyat) va sifatlar jamlanmasi bo'lib, zotning ham, sifatlarning ham alohida qismlari mavjuddir, ularni ham olam deyiladi. Olamni tushunishda ibtidoiy ilmlar tasnifiga binoan ikkiga bo'linadi:

1. Olami g'ayb – inson ko'zidan, sezgi organlaridan yashirilgan olam.



2. Olami shuhud – inson ko'zi va sezgi organlari bilan ko'ra oladigan, his qila oladgan olam.

Bu ikki olamni faylasuflar, so'fiylar turlicha nomlar bilan nomlaganlar. Quyida ikki olamning muqobil nomlanishlarini ko'rsatib chiqdik.

Olamni tushuntirishda yana ikki xil nomlash mavjudki, bu istiloh asosan tasavvuf ta'limotida keng qo'llaniladi.

1. Olami sug'ro (kichik olam)
2. Olami kubro (olami kubro).

Faylasuflarning aytishicha, Olami sug'ro – bu inson, olami kubro – bu borliq. Yunon faylasuflari olami kubroni makrokosmos (kosmos), insonni mikrokosmos deb ataganlar. Inson kubro va sug'ro olamning belgisi hisoblanib,

katta olamdagi bor narsalar kichik olamda ham to‘liq aks etadi, mavjuddir. Shu sababli Inson Olam mohiyatini anglashi uchun avval o‘zini anglashi, o‘zini tanishi lozimdir. Tasavvuf ta’limotida bu mashhur “man arafa nafsahu, faqod arafa robbahu” (kim o‘zini anglasa, bas u Robbisini anglabdi) iborasi bilan talqin etiladi. Olami kubroning ham Olami sug‘roning ham asosida javhar (falsafda substansiya deyiladi) turadi. Har ikki olamning boshlanishi shu javhar, zotdan boshlanadi. Har ikki olamda bor narsalar avval mana shu javharda – urug‘da bo‘lgan. Har ikki olam javhari – urug‘i asli bir uru, ikalasi bir urug‘dan bino bo‘lgan. Olami sug‘ro va olami kubroda sodir bo‘ladigan har bir voqea – hodisa, avvalo, urug‘larda – javharda sodir bo‘lgan bo‘ladi. Demakki, sodir bo‘layotgan har bir voqea-hodisa tasodif emas.

Shariatda, aniqrog‘i aqidada bu kabi nazariy qarashlarga munosabat bildirib o‘tilgan. Shariat vakillari yuqorida bahs yuritayotgan masalamiz haqida “vujud” istilohi bilan qaraydi. Ular vujudni ikkiga bo‘lib tushuntiradilar:

1. Vujudi qadim (qadim, azaliy vujud).
2. Vujudi hodis (keyin paydo bo‘lgan vujud).

Bu qarashlar chindan ham mantiqqa to‘g‘ri keladigan tushunchalardir. Azaliy bo‘lgan abadiy ham bo‘ladi, boshlangan narsa intihoga ham egadir. Qadim bo‘lgan vujud Haq taolo, hodis vujud esa dunyodir.

Shu yerda bir narsaga aniqlik kiritib ketishimiz lozimki, Alloh olam ichida emas, olamning har ikkisi – olami sug‘ro va olami kubro aslida Xudoning yaratganlaridir. Xudo olamdan tashqarida, uning ismi, sifatlari va vujudi olamdan mutloq tashqarida va olam sifatlariga o‘xshamagan, faqat o‘zigagina xos, uning qanday ekanligi o‘zidan o‘zgaga ayon bo‘lmagan Zotdir. Faqat Xudo haqida tafakkur yuritilganda, inson aqliga berilgan imkoniyatlar bilan tushuntirishga va tushunishga harakat qilinadi. Aslida Xudoning zoti va sifatlarini tushunishda nima tafakkuringizga kelsa, bilingki, u tushuncha xudo uchun mutlaq bo‘hton. Inson bir obyekt haqida ilmga ega bo‘lishi uchun Alloh insonga bergan imkoniyatlardan foydalana oladi xolos, undan tashqariga chiqib keta olmaydi.

Biz olami kubro deya borliqni, olami sug‘ro deya insonni nazarda tutilishini tushunib yetdik. Tasavvuf ta’limotida shunday qarashlar mavjudki, insonga tuhfa etilgan qalb sababiyatidan, qalbini ifsho qilgan, komillikka erishgan shaxsiyatlarni aksincha OLAMI KUBRO, komil shaxsiyatni o‘rab turgan borliqni esa OLAMI SUG‘RO deyiladi. Chunki insonga taqdim etilgan qalb butun borliq o‘zida jamlagan informatsiyalar majmuasini his qila olishi, idrok eta olishi mumkin va bu hodisa Alloh taoloning inson qalbiga nazar tashlashi orqali sodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. Tasavvuf, – T.: Movarounnahr-O‘zbekiston, 2009
2. SHayx Najmiddin Kubro. Jamoling menga bas. – T.: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1994.
3. Usmon Turor. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999.
4. Азизиддин Насафий. Зубдатул ҳақойиқ. Н.Комилов таржимаси.. https://m.facebook.com/groups/398490023689394/permalink/884779928393732/?mibextid=Nif5oz
5. Саидакбарова, Мукаддас. "" TARIXI MULUKI AJAM"(" ИСТОРИЯ ИРАНСКИХ ЦАРЕЙ") КАК НАУЧНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ИСТОЧНИК." Theoretical & Applied Science 12 (2018): 122-126.
6. SAIDAKBAROVA, M. "Historical facts and poetic fictions in the work of Alisher Navoi." Scientific Journal of Fergana State University 1 (2018): 106-108.
7. SAIDAKBAROVA, M. "Historical facts and poetic inventions in Alisher Navoiy’s creative work." Scientific journal of the Fergana State University 1.4 (2018): 106-108.
8. Muqaddas, Saidakbarova. "INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENT AND SPIRITUALITY." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 405-409.
9. Saidakbarova, M. M. "Tarixi muluki Ajam." The history of Iranian kings”) as the scientific-artistic source. ISJ Theoretical & Applied Science 12.68 (2018): 122.
10. Tohirovna, Saidakbarova Mukaddas Muhammadrahimovna Mamatqulova Feruza. "The Bobur is the true of the Renaissance ruler..." Journal of Modern Educational Achievements 5.5 (2023): 442-447.
11. Yakhyokhanova, Oyzoda, and Saidakbarova Mukaddas Muhammadrahimovna. "Influence of the work of the Azeri poet in the works of representatives of the Kokand literary environment." Journal of Modern Educational Achievements 5.5 (2023): 448-457.

Gulandom TOG‘AYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

TASAVVUFDA RUHIY KAMOLOT QIRRALARI

Annotatsiya: maqolada inson ruhiy kamolotida tasavvufiy-diniy mazmundagi adabiy asarlarning o‘rni Mirzo Kenjabek ijodi misolida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, Komil inson, obraz, lirik kechinma, dard, ishq, Mirzo Kenjabek, lirika, obraz.*

Annotation: in the article, the role of literary works of mystical and religious content in human spiritual development is studied on the example of Mirzo Kenjabek's work.

Keywords: *sufism, Perfect person, image, lyrical experience, pain, love, Mirzo Kenjabek, lyric, image.*

Аннотация: в статье на примере творчества Мирзо Кенджабека исследуется роль литературных произведений мистического и религиозного содержания в духовном развитии человека.

Ключевые слова: *суфизм, Совершенный человек, образ, лирический опыт, боль, любовь, Мирзо Кенджабек, лирика, образ.*

Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o‘zining “Irfon va idrok” kitobida tasavvuf haqida fikr yuritib shunday degan edi: “Tasavvuf ahli – Alloh muhabbatiga berilgan oshiqdir. Ular dunyo go‘zalligi, hayot mazmuni, inson taqdiri va shaxsning ma’naviy-ruhiy kamolotini bevosita ilohiy ishq mohiyatiga muvofiq ravishda idrok etishgan”[1.107]. Tasavvuf she’riyati ko‘ngilni nurlantirib, ruhni uyg‘otadi. Poklik hamda samimiylik bilan Haq ishqiga undaydi. Tasavvuf she’riyati islomiy ma’rifatdan bahra olib, Qur’on va Hadisdan, Islomning mohiyatidan hikmatga to‘ladi, Ishq olamining shavqi ila qalblarni isloh etishga undaydi.

Alisher Navoiy “Tangri ehsoni” deb ta’riflagan, Fuzuliy esa “Rutbai she’r” (“She’r martabasi”) deb tavsiflagan she’riyatda qalam tebratgan kishilar ham Haq yo‘lidan yurguvchilardir. Shu boisdan ham Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotini komil inson ma’naviy olamiga oid diniy-ma’rifiy, didaktik mavzulardan ajragan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Mirzo Kenjabek sharq mumtoz an’analarini, tasavvuf maslagi ila ozuqalangan ijodiy o‘zanni davom ettirayotgan favqulodda nodir iste’dod sohibi, yetuk so‘z san’atkoridir.

Shoir asarlarida yaratilgan obrazlari orqali insonlarni tafakkur qilishga undaydi, lirik qahramonning ichki kechinmalarini ochib beradi. Shoir she’rlaridagi har bir obrazning o‘z falsafiy ma’nosi bor. Shoirning tasavvufiy-ma’rifiy ruhdagi she’rlarini o‘qir ekanmiz, ularning sarlavhasiyoq bizni qanday nodir tuyg‘ular o‘z bag‘riga chorlayotganidan darak bera boshlaydi.

Mirzo Kenjabek she’rlaridagi nasihatgo‘y lirik qahramon chin oriflik maqomlarini yaxshi bilgan inson qiyofasida gavdalanadi.

Dunyoda shohmisan, kosibmi, tojir,
Nafsing vatanidan qalbingni qochir.
Madinaga ko‘chgan muhojir derlar,
Rabbiga ko‘chganlar – asliy muhojir! [2.238.]

Inson komil, zohid, orif bo‘lishi uchun birinchi navbatda nafs bilan kurashda g‘alaba qilishi lozim. Bandaning bu foniy dunyodagi mansabi Olloh nazdida teng ekanligi ruboiyning dastlabki satrlaridan ta’kidlanadi. Qalbni nafsdan poklagan insongina Robbisiga yaqin va suyukli bandalardan bo‘la oladi. “Rabbiga ko‘chganlar – asliy muhojir” deya go‘zal tashbeh keltiradi va ilm-u amalda ham nafsni yengib, Alloh tomon qalbini poklab borganlarning darajasini ulug‘laydi. Bir so‘z bilan aytsak, shoir ijodi insof va diyonat, ishonch va e’tiqod, ezgulik va saodat, Vatanga muhabbat singari umuminsoniy fazilatlarni ulug‘lashga qaratilgan. Mirzo Kenjabek diniy-ma’rifiy yo‘nalishda ijod qilishga ilhomlantirgan sabablarni quyidagicha izohlaydi: “Istiqlol mening qulfi dilimni ochdi. “Sahihi Buxoriy” tahriri, “Sunani Termiziy” va “Tazkirat ul-avliyo” tarjimasi mening yo‘limni sayoz, majoziy darslardan teran, asl, haqiqiy, pok daryolar tomon burdi. Milliy universitetdan keyin hazrati Imom Buxoriy nomlaridagi Oliy Islom institutida ham ta’lim oldim. Naqshbandiya tariqatiga mansub bo‘lib, ma’no olamiga sho‘ng‘idim. Diniy-ma’rifiy kitoblar tahriri, tarjimasi va nashri menga ulkan mas’uliyat yukladi: xalqimizning imon-e’tiqodi, ma’naviy yehtiyojlari, yosh avlodning sog‘lom e’tiqod bilan to‘g‘ri kamol topmog‘i uchun, dunyo va oxirat saodati uchun butun kuch-quvvat va iste’dodimni fido qilish zaruriyati tug‘ildi. Buni to‘liq udda qila olmayotgan bo‘lsam-da, baholi qudrat harakatdaman”.[3.]Shoir ijodidagi tasavvufiy mavzuning badiiy talqinlari, lirik kechinmaning turfa xilligi hamda badiiy ifodadagi irfoniy-ijtimoiy g‘oyalar – bularning barchasi insof va diyonat, ishonch va e’tiqod, ezgulik va saodat, Vatanga muhabbat singari umuminsoniy fazilatlarni ulug‘lashga qaratilganini kuzatish mumkin. Qur’oni karim va Hadisi shariflarning badiiy talqinlarida aks etgan islomiy g‘oya va qarashlar orqali inson ko‘nglini ma’rifat ziyosi bilan yoritish, inson ruhiyati va psixologiyasini o‘zgartirish va poklash mumkinligi shoir Mirzo Kenjabek ijodiy

maqsadining asosiy g‘oyasi va ustuvor yo‘nalishini tashkil etadi.

Mirzo Kenjabekning so‘zi hamda amali bir bo‘lgan, ham hayot yo‘li, ham mazmunli asarlari bilan barchaga o‘rnak bo‘la oladigan chin ma’nodagi fidoyi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mirzo Kenjabek ijodi his-tuyg‘ulari jo‘sh urgan badiiy qahramon inkishofidir:

Hali o‘lmay turib, do‘stlar, bu hijron dog‘idan o‘ldim,
Ko‘zimda yosh bitib, sog‘lom yurak qaqrog‘idan o‘ldim.

Shoir aytgan “yurak qaqrog‘i” istilohi nimani anglatadi? Bu suvsizlikdan qaqragan gulning “hayqirig‘i” emasmi? Bu nidoning ismi Allohga muhabbat edi. Aslida Mirzo Kenjabek ijodining mohiyatida ana shu “ilm va muhabbat dengiziga g‘arqlik” bor, oshuftalik bor. Ana shu qudratli qat’iyat shoirning she’rlariga ham ko‘chgan:

Qonun yo‘q ishq degan qonundan bo‘lak,
Qismat! Bas, so‘rmagil qonimdan bo‘lak.
Raqib borin tikdi jonidan boshqa,
Mening hech narsam yo‘q jonimdan bo‘lak...[4.258]

Birinchi satrga diqqat qiling. “Qonun yo‘q ishq degan qonundan bo‘lak” deydi shoir. Bu juda katta ruhiy qadam. Bu juda bepoyon jarayon aslida. Chunki ishq tasavvufning “joni,” borlig‘i. “Ishq” istilohiga shoirlar necha asrlardan beri sharhlar bag‘ishlaydilar, ammo tugamaydi, asrlardan beri shoirlar o‘rtasida yakdil xulosa yo‘q. Chunki “Ishq, asli eski narsa, har bir yurak uni yangilaydi” (Rafael Toqtosh).

Shoir hadislarda kelgan ma’nolarni she’riy bayon etadi. Uning bu yo‘nalishda yozgan she’riy manzumalarida Shayx Ahmad Yassaviy hazratlarining, qolaversa, ushbu yo‘nalish izdoshlarining uslubiga xos ohanglar seziladi:

Mo‘minlarni hibs aylagan dunyosidir,
Unda jannat: sut va asal daryosidir,
Haq jamoli ne’matlarning a’losidir,
Ana shunday xushxabar bor mo‘minlarga! [5.38]

Shoirning bu she’riy talqinlarining negizida Qur’oni karimning “Baqara” surasi 25-oyati ma’nolari aks etadi: “(Ey Muhammad alayhissalom), iymon keltirib, yaxshi amallar qilgan zotlarga xushxabar beringki, ular uchun ostlaridan daryolar oqib turuvchi jannatlar bor”. Badiiy so‘z madaniyati bu – insonga o‘zligini o‘ziga tanitish san’atidir. Aslida, borliqning tiriklik mundarijasida insonning burchi, vazifalari kam emas. Lekin o‘zlik shunday bir daraxtki, u odamning sochidan tirnog‘igacha, fikr-tafakkur ummonigacha, tuyg‘ular osmoniga bo‘lgan ruhoniy – Vatandir. Shoir Mirzo Kenjabek ijodida ana shu tuyg‘ular dunyosiga ulkan oshuftalik bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иброҳим Ҳаққул. Ирфон ва идрок. – Т.: Маънавият, 1998.-Б.107.
2. Мирзо Кенжабек. Сайланма. – Т.: “Адабиёт нашриёти”, 2022.-Б.238.
3. http//: ziyouz.com. Мирзо Кенжабек. Руҳнинг озуқаси маънавият бозорларидадир.(2011)
4. Мирзо Кенжабек. Сайланма. – Т.: “Адабиёт нашриёти”, 2022.-Б.258
5. Мирзо Кенжабек. Хушхабар. – Т.: “Наврўз”, 2018. -Б.38

Maftuna RAHIMOVA,
PhD,
dotsent, Qo‘qon DPI

FALSAFADA SO‘ZGA BELGI SIFATIDA QARASHNING VUJUDGA KELISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada falsafada so‘zga belgi sifatida qarashning tadrijiy taraqqiyoti, so‘z va predmet munosabati, ifodalovchi va ifodalanmish haqidagi qarashlar tahlili keltirilgan.

Kalit so’zlar: *belgi, so’z, predmet, til, ifodalovchi, ifodalanmish, munosabat.*

Аннотация: в данной статье представлен анализ постепенного развития взгляда на слово как знак в философии, взаимоотношения слова и предмета, репрезентирующего и выражаемого.

Ключевые слова: *знак, слово, предмет, язык, представитель, выражение, отношение.*

Annotation: this article presents an analysis of the gradual development of the view of the word as a sign in philosophy, the relationship between the word and the object that represents and is expressed.

Key words: *sign, word, object, language, representative, expression, attitude.*

Kirish. So‘zga belgi sifatida qarash antik falsafa davrida vujudga kelgan. Ma’lumki, bu falsafa o‘z tarkibiga barcha xususiy fanlarning ilk muammolarini qamrab olgan naturalistik falsafa edi. Unda so‘zning borliqqa, so‘z tovush tomonining o‘z predmetiga munosabati, borliqning so‘zda in’ikos etishi masalalari muhokama etilgan. Bu o‘rinda shuni eslatish kerakki, yunon faylasuflari “so‘z” atamasini har xil ma’nolarda, ya’ni so‘zning faqat tovush tomoni uchun ham, tovush tomoni va ma’nosi uchun ham, faqat ma’nosi uchun ham qo‘llaganlar. Ular so‘z ma’nosi, tushunchasi va predmeti (dyenotati) orasiga chegara qo‘ymaganlar. Ko‘pincha so‘zning “tovush” tomoni uchun “nom”, “ot”, “ism” atamalaridan foydalanadilar.

Antik davr faylasuf – tilshunoslarining so‘z bilan bog‘liq muammolaridan biri so‘z (nom) va predmet orasidagi munosabatdir [5:15; 4:17]. Biz bunda so‘zning belgili tabiati haqidagi turlicha qarashlarga duch kelamiz. Ularda, yuqorida eslatilganidek, so‘z borliqni (predmetni) to‘g‘ri aks (in’ikos) ettira oladimi, nom va predmet (ma’no, tushuncha) orasida bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, to‘g‘rilik, moslik bormi yoki, aksincha, shartlilik, mos emaslik mavjudmi kabi savollarga javoblar beriladi.

Platonning (er.avv. 427-347y.) “Kratil” asari so‘zdagi nom (nomema, tovush tomon) va so‘z (nom) ifodalayotgan predmetga (denotatga, referentga) munosabati bahsiga bag‘ishlangan[5:16]. Unda ikki suhbatdosh – Germogen va Kratilning nom va predmet munosabati bo‘yicha dialog bahsi berilgan.

Asosiy qism Kratilning fikricha, grek tilida ham, varvarlar (ajnabiylar) tilida ham har bir qo‘yilgan nom (ot) to‘g‘ri, ya’ni o‘z predmetining mohiyatiga, asliga, xususiyatlariga mos keladi. Sokrat Kratil fikrlariga qo‘shilib, shunday deydi: “Hech kim o‘z ixtiyori bilan so‘zni o‘zgartira olmaydi. Qurol biror ishni ishlashga muvofiq bo‘lgani singari so‘zlar ham o‘zlari anglatgan narsalarga muvofiq bo‘lishlari kerak. Demak, ular avvaldan ma’lum to‘g‘rilikka ega. Hamma ham yangi so‘z yarata olmaydi; so‘z yaratishni va narsalarning tabiatini biladigan kishigina buni qila oladi”. Sokratning yana davom etib aytishicha, ayrim harflar (tovushlar) biror sifatga taqlid qiladi yoki biror xususiyatni ifodalaydi. Shunga ko‘ra, ot bilan predmet orasida moslik yuzaga keladi. Masalan, r tovushi harakatni (grekcha “rol” – oqim, “reun” – oqmoq), l tovushi yumshoq va silliq narsalarni (“lenos” – silliq, “liparos” – semiz) ifodalaydi (keyinchalik l tovushini “silliq undosh” deb nomlash ham shu bilan bog‘liq)[5:16].

Faylasuf Gyeraklitning fikricha, narsalarning nomi tabiat tomonidan berilmagan. Buni omonim, sinonim so‘zlarning borligi bilan asoslaydi: “Bir biri bilan farq qiladigan narsalarning nomlari qanday qilib bir xil (omonim) bo‘lishi yoki bir narsaning qanday qilib bir necha oti (sinonim otlar) bo‘lishi mumkin...”. Keyinroq Zenon (er.avv.336-264y.) asos solgan stoiklar falsafasida yana so‘z va predmetning uyg‘unligi, mosligi, tabiiy bog‘lanishi, to‘g‘riligi zaruriy hisoblanadi. Bunday qarash tarafdorlari so‘z predmetning xususiyatini ifoda etadi, so‘zlovchi gapirganda so‘z orqali uning ongida hosil bo‘lgan predmet va uning xususiyatlari tinglovchi ongida ham bo‘ladi, ya’ni so‘zning tovush tomoni predmetni bevosita ifodalaydi deb tushunganlar. Shundan kelib chiqib, yoqimli, shirin narsalarning nomlari ham quloqqa mayin, yoqimli eshitiladigan tovushlardan, aksincha, achchiq narsalarning nomlari esa dag‘al, qo‘pol, yoqimsiz tovushlardan tashkil topadi deganlar. Bizningcha, har bir tilda muayyan tushunchani ifodalashga xoslangan tovushlar borligi, so‘z (nomema) va narsa-hodisa o‘rtasida bog‘liqlik, uyg‘unlik qisman borligi to‘g‘ri bo‘lsa-da, ammo tildagi tovushlar (fonemalar)ni dag‘al, qo‘pol yoki yoqimli tarzida ajratish lingvistik nuqtai nazardan xatodir. Qolaversa, tilda shunday so‘zlar uchraydiki, ularning ma’no taraqqiyoti natijasida avvalgi ma’nosiga tamoman zid bo‘lgan ma’noni ifodalaydi. Masalan, basir so‘zi arab tilida, eski o‘zbek tilida “o‘tkir ko‘zi” degan ma’noni ifodalagan bo‘lsa, hozirgi o‘zbek tilida dastlabki ma’noga mutlaqo zid “so‘qir, ko‘zi ojiz” degan ma’noni bildiradi.

Stoiklarning so‘zning tovush tomoni va ma’nosi orasida tabiiy bog‘lanish, uyg‘unlik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish bor degan qarashi etimologik kuzatishlarda ham aks etgan. Bunga ko‘ra, tildagi dastlabki so‘zlar tovushga taqlid so‘zlar bo‘lgan. Barcha boshqa so‘zlar shu asosda tovushlarini, ma’nolarini o‘zgartirib borib hosil bo‘lgan [5:18].

So‘zlarning paydo bo‘lishi muammosini hal qilishda ham epikurchilar stoiklardan boshqacha yo‘l tutdilar. Ularning fikricha, dastlabki so‘zlarning paydo bo‘lishida taqlid so‘zlar emas, balki undovlar birlamchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Ya’ni kishilar narsa-hodisalarni ko‘rganlarida ularga turlicha modal munosabatlarni bildirganlar, kuchli his-hayajonlarining tabiiy ifodasi sifatida har xil tovushlar chiqarganlar, natijada ayni his-hayajon va qichqiriqlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan dastlabki undov so‘zlar yuzaga kelgan. Tildagi boshqa so‘zlari ana shu undovlardan hosil qilingan. Ko‘rinadiki, so‘z va uning denotati orasida bog‘liqlik bo‘lgan, keyinchalik bu bog‘lanish asosida shartli bog‘lanishlar hosil qilingan, degan xulosalar epikurchilar etimologik kuzatishlarining diqqat markazida turgan.

Eramizdan avvalgi I asrda yashab o‘tgan Figul so‘zning tovush tomoni bilan uning ma’nosi orasida bog‘lanish borligini isbotlash uchun misollar keltiradi [5:19]. Masalan, “vos” (siz) olmoshi talaffuzida lablar tinglovchi tomon cho‘ziladi, “nos” deyilganda esa lablar oldinga cho‘zilmaydi, nafas so‘zlovchining ichida qoladi. Shu kabi holatlar “tu” (“sen”), “yago” (“men”) so‘zlari talaffuzida ham ko‘zga tashlanadi. Ma’lumki, eramizdan oldingi I asrda va eramizning I asrlarida ham nom va predmet munosabati bo‘yicha analogistlar (tabiiy bog‘liqlik bor deyuvchilar) va anomalistlar (tabiiy bog‘lanish yo‘q deyuvchilar) orasida tortishuvlar ketgan.

Xulosa So‘zga belgi sifatida qarash stoiklar davridan so‘ng Avgustin ishlarida ham uchraydi. Avgustin, stoiklardan farqli o‘laroq, faqat tabiiy belgilar haqida emas, balki madaniy (so‘z, tushuncha, obraz kabi) belgilarni ham etirof etadi [1:13]. XVII asrga kelib, so‘zning belgiligi va belgishunoslik (“Semiotika”) haqida jiddiy fikr bildirgan olimlardan biri Dj. Lokk edi. U o‘zining “Inson aqlini rivojlantirish tajribasidan” asarining uchinchi qismini “Belgilar haqidagi ta’limot” deb ataydi. Uning fikricha, bu qismni “Logika” ham deb

nomlash mumkin. Logika yoki belgilar haqidagi fanning maqsadi predmetlardan aql hosil qilishda yoki kishilarning bir-birlariga bilim berishlarida foydalaniluvchi belgilar yoxud so‘zlarning mohiyatini ko‘rib chiqishdan iborat [2:200].

Jahon nazariy lingvistikasining asoschilaridan biri, faylasuf tilshunos V. Gumbolt o‘z ishlarida so‘zning belgiligini e’tirof etadi: “So‘z tushunchaning belgisi... so‘z sezgi a’zolarimizga ta’sir etuvchi predmetning ekvivalenti emas... so‘z erkinlikka va motivatsiyaga ega... Til tovushi uni fikr ifodalovchiga aylantiruvchi ruhning uzluksiz faoliyatidir. Til – odam va olam o‘rtasidagi oraliq olam...” [3:33].

Shunday qilib, so‘zga belgi sifatida qarash antik davr naturalistik falsafasidan ajralib chiqdi va belgishunoslik (semiotika/semiologiya) fanining predmetiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Августин А. О диалектике. Перевод с латыне, введение и примечание С.С. Неретиной. Философский журнал. 2016. № 2
2. Локк Дж. Опыт о человеческом разумении // Сочинение. Под ред.С.Нарского М.: Мысль. 1985. – С 200
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. Тошкент: Академнашр. III том, 2012. – Б. 33
4. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Фан ва технология маркази. 2010 – Б. 17
5. Усмонов С. Умумий тилшунослик. Тошкент. Ўқитувчи. 1977. – Б. 16

Aziza XOLBOBOYEVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
O‘ZDJTU doktoranti
E-mail: azizakholboboeva1611@ gmail.com

SOTSIOLINGVISTIKANING REKLAMA DISKURSIDAGI IFODASI

Annotatsiya: mazkur maqola reklama diskursida sotsiolingvistik aspektning ifodalanishiga oid bo‘lgan nazariy qarashlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *qadriyat, obraz, appelativ-emotsional funksiya, mahsulot, xizmat, sotsiolingvistik portret, ijtimoiy tabaqalanish.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические взгляды на выражение социолингвистического аспекта в рекламном дискурсе.

Ключевые слова: *ценность, имидж, апеллятивно-эмоциональная функция, товар, услуга, социолингвистический портрет, социальная стратификация.*

Annotation: this article analyzes the theoretical views on the expression of the sociolinguistic aspect in advertising discourse.

Key words: *value, image, appellative-emotional function, product, service, sociolinguistic portrait, social stratification.*

Zamonaviy sotsiolingvistikada til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi masalasiga alohida o‘rin berilgan. Bu bog‘lanishlar ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lib, turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqa jarayonlari leksik o‘zlashuvlarda ham o‘z aksini topadi. Shubhasiz, zamonaviy sharoitda tilni o‘zlashtirish jarayonlari va ularning nutqning stilistik va janr turlarida rivojlanishi umumiy madaniy, mafkuraviy, ijtimoiy kontekstga ega. Reklama diskursining sotsiolingvistik jihatini o‘rgangan bir qator olimlar reklamaning ta’sir doirasi nihoyatda keng ekanligidan kelib chiqib, reklama nafaqat tovar va xizmatlar to‘g‘risidagi ma’lumot, balki iste’molchiga ularni sotib olishga munosabat bildirishini ta’kidlaydilar. Shu bilan bir qatorda, o‘ziga xos mafkuraviy kod, ijtimoiy, axloqiy, siyosiy, oilaviy ramziy qadriyatlar tizimini quradi.

Reklama diskursi, odatda, og‘zaki nutq va yozma matn xususiyatlarini paralingvistik va ekstralingvistik vositalar majmuasi bilan birlashtirgan qat’iy yo‘naltirilgan pragmatik munosabat ega to‘liq xabar sifatida anglashiladi. Reklama diskursining markazi lavozim maqomi teng bo‘lmagan aloqa ishtirokchilari – reklama beruvchi / reklama agentligi / reklama tarqatuvchi va iste’molchining bevosita yoki bilvosita o‘zaro ta’siridir. Reklamaning asosiy maqsadlari potensial xaridorning e’tiborini jalb qilish va uni reklama qilingan mahsulotni sotib olishga undashdir, ya’ni har qanday yo‘l bilan reklama iste’molchilarining pragmatik sohasiga ta’sir qilish.

Reklama diskursining tasnifi quyidagi omillarga bog‘liq: birinchidan, taqdim etilayotgan obyektga (tovar, firma, xizmatlar reklamasi va boshqalar); ikkinchidan, ko‘lamidan (tijorat, ijtimoiy, siyosiy); uchinchidan, qabul qiluvchidan (ommaviy iste’molchi yoki tor doiradagi mutaxassislar); to‘rtinchidan, axborot tashuvchisi (matbaa, televizor, internet, tashqi makon va boshqalar); beshinchidan, ta’sir qilish usuli (majoziy, assotsiativ, obyektiv, hissiy, ratsional va

boshqalar); oltinchidan, ifoda vositalari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri, allegoric (yun. “allegoria” — o‘zgacha ifodalash, kinoya, qochirim) — badiiy tasvir, obrazlilik turi; mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni muayyan narsa, voqea va hodisa orqali ifodalash. Masalan, “to‘ti” so‘zining “gapdon”, “bulbul” so‘zining “yaxshi qo‘shiq aytuvchi” ma’no ifodalari bo‘lsa, “bo‘ri”, “tulki” so‘zlaridan “yomonlik”, “yovuzlik”, “ayyorlik”ni ifoda etuvchi salbiy ma’nolarda foydalaniladi. So‘z bilan obraz o‘rtasidagi aloqa o‘xshashlik yoki uyg‘unlikka asoslanadi (masalan, “qalb-sevgi”). trop), “yumshoq”, “qattiq”. Majozda tushuncha orasidagi yaqinlikka asoslanib, yangi shartli ifoda yaratiladi.

Ma’naviy qadriyatlar (haqiqat, muhabbat, vijdon, imon kabi)ni anglatuvchi umumiy tushunchalar bilan birga ma’lum tipik hodisalar, xarakterlar, mifologik personajlar, hatto aniq shaxslar ham majoz o‘rnida kelishi mumkin. Obrazda hamisha oldindan ma’lum bo‘lgan fikr qayd etiladi. Shu tufayli majoziy obraz, oddiy badiiy obrazdan farqli ravishda, maxsus sharhni talab qiladi .

Reklama matnini amalga oshirishning asosiy shartlari axborotning ***qisqaligi, ishonchliligi, dinamikligi, ravshanligi*** va boshqalarga bog‘liq bo‘lsa-da, bu turdagi reklama nutqining har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Reklama matni har qanday matndan o‘ziga xos farqlarga ega, chunki bunday matnlarni yaratish maqsadi aniq bo‘lib, bu yakuniy natijaga alohida qiziqish bilan belgilanadi: qabul qiluvchi reklama obyekti haqida ma’lum darajadagi bilimga ega; mahsulot, xizmat, tovar belgisini sotib olish qarorini rag‘batlantirish; u yoki bu nomzod uchun saylovda ovoz berish to‘g‘risida; muayyan siyosiy partiyani qo‘llab-quvvatlash; muayyan ijtimoiy dasturlarni qo‘llab-quvvatlash; ma’lumot berish yoki o‘rgatish (masalan, dorivor mahsulotni reklama qilishda, shifokordan maslahat olish uchun maslahat). Reklama diskursidagi funksional farqlar qabul qiluvchiga pragmatik manfaatdor murojaatni (appelativ-emotsional funktsiya), qabul qiluvchini xabardor qilish / tanishtirishni (vakillik funksiyasi), mahsulot yoki xizmatga talabni shakllantirish uchun potensial xaridorga ta’sir qilishni anglatadi.

Reklama diskursida slang, qisqartmalar va so‘zlashuv shakllari qo‘llanilishi nutqning so‘zlashuv turiga yaqinlashtirish usuli sifatida faol qo‘llaniladi.

Masalan: English: “Ritz” – ready when you aren’t”.

O‘zbek: “Sen biz bilan sayravorasan” singari reklamalarni misol qilib olishimiz.





Taqdim etilgan xulosalar bizning tadqiqot korpusimizdagi misollar bilan tasdiqlanishi mumkin. Masalan: “Snickersni oling!” – yoshlarning maqsadli auditoriyasiga qaratilgan Snickers shokolad barining reklamasi yoshlar jargonlari bilan faol belgilanadi, buni reklama shiorining ingliz tilidagi versiyasini o‘zbek tiliga tarjima qilishda ko‘rish mumkin. “Pepsi” – o‘z didingga ishon!, “Yanada chanqoq bo‘l!”, “Coca-cola” – Haqiqiy mo‘jiza!, “Ochmisiz? Snicker oling!” – “Shovqin solmang!” singari reklamalar shular jumlasidandir. Ingliz tilidagi «PowerVac» changyutgich reklamasi esa qo‘yidagicha ifodalanib «You’ll love this vac and how it effortlessly devours dirt !»; o‘zbek tilidagi reklama bunday leksik birliklardan faol foydalanadi, chunki bugungi kunda media-mahsulotlar dizayni uchun qat’iy tartibga soluvchi qoidalar va talablar yo‘q ("Milka” – mayinroq bo‘lsa mazaliroq! , “Techno Mart” – yahshilikka buyursin!, “Uzum Market” – Xaridlar biz bilan boshlanadi!"; "Faqat salqin ichimlik"; "Sening didingga mos miks! (“Goodmix” shokoladi reklamasi)". Mazkur o‘rinda agar biz e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tilning ijtimoiy tabaqalanishida so‘zlovchilarning yoshi, ularning bilim darajasi, turli ijtimoiy guruhlarga mansubligi va boshqa bir qator xususiyatlarning og‘zaki muloqot jarayoniga ta’sirini o‘rganish bilan bog‘liq masalalardan ham tashkil topgan bo‘ladi. Ijtimoiy rol tushunchasi kommunikativ harakatni loyihalashning xususiyatlarini aniqlash uchun alohida qiziqish uyg‘otadi, zero u til vositalarini tanlashni, ularning muvofiqligini va nutqning fonetik dizayni usullarini belgilaydi.

Sotsiolingvistik portretlarni yaratishni sotsiolingvistik tadqiqotlarning juda istiqbolli yo‘nalishi deb hisoblash mum-

kin, chunki shaxs nutqida ma'lum bir ijtimoiy muhitning til odatlariga xos xususiyatlari to'planishi mumkin .

Reklama diskursining ham bosma yoki og'zaki shakli dizaynida pretsedent hodisalardan foydalanish reklamaning pragmatik salohiyatini oshishiga sabab bo'ladi, uni yanada yorqin va esda qolarli qila oladi.

Jamiyatning "Gender komponenti va gender stereotiplari"ning aksini o'rganish zamonaviy reklama diskursining o'ziga xos xususiyatlaridan biri. Zero, "bugungi kunda gender tadqiqotlari ayollik va erkaklikni ikki ijtimoiy-madaniy konstrukt sifatidagi xususiyatlari, ayollar va erkaklar orasidagi farqlar to'g'risidagi g'oyalar, ularning jamiyatdagi o'ziga xos rollari haqidagi masalalar bilan bog'liq ".

G.I.Ergasheva "Tilshunoslikda gender tadqiqotlarining yuzaga kelishidagi omillar" sifatida har qanday fanning yuzaga kelishidagi muhim omillar gender tilshunosligi yoki gender va til tadqiqotlari rivojiga tatbiq etildi: 1) pragmatik omil – lingvistik tadqiqotlar natijalarining jamiyat ehtiyojlariga ta'siri; 2) epistemologik omil – "bilish"ning umumiy darajasi deb hisoblaydi. Tilshunoslikda antropotsentrik paradigma inson omili, uning aqliy va hissiy olami, tashqi dunyo bilan aloqasiga bo'lgan qiziqish natijasida rivojlandi. Shu ma'noda V.Gumboldtning til va madaniyat falsafasiga bag'ishlangan asaridagi jinslar farqi va uning organik tabiatga ta'sirining mukammal izohi genderologiyaning rivojiga katta hissa qo'shgan ;

Gender – (ijtimoiy yoki ijtimoiy-madaniy jins) lingvistik kategoriya emas, lekin uning mazmunini tilning tuzilmalarini tahlil qilish orqali aniqlash mumkin, bu jinsning madaniy vakilini o'rganish uchun lingvistik kompetentsiyaga bo'lgan talabni tushuntiradi . Tilda jins qanday vositalar bilan, qaysi semantik sohalarda, qaysi hollarda belgilanishini aniqlash muhimdir. Stereotiplarni, ularning rivojlanish dinamikasini o'rganish, bu jamiyatning an'anaviy rolini farqlashdagi o'zgarishlarni aks ettiradi, "gender" tadqiqotining juda dolzarb soha hisoblanadi. Shunday qilib, bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, tilda gender stereotiplari har ikkala jinsning fazilatlari, xususiyatlari va xulq-atvor me'yorlari va ularning aks etishi to'g'risidagi madaniy va ijtimoiy shartli qarashlarning alohida holatidir. Eng barqaror stereotiplardan biri bu ***rol o'ynashdir***. Ushbu stereotip allaqachon erta yoshda shakllangan gender e'tiqod tizimining ta'siri natijasi, ya'ni erkaklar va ayollar muayyan vaziyatlarda hissiy munosabatda qanday bo'lishi kerakligi haqidagi bilim va me'yorlar. Hozirgi kun reklamalarida ham aynan shu jihat ahamiyatli.

Bir muncha vaqt oldin, tilidagi reklamada "jiddiy va mas'uliyatli ish" va "ishdagi ayol" tushunchalari stereotipik tarzda qarama-qarshi edi. Biroq, hozirgi vaqtda ayolning reklama qiyofasi o'zgarmoqda va biroz boshqacha shaklda taqdim etila boshlandi. Ayol endi reklamalarda o'z mustaqil fikriga ega, energiyafa to'la, o'zini shaxs sifatida anglashga harakat qiladigan, teng kasbiy imkoniyatlarga ega qiyofasida aks etilayapti .

Bunday obrazni tavsiflash uchun, natijada, shaxsning irodaviy sifatlari, jumladan, qat'iyatlilik, mustaqillik, o'z rivojlanishini aks ettiruvchi leksemalar ishlatiladi: *"Cheksiz yashang!"; "O'zingizni seving!"; "Siz yagonasiz!"; "Jang bilan birga bo'ling!"; "Har doim o'zingizga ishoning!"; "Aql va amaliylik sizni tushkunlikka solmaydi"; "Siz nima kerakligini bilasiz"*va o'zingizni olasiz va hakozolar.

Erkak uchun voqealarning vaqtinchalik rivojlanishining mantiqiyligi xarakterlidir. Ushbu stereotipning ommaviy axborot vositalarida namoyon bo'lishi; ammo, xulosalar vakillik deb da'vo qila olmaydi, chunki kopirayterning jinsi, qoida tariqasida, "sahna ortida" qoladi. Mosheva S.V. o'zining maqolasida ayollar nutqining ko'proq xushmuomalaligi haqidagi mavjud stereotip reklama diskursi tahlilida o'z tasdig'ini topmaydi deb hisoblaydi, biroq o'zbek reklamalarida "xushmuomalalik" insoniy-o'zbekona fazilat sifatida ko'rsatiladi. Ingliz reklamalarida esa xushmuomalalik darajasi jins darajasi emas, u to'g'ridan-to'g'ri umumiy madaniyat darajasiga, erkaklar ham, ayollar ham teng darajada bog'liqlilii ko'rsatiladi. Bizningcha, xushmuomalalik nafaqat til birliklarining mulki, balki so'zlovchi xatti-harakatlarining strategik tamoyili bo'lib, kommunikativ vaziyatga mos ravishda til vositalarini tanlash, so'zlovchining kommunikativ malakasini ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, dunyoning barcha madaniyatlari ma'lum qoidalarga ega, kommunikativ harakatlarning muvaffaqiyatli oqimini ta'minlash va muloqot ishtirokchilariga ma'lum normalarni belgilash rioya qilinishi kerak bo'lgan xatti-harakatlar. Chunki hamma odamlar o'z madaniyatiga muvofiq harakat qilishadi jamiyatning kutishlari, ularning xatti-harakatlarini stereotipik nutq xatti-harakati deb atash mumkin.

Olib borilgan tahlillarga asoslanib, reklama xabarining erkakka yo'naltirilganligining asosiy ko'rsatkichi erkaklik stereotipidan foydalanish, erkaklik xususiyatlariga, erkakning ijtimoiy rollariga (o'g'il, ota, turmush o'rtoq) e'tibor qaratishdir degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Николаева Т. М. «Социолингвистический портрет» и методы его описания // Русский язык и современность. Проблемы и пер_спективы развития русистики. М., 1991. Ч. 2. С. 17–56.; Панов М. В. История русского литера_турного произношения XVIII–XX вв. М.: Наука, 1990. 350 с.

2. Мощева С. В. Социолингвистический аспект текстов массмедиа.135

3. Marcella De M. Audiovisual translation through a gender lens. – Amsterdam-NY, 2012. - p.25

4. Гумбольдт В. фон. О различии между полами и его влиянии на органическую природу // Язык и

философия культуры. – М., 1985. – С. 142-159.
5. G.I.Ergasheva. Turli tizimdagi tillarda genderga oid terminologiyaning shakllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillar .Fan dok.diss.avtoreferat . 2018.14 - bet.
6. Кирилина А. В. Гендерные аспекты мас_совой коммуникации // Гендер как интрига познания. М.: Рудомино, 2000. С. 47–81.
7. Kholboboeva, A. Sh. (2020). The Strategies of Organizing Advertisement of Tourism. Proceeding of the ICECRS, 6, 443-445. https://doi.org/10.21070/icecrs2020663.
8. Kholboboeva, Aziza (2020) "THE NOTION OF ADVERTISING DISCOURSE IN MODERN UZBEK LINGUISTICS," Philology Matters: Vol. 2020: Issue. 2, Article 9.DOI: 10.36078/987654439 .
9. Kholboboeva Aziza Sherboboevna. (2022). COMPARATIVE DISCOURSE
10. https://www.insider.com/guides/home/best-vacuum

Xurshida RO‘ZIYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA FRAZEOLOGIZMLAR BADIIY TASVIR VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning o‘z she’rlarida frazeologik birliklardan foydalanish mahorati yoritilgan.
Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, frazeologiya, frazeologik birlik, frazeologik sinonim, leksik-frazeologik sinonim.*
Аннотация: в данной статье рассматриваются фразеологизмы и их изучение, умение народного поэта Узбекистана Абдуллы Орипова использовать фразеологизмы в своих стихотворениях.
Ключевые слова: *Абдулла Орипов, фразеология, фразеологическая единица, фразеологический синоним, лексико-фразеологический синоним.*
Annotation: in this article, phraseological units and their study, people's poet of Uzbekistan Abdulla Oripov's ability to use phraseological units in his poems are covered.
Key words: *Abdulla Oripov, phraseology, phraseological unit, phraseological synonym, lexical-phraseological synonym.*

Frazeologiya – bu frazeologik birliklarining semantik va tuzilish xususiyatlarini o‘rganuvchi, ularning til tizimida paydo bo‘lish sabablarini va nutqda qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganuvchi til fanining maxsus tarmog‘i.

Frazeologik birliklar – umumiy yaxlit ma'nosi qisman ularning tarkibiy qismlarining semantikasi bilan bog‘liq bo‘lgan, majoziy ma'noda ishlatiladigan turg‘un birikmalar: boshi berk ko‘chaga yeting, oqim bilan boring, uni o‘z qo‘lingizga oling, tilingizni tishlang kabi .

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya asoschisi filologiya fanlari doktori professor Shavkat Rahmatullayev hisoblanadi. U o‘zining qator ilmiy tadqiqotlarida iboralarning til hodisalari bilan o‘xshash va farqli xususiyatlari va grammatik tabiatini o‘rgandi, ilk bor o‘zbek frazemalarining izohli lug‘atini tuzdi. Bu lug‘atda iboralarning ma'nosini izohlab bergan. Uning o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarga xos grammatik-leksik, semantik xususiyatlarga bag‘ishlangan bir qancha maqolalari, qo‘llanmalari va monografiyalari e’lon qilingan. Jumladan, "O‘zbek tilida frazeologik birliklarining asosiy semantik turlari haqida"(1956), "Sintaktik tahlilda frazeologik birliklar ustida ishlash"(1956), "Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi o‘zlashgan frazeologik birliklar haqida"(1957), "Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar grammatik qurilishining o‘zgarishi haqida"(1963), "Fe'l frazeologik birliklarda moslashuv"(1964), "O‘zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari", "Nutqimiz ko‘rki"(1970), kabi tadqiqotlari Shavkat Rahmatullayevning haqli ravishda mamlakatimizda o‘zbek frazeologiyasini o‘rganishning asoschisiga ko‘tardi.

Tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ilk bor rus tilshunosi Polivanov tahlil qiladi va u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas balki mustaqil tilshunoslik bo‘limi ekanligini asoslab bergan edi .

Frazeologizm lug‘aviy birlik bo‘lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil so‘z kabi harakat qiladi – bir gap bo‘lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. Madamin bo‘yniga qo‘yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi. (P. Tur.) 2. Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi. (S.Zun.) 3. Qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda-sonda ro‘y berib turibdi. 4. Kovushini tog‘rilab qo‘yish kerak. (As.Mux.) 1- va 2-gaplarda frazeologizmlar gap markazi – kesim mavqeyida, 3-gapda so‘z kengaytiruvchisi aniqlovchi va 4-gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan.

Shuningdek, Abdulla Oripov she’rlarida frazeologik birliklardan unumli foydalanganini ko‘rishimiz mumkin.

Umrimdan ming marta roziman, biroq
Gohida ko‘ksimni ortiq keribman.
Yoshlik – g‘o‘rlik ekan, anglamay, ko‘proq
Katta shaytonlarga salom beribman.

Ushbu she’rdagi ko‘ksini kermoq iborasi ko‘krak

kermoq iborasi bilan ma’nodosh bo‘lib, yelkalarini yonga surib, ko‘ksini olg‘a chiqarib, faxrlanganini, g‘ururlanganini bildirmoq degan ma’nolarni bildiradi. Ana shunda bu qurilishga mening ham hissam qo‘shilgan deb, bemalol ko‘krak kera olishi mumkin ekan. M.Muhamedov. Yurak so‘zlari .

Bir qarasam, do‘st-u yordan **ko‘nglim to‘q**day,
Bir qarasam, atrofimda hech kim yo‘qday.
Bir qarasam, bu dunyoda baxtim borday,
Bir qarasam, butkul **olam** menga **tor**day.
Bir qarasam, murodimga yetgandayman,
Bir qarasam, **ko‘zim ochiq ketgan**dayman.

Shoirning “Bir qarasam” she’ri misralarida keltirilgan har bir iboralar she’r badiiyligini oshirishga xizmat qilgani va ulardan mahorat bilan foydalanganiga guvoh bo‘lamiz. Shu she’rda qo‘llanilgan “ko‘ngli to‘q”(kimning? nimadan? yoki kimdan? ishongani holda xotirjam) iborasi “Parhez” nomli she’rida fe’l so‘z turkumi sifatida qo‘llanilganini uchratish mumkin.

Bemor tushib qoldi g‘alati holga,
So‘ngra izoh berdi ushbu ahvolga:
— Do‘xtirjon, ko‘ngilni qilabering to‘q,
Bunday taomlarni ko‘rganim ham yo‘q.

Quyida shoirning “O‘zbekman” nomli she’ridagi iboralarga diqqat qaratsak:

O‘zbekman, inshoolloh, iymonim butun
Tilim qisiq emas bashariyatdan…
…Dunyoni olsam-da jahongir bo‘lib,
Go‘dak yig‘isiga **yo‘qdir toqatim.**
O‘zbekman, qanchalik **jafo chekmayin,**
O‘zimga haq bo‘ldim, o‘zimga haqman.
Yashadim yovlarga **bo‘yin egmayin,**
Bu kun o‘z erkiga erishgan xalqman.

Tili qisiq bo‘lmoq – gapirmaslikka, e’tiroz bildirmaslikka majbur bo‘lmoq; toqati yo‘q – sabr etmaslik; jafo chekmoq – o‘zganing manfaati yo‘lida o‘zini azob-uqubatga qo‘ymoq; bo‘yin egmoq – itoatkor bo‘lmoq. Sinonimi: bosh egmoq 1 kim? kimga? bo‘yn(i) ni xam qilmoq kim? [o‘zining] kimga? (eskirgan).

Shoir hikmatlardan yangi ma’nolar chiqaradi:

Goho, yer mehrini o‘ylarkan,
Esga tushar dorning siyog‘i.
Ajab hikmat odam o‘larkan
Uzilganda… yerdan oyog‘i?

Xalqimiz “Oyog‘i yerdan uzilgan” iborasi ham qo‘llanilib, bu ibora mansab tegishi bilan o‘zgalarni nazar-pisand qilmay qoladigan takabbur, mansabparast kishilarga nisbatan ishlatiladi. Bunday toifadagi kishilarning davr-u davroni uzoqqa bormaydi. Shoir bu iborani reallikka asoslayapti, ya’ni dorga tortilgan insonning oyog‘i yerdan uzilishi bilan hayoti ham tugaydi. Bu yerda ibora ham majoziy ma’no ifodalashga, ham real ko‘rinish yaratishga xizmat qilmoqda.

Ma’nodosh iboralar. Bir-biriga ma’nosi yaqin iboralar ma’nodosh iboralar (frazeologik sinonimlar) deyiladi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ularni ayni bir ma’noni anglatish shart. Busiz sinonimlik haqida gapirib bo‘lmaydi. Ayni bir ma’nolilikni teng ma'nolilik deb tushunmaslik kerak. Har bir sinonim shu sinonimik uya uchun umumiy ma'nodan tashqari o‘ziga xos ma'no qirrasiga ham ega bo‘ladi. Masalan, yer bilan yakson bo‘lmoq-yer bilan yakson qilmoq iborasi kulini ko‘kka sovurmoq – kuli ko‘kka sovurildi iborasiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi ["butunlay yemirmoq, yo‘q qilmoq"]. Bu sinonimlar ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no biroz kuchliroq.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun ibora tarkibidagi so‘zlar e'tibor berish kerak. Ibora tarkibida turli so‘zlar qatnashgan bo‘lsa, ular o‘zaro sinonim iboralar bo‘laveradi. Masalan, "butun tafsiloti bilan, mayda chuydasigacha" ma'nosini anglatadigan ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug‘igacha iboralari sinonim bo‘lib, ular tarkibida umumiy so‘zlar yo‘q. Sinonim iboralarning leksik tarkibida biror qismi ayni bir so‘z bilan ifodalangan bo‘lishi mumkin. Ammo bundagi boshqa-boshqa so‘zlar bilan ifodalangan qismlari o‘zaro sinonim bo‘lmasligi kerak. Masalan, jonim hovuchlab va yuragini hovuchlab iboralari-sinonim iboralar hisoblanadi. Bu iboralar tarkibida hovuchlab so‘zi har ikkalasida ham qatnashgan – bir leksik komponenti bir xil so‘z bo‘lgan, lekin jonini va yuragini so‘zlari – ikkinchi leksik komponenti boshqa-boshqa so‘zlar bilan ifodalanib, o‘zaro sinonim emas. Ko‘ngliga tugmoq, yuragiga tugmoq o‘zaro bir iboraning variantlari hisoblanadi, ular sinonim iboralar hisoblanmaydi, chunki. Bir leksik komponenti ayni shu so‘zning o‘zi (tugmoq), ikkinchi leksik komponentlari esa o‘zaro sinonim. Agar so‘z va iboralar ma'nodosh bo‘lsa, l**eksik-frazeologik** sinonimlar deb ataladi. Masalan: yog‘ tushsa yalagudek – toza; ilonning yo‘gini yalagudek – ayyor kabi.

Ko‘ngli bu dunyodan sovigan odam
Kasalga chalingan tulporga o‘xshar.
Odam qiyo boqmas siym-u zarga ham,
Tulpor arpasiga **tashlamas nazar.**

A.Oripovning “Odam va tulpor” she’ridan olingan ushbu misralarga e’tibor bersak, shoir mahorat bilan “qiyo boqmoq” va “nazar tashlamoq” iboralarini ketma-ket misralarda qo‘llash orqali frazeologik sinonimdan foydalangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir tilning fraze-ologik qatlami o‘sha til egasi bo‘lmish xalqning urf-odatlari-yu, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta’sirchan va bo‘yoqdor iboralar nutqimiz ko‘rki, tilimizning boyligidir.

O‘zbekiston Qahramoni Xalq shoiri, Navoiy mukofoti sovrindori Abdulla Oripovning el qalbiga yo‘l topib uning meh-u muhabbatiga sazavor bo‘lganligining ham sababi shunda. Abdulla Oripov ijodi nafaqat o‘zbek adabiyotida balki umumturkiy

adabiyot konteksida o‘ziga xos mavqega ega. Mazkur tadqiqot ichida ana shu betakrorlikni, o‘ziga xoslikni, shoir mahoratini namoyon qiluvchi, yuzaga chiqaruvchi til vositalarini qay darajada tadqiq etishiga harakat qilingani uning dolzarbligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: FTM, 2009.
2. To‘rebayevna, M.Z.(2022) TYPES OF TRANSLATION, Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 721- 723.
3. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘zbek tili frazeologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1987.
4. Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022.

Berdibek YUSUPOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
berdibekyusupov@mail.ru

O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishda ta’lim-tarbiya integratsiyasiga doir metodik muammo xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *adabiy ta’lim, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, ta’lim-tarbiya integratsiyasi, kompetentlik, turkiy xalqlar adabiyoti, modernizatsiya, intellektual qobiliyat, texnologiya.*

Annotation: the article deals with the methodological problem of the integration of education and training in the formation of socio-cultural competence of students.

Key words: *literary education, socio-cultural competence, educational integration, competence, literature of Turkic peoples, modernization, intellectual ability, technology.*

Аннотация: в статье рассматривается о методологической проблеме интеграции воспитания и обучения в формировании социокультурной компетентности учащихся.

Ключевые слова: *литературное образование, социокультурная компетентность, образовательная интеграция, компетентность, литература тюркских народов, модернизация, интеллектуальная способность, технология.*

O‘quvchilar ko‘p hollarda o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash, izohlash, umumiy xulosalar chiqarishda qiyinchiliklar sezadilar. Ular, asosan, jonli, madaniy nutqni standart mimika va imo-ishoralar bilan almashtirishga harakat qilishadi. Bolalar uchun mustaqil, izchil, umumlashtirilgan og‘zaki va yozma bayonotlar yaratish murakkabdir. O‘quvchilar nutqida uslubiy, imlo va tinish belgilarida xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Shuning uchun o‘qituvchi sinfda kommunikativ va ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish uchun sharoit yaratishi joiz sanaladi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv maktabda fanlarni o‘qitishning yangi jihatidir. U “Milliy o‘quv dasturi muqaddimasida ifodalangan ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish zarurati bilan bog‘liq. Ijtimoiy-madaniy yondashuv milliy madaniyat prizmasi orqali matn bilan ishlash, til o‘rganish strategiyasini ham belgilaydi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya deyilganda shunchaki nutq va ijtimoiy-madaniy muhit o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik, til va jamiyat rivojlanishi o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish tushunilmaydi. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

• til nafaqat bilish va muloqot vositasi, balki ijtimoiy xotira shakli, “xalqning madaniy kodi” ekanligini anglash, til va voqelik faktlarini solishtirish qobiliyatini rivojlantirish;

• har bir lingvistik birlik ortidagi madaniy fonni ko‘rish qobiliyati;

• dunyo xalqlarining madaniyati, tarixi, urf-odatlari bilan tanishish va ulardan xabardorlik;

• mintaqaviy ahamiyatga ega leksemalarni aniqlash va ularning matndagi rolini tushunish qobiliyati.

Qo‘shni xalqning madaniyati bilan tanishish to‘liq muloqotga, ma‘lum bir madaniyatning tashuvchilari haqida aniq va to‘g‘ri ma’lumotlarni tushunish imkonini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani shakllantirishga yordam beradigan innovatsion o‘qitish texnologiyalarini izlashni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning dolzarbligi ijtimoiy va madaniyatlararo muloqotda faol foydalanish qobiliyatining yetarli emasligi bilan bog‘liq. Ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani shakllantirish bo‘yicha mavjud ilmiy-pedagogik ishlanmalar va bu vazifani o‘rta maktabda turkiy xalqlar adabiyoti namunalari misolida amalga oshirishning murakkabligi obyektiv qiyinchiliklar mavjudligi: til muhitining yo‘qligi, dars soatlarining siqiqligi bilan izohlanadi. Mavjud muammolarni bartaraf etish zarurati

tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo‘ldi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qozoq adabiyotini o‘rgatishda o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, xususan, ularda dunyoning yaxlit manzarasi haqida tasavvur shakllantirish, boshqa xalqlarning madaniy merosi bilan tanishish, o‘z mamlakatining vatanparvar fuqarosini tarbiyalash kabilardan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

• har xil faoliyat turlari bo‘yicha o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytirish: o‘zining va o‘rganilayotgan mamlakat ijtimoiy-madaniy xususiyatlari haqida tinglash, o‘qish, yozish va gapirish;

• boshqa millat vakillari madaniyati, an’ana, urf-odatlariga nisbatan bag‘rikenglik tuyg‘usini, o‘z madaniyatining xususiyatlarini boshqa xalqlar va butun jahon madaniyati kontekstida ko‘rish qobiliyatini rivojlantirish;

• o‘quvchilar dunyoqarashi, ularning umumiy madaniyat darajasi va tilni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish.

Yetakchi g‘oya – zamonaviy inson ko‘p qutbli dunyo va ko‘p madaniyatli makonda yashaydi. Sivilizatsiyalar, madaniyatlar va urf-odatlar o‘rtasidagi muloqot, ayniqsa, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dolzarb bo‘lib qoldi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani boshqa madaniyatni tushunish va qabul qilish qobiliyati sifatida rivojlantirish zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli muloqot qilishning zaruriy shartiga aylandi.

Bizningcha, quyidagi komponentlar adabiy ta’lim jarayoniga kiritilsa, o‘quvchilarning shaxsiy munosabatlariga ijobiy ta’sir qiladi:

1) o‘quv dasturi mazmunida ona tilida so‘zlashuvchilar uchun milliy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan elementlardan foydalanish;

2) o‘qitishning yangi usullarini qo‘llash, hamkorlikning guruh shakllari orqali o‘quv jarayonini faollashtirish, bilim olish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshirish;

3) o‘qituvchining kasbiy faoliyati ufqlarini kengaytirish, geografiya, tarix va boshqa o‘quv fanlari o‘qituvchilari bilan yaqindan hamkorlik qilish va h.k.

Mavzuning ahamiytalilik darajasi quyidagi elementlarning kombinatsiyasida namoyon bo‘ladi: loyiha metodologiyasi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, rolli aloqa usuli, taqqoslash usuli, tanqidiy fikrlash texnologiyasi. Bundan tashqari, monolog va dialogik nutq uchun vaziyatlar banki; turli vazifalarga ega matn materiallari banki; madaniyatshunoslik testlari bankini yaratish, rolli o‘yinlarda nutq xatti-harakati, nutq ustida ishlash algoritmlarini ishlab chiqish, matnlarni turli strategiyalar bilan o‘qish algoritmlarini yaratish bu borada samaralidir.

Qozoq adabiyot darslarida turkiy xalqlar adabiyotini o‘qitishning asosiy maqsadi – adabiy asarlardan madaniyatlar muloqotida muloqot vositasi sifatida foydalana oladigan, o‘rganilayotgan tilda madaniyatlararo muloqotda ishtirok etishni xohlaydigan o‘quvchi shaxsini rivojlantirish va o‘zlashtirgan til nutq faoliyatini mustaqil ravishda takomillashtirishdan iborat. Shu bois tadqiqotda qozoq adabiyoti darslarida o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishga alohida e’tibor berildi. Shu asosda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishga doir mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi:

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya – bu adabiyoti o‘rganilayotgan mamlakat tili, milliy va madaniy xususiyatlari, shuningdek, tipik muloqot sharoitida o‘quvchilarning nutq va nutqdan tashqari xatti-harakatlar qoidalari qobiliyati. Bu jarayonda ularning ma’lum miqdordagi lingvistik va mintaqaviy bilim-ko‘nikmalar, shuningdek, tabiiy, iqlimiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Qozoq adabiyoti darslarida o‘quvchilarning turkiy xalqlar madaniyati o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotda ishtirok etishi uchun zarur bo‘lgan lingvistik va madaniy kompetensiya asoslarini yaratish ko‘zda tutiladi. Buning uchun o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti, tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analari va hozirgi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadga muvofiq.

O‘quv jarayonida mintaqaviy ma’lumotlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim faolligini oshirishni ta’minlaydi; ularning muloqot qobiliyatlari, shuningdek, ijobiy motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi, til ustida mustaqil ishlashga rag‘batlantiradi va ta’lim muammolarini hal qilishga hissa qo‘shadi.

Strukturaviy nuqtayi nazardan, ijtimoiy-madaniy kompetentsiya murakkab hodisa bo‘lib, turli toifalarga mansub komponentlar majmuyini o‘z ichiga oladi:

– lingvistik va madaniy komponent: milliy va madaniy semantikaga ega leksik birliklar va ularni madaniyatlararo muloqot sharoitida qo‘llash qobiliyati – maqollar, idiomalar, aforizmlar va boshqalar;

– ijtimoiy lingvistik komponent: ijtimoiy qatlamlarning lingvistik xususiyatlari, turli avlodlar, jinslar, ijtimoiy guruhlar, dialektlar vakillari kabilar;

– ijtimoiy-psixologik komponent: ijtimoiy va madaniy jihatdan aniqlangan ssenariylarga, ma’lum madaniyatda qabul qilingan kommunikativ usullardan foydalangan holda milliy o‘ziga xos xulq-atvor namunalariga ega bo‘lish va h.k.;

– madaniy komponent: ijtimoiy-madaniy, tarixiy-madaniy, etnomadaniy kelib chiqishi.

Kommunikativlik tamoyili darslarda o‘quv va nutqiy vaziyatlardan keng foydalanishni nazarda tutadi. Agar u har bir o‘quvchiga yaqin bo‘lsa, muloqot uchun haqiqiy rag‘batga aylanadi. Binobarin, o‘quv va nutqiy vaziyatlarni tanlash va taqsimlashda o‘qituvchi o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Bu ikkinchi (aniqrog‘i, asosiy) umumiy didaktik – o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish

tamoyilini amalda qo‘llashni anglatadi.

Yosh xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Yosh bolalar uchun uslubiy tavsiyalar o‘rta maktab o‘quvchilarini o‘qitish bilan bog‘liq vaziyatlarda amalda qabul qilinishi mumkin emas. Har xil turdagi vazifalarni mustaqil bajarishga qaratilgan aqliy mehnatning tabiati ham farq qiladi.

So‘nggi paytlarda ko‘pchilik o‘quvchilar turli tillarni o‘rganish zarurligini tobora ko‘proq anglab yetmoqda. Ular qilayotgan ishlarida ma’no ko‘rsa, til va adabiyotni integratsiylab o‘rganish mazmunli bo‘ladi. Shundagina taklif qilingan topshiriq va mashqlar o‘quvchi tomonidan qabul qilinadi. Uning barcha psixologik jarayonlari – fikrlash, idrok etish, diqqat, xotira harakatga keladi va o‘rganish shaxsga rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qitishning asosiy tamoyili – turkiy xalqlar adabiyotini boshqa madaniyat bilan tanishtirish vositasi sifatida o‘qitish. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar til va adabiyotdan, haqiqatan ham, turli milliy madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi.

Tajribalarimiz shuni ko‘rsatdiki, tanqidiy fikrlash texnologiyasi, loyiha faoliyati, hamkorlikda o‘qitish, o‘yin texnologiyalari, rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi chet tilidagi muloqotga qiziqishni rivojlantiradi va uning mavzu mazmunini kengaytiradi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Bunda loyiha metodi eng samaralidir, chunki u o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun yetarlicha imkoniyat yaratadi. Ularni ijodiy salohiyati va kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Natijada ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha ishlar tizimi nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti haqidagi bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o‘quvchilarning madaniy ufqlari, bilimdonligini kengaytirishga, ijodiy faolligini rivojlantirishga yordam beradi, degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, ma’naviy-axloqiy soha, estetik did va adabiyot o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Bu esa, bilimlar prizmasi orqali o‘z mamlakati madaniyatini yanada faolroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy o‘quv dasturi (adabiyot). – Toshkent, 2022. 42-b.

2. Abduvalitov E.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o‘rganish. – Toshkent, 2020. 22-bet.

3. Abduvalitov E. Aesthetic Education and Perception in the Teaching of Literature of Fraternal Peoples. http://ijmmu.com editor@ijmmu.com ISSN 2364-5369 Volume 9, Issue 3 March, 2022 Pages: 275-280.

4. Сафонова, В.В. Социокультурный подход: основные социальнопедагогические и методические положения / В.В. Сафонова // Иностранные языки в школе. – 2014. – №11. – С. 2–13

5. Пидкасистый, П.И. Педагогика: учеб. пособие для студентов педагогических вузов и педагогических колледжей / П.И. Пидкасистый//. – М: Педагогическое общество России, 1998. – 640 с.

6. Соловьева, Н. И. Роль страноведческих знаний в формировании социокультурной компетенции. 2015 г. 84 с.

7. Сысоев П.В. Язык и культура: в поисках нового направления в преподавании культуры страны изучаемого языка / П.В. Сысоев // Иностранные языки в школе. – 2001 – №4. – С. 12-18.

Sadokat YUSUPOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

EYJI MANO – “BOBURNOMA” TADQIQOTCHISI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk bobokalonimiz shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, Bobur va boburiylar sulolasi tarixi va ijodining xorij mamlakatlarida o‘rganilishi, talqin va tahlil etilishi masalalari aniq faktlar asosida o‘rganiladi, xorijlik adabiyotshunos va tarixchi olimlar hamda “Boburnoma” ning yapon olimi Eyji Mano nashri poetik tahlili, tadqiqi va nashlari o‘rganiladi. Bugungi kunda dunyo adabiy jarayonida Bobur asarlari matni qo‘lyozmalari va tarjimalarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish butun dunyo sharqshunos va tarjimonlari e’tiborini tortmoqda.

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, adabiyot, “Boburnoma” ning xorijda o‘rganilishi, tarixiylik, Eyji Mano nashri, badiiylik.*

Аннотация: в данной статье на основе конкретных фактов поэтического анализа, исследований и публикаций Мано изучаются, интерпретируются и анализируются жизнь нашего прадеда Шаха и поэта Захириддина Мухаммада Бабура, история и творчество Бабура и династии Бабура в зарубежных странах. Сегодня в мировом литературном процессе интерес к изучению рукописей и переводов произведений Бабура привлекает внимание востоковедов и переводчиков всего мира.

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, литература “Бобурнома”, изучение “Бобурномы” за рубежом, историчность, издание Эйдзи Мано, художественность.*

Annotation: this article, the life of our great grandfather Shah and poet Zahiriddin Muhammad Babur, the history and works of Babur and the Babur dynasty are studied, interpreted and analyzed in foreign countries on the basis of concrete facts. Poetical analysis, research and editions of Mano's edition will be studied. Today, in the world literary process, the interest in studying the manuscripts and translations of Babur's works attracts the attention of orientalists and translators from all over the world.

Key words: *Zahiriddin Muhammad Babur, "Boburnoma" literature, "Boburnoma" study abroad, historicity, Eiji Mano's edition, artistic.*

Istiqlol yillari o'zbek adabiyotshunosligi va tarixshunosligida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti tasvir etilgan asarlarga xos muhim jihatlarni tadqiq etish yangi bosqichga ko'tarildi. Sababi Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. "Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtayi nazaridan u hamon yashayapti. O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz" [1, 2017]. Shu jihatdan, ulug' tarixiy siymo haqida yaratilgan tarixiy-badiiy manbalarni biografik yondashuv tamoyillari asosida qiyosiy aspektda tekshirish va umumlashtirish dolzarbdir.

O'zbek adabiyoshunosligida Zahiriddin Muhammad Bobur biografiyasini o'rganish shoh va shoirning o'zi yashagan davrdan boshlanib, bugungi kunga qadar davom etmoqda. Shu boisdan ham bu manbalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Bobur yashagan davrda yaratilgan manbalar;
2. Boburdan keyingi mumtoz adabiyotda yaratilgan asarlar.

Yangi davr o'zbek bobur shunosligidagi qilingan tadqiqotlar davrida yaratilgan asarlar tarixiy-badiiy xarakterga ega. Bobur haqida eng kop va eng aniq ma'lumotlarni beruvchi asar shubhasiz "Boburnoma" bo'lsa, Boburni korib, bevosita muloqotga qirishgan shaxs sifatida u haqida qimmatli faktlar keltirilgan manbalarga Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy", Hofiz Ko'hakiyning "Tarixi oli Chingiz", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Xondamirning "Habib us-siyar" asarlarini sanab o'tishimiz mumkin. Jumladan, Boburning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot beruvchi "Boburnoma" memuari "Tengri taoloning inoyati ila tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda (milodiy 1494-yil) Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'ldum" deb boshlangan [2, 5].

"Humoyunnoma" Boburning qizi Gulbadanbegim tomonidan Akbarshoh hukmronligi davrida yozilgan. Adibaning qayd etishicha, boburiyzoda Akbar o'z saltanati, xonadoni tarixini abadiylashtirish maqsadida saroyidagi barcha olimlarga, qarindosh-urug'lariga "Bobur podshoh va Humoyun podshoh davri haqida "nimaiki bilsangiz, yozingiz" deb hukm qilgan" [2, 3].

Shu sababli Gulbadanbegim otasi va ukasi tarixi haqida hikoya qiluvchi kitob bitishga qaror qilgan. Bu haqida muallif quyidagicha yozadi: "Firdavsmakon Hazrat foniy dunyodan abadiy dunyoga rixlat qilganlarida bu haqir sakkiz yoshda edi, shuning uchun yuz bergan voqealardan esimda oz qolgan, eshitgan va esda qolgan voqealar podshoh hukmiga binoan shu kitobda yozildi" [2, 29].

Xususan, XVIII asrdan boshlab, Bobur hayoti, faoliyati va merosi bilan qiziqish Yevropada ham jonlanib ketdi. Uning "Boburnoma"siga bo'lgan ehtirom tufayli XIX asrda u ingliz (Elfinston, Erskin, Beveridj), fransuz (Pave de Kurteyl) tillariga tarjima qilinib bosildi. Rus olimi N.Ilminskiy esa "Boburnoma"ning asl nusxasini nashr ettirdi. Bunday hol XX asrda ham davom etdi. Jumladan, fransuz adibi Fernand Grenard "Bobur", Amerikalik yozuvchi Harold Lamb "Bobur-sher" Fris Vyurtle "Andijon shahzodasi" kabi asarlarini yaratdilar.

Harold Albert Lamb (1892-1962) AQShning Nyu-Djersi shtatining Alpayn shaharchasida dunyoga kelgan. Bolaligidanoq ko'hna Sharq tarixiga bo'lgan qiziqish uni mashhur Kolumbiya universitetiga boshlab keldi. Bu yerda u amerikalik taniqli marifatparvarlar Jon Erskin va Karl Van Dorenlar bilan tanishgan, ular bilan ijodiy suhbatlar qurgan. Tahsil olish davomida Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo, Xitoy va Hindiston tarixi bilan qattiq qiziqib qoladi [4, 784-785]. Fransuz, lotin, fors, arab, o'zi ta'kidlaganidek, "manjur-tatar" tilini ham chuqur o'rganadi. [5, 56]. "Babur the Tiger": First of the Great Moguls" asari muallifning so'nggi kitobi bo'lib, Harold Lamb vafot etgan 1962-yilda nashr etilgan [6,351]. Asar jonkuyar olim G'ofurjon Satimov sa'y-harakatlari bilan tarjima qilinib, 2015-yilda «Bobur yo'lbars" nomi bilan o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi. Asar kirish, "Vodiyda ro'y bergan voqealar", "Boburning Samarqanddan quvilishi", "Kobuldagi saltanat", "Hirot bazmlari", "Murosai madora", "Hindiston sari yo'l", "Panipat va Kanvadagi voqealar", "Buyuk Boburiylar saltanati" singari 8 qism va 28 bobdan iborat. "Bobur – yo'lbars" asarida muallif shoh va shoirning valiahd o'g'li Humoyunga bergan "Omadingiz kelganida uni boy berib qo'yma. Beparvolik va sustkashlik bilan podshohlik muvofiq kelmaydi" nasihatlari go'yoki Bobur tilidan muallifning farzandlariga, yosh avlodga berayotgan o'gitlariga o'xshaydi. Chunki ham ijodkor, ham jamiyatdagi o'zgarishlarga loqayd bo'lmagan erkin fikrlovchi shaxs sifatida Lamb Bobur obrazidan o'ziga xos jihatlarni izlaydi, undan o'rnak olishga urinadi. Shu "Farzand ota-onaga o'xshamasligi mumkin emas. Badiiy asar talqin, tahlil qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiyati, kayfiyati – holatini o'rganuvchi soha bor" [7, 75], – deb ta'rif berilganligini

uchratamiz. Yana bir inglizzabon yozuvchisi Flora Anna Stil “Bobur Hindiston imperatori, qomusiy olim, shoir, pahlavon askar, ochiq ko‘ngilli, rostgo‘y inson Biz Zahiriddin Muhammad Boburni “buyuk mo‘g‘ul” deb yanglish aytib kelganmiz” [8, 25], degan iqrori ham bejizga emas.

Margaret Rumer Goden Gulbadan begimni o'z davrining eng mukammal bilimli, fozila ayollaridan deya tasvirlaydi. Bunga misol qilib, “Musulmonchilik taomillariga ko‘ra, aksariyat hollarda marhum zotlarning ismlari bevosita tilga olinmasdan, ularga nisbatan “rahmatlik” so‘zi qo‘llaniladi. Shu odatga ko‘ra Gulbadanga: “Firdavs makon” (Bobur shoh) va “Jannati oshiyon” (Humoyunshoh) haqida nimaiki bilsangiz, batafsil yozingiz” degan mazmunda farmon berildi. Bunday farmon yana ikki kishiga Humoyunshohning yaqin mulozimlaridan bo‘lmish Javhar oftobachi va sodiq vaziri Shayx Boyazidga ham berilgan edi. O‘rta asrlarda saroy malikalari orasida savodli ayollar, ehtimol, ko‘p bo‘lmagandir, lekin Gulbadanbegim o‘z davrining eng mukammal bilimli, fozila ayollaridan edi. U hamisha mutolaa bilan mashg‘ul, tab’i nazm egasi bo‘lsa-da, biroq tarixiy asar yozishga ilk bor qo‘l urmoqda edi” [9, 174].

Xususan, angliyalik tarixchi S.Leyn-Poul Boburni “Sharq tarixidagi eng maftunkor shaxs edi” [10, 78], deb ta’riflagan bo‘lsa, “Boburnoma”ni ilk bora ingliz tiliga tarjima qilgan sharqshunoslardan biri U.Erskin shoh va shoirni: “Hukmdorlar orasida Bobur singari daho va iste’dodli siymolarni kamdan kam uchratasiz. Uning donoligi, iste’dodi, mardligi, saxiyligi jihatidan fanga, san’atga va ulardan mohirona foydalana olish salohiyatiga ko‘ra unga teng keladigan podshoh topilmaydi” [11, 12], deb shaxsiyatiga yuqori baho beradi. Harold Lamb esa Boburning yoshligida tahsil olish davrini “...juda ziyrak va xotirasi kuchli talaba bo‘lganidan o‘z tengdoshlaridan o‘zib ketar va ayrim masalalarda talabchan ustozini savolga ko‘mib tashlar edi. Shahzoda mahalliy turkiy til bilan birga, fors tilini ham erkin egallagandi, maktab mashg‘ulotlarida esa unga tahsil berayotgan olim-u ulamolardan ilm ahlining tili bo‘lmish arab tilini o‘rgandi” [5, 21], deya tasvirlaydi.

“Boburnoma”ning ilmiy-tanqidiy matnini ilk bora bobur shunos olim Eyji Mano amalga oshirdi. U bu ilmiy-tanqidiy matnni 1995-yil e’lon qilib, 1996-yilda shu nashrning uzviy davomi sifatida mukammal “Ko‘rsatkichlar” alohida jild holida chop ettirdi. Olim Osiyo xalqlari tarixi va madaniy merosiga ulkan qiziqish bildirib, Temuriylar tarixi bo‘yicha ilk tadqiqotlarni Yaponiyada boshlab bergan. Mazkur tanqidiy matn “Boburnoma”ning asl nusxa tilidagi 4 nusxasi va shu bilan birga fors tilidagi bir qo‘lyozma nusxa asosida tayyorlandi.

Olim asarning 4 asl nusxasi – Elfinston, Haydarobod, Britaniya, Qozon bosma nusxalaridan tashqari, 2 ta forscha qo‘lyozma – Yangi Dehli Milliy muzeyidagi “Voqeoti Boburiy” deb nomlangan qo‘lyozma, Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxalardan foydalangan. Nashrga Haydaroboddagi nusxa asos qilib olingan bo‘lib, olim ilmiy-tanqidiy matnni tiklashda jami bo‘lib 7 ta: 4 ta o‘zbekcha va 3 ta forscha nusxadan foydalangan.

Eyji Mano – tarixchi, sharqshunos olim Kioto universitetining professori. Asosiy tadqiqotlari Markaziy Osiyo tarixi bilan bog‘liq bo‘lgani sababli xitoy, turk, arab, fors, mo‘g‘ul, sanskrit va boshqa tillarni o‘rgangan bo‘lib, olim Yaponiyada 1986-yilda Temuriylar tarixi bo‘yicha ilk tadqiqotlarni boshlab bergan. “Markaziy Osiyoning XIV–XV asrlar tarixi” mavzusida doktorlik ishini himoya qilgan. “Boburnoma”ning Haydarobod va Qozon nusxalari asosida Farg‘ona, 1984-yilda Kobul qismini yapon tilida nashr ettirgan.

Bobur va boburiylar saltanati tarixini o‘rganish ko‘plab tadqiqotlar yozilishiga sababchi bo‘ldi.

Xususan, Eyji Mano "Boburnoma”ning jahon kutubxonalarida saqlanayotgan ma’lum nusxalaridan foydalanib, 1995-yil asarning tanqidiy matnini, 1996-yil “Boburnoma”ga ko‘rsatkichlar, 1998-yilda “Boburnoma” ning yapon tiliga tarjimasini, 2001-yilga kelib. “Bobur va uning davri” monografiyasini nashr etdi. E. Mano 2006-yilda “Boburnoma” tanqidiy matnini qayta nashrini amalga oshirdi.

Eyji Mano “Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni” (Toshkent, 1996-y.), “Bobur va Boburiylarning jahon madaniyati tarixidagi o‘rni” (Andijon, 2000-y), “Muhammad Haydar Mirzo va “Tarixi Rashidin” asarining jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni” (Andijon, 2011-y.), “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” (Samarqand, 2014-y.) xalqaro anjumanlarida ma’ruza bilan ishtirok etib kelgan. Olimning bu intilish va qiziqishlari natijasida Eyji Mano Bobur xalqaro mukofoti bilan 1998-yilda taqdirlandi. 2005-yilga kelib Yaponiya akademiyasi mukofotlarining (Japan Academy Prize 2005 y.) sovrindori deya e‘tirof etildi. Bobur va boburiylar saltanati tarixini o‘rganish ko‘plab tadqiqotlar yozilishiga sababchi bo‘ldi. Olim 2014-yil Yaponiya Akademiyasi a’zoligiga saylandi va Bobur va boburiylar tarixi mavzusida Kioto universitetida ma’ruzalar o‘qib kelmoqda.

Basharti E. Mano “Boburnoma”ni sinchkov nazardan o‘tkazganda, asar bir qarashda tarixiy voqealar majmuasi bo‘lsa hamki, uning badiiy qimmati beqiyos ekanligini tasdiqlab o‘tadi. Asarda:

Xulqingni rost qilg‘il har kopug‘a borsang, “Ahsanta” der bori el gar yaxshi ot chiqarsang.

Jumlalardagi ma’nodan inson hayot yo‘lida, xulq, odobida yaxshilikni asos qilib olmog‘i kerakligini, har bir inson qo‘lidan kelguncha kishilarga yaxshilik qilishi, mehr-oqibat, hurmat ko‘rsatishi shuningdek, ota-onaga, katta-yu kichikka, qarindosh urug‘larga savobli

ishlar qilish darkorligini Eyji Mano asarida yorqin ranglarda ifodalab berganligini guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Руспубликаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг Андижон вилояти «Боғи Бобур» истироҳат масканида сўзлаган нутқидан. 05.06.2017.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Фан, 2019. – 5 б.
3. Twentieth Century Authors, a biographical dictionary of modern literature. / Ed. by Stanley J. Kunitz and Howard Haycraft; (Third Edition). New York: The H. W. Wilson Company, 1950 (784-785 p.)
4. Борев Ю.Б. Искусство интерпретации и оценки: Опыт прочтения “Медного всадника”. –М., 1981. –С. 56. (Borev Yu.B. Iskusstvo interpretatsii i otsenki: Opit prochteniya “Mednogo vsadnika”. –M., 1981–M., 1981–s.56.)
5. Lamb H. Babur the Tiger: First of the Great Moguls. – New York: Garden city, 1961. –P.351.
6. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. –Т.: Фан, 2006. – 75 б.
7. Машрабов З., Мамасолиев Р. Бобуршунослик ва Бобур халқаро жамоат фонди. Халқаро конференция тўплами. Т. 2021. – 25 б.
8. Goden R. Gulbadan. –T.: Sharq, 2007. 174-b.
9. Кўбаев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат (60–80-йиллар). Филол. фан. ном. ...дисс. — Т.: 2001. – 78 б.
10. Вюртле Ф. Андижон шаҳзодаси. — Т.: Ўқитувчи, 2012. – 12 б.
11. Шарма Л. П. Бобурийлар салтанати. –Т.: Маънавият, 1998. – 21 б.

Jaxongir TURSUNOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
jakhongir9613@mail.com

SIFATLASH – TILNING BADIIY TASVIR VOSITASI
(Odil Yoqubov asarlari misolida)

Annotatsiya: maqolada tilning badiiy tasvir vositalaridan biri bo‘lgan sifatlashlarning Odil Yoqubov asarlaridagi tahlili haqida so‘z yuritiladi. Sifatlash umumuslubiy vosita. Binobarin, nutqning barcha turlarida bu vositadan foydalaniladi. U narsa, hodisaning biror xususiyatini belgi sifatida alohida ta’riflash vazifasini bajaruvchi tasviriy vositadir. Sifatlashlar mohiyatan aniqlovchilarga yaqin bo‘lib, aniqlovchilardan emotsional ta’sirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi.

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, tilning ifodaviyligi, badiiy tasvir vositalari, sifatlash, ekspressivlik.*

Аннотация: в статье говорится об анализе прилагательных, которые являются одним из инструментов художественного изображения языка, в творчестве Одила Якубова. Качество – универсальный инструмент. Поэтому этот инструмент используется во всех видах речи. Это визуальный инструмент, служащий для описания особенности события как знака. Прилагательные по своей сути близки к определителям и отличаются от определителей по эмоциональному воздействию, свойственному художественной речи.

Ключевые слова: *художественный текст, языковая выразительность, средства художественного изображения, квалификация, выразительность.*

Annotation: the article talks about the analysis of adjectives, which are one of the tools of artistic representation of language, in the works of Odil Yakubov. Quality is a universal tool. Therefore, this tool is used in all types of speech. It is a visual tool that serves to describe a feature of the event as a sign. Adjectives are essentially close to determiners, and differ from determiners in terms of their emotional impact, characteristic of artistic speech.

Key words: *artistic text, language expressiveness, artistic image tools, qualification, expressiveness.*

Badiiy nutqda qo‘llaniladigan barcha so‘zlar u yoki bu darajada tasviriylikni vujudga keltiradi, chunki har qanday so‘z matnda o‘ziga xos ma’no ifodalaydi, voqea-hodisaning tasvirini yaratadi. Shuningdek, tilda tasviriylikni vujudga keltiruvchi maxsus vositalar ham mavjud bo‘lib, ular fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Shunday vositalardan biri sifatlashdir. Sifatlash tropning bir turi bo‘lib, unga badiiy obrazlilikni ta’minlovchi tasviriy vosita sifatida qaralgan . Sifatlash umumuslubiy vosita. Binobarin, nutqning barcha turlarida bu vositadan foydalaniladi. U narsa, hodisaning biror xususiyatini belgi sifatida alohida ta’riflash vazifasini bajaruvchi tasviriy vositadir. Sifatlashlar mohiyatan aniqlovchilarga yaqin bo‘lib, aniqlovchilardan emotsional ta’sirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi. M.Mukarramov sifatlash va aniqlovchilarning ma’no va grammatik jihatdan farqlanuvchi beshta xususiyatini ajratib ko‘rsatgan . A.T.Rubaylo sifatlash tropning metafora va metonimiyaga yaqin bo‘lgan turi ekanligini ta’kidlab uni badiiy aniqlovchi deb ataydi . R.Qo‘ng‘urov sifatlashning doimiy aniqlovchilardan farqli ravishda ekspressivligi, ko‘chma ma’noda ishlatilishi kabi xususiyatlari mavjudligini

ta’kidlab, uni poetik aniqlovchi deb ataydi . Darhaqiqat, sifatlashlar, obrazlilik darajasining kuchliligi, emotsional-ekspressivligi va nihoyat badiiy nutqqa xosligi jihatidan aniqlovchilardan keskin farq qiladi. M.Kojina sifatlashni narsa-hodisani obrazli ifodalovchi, xarakterli xususiyatlarini ta’kidlovchi, ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanilib, estetik vazifa bajaruvchi so‘z sifatida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan badiiy matnlarda uchraydigan sifatlashlarni xarakteriga ko‘ra ikki turga ajratish mumkin: a) umumnutq sifatlashlari; b) badiiy sifatlashlar. Umumnutq sifatlashlarida obrazlilik, ekspressivlik kuchli bo‘lmaydi, umumnutq sifatlashlarida narsa, hodisalarning biror tomoni, hammaga ma’lum bo‘lgan belgi asosida ko‘rsatiladi.

Badiiy nasr sifatlashlarga boy bo‘lib, unda doimiy sifatlashlar bilan bir qatorda individual sifatlashlar ham ko‘plab uchraydi. Umuman, badiiy nasrda sifatlashlar predmet, narsa va hodisaning a) belgi xususiyatini bildirgan so‘zlar yordamida hosil bo‘ladi: payvasta qosh, tig‘iz kiprik, bodomgul do‘ppi, tiniq, jozibali yuz, nozik bo‘yin, latif kuy, sarin shabada, mayin shabada va boshqalar. Sifatlashlarning belgi-xususiyatlarni bildiruvchi ushbu so‘zlar asosida vujudga kelgan tiplari doimiy sifatlashlardir. Biroq badiiy so‘zlar asosida vujudga kelgan sifatlashlar nasriy nutq uchungina doimiy, umumnutqda bunday sifatlashlardan foydalanilmaydi.

b) predmet, narsa-hodisaning holatini ifodalaydigan so‘zlar vositasida hosil bo‘lgan: jimjit sahro, o‘tkir qarash, mayus yuz, uyqusiz ko‘z, hissiz nazar va boshqalar. Sifatlashlarning bu turi ham ifodadorlik ko‘lami bilan ajralib turadi. Bunday sifatlashlar inson holatini ta’riflash vazifasini bajaradi va badiiy asarlarda bu tipdagi sifatlashlar orqali inson o‘y-kechinmalari, narsa-hodisaga munosabati kabilar ifodalanadi. Masalan, Xayolidan zo‘r-bazo‘r haydagan mudhish o‘ylar qayta yopirilib kelar, o‘rnidan sapchib turib ketardi. (O.Yoqubov. “Oqqushlar, oppoq qushlar...”) Bu matnda asar personajining holatini ifodalanishi mudhish o‘ylar sifatlashi orqali aniq ta’riflangan. Ushbu sifatlash personaj kayfiyatini ko‘rsatuvchi, unga bir paytlar sodir bo‘lgan allaqanday noxushlikni eslatib turuvchi vosita vazifasini bajargan. Sifatlash vazifasidagi mudhish so‘zi badiiy nutqqa xos. Bu so‘z yordamida hosil bo‘lgan sifatlashlarning badiiy asarlarda turli predmet nomlarining sifatlovchisi bo‘lib kelishi individual uslubga xoslikdan dalolat beradi. Badiiy nutqda mudhish so‘zi yordamida hosil bo‘lgan mudhish o‘y, mudhish tun, mudhish kun, mudhish voqea kabi sifatlashlar uchraydi.

Rang bildiruvchi so‘zlarning sifatlash vazifasida kelishi jihatidan oltin, marmar, kumush so‘zlari ajralib turadi. Badiiy matnlarda sariq rangni ifodalashda oltin (oltin kuz, oltin nur, oltin quyosh), oq rangni ifodalashda kumush, marmar (kumush qor, kumush qish, kumush irmoq, kumush tun, marmar bulut) kabi so‘zlarning sifatlovchi vazifasida kelganini ko‘plab uchratish mumkin. Bu so‘zlar tarixiy mavzudagi asarlarda asl ma’nosida ham sifatlash vazifasida ham kelib, oltindan, kumushdan, marmardan ishlangan buyum, narsa ma’nosini anglatadi. Salohdor atrofi archa bilan o‘ralgan, o‘rtasiga kumush, favvora o‘rnatilgan marmar sarhovuzning yonidan o‘tib, baland peshtoqli koshonaga yaqinlashdi. (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi”)

Matnlarda “qizillik” tushunchasini lola, gul so‘zlariga rang so‘zini qo‘shish orqali ifodalanishi an’anaviylikka ega. Shu tushuncha lola, gul so‘zlariga badiiy nutqqa xos so‘z yasovchi -gun qo‘shimchasi orqali ifodalangan holatlar ham uchrab turadi. Bunday hollarda ham rangni bildirgan so‘z ko‘pincha sifatlovchi vazifasida kelib, sifatlash hosil qilgan. Masalan, Qirmizrang o‘rikzorlar orasida nafis tillarang bedazorlar, hanuz ko‘m-ko‘k chinorlar, kumushrang yaproqlari hali to‘kilib bitmagan oq teraklar ko‘zga tashlanar. (O.Yoqubov. “Oqqushlar, oppoq qushlar...”) Bu matn sifatlashga boyligi bilan xarakterlanadi. Zero, unda bir necha sifatlash mavjud bo‘lib, ular orasida rang so‘zi yordamida hosil bo‘lgan o‘xshatishli sifatlashlar qirmizrang o‘rikzorlar, tillarang bedazorlar, kumushrang yaproqlar alohida ajralib turadi. Bu har uchala sifatlashda uch xil qizil, sariq, oq rang belgi sifatida ajratilib ko‘rsatilgan va har uch holatda ham belgi o‘xshatish natijasida hosil bo‘lgan.

Badiiy nasrda sifatlashning o‘xshatishli sifatlash turi ancha faol bo‘lib, bu tipdagi ifodalarda ham predmet belgisi ajratib ko‘rsatiladi va shu belgi boshqa bir predmet belgisiga qiyoslanadi. Shubhasizki, bunday ifodalarning badiiy ko‘lami ham kengayadi. Zero, sifatlash va o‘xshatish baholash funksiyasida uzviy aloqada bo‘lib, badiiy obrazlilikda bir-biriga ko‘chadi va predmetlarni xarakterlashda bir-biriga yordam beradi .

Sifatlashning o‘xshatishli sifatlash turi oddiy sifatlashlardan predmetning birdan ortiq bo‘lgan belgisini ajratib ko‘rsata olish xususiyatiga ham ega. Masalan, U bot-bot orqasiga o‘girilib qarar, shunda yupqa lablariga bilinar-bilinmas kulgi yugurib, simobday miltiragan mungli ko‘zlarida hayratomuz bir ifoda jilva qilardi. (O.Yoqubov. “Oqqushlar, oppoq qushlar...”) Mazkur matnda ikkita sifatlash mavjud. Birinchi sifatlash yupqa lab bo‘lib, bu sifatlashda labning bitta belgisi ajratib ko‘rsatilsa, ikkinchi sifatlash mungli ko‘zlarda, “qayg‘ulilik” belgisi mavjud. Mungli ko‘zlar sifatlashi simobga o‘xshatilgan. Bu o‘xshatish orqali ko‘zning ikkinchi belgisi “chaqnoqlik” ham ifodalangan. Demak, ushbu o‘xshatishli sifatlash yordamida bir predmetning ikki belgisi alohida ajratilgan va nutqiy ekspressivlik kuchaytirilgan. g) sifatlashlar predmetning maza-ta’mini ifodalaydigan so‘zlar orqali hosil bo‘ladi. Maza-ta’m bildiruvchi so‘zlar yordamida vujudga kelgan sifatlashlar asosan umumnutqiy sifatlashlardir. Shu boisdan sifatlashning bu turi badiiy nutq uchun favquloddalik kasb etmaydi. Biroq badiiy asarlarda

maza-ta’m bildiruvchi shirin so‘zi yordamida vujudga kelgan abstrakt ma’noli sifatlashlar ham uchraydiki, bu xildagi sifatlashlarni badiiy nutq uchun neytral deb bo‘lmaydi. Chunonchi, shirin orzu, shirin xayol, shirin tabassum tipidagi sifatlashlarda maza-ta’m bildiruvchi shirin so‘zi asl ma’noni ifodalamagan va bu hol ushbu sifatlashlarning obrazlilik darajasini kuchaytirgan.

Sifatlash ham boshqa badiiy vositalar va so‘zlar singari ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratini namoyon qiluvchi usullardan hisoblanadi. Binobarin, predmet, narsa-hodisaning ko‘pchilikka ma’lum bo‘lmagan belgilarini ko‘rsatish ko‘pincha ijodkor mahorati bilan bog‘liqdir. Yoki biror predmetga xos bo‘lgan qator belgilarning mavjudligini ham ijodkor ko‘zi bilan, idroki bilan ko‘rish mumkin. Quyidagi gaplardagi sifatlashlarda bu holatni ochiq ko‘rish mumkin: Xuddi bugungiday seryulduz, sokin, salqin oqshom. Xuddi mana shunday oydin, tiniq va osuda oqshom. (O.Yoqubov. “Oqqushlar, oppoq qushlar...”) Bu har ikkala gapda ham qator belgili sifatlash mavjud. Har ikkala gapda ham sifatlanmish oqshom. Birinchi gapda oqshomning sifatlashi sifatida seryulduz, sokin, salqin belgilari ajratilsa, ikkinchi gapda shu sifatlanmishning sifatlashi sifatida oydin, tiniq va osudalik belgisi ajratiladi. Shu tariqa oqshomning oltita sifatlash belgisi ajratib ko‘rsatiladi. Shubhasiz, sifatlash vositasida kishi ko‘z o‘ngida namoyon qilinadigan narsa-hodisaning bu xildagi belgilarining barchasini his etish va ta’riflash ijodkorga, badiiy nutqqa xosdir. Shuning uchun ham sifatlash boshqa uslubiy vositalar singari badiiy nutqning jilodorligini, ifodali ta’sirchanligini ta’minlovchi tasviriy vositalardan sanaladi.

Tasviriy vositalar (trop va figuralar) badiiy nasrning mohiyatini namoyon qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim vositalardan. Binobarin, bu vositalar badiiy matnlarda nutqning boshqa turlariga nisbatan keng ko‘lamda qo‘llaniladi va turli nutqiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Shu xususiyatlariga ko‘ra ham ular badiiy yoki tasviriy vositalar deb yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов А. Бадиий асар тилини ўрганиш ҳақида //Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: 1960. – №3.
2. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умурқулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. – Тошкент: Фан, 1988. – 191 б.
3. Дониёров Х. Бадиий асар тилини ўрганишнинг баъзи масалалари // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: 1943.
4. Умурқулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – 131 б.

Nilufar QURBONOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi.

TARJIMON TALABALARNING DEONTOLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: tarjimon talabalarning deontologik kompetensiyasini shakllantirish – bu o‘qituvchilarning, tadqiqotchilarning va tarjimonlik bilan shug‘ullanuvchilarning diqqat markazida turishi kerak bo‘lgan muhim mavzu. Deontologik kompetensiya, tarjimonning kasbiy etikasi, javobgarligi va kasbiy standartlarga rioya qilish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiyaning rivojlanishi, tarjimonlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bu ularning ishlarining sifati va ishonchliligini ta’minlaydi. Quyida tarjimon talabalarning deontologik kompetensiyasini shakllantirish haqida ilmiy maqola yozish uchun asosiy yo‘nalishlar va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *deontologiya, etika, og‘zaki tarjima.*

Аннотация: формирование деонтологической компетентности студентов-переводчиков является важной темой, которая должна находиться в центре внимания преподавателей, исследователей и переводчиков. Под деонтологической компетентностью понимается способность переводчика соблюдать профессиональную этику, ответственность и профессиональные стандарты. Развитие этой компетенции важно для переводчиков, поскольку обеспечивает качество и надежность их работы.

Ключевые слова: *деонтология, этика, устный перевод.*

Annotation: the formation of deontological competence of translator students is an important topic that should be the focus of attention of teachers, researchers and translators. Deontological competence refers to the ability of a translator to comply with professional ethics, responsibility and professional standards. Developing this competency is important for translators as it ensures the quality and reliability of their work.

Key words: *deontology, ethics, interpretation.*

Hozirgi vaqtda madaniyatlararo muloqot tarjimaning ajralmas qismi hisoblanadi. Tarjimaning muvaffaqiyati va sifati bir xil darajada tarjimani malakali amalga oshirishga bog‘liq va axloqiy me’yorlarga mukammal rioya qiladi. Tarjimon, boshqa kasb vakillari singari, o‘z kasbiga ega xulq-atvor normalari va qoidalarga bo‘ysunadi. Axloqiy majburiyatlar kasb tomonidan yuklangan majburiyatlar haqida, deontologiya – "burch haqidagi fan" tomonidan o‘rganiladi. Birinchidan "deontologiya" atamasi XIX asr boshlarida ingliz tili faylasufi Jeremi Bentam o‘zining "Deontologiya yoki axloq fani" asarida axloqiy nazariyaning umumiy belgilari: “fan sifatida, nima borligini bilish har qanday vaziyatda uchun mos keladi". Tarjimonlik kasbiy etikasining ahamiyati va zamonaviy tarjimonlik amaliyotidagi o‘rni haqida umumiy ma‘lumot berishdir. Deontologiya va uning tarjimonlik faoliyatidagi o‘rni haqida tushuncha berish.

Tarjima faoliyatiga nisbatan deontologiya nazarda tutgan kodekslarga, ko‘rsatmalarda mustahkamlangan axloqiy tamoyillarga rioya qiladi, tarjimonning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi professional standartlar professional munosabatlar doirasida. 1963-yilda Dubrovnikdagi Kongressda “Nizom tarjimonlar" bilan bog‘liq umumiy tamoyillarni shakllantiradi, tarjima sohasi, shuningdek, tarjimonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi; ularning axloq kodeksining asosini yaratish. Birinchi marta "axloq" atamasi (yunoncha "odat", "axloq"dan) ishlatilgan qadimgi yunon faylasufi Aristotel maxsus hududni belgilash uchun falsafa – "amaliy falsafa", uning asosiy vazifasi edi. Odamlarni yaxshi ishlarga chorlash va ularni noto‘g‘ri ishlardan qaytarish kabilar insonga to‘g‘ri hayotni o‘rgatish yo‘li haqida takidlan o‘tganlar. Bugungi kunda "axloq" so‘zi insonning munosabatini ifodalash uchun ishlatiladi ularning kasbiy vazifalari, shuningdek standartlarni ko‘rsatish, mehnat sharoitida odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish. Rus filologi D. N. Ushakov axloqni “xulq-atvor me’yorlari, axloq, ba’zilarning a’zolari o‘rtasidagi axloq qoidalari majmui jamiyat, kasb”, masalan, tibbiy etika, jurnalist etikasi, tarjima etikasi. Talabalarning Deontologik Kompetensiyasini Baholash: Talabalarning hozirgi deontologik kompetensiyasini baholash metodlari.

Ta’lim jarayonida deontologik kompetensiyani rivojlantirish: O‘qituvchi sifatida tarjimon talabalarning deontologik kompetensiyasini qanday shakllantirish mumkinligi haqida uslubiy yondashuvlar va tavsiyalar. Amaliy mashg‘ulotlar va vazifalar: Deontologik kompetensiyani rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar va vazifalarni taqdim etish. Tarjima yozma yoki og‘zaki bo‘lishi mumkin. O‘z navbatida, og‘zaki tarjima, ketma-ket va sinxron tarjimaga bo‘linadi. Ajoyib eng xalqaro, davlat, jamoat va xususiy konferensiyalar sinxron tarjimaga ustunlik beradi, chunki bu nafaqat vaqtni tejashga imkon beradi, balki e’tiboringizni chalg‘itmaydi tinglovchilar, nutqni yaxlit idrok etishga to‘sqinlik qilmaydi. Shu tufayli, deontologik tamoyillarga alohida e’tibor berish tavsiya etiladi. Tarjima holatida axloqiy me’yorlarga rioya qilish sezilarli darajada ta’sir qiladi.

U tarjima qilishi kerak tilning adabiy me’yoridan foydalangan holda mulohazalarning asosiy mazmuni va la’natlar qisqacha izoh beradi: “Janob T qattiq gapirdi haqoratli iboralar”; tarjimon tomonlarning munosabatlariga ham aralashishga haqli emas tarjima qilingan matn mazmuni bo‘yicha o‘z pozitsiyangizni qanday aniqlashni bilishi kerak. Axloqiy me’yorlardan tashqari, tarjimonning xatti-harakati ham tartibga solinadi majmui sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan ishbilarmonlik odob-axloq qoidalari kasbiy xulq-atvor standartlari. Kasbiy xulq-atvor standartlari tarjimon I. S.Alekseyev vaziyatli xatti-harakatlar qoidalarida aytib o‘tilgan quyidagilardan iborat: tarjimonni vaziyatga moslashtirish; qoidalarga rioya qilish kiyim tanlashda odob-axloq qoidalari; mehnat miqdorini oqilona chegaralarda cheklash; qadr-qimmatini kamsitishdan saqlanish. Sinxron tarjimaning o‘ziga xos talablari bor. Ha, tarjimonga ishni boshlashdan oldin siz kabina jihozlari bilan tanishishingiz kerak, ovoz o‘tkazmaydigan minigarnituralar, mikrofon va qalqondan iborat boshqaruv. Kelajak tarjimon o‘z kasbini puxta egallab, axloqiy me’yor va qoidalarni o‘rganishi kerak unga o‘zini muntazam ravishda yaxshilashga imkon beradigan xatti-harakatlar professional daraja, do‘stona, samarali qurish ish munosabatlari, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish. Tarjimon norma va tamoyillar haqida tushunchaga ega bo‘lishi kerak mijoz bilan muloqot qilishda uning xulq-atvorini aniqlash va barchasi professional munosabatlar doirasidagi tarjima jarayoni ishtirokchilari. Globallashuv davrida texnologik taraqqiyot ajralmas holga aylandi tarjimon ish jarayonining bir qismi. Shu bilan birga, zamonaviy kompyuter dasturlari noto‘g‘ri va hatto foydasiz bo‘lishi mumkin tarjimon jarayonida begona shovqin, urg‘u va lahjalar, talaffuzdagi eng kichik xato. Faqat inson qila oladi ma'noning eng kichik tuslarini his qilish, tushunish, anglash va yetkazish, uning nozik nuansini, ularni tanib olish, shu jumladan, stilistik siljishlar yoki ma'ruzachi nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini bartaraf eta oladi. Axloqiy me'yorlardan tashqari, tarjimonning xatti-harakati ham tartibga solinadi biznes odob-axloq qoidalari. Tarjimonga qo‘yiladigan majburiy talablardan biri bu aniqlikdir. Tarjimon uning kechikishiga olib kelishi mumkinligini unutmasligi kerak hodisaning buzilishi. Shuning uchun tarjimon kechiktirmasdan kelishi kerak.Bu sizni psixologik jihatdan yaxshi his qiladi tarjimani sozlang va hamkasblar yoki mijozlar bilan ba'zilarini muhokama qiling. Keyingi qoida – ishni boshlashdan oldin Tarjimon hamkorlik qiladigan har bir kishiga o‘zini tanishtirishi kerak. Odobga ko‘ra, tarjimon so‘zlovchining so‘zini to‘xtata olmaydi, u faqat

ma'ruzachi pauza qilganda tarjima qilishni boshlashi mumkin. Tomonlardan biri bo‘lgan mijozlar o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi, qarshi tomonni haqorat qiladi. Bunday vaziyatda tarjimon o‘zini "lingvistik ikkinchi" rolida topish, u bilan tekshirishi mumkin mijoz, aytilganlarni tarjima qilishga arziydimi va vositachi bo‘lish madaniyatlararo muloqot, yumshatish yo‘llarini topishga harakat qiling ziddiyat. E. V. Alikina tarjimonning qanday paydo bo‘lganiga misol keltiradi. M. Tetcher va Kongo Prezidenti o‘rtasidagi muzokaralarni o‘tkazish paytidagi qiyin vaziyat, mashhur kommunist va marksist. Muzokaralar boshida Tetcher dedi: "Men kommunistlarni yomon ko‘raman". Tarjimon bu iborani tarjima qilgan quyidagicha: “Bosh vazir Tetcher u emas, deydi Karl Marks g‘oyalari tarafdori”. Shunday qilib, tarjimon oldini oldi ziddiyatning rivojlanishi. Ta’lim jarayonida deontologik kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati va samaradorligi haqida xulosa. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar va tarjimonlar uchun deontologik kompetensiyani yanada rivojlantirish yo‘llari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alekseyeva I. S. Tarjimashunoslikka kirish. – M.: Akademiya, 2004. 352-bet.
2. Alikina E. V. Ketma-ket talqin qilish: nazariyaning asosiy jihatlari va amaliyotlar. Perm: Perm nashriyoti. Davlat texnologiya. Univ., 2008. 183-b.
3. Visson L. Rus tilidan ingliz tiliga simultane tarjimasi. – M.: R. Valent, 1999-yil.
4. Jeremi Bentamning deontologiyasi. – URL: https://www.proza.ru/2017/01/03/871 (sana kirish: 11/10/2021).
5. Duplenskiy N.K. Sinxron va ketma-ket tarjima. Tavsiyalar amaliyotchi tarjimonlar. – M.: R. Valent, 2015. 52-b.
6. Komissarov V. N. Zamonaviy tarjimashunoslik. – M.: ETS, 2002. 424-b. Ushakov D.N. Rus tilining izohli lug‘ati. – URL: https://ushakovdictionary.ru/word.php?wordid=87717 (kirish sanasi: 11/10/2021).
7. Chernov G.V. Sinxron tarjima nazariyasi va amaliyoti. – M.: Xalqaro munosabatlar, 1978. 280-b.

Gulhayo XOLMURODOVA,
O’zDJTU tayanch doktoranti
Gmail: guli15081994@gmail.com

IDENTIFICATION CRITERIA, STRUCTURE AND METHODS OF STUDYING SEMANTIC FIELDS

Annotatsiya: semantik maydon tushunchasi XX asrning birinchi yarmida tilshunoslik sohasiga kirib kelgan. Bu asosan L. Blumfild, A. Greimas, E. Benvenist va boshqa olimlarning struktur tilshunoslikka oid asarlarida o’z aksini topgan. Blumfildning ilk asarlaridayoq semantik maydon tushunchasi tilning ichki tizimini tushunish uchun kalit sifatida keng yoritilgan. Blumfild uni “ma’nolar to’plami, yoki to’g’rirog’i, ma’no yoki ma’no guruhi bilan bog’liq bo’lgan til shakllari to’plami" deb ta’riflaydi va shu bilan morfologiya (so’zlar to’plami) va ma’no nazariyasi sifatida tushunilgan semantika bilan bog’liqligini ta’kidlaydi.

Kalit so’zlar: *leksik-semantik maydon, metod, struktur tilshunoslik, periferiya, markaz, yadro, psixofiziologik tahlil, komponent tahlil, leksik birlik.*

Аннотация: понятие семантического поля возникло в лингвистических работах первой половины XX века. В основном оно связано со структурной лингвистикой и идеями Л. Блумфилда, А. Греймаса, Э. Бенвениста и других ученых. Уже в первых работах Блумфилда понятие семантического поля вводится как ключевое для понимания внутренней систематики языка. Блумфилд определяет его как «набор значений или, более правильно, набор языковых форм, связанных со значением или группой значений», подчеркивая тем самым связь как с морфологией (набором слов), так и с семантикой, понимаемой как теория значения.

Ключевые слова: *лексико-семантическое поле, метод, структурная лингвистика, периферия, центр, ядро, психофизиологический анализ, компонентный анализ, лексическая единица.*

Annotation: the notion of a semantic field had occurred in the linguistic works of the first half of the twentieth century. It is mostly associated with structural linguistics and the ideas of L. Bloomfield, A. Greimas, E. Benveniste and other scholars. Already in Bloomfield’s pioneering works, the concept of a semantic field is introduced as a key notion for understanding languageэs inner systematics. Bloomfield defines it as “a set of meanings or, more properly, a set of linguistic forms associated with a meaning or group of meanings”, thus emphasizing the link both with morphology (sets of words) and with semantics understood as a theory of meaning.

Keywords: *lexical-semantic field, method, structural linguistics, periphery, center, core, psychophysiological analysis, component analysis, lexical unit.*

N. G. Dolgikh refers to the following criteria for the allocation of semantic fields: structural, psychophysiological, statistical, psycho-linguistic and semantic-logical. These criteria are different in their nature, effectiveness and breadth of application in linguistic research.

All the above criteria have a common disadvantage: they are cumbersome, uneconomical and very inconvenient in the allocation of semantic fields. The semantic-logical criterion is devoid of this disadvantage. The semantic-logical criterion of field allocation is based on the principle of identification, put forward by Sh. Bally. This principle is reduced to finding a word - identifier, which should express a concept, idea in the most general, abstract and neutral form. The semantic-logical criterion is adhered to by V. I. Kokhov, O. Duhacek, E. Oksaar, C. K. Roining, H. M. Minina, A. A. Ufimtseva [6:43]. Semantic-logical criterion of field allocation is purely intuitive. However, the researcher in the process of work is guided not only by his own considerations, but also relies mainly on the collective intuition of dictionary compilers. The thematic, explanatory, synonymic and antonymic dictionaries usually serve as a material for semantic fields.

Thus, researchers have at their disposal a number of different criteria for the separation of semantic fields, which gives linguists the opportunity to choose the most suitable from their point of view or to propose their own.

According to Z. N. Verdieva, as a field in modern linguistics is a set of words of different parts of speech, which are united by the commonality of expression of one concept. It is on its basis that words are integrated into a field. The correlation of lexical units with the concept can be different. Expressing it, a word can relate to it through subordinate components of its semantic structure, i.e. mediated. The core of the field is formed by verbal signs, in the semantic structure of which the dominant position is occupied by the sign coinciding with the concept that integrates the field. Word signs belong to the periphery if they contain this feature in a subordinate position. Since the structure of the basic mass of lexical units has quite a large number of semantic features, they can belong to a multitude of conceptual fields. Their number corresponds to the number of semantic features of a lexical unit. The fields are intersecting and have no clear boundaries [1: 4].

L. A. Novikov presents the structure of a semantic field in the following way. The field consists of a core (field name, general meaning), center (specialized classes with more complex meaning) and perifery (secondary names) [5: 459].

B. N. Denisenko considers the functional interpretation of the semantic field as the most flexible and adequate to the lexical system of the language. He treats the structure of the semantic field not as fixed, stable, but as variable, functionally mobile. Functional interpretation allows us to present the semantic field in the form of a consequent dependence of hierarchically different-level elements: core, center and periphery in their interrelation. Such interpretation was developed in the works of O. Kartsevsky and E. Kurilovich.

In the semantic field “each preceding link (hierarchically higher) can be represented as a primary function in relation to the subsequent ones, realizing secondary, derivative functions. This chain stretches from the core of the field (its name and invariant meaning) to the center of the field (semantic classes of different ranks), and from it - to its periphery” [3: 4-5]. B. N. Denisenko emphasizes that the functional structuring of a semantic field is based on a number of principles that form the basis of its construction. He emphasizes the following main principles:

1. Field elements (minimal units) - word’s lexic-semantic variant or, less often, the whole unambiguous word. Therefore, the units of field selection are most often word meanings. 2. Field elements do not overlap and are organized hierarchically according to the principle of hyponymy. 3. Units of adjacent fields, which mutually interact with the given field, are included by their secondary meanings in a certain class of the field as secondary nominations. 4. The minimum unions of elements of the semantic field are lexical-semantic groups - units of one part of speech, possessing a common meaning of the field. Their combinations make up subclasses and the whole field, consisting of linguistic units of different parts of speech. 5. The units of the field, besides the initial hyponymic (classification) semantic relations, are capable of revealing other categorical relations: equivalence, opposition, etc. Between such units, taking into account their different morphological composition, word-formation-derivation relations are inevitably found. 6. “The field is a three-dimensional space. Traditionally distinguished semantic, paradigmatic and word-formation fields represent three dimensions of a single semantic field: paradigmatic/syntactic and epidigmatic. The properties of units in these aspects are juxtaposed, interrelated in the composition of the whole”. 7. The general structure of the field has a hierarchical character.

In linguistics the notion that each linguistic phenomenon has a central and peripheral part has been established. “The basis of this phenomenon is the asymmetric dualism of the language sign (or sign and meaning in another sense), discovered by S. O. Kartsevsky. This gives grounds to speak about primary (main) and secondary (private) meanings, about primary and secondary forms of expression of

some content. The principle of such asymmetry also underlies the organization of such a complex unit as a semantic field. The main meaning is expressed by primary forms (units). Due to asymmetry such meaning is modified in classes: it has its own forms of expression up to peripheral ones" [2: 45]. In the center of each field there is a peculiar outstanding part, its core, the main lexeme, which is specialized in the form of more complex dominants, which head the classes of the field, and on its periphery there are marginal units with contextually determined meanings" [5: 45]. Thus, despite the various points of view regarding the structure of a semantic field, all researchers emphasize the hierarchy of field components, the presence of the field core and its periphery.

Having singled out the field on the basis of a certain criterion, the researcher begins to analyze it in order to establish the systemic nature of paradigmatic and syntagmatic relations of words. N. G. Dolgikh cites the following research methods: the traditional method - the method of contextual analysis, distributive, transformational, psycholinguistic, statistical and component analysis methods. Each of them has its advantages and disadvantages.

The method of contextual analysis was applied in their works by V. Porzig, O. Duhacek, E. Oksaar, K. Roining and other scientists when the theory of semantic fields was just beginning to develop. This method is based on the need to study some words in their relations with other words in the text. But in practical research, the use of the contextual analysis method did not allow us to categorize words into closer semantic groups within a field. Since more precise and formal methods of semantic analysis were needed, new structural methods emerged, which are based on the organic relationship between linguistic form and content. The structural methods include the method of distributive analysis and the transformational method.

"The method of distributive analysis is based on the study of the set of environments in which a given element can occur, in contrast to the environments in which the element cannot occur. The identical distribution of words indicates the closeness of their meanings. This gives reason to believe that the semantic field really unites words with related meanings" [6: 94]. The method of distributional analysis can be considered reliable enough only when studying a large volume of material. "The lower the frequency of a word, the larger the sample size is needed to reveal its distributional properties. Hence the unwieldiness of the analysis and, consequently, the actual difficulty of performing studies of this kind" [4: 94].

Thus, the variety of methods presented above allows researchers to choose one or several methods for their scientific work. For our study, the most convenient is the method of component analysis.

The method of component analysis was first used in the 50s of the 20th century. This method reveals a connection with the ideas of O. Jakobson and L. Elmslev, who considered it possible to transfer the principles of S. Trubetskoy's phonology to grammar and semantics. Application of the method of component (semantic) analysis allows us to penetrate into the semantic structure of a word, to unfold the meaning of a word by decomposing it into its constituent elements. "The allocation of components in semantic structures serves as a criterion for combining words containing similar components into one field. However, studies of the last ten years have shown that decomposition into semantic components is relatively easy for words that form closed systems (kinship terms, titles of military ranks, musical terms). Attempts to apply component analysis to words of other, more open systems cause considerable difficulties" [4: 95].

BIBLIOGRAPHY

1. Вердиева, З. Н. Семантические поля в современном английском язы¬ке. З. Н. Вердиева. - М.: Высшая школа, 1986.
2. Денисенко, В. Н. Семантическое поле как функция. В. Н. Денисенко. Филологические науки. 2002. № 4.
3. Денисенко, В. Н. Функциональная структура семантического поля. В. Н. Денисенко И Филологические науки. 1999. № 1.
4. Долгих, Н. Г. Теория семантического поля на современном этапе развития семасиологии. Н. Г. Долгих. Филологические науки. 1973. № 1.
5. Новиков, Л. А. Семантическое поле. Л. А. Новиков. Русский язык. Энциклопедия. М., 1997.
6. Уфимцева, А. А. Опыт изучения лексики как системы. А. А. Уфимцева - М. : , 1962.

Dildora ABDULLAYEVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

ALISHER NAVOIY KICHIK LIRIK JANRDAGI ASARLARINING MAKTAB DARSLIKLARIDA BERILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy kichik janrdagi asarlarining maktab darsliklarida o‘qitilishining ahamiyati va pedagogik foydasi yoritiladi. Navoiyning ruboiy va qit’alari o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, til madaniyatini rivojlantirishga va ma’naviy tarbiya olishga yordam beradi. Maktab darsliklarida Navoiy asarlarini o‘qitish orqali yosh avlod milliy qadriyatlarimizni anglashadi va adabiy merosimizga hurmat bilan qarashadi. Maqolada Navoiy asarlarini o‘qitishning metodologik yondashuvlari va ilmiy tadqiqotlar natijalari ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, kichik janrlar, maktab darsliklari, pedagogik ahamiyat, adabiy tahlil, ruboiylar, qit’alar, tanqidiy fikrlash, milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya.*

Annotation: this article highlights the significance and pedagogical benefits of teaching Alisher Navoi’s works in the minor genre in school textbooks. Navoi’s rubai and khita help students to think critically, develop language culture and receive spiritual education. By teaching Navoi’s works in school textbooks, the young generation understands our national values and respects our literary heritage. Methodological approaches to teaching Navoi’s works and the results of scientific research are also presented in the article.

Keywords: *Alisher Navoi, small genres, school textbooks, pedagogical value, literary analysis, rubai, continents, critical thinking, national values, spiritual education.*

Аннотация: в данной статье подчеркивается значение и педагогическая польза преподавания произведений Алишера Навои в минорном жанре в школьных учебниках. Навоийские рубаи и кхита помогают студентам критически мыслить, развивать языковую культуру и получать духовное образование. Преподавая произведения Навои по школьным учебникам, молодое поколение понимает наши национальные ценности и уважает наше литературное наследие. В статье также представлены методические подходы к преподаванию произведений Навои и результаты научных исследований.

Ключевые слова: *Алишер Навои, малые жанры, школьные учебники, педагогическая ценность, литературный анализ, рубаи, континенты, критическое мышление, национальные ценности, духовное образование.*

Alisher Navoiy, o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo‘lgan. Uning shaxsi g‘arbda Chig‘atoy adabiyotining buyuk vakili sifatida qaralgan. Alisher Navoiy asarlarining maktab darsliklarida berilishi mavzusida quyidagi ma’lumotlarni o‘rganishingiz mumkin:

Hayoti va ijodi: Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotda tug‘ilgan. U Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste’dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e’tirofini qozongan. Pahlavon Muhammad Sayyid Hasan Ardasher kabi ustozlardan ta’lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Navoiy 1469-yilgacha temuriylar orasidagi ichki nizolar sababli Hirotdan yiroqroqda yashagan. U davlatning barcha ishlariga aralasha oldi va tarjimayi holi o‘z davrida Xondamir, Vosifiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixchi va davlat arboblarining asarlarida aks etdi.

Lirik asarlari: Alisher Navoiy lirik asarlarida baytlarning shakl va mazmun uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratgan. Masalan, “Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen joni zorimni, Tilarmen bir yo‘li buzmoq buzulg‘on ro‘zg‘orimni...” Inson qalbi hamda tafakkurida haddan ortiq quvonchni ham, g‘amni ham qabul qilolmaslik xususiyatiga mavjud. Ijodkor o‘z jonini junun, ya’ni telbalik vodiysiga moyil ko‘radi. Buzilgan hayot-ro‘zg‘ori uni aqldan ozdirgani juda ta’sirli ta’riflaydi. Endi shoir telbalikni bo‘yinga olib dasht-u sahrolar kezishdan o‘zga yo‘li qolmaganini aytadi.

Bugungi kunda, globallashuv jarayonida milliy madaniyatimiz va adabiyotimizni saqlab qolish, yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan Alisher Navoiy ijodini ayniqsa, uning kichik lirik janrdagi asarlarini maktab darsliklarida o‘rganish juda muhimdir. Navoiy asarlari yosh o‘quvchilarga nafaqat milliy adabiyotimizning boyligini anglashga yordam beradi, balki ularning ma’naviy hamda axloqiy tarbiyasida ham katta rol o‘ynaydi.

Badiiy matn ijodkorning dunyoqarashi, g‘oyaviy reja, maqsadlarini o‘zida ifoda etsa, uni har safar qayta o‘qiyotgan kitobxon asarning yangi ma’no qirralarini, xos xususiyatlarini ochib borishi turgan gap. Axloqiy mezonlarning yuqori cho‘qqisidan turib, dunyoni yuksak tafakkur, oliy ong orqali his qilgan, qalb kechinmalarini qalamga ko‘chirgan Alisher Navoiyning asarlarini idrok etishda asarning bosh g‘oyasini anglab yetish muhim vazifa hisoblanadi. Butun dunyo xalqlari adabiyotida badiiy asar va kitobxon orasida bo‘ladigan, asar zamirida yotuvchi yetakchi g‘oyani, matn ortida ufurib turgan shoir olamining anglam qatlamlari, tafakkur kengliklari sari yo‘naltiradigan jarayonlar borki, bular talqin, tabdil, sharh, izoh, nasriy bayon kabi qo‘shimcha vositalardir. Ular kitobxon ojizlik qilib turgan lahzalarda

asar mohiyatiga olib kiradi.

Navoiyning kichik janrdagi asarlari, xususan, ruboiy va qit'alarida koinot va inson hayoti haqidagi chuqur mulohazalar, vaqtning qadrini bilish, hayotning o'tkinchiligi va insoniyatning ezgulik sari intilishi kabi mavzular yoritilgan. Bu kichik hajmdagi, ammo mazmunan boy asarlar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Navoiy ijodining bunday xususiyatlari, uni maktab darsliklarida o'qitishning ahamiyatini yanada oshiradi.

Alisher Navoiyning ijodi butun O'rta Osiyo adabiyoti uchun katta ahamiyatga ega sanaladi. Navoiy turli janrlarda ijod etgan, ammo uning ruboiylari, qit'alari va g'azallari alohida e'tiborga loyiqdir. Bu kichik janrdagi asarlar o'zining qisqa hajmi bilan birga chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi.

Maktab darsliklarida Navoiy asarlarini o'rganish: Bugungi kunda maktab darsliklarida Navoiy asarlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, 6-7-8-sinf "Adabiyot" darsliklarida Navoiy ruboiylari va qit'alaridan parchalar keltirilgan. Bu asarlar orqali o'quvchilar shoirning ijodi bilan tanishadilar va uning asarlaridagi ma'nolarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qitish usullari sifatida asarlarni o'qish, tahlil qilish, muhokama qilish va sahnalashtirish tavsiya etiladi.

Alisher Navoiy asarlarini o'qitishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati katta. Ushbu asarlar orqali o'quvchilar ma'naviy va axloqiy tarbiya oladilar, milliy qadriyatlarimizni anglaydilar. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, nutq madaniyati va ijodiy tafakkur rivojlanadi. Navoiy ruboiylari va qit'alari orqali ularda ezgulik, halollik, vatanparvarlik kabi fazilatlar shakllanadi.

Navoiy asarlari bo'yicha ko'plab ilmiy maqolalar va tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar Navoiy asarlarining pedagogik ahamiyatini, ularning maktab darsliklaridagi o'rnini va o'qitish metodikasini yoritadi. Bu ilmiy ishlardan foydalanish o'qituvchilarga Navoiy asarlarini samarali o'qitishda yordam beradi.

Maktablarda Navoiy asarlarini o'qitish tajribasi muvaffaqiyatli loyihalar va natijalar bilan tasdiqlangan. O'quvchilarning Navoiy asarlarini o'zlashtirish darajasi yuqori va ular bu asarlarni qiziqish bilan o'rganadilar. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy asarlarini o'rganish o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning ma'naviy olamini boyitadi.

Navoiy asarlarining maktab darsliklaridagi o'rni va ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, uning kichik janrdagi asarlari o'quvchilarda quyidagi qobiliyat va fazilatlarni rivojlantiradi:

Avvalo, o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Navoiy asarlarining tahlili, o'quvchilarni o'qilgan matn ustida chuqur mulohaza yuritishga, matnning yashirin ma'nolarini anglashga undaydi. Ruboiy va qit'alardagi falsafiy mulohazalar, hayot haqiqatlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Buni "Mening fikrim" usuli orqali ko'rib chiqamiz.

Bugungi kun DTSning maqsadi erkin fikrini bayon eta oladigan yoshlarni tarbiyalash ekan, demak, "Mening fikrim" usuli bunda qo'l keladi, albatta. Alisher Navoiyning 7-sinfda berilgan 2-qit'asi "Mening fikrim" usuli orqali o'zlashtiriladi. Bunda qit'a o'quvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Shundan so'ng qit'a bo'yicha tushunganlarini gapirib berishadi. Tushunish qobiliyati har xil. Kimdir to'liq tushunmasligi mumkin, kimdir yaxshi anglaydi. Fikrlar eshitilib, o'qituvchi tomonidan umumiy xulosalar berilgandan keyin o'quvchilar qit'aning tub mohiyati, hayotimiz uchun ahamiyatini yaxshi anglab yetishadi. Shundan so'ng o'quvchilardan o'z fikr-mulohazalari so'raladi. Har bir fikr eshitilib, kamchiliklari sekinlik bilan tushuntirib boriladi. Dars so'ngida o'qituvchi fikrlarni inobatga olib yaxlit bir tushuncha beradi.

Qit'a ifodali o'qiladi:

Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.
Kim, kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.

Shundan so'ng qit'aning mazmuni o'quvchilar bilan birgalikda ochib beriladi. Shundan so'ng xoh yakka tartibda, xoh guruh bo'lib, qit'a bo'yicha o'zining fikr-mulohazalarini gapirib berishadi. Buni yozma usulda olsa ham bo'ladi. Agar yozma tartibda olinsa hamma 100 foiz fikrlari eshitilgan bo'ladi.

Munozara" usuli – o'zining fikrini ifoda etishni istovchilar orasida biror bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash hamda to'g'ri qaror qabul qilish. Deylik, ma'lum bir asar yuzasidan bahsga chorlovchi savollar o'qituvchi tarafidan o'rtaga tashlanadi.

Buni biz Alisher Navoiyning 6-sinf Adabiyot darsligida keltirilgan 7-ruboiy misolida ko'ramiz.

So'zdurki nishon berur o'lukka jondin,
So'zdurki berur jonga xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

nishon – belgi
guhar – gavhar

sharif – aziz, qadrli

2. Til madaniyati va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Navoiy asarlarini o'qitish, o'quvchilarda adabiy tilni anglash, nutq madaniyatini oshirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Tarbiyaviy ahamiyati. Navoiy asarlaridagi ma'naviy va axloqiy qadriyatlar o'quvchilarga halollik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni singdiradi.

Navoiy asarlarini maktab darsliklarida o'qitishning samarali usullari mavjud:

1. O'qish va tahlil qilish. Bunda o'quvchilar Navoiy asarlarini o'qib, baytlardagi ma'nolarni tahlil qilishadi. Bu usul o'quvchilarning matn ustida ishlash qobiliyatini oshiradi.

2. Muhokama qilish. Alisher Navoiy asarlaridagi

mavzular muhokama qilinadi. Natijada o‘quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi. O‘qituvchi mavzuga oid savollar berib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rag‘batlantiradi.

3. Sahnalashtirish. O‘quvchilar Navoiy asarlaridan sahnalar ijro etish orqali asarlarning mazmunini chuqurroq anglaydilar. Bu usul o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bu usullar orqali Alisher Navoiy asarlarini o‘qitish o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarlar yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi. Ularda ezgulik, halollik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

“Biz bugun Alisher Navoiy nomisiz o‘zbek madaniyatini tasavvur qilolmaymiz. Uning nurli she’riyati, yorug‘ siymosi ruhimizga singib ketgan. Shoirning yuksak badiiyat bilan muzayyan bo‘lgan, chuqur insonparvar g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan ijodi asrlar osha bizni hanuz o‘ziga rom qiladi, ko‘ngillarimizni zavq-u shavq hamda iftixor tuyg‘ulari bilan, ongimizni ezgulik fikrati bilan boyitadi, bizni adolat uchun, inson qalbining mangu erki uchun kurashmoqqa chorlaydi” .

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy kichik janrdagi asarlarini maktab darsliklarida o‘qitish milliy adabiyotimizni saqlab qolish va yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiyning shaxsiyati, hayot yo‘li, millat madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o‘zbek davlatchiligi va ma’naviyati tarixida tutgan o‘rni haqida bilimga ega bo‘lishi, Navoiy asarlarining o‘rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, adabiy merosining vazn xususiyatlari, janrlar poetikasi, xamsachilik an’anasi, nazira, g‘azallarning o‘ziga xos jihatlari, Navoiy ijodida qo‘llanilgan qofiya unsurlari, badiiy san’atlarning hosil bo‘lish yo‘llari, majoz tariqida yozilgan she’rlarda qo‘llanilgan ilmiy, diniy-asotiriy va tasavvufiy istilohlarni sharhlash, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini, anglash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi, Navoiy asarlarining tili, forsiy merosining badiiyati, ilmiy-filologik, tarixiy, diniy-falsafiy asarlarining o‘ziga xos jihatlari, ma’no qatlamlari, o‘zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri bilan bog‘liq masalalarni bilishi, Navoiy asarlarini o‘rganish orqali mumtoz adabiyot namunalarini to‘g‘ri tahlil va talqin qila olish bilimi, malakasiga ega bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojiboyeva O. Matn, mohiyat va talqin maqolasi ALISHER NAVOIY VA XXI ASR mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – TOSHKENT: MASHHUR-PRESS, 2020.
2. Aripova Gulchehra. “Alisher Navoiy ijodi va zamonaviy adabiyot”. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2009.
3. Ismatulla Nurulloh. “O‘zbek adabiyotining buyuk siymolari”. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2010.
4. Sodiqov Qudratilla. “Navoiy ruboiylarining poetikasi”. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2001.
5. Rashidov Ahmad. “Alisher Navoiy va uning davri”. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1998.
6. Mirzayeva Z, Jalilov K. 6-sinf adabiyoti. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
7. Mirzayeva Z., Jalilov K. 7-sinf adabiyoti. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
8. Karimov Mahmud. "O‘zbek klassik adabiyoti". – Toshkent: Fan nashriyoti, 2000.
9. www.ziyo.uz.com
10. www.ziyonet.uz
11. www.natlib.uz
12. www.book.uz

Nilufar MAXSUDOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tadqiqotchisi
makhsudova-nilufar@mail.ru

MAQOL VA MATALLAR BAHOLASHNI IFODALOVCHI KATEGORIYA SIFATIDA

Annotatsiya: maqol va matallar til va madaniyat uyg‘unligini aks ettiruvchi til birliklari, shu bilan birga insonning ruhiy dunyosini ham baholovchi lisoniy kodlar sanaladi. Ushbu maqola baholovchi maqol va matallar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ular badiy asarlardan olingan misollar yordamida dalillangan. Shuningdek, maqolada baholovchi maqol va matallarning tematik-ideografik tasnifi, bahoni ifoda etuvchi vositalar bayoni ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *maqol, matal, baho, imlitsit, eksplitsit ifoda vositalari, paremiya, tavsifiy sifatlar.*

Аннотация: пословица и поговорка – языковые единицы, отражающая элементы языка и культуры, и в то же время они считаются языковыми кодами, оценивающий духовный мир человека. В данной статье освещена оценочные пословицы и поговорки и они обоснуются примерами взятых из художественных произведений. Также в статье представлена тематико-идеографическая классификация оценочных пословиц и поговорок и осредства выражения оценки.

Ключевые слова: *пословица, поговорка, имлицитные и эксплицитные средства выражение, паре-*

мия, описательная характеристика.

Annotation: proverbs and sayings are linguistic units that reflect an element of language and culture, and at the same time they are language codes that evaluate the spiritual world of a person. This article elucidates evaluative proverbs and sayings and they are proven with examples taken from novels. The article also presents a thematic and ideographic classification of evaluative proverbs and sayings and means of expressing evaluation.

Keywords: *proverb, saying, implicit and explicit means of expression, paremia, descriptive characteristics.*

Kirish. Tilning ko‘rkini, nutqda ma’nolar rang-barangligini, aql-farosat va tafakkurning mantig‘ini namoyish etuvchi maqol va matallar dunyodagi jamiki xalq va elatlarda mavjud bo‘lib, uning ortida har bir xalqning dunyoqarashi, orzu-umidlari, urf-odatlari turadi. Shuning uchun ham, ularni xalqning turmush qonun-qoidalarini o‘zida jo qilgan qisqa ritmik birliklar deyish mumkin.

Maqol va matallarni inson hayotida tutgan o‘rni katta. Ular inson ongini o‘stiradi, uni to‘g‘ri, rostgo‘y, mehnatsevar, mard-jasur, sabotli va matonatli bo‘lishga undaydi. Maqollarda boylar qoralanadi, ahmoqlar masxara qilinadi, dangasa va yalqovlar tanqid ostiga olinadi, shuningdek, ular kishilardagi eng yaxshi insoniy fazilatlarni targ‘ib etadi.

Asosiy qism. Maqollar ma’nosiga ko‘ra, modal ma’noli va baholovchi maqollarga bo‘linadi [1: 48].

Modal ma’noli maqollar xalqning hayotiy tajribalarini umumlashtirib, nutqda maslahat, nasihat yoki ogohlantirish tarzida namoyon etadi. Modal ma’noli maqollarda fe’l buyruq maylida ishlatiladi. Masalan, “As you brew, so must you drink” – “O‘zing pishirgan oshni o‘zing ich”, “Cut your coat according to your cloth” – “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat”.

Modal ma’noli maqollardan tashqari, shunday maqol turi ham borki, ular predmet yoki voqea-hodisaga salbiy yoki ijobiy baho bera oladi. Albatta, bunday xususiyat matallarga ham xosdir. Ularni bevosita baholovchi maqol va matallar deyishimiz mumkin. Bunday turdagi maqol va matallarda baho muayyan mulohaza yoki faoliyatning xulosasi bo‘lib, u predmet yoki voqea-hodisalarning xususiyatlarini aks ettirish uchun xizmat qiladi.

Paremiologik birliklar olamning lisoniy manzarasining aksi bo‘lib, uni idrok etishda inson markaziy o‘rinni egallaydi va baholash obyekti sifatida gavdalanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi maqol va matallarda inson obrazi turli parametrlar doirasida baholanadi va tavsiflanadi. Ular quyidagilar: a) xarakter xislatlari (One’s eye is bigger than his belly – Qorni to‘q, ammo ko‘zi och); b) xulq-atvoriga doir sifatlari (Honey tongue, a heart off gall – Tili boshqa-yu, dili boshqa); c) yoshi va tajribasiga oid xususiyatlar (If you wish good advice consult an old man – Qari bilganni pari bilmas); d) ijtimoiy-moddiy ahvoliga doir xususiyatlar (He is not poor that has little but that desire much – Boyligi ko‘p odam emas, nafsini tiya olgan odam boydir); e) insonning tashqi qiyofasidagi jihatlar; (A fair face may hide foul heart – Chiroyli yuz razil qalbni yashirishi mumkin); f) intellektual salohiyatga oid sifatlari (Fool’s tongue runs before his wit – Ahmoq avval so‘ylaydi, so‘ng o‘ylaydi).

Tilning paremiologik sathida baho ijobiy, salbiy, neytral va turli til birliklari yordamida ifodalanishiga ko‘ra ochiq-oydin (eksplisit) yoki yashirin (implisit) bo‘lishi mumkin. Eksplisit maqol va matallar uchun baholash doimiy bo‘ladi.

Ularda baholash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar mavjud. Masalan, o‘zbek tilidagi “Odobli o‘g‘il – kundagi yulduz, odobli qiz – yoqadagi qunduz” maqoli va ingliz tilidagi “Somebody’s word is as good as his bond” matali bunga misol bo‘la oladi.

Ingliz va o‘zbek tilidagi eksplisit maqol va matallarda ijobiy yoki salbiy munosabat “yaxshi”, “yomon”, “good”, “well” (ravish), “bad”, “ill” sifatlari va ularning qiyosiy va orttirma darajalari (asosan, ingliz tiliga xos), shuningdek, meliorativ (ijobiy) va peyorativ (salbiy) kvalifikatorlar orqali ifoda etiladi. Masalan: “The best fish swim near the bottom”, “Its an ill bird that fouls its own nest”, “Yomonda or bo‘lmas, Yaxshi xor bo‘lmas”, “Aqlli uzoqni ko‘zlar, Ahmoq — yaqinni”. Birinchi va ikkinchi maqollarda ot so‘z turkumini (fish, bird) izohlab kelayotgan sifat asosiy baho tashuvchi leksemalar sanalib, predmetni ijobiy yoki salbiy baholanishi xususida yakuniy xulosa beradi. Keyingi maqollardagi yaxshi, yomon, aqlli, ahmoq so‘zlarida ijobiylik yoki salbiylik subyektning munosabatida emas hodisaning o‘zida mujassam. Masalan, aqlli, yaxshi so‘zlari anglatayotgan ma’no ijobiy yoki yomon, ahmoq so‘zlarida salbiylik subyektning munosabati asosida emas, obyektning o‘zi bilan shartlangan bo‘ladi.

Implisit maqol va matallarda baho obraz asosida shakllanadi, ya’ni bir predmet (obraz) nomining boshqa predmetga ko‘chirilishi asosida yuzaga keladi. Bunda turli xil obrazlar insonning ma’lum bir sifatini ifoda etish uchun xizmat qiladi. A.I.Feodorovning yozishicha, obraz voqelikdagi hodisaning aynan bir xil aksi hisoblanmaydi, balki obrazlarda shunday xususiyatlar aks etganki, biz shu xususiyatlar orqali tasvirlanayotgan shaxs yoki predmetga bo‘lgan munosabatimizni ifodalashimiz, shuningdek, muallif fikrini berishimiz mumkin [2: 8].

Ingliz va o‘zbek tillaridagi paremiyalarda insonning tavsifiy sifatlarini yoritish uchun quyidagi obrazlardan foydalanilgan:

a) hayvon, parranda va hasharot nomlari;

b) o‘simlik nomlari;

d) inson tana a’zolari nomlari;

e) predmet nomlari;
f) tabiat hodisalari nomlari;
g) diniy va adabiy personaj nomlari;
h) antroponimlar;
i) shaxs atamalari va insonning jismoniy kamchiligini ifodalovchi leksemalar.

Ma'lum bir obrazning nomini shaxsga ko'chirishda o'sha obraz tarkibida mavjud bo'lgan denotativ ma'nolardan biri shaxsga ko'chirilishi orqali konnotativ ma'noga aylanadi va natijada ijobiy baho nomoyon qilinsa, uning teskari ko'rinishi manfiy bahoni yuzaga keltirishga asos bo'ladi [3: 81]. Bunda kishini ijobiy yoki salbiy bahosi matn imkoniyati bilan yanada oydinlashadi. Masalan, o'zbek tilida "Bedananing uyi yo'q, qayga borsa bitpildiq" maqolini olaylik. Ushbu maqolning asl ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'nosi ham bor. Bu fikrimizga Turg'un Po'latning "Ichkuyov" asaridan olingan quyidagi parcha dalil bo'la oladi.

"– Qani oling, uka! Qalay, tinchmisiz? Ishlaringiz yaxshimi? –Cherkashinning keyingi so'rog'i "yo'li uchun" aytilganini, u O'rinboyning boshidagi savdolardan qay darajadadir voqifligini O'rinboy yuragining bir chekkasida sezdi. Shunday bo'lsa-da, u ham "yo'li"ga javob qaytardi:

– Rahmat, tinchman. O'zingizdan so'rasak?

– E, bizdan so'rasangiz-so'ramasangiz, eng yaxshi, eng osoyishta kunimiz mana shu. "Bedananing uyi yo'q, qayga borsa bitpildiq!", "It yotish, mirza turish!". Shunaqa deyilarmidi? Siz bilan ko'rishmaganizdan beri Mirzacho'lda bo'ldim. Bir-ikkita kanal qurdik" [4:112]. Ushbu matnda "bedana" so'zi ko'chma ma'noda ishlatilib, u turar joyining tayini yo'q, darbadar, bir joyda muqim yashamaydigan, dalli-g'uli odam ma'nosini ifodalamoqda. Shunga o'xshash misolni ingliz tili materialida ham ko'rishimiz mumkin. Chunonchi: All lay loads on a willing horse (Mazmuni: barcha yuk serharakat ot ustiga yuklanadi).

"I daren't ask old Morgan to do for us. He always says he can't spare the time and gets quite nasty. When you try persuade him. Young Simpson's a willing horse. Try him. He has got less time to spare than most but he doesn't make such a fuss [5: 23].

Ushbu matn mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, jumladagi willing horse serharakat ot ma'nosida emas, balki mehnatsevar, doimo birovdan yordamini ayamaydigan inson ma'nosida ishlatilmoqda.

Ko'p hollarda implisit maqol va matallardagi baho metafora yordamida aniqlanadi. Metaforik ko'chishda to'g'ri yoki ko'chma ma'no strukturasidagi umumiy sema, ya'ni ko'chish uchun asos bo'lgan sema muhimdir. Agar bu sema ijobiy bo'lsa, obraz ham ijobiy baholanadi, agar salbiy bo'lsa, salbiy baholanadi. Fikrimizning isboti sifatida o'zbek tilidagi "Ilonning bolasi – ilon, chayonning bolasi – chayon" va ingliz tilidagi "A leopard cannot change its spots"; "Can change leopard its spots?" maqollarini tahlil qilaylik. Ilon – sudralib yuruvchi, oyoqsiz, tanasi ingichka va uzun, ko'zlari shaffof qovoqlar bilan qoplangan jonivor [6:198]. Chayon – o'rgimchaksimonlar sinfiga mansub bo'lgan bo'g'imoyoqlilar turkumiga kiruvchi zaharli hasharot [6: 445]. Ko'chma ma'nosi: Ilon – mug'ombir yoki turqi sovuq bamisoli ilon kabi zahrini sochuvchi inson. Chayon – tili achchiq, gazanda, yomon odam. Metaforik ko'chishga asos bo'lgan sema – ilon va chayonning yomonligi va insonlarga ozor berishi. Albatta, bu obrazning salbiy baholanishiga asos bo'ladi. Maqolning mazmuni: yomon insonlarning farzandlari, albatta, yomon bo'ladi, chunki yomonlik nasldan naslga o'tishi mumkin. Albatta, bu maqol borasidagi yuqoridagi fikrlar quyidagi matn yordamida yanada oydinlashadi.

"– Ha, yaxshi. Bu yerda bir gap chiqmaydi shekilli. Sen men bilan birga ketasan. Suhbatni idorada davom ettiramiz. Senlar "enkvede" nima ekanligini hali bilmas ekansanlar. Ko'zlaringni ochib qo'ymasam bo'lmaydi.

– Biz shikoyat qilamiz. Siz hali javob berasiz! – dedi Erkin qat'iylik bilan.

Javlon "Ilonning bolasi – ilon, chayonning bolasi – chayon", deb ijirg'andi-da, Erkinni siltab nari itardi. Onasi uyda dod deganicha qolaverdi" [7:188].

Ingliz tilidagi "A leopard cannot change its spots"; "Can change leopard its spots?" maqoli C.I.Lubenskayaning "Bolshoy russko-angliyskiy frazeologicheskiy slovar" lug'atida quydagicha izohlangan: person's deep-rooted shortcoming, habits etc are impossible, to correct, a person's nature cannot change [8: 141]. Ya'ni, insonning chuqur ildiz otgan illatlarini, odatlarini, xarakterini o'zgartirib bo'lmaydi. Ushbu maqol mazmunan o'zbek tilidagi "Bukrini go'r tuzatadi" maqoliga to'g'ri keladi. Bu maqolda metafora salbiy xislatlarni o'xshatishga asoslangan. Maqoldagi spot – stain, ya'ni "dog'" degan ma'noni beradi. Ko'chma ma'nosi: spot – moral stain, blot or blemish; a stigma or disgrace [9: 670] – ma'naviy dog', isnod, kamchilik. Metaforik ko'chishga asos bo'lgan sema – yomon illatlar, odatlarning mavjudligi. Demak, yuqorida ko'rsatilgan omillar obrazning salbiy baholanishiga asos bo'la oladi. Bu fikrlar quyidagi misolda ham o'z ifodasini topgan: *"They've [the pheasants have] really taken offence. They won't be back". Andrei vented his annoyance on him [the old veterinarian]. "What I am supposed to do, dance for them? They'd have let us down sooner or later anyway. A leopard cannot change its spots"* [10: 141].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, maqol va matallarda qo'llanilayotgan obrazlar ikki xil bo'lishi mumkin. Ma'lum bir insoniy sifatni to'laqonli va qisman aks ettiruvchi obrazlar. Masalan, sher va quyon obrazlari haqida fikr ketganda, inson ongida mardlik, botirlik va qo'rqoqlik kabi sifatlar tasavvuri yuzaga keladi. Chunki ular insonlar ongida dovyuraklik va qo'rqoqlik sifatlarini

ramzi sifatida shakllanib bo‘lgan. Yurak obrazi bir paytning o‘zida dovyuraklik hamda qo‘rqoqlikni ifoda etishi mumkin. Bunda ijobiylik va salbiylik ushbu obrazni izohlab kelayotgan leksemada anglashilgan ma’no orqali aniqlanadi: “Put a stout heart to a stey brae”, “Faint heart never won fair lady.

Shuningdek, maqol va matallarda bahoni implisit ifoda etish usullaridan biri, peyorativ kvalifikatorlar (insonning salbiy xususiyati) eksplisit tarzda qo‘llanilmay, balki ularning belgi, xususiyatlari yoki ular tilidan aytilgan gaplar bayon etiladi: “Osh desa – qult-qult, Ish desa – qilt-qilt”, “Better belly burst than good meat lost”.

XULOSA. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, dunyodagi har bir xalqning ong-shuurida olamning o‘ziga xos aksiologik manzarasi bor bo‘lib, ular shu asosida olamni anglaydi, idrok etadi. Ma’naviyat, madaniyat, ma’rifat, diniy e’tiqod, xalqlarning yashash tarzi, ularni o‘rab turgan tabiati, iqlimi o‘sha olamni shakllantirsa, maqollar fondi uni boshqa xalqlarga namoyish etadi.

Maqol va matallar nutqiy faoliyatda baho ma’nosini ifodalovchi asosiy vositalardan biri sanaladi. Ular doimo subyektga qaratilgan bo‘lib va faqat subyekt, predmet yoki voqea-hodisalarni tasvirlash uchun emas, balki uni sharhlash, baholash va unga subyektiv munosabatni ifodalash uchun ham yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qarang: Наймушина Т.А. Пословицы и поговорки в художественном тексте.: дисс…канд.филол.наук. – Ленинград, 1984.-174 б.
2. Федоров А.И. Семантическая основа образных средств языка. Новосибирск: Наука, 1969. – 92 с.
3. Қамбаров Ғ.С. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида).: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2008
4. Пўлат Т. Ичкуёв. – Т.: Ёзувчи, 2000.-296 б
5. Ridout R, Witting C. English proverbs explained. – London.: Pan books Ltd, 1969-605 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008 й.-606 б.
7. Малик Тоҳир. Танланган асарлар (“Эркин” қиссаси). – Т.: Шарқ, 2005.- 479 б.
8. Лубенская С.И. Большой русско-английский фразеологический словарь. – М.: АСТ – пресс книга, 2004.-1019 б.
9. The Oxford English dictionary. – Oxford. : Clarendon press, 1961, Volume-10.-642 б.
10. Maksimov V. The seven days of creation [transl. not indicated]. – New York: Knoph, 1975.-836 б.

Maxmud BABAYOROV,
SamDU mustaqil tadqiqotchisi

XALQ MAQOL VA MATALLARIDA SPORT LEKSEMALARI QO‘LLANISHINING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV JIHATLARI

2. Salomov G. "Fundamentals of translation theory" Tashkent "Teacher", 1983.
3. Abdurakhmanov "Practical grammar of the Uzbek language" Tashkent, 1992.
4. Sharipov J. Literary translations and skilled translators. Tashkent. 1977.

Khadicha RAKHMATULLAYEVA,
Uzbekistan state world languages university, doctorate student

UNVEILING THE POWER OF IMAGERY: EXPLORING VIBRANT LITERARY EXAMPLES

Annotation: this article delves into the transformative role of imagery in literature, showcasing its ability to evoke sensory experiences and deepen reader engagement. Through analysis of diverse literary works, readers gain insight into the techniques writers use to craft vivid imagery and enhance storytelling. The article highlights the interplay between imagery and other literary devices while emphasizing the importance of freshness and innovation in imagery.

Key words: *imagery, literature, sensory perception, metaphor, simile, personification, symbolism, literary devices.*

Аннотация: эта статья углубляется в преобразующую роль образов в литературе, демонстрируя их способность вызывать чувственные переживания и углублять вовлеченность читателя. Анализируя разнообразные литературные произведения, читатели получают представление о методах, которые писатели используют для создания ярких образов и улучшения повествования. В статье подчеркивается взаимодействие между образами и другими литературными приемами, подчеркивая при этом важность свежести и новаторства в образах.

Ключевые слова: *образность, литература, чувственное восприятие, метафора, сравнение, персонификация, символика, литературные приемы.*

Annotatsiya: ushbu maqola adabiyotdagi obrazning o'zgaruvchan rolini o'rganadi, uning hissiy tajribalarni uyg'otish va o'quvchilarning faolligini oshirish qobiliyatini namoyish etadi. Turli adabiy asarlarni tahlil qilish orqali o'quvchilar yozuvchilarning yorqin obrazlarni yaratish va hikoya qilishni yaxshilash uchun foydalanadigan usullari haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Maqolada obraz va boshqa adabiy vositalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ta’kidlangan, ayni paytda tasvirdagi yangilik va yangilikning ahamiyati ta’kidlangan.

Kalit so'zlar: *tasvir, adabiyot, hissiy idrok, metafora, o'xshatish, personifikatsiya, simvolizm, adabiy vositalar.*

Imagery is one of the various techniques that poets and other writers consciously or unconsciously use to make their expressions more powerful. [1]

Imagery encompasses language that activates the reader's sensory perception, engaging touch, taste, sound, smell, and sight to convey a deeper understanding of human experiences, fostering a connection with the reader through a shared sensory encounter. In literature, imagery predominantly focuses on tangible senses, yet internal feelings and emotions are also integral. Later in this piece, we explore techniques for crafting vivid, authentic imagery. Effective examples of imagery extend beyond mere description; for instance, stating "the wallpaper is yellow" qualifies as visual imagery, but it lacks the immersive portrayal of the wallpaper's effect on mood or ambiance [2].

Consider this more captivating depiction of the yellow wallpaper from Charlotte Perkins Gilman's "The Yellow Wallpaper":

"The color is repellent, almost revolting; a smoldering unclean yellow, strangely faded by the slow-turning sunlight.

It is a dull yet lurid orange in some places, a sickly sulfur tint in others. No wonder the children hated it! I should hate it myself if I had to live in this room long."

Notice how the visual imagery (highlighted) illustrates the various hues and blemishes of the wallpaper. Coupled with the narrator's tone (emphasized), we envision a dismal, disheartening paper, far removed from the cheerful brightness one might anticipate.

The finest examples of imagery often incorporate other literary techniques. Many images serve as metaphors, similes, and symbols, while others rely on devices like juxtaposition. The interaction of these devices enhances both the imagery and the author's world-building prowess.

Writers employ imagery to achieve what Charlotte Perkins Gilman accomplishes in "The

Yellow Wallpaper": crafting immersive, sensory-rich experiences solely through the senses.

Think of imagery as a gateway to the narrative world, allowing readers to perceive everything in the story through sight, smell, hearing, taste, and touch.

In literature, imagery serves a similar purpose: highlighting the essential sensory details necessary for readers to step into the narrative. Exceptional examples of imagery set the stage for compelling storytelling, enticing readers into the world of the text.

Writers compose different forms of writing such as novels, short stories, poetry, plays and many others, using special types of words that create some type of mental pictures or make sensory appeals [1].

For a more comprehensive exploration of "why authors use imagery," refer to our article on Show, Don't Tell Writing.

The Impact of Imagery in literature is seen as a valuable device.

Imagery, engaging the senses, immerses readers in the writer's descriptions, fostering a deeper connection with characters and situations while prompting reflection on their own lives. This renders reading more vibrant, engaging, and intimate. Writing enriched with vivid imagery ensures sustained reader attention.

Imagery often carries symbolic significance. When a specific image recurs throughout a piece of writing, the writer may intend for readers to associate it with broader themes within the work.

Examples include:

- A burning candle symbolizing life's brevity
- A setting sun representing death or conclusion
- A lengthy road suggesting life's journey

Frequently employed images can become clichés, overly familiar phrases or imagery deemed trite or commonplace. Common clichés encompass:

- "Red like a rose"
- "Sweet as honey"
- "Black like night"
- "Cold as ice"

Repetitive use of clichés diminishes reader interest as they encounter descriptions they have encountered countless times. To avoid this, skilled writers strive to create fresh, innovative imagery.

Aside from invoking the five senses, imagery can be categorized into two main types: literal and figurative.

Literal imagery portrays things precisely as they are, devoid of hidden or symbolic connotations, also known as descriptive imagery. Writers commonly employ adjectives to construct literal imagery.

Examples of literal imagery include:

- "The sky was periwinkle blue with a few scattered, wispy clouds."
- "Her strong perfume gave me a headache."
- "The blanket was soft."

Figurative language employs vivid comparisons to transcend the literal meanings of words, presenting information in a fresh manner. Imagery crafted using figurative language is often referred to as "poetic imagery."

Examples of figurative imagery include:

- "The sky was as blue as the ocean, and the clouds sailed across it like white boats."
- "Her perfume smelled like a garden of fresh roses in bloom."
- "The blanket was as soft as cat's fur."

Figurative imagery often correlates with figures of speech, literary devices intentionally diverging from words' literal meanings to enrich the language.

Common figures of speech that evoke vivid images include: [11].

- Simile: A simile establishes an explicit comparison between two or more similar entities using the words "like" or "as" to clarify the comparison. For instance, "The sun was as yellow as an egg yolk." This simile employs the image of an egg yolk to accentuate the sun's deep, vibrant hue.

- Metaphor: A metaphor implies a comparison between two or more entities without the need for "like" or "as" because it suggests the compared objects are identical. Sylvia Plath's poem "Metaphors" offers an example: "An elephant, a ponderous house / A melon strolling on two tendrils." Here, Plath utilizes the imagery of an elephant, a house, and a melon walking to depict the discomfort pregnant women experience.

- Synecdoche: Synecdoche employs a figure of speech where a part represents the whole. For instance, performers may refer to the stage as "the boards," invoking an image of the wooden surface while indicating the entire stage.

- Personification: Personification entails representing an abstract concept in human form. While it's commonly misconstrued as attributing human characteristics to nonhuman things, personification extends beyond that. For instance, personifying the Grim Reaper allows readers to envision death as a foreboding figure. Additionally, personification occurs when an object is endowed with more animation than it naturally possesses, as in the example, "The yellow fog rubs its back upon the window-panes." This vivid imagery conjures both visual and tactile sensations, as readers envision the fog behaving akin to an animal, gently brushing against the windows.

I.R. Galperin defines imagery as "a use of language media which will create a sensory perception of an abstract notion by arousing certain association (sometimes very remote) between the general and particular, the abstract and the concrete, the conventional and factual" [3, 264].

Examples of Imagery in Literature

1. F. Scott Fitzgerald, The Great Gatsby [4].

In the final sentence of his iconic novel, narrator Nick Carraway declares:

"We beat on, boats against the current, borne ceaselessly back into the past."

Fitzgerald utilizes visual imagery via metaphor, likening individuals to boats. Similar to vessels navigating water, people strive to advance in life, yet their endeavors and hopeful aspirations for the future prove futile against the powerful pull of the past, akin to a formidable current.

2. Nalo Hopkinson, Brown Girl in the Ring [5].

In the Prologue of her dystopian narrative, Hopkinson employs visual imagery to delineate the setting:

"Imagine a cartwheel half-mired in muddy water, its hub just clearing the surface. The spokes represent the satellite cities comprising Metropolitan Toronto: Etobicoke and York to the west; North York to the north; Scarborough and East York to the east. The Toronto city core serves as the hub."

Hopkinson evokes the imagery of a cartwheel to enable readers to visualize the geographic layout of the setting. This imagery also harks back to an earlier era of agriculture, laying the groundwork for the broader context of a dystopian future where Hopkinson's characters revert to an agrarian lifestyle for survival.

3. Sandra Cisneros, "Puro Amor" [6].

In this short story, Cisneros employs tactile imagery to depict the intimate bond between the character Missus and her pets. While Missus slumbers, the dogs:

"[...] warm her back, radiating heat like meteorites [...]"

This simile compares the warmth emitted by the dogs against Missus's back to the heat of meteorites. This exaggerated description also enhances the dogs' warmth by imparting an otherworldly quality to it, portraying the dogs as a celestial presence to Missus.

4. William Shakespeare, Othello [7].

In Act III, Scene iii, Iago warns Othello about the dangers of jealousy, referring to it as the:

"green-eyed monster which doth mock the meat it feeds upon."

This personification of jealousy elucidates its potent and perilous nature. When Othello ultimately succumbs to his jealous fury, the audience comprehends more readily how this jealousy monster overwhelms his affection for his wife Desdemona. Describing the monster as "green-eyed" serves a dual purpose, vividly evoking the image of the monster while reinforcing the play's central theme of jealousy.

5. Helen Macdonald, H Is For Hawk [8].

In her memoir detailing her father's demise, Macdonald describes a hawk she is taming using olfactory imagery:

"The hawk had filled the house with wildness as a bowl of lilies fills the house with scent."

This simile enables readers to grasp how the hawk's untamed essence pervades Macdonald's residence. Analogous to the fragrance of fresh lilies permeating an enclosed space, the hawk's primitive nature overwhelms the civility of her home.

6. Cecilia Ekbäck, Wolf Winter [9].

In Part One of this historical novel set in Swedish Lapland, teenage Frederika employs auditory imagery as she recalls fishing with her father:

"The river poured from his lifted oars with the sound of waterfalls."

This description allows readers to audibly perceive the water's movement as her father rows. Additionally, the term "waterfalls" conjures a visual image of the water cascading off his oars.

7. Mary Oliver, "Mushrooms" [10].

At the outset of this poem, Oliver illustrates the emergence of mushrooms in the wilderness:

"Red and yellow skulls pummeling upward through leaves."

This metaphor likens mushroom caps to skulls, creating a vivid image of the mushrooms' round, smooth form. It also serves as a symbolic cautionary tale about the dangers of wild mushrooms, as many varieties are poisonous, potentially proving fatal if ingested.

REFERENCES:

1. Homa Nath Sharma Paudyal. The Use of Imagery and Its Significance in Literary Studies. The Outlook Journal of English Studies. 14:114-127. July 2023
2. Awa, Jacinta Onyekachi. "Literary Language: A Unique Experimentation." International Journal of Art and Humanities. September, 2019, pp. 44-55. http://dx.doi.org/10.4314/ijah.v 814.4
3. Galperin I. R. Stylistics Moscow High school 1977.
4. F. Scott Fitzgerald. The Great Gatsby. 1925.
5. Nalo Hopkinson, Brown Girl in the Ring. 1998
6. Sandra Cisneros, Puro Amor. 2018
7. William Shakespeare, Othello. 1603
8. Helen Macdonald, H Is For Hawk. 2014
9. Cecilia Ekbäck, Wolf Winter 2014
10. Mary Oliver. Mushrooms. 2003
11. Pope, Rob. The English Studies Book: An Introduction to Language, Literature and Culture. 2nded, Routledge, 2002.

Elyorjon HASANOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Email: elyor_star@mail.ru

O‘ZBEK TILIDA BIZNES TERMINLARINING O‘ZGARIB BORISH MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqola terminologiyada keng qo‘llanuvchi biznes atamalari masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zbek tilshunosligida tarixda ishlatilgan biznes atamalari haqida kichik izlanish olib borilgan. Shuningdek, maqolada, buyuk ipak yo‘lining O‘rta Osiyo biznesi va tilshunosligida qo‘llanilgan ayrim atamalarning o‘zgarish va yaxlit qolganligi haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: *buyuk ipak yo‘li, biznes atamalari, marketing, investitsiya, aksiya, dividend.*

Annotation: this article is devoted to the issues of commonly used business terms in terminology, in which a small research was conducted about the business terms used in the history of Uzbek linguistics. Also, the article provides information about the change and preservation of some terms used in Central Asian business and linguistics of the Great Silk Road.

Key words: *the Great Silk Road, business terms, marketing, investment, stock, dividend.*

Аннотация: данная статья посвящена вопросам общеупотребительных деловых терминов в терминологии, в рамках которой было проведено небольшое исследование деловых терминов, используемых в истории узбекского языкознания. Также в статье представлена информация об изменении и сохранении некоторых терминов, используемых в среднеазиатском бизнесе и лингвистике Великого Шелкового пути.

Ключевые слова: *Великий Шелковый путь, деловые термины, маркетинг, инвестиции, акции,*

Terminologiya so‘z va so‘z birikmalarini turli sohalarga ajratib, alohida o‘rganuvchi, tahlil qiluvchi fan bo‘lib, u tilshunoslikda leksikologiyaning rivojlanishi uchun alohida, muhim ahamiyat kasb etadi.

Biznes terminlarining tarixiy tushunchalariga nazar solsak, terminologiyaning tarix fani bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Chunki, respublikamiz tarixda juda boy savdo yo‘liga ega bo‘lgan. Buyuk ipak yo‘li sharq va g‘arb savdo yo‘llarining asosiysi hisoblangan. Natijada, Markaziy Osiyoda biznes juda ham gullab yashnagan va albatta bu sohada ishlatiladigan so‘zlar ham doimiy rivojlanib o‘zgarib borgan. Albatta, O‘zbek tilida biznes terminlari va ularning tarixiy ishlatilishi haqida gapirganda, ko‘p asrlar davomida Markaziy Osiyoda savdo va iqtisodiyot rivojlanganligini ko‘rib chiqish muhimdir. O‘zbekiston hududi boy tarixiy va madaniy merosga ega bo‘lib, u yerda savdo yo‘llari, xususan Buyuk Ipak Yo‘li orqali Sharq va G‘arb o‘rtasida savdo-sotiq gullab-yashnagan. Bu hudud qadimdan savdo markazi sifatida tanilgan va ko‘plab biznes terminlari shu davrdan qolgan.

Ipak Yo‘li davrida foydalanilgan biznes terminlari, masalan, "savdo", "bozor", "tijorat" kabi so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida ham ishlatiladi. "Savdo" so‘zi biznes muomalalarini, "bozor" esa savdo qilinadigan joy yoki mahsulotlar yig‘indisini anglatadi. "Tijorat" esa ko‘proq umumiy iqtisodiy faoliyatni ifodalaydi.

20-asrda Sovet davrida O‘zbekiston iqtisodiyoti ko‘proq davlat boshqaruvidagi rejalashtirilgan tizimga asoslangan edi. Bu davrda yangi iqtisodiy terminologiya joriy etilgan, masalan, "план", "производство" (ishlab chiqarish), "колхоз" (kollektiv xo‘jalik), va boshqalar.

Mustaqillikdan keyin, O‘zbekiston iqtisodiyotida bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni boshlandi va bu jarayon yangi biznes terminlarining kirib kelishiga olib keldi. Masalan, "aksiya", "divident", "investitsiya" kabi so‘zlar hozirgi zamon biznes faoliyatining ajralmas qismlari hisoblanadi. Demak, O‘zbekistonda biznes terminlarining tarixiy rivojlanishi, mamlakatning iqtisodiy tarixi va ijtimoiy o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq.

O‘zbek terminologiyasi tizimida xorijiy tillarga

taalluqli tushunchalarni o‘z ichki imkoniyatlar asosida ifodalash tamoyili yetakchilik qilmoqda. Bunday jarayon paytida chetdan kelayotgan

o‘zlashmalarning bir qismi o‘zbekcha mutanosiblari bilan almashtiriladi yoki tarjima (kalka) qilinadi. Ushbu usul yangi tushunchalarni atashda o‘ta qulayligi va mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Masalan, aksiyadorlik jamiyati (aksionernoye obshestvo), erkinlashtirish (liberalizatsiya), tijorat banki (kommercheskiy bank), muzyorar (ledokol), kichik biznes (maliy biznes), soliq stavkasi (nalogovaya stavka), tadbirkor (predprinimatel), xususiy sektor (chastniy sektor), infratuzilma (infrastruktura), ekologik xavfsizlik (ekologicheskaya bezopastnost), siyosiy ekstremizm (politicheskiy ekstremizm), potensial xavf-xatar (potensialnaya ugroza), mintaqaviy mojaro (regionalniy konflikt), nevrojarohat (tib.nevrologiya), tabofalajlik (tib.taboparalich), ekspert kengashi (ekspertnaya komissiya), yuridik shaxs (yuridicheskoye litso), plastik

kartochka (plastikovaya kartochka), kichik biznes subyektlari (subyekti malogo biznesa), moliyaviy organlar (finansoviye organi), raqamli tarmoq (digital network), manzil niqobi (address mask), alfa-sinov (alpha testing), yashil kompyuter (green computer), elektron hamyon (electronic purse) va h.k. shular jumlasidandir.

O‘zlashma terminlarni muqobili bilan almashtirish ham faol sanaladi: burun chig‘anog‘i (tib. nosovaya rakovina), miya oyoqchalari (tib. nojki mozgoviye), logistik markaz (logisticheskiy sent), suyaklanish (tib. okosteneniye), betoblik (tib.nedomoganiye), so‘roq (komp.polling), tuynuk (komp.hatch), sukut (komp. default) va h.k.

Chet tili terminlarini so‘z yasalishi usullari (so‘z yasovchi modellar) asosida yangidan yuzaga kelgan yasamalar bilan almashtirish jarayonida o‘zbek tili lug‘at fondidan oluvchi (adresat), jo‘natuvchi (adresant), tavsiyanoma (xarakteristika), buyurtma (zayavka), narxnoma (preyskurant), ma’lumotnoma (spravka), fuqarolik (poddanstvo), daxlsizlik (immunitet), ishbilarmon (predprenimatel), ta’mirchi (restavrator), tiriltirish (tib. ojivleniye), jismoniy shaxs (fizicheskoye litso), g‘aznachi (kassir), aqlli tarmoq (komp. smart network), kalitli nomlash (komp. indexing) singari ko‘pgina terminlar mustahkam o‘rnini topdi.

O‘zbek tilida biznes terminlari doimiy o‘zgarib turadi, bu global iqtisodiy tendentsiyalar, texnologik yangiliklar va xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bugungi kunga kelib, biznes atamalari, globallashuv va ko‘p sonli biznes hamkorliklar sababli, dunyo bo‘ylab bir xil nomlar bilan ishlatilmoqda yoki bu atamalarga yaqin bo‘lgan so‘zlarni ekvivalent qilib ham ishlatiladi. Biznes terminlarining o‘zbek tilidagi ishlatilishi, so‘zma-so‘z tarjimalar bilan cheklanib qolmasdan, balki mazmun va kontekstga moslashgan holda amalga oshiriladi. O‘zbek tilida biznes terminlari ko‘pincha rus yoki ingliz tillaridan olingan bo‘lib, ular o‘zbek tilining fonetik va grammatik qoidalariga moslashtiriladi. Misol uchun:

Marketing — O‘zbek tilida "marketing" so‘zi ko‘p uchraydi, ammo ba'zan bu tushunchani tavsiflash uchun "bozor strategiyasi" yoki "savdo sirlari" kabi iboralar ham qo‘llaniladi.

Investitsiya — Bu termin "sarmoya" yoki "investitsiya" sifatida ishlatiladi va bu, mablag‘larni ma'lum bir loyihaga yoki biznesga yo‘naltirish jarayonini anglatadi.

Menejment — Bu so‘z "boshqaruv" yoki "menejment" sifatida tarjima qilinadi va tashkilotni samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan faoliyatlar majmui sifatida tushuniladi.

Dividend — "Dividend" termini "foyda ulushi" yoki "dividend" sifatida qo‘llaniladi va bu, aktsiyadorlarga tarqatiladigan foyda qismini anglatadi.

Franshiza — "Franshiza" yoki "franchayzing" sifatida ishlatiladi va bu, boshqa kompaniyaning biznes modelini foydalanish huquqini sotib olishni anglatadi.

O‘zbek tili biznes sohasida tobora rivojlanib bormoqda va yangi terminlarni o‘zlashtirish hamda ularni turli sohalarda qo‘llash bo‘yicha ishlar davom etmoqda.

Davrlar osha, har bir sohada ishlatilgan so‘z va iboralar o‘zgarib borganidek, biznes sohasida ishlatilgan atamalar ham doimiy ravishda yangilanib boradi. O‘rta asrlarda ishlatila boshlangan “market” so‘zi to‘liq o‘zgargan deya olmaymiz, chunki uning ishlatilish o‘ni kengaydi ya’ni, bu konsept orqali ingliz tilida va o‘zbek tilida “savdo qilish uchun joy” konsepti tushunilsa, bugungi kunga kelib, “online market”, “online marketing” kabi konseptlar keng qo‘llanilmoqda. Demak, biznes atamalarining tarixiy rivojlanish bosqichi davr o‘zgarishlari bilan uzviy bog‘liqdur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М., 1966.
2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языкознанию. - М., 1961.-С.3-10.
3. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. - М.: МГУ,1972. - С.68 - 71.
4. Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научнотехническая информация. Серия 2.-М.,1991. №10.- С.1-4.
5. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам//Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики.- М.:
МГУ,1971.

Umida MUMINOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi
avazberdiyevismoil@gmail.com

QADIMGI TURKIY TILDA FE'LNING O'ZIGA XOS LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada qadimgi turkiy adabiy tildagi fe'lning o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlarini morfologik tahlil qilinib, fe'lning o'ziga xos leksik xususiyatlari, grammatik kategoriyalari, yasalishi, singarmonizm, bilan bog'liq rang-barang grammatik shakllari qayd qilingan. Ko'plab dalilly misollar turkiy alifboda, transliteratsiyada, ham hozirgi mazmun sifatida berilganligini ko'rishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: *bo'lishsizlik-inkor shakllari, fe'l nisbatlari, grammatik ko'rsatkichlar, grammatik modallik, mayl turlari.*

Annotation: in this article, the specific lexical-grammatical features of the verb in the ancient Turkish literary language are analyzed morphologically, various grammatical forms related to the specific lexical features of the verb, grammatical categories, formation, synharmonism, are noted. You can see that many examples are given in Turkish alphabet, transliteration, and present content.

Key words: *infinitive-negation forms, verb ratios, grammatical indicators, grammatical modality, mood types.*

Аннотация: в данной статье морфологически анализируются специфические лексико-грамматические особенности глагола в древнетурецком литературном языке, отмечаются различные грамматические формы, связанные со специфическими лексическими особенностями глагола, грамматические категории, образования, сингармонизм. Вы можете видеть, что многие примеры даны в турецком алфавите, транслитерации и настоящем содержании.

Ключевые слова: *инфинитивно-отрицательные формы, глагольные соотношения, грамматические показатели, грамматическая модальность, виды склонения.*

Fe'l predmetning harakati va holatini anglatadigan mustaqil so'z turkumi. Fe'llar butun dunyo tillarida, jumladan, barcha turkiy tillarda ham kelib chiqish, tarixiy taraqqiyot va hozirgi turkiy tillardagi semantik-grammatik xususiyatlari jihatidan eng murakkab va munozarali so'z turkumlaridan biridir. Fe'lning turkiy bobo tilimizda ming yillar avval yuzaga kelishi, paydo bo'lishi jihatidan dastlabkilaridan biri hisoblanadi. U zamon ma'nosini anglatadigan fe'l zamonlari tizimiga, faqat fe'l yasash uchun xoslangan so'z yasovchi affikslariga fe'llarni otlardan farqlantiradigan bo'lishsizlik-inkor shakllariga, turli fe'l nisbatlarini shakllantiruvchi grammatik ko'rsatkichlari va grammatik modallikni anglatuvchi mayl turlariga ega bo'lgan. Fe'l otdan farqlanuvchi inkor shakliga ega bo'lgan. Fe'lning o'tgan zamon shakli – di- sof fe'lga xos vazifa bajargan. Shunga qaramay turkiy tillarda uchraydigan, jumladan gagauz tilida kaz- qazimoq (fe'l), kaz- kirka (ish quroli, cho'kich), qirg'iz tilida sez – sezmoq (fe'l), sez–sezgi, toy–to'ymoq (fe'l), toy–ot, azarboyjon tilida doң–tuzalmoq, doң–muzlagan (sifatdosh), o'zbek tilida qir–ot, qir–fe'l, och–ochmoq (fe'l), och–qorni och, ot–fe'l, ot–hayvon nomi, oltoy tilida xat–qator, xat– qatlamoq, sho'r tilida qari–keksa, qari–qarimoq, kabi ma'nosidagi omonimik juftlarga ega bo'lishi ko'pgina turkshunos olimlarning bu kabi so'zlariga hali ot va fe'l sifatida to'la differensiyalashgan "ibtidoiy qoldiq" sifatida qarashiga sabab bo'lgan. Bu esa ot so'z turkumi oldin yuzaga kelganmi yoki fe'l so'z turkumi yuzaga kelganmi degan savolga javob berish qiyin, chunki bunday semantik yondoshlikni faqat ot, fe'llarda uchraydigan ayrim so'zlarda emas, balki sifat va ravishlarda, hatto yuklama va modal so'zlarda, undov va taqlidiy so'zlardan ham uchratish mumkin. Ikkinchi tomondan, hozirgi turkiy tillarda fe'llardan boshqa hamma turkumdagi so'zlarning til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida ot va fe'llardan ajralib chiqqanligi aniq. Masalaning eng qadimgi birinchi, "ibtidoiy" so'zlar otlar bo'lganligi yoki ot yoki fe'llar bo'lganmi, deb qo'yilishi ham biryoqlamalikka o'xshab ko'rinadi. Sababi shundaki, jamiyatning ibtidoiy bosqichida inson ongi endigina shakllana boshlagan davrda uning uchun birinchi ideal uning atrof muhitini o'rab olgan predmetlar bo'lsa, uni idrok etgan, nom bergan – otlarni paydo qilgan bo'lishi, agar uning yashash uchun zaruriyat harakat bo'lgan bo'lsa, harakatni nomlagan fe'llar bo'lgan bo'lishi mumkin. Buni isbotlash uchun insonning ibtidoiy jamoa davridan hech qanday manba bo'lmaganligi kabi, hozirgi tillar holatiga ko'ra ham aniq fikr berish qiyin.

Turkolog – tilshunos olimlardan B.A. Serebrennikov, N. Z. Gadjiyevalar yozadiki, ayrim olingan birorta so'z ayni paytda ham fe'l, ham ot ma'nosini anglatishiga ishonish qiyin, bir so'z turli turkumlarning qo'shma, kompleks ma'nosini anglatishini tasdiqlovchi fikrlar xato, chunki har bir til birligi o'zining aniq va qat'iy chegaralangan harakat doirasiga ega, masalan, ozarbayjon tilidagi yabo'g' – ozmoq, yabo'g' – ozg'o'n

so‘zlari shaklan bir xil bo‘lsa ham, birinchisi faqat fe’l doirasida, ikkinchisi esa faqat sifat doirasida qo‘llanib, fe’l va sifatga xos o‘zgarishlarga ega bo‘ladi. Ular tarkibidagi – (o‘) g‘ affiks ham kelib chiqishi jihatidan har xil: birinchi holatda – (o‘) g‘ harakatning takrorini anglatuvchi arxaik affiks bo‘lsa, ikkinchi holatda arxaik sifatdosh shaklidir. Odatda, fe’llarning semantik xususiyatiga ko‘ra dastlab harakat fe’llari va holat fe’llariga ajratiladi. Haqiqatdan ham fe’llarning asosiy qismini harakat fe’llari tashkil qiladi. Holat fe’llari esa juda ozchilikni tashkil etadi. Shunga ko‘ra turkiy tillardagi fe’llarni semantik kategoriya sifatida emas, harakatning ma’lum yo‘nalishiga ega bo‘lishini nazarda tutgan holda fe’llarni gorizontal yo‘nalishdagi harakatni ifodalovchi fe’llar va vertikal yo‘nalishdagi harakatni ifodalovchi fe’llarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin degan fikrdamiz.

Qadimgi turkiy til yozma yodgorliklar tilida rang barang va kategoriyalarga boy. Hozirgi turkiy tillarda qadimgi turkiy tilga xos fe’llar juda ko‘p uchraydi. Urxun–yenisey yozuvida bitilgan yodgorliklarda harakat va holat bildiruvchi fe’llarning mayl, zomon, nisbat, shaxs-son kategoriyalar, fe’l yasalishi kabilar ko‘p qo‘llangan. Ayniqsa, fe’l yasalishining asosini ikkinchi shaxs birlik va buyruq mayllari tashkil etadi: qon – tunatoq, bo‘ysinmoq – ichik, qər – qara, bol – bo‘lmoq , təg – bosib kir, bil – bil, əlm – olib bor, əsid – eshit. Qadimgi turkiy tilda fe’lning inkor shaklini, asosan, mə-ma shakllari tashkil etgan: chdo‘mado‘m – uxlamadim, opurmadim – o‘tirmadim, qormado‘mo‘z – qo‘rqmadik, kəlmədi – kelmadilar. Ayrim turkologlarning tadqiqotlarida fe’lning inkor shakli sifatida – mas (bas) shakli ham bo‘lganligi aytiladi va hozirgi chuvash tilida hozirgacha saqlanib qolganligi qayd etiladi (sirmasmin–yozmayman). Turkman tilida – mas shaklida “s” undoshi “r” undoshiga almashgan (yazmaro‘s – yozmaymiz, yazmarso‘ŋo‘z – yozmaysiz). Til taraqqiyotining ma’lum davriga kelib, - “mar” shaklidagi tushib qolib, - ma shakli yuzaga kelgan. Fe’l tuzilishiga ko‘ra tub, yasama va qo‘shma kabi uch guruhga bo‘linadi: Tub fe’llar o‘z navbatida bir va ikki bo‘g‘inli fe’llarga ajratiladi: ach – ochmoq, al – olmoq, ash – oshmoq, əl – o‘lmoq, bar – bormoq, bel – bo‘lmoq, bin – minmoq, bo‘ch – bichmoq, kγt – kutmoq, səb – sevmoq, sək – ajramoq, tək – to‘kmoq, yə – yemoq, so‘ – sindirmoq, qochq – qo‘rqmoq, biti – yozmoq, yasa – yashamoq, yoro‘ – yurmoq, to‘ŋla – tinglamoq, udo‘– uxlamoq, ado‘r – ajratmoq, alqo‘n – kamaytirmoq, əsid – eshitmoq.

1. Urxun-Enisey yodgorliklarida qo‘shma fe’llar quyidagilar: Ot va yordamchi fe’llardan tarkib topgan qo‘shma fe’llar: Yoki γlγgi atlo‘g‘ ərti, bir γlγgi yadag‘ ərti. Yəti yγz kisig udizo‘g‘ma ulug‘o‘ shad ərti – ulardan ikki qismi otliqlar, bir qismi piyoda edi. Yetti yuz kuzatuvchi askarlarga boshliq shod edi.

2. Mustaqil fe’l va yordamchi fe’llardan tarkib topgan qo‘shma fe’llar. Bunda qo‘shma fe’lning ikkinchi komponenti ham mustaqil fe’l, ham yordamchi fe’l bo‘lib qo‘llanishi mumkin: Cho‘qan buduno‘g‘ bay qo‘lto‘m, az buduno‘g‘ γkγsh qo‘lto‘m- oz xalqni ko‘p xalqli qildim, kambag‘al xalqni boy qildim.

3. Qo‘shma fe’l tarkibida -ə,- a shaklli ravishdosh qatnashadi: Altun yo‘sho‘g‘ tog‘a, Yertis γgγzγg kəchə yoro‘do‘mo‘z. Biz Altun vodiysigacha ko‘tarilib bordik, Irtish daryosidan kechib o‘tdik.

O‘timli va o‘timsiz fe’llar. Ba’zan fe’llar biror predmetga – obyektga o‘tadigan harakatni bildiradi kitobni o‘qidi (nimani? – kitobni), ba’zilari bunday xususiyatga ega bo‘lmagan harakatni bildiradi (keldi, o‘sdi, uxladi). Bularning birinchisi o‘timli fe’llar, ikkinchisi o‘timsiz fe’llar hisoblanadi. Demak, harakatning obyektga munosabati jihatidan fe’llar o‘timli fe’llar va o‘timsiz fe’llar nomi bilan ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi tur fe’llarda harakat predmetga – obyektga o‘tgan bo‘ladi. Bunda obyekt tushum kelishigidagi ot yoki ot vazifasidagi boshqa so‘z bilan ifodalangan bo‘ladi. O‘timsiz fe’llarda harakatning bajarilishi uni o‘ziga qabul qiladigan predmetni – obyektni talab qilmaydi. Anglashiladiki, tushum kelishigidagi (yoki tushum vazifasida qo‘llangan bosh kelishikdagi) so‘z bilan ifodalangan to‘ldiruvchini qabul qila oladigan fe’llar o‘timli sanaladi. Bunday to‘ldiruvchini qabul qila olmaydigan fe’llar o‘timsiz sanaladi. O‘timli fe’llar. Он оқ сγсип сγлəтдим – Men o‘n o‘q xalqi askarlarini tor-mor qildim. сγсин буздўм, элин анта алтўм – ularning askarlarini yengib, yerini bosib oldim.

O‘timsiz fe’llar. Чик будун қўрқ аз бирлə йағў болтў – Chik xalqi qirq az bilan bir-biriga dushman bo‘ldi. сγсин анта өлγрmim – uning harbiylarini u yerda yengdim. Bu – ikkinchi misolda o‘timsiz fe’llar daraja affiksini olib, o‘timliga o‘tgan (orttirma nisbat- t). Он оқ сγсин сγлэтдим – Men o‘n o‘q xalqi askarlarini tor-mor qildim (-m – orttirma nisbat) Yodgorliklar tilida o‘timli o‘timsizlik ko‘pincha o‘zak fe’l leksik ma’nosi orqali bilinib turadi. VIII asrgacha bo‘lgan davr qadimgi turkiy tilda ot va otlashgan so‘zlardan fe’l yasalishi keng tarqalgan.

1. Boshqa bir manbada fe’ldan fe’l yasalishi nisbatan ko‘p bo‘lganligi aytiladi.

2. Boshqa turkumlardan fe’l yasalishi harakat, holat bildiruvchi fe’lning miqdor jihatdan o‘sib borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qadimgi turkiy tildagi fe’l yasovchi shakllarning ma’lum bir qismi keyingi davr turkiy tillarga yetib kelgan bo‘lsa-da, ma’lum bir qismi fe’l yasashdan to‘xtagan iste’moldan chiqib qolgan. Ammo fe’l yasovchi affikslarning kelib chiqishi, taraqqiyoti aniq va to‘liq yechimini topmagan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turkiy tillarda qo‘shma fe’l yetarli darajada ishlanmagan va munozarali tomonlari ham mavjud. Hozirgacha bu masalada turkolog- tilshunos olimlar aniq bir yagona fikrlarga kelisha olmaganlar, ammo qo‘shma fe’l

haqida turli qarashlar, fikr-mulohazalar bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык, II. – М., 1952. стр 80.
2. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., 1960, стр.9-340.
3. Кляшторный С.Г. Древнетюркские рунические памятники. – М., 1964. стр. 77.
4. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.-Л., 1951. стр. 102.
5. Мелиев К. Ҳозирги туркий тилларда ҳаракат номлари. – Т., 1969, 110-135-б.

Shohista ZOITOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

TOSHKENT SHAHAR JOY NOMLARINING TASNIFI VA TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahri joy nomlari (toponimlari) to‘liq o‘rganilgan. Tadqiqotda Toshkent toponimlarining kelib chiqishi, ma’nosi va evolyutsiyasini tasniflash va tahlil qilish uchun lingvistik tahlilni tarixiy tadqiqotlar bilan birlashtirib, ko‘p tarmoqli yondashuv qo‘llaniladi. Maqolada shahar joy nomlarini shakllantirgan xilma-xil lingvistik ta’sirlar, tarixiy voqealar va madaniy omillar ko‘rib chiqilib, ularning madaniy o‘ziga xoslik, tarixiy xotira va shahar rivojlanishining belgilari sifatidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Toshkent, toponimika, joy nomlari, lingvistik tahlil, tarixiy tadqiqotlar, O‘zbekiston, madaniy o‘ziga xoslik, shaharsozlik.*

Annotation: in this article, the place names (toponyms) of Tashkent, the capital of Uzbekistan, are fully studied. The research uses a multidisciplinary approach combining linguistic analysis with historical research to classify and analyze the origin, meaning and evolution of Tashkent toponyms. The article examines the various linguistic influences, historical events, and cultural factors that shaped city place names, and highlights their importance as symbols of cultural identity, historical memory, and urban development.

Key words: *Tashkent, toponymy, place names, linguistic analysis, historical research, Uzbekistan, cultural identity, urban planning*

Аннотация: в данной статье полностью изучены топонимы (топонимы) Ташкента – столицы Узбекистана. В исследовании используется междисциплинарный подход, сочетающий лингвистический анализ с историческими исследованиями для классификации и анализа происхождения, значения и эволюции топонимов Ташкента. В статье рассматриваются различные языковые влияния, исторические события и культурные факторы, сформировавшие топонимы городов, и подчеркивается их значение как символов культурной идентичности, исторической памяти и городского развития.

Ключевые слова: *Ташкент, топонимика, топонимика, лингвистический анализ, исторические исследования, Узбекистан, культурная идентичность, градостроительство.*

Kirish. Toshkent – O‘zbekiston poytaxti, Markaziy Osiyodagi eng yirik shahar. Toshkent, O‘zbekistonning ko‘plab shaharlari singari, qadimiy shahardir. Uning yoshi 2000 yildan oshadi. Yozma manbalarda Toshkent tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu joy mahalliy talaffuzga ko‘ra Choch deb nomlangan. Asosiy shahar Choch, ya’ni Chochkent yoki Shoshkent deb nomlangan. Keyinchalik bu so‘zning ma’nosi o‘zgardi va Toshkentga aylandi. Taxminan miloddan avvalgi II asrning oxiri I asrning boshlarida Xitoy solnomalarida Chirchiq vodiysida Yuni viloyatining shahri borligi haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lgan. Olimlarning fikricha, Yuni shahri hozirgi Toshkent hududida joylashgan bo‘lgan.

VI–VII asrlarda Toshkent hududi Choch davlatining tarkibiga kirgan bo‘lib, bu yerda turkiy hokimlar yashagan. 713-yilda birinchi arab qo‘shinlari Shoshga kirdi. Istilo juda zaif edi va shundan keyin o‘nlab yillar davomida Shoshni maliklar boshqargan. Faqat 751-yilda arablar va xitoylar o‘rtasidagi katta jangdan so‘ng, Shoshni egallashga harakat qilgan arablar o‘z g‘alabasini mustahkamladi. O‘sha davrdan Toshkentda bitta noyob yodgorlik – Hazrati Imom maqbarasi saqlanib qolgan .

IX–X asrlarning arab geograflari o‘z asarlarida Toshkent shahri – Binket nomi bilan birga Toshkent vohasidagi o‘nlab shaharlar nomlarini tilga olishgan. Bu nomlar xuddi o‘shanday, qisman yoki sal o‘zgargan shaklda viloyatdagi shahar va qishloqlarning nomi sifatida shu kungacha saqlanib kelgani bilan ahamiyatlidir. Masalan, X asr geografi Maqdisiyning «Ahsan ut-taqosim fi ma'rifat ul-aqolim» («Iqlimlarni o‘rganish uchun eng yaxshi qo‘llanma») asarida Chinonchkat, Kabarna, Nomadvonak, Barkush, Farankat, Zarankat, Navkat, Xos, Biskat kabi shaharlari nomlari tilga olingan .

Tahlil va natijalar. Geografik jihatdan juda mo‘tadil bo‘lgan Chirchiq va Ohangaron vodiylarida

uzoq o‘tmishdayoq chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi yashagan. Arxeologik yodgorliklarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi Ikkinchi ming yillikning oxiri va birinchi ming yillikning boshlarida ko‘chmanchi chorvador aholining o‘troqlashuvi kuchayib, dehqonchilik kengaya boshlagan .

Hali sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya inshootlari qurish imkoniyati bo‘lmagan Toshkentning dastlabki dehqonlari, garchi daryoning asosiy oqimidan suv bog‘lab olishga qurbilari yetmagan bo‘lsada, lekin, daryo toshqinlari va adirlardan kelgan suvlardan hosil bo‘lgan irmoqlar bo‘yida, tabiiy zaxob yerlarda dehqonchilik qilganlar.

Hozirgi Toshkentning Qorasuv, Salor va Jo‘n arig‘idan sug‘oriladigan janubiy qismida shunday ibtidoiy dehqonchilik madaniyati tashkil topgan. Toshkentning bu ibtidoiy dehqonchilik madaniyatining izlari dastavval shahardan 30 km janubida Burganlisoy yoqasida topilib, tadqiq etilgani tufayli tarix fanida u Burganli madaniyati nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Milloddan avvvalgi VI – IV asrlarda Qorasuv, Salor va Jo‘n arig‘i yoqalarida dastlab ilk qishloqlar qad ko‘targan. Shulardan biri Jo‘n arig‘i bo‘yidagi Shoshtepaning ostki qatlamidan qazib ochilgan qal’a xarobasidir. 1980—1982 yillarda olib borilgan qazish ishlari uning miloddan avvalgi VI – IV asrlar va II – I asrlardagi rivojlanish bosqichlarini aniqlashga imkon berdi. Bir tomoni Jo‘n arig‘iga yondoshgan bu qadimgi joy atrofi dastavval tuproq, marza bilan o‘ralib, qal’a, istehkom qiyofasini olgan .

O‘zining boy tarixi va rang-barang madaniy merosiga ega Toshkent joy nomlarining ajoyib gobeleniga ega. Bu toponimlar shunchaki geografik belgilar emas, balki shaharning ko‘p qirrali o‘tmishini aks ettiruvchi lingvistik va tarixiy ombor vazifasini o‘taydi. Ushbu maqolada Toshkent joy nomlarining tasnifi va tadqiqi, ularning til ildizlari, tarixiy evolyutsiyasi va madaniy ahamiyati o‘rganiladi. Toshkent toponimlarining tasnifi Toshkent joy nomlarini kelib chiqishi va til ta’siriga ko‘ra kengroq tasniflash mumkin:

- *Qadimgi turkiy toponimlar:* Bu joy nomlari shaharning yangi tarixidan avvalroq bo‘lib, qadimgi turkiy tilda ildiz otgan. Masalan, “Toshkent”ning o‘zi (“Tosh shahar” ma’nosi), “Chorsu” (“To‘rt tomon” ma’nosi) va “Shahrisabz” (“Yashil shahar” ma’nosi).
- *Fors va arab toponimlari:* Shaharning Fors va islom olami bilan tarixiy aloqalari bu tillardan olingan joy nomlari merosini qoldirgan. Masalan, “Bozor” («Bozor» degani), “Madrasa” («Diniy maktab» degani) va “Xon” («Hukmdor» ma’nosi).
- *Rus toponimlari:* Rossiyaning Toshkentga, xususan, chor va sho‘rolar davridagi ta’siri ko‘plab ruscha joy nomlarining mavjudligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, ”Pushkin ko‘chasi”, “Lenin maydoni” va “Gorkiy bog‘i”.
- *Hozirgi o‘zbek toponimlari:* O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatning milliy o‘ziga xosligi va intilishlarini aks ettiruvchi yangi joy nomlari paydo bo‘ldi. Masalan, “Mustaqillik maydoni” («Mustaqillik maydoni» degani) va “Amir Temur xiyoboni”.
- Gibrid toponimlar: Toshkentdagi joy nomlarining katta qismi bir nechta til manbalaridan olingan elementlarni aralashtirib yuboradi. Chunonchi, “Chorsu bozori” qadimiy turkiy atama bilan forscha “Bozor” so‘zini o‘zida mujassam etgan.

Tadqiqot joy nomlarining etimologiyasi, morfologiyasi va semantikasini o‘rganadi, ularning izlarini izlaydi, lingvistik kelib chiqishi va ularning evolyutsiyasini kuzatish. Tarixiy hujjatlar, xaritalar va yilnomalar joy nomlarining tarixiy kontekstini qayta qurish, ularning o‘tgan davrlardagi ahamiyatini ochib berish uchun maslahat qilinadi. Shahar kontekstida joy nomlarini bevosita kuzatish ularning zamonaviy qo‘llanilishi va madaniy ahamiyatini tushunish imkonini beradi. Toshkent toponimlarining tarixiy nuqtai nazari Tarixiy tahlil Toshkent joy nomlari muhim voqealar va madaniy siljishlarni qanday aks ettirganini ochib beradi:

- *Qadimgi Ipak yo‘li davri:* “Chorsu” va “Shaxrisabz” kabi toponimlar shaharning o‘rni sifatidagi rolini ko‘rsatadi. Ipak yo‘li bo‘ylab yirik savdo markazi.
- *Temuriylar davri:* Temuriylar sulolasining ta’siri “Amir Temur xiyoboni” kabi joy nomlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, bu sulolaning tarixiy ahamiyatini aks ettiradi.
- Sovet davri: Sovet davridagi “Lenin maydoni” va “Gorkiy bog‘i” kabi toponimlar yangi mafkura va madaniy o‘ziga xoslikni tatbiq etishga urinishlarni ko‘rsatadi.
- *Mustaqillikdan keyingi davr:* “Mustaqillik maydoni” kabi toponimlar milliy o‘zlikni anglash, modernizatsiya va taraqqiyotga intilish tomon siljishni anglatadi. Toshkentning joy nomlari turli jihatdan madaniy ahamiyatga ega:
- *O‘zlikni anglatuvchi belgilar:* Ular shaharning turkiy, fors, arab va rus madaniyati ta’sirining o‘ziga xos uyg‘unligini aks ettiradi.
- *Tarixiy xotira:* Ular shaharning o‘tmishdagi voqealari, muhim shaxslari va tarixiy davrlarini eslatib turadi.
- *Shahar taraqqiyoti:* Ular shaharning o‘sishi, modernizatsiyasi va o‘zgaruvchan shahar landshaftini tasvirlaydi.
- *Ramziy qiymat:* Joy nomlari ko‘pincha madaniy qadriyatlar, diniy e’tiqod yoki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan ramziy ma’noga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytilganda, Toshkentning joy nomlari bo‘yicha tadqiqotlar uchun asos yaratadi. Toshkent joy nomlarining tasnifi va tadqiqi shaharning boy tarixi, til xilma-xilligi va madaniy merosi haqida

ajoyib tasavvur beradi. Bu toponimlar shaharning o‘tmishi, buguni va kelajagi haqida ma’lumot beruvchi qimmatli tarixiy va madaniy yodgorliklar bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar globallashuv va modernizatsiyaning Toshkent toponimlariga ta’siri va ularning rivojlanayotgan shahar muhitiga moslashish va o‘zgarish imkoniyatlarini o‘rganishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uzbekistan.travel/uz/o/toshkent-tarixi
2. https://kun.uz/uz/news/2020/07/03/toytepa-parkent-chinoz-chotqol-toshkent-viloyatidagi-joy-nomlari-manosini-bilasizmi
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_tarixi
4. Akbarov A. A. (2003). “Toshkent shahri toponimiyasi”.
5. Qurbonov A. (2010). “Toshkent shahri toponimik lug‘ati”.
6. Muhamedova R. G. (2015). “Toshkent shahar joy nomlarining tasnifi va tadqiqi”.

Farrux QULSAXATOV,
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
qulsoatovfarrux@gmail.com
D.NESLIHAN BAY
Usmong‘oziy universiteti Dr. dotsent
yalchinbay@anadolu.edu.tr

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH

Annotatsiya: maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosini o‘rganish, aniqrog‘i “Boburnoma” asarini o‘qitishda integratsiyalashuv jarayoni va integratsiyalashtirish tamoyillarini, fanlararo bog‘liqligini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: *integratsiya, texnologiya, metod, tarixiy suratlar, albomlar, tashbeh, mubolag‘a, qahramonlar tabiati, poetik nutq, ichki monolog, tabiat tasviri, psixologik holatida, badiiy to‘qima, tarixiy izchillik.*

Annotation: in the article, we will analyze the process of integration and the principles of integration in the study of the creative heritage of Zahiriddin Muhammad Babur, more precisely, in the teaching of the work "Boburnoma", and its interdisciplinarity.

Key words: *integration, technology, method, historical photos, albums, allusion, metaphor, nature of heroes, poetic speech, inner monologue, image of nature, psychological state, artistic fabric, historical consistency*

Аннотация: в статье мы проанализируем процесс интеграции и принципы интеграции в изучении творческого наследия Захириддина Мухаммада Бабура, точнее, в преподавании произведения «Бобурноме», и его междисциплинарность.

Ключевые слова: *интеграция, технология, метод, исторические фотографии, альбомы, аллюзия, метафора, характер героев, поэтическая речь, внутренний монолог, образ природы, психологическое состояние, художественная ткань, историческая последовательность.*

Adabiyot darslarini o‘qitishning turli metodlari ishlab chiqildi va ishlab chiqilmoqda. Har bir metodist o‘z qarashlari va o‘zining ilg‘or fikrlari bilan badiiy adabiyotni o‘qitishning eng qulay, samarali yo‘llari borasida ilmiy mushohadalar yuritib kelmoqda.

So‘zning badiiy malohati va unga havas-ishtiyoqning paydo bo‘lishida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos ekanligini hamma yaxshi biladi. Badiiy adabiyot namunalari o‘quvchining nafaqat badiiyat olamiga yetaklaydi, balki uning olam va atrof muhit, odamlar, ularning ichki dunyolari borasidagi bilimlarni o‘zlashtirishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sankt-Peterburg universiteti tadqiqotchisi M.S.Emelyanov o‘zining “Maktab ta’limida adabiyot va tarix o‘qitishda integratsiyaning roli” nomli doktorlik dissertatsiyasida tarixiy faktlarning aniqlashtirilishi va o‘quvchilarning tarixiy dalillarga qiziqishini orttirishda adabiy tarixiy asarlar muhim ahamiyat kasb etishiga alohida to‘xtalib o‘tadi . Olim adabiyot va tarixi fanlari integratsiyasiga erishish uchun bir dars mashg‘ulotlarida bir necha o‘qitish usullaridan foydalanish lozimligi, o‘z hayotiy tajribasida esa muayyan mavzu, tushuncha va hodisaning mohiyatini anglatish, o‘rgatish maqsadida, integratsiyalashgan darslarni tashkil qilganligini tushuntiradi. T.G.Brajening maqolasida esa, zamonaviy maktab predmetlari integratsiyasi borasida to‘xtalib, tarix fanida berilgan mavzuni o‘rgatishda shu mavzuda yaratilgan badiiy adabiyot namunalaridan xabardor bo‘lish tarix to‘g‘risidagi qiziqishlarini oshirishi alohida urg‘ulanadi .

Bunday darslar hamisha boshqa darslardan ajralib turadi. Integratsiyalashgan darslarda fanlararo aloqalar jarayonida fanlar ikki guruhdan tashkil topadi. Birinchi guruh yetakchi integratsiyalashtiruvchi fan bo‘lib, dars mashg‘uloti aynan mana shu fan mvzularidan birining o‘qitilishi asosiga quriladi. Ikkinchisi esa,

integratsiyalashuvchi fanlar guruhidan iborat bo‘ladi. Integratsiyalashuvchi fanlar yordamchi fanlar sifatida ham qaraladi. M.S.Emelyanov integratsiyalashishda ishtirok etadigan fanlarni yordamchi fanlar sifatida talqin qiladi.

Y.N.Kolokoltsev, A.V.Danovskiy va boshqalar muallifligida yaratilgan o‘quv qo‘llanmada maktab adabiyot kursi fan ichida va fanlararo integratsiyaga ega. Fanlararo integratsiyada ular adabiyot va tarix, adabiyot va jahon badiiy madaniyati, adabiyot va san’at kabilarni o‘z ichiga olishini aytib o‘tadi . Olimning fanning ichki integratsiyasi borasidagi mulohazalarida adabiyotning tilshunoslik, zamonaviy adabiyot va boshqa fanlar bilan aloqasi mavjudligi aniqlanadi. Biz olimlarning mulohazalariga qo‘shilgan holda adabiyot fanining ichki integratsiyasi, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, folklor kabi fanlardan iborat bo‘lishini qayd etib o‘tmoqchimiz.

Boshlang‘ich umumiy ta’limning zamonaviy texnologiyalari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasida fanlararo aloqalar bo‘limini yozgan M.G.Zabbarovaning fikricha, integratsiyalashayotgan fanlarning tushunchalari mohiyatini ochish uchun bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarga bir necha fan doirasidagi bilimlar o‘rgatilishi o‘qitishning samarali metodlaridan biri ekan. E’tibor berib qarasak, adabiyot darslarida integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish orqali adabiyot, tarix, geografiya, etnografiya, tilshunoslik, san’at, falsafa, dinshunoslik va boshqa bir necha fanlarning o‘zaro bog‘liqlari borligini guvohi bo‘lamiz. Albatta, buning uchun mavzu va materialning mazmun mohiyati juda katta ahamiyatga egadir. Bizning tadqiqot obyektimiz bo‘lgan “Boburnoma” asarini o‘qitishda yuqorida keltirganimiz singari bir nechta fanlar integratsiyasi kuzatiladi. Bu o‘rinda adabiyot integratsiyalashtiruvchi – yetakchi fan vazifasini bajaradi, adabiyotdagi mavzuni mohiyatida muayyan tushunchalar, dalillar va hodisalarni aniqlashtirishda yordamlashuvchi fanlar – yordamchi fanlar bo‘lib ular integratsiyalashuvchi fanlar sifatida qaraladi.

Zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri bu o‘quvchilarni taraqqiy etgan jamiyat a’zosi sifatida hayotga tayyorlashdir. Ushbu vazifani hal qilish har xil turdagi vakolatlarning shakllanishi orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini shakllantirishning eng samarali usuli-maktab o‘quv fanlarining integratsiyasi.

Shuningdek, integratsiyalashgan o‘quv jarayoni integratsiyalashgan kasbga qiziqishni jonlantira oladi, maktab vaqtidan oqilona foydalanishga imkon beradi. Integratsiyalashgan darslar atrofdagi voqelikning yaxlit nuqtayi nazarini shakllantirishga hissa qo‘shadi, turli hodisalar va hayotiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini sezishga imkon beradi.

Jamiyat rivojlanishida maktab ta’limining muhim va beqiyos xizmati bor. Ayni maktab darslarining mazmuni va sifati, ta’lim va tarbiya uyg‘unligi har qanday millatning istiqbolini belgilab beruvchi masalalardan biridir.

Hech kimga sir emaski, ko‘plab o‘qituvchilar fanlararo munosabatlarni ta’minlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Integratsiyalashgan darsning o‘ziga xosligi shundaki, u ikki yoki undan ortiq o‘qituvchi yoki bir nechta qo‘shni fanlar bo‘yicha malakali o‘qituvchini shakllantiradi. Integratsiyalashgan darsni tayyorlayotganda, uni amalga oshirish metodologiyasini ko‘rib chiqish juda muhimdir. Bu o‘rinda oldingi darsda berilgan uy ishidan tortib, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning imkoniyatlari va diqqatini tortishgacha bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Integratsiyalashgan darsning so‘ngida beriladigan uyga vazifa ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lishi lozim. Uy vazifasida integratsiyalashgan fanlarning mohiyatidan kelib chiqib, mavzuning muhim tomonlarini o‘rganishga qaratilgan topshiriqlar aks etishi lozim. O‘quvchilarning faolligi va intellektiga qarab integratsiyalashgan dars bir nechta akademik fanlar bo‘yicha bilimlar aloqasini belgilash imkoniyatini anglatadi.

Shunday qilib, zamonaviy o‘quv jarayonida integratsiyalashgan darslar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun biz integratsiyalashgan darslarning maqsad va vazifalariga murojaat qilamiz, ularning turlarini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Integratsiyalashgan darslarni Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosini o‘rganish, aniqrog‘i “Boburnoma” asarini o‘qitishda integratsiyalashuv jarayoni va integratsiyalashtirish tamoyillarini tahlil qilamiz. Integratsiyalashgan dars g‘oyasi qanday paydo bo‘ldi? Mazkur g‘oya dastlab G‘arb olimlari tomonidan olg‘a surildi. Keyinchalik, rus metodistlari bir dars jarayonida o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini kengaytirishni maqsad qilib oldilar va dars mashg‘ulotlarida har bir tushuncha va hodisani izohlashda ilmiy tamoyillarga tayanish tarafdorlari paydo bo‘ldi. Shu tariqa adabiyot ijtimoiy hayotning badiiy in’ikosi degan nazariyaga tayanib, badiiy asarlarning tahliliga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi.

O‘qituvchilar oldidan zamonaviy ta’lim o‘quvchilar tasavvurida yaxlit holda shakllantirish vazifasini qo‘yadi, so‘ngra fanlar o‘rtasida integratsiyaga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Fanlar o‘rtasidagi integratsiya o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun katta imkoniyatlarni ochib beradilar. Integratsiyalangan sinflar doirasida talabalar bir nechta fanlar bo‘yicha ma’lumotlardan foydalangan holda ko‘p qirrali, yanada chuqurroq bilimlariga ega bo‘ladilar. Integratsiyalashgan darsda eng muhim ko‘nikmalardan biri – bu bir sohada ikkinchisiga doir bilimni o‘zlashtirishdir. Bu esa, tanqidiy fikrlash, tahliliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, integratsiya mustaqil, bag‘rikeng, mas’uliyatli

shaxsning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga imkon yaratadi. Integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarga mavzuga oid ma’lumot va bilimlarni o‘zlashtirishlarida differensial yondashuvni amalga oshirishga yordam beradigan tarzda tashkil etiladi. Integratsiyalashgan dars o‘z qobiliyatlariga qarab turli toifadagi o‘quvchilar uchun imkoniyatlarni ochadi. Chunki, bir mavzu mohiyatni yoritish asnosida turli fanlarga xos bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar talab etiladi. Bunda albatta, o‘qituvchining o‘zi integratsiyalashadigan fanlar borasidagi tushunchalar, ma’lumotlardan yaxshigina xabardor bo‘lmog‘i lozim.

Shunday qilib, integratsiyalashgan darsda ishtirok etish jarayonida bir nechta obyektlardan olingan bilimlarni ishlab chiqish, tizimlashtirish, tahlil qilish, talabalar tomonidan olingan bilimlarning uzluksizligi ta’minlash talab etiladi. Integratsiyalashgan darsni to‘g‘ri tashkil etish uchun uning asosiy farqlarini darsning an’anaviy shakli bilan qiyoslagan holda aniqlash kerak. Integratsiyalashgan dars an’anaviy darsdan farqli o‘laroq, o‘rganilgan hodisalarning xilma-xilligini o‘z ichiga olgan, adabiy materialni turli rakursda o‘rganishda o‘quvchi faoliyatini tashkil etish va uning turli usullaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Емельянов М. С. “Роль интеграции литературы и истории в школьном преподавании” Дисс.докт. пед. наук – СГПУ, 2013. – С.29.
2. Браже Т.Г. Интеграция предметов в современной школе// Лит. В шк. 1996. №5.
3. Межпредметные связи при изучении литературы в школе / Колокольцев Е.Н., Дановский А.В. и др.; Под ред. Колокольцева Е.Н. – Москва, Просвещение, 2009.– С. 21.
4. Асаева Л.Х. Интеграция на уроках литература/ https: // урок.рф /library
5. Husanboyeva Q., Niyazmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020. 29-bet.
6. Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: Sharq, 2009. 28-bet.
7. Bobur nomidagi xalqaro jamg‘arma. – Toshkent: Sharq, 2002.

Nargiza ALIYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

INGLIZ TILIDAGI “BAXT” VA “BAXTSIZLIK” KONSEPTINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotation: in this article shows the national-cultural characteristics of phraseological expressions related to the concepts of "Happiness" and "Unhappiness" in English and the translation of these phraseological units into Uzbek.

Key words: *linguistics and culture, concept, phraseological unit, paremiology.*

Аннотация: в данной статье показаны национально-культурные особенности фразеологических выражений, связанных с концептами «Счастье» и «Несчастье» в английском языке и перевод этих фразеологизмов на узбекский язык.

Ключевые слова: *языкознание и культура, концепт, фразеологизм, паремиология.*

Annotatsiya: ushbu maqolada Ingliz tilidagi “Baxt” va “Baxtsizlik” konseptiga oid frazeologik iboralarning milliy-madaniy xususiyatlari va ushbu frazeologik birliklarning o’zbek tilidagi tarjimasi namoyon bo’lgan.

Kalit so'zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, konsept, frazeologik birlik, paremiologiya.*

Ingliz va o‘zbek tillarida inson tuyg‘ularini ifodalovchi tushunchalardan biri “happiness” va “baxt” leksemalari sanaladi. Baxt leksemasi alohida konsept sifatida o‘ziga xos ishonch tuyg‘ularini anglatsa-da, muhabbat, do‘stlik tuyg‘ulari bilan ham bog‘lanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida ko‘p hollarda muhabbatga erishish baxt konseptiga bog‘lanib ketadi. Zero, muhabbatga erishish baxtli hayot mazmuniga erishish tushunchasini ham ifodalaydi. Badiiy adabiyotlarda insonlar o‘rtasidagi baxt va baxtsizlik dualligi tolening muruvvati bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu duallik nafaqat oliy kuchlarning ta’sir etish obyekti, balki o‘z erki va insonga ta’sir etish qobiliyatini ko‘rsatuvchi yaxshiliklar obyekti ham bo‘lishi mumkin. Baxt o‘ziga xos tuyg‘u, ya’ni baxtli hayot mazmuniga erishish tushunchasini ifodalaydi hamda bunday baxtga erishmaslik xususiyatlari ham mavjud bo‘lib, baxtsizlik diada konseptini yuzaga chiqaradi. Baxt baxtsizlik bilan yonma-yon yashaydi. Baxtga asta-sekin erishilsa, baxtsizlik esa qanot qoqib keladi. Baxtsizlikdan omadsizlik ma’nosi kelib chiqadi. Lug‘aviy izohlar va kompetentdefinitsion tahlil shuni ko‘rsatadiki, baxt inglizcha “happiness” deyilsa, omadsizlik ma’nosi esa dualligi turli sohalar bilan ham bog‘lanadi. Ular orqali inson hayotidagi baxtlilik, baxsizlik kabi tushunchalar namoyon bo‘ladi. Bunday munosabatni aks ettiruvchi

turli shakldagi leksemalar mavjud. Ular bir yadroga, ya'ni "baxt" konseptiga Unhappiness" leksemasi bilan ifodalanadi. Omadsizlik baxtsiz hodisadir. Bunda kutilmagan ko'ngilsizliklar namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham baxt va baxtsizlik konseptlarini mustaqil konsept sifatida ham qarash mumkin bo'ladi. Shu narsa bizga ma'lumki, har bir inson hayoti davomida baxtli hayot kechirish, baxtsizlikdan qochib yashashga intiladi. Insonning bilimi, hayotiy tajribasi ortib borar ekan, uning baxt-saodat haqidagi tasavvurlari o'zgarib, shakllanib boraveradi. Insoniyat tarixiga e'tibor bilan qarasak, ushbu tushuncha yoki konsept to'g'risidagi insonlarning fikrlari, g'oya va tasavvurlari izchillik bilan bog'lanib borganligini kuzatish mumkin. O'tmish mutafakkir olimlari o'z asarlarida "baxt" konseptining turlicha holatlarda namoyon bo'lishini isbotlab, ijtimoiy hayotda insonning eng oliy tuyg'ularidan biri ekanligi ta'kidlaganlar. Bu borada xalq tilida ham juda ko'p hikoya va rivoyatlar, hikmat va maqollar - paremiyalar yuzaga keltirilgan.

"Baxt" tushunchasi har kimda har xil tushuniladi. Chunonchi, donishmandlardan biri o'z o'g'liga yozgan xatida baxt, saodat va hayot haqida shunday deb yozadi: "Aziz, o'g'lim, so'zimga diqqat bilan quloq sol. Baxtim yo'q, deb zorlanuvchilar qatoridan joy olma, g'ayrat qilsang, muroding hosil bo'ladi. Ehtimol, ba'zi ishlaring tilaganingdek muvaffaqiyatli bo'lib chiqmasligi mumkin, lekin sen bunga qayg'ulanib noumid bo'lma. G'ayrat va jasoratingdan ajralma. Og'ir va mashaqqatli bo'lib ko'ringan narsadan haqiqatda ko'p muhim va xayrli natija hosil bo'lishi mumkin. Ahamiyatsiz narsalarga, moddiy bezaklarga ko'p aldanma. Fazl, kamol egasi bo'lishga intil. Tarixda o'tgan ulug'lar hayotidan ibrat ol. Muloyim, shafqatli va marhamatli bo'l. Bularning barchasi baxt-saodatga erishishning negizlaridir" . Suqrot shunday deydi: "Oz narsaga qanoat qilgan odam davlatmanddir, negaki bunday qanoat uning ma'naviy boyligidan dalolat beradi. Dunyoda odam yenga olmagan narsa bo'lmaydi, shuning uchun aslo qo'rqma, o'zingga berilgan quvvat va g'ayratlaringni sarf qilib, olg'a intil. Baxt va saodat osmondan tushadi yoki kutilmagan holda qo'qqisdan vujudga chiqadi deb o'ylama. Shu o'yga borsang, dunyoning nodon odamlaridan biri hisoblanasan" [2]. Baxt faqat mol dunyo, martaba yoki o'tkinchi his-tuyg'ulardangina iborat emas. Allohning har bir bergan ne'mati baxtdir. Ikki olam sarvari Muhammad Mustafo (s.a.v) dedilarki: "Kim o'z uyida omonlikda, jasadi salomatlikda, kunlik taomi bo'lgan holda tong ottirsa, xuddi unga butun dunyo jamlangandek bo'ladi".

Ingliz tilida baxt va baxtsizlik konseptlarini ifodalovchi so'zlar va so'z birikmalarini tahlil qilishda eng avvalo xorijiy tildagi so'zlarni va ularning qo'llanish doirasi haqida atroflicha tushunchalarga ham ega bo'lishimiz zarur. Chunki, o'zbek tilida bo'lganidek ingliz tilida ham har bir so'zning o'ziga xos m'no va qo'llanish o'rinlari mavjud.

Baxt segmentini ifodalovchi so'zlar va so'z birikmalari barcha tillarda ko'plab uchraydi. Shu jumladan, biz hozir ko'rib chiqayotgan ingliz tilida ham baxt konseptini ifodalovchi bir qancha obyektlar mavjud.

Baxt - bu kundalik hayotda va ilm-fan sohasida mashhur va o'z yechimini ko'plab tomonlama kutayotgan dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda u turli yo'llar bilan ifodalanishi mumkin, bunda lingvistik mavzulardan va aynan, lingvistik jihatdan bu mavzuga chuqurroq yondashish, foydalanish boshqalaridan kam emas. Ingliz tilida baxtni anglatuvchi ko'plab so'zlar va idiomalar, maqollar va iboralar mavjud bo'lib ularning fikran va shaklan xilma xilligi olimlar va bu mavzuga qiziqqan har bir kishini shu bilan birga muallifning e'tiborini tortadi.

–glad — mamnunlik (Rejoice)

– fortunate — ikbol, omad (good luck)

–contentment rohat, farogat (satisfaction).

Ikkala tilda ham "baxt" tushunchasi omad va qoniqish ni bildiradi. Ingliz tilida ba'zi misollar mavjud: ko'pincha boylik (baxt) topiladi, lekin uni saqlab qolish qiyin (baxtni topish oson, uni saqlash qiyin), omad unga yaxshi, undan unumli foydalanishni bilgan (kuladi baxt deb, kim ulardan yaxshi foydalanishni biladi), omadi chopish (omadingizga tayanmoq); kartalarda omadli, sevgida omadsiz (kartalarda omadli bo'lganlar, sevgida omadsiz), dono bo'lgandan ko'ra omadli bo'lib tug'ilgan afzal (donodan ko'ra omadli tug'ilgan afzal).

O'zbek tilida:

– ishning omadi — oz vaqti bor (lucky thing has its time)

– omad kelsa sichqon filni yengar- (if luck comes, mouse win an elephant)

– rohat mehnatning orqasida- (Happiness comes by making effort), halol mehnat

— yahshi odat, berur senga saodat -(Honest work will lead to happiness)

– mehnat -farogat chirogi- (labor — it is the light of happiness).

Britaniyada omadni quyidagi tarzda bog'laydi: - Baxt - Salomatlik: yaxshi sog'liq boylikdan ustundir (boydan ko'ra sog'lom bo'lish yaxshiroqdir). - Baxt - martaba: o'zingiz uchun martaba yarating. – Baxt – shon-shuhrat: dunyoni oyoq ostiga olish (yaxshi muvaffaqiyatga erishish, umumjahon tan olinishi uchun dunyoni zabt etish). – Baxt – maqsad: o'z ongini o'tkazishga, bajarishga, ega bo'lishga yoki unga ega bo'lishga (maqsadini izlashga) olib kelish. Lingvistik material tahlili sifatida ikkala tilda ham "Baxt" ijobiy his-tuyg'ularni hisobga olgan holda ijobiy bahodir. Biroq o'zbek tilida baxt har doim ham ijobiy ma'noda kelmasligi ham mumkin. Bunda salbiy ma'noni ko'radi. Masalan, (birovning baxti, birovning baxtsizligi) deb tarjima qilingan "Birovning baxti, birovning ko'zini

chiqardi” deyish har kim ham birovning baxtidan xursand bo‘la olmasligini bildiradi. “Baxt” tushunchasi o‘zbek tilida majoziy birliklarga ega: – Baxt — Parrandachilik: Baxt qushi boshiga qo‘ndi (boshidagi baxt qushi). – Baxt — mavzu: Baxtin sinamoq (Baxtni boshdan kechir), Baxtin bermoq (baxt ber). – Baxt — tirik organizm: Baxti kulgan (Tabassumli baxt). Baxti ochilgan (baxtli odam) omadi kelgan (omad keldi).

REFERENCES

1. Rusakova I.B. Ma'lumotlarga ko'ra "baxt" - "baxtsizlik" tushunchalarining mazmuni.Assotsiativ eksperiment2006 - C 86-95.A.S.Pushkin, 2005. - S. 90
2. Rusakova I B "baxt" - "baxtsizlik" tushunchalarining semantik tarmog'i (bo'yicha). izohli lug'atlar) 2006 yil - 3-son (51) - C 132-136.
3. Rusakova Sh>. Rus tilida baxt va baxtsizlikning mifologik tasvirlari dunyoning qichqirayotgan surati (maqollar asosida) 2006 yil 15-18 may - M • Davlat. IRYA ularni A.S. Pushkin, 2006. - S. 230-237Alimpieva

Elmira KOCHKAROVA,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI TA’LIMI VA IMLOVIY SAVODXONLIK MASALALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘qituvchilarining boshlang‘ich sinf darslarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, lug‘at ustida ishlash og‘zaki va yozma shaklda olib borilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *savodxonlik, boshlang‘ich, o‘quvchilar, nutq, mantiqiy fikrlash, o‘quvchi, yuksak mahorat, darslik bilan ishlar.*

Аннотация: в данной статье рассматривается организация занятий учителями начальной школы исходя из современных требований, а также способы работы над словарным запасом в устной и письменной форме.

Ключевые слова: *грамотность, элементарная, учащиеся, речь, логическое мышление, ученик, продвинутые навыки, работа с учебниками.*

Annotation: this article discusses the organization of elementary school classes by teachers based on modern requirements, and how to work on vocabulary in oral and written form.

Key words: *literacy, elementary, students, speech, logical thinking, student, advanced skills, work with textbooks.*

Mustaqillik tufayli yosh avlodni savodxon, har tomonlama yetuk kishilar qilib tarbiyalash hukumatimiz tamonidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yosh avlodni yetuk madaniyatli, savodxon qilib yetishtirish, ijodiy ishga o‘rgatish har bir fan o‘qituvchisining asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

“Savodxonlik” atamasi nafaqat imloviy xatolarsiz yozish, balki boshlang‘ich sinflardan boshlab alifbeni o‘qitish jarayonida tovush va harfni tanib-bilib olish orqali o‘qish va yozishni egallash ma’nosida ham tushuniladi. “O‘zbek izohli lug‘ati” da ham “savodxonlik” so‘ziga “o‘qish va yozishni biladigan, xat-savodli odam“ tarzida izoh berilishi bejiz emas. Bu borada ”Yozma nutq savodxonligi“ degan birikma ham keng qamrovli mazmunga ega bo‘lib, fikr mazmunini ifodalovchi so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, ularni gap qurilishida o‘rinli qo‘llash, ortiqcha ko‘p so‘zlilikka yo‘l qo‘ymaslik, fikrni ixcham tarzda aniq ifodalay bilish, fikrlarning mantiqiy izchilligi va uzviyligiga erishish mavzuni yoritishda nutqni to‘g‘ri boshlash, davom ettirish, yakunlash kabilarni nazarda tutadi. Boshlang‘ich sinflarda unday savodxonlikka erishish doimiy ravishda maqsadga yo‘naltirilgan metodik mashqlarni taqozo etadi.

Savodxonlik masalasining dolzarbligi shundaki, maktab o‘quvchilaridan tashqari, talabalar va hatto o‘qituvchilar yozma nutqida ham imloviy xatolar uchraydi. Vaholanki, imloviy savodxonlik jamiyat a’zolari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Fikrni ixcham va to‘g‘ri ifodalash uchun har bir madaniyatli xalq va uning har bir a’zosidan imloviy va punktuatsion savodxonlik talab etiladi.

Sir emas, ta’lim tizimida imloviy savodxonlikni shakllantirish borasida hal qilinishi kerak bo‘lgan ko‘pgina muammolar bor. Fikrimizcha, buning sababi quyidagilardan iborat:

1. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning imloviy savodxonlik ustida doimiy va izchil shug‘ullanmasligi hamda bu boradagi ishlarni amalga oshirish qat’iy

tartib- da rejalashtirilmasligi.

2. Imloviy savodxonlikni shakllantirish ona tili ta'limning eng muhim vazifasi sanalsa-da, imloga o'rgatish matematika, tabiat, musiqa, rasm, mehnat, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ham vazifalari doirasiga kirishini nazarda tutib bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmayotganligi. Ma'lumki, matematika darsida shu fanga oid atamalar uchramaydi. Lekin ular ona tili darslarida qo'llanmasligi mumkin. Bunday atamalar ustida matematika darslarida ishlanishi lozim. Demak, savodxonlikni shakllantirish ma'lum ma'noda maktabda o'qitiladigan barcha fanlarning vazifasiga kiradi.

3. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning imloviy savodxonligini belgilaydigan so'z minimumi va so'z maksimumi aniq bo'linmagan. Buni belgilash tamoyillari ham haligacha ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarning ona tili dasturda bu muammo to'la hal qilinmagan.

4-sinf o'quvchilari imlosini bilishlari kerak deb berilgan so'zlar 1-sinf dasturidan ham o'rin olganligi shu tufaylidir.

4. Imloga o'rgatishning "Imlo lug'ati" kabi qo'shimcha vositalari ham borki, bunday lug'atning 1973-yilda yaratilgani nazarda tutilsa, uning hozirgi talablarga javob bermasligini tushunish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozma nutqidagi imlo xatolarning kelib chiqish sababini aniqlamasdan turib, imloviy savodxonlikni shakllantirish haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Kuzatishlarimiz asosida boshlang'ich ta'limda imlo xatolarining kelib chiqish sabablarini quyidagicha ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Imlo xatolarga sabab bo'ladigan tashqi ta'sirlar:

1) imlo rejimiga to'liq amal qilinmaslik (sinf va maktab jihozlarida imloga e'tiborsiz qarash);

2) tevarak-atrof ta'siri (ko'cha-ko'ylardagi shiorlarga, bino peshtoqlaridagi yozuvlarga bolaning ko'zi tushadi, natijada ularning imlosi tasavvurida muhrlanib qoladi);

3) sinf jamoasinig tarkibi (turli sheva vakillarining yoki tarbiyaviy jihatdan turli darajadagi oilalar farzandlarining bir sinfga jam bo'lishi va ularning bir-biriga ta'siri).

2. Ona tili ta'limi jarayonida imlo xatolariga sabab bo'ladigan holatlar:

1) imloga o'rgatishda izchillik va uzviylikka amal qilinmasligi;

2) imloga o'rgatishning metod va usullarini to'g'ri tanlay olmaslik;

3) izohlashning turli omillariga e'tibor bermaslik. (O'qituvchining mavzuni tushuntirishda, mustahkamlashda, o'quvchilar bilimini nazorat qilishda bir so'zlarga asoslanib qolishi, misollar xilma-xilligiga e'tibor qaratmasligi; oqibat-natijada o'quvchilarning o'qituvchi aytgan misol – so'zlar bilangina cheklanib qolishi);

4) o'quvchilarda imlo qoidasini amalga tatbiq etish ko'nikmasining shakllantirilmaganligi;

5) imloviy sezgirlikning rivojlantirib borilmaganligi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. O'quvchida imloviy sezgirlik shakllanganda bir imlo qoidasini boshqa so'zlarga tatbiq eta oladi. Bu o'quvchini har bir so'zning imlosini yodda saqlashdan qutqaradi. Negaki barcha so'zlarni yodda saqlab ham bo'lmaydi. Imloviy sezgirlikni shakllantirishda "So'zlarning qaysi o'rinlarida xatoga yo'l qo'yishingiz mumkin?" degan savoldan foydalanish;

6) o'quvchidagi shaxsiy nutqiy nuqsonlar ustida tegishli darajada tushuntirish ishlari olib borilmaganligi.

Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti va ona tili dasturida o'quvchilarning imloviy savodxonligiga qo'yilgan talablarni bajarishda imloga o'rgatish ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi:

1) Imloviy savodxonlik grammatik mavzular asosida shakllantiriladi. O'quvchi oldin grammatikaga oid nazariy bilimlar bilan tanishtiriladi, so'ngra ma'lum otlarga asoslanib imloga o'rgatiladi.

2) Amaliy yo'l bilan shakllantiriladi, ya'ni mashq matnlaridan kelib chiqqan holda tahlil-tarkib metodlari orqali amalga oshiriladi. Imlosi o'rgatiladigan so'z bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qilinadi va bir butun holda yozdiriladi.

Yozma nutq savodxonligiga erishish uchun yuqoridagi ilmiy-nazariy qarashlar asosida imloviy mashqlar, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish hamda ularni amalda qo'llash usullarini belgilab olish bu boradagi muammolar yechimiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmanov V., R. Rasulov O'zbek tili jadvallarda. – T.: «O'qituvchi», 1999.
2. Ro'ziboeva O'. va boshq. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – T.: «O'zbekiston», 2001.
3. Safarova R. va boshq. Savod o'rgatish darslari. – T.: «Tafakkur», 2021.
4. Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: «Nosir», 2019.
5. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 2018.

Gulchehra SOBIRXO‘JAYEVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumani,
30-sonli o‘rta ta’lim maktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

SIFATLI TA’LIM-TARBIYA – KELAJAK POYDEVORI

Annotatsiya: mazkur maqolada farzand tarbiyasida nafaqat ta’lim maskanlari, balki, ota-onaning roli muhim ekanligi, har qanday rivojlangan davlatlarning jahon reytingidagi o‘rni yosh avlodga berilayotgan ta’lim-tarbiyaga bog‘liq ekanligi hamda, bu borada maktab, mahalla va ota-onalarning hamkorligi va faolligini oshirish haqida bir qancha ma’lumotlar keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *yangi avlod darsliklari, buyuk faylasuflar , 4K modeli, trening mashg‘ulotlar, texnika va texnologiya.*

Аннотация: в данной статье говорится о значении естественных мест образования в воспитании детей, роли родителей, месте любой страны в мировом рейтинге, проблемах, связанных с образованием и воспитанием молодого поколения, сотрудничестве поступает информация о школе, районе и родителях, а также некоторая информация об учете деятельности.

Annotation: this article talks about the importance of natural places of education in raising children, the role of parents, the place of any country in the world ranking, problems associated with the education and upbringing of the younger generation, cooperation, information about the school, district and parents, as well as some information about recording activities .

Ta’limni ustoz, tarbiyani ota-ona beradi.
Sh.M.Ziyoyev

Yurt ravnaqi, millat kelajagi har tomonlama ham ma’nan, ham jismonan barkamol avlod tarbiyasiga bog‘liq. Biz bilamizki, har qanday davrda ham farzand ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor qaratilgan. Farzand tarbiyasida komillikka eltadigan, yuksak fazilatli insonlar etib tarbiyalash o‘sha zamon ma’rifatparvarlarining hayotiy e’tiqodlariga aylangan. O‘tmishda yashab o‘tgan buyuk allomalarimizning ota-onalari tomonidan farzand ta’lim-tarbiyasiga qaratgan e’tiborlari ularning dunyo taniydigan buyuk insonlar bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Bugungi kunda ertamiz egalarini buyuk ajdodlarimizga munosib ruhda tarbiyalashda nafaqat ta’lim maskanlari, balki ota-onalarning o‘rni ham beqiyosdir. Buyuk ma’rifatparvar iste’dodli pedagog Abdulla Avloniy o‘zbek xalqi maorifi, madaniyati va ma’rifati yuksalishiga hissa qo‘shgan olim. Farzand tarbiyasida sharqona ta’lim-tarbiya va urf-odatlarimiz sodiq qolgan holda tarbiyalashni muhim vazifa deb hisoblagan. Bu borada ta’lim va tarbiya haqidagi qator ibratli fikrlarni ilgari surgan. Jumladan:

- Yoshligidan tarbiyasiz o‘sgan kishilardan yaxshilik kutish – yerda turib yulduzlarga qo‘l uzatmoq kabidir.
- Kishi yaxshi tarbiya olib, go‘zal xulqqa odatlansa, u baxtiyor inson bo‘lib voyaga yetadi.
- Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.

Ma’rifatparvar olimning bu so‘zlari ayni haqiqatdir.

Hozirgi kunda millatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish mushkul vazifaga aylanib bormoqda. Chunki jadallik bilan rivojlanayotgan texnika va texnologiya asri farzandlarimizni ong-u shuuri, dunyoqarashiga ijobiy ta’siri bilan bir qatorda salbiy oqibatlari bilan ham namoyon bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga ota-onalar va o‘qituvchilarning ko‘proq birgalikda va hamkorlikda ish olib borishlariga undamoqda. Bilamizki, har bir yurtning kelajagi ertangi kuni mamlakatni jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni avvalambor biz ta’lim-tarbiya berayotgan yosh avlodga bog‘liq. Xalqimizni dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni bizdan ko‘ra kuchli, bilimli bo‘lishlari uchun bor imkoniyatlarimizni ishga solishimiz zarur. Shuni nazarda tutgan holda ta’lim sohasidagi yangi o‘zgarishlarni hayotga tatbiq etish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Jumladan, farzandlarimizning jahon ta’lim standartlariga mos tarzda o‘qitish maqsadida 4K modeli asosida yartilgan “Yangi avlod darsliklari”ning o‘qitilishi bunga yaqqol misoldir. Bu model asosidagi darsliklar 2023-2024- o‘quv yilidan boshlab ta’lim maskanlarida o‘qitila boshladi. Bu darsliklar yangi pedagogik texnologiyalar asosida turli o‘yinlar shaklida, mavzularning xilma-xilligi va qiziqarliligi bilan eng muhimi bolaning dunyoqarashini kengaytirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Yana eng muhim jihatlaridan biri olinayotgan bilim va ta’lim-tarbiyani hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirilishi bilan maqsadga muvofiqdir.

Jahon hamjamiyatida ta’lim sohasida o‘z nufuziga ega bo‘lgan Singapur, Angliya, Xitoy, Estoniya, Finlandiya kabi davlatlarning ta’lim sohasidagi ilg‘or tajribalari har bir o‘rgatilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim oluvchilarning kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirilishi ta’lim va tarbiyaning uzviyligidan dalolatdir. Bunday ruhda tarbiyalangan bolalarda Vatanga muhabbat, yurtga

sadoqat, oliyjanoblik, mehnatsevarlik, o‘zgalar mehnatini qadrlash kabi fazilatlar shakllanadi. Yuksak insoniy fazilatlar mavjud bo‘lgan yoshlarimiz yurt ravnaqi, millat kalajagi uchun beminnat xizmat qila oladi. Jamiyat hayotida o‘z o‘rniga va nufuziga ega bo‘la oladi. Bu borada farzandlarimizning ong-u shuuriga Amir Temurdek adolatli, yengilmas, Alisher Navoiydek mulohazali, ilmli, Zahiriddin Muhammad Boburdek vatanparvar, oilaparvar, Jaloliddin Manguberdidek mard va jasur bo‘lishlik yuksak fazilatlarni singdirish biz ustozlar va ota-onalarning burchimizdir.

Men shu jamiyatning ta’lim vakilasi sifatida ta’lim va tarbiya sohasida olib borilayotgan ishlarni yaqin kelajakda o‘z samarasini berishiga ishonaman. Buyuklar vatani deb e’tirof etilayotgan ona vatanimizda barcha sohalarda yurt ravnaqi, millat kelajagi uchun jahon bilan bo‘ylasha oladigan iqtidorli yoshlar ko‘plab borligiga ishonaman. Bunday yoshlarni qo‘llab quvattlash to‘g‘ri yo‘nalish berish biz ustozlar va ota-onalarning hamkorlidagi vazifasi ekanligini unutmasligimiz kerak.Bu borada faoliyatimiz jarayonida ota-onalar va mahalla bilan hamkorlikda “Farzandim kelajagiga befarq emasman”, “Eng ibratli va bilimdon oila”, “Kitobxon oila” kabi tadbir va turli trening mashg‘ulotlar o‘tkazish foydadan xoli emas. Bunday trening mashg‘ulotlar ota-onalarda qiziqish uyg‘otadi va maktab, oila, mahalla hamkorligini yanada kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida farzand tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishimizda yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki: “Qush ikki qanoti bilan yuksakka parvoz qilganidek” farzand tarbiyasida ta’lim va tarbiyaning birgalikda uzviy holda olib borilishi yuksalish va jamiyat taraqqiyotidagi ulkan o‘zgarishlar va yutuqlarga olib keladi. Zero, sifatli ta’lim va tarbiya rivojlanish va yuksalish garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent, 2022.
2. Islom Abdug‘aniyevich Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.
3. Tarbiya umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinf o‘quvchilari uchun.
4. Meros va hozirgi zamon jurnali. 2021-yil №1-2.

Zulayho NEGMATOVA,
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti
nodavlat ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

O‘QUVCHILAR BADIIY-IJODIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘quvchilarning badiiy-ijodiy tasavvurini shakllantirishning nazariy asoslari, o‘ziga xosligi, etnopedagogik manbalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari badiiy-ijodiy ko‘nikmalarini o‘stirishning ilmiy asoslari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy-ijodiy tasavvur, o‘quvchi, o‘quv-biluv, ijodkorlik, mexanizm, pedagogik, psixologik, etnopedagogik manba.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы формирования художественно-творческого воображения учащихся, его своеобразие, научные основы развития художественно-творческих способностей учащихся младших классов на основе этнопедагогических источников.

Ключевые слова: *художественно-творческое воображение, студент, образование и знания, творчество, механизм, педагогический, психологический, этнопедагогический ресурс.*

Annotation: this article analyzes the theoretical foundations for the formation of the artistic and creative imagination of students, its originality, the scientific foundations for the development of artistic and creative abilities of primary school students on the basis of ethnopedagogical sources.

Key words: *artistic and creative imagination, student, education and knowledge, creativity, mechanism, pedagogical, psychological, ethnopedagogical resource.*

Ma’lumki, ta’lim jarayonidan kutilayotgan asosiy maqsad o‘quvchilarning badiiy-ijodiy tasavvurini shakllantirish modelini yaratish orqali, ularning mustaqil fikrlovchi, kasbiga ishonch tuyg‘usini oshirishga harakat qiluvchi erkin shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. O‘quv vaziyatlarining didaktik-pedagogik va metodologik asoslarini aniqlashtirishning ilmiy-nazariy muammolari esa badiiy-ijodiy qobiliyat, tasavvurlarni shakllantirish masalalarini amaliy jihatdan tadqiq etish imkoniyatini yaratadi. Badiiy-ijodiy tasavvurlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari sifatida sezgi organlari, tasavvur, fikrlash hamda iroda sifatlarini rivojlantirishdan iborat ijodkorlik mexanizmlari yetakchilik qilishi ko‘rsatib o‘tiladi. Pedagog olim Sh.Sharipov o‘quvchilarning kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti borasida fikr yuritib, dastlab ularni ikki ko‘rinishda baholaydi: “O‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil qilishda

ikki o‘zaro bog‘liq vazifani e’tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o‘quvchilar ijodiy faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi, ikkinchisi – o‘zlashtirgan bilimlarni ta’limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olishga o‘rgatish bilan belgilanadi”[1,120].

Umuman olganda, o‘quvchilarning kasbiy ijodkorligi, ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy muammolari u yoki bu ma’nodagi tadqiqotlarda o‘z yechimini topgan bo‘lsa-da, ammo badiiy-ijodiy tasavvurni shakllantirishda etnopedagogik manbalar muhim amaliy va nazariy asosini topishga qaratilgan muammoli ta’lim jarayonidagi muhim masalalardan biri ekanligini unutmasligimiz lozim. Badiiy-ijodiy tasavvurni shakllantirish esa maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich sinf o‘qish davriga xos aqliy ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali to‘g‘ri amaliy yechim topish ko‘nikmalariga odatlantirishni talab etadi. “Boshlang‘ich ta’limda ijodiy tasavvurlarni rivojlantirish, ta’limni ijodiy tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bu alohida nuqtayi nazar bo‘lib, muammoni yaxlit tizim sifatida tasavvur etib, uni tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat bo‘ladi. Ajratilgan tarkibiy qismlar komponentlarga ko‘ra aloqa, munosabatdan iborat. Bular komponentlarning iyerarxik – yuqoridan pastga, umumiydan xususiyga yo‘nalgan bog‘lanishlarini ajratishga zamin hozirlaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning ma’lumot mazmunini ijodiy o‘zlashtirish, ijodiy ta’limni tashkil etish, bolalarda ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash kabi o‘zaro daxldor qismlari ajratiladi. Bular bolalarda ijodiy tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi” [2,32]. U.Usmonova esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishning bir qator ilmiy masalalariga to‘xtalib o‘tadi. Jumladan, olima boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirish tasavvur turlari (anomal fikrlash, kreativ faol, faol bo‘lmagan ijodiy hamkorlik) sinektika (tuzilishli, funksional, fenomenal) uslublaridan foydalangan holda takomillashtirish, tashkiliy tuzilmasini baholash mezonlari (tasavvur qila olish, ijodiy fikrlay olish, mustaqil fikrlay olish) va darajalar (idrok etish, xotirlash, tasavvur qilish, munosabat bildirish)ni loyihalashtirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirish modeli ijodiy tasavvurga o‘rgatish bosqichlari (emotsional, mantiqiy fikrlash, fantaziya, ijodiy yondashish va tasavvur qilish)ni faollashtirishga (qayta tiklash, izohlash, ijodiy faollik) ustuvorlik berish hamda sinfdan tashqari o‘qishda o‘quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish mexanizmlari o‘qitishning kreativ texnologiyalari asosida amalga oshirilishini nazarda tutadi[3,7].

O‘quvchilarda ijodkorlikning turli ko‘rinishlari, aqliy tafakkur bilan bog‘liq masalalarning ilmiy-metodik jihatlarining pedagogik, psixologik xususiyatlari borasida olib borilgan ishlar, asosan, ularning ma’naviy, axloqiy va kasbiy faoliyatdagi yutuqlarga erishtirishga qaratilganligidir. Shu o‘rinda badiiy-ijodiy tasavvur borasida ham to‘xtalib o‘tish lozimdek. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari badiiy-ijodiy tasavvurni shakllantirishning etnopedagogik manbalar asosida takomillashtirish bo‘yicha quyidagi nazariy qarashlarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, etnomadaniy manbalarni tizimli o‘rgatish orqali badiiy-ijodiy tasavvurlar shakllantiriladi. Bunda o‘quvchilar o‘quv-biluv jarayonida tanishtirilgan mavzuga doir manbalar, ularning mazmun-mohiyatini anglatish orqali aqliy ko‘nikmalari yordamida mustaqil fikr bildirishga harakat qildiriladi. Bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga doir o‘quv materiallari hisobga olinadi, albatta. Ikkinchidan, etnopedagogik manbalarni o‘rgatish asosida muammoli ta’limdan foydalaniladi. O‘quvchilar mavzuga doir etnopedagogik manbalarni o‘qituvchi suhbati, o‘qish jarayonida mustaqil muammo qo‘yish yoxud ma’lum bir asar g‘oyasi, mazmuni, qahramoni, tasvir vositalariga munosabatni aqliy ko‘nikma yordamida tasavvur etadi va ma’lum xulosaga erishadi. Uchinchidan, etnopedagogik manbalar faqatgina o‘quv-biluv jarayonida emas, balki sinfdan tashqari darslarni tashkil etish, o‘quvchilarni mustaqil manbalarga yondashuvi, asarning mazmuni borasida fikr yuritishi, muammoni izohlashi va xulosalashi asosida amalga oshiriladi. To‘rtinchidan, o‘quvchilar ijodiy faoliyat, ko‘nikma asosida ijodiy topshiriqlar bilan shug‘ullantiriladi. Bunda ularning badiiy-ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qitishning kreativ texnologiyalari ishlab chiqiladi va bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari badiiy-ijodiy tasavvurini shakllantirishda “O‘qish savodxonligi” 2-sinf darsligi[4] da etnopedagogik manba sifatida kiritilgan xalq og‘zaki ijodi namunalarida mana shunday xususiyat yetakchilik qiladi. Darslikda ertak, rivoyat, qo‘shiq va boshqa janrlar bilan bir qatorda folklorning maqol va topishmoqlardan iborat namunalari alohida mavzu sifatida tanlangan. Bilamizki, maqol va topishmoqlarda fikr ixcham, lo‘nda va xulosaviy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilar ularning mohiyatini anglash, topqirlik asosida xulosa chiqarishga ijodiy yondashadi. Ikkinchidan, har ikkala janr ham xulosaviylik va mantiqiylikni talab etadi. Misol uchun quyidagi she’riy topishmoq matniga e’tibor qarataylik.

“Sharq”dan boshin ko‘tarar,
Har tong sog‘inar bizni,
Ko‘rmasak turolmaymiz,
Olov yuzli qirmizni (20-bet).

Topishmoqning javobi “quyosh” bo‘lib, u zamonaviy topishmoqlardan hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar dastlab topishmoqda qo‘yilgan muammo – ko‘chimning rangi, shakli va xususyatiga e’tibor qaratiladi. Quyoshning Sharqdan chiqishi muqoyasa qilinadi. Jonlantirish va metaforali ko‘rinish quyoshning tasviriy ifodasini badiiylashtirmoqda. O‘quvchilar dastlab topishmoq javobini topishlari uchun o‘qituvchi tomonidan quyidagi savollar o‘rtaga tashlanadi. Sharq o‘lkamizning qaysi

tomoni? Nimani ko‘rmasak va his etmasak sog‘inamiz? Qirmiz rangni tasvirlab bering. Olov yuzli nima bo‘lshi mumkin va boshqalar. O‘quvchilar quyoshning ko‘rinishi, har tongning yorug‘ bo‘lishi, olov kabi qizarib turishini anglashadi va topishmoq uchun yechim bo‘lgan topqirlik qirralari uning mohiyatini anglashni yuzaga chiqaradi. O‘qituvchi tomonidan quyoshning rangli ko‘rinishi chizdiriladi. Natijada o‘quvchilar ko‘z oldida olov rangli tasvir hosil bo‘lib, quyosh bo‘lmasa tong yorishmasligi, butun yer yuzining, hayotning bardavomligi quyosh orqali sodir bo‘lishi tushuntiriladi. O‘qituvchining “sharq”, “tong”, “olov”, “qirmizi” so‘zlari o‘rnida mustaqil almashtirish uchun savol qo‘yishi esa o‘quvchilarni badiiy-ijodiy tasavvur shaklini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning badiiy-ijodiy tasavvurini shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning esa mustaqil izlanuvchan, fikrini erkin bayon qiluvchi shaxs sifatida voyaga yetishuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipov Sh. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: pedag. fan. doktor. disser. – Toshkent, 2012. 120-bet.

2. Adizov B. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped.fan.nom. ...disser. – Toshkent, 2004. 32-bet.

3. Usmonova U. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa dok.disser(PhD). – Namangan, 2019. 7-bet.

4. Aydarova U. O‘qish savodxonligi. 2-sinf. – Toshkent, 2023.

Zuhraxon BOZOROVA,
ADPI, Maktabgacha ta’lim nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVIDA OTA-ONALAR VA TARBIYACHILARNING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida ota-onalar va tarbiyachilarning o‘rni haqida muhokama qilinadi va bu borada kerakli tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiylashuv, rivojlanish, kayfiyat, g‘amxo‘rlik, ko‘nikma, qoida, tarbiyachi, fazilat, jamoa, rivojlanish.*

Аннотация: в этой статье будет обсуждаться роль родителей и преподавателей в социализации детей дошкольных учреждений, и в этом отношении делаются необходимые рекомендации.

Ключевые слова: *социализация, развитие, настроение, руководство, значение, учитель, добродетель, сообщество, развитие.*

Annotation: this article is discussed about the role of parents and educators in the socialization of preschool children and the necessary recommendations are made in this regard.

Key words: *socialization, development, mood, manuality, meaning, teacher, virtue, community, development.*

"O‘zbekistonon Respublikasi Maktabgacha ta’lim “Ilk qadam” davlat dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sohalaridan biri “ijtimoiy-hissiy rivojlanish”dir. Bu yerda ta’kidlanishicha, bola hissiy kayfiyatini o‘zi yashaydigan ijtimoiy muhit me’yorlari asosida tartibga soladi. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish orqali bolalarga odamlarga ijobiy munosabat, xayrixohlik, g‘amxo‘rlik, o‘zaro yordam, hamdardlik va boshqalar kabi fazilatlar singdiriladi. Bolalar o‘yin, mehnat, amaliy faoliyat va jamoada o‘zini tutish ko‘nikmalari va qoidalarini o‘zlashtiradilar. Aloqa yordamida shaxslararo aloqalar, o‘zaro ta’sir va o‘zaro tushunish ta’minlanadi. Muloqot bolani ijtimoiy shaxs sifatida shakllantirishning asosiy vositasiga aylanadi. Natijada, bola quyidagi ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallaydi:

ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga munosabatini bildiradi;

– odamlarga hurmat va bag‘rikenglik ko‘rsatadi;

– yoshlar, tengdoshlar va kattalar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatadi;

– tashabbus ko‘rsatmoqda;

– ijtimoiy me’yorlarni o‘rganadi va ularni xatti-harakatlarida kuzatib boradi;

– o‘z-o‘zini bilish qobiliyatini namoyish etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida ota-onalarning ushbu sohadagi ta’limiga bog‘liq bo‘lgan tarbiyachilarning malakasi va kasbiy mahorati katta rol o‘ynaydi. Ular ota-onalar uchun treninglar, munozaralar, seminar-seminarlar, davra suhbatlari, tajriba almashish va h.k. shuningdek, tarbiyachilar va ota-onalar uchun ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishning mohiyatini va uni maktabgacha ta’lim muassasalarida amalga oshirish usullarini ochib beradigan uslubiy tavsiyalar nashr etiladi. Boshlang‘ich tarbiyachilar uchun o‘ziga ishonchni shakllantirish uchun psixologik moslashish uchun sharoitlar yaratiladi. Bunday sharoitda ular qilgan ishlarining samaradorligini tekshiradilar va yangi tadbirlar senariylarini tayyorlaydilar, bu jarayonda bolalarning, tarbiyachilarning va ota-onalarning ufqlari kengayadi. O‘z-o‘zini tarbiyalash, introspeksiya qilish va ushbu sohadagi istiqbolni aniqlash orqali tarbiyachilar faoliyati takomillashtirilmoqda, ular yangi g‘oyalarga ega

va asta-sekin ushbu ish bilan bog‘lanib qolmoqdalar. Ota-onalarning tarbiyachilar jamoasi a’zolari bilan munosabatlari ko‘p jihatdan tarbiyachilarning bolalar va ota-onalar bilan muvaffaqiyatli ishlashiga bog‘liq. Ular tarbiyachilarga ishonishadi va qiyin vaziyatlarda ularga murojaat qilishadi. Shunday qilib, ota-onalar va tarbiyachilar o‘rtasidagi munosabatlarning madaniy darajasi oshadi. Tarbiyachilar ular uchun yaqin odamga aylanadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bolalar shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishi maktabgacha ta’lim muassasasining oila bilan birligini talab qiladi. Aynan oilada bolalar ota-onalarning munosabatlarini, kattalarga hurmatni, kichkintoylarga g‘amxo‘rlik qilishni, oilada ularning axloqiy fazilatlari va fe'l-atvorini shakllantirishni, hayotiy qarashlarni shakllantirishni ko‘rishadi. Shuning uchun tarbiyachilarning kasbiy faoliyati uchun tarbiyachilarning ota-onalari bilan tizimli ishi (individual va jamoaviy) juda muhimdir. Shunday qilib, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolaning ijtimoiylashuvi tarbiyachining bolalarning psixologik va yosh xususiyatlari, ota-onalar va tarbiyachilarning o‘zaro munosabatlari, turli xil faoliyat turlarida ishtirok etishni ta’minlaydigan motivatsiya, bolalar uchun yaratilgan sharoitlar, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan usullarga bog‘liq.

Oila-bu bolaning birinchi ijtimoiy instituti. Hayotdagi oila qaysi turdagi yoki turdagi bo‘lishidan qat’i nazar, bola juda katta ahamiyatga ega. Oila ham ijobiy, ham ijobiy harakat qilishi mumkin ta’limning salbiy omili. Ijobiy tomoni shundaki, hech kim, unga yaqin odamlardan tashqari, u unga yaxshiroq munosabatda bo‘lmaydi va shu bilan birga, boshqa hech qanday ijtimoiy institut unga shunchalik zarar yetkaza olmaydi, oila qancha qila oladi.

Tadqiqot jarayonida biz maktabgacha ta’lim muassasasi degan xulosaga keldik ta’lim tashkiloti ijtimoiy institut sifatida qaror qabul qilishga chaqiriladi bolaning sog‘lig‘ini himoya qilish, uni ta’minlash uchun bir qator vazifalar intellektual, aqliy va jismoniy rivojlanish. Maktabgacha ta’lim tashkiloti ijtimoiy institut sifatida quyidagilarni ta’minlashga qaratilgan sifatli maktabgacha ta’lim olish huquqi. Biz shakllar, usullar, vositalar va yo‘nalishlarni o‘rganib chiqdik maktabgacha ta’limdagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat tashkilotlar. Quyidagi xulosa chiqarildi: shakllar, usullarni to‘g‘ri tanlashdan va mablag‘lar oila bilan ijtimoiy va pedagogik faoliyatning mazmuniga va maktabgacha ta’lim tashkilotidagi turli yo‘nalishlarda bog‘liq.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti quyidagi shakllardan foydalanadi, oila bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat, ular qanday:

– ota-onalardan so‘rovnoma; ota-onalar uchrashuvlari; ishonch qutisi va sharhlar kitobi;

– bolaning oilalariga tashrif; ma’ruzalar; stendlarda axborot va vizual ma’lumotlar;

– tavsiyalar; papkalar-harakatlar; maslahatlar; mini-kutubxonalar;

– ijtimoiy-pedagogik usullar bilan individual suhbatlar va boshqalar maktabgacha ta’lim tashkilotida oila bilan olib boriladigan tadbirlar;

– kuzatuv; so‘rov usullari; so‘rovnoma; oilani o‘rganish; suhbatlar; maslahat; ma’ruzalar; anketalar; seminarlar; seminarlar.

– vositalar bilan maktabgacha ta’limning ijtimoiy-pedagogik faoliyati oila bilan tashkilotlar: anketa; o‘yin, tabiat, san’at asarlari, kitoblar, ommaviy axborot vositalari, musobaqalar.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning bir qator yo‘nalishlari mavjud maktabgacha ta’lim muassasasidagi oila: aniqlash uchun ijtimoiy-pedagogik tadqiqot barcha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va shaxsiy muammolari; bola huquqlarini ijtimoiy pedagogik himoya qilish; ijtimoiy va pedagogik ta’minlash bolaning shaxsini shakllantirishda oilani qo‘llab-quvvatlash; ijtimoiy pedagogik maslahat; ijtimoiy-pedagogik profilaktika, tuzatish va reabilitatsiya; tashkiliy va uslubiy faoliyat.

So‘rov natijalariga ko‘ra, shunday oilalar bor degan xulosaga kelishimiz mumkin psixologik va pedagogik xarakterdagi muammolar ustunlik qiladi. Ota-onalar ular bolalarni tarbiyalash, rivojlantirish va o‘qitishda bilim yetishmasligini his qilishadi, shuningdek, bolalarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilish uchun vaqt yetishmasligi. Bunday oilalarning 30 foizi, va shuningdek, ko‘pgina oilalarda tibbiy muammolar ustunlik qiladi – 10%; bolalar surunkali kasalliklarga ega, ko‘pincha immunitet zaiflashadi, ular ko‘pincha shamollashdan aziyat chekishadi. Shuningdek, oilalarda ijtimoiy huquqiy muammo mavjud. Bu bolaning huquqlari va manfaatlarini bilmaslikdan kelib chiqadi. Ota-onalarda huquqiy madaniyatning yetishmasligi 5% ni tashkil qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017 —2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari.

4. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan nashri).

5. Mirzayev, O. K. (2024). HISTORICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ELEMENTARY ENTREPRENEURIAL SKILLS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(02), 167-171.

6. D. Abdullajonova Maktabgacha ta'limda milliy tarbiyani yo'lga qo'yishning metodologik asoslari Xalq ta'limi jurnali 2021-yil maxsus son. 66-70-bet.
7. Mirzayev, O. (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. Science and innovation, 1(B6), 125-130.

Ulug'bek MASHRABJONOV,
QDPI o'qituvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING O'QUV BILISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv bilish kompetensiyalarini rivojlantirish usullari va uning ta'limdagi ahamiyati haqida fikr mulohazalar bildirilgan.
Kalit so'zlar: *kompetensiya, kasbiy, modernizatsiya, texnologiya, pedagogik kompetensiya, platform, seminar.*
Аннотация: в данной статье рассматриваются методы развития учебных компетенций будущих учителей начальной школы в условиях семейного воспитания и ее значение в воспитании.
Ключевые слова: *компетентность, профессионал, модернизация, технология, педагогическая компетентность, платформа, семинар.*
Annatation: in this article, the methods of development of learning competencies of future elementary school teachers in family education and its importance in education are discussed.
Key words: *competence, professional, modernization, technology, pedagogical competence, platform, seminar.*

Kirish Oliy pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammosi yuzaga keladi. O'qituvchilar malakasini oshirishga e'tiborni kuchaytirish boshlang'ich sinflar ommaviy maktab amaliyotiga rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari va usullarini joriy etish bilan bog'liq. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi kichik maktab o 'quvchilari o'rtasida o'quv hamkorlik ko'nikmalarini tashkil etish va rivojlantirish qobiliyati nuqtai nazaridan muhokama qilinadi. O'qituvchilarning o 'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning samarali usullari haqidagi g'oyalarini o'rganish va boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish muhimdir.

"Kompetensiya" deganda biror ishni muvaffaqiyatli yoki samarali bajarish qobiliyati tushuniladi. Ta'lim kontekstida kompetensiya shaxsga muayyan vazifalar yoki rollarni samarali bajarishga imkon beradigan bilim, ko'nikma, munosabat va xatti-harakatlarning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi.

Kompetensiyaning asosiy komponentlari quyidagilar:

1. Bilim: Muayyan soha yoki mavzuga oid nazariy tushuncha va ma'lumotlar.

2. Ko'nikmalar: vazifalarni bajarish va muammolarni hal qilish uchun amaliy ko'nikmalar.

3. Munosabatlar: xulq-atvorga ta'sir qiluvchi shaxsiy xususiyatlar, qadriyatlar va moyilliklar.

4. Xulq-atvor: bilim va ko'nikmalarning hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishini ko'rsatadigan kuzatilishi mumkin bo'lgan harakatlar.

Ta'limda kompetentsiya turlari:

- Pedagogik kompetensiya: o'qitish va o'qitish jarayonlarini loyihalash, amalga oshirish va baholash qobiliyati.

- Mavzu bo'yicha kompetensiya: o'qitiladigan mazmunni chuqur tushunish.

- Sinfni boshqarish kompetensiyasi: samarali va ijobiy ta'lim muhitini saqlash ko'nikmalari.

- Baholash kompetensiyasi: Talabalar bilimini samarali baholash va baholash qobiliyati.

- Shaxslararo kompetensiya: o 'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan muloqot qilish va hamkorlik qilish ko 'nikmalari.

O'qitishda kompetentsiyaning ahamiyati:

- Samarali o'qitish: Vakolatli o'qituvchilar qiziqarli, inklyuziv va samarali o'rganish tajribasini yaratishi mumkin.

- Talabalarning muvaffaqiyati: Kuchli kompetensiyalarga ega o'qituvchilar talabalarning muvaffaqiyati va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Kasbiy o'sish: Kompetentlik doimiy kasbiy rivojlanish va yangi ta'lim muammolariga moslashishni rag'batlantiradi.

Bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilarining ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish bir nechta asosiy strategiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariya va amaliyotni birlashtirish;

- Amaliy mashg'ulotlar: Amaliyot va amaliyotlar orqali sinfdagi tajriba miqdorini oshirish va ushbu amaliy yondashuv bo 'lajak o 'qituvchilarga nazariy bilimlarni real sharoitlarda qo'llashga yordam beradi.

- Reflektiv amaliyot: tinglovchilarga o'z ta'lim tajribalarini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish orqali aks ettirish amaliyotini rag'batlantirish.

2. O'quv dasturlari mazmunini oshirish;

- Ko 'p tarmoqli yondashuv: nafaqat pedagogikani, balki bolalar psixologiyasini, sinfni boshqarish va ta'lim texnologiyasini ham qamrab oluvchi ko'p tarmoqli o'quv dasturini kiritish sanaladi.

Asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislik: turli fanlar bo‘yicha keng qamrovli kompetensiyani ta'minlash uchun maxsus ta'lim, savodxonlik va STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) kabi sohalarda ixtisoslashtirilgan kurslarni taklif qilish.

3. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o‘zlashtirish;

- Raqamli savodxonlik: bo‘lajak o‘qituvchilarni sinfni boshqarish, darsni rejalashtirish va talabalarni baholash uchun raqamli vositalar va resurslardan foydalanishga o‘rgatish.

- Onlayn platformalar va manbalar: hamkorlikda o‘rganish va ko‘plab o‘quv resurslari va ta'lim mazmuniga kirish uchun onlayn platformalarni birlashtirish.

4. Hamkorlikda o‘rganishni targ‘ib qilish;

- Tengdoshlar bilan hamkorlik: tinglovchilar o‘rtasida hamkorlikda o‘rganish va almashish tajribasini oshirish uchun tengdoshlarni o‘qitish va hamkorlik loyihalariga ko‘maklashish.

- Mentorlik dasturlari: Tajribali o‘qituvchilar bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qish davrida boshqaradigan va qo‘llab-quvvatlaydigan murabbiylik dasturlarini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan.

5. Muloqot ko‘nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish;

- Muloqot ko‘nikmalari: o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan muloqot qilish uchun samarali muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga urg‘u berish.

- Hissiy intellekt: bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda va o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga javob berishda yordam berish uchun hissiy aql bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

Xulosa. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy sinflar talablariga javob berishga tayyorlash va ta'limga ijobiy hissa qo‘shish uchun sezilarli darajada oshirish mumkin.

Boshlang‘ich umumiy ta'limning yangi ta’lim standarti va o‘qituvchining kasbiy standarti tomonidan qo‘yiladigan talablar ancha yuqori va kattalar va bola o‘rtasida biznes hamkorligi shakllariga asoslangan yangi munosabatlarni kutmoqda. O‘qituvchilar kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida kompetensiyalarni shakllantirishlari uchun o‘qituvchining o‘zi bu kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak. Ta'lim sohasidagi hamkorlik tamoyillariga asoslangan o‘zaro ta'sir turi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurullaeva Sh.U. «Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik tayyorgarligini modellashtirish nazariyasi va metodikasi» 2021 yil 26
2. Ochilov M., va boshqalar. Bo'lajak o ‘qituvchi. («Budushiy uchitel»). Qarshi, 1983-yil.
3. Sh.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova. “Kasbiy ta’lim pedagogikasi“. Metodik qo’llanma.-T.2005 y
4. Гуружапов В.А., Санина С.П. Введение студентов исследовательской магистратуры в проблемы организации учебной деятельности в основной школе (на материале естественнонаучных дисциплин) // Психологическая наука и образование. 2015. Т. 20. № 3. С. 121–132. doi:10.17759/pse.2015200313.
5. Хуторской, А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно- ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2003. - № 2. - С.58-64.

Yulduz SULTONOVA,
Qarshi davlat universiteti Ingliz tili o‘qituvchisi

ZAMONAVIY TA’LIMDA CHET TILI O‘QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqola zamonaviy ta’limda chet tili o‘qitishning nazariy asoslari mavzusini yoritishga bag‘ishlanadi. Shuningdek, maqolada ikkinchi til o‘qitish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari va tarixi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *tafakkur, verbal, ikkinchi til, o‘qish texnikasi, yozish texnikasi, artikulatsiya qoidasi, Til materiali, nutq faoliyati, vizual qoidalar, analogiya.*

Annatation: this article is devoted to the topic of theoretical foundations of foreign language teaching in modern education. Also, the article describes the unique features and history of the second language teaching methodology.

Key words: *thinking, verbal, second language, reading technique, writing technique, articulation rule, language material, speech activity, visual rules, analogy.*

Аннотация: данная статья посвящена теме теоретических основ преподавания иностранного языка в современном образовании. Также в статье описаны уникальные особенности и история методики преподавания второго языка.

Ключевые слова: *мышление, речевая деятельность, второй язык, техника чтения, техника письма, правило артикуляции, языковой материал, речевая деятельность, изобразительные правила, аналогия.*

Til o‘rganish kishilik jamiyatida bag‘oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo‘lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o‘rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko‘p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida tahsil oladigan o‘quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. „Idrokli yoshlarimizning ko‘pchiligi uch til egasidir“[1]. Ushbu tillar ta’lim nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi: ona tili, ikkinchi til va chet til.

Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o‘taydigan birinchi tildir. Ruhshunoslar e’tirofiga binoan „tafakkur — verbal“, ya’ni fikrlash so‘z bilan chambarchas bog‘liq, so‘z — tushuncha ifodalovchisi. Ona tili so‘zlari zaminida o‘zlashtirilgan tushunchalar ikkinchi yoki chet til o‘rganish chog‘ida o‘zga til so‘zlarining tovush va yozuvdagi timsolida gavdalanadi. Ona tili, ikkinchi til va chet tilda o‘rganiladigan so‘z (mas. non — хлеб — bread) miqdoran uchta, biroq ular ifodasida shakllanuvchi tushuncha esa yagona: ,,un mahsulotlaridan xamir qorib, tandir, o‘choq yoki gazda pishiriladigan, yopiladigan yegulik, tirikchilik uchun zarur narsa “Ikkinchi til haqida so‘z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo‘shnilar tili sifatida qaraladi. Ma’lumki, til kishilarning bir-birlarini yaqindan bilishlari, hurmat-e’zozlashlari, do‘stlashishlarida tengi yo‘q omil, bebaho vositadir. O‘rta va oliy o‘quv yurtlarida boshqa tillarda ta’lim oluvchilar uchun ikkinchi til tushunchasi o‘zbek tili demakdir[2].

Chet til — bu xorijiy mamlakat tili. Respublikamizda G ‘arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, urdu, fors, xitoy, hind) tillari o‘qitilmoqda. Ular ta’lim muassasalarining o‘quv rejalaridan o‘rin olgan. Uchala tilni o‘qitish jarayoni turlicha kechadi: birinchidan, ona tilida tafakkur shakllanadi, o‘zga tillarni o‘rganish ulardagi fonetika, leksika va grammatikaga xos xususiyatlarni his etish bilan bog‘liqdir; ikkinchidan, o‘rganish tartibi ona tilidan boshlanib, undan keyin ikkinchi til va, nihoyat, chet tilga o‘tiladi; uchinchidan, ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun’iy muhitda o‘rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Ta’lim jarayonini rivojlantirish va o‘zgartirish o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars jarayonida o‘zaro ochiq muloqotga kirisha olishiga bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metod va texnologiyalar butun bir dars jarayonini va o‘quvchilarning faolligini oshiradi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarga yangi bilim berish, ko‘nikma hosil qilish, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rag‘batlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta’lim tizimini yosh avlodni barkamol, ma’naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qarata olgandir.

Til o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan yozma manbalar va muallimlarning kundalik muloqotlarida ,,o‘qish texnikasi“, „yozish texnikasi “ kabi terminlar tez-tez uchrab turadi. O‘qish texnikasi deganda, harf harf birikmasining tovush bilan munosabati, yozish texnikasida esa harfning yozilish qoidalari tushuniladi. Ushbu terminlar qatori ,,o‘qilish qoidasi % „yozilish qoidasi“ singari sinonimlar ham ishlatiladi. Bu ikki metodik termin qatoriga „talaffuz texnikasi“ni qo‘shish o‘rinlidir. Uni, boshqacha qilib, „artikulatsiya qoidasi“ deyish ham mumkin. Shunday qilib, til materialini egallashda aytish (talaffuz)ni, o‘qishni va yozishni ham o‘zlashtirish bilan mashg‘ul bo‘linadi va har uchalasini biriktirib, yagona termin — „til texnikasi“ nomi bilan yuritiladi. Til materiali (leksika, grammatika, talaffuz)ning nutq faoliyati turlari bo‘lmish gapirish va tinglashda (eshitish-talaffuz etish), o‘qishda (o‘qilish, ya’ni harf-tovush munosabati) va yozuvda (yozilish) qoidalari til texnikasi demakdir. Til materiali, bir tomondan, real voqelikda mavjud hodisalar bo‘lib, ularni sezgilar yordamida aytish, eshitish, ko‘rish va yozish mumkin, ikkinchi tomondan esa, nutq faoliyati turlarida qo‘llash va idrok etib tushunish mumkin. Birinchisi — til materialining texnikasini tashkil etadi, ikkinchisi — og‘zaki va yozma nutqda fikr bayon qilish yoki o‘zga shaxs fikrini idrok etib tushunish omili sifatida namoyon bo‘ladi. Xullas, og‘zaki dialog va monolog nutq tovushlar (fonemalar)dan tarkib topsa, yozma nutq harflar (grafemalar)ni o‘z ichiga oladi. Ulardagi fonema- grafema munosabati o‘qilish qoidalari majmuasini vujudga keltiradi.

Chet til qoidasi nutq faoliyatini egallashni osonlashtiruvchi vositadir, qoida nutq materialini o‘zlashtirish nuqtayi nazaridan ikkiga bo‘linadi[3]: Qoida — umumlashma (material nutqda o‘rganilgandan so‘ng) va qoida — ko‘rsatma (material o'rganilishi oldidan beriladi). Qo‘llanilishi jihatidan qoidani uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

1) verbal qoidalar (so‘z yordamida ta’riflanadi): a) darslikda yozilgan (verbal-grafik qoida) va b) muallim yoki o‘quvchilar chiqaradigan qoidalar. Bularni verbal ta’riflanadigan qoidalar deb nomlash mumkin;

2) vizual qoidalar (so‘z ishtirokisiz, ta ’riflamay beriladigan qoidalar): sxema, jadval va simvol (mas. S + P + O) kabilar;

3) qoida — analogiya (so‘z yoki biron belgi yordam isiz o‘quvchilar tomonidan ixtiyorsiz holda yoki o‘zlarining til tajribasiga ko‘ra, ma’lum lisoniy tushuncha va qonuniyatni bildiruvchi „qoidalar“, mas. ot, sifat, gap, ega, kesim singari terminlarda ifodalangan tushunchalar yoki gapda so‘z tartibi, so‘z yasalishi hodisalarini bildiruvchi chet til qonuniyatlari va h.k.).

Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Rahmanov tomonidan chuqur o‘rganilgan. Tarjima metodi asosan ikki ko‘rinishda bo‘lib, grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan xorijiy til umumta’limiy maqsadda

o‘rganilgan. Grammatik mashqlar til o‘rganuvchining mantiqiy tafakkurini o‘stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish ta’limning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. Til o‘rganish yozma nutqqa asoslangan.
2. O‘rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo‘lgan.
3. Oldin, Grammatik qoida yod olingan, so‘ng esa so‘zlarning ma’nosi so‘zma-so‘z tarjima vositasida ochib berilgan.
4. Grammatik shakl va so‘zlarning ma’nosi so‘zma-so‘z tarjima vositasida ochib berilgan.
5. So‘zma-so‘z tarjima va quruq yodlash yo‘li bilan til materiali o‘zlashtirilgan.
6. So‘zlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan.

Bundan tashqari, kommunikativ didaktika til o‘rganuvchining tabiiy nutqiy vaziyatdan unumli foydalanishini birinchi o‘ringa qo‘ydi, ya’ni transportdagi, vokzaldagi, e’lonlar, radio va televideniyedagi reklamalar, telefondagi suhbatlar va shu kabilarni misol keltirishimiz mumkin[4].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, hozirgi vatqda nafaqat chet tiliga o‘qitish bo‘yicha balki barcha fanlarga o‘qitishni, o‘rgatishni yangi-yangi metodlarini izlab topish va uni amalda sinab ko‘rish to‘g‘risida ko‘p ishlar qilinyapti. Bu hozirgi kundagi ta'lim tarbiya jarayonini yaxshilash, uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan eng muhim muammolardan biridir. Agar avval chet tili o‘qitish shu til sistemasini o‘rganish deb qaralgan bo‘lsa, keyingi yillarda o‘qitishdagi muhim ko‘zlangan narsa bu o‘quvchilarni chet til nutqini o‘stirishdan iborat bo‘ldi. Shuni aytish kerakki chet til o‘rganishdagi bu maqsadlar, o‘z-o‘zidan yoki boshqa kimsalar yoki shaxs tomonidan qo‘yilmaydi, balki lingvistika va psixologiya fanlaridagi o‘zgarishlar va jamiyatning ijtimoiy rivojlanib borishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G ‘afur G'ulom. Ko‘p tilni bilishning xosiyati / / O‘qituvchilar gazetasi, 1965-yil 16-sentabr („Toshkent oqshomi“ gazetasining 1989- yil 6-aprel sonida ,,Ko‘p tilni bilish xosiyati“ nomi bilan qayta bosilgan).
2. Saydaliyev S. S. Chet til o‘qitish metodikasidan ocherklar: O‘qituvchi va talabalar uchun qo‘llanma. Namangan: NamDU, 2004. — 238 b.
3. Jamol Jalolov Chet til o‘qitish metodikasi. ,,O‘qituvchi“ Nashriyot-Matbaa Ijodiy uyi Toshkent – 2012
4. https://cyberleninka.ru/article/n/chet-til-oqitish-metodikasida-zamonaviy-metodlar?ysclid=lwkqwv2qam782465581

Musharraf ABDULXAYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIMIY DIKTANT VA UNING TURLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada diktant haqida tushunchalar, ta’limiy diktant, ta’limiy diktantning turlari, diktantlarning ko‘zlangan maqsadiga ko‘ra turlari va qo‘llanilishiga ko‘ra turlari, ta’limiy diktantlarning mazmuniga ko‘ra turlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *diktant, ta’limiy diktant, tekshiruv diktanti, ko‘ruv diktant, eshituv diktant, izohli diktant, o‘z diktant, yoddan yozuv diktanti, chalg‘itma diktant.*

Annotation: this article provides information on concepts of dictation, educational dictation, types of educational dictation, types of dictation according to their intended purpose and application, types of educational dictation according to content given

Key words: *dictation, educational dictation, review dictation, visual dictation, auditory dictation, annotated dictation, own dictation, memorization dictation, distraction dictation.*

Аннотация: в данной статье представлена информация о понятиях диктант, учебный диктант, виды учебного диктанта, виды диктанта по назначению и применению, виды учебного диктанта по изложенному содержанию.

Ключевые слова: *диктант, учебный диктант, обзорный диктант, зрительный диктант, слуховой диктант, аннотированный диктант, собственный диктант, диктант на запоминание, диктант-отвлечение.*

Hozirgi kunda yuqori sifatli imlo ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, yozma nutqi rivojlangan o‘quvchilarni tarbiyalash boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda diktantlarning o‘rni nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Diktant [lotincha dictare – hadeb gapiravermoq, takrorlamoq; aytib turib yozdirmoq] imloviy va punktuatsion

qoidalarning o‘zlashtirilish darajasini tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma ish[1.611] turi hisoblanadi. O‘quvchilarda diktant yozish jarayonida paydo bo‘lgan malakalar uning yozma nutqini rivojlatiradi va yuqori sinflarda bayon, insho yozish jarayoniga zamin yaratadi.

Diktantlar o‘quvchilarda ko‘rish, eshitish, fikrlash, yozma va og‘zaki nutqini rivojlantiruvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Diktantlar oldiga qo‘yilgan maqsadiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin, ya’ni bilimlari darajasini bilish, xotirasini sinash, yozish tezligini tekshirish va hokazo[2.49]. Shunga ko‘ra diktantlar ko‘zlangan maqsadiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi[3.5]:


1. Ta’limiy diktantlar.
2. Tekshiruv diktantlari.

Ta’limiy diktant. Diktantning bu turi uchun dars jarayonida alohida biror soat ajratilmaydi. Faqatgina o‘tilgan mavzularni mustahkamlash uchun 1-sinfda yozuv darsi, 2-3-4-sinflarda esa ona tili darslarining ma’lum bir qismida olinadi. Ta’limiy diktantlar o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan har bir darsning 5-10 daqiqasi yoki 10-15 daqiqasi davomida va ba’zan to‘liq dars jarayonida o‘zlashtirilgan bilimni mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi[4.4].

Ta’limiy diktantlar o‘quvchilarning imlo qoidalarini yodlashi, fonetik, so‘z yasalishi va morfologik tahlillarni o‘rganish, og‘zaki hamda yozma nutqning shakllanish darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladi.

Ta’limiy diktantlar ko‘zlangan maqsadiga ko‘ra uch turga bo‘linadi.		
Orfografik qoidalarga asoslangan ta'limiy diktantlar.	Nazariy bilimlarni mustahkamlashga asoslangan diktantlar	Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishga asoslangan ta'limiy diktantlar
Ko‘ruv diktanti	Topshiriqli diktant	Ijodiy diktant
Eshituv diktanti	Saylanma diktant	O‘z diktant
Izohli diktant	Test diktant	Erkin diktant
Suhbat diktant	Misol diktant	Tez diktant
Lug‘at diktant		Axborot diktanti
Videodiktant		
Rasm diktant		
Chalg‘itma diktant		

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda diktantlarning ahamiyati kattadir. Chunki o‘quvchilar diktantni yozayotganda xato qilmasliklari uchun orfografik va punktuatsion qoidalarni eslashga harakat qiladilar.



Diktant bir necha xil bo‘lishini ba’zi metodik qo‘llanmalarda ko‘rishimiz mumkin.

D.O‘rinbayeva va M.Rahimovalarning “Diktantlar to‘plami” ya’ni metodik ko‘rsatmasini ko‘rib o‘rganib chiqadigan bo‘lsak, unda diktantlar qo‘llanishiga ko‘ra:

1. Eshitishga asoslangan diktantlar.
2. Ko‘rishga asoslangan diktantlar [5.7] kabi turlarga bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Eshitishga asoslangan diktant. Bunda diktant uchun tanlab olingan matn dastlab to‘liq o‘qitiladi. So‘ngra matn qismlarga ajratilinib alohida-alohida o‘qitilinadi. Har bir qayta o‘qilgan matndagi so‘zlarning tahlil etilishi, ta’kidlanishi, yozilishi eslatilinishi lozim bo‘lgan so‘zlarning yozilish imlosi tushuntiriladi.

Eshitishga asoslangan diktantlar asosan o‘quvchining eshitish, tinglash, tushunish va yozish ko‘nikmalarini shaklalanib borishiga sababchi bo‘ladi.

Ko‘rishga asoslangan diktantlar o‘quvchilardan faollik va mustaqillikni talab etadi, hamda ijodkorlik qobiliyati ham shakllantirib boradi.

D.O‘rinbayeva va M.Rahimovalar diktantlarni mazmuniga ko‘ra 2 turga bo‘lganlar:

1. Nazorat diktant. 2. Ta’limiy diktant.

Ular nazorat diktantiga quyidagicha ta’rif berganlar: “Nazorat diktant o‘quvchilarning savodxonligini aniqlash uchungina emas, u ta’limiy xarakterga ham egadir. Nazorat diktant, avvalo, o‘quvchilarga ko‘pgina imlo qoidalarini eslatadi, o‘qituvchi esa diktantda yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf qilish uchun mashg‘ulotlar o‘tkazadi. Demak, nazorat diktant ta’limiydir” [5.7].

Boshlang‘ich sinflarda ta’limiy diktantning mazmuniga ko‘ra quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

- Lug‘at diktanti.
- Saylanma diktant.
- Ko‘rsatuv diktanti.
- Yoddan yozuv diktanti.
- Ta’kidiy diktant.
- Izohli diktant.
- Ijodiy diktant.
- Erkin diktant[3.6].

Yuqorida ko‘rib chiqilgan barcha diktant tulari o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Madvaliyev. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent. 611-bet.
2. D.Eshonqulova, G.Rahmatova. Diktantlar to‘plami. – Toshkent, 2018. 49-bet.
3. Q.Abdullayeva, S.Rahmonbekova. Diktantlar to‘plami. – Toshkent. 5-bet.
4. I.Xolmurodov, S.Musayeva. Diktantlar to‘plami. – Qoraqalpog‘iston. 4-bet.
5. D.O‘rinbayeva, M.Rahimova. Diktantlar to‘plami. – Samarqand, 2017. 7-bet.

Mavluda MAVLONOVA,
Katta o`qituvchisi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIGA OID TERMINLARNING LEKSIK - SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada terminologiyaga berilgan olimlarning ta‘rifi,axborot texnologiyalari terminlarining o‘ziga xosligi, ularning leksek-semantik xususiyatlari to‘g‘risida batafsil yoritib berilgan. Shuningdek AT terminologiyasi tuzilmasi qatlamlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *leksika, terminlar,terminologik tizim, semantik tahlil,o‘zlashgan so‘zlar,tarjima usullari*

Annotation: this article covers in detail the definition of scientists assigned to terminology,the specificity of Information Technology terms themselves, their lexical-semantic peculiarities. There have also been reflections on layers of IT terminology structure.

Key words: *lexicon, terms, terminological system, semantic analysis, acquired words, translation methods*

Аннотация: в данной статье подробно рассматривается определение ученых отнесенных к терминологии, специфика терминов информационных технологий, их лексико-семантические особенности. Также рассматривались слои структуры ИТ- терминологии.

Ключевые слова: *лексика, термины, терминологическая система, семантический анализ, заимствованные слова, методы перевода.*

Kirish qismi: Ijtimoiy hayotning har bir sohasiga doir terminologiya o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, yuridik terminologiyaning boshqa sohalardan ajralib turadigan xususiyatlari rasmiylik, qat’iylik, normativlik hisoblanadi. Xuddi shunday axborot texnologiyalari terminologiyasining ham boshqa soha terminologiyasidan ajralib turadigan o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

“Axborot texnologiyalari” atamasi deganda biz izoh jihatidan olganda maxsus obyekt va jarayonlarni belgilab so‘zni yoki so‘z birikmasini, mazmun jihatidan esa – professional kommunikatsiyani ta’minlashga xizmat qiladigan kompyuter bilimiga xos ilmiy yoki texnik tushuncha, leksik birlikni tushunamiz.

Biz AT terminologiyasi tuzilmasida ahamiyatliligi jihatidan terminlarning uchta asosiy qatlamga ajratamiz:

– elektron ilmiy va o‘quv nashrlar, qo‘llanmalar, ma’lumotnomalar, texnik ko‘rsatmalar, elektron lug‘atlarda ishlatiladigan kodlangan terminlar: avtokovariatsiya - autocovariance, nuqtali matriks - dot matrix, bit - bit, planshetli raqamlovchi - bitpad, biaks -

biax;

– umumtexnikaga oid terminlar bo‘lib, ular AT sohasida terminlarni yasashda faol qo‘llanadi: tizim (operatsion tizim), operatsion (operatsion xotira), apparatga oid (apparatga oid xato), topshiriq (topshiriqlar paneli), modul (josuslik moduli), elektron (elektron pochta), qurilma (monitor qurilmasi).

Mantiqiy-semantik tuzilma nuqtayi nazaridan AT terminlarini quyidagi toifalarga bo‘lish mumkin: predmetlar (planshet, veb-kamera, klaviatura, monitor), jarayonlar (yuklash, yuksizlantirish, qayta ishlash, o‘rnatish, izidan borish, raqamlash, ishni nihoyalash, ma’lumot uzatish, yuborish, bog‘lanish, saqlash, ulanish), belgi va xususiyatlar (kengaytma (.doc, .exe, .pdf), spesifikatsiya), hajmi yoki ularning birliklari (megabayt, gigabayt, bit, megabit).

Natija ikki xil ko‘rinishda taqdim etilishi mumkin:

Natija tugallangan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi: o‘zbek tilida: ishga tushirish – boshlash (robotlarni dasturlash tilidagi buyruq), qo‘shish – qaytadan qo‘shish (matritsani qo‘shish harakatini qaytadan amalga oshirish), faol holatga o‘tkazish – faollashtirish (faol bo‘lmagan holatdan faol holatga o‘tkazish; faol holatni kuchaytirish), konfiguratsiyalash – konfiguratsiya (shaxsiy kompyuterning ona platasi, disk qo‘yish joyi kabi o‘ziga xos komponentlari); avtorizatsiya qilish — avtorizatsiya ((tizimga) kirish huquqini taqdim etish, foydalanuvchi ega bo‘lgan vakolatlar to‘plamini aniqlash), yangilash – yangilanish (xatolarni tuzatish yoki vazifaga oid imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida mavjud paketni o‘zgartiruvchi dasturiy ta’minot); ingliz tilida esa: driver — («drayver») drive harakatidan (“haydamoq, tashimoq”) — “konkret qurilma (qurilma sinfi) yoki qandaydir manba bilan ish uchun kirish-chiqish jismoniy darajasini amalga oshiradigan tizimli dastur”; server («server») serve harakatidan (“xizmat qilmoq”) — “Internet va mahalliy tarmoqdagi boshqa kompyuterlarning ishlashini qo‘llab-quvvatlaydigan kompyuter.

Natija faoliyat jarayonining o‘zidayoq amalga oshiriladi: o‘zbek tilida: o‘rnatmoq – o‘rnatish (kompyuterga dastur o‘rnatilishini amalga oshirish), yubormoq – jo‘natmoq (elektron xabarlarni jo‘natmoq), joriy etmoq – joriy etish (dasturiy ta’minotni yetkazib berish), yuklamoq – yuklash (operativ xotirani ma’lumot bilan to‘ldirish).

– **ingliz tilida: router** (“marshrutizator”) route harakatidan (“marshrutni tuzib chiqmoq”) - “tarmoqdagi ma’lumot marshrutini aniqlash uchun qurilma, tarqatuvchi”; hacker («xaker») hack harakatidan (”buzmoq”) - “kompyuter tarmoqlari va dasturlarini buzib kiruvchi”; subscriber («obunachi») subscribe harakatidan (“obuna bo‘lmoq”) - “abonent, obunachi”, kabilar kiradi.

Rasmiy tuzilma nuqtai nazaridan AT terminlari bir komponentli va ko‘p komponentli terminlarga bo‘linadi. Bir komponentli terminlarni so‘zning o‘zagi uning asosi bilan mos keladigan oddiy so‘zlarga ajratish mumkin (portal, paket, server, xost, shlyuz), asosi affiksli bo‘lgan oddiy yasama so‘zlar (dekodlash, defragmentatsiya, qaytadan yuklash, antivirus, vizualizatsiya) hamda bir necha o‘zakli morfemalardan tashkil topgan murakkab so‘zlar (videoxotira, videokanal).

– **kompyuter qurilmasi** (input and output storage devices) kompyuterning ichki va tashqi qurilmasini tavsiflovchi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tilida: keyboard, memory card, monitor, mouse, microprocessor, port; o‘zbek tili: klaviatura, karta xotirasi, monitor, sichqoncha, mikroprosessor, port. Arxisema: qurilma (device);

– **dasturiy ta’minot** (software) kompyuter dasturlarining ishlashini tavsiflovchi birliklarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tili: distribution, applet, driver, application; o‘zbek tili: taqsimot, applet, drayver, ilova. Arxisema: dastur (program);

– **buyruqlar** (command). Ushbu guruh foydalanuvchining topshirig‘i bo‘yicha kompyuter tomonidan bajariladigan harakatlarni tavsiflovchi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tili: paste, copy, save, delete, insert, scroll, download; o‘zbek tili: joylashtirish, nusxalash, saqlash, o‘chirib tashlash, aylantirish, yuklash. Arxisema: harakat (action);

– **internet-kommunikatsiya** (Internet communication) Internet-muloqotni tavsiflovchi terminlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tili: home page, forum, site, chat, blog, link, buffer, portal; o‘zbek tili: bosh sahifa, forum, sayt, chat, blog, havola, bufer, portal. Arxisema: kommunikatsiya (communication);

– **multimediya (**multimedia) bir xil nomli arxisema bilan kompyuter yordamida turli signallar, ma’lumot almashish vosita va usullarini integratsiyalash, qayta ishlash, sinxron ravishda ko‘paytirish imkonini beruvchi birliklar, tayinlovchi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tili: animator, animation, visualization, hologram; o‘zbek tili: animator, animatsiya, vizualizatsiya, gologramma;

– **shaxsiy kompyuter turlari** (PC types) – shaxsiy kompyuterning mavjud turlarini belgilaydigan otlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tili:personal computers, notebook, netbook, laptop, minicomputer, microcomputers (micros), analog computers; o‘zbek tili: shaxsiy kompyuter, noutbuk, netbuk, portativ kompyuter, kichik-kompyuter, o‘xshash kompyuterlar.

– **o‘zaro ta’sir subyekti** (subject of interaction). Bunga kompyutyerda ishlaydigan har xil subyektlarni nomlaydigan otlar kiradi. Masalan, ingliz tili: operator, computer specialist, spammer, hacker, user, moderator, programmer. O‘zbek tili:operator, kompyuter mutaxassisi, spammer, xaker, foydalanuvchi, moderator, dasturchi, navigator. Arxisema: subyekt (subject).

– **o‘lchov birliklari** (unites, sizes, format) ma’lumotlarni uzatish tezligi, hujjatlar o‘lchamlari, formatlari o‘lchov birliklarini anglatadigan tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tili: Mb, Gb. GHz, MHz; o‘zbek tili: kbit/s, Mbit/s, gigabayt, megabayt.

B.N.Golovin va R.Y.Kobrinning tasnifiga ko‘ra, biz AT terminlarini texnika va ishlab chiqarish terminlariga kiritamiz, bunda mustaqil mavzu bilan bog‘liqlik birinchi o‘ringa chiqadi. Texnikaga oid terminlar singari AT terminologiyasi birliklari ham umumiy qo‘llaniladigan so‘zlarga semantik yaqin, binobarin, kompyuter termini va umumiy qo‘llaniladigan so‘z orasidagi chegarani faqatgina kontekstual tahlil yordamida chizish mumkin.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy AT lug‘aviy tarkibning o‘zgaruvchanligi bilan xarakterli bo‘lib, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan birliklarning tashkiliy majmuasi sifatida qo‘llaniladi va bunda ularning o‘ziga xosligi shakllanish uslubi va tarkibiy-semantik tashkil qilinishida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Голованова, Е.И. Когнитивное терминоведение : учеб. пособие / Е.И. Головин, Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах: учеб. пособие для филол. спец.вузов / Б.Н. Головин, Р.Ю. Кобрин. -М.: Высш. шк, 1987. - С.12-13.

2. Стернин, И.А. Коммуникативное поведение в структуре национальной культуры И.А. Стернин // Этнокультурная специфика языкового сознания / Под ред. Н.В. Уфимцевой. - М.: Институт языкознания РАН, 1996.-С. 97.

3. Томашевская, К.В. Лексическое представление языковой личности в современном экономическом дискурсе К.В. Томашевская. — СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 1998. - С.8.

4. O‘zbektilining izohli lug‘ati. 1-jild.-T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – 303 b.

5. Mavlonova , M. D., & Murodov , D. D. o‘g‘li. (2024). EXPLORING THE FRONTIER OF ROBOTICS AND AUTOMATION: INNOVATIONS, IMPACTS, AND CHALLENGES. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 210–215.

Zarinaxon AZIZOVA,
SamDCHTI o‘qituvchisi

ILOVA KONSTRUKSIYA SINTAKTIK ALOQANING BIR TURI SIFATIDA

Annotatsiya: maqolada ilova konstruksiya murakkab sintaktik butunlikning struktural turlaridan biri sifatida tadqiq etilib, unda uning struktural tuzilishi va ma’no xususiyatlari va ularni tashkil qiluvchi komponentlarning grammatik jihatdan ifodalanishi hamda sintaktik birliklarni tashkil etishda ishtirok etuvchi komponentlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan sintaktik aloqalar nemis tilidan olingan misollar vositasida tahlil qilingan va tegishli xulosalarga kelingan.

Kalit so‘zlar: *ilova hodisasi, ilova konstruksiya, murakkab sintaktik butunlik, ilovali element, sintaktik aloqa, struktural tur, parallel aloqa, kommunikativ markaz.*

Annotation: in the article, the nlova construction is studied as one of the structural types of a complex syntactic whole, in which its structural structure and semantic features, as well as the grammatical representation of the components that make them up, as well as the syntactic relations between the components involved in the organization of syntactic units, are taken from the German language. analyzed by means of examples and appropriate conclusions were reached.

Key words: *application event, application construction, complex syntactic entity, application element, syntactic connection, structural type, parallel connection, communicative center.*

Аннотация: в статье конструкция нлова изучается как один из структурных типов сложной синтаксической целостности, в котором изучаются ее структурная структура и семантические особенности, а также грамматическое выражение и синтаксические отношения составляющих их компонентов. среди компонентов, участвующих в организации синтаксических единиц, взятых из немецкого языка. Были проанализированы примеры и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: *событие приложения, конструкция приложения, сложная синтаксическая единица, дополнительный элемент, синтаксическая связь, тип структуры, параллельная связь, коммуникативный центр.*

Ilova konstruksiya sintaktik-stilistik hodisa sifatida juda ko‘plab tillarda maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarining tekshirish obyekti bo‘lgan ko‘p sonli maqolalar, monografik asarlar yozilgan, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari hikoya

qilingan [2; 65-b.]. Ushbu ilmiy izlanishlar doirasida ilova konstruksiya murakkab sintaktik butunlikning strukturaviy guruhlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Murakkab sintaktik butunlik – bu o‘z navbatida matnning bir strukturaviy ko‘rinishidir.

Demak, ilova konstruksiya murakkab sintaktik butunlikning struktural turlaridan biri bo‘lib, hozirgi davrda zamonaviy tilshunoslik fanida murakkab sintaktik butunlik sintaktik-stilistik hodisa sifatida ko‘plab ilmiy izlanishlarning tekshirish obyektiga aylanmoqda va uning yangi-yangi ko‘rinishlari yuzaga kelayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Fikrimizning isboti uchun murakkab sintaktik butunlikka nisbatan rus tilida rasmiylashtirilgan quyidagi terminologik tushunchalarni keltirishni o‘rinli deb hisoblaymiz: «Slojnoye sintaksicheskoye syeloye», «slojnыye sintaksicheskiye kompleksы», «slojnoye sintaksicheskoye yedinstvo», «prozaicheskaya strofa», «krupnыy tekst», «bolshoye sintaksicheskoye syeloye», «obshirnыy sintaksicheskiy kompleks» [2; 71-b.].

Shunday qilib, murakkab sintaktik butunlikka nisbatan qo‘llanilayotgan bunday xilma-xil terminologik tushunchalar qanday nomlanishidan qat’iy nazar, ular yagona lingvistik mohiyatga ega bo‘ladi va faqat shu sintaktik stilistik hodisa uchun xizmat qiladi. Lekin, murakkab sintaktik butunlikning lingvistik mohiyatini izohlashda albatta ularning struktural turlarini ham e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Bunda mustaqil gaplar bir-biri bilan harakat-holat orqali bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisining ma’nosini aniqlab, to‘ldirib, izohlab keladi. Baьzi hollarda ularning konkretlashtirilgan ma’no xususiyatlari umumlashtirilishi ham mumkin.

Murakkab sintaktik butunlikning struktural tuzilishi va ma’no xususiyatlarining qanday bo‘lishligi ularni tashkil qiluvchi komponentlarning grammatik jihatdan ifodalanishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bunday hollarda sintaktik birliklarni tashkil etishda ishtirok etuvchi komponentlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan sintaktik aloqalarning turini va xarakterini aniqlash zarur, chunki ular o‘rtasidagi sintaktik aloqalar murakkab sintaktik butunlikning struktural turlarga ajratishda muhim rol uynaydi

Ilovali bog‘lanishlarga asoslangan bu murakkab sintaktik butunlik o‘zining strukturaviy shakllanishi bilan tizma va parallel aloqalarga asoslangan murakkab sintaktik butunliklardan farq qiladi. Bu farq eng avvalo asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning intonasion tugallikka ega bo‘lishi bilan ifodalanadi. Bunday murakkb sintaktik butunlik komponentlari o‘rtasida «nuqta» tinish belgisining qo‘yilishi, birinchidan, murakkab sintaktik butunlik tarkibida keluvchi asosiy ifodaning grammatik jihatdan mustaqilligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, unga birikib keluvchi ilovali elementlarning ham strukturaviy va ham intonasion jihatdan mustaqil komponent emasligini ko‘rsatadi. Ilovali elementlar o‘zlari bog‘liq bo‘lgan komponentlarga nisbatan qo‘shimcha ma’no bildirib, uning mazmunini konkretlashtirib, to‘ldirib, kengaytirib, boyitib va izohlab keladi. Ilovali elementlar faqatgina ilova konstruksiya tarkibidagina ilovali elementlar funksiyasida kela olishi mumkin. Ilovali elementlarga xos bo‘lgan bunday xususiyatlarni kontekst namunasida ham ko‘rish mumkin. Masalan, kontekstdan ajratib olingan gap grammatik mustaqillikni saqlasa ham, kontekstdagi boshqa gaplar bilan bog‘liq bo‘lgan fikriy tugallikni yo‘qotadi. Agarda ilova konstruksiya tarkibidan ilovali elementlar ajratib olinsa, u holda ilova konstruksiya o‘zining ilova konstruksiya ekanligi to‘g‘risidagi lingvistik mohiyatini yo‘qotadi.

Ilova konstruksiya yoki boshqacharoq qilib aytganda ilovali aloqalarga asoslangan murakkab sintaktik butunlik boshqa struktural turlariga o‘xshash bog‘lanishli nutq jarayonida fikriy tugallikni saqlash va uni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi. Fikran va sintaktik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan gaplar birlashmasi murakkab sintaktik butunlik deyiladi, uning ilova aloqalarga asoslangan struktural turi esa ilova konstruksiya deb ataladi.

Ilova konstruksiya o‘z strukturaviy tuzilishiga ko‘ra ikki qismdan iborat bo‘ladi: asosiy qism va ilovali elementlar (ilovali elementlarning soni birdan oshiq bo‘lishi mumkin). Ilovali elementlarning mazmuni ham sintaktik va ham semantik jihatdan salmoqliroq bo‘ladi, chunki ular doimo logik urg‘u oladi.

Französische Wörter oder Satze hatte er nicht gedacht. Kurz vor dem Sprung nicht und auch vorher nicht [Herbert Otto 1972: 258].

Bu yerda ilova konstruksiya bir-biri bilan o‘zaro mazmuniy aloqada bo‘lgan gaplarning yig‘indisidan tashkil topgan yagona abzasdan iborat. Bu ilova konstruksiyada tasvirlanayotgan voqea-hodisa oila hayoti bilan bevosita bog‘liq. Tasvirlanayotgan voqeaning oila uchun, oilani saqlab qolish uchun muhimroq tomonlarini ko‘rsatish maqsadida yozuvchi ayrim sintaktik figuralarga murojaat qiladi. Ana shunday sintaktik figuralar funksiyasida uzluksiz harakterga ega bo‘lgan ilovali elementlar keladi. Bu ilovali elementlar genitiv kelishigini talab qiluvchi predloglar yordamida ifodalanib keladi, strukturaviy jihatdan sodda strukturaviy ilovali elementlardir. Biroq, bu ilovali elementlar sodda strukturaviy ilovali elementlar hisoblansa-da, biri ikkinchisidan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi.

Selbst die Mutter geht nicht mehr gern in den Wald. Nur um die Mittagszeit wagt sie sich bis an die Lichtung und holt Gras für die Ziege. Auch Beeren. Und Pilze [Bruns Marianne 1972: 96].

Yuqoridagi misolda ilovali elementning qo‘shimcha chegaralash, ayirish, ta’kid, ilova kabi ma’nolari ilovali elementlarning qo‘shimcha ma’nolariga qo‘shilib, asosiy ifoda tarkibida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni konkretlashtirib, to‘ldirib, izohlab, rivojlantirib keladi. Ilova konstruksiya komponentlar tarkibidagi harakat, holat yoki belgi bir paytda ketma-ket ro‘y beradi.

Ilovali elementlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni

o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarda ilovali elementlarga emas, balki ularning ilovali elementli birikmalar tarkibida yadrolarga logik urg‘u tushishi alohida ta’kidlanadi. Ilovali elementlar yordamchi suz turkumlari guruhiga taalluqli bo‘lgani uchun, o‘z leksik ma’nosiga ega bo‘lmaganligi, o‘zgarmaydigan, turlanmaydigan, tuslanmaydigan so‘zlar hisoblanganligi degan tushunchalar kam emas, sababi ular o‘zlarida logik urg‘uni qabul qilmaydi. Biroq matn doirasida sodir bo‘ladigan vaziyatlar, kontekstual muhitlar konkret misollar ham ilovali elementlarning logik urg‘uga ega bo‘lishini tasdiqlamoqda.

Demak, misolda ilovali element funksiyasida keluvchi so‘z va so‘z birikmalari, ilovali elementlar ham aniq bir kontekstual muhitlarda faqatgina logik urg‘uga ega bo‘lishigina emas, balki ularning kommunikativ birliklar funksiyasida ham qo‘llanilishini alohida ta’kidlaydi. Ilovali elementlarga xos bo‘lgan bunday xususiyatlar, birinchidan, ilovali elementlar to‘g‘risidagi tushunchalarni konkretlashtirishga, kengaytirishga sabab bo‘lsa, ikkinchidan, ularga xos bo‘lgan bunday xususiyatlarni ochib berishda ko‘plab yozuvlarning ijodiy faoliyati bilan tanishishni va ularni o‘rganib chiqishni taqozo etadi.

Ushbu ilova konstruksiyalar tarkibidagi ilovali elementlar so‘z yoki ilovali so‘z birikmalari yordamida ifodalanadi. Misoldagi ilovali element funksiyasida keluvchi so‘zlar asosiy ifoda tarkibida keluvchi ja so‘zining takroriy variantidir, ya’ni ilovali elementlar takroriy tamoyil asosida yuzaga keladi. Takroriy tamoyil asosida hosil bo‘luvchi ilovali elementlar biror-bir yangi xabar bildirmasa-da, biroq uning muhimligini ko‘rsatish va kitobxonning diqqat-e’tiborini alohida tortish maqsadida u takrorlanadi. Odatda matnlar tarkibida semantik va stilistik jihatdan muhimroq bo‘lgan bo‘lakni alohida ta’kidlash uchun uni takrorlaydi.

Demak, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda shu narsani bu yerda alohida ta’kidlash lozimki, tilning pragmatik vazifasini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etayotgan presuppozisiya, denotativ, konnotativ, eksplisitiv va implisitiv omillar bu yagona omillar emas, balki ular kelajakda olib boriladigai ilmiy izlanishlar bilan to‘ldirilishi, boyitilishi mumkin degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solganik G.Ya. Sintaksicheskaya stilistika (Slojnoye sintaksicheskoye syeloye). Uchebnoye posobiye. M., 1991, - 182 s. 67.
2. Tursunov B.T., Oblakulova S.X. Bibliograficheskiy ukazatel po voprosam slojnogo sintaksicheskogo syelogo, prisoyedineniya, parsellirovaniya. - Samarkand: SamGU. 1982. -72 s.
3. Tursunov B.T. Prisoyedineniye kak osobыy tip sintaksicheskoy svyazi. Diss… d-ra filol. nauk. – Sankt-Peterburg, 1993. – 465 s.
4. Bruns Marianne. Die Lichtung. Mitteldeutscher Verlag Halle (Saale) 1972.460
5. Herbert Otto. Zum Beispiel Josef.Aufbauverlag Berlin und Weimar, 1972, 285 S.
6. Reinowski Werner Zwei Brüder. Mitteldeutscher Verlag Halle (Saale), 1972, 562 S.

Ra’no MAVLONOVA,
O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti o‘qituvchisi,
mavlonovarano567@gmail.com

TARJIMA NAZARIYASI RIVOJLANISH PARADIGMASI

Annotatsiya: ushbu maqolada tarjima nazariyalaridagi o‘sish, tarjimonlik fanlariga doir tahlil bilan tanishtirish va tarjimaga oid hozirgi paradigmani yoritib berishni maqsad qiladi. Kiritilgan ma’lumotlar hujjatlardan hamda axborot beruvchi manbalardan olindi. Yig‘ilgan ma’lumotlar usullari mazmun tahlili va mavzuga doir tadqiqotlardan iborat. To‘plangan ma’lumotlar o‘zaro tahlil orqali sinchiklab o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: *tarjima nazariyasi rivojlanishi, tarjima tahlili, tarjimonlikni o‘qitish, tarjimonlik tadqiqoti, paradigma.*

Аннотация: целью этой статьи является представить развитие теорий перевода, провести анализ наук о переводе и пролить свет на современную парадигму перевода. Введенная информация получена из документов и источников информации. Методы сбора данных включают контент-анализ и тематические исследования. Собранные данные были тщательно проанализированы посредством перекрестного анализа.

Ключевые слова: *развитие теории перевода, анализ перевода, преподавание перевода, исследование перевода, парадигма.*

Annotation: this article aims to introduce the growth in translation theories, analysis of translation sciences and shed light on the current paradigm of translation. The entered information was obtained from documents and sources. Methods of data collection include content analysis and subject-specific research.

Key words: *translation theory development, translation analysis, translation teaching, translation research, paradigm.*

Ilm-fan va texnologiya rivoji yuqori sur'atlarda o‘sib bormoqda. Bu o‘sish hayotimizning deyarli barcha sohalarida ko‘zga tashlanadi. Fan va texnologiyadagi bu keskin rivojlanish boshqa sohalarga, ayniqsa ta'lim sohasiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Bir tarafdan, fan va texnologiyadagi o‘sish rag‘batlantiruvchi omil bo‘lsa ham, boshqa tomondan shuni anglashimiz kerakki, agar faqat songa diqqat qaratsak, bu rivojlanish jiddiy muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu rivojlanish eski standartlar bilan emas balki yangilanib borayotgan sifat darajasi bilan muvozanatda bo‘lishi zarur. Shu bois rivojlanishdan ortda qolishning ta'sirini kamaytirish turli jabhalarda doimiy va davomli ravishda samarali harakatlarni talab qiladi.

Amalga oshirilgan sa'y-harakatlardan biri tarjima faoliyatidir. Ilm-fan va texnologiyaga oid tarjimalar qilish jarayoni hali hanuz zarur bo‘lib qolmoqda, chunki rivojlanayotgan O‘zbekiston fan va texnologiya sohasidagi taraqqiyotni ilmiy va texnologik kitoblarni xorijiy tillardan o‘z tiliga yoki aksincha o‘z tilidan xorijiy tillarga tarjima qilish orqali yaxshilashni maqsad qilgan.

Shunday qilib, agar tarjimani yakka tartibda amalga oshirish shart bo‘lsa, unda Sakriy tomonidan keltirilgan fikr haqiqatan ham tushunarli bo‘lar edi, shu sababli tarjimon ikki tilni o‘zlashtira olishi bilan bir qatorda, tarjima nazariyasini va tarjima qilinayotgan sohadagi bilimlarning nozik tomonlarini bilishi kerak. Shu bilan birga, Doherti [2014: 82] ham tarjimon yaxshi tarjima qilish uchun ega bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy jihatlarni keltirib o‘tadi:

1) tarjimon keltirilgan manbadagi mavjud bo‘lgan mazmun va muallifning maqsadini to‘liq tushunishi kerak;

2) tarjimon ham manba keltirilgan tilda, ham tarjima qilinishi kerak bo‘lgan tilda mukammal til bilimiga ega bo‘lishi kerak;

3) tarjimon so‘zma-so‘z tarjima qilishga intilishdan qochishi kerak;

4) tarjimon kunlik tez-tez ishlatiladigan iboralardan foydalana olishi kerak;

5) tarjimon o‘z tarjima ishida material va manba tilining mohiyatini yoritib bera olishi kerak.

Tarjima qilingan asarlarning natijalarini solishtirish uchun bir nechta kutubxona va kitob do‘konlariga borgan ma'qul. Cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, u yerda sotib olishga yaroqli tarjima qilingan kitoblar mavjud. Biroq mavjud bo‘lgan tarjima qilingan kitoblar soni muhim emas. Asosiy masala – sifatli tarjima namunasi topa olishingizda. Cheklangan songa kelsak, bu kitobxonlar uchun unchalik muammo emas, ular uchun kitob haqiqatan ham yuqori sifatli yoki yo‘qligi muhimroq. Asosiy muammo: tarjima muvaffaqiyatli bo‘ldimi?

Albatta, har bir tarjimon yaxshi tarjimani yetkazib berishi kerak. Larson [1991: 531] ta'kidlaganidek, har bir tarjimon tarjimaning yaxshi sifatga ega bo‘lishini kutadi. Tarjimonlar bu borada muvaffaqiyatga erishgan yoki yo‘qligini qayerdan bilishadi? Tarjimonlar tarjima ishining sifati va natijalarini bilish uchun uni sinovdan o‘tkazishi kerak. Larson tarjimon nafaqat tarjimasini sinchkovlik bilan tekshirishga tayyor bo‘lishi, balki o‘z tarjimasini sinovdan o‘tkazish uchun ham berishi kerakligini qo‘shimcha qildi [1991: 352]

Nababan [1997: 75] tarjima sifatini baholash tarjima ishini tanqid qilish demakdir, deb izohlaydi. Tarjima asarini tanqid qilish juda qiyin ish, chunki bu ishni bajarish uchun noyob qobiliyat talab etiladi. Shuningdek, u har tomonlama samarali izlanishlar orqali tarjima asarini munosib va xolisona baholash mumkinligini ta'kidlab o‘tdi [1997: 77]. Demak, muayyan tarjima asarini chuqur o‘rganish bilan tarjima ishining sifati ma'lum bo‘ladi. Tarjima ishini to‘g‘ri baholash, tekshirib ko‘rish va aniq natijalarga erishish uchun tarjima ishi ilmini o‘rganish kerak.

Tarjima faqat matn ma'nosini bir tildan boshqa tilga o‘tkazish jarayonimi? Bunday faoliyatni tahlil qilish va boshqarish uchun tarjimonlik sohasidagi bir qator mutaxassislar ko‘plab xususan, lingvistik, sotsiolingvistik, kommunikativ, erkin, so‘zma-so‘z, germenevtik, semiotik, aktuallik, Skopos, Marksistik va transformatsion nazariyalarni tavsiflab berdilar. Garchi eng yaxshi tarjimonlik mutaxassislarining aksariyati turli tarjima nazariyalaridan juda kam foydalanadi yoki umuman foydalanishmaydi. Ular buni vaqtni behuda sarflash deb hisoblashadi, ayniqsa, eng professional tarjimonlar nazariyachilar tomonidan o‘rnatilgan juda ko‘p qoidalarni muntazam va doimiy holda buzishadi [Nida, 2001: 1].

Foydalanuvchilar uchun zaruriy jihat va umumiy talab – bu aniqlik. Agar tarjima qilingan matnni o‘qish qulay bo‘lsa, bu haqiqatan ham qo‘shimcha yutuq va agar u madaniyatga mos kelsa, tarjima muvaffaqiyatga erishishi aniq [Nida, 2001: 3].

Olimlar tarjima nazariyasiga bog‘liq bo‘lgan turli yo‘nalishlar bo‘yicha farqli qarashlarga ega bo‘lishi mumkin, masalan, Edvin Gentzler beshta yondashuvni tadqiq qilgan: Shimoliy Amerika tarjima ustaxonalari, tarjimonlik fani, dastlabki tarjimashunoslik fanlari, politizimlar (ko‘p tarmoqli tizimlar) va dekonstruksiya (tanqidiy tahlilning bir shakli) [Gentzler, 2017: 187]; Meri Snell-Xornbi tarjimonlikni mustaqil fan, pragmatik, madaniy va fanlararo o‘zgarish, empirizm (nazariy umumlashtirishni inkor qilib, hissiy idrokni, tajribani bilishning birdan bir manbayi deb biladigan falsafiy yo‘nalish), globallashuv va sotsiologiyadagi burilish sifatida aytib o‘tadi [Snell-Hornby, 2006]; Nida filologik tushunchalarga asoslangan nazariyalarni, lingvistik tushunchaga asoslangan nazariyalarni va ijtimoiy-semiotik nazariyalarni ko‘rib chiqdi [Nida, 2001: 108-113]; Entoni Pim esa tenglik, maqsad, tavsif, noaniqlik, mahalliylashtirish va madaniy tarjima kabi bir qator namunalarni kuzatdi [Pym, 2010].

Tarjimada lingvistik yo‘nalish, asosan, sotsiolingvistik faoliyat bilan kengaytirildi, bunda tilning tuzilishiga emas, balki so‘zlovchilar va yozuvchilar tomonidan qo‘llaniladigan tilning o‘rniga e'tibor qiladi. Sotsiolingvistika til va tilshunoslikdagi daraja va o‘lchovlarning vazifalariga, tildan foydalanishdagi va o‘tmishda ba'zi tilshunoslar faqatgina tasodifiy o‘zgarishlar sifatida qaragan narsalarning tizimli xarakteridagi kuch va birdamlikning ahamiyatiga diqqat qaratadi [Nida, 2001 : 111].

Tarjimaning madaniy nazariyasi bosqichida olimlar madaniyatga e'tibor berishadi, masalan, Lorens Venuti xorijiylashtirish va mahalliylashtirishning tarjima strategiyalari haqida aytib o‘tgan. Ko‘rinmaslik – bu hozirgi Anglo-Amerika madaniyatidagi tarjimonning holati va faoliyatini tasvirlash uchun ishlatilgan atama. Bu bir-birini taqozo qiluvchi ikki hodisaga ishora qiladi: biri nutqning va ingliz tilida tarjimon nazoratidagi illyuzionistik (xayolot yaratishga moyil) ta’sir; ikkinchisi esa Qo‘shma Shtatlarning madaniyatlararo ham ingliz ham chet tillarini o‘qish va baholash bo‘yicha amaliyotlari.

Yuqoridagi munozaradan shunday xulosaga kelish mumkinki, birinchidan, tarjima nazariyalarining rivojlanishini to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin: tarjimaning adabiyot nazariyasi, tarjima nazariyasi lingvistikasi, tarjima madaniyati nazariyasi va tarjimaning professional nazariyasi. Tarjimaning adabiyot nazariyasi davrida tarjimonlar tarjima san’ati va estetikasiga alohida e’tibor qaratgan bo‘lsa, lingvistik tarjima nazariyasi davrida tarjimonlar grammatika, so‘ngra til ma’nosiga, nihoyat, pragmatik tilshunoslikka e’tibor berishgan. Tarjima madaniyati nazariyasi davrida tarjimonlar madaniy xabarlarni uzatish va mahalliy hamda xorijiy tarjima strategiyalari asosidagi mualliflarga oid muzokaralarga alohida e’tibor qilishadi. Tarjimaning professional nazariyasi davrida maxsus tarjimonlar professional bilim va ko‘nikmalarni egallash va qo‘llashga diqqat qaratishadi. Tarjimonlar tarjimonlik sohasida malakali bo‘lishlari uchun tarjimashunoslik sohalari bo‘yicha professional bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgani ma’qul.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Doherty, S., & O‘Brien, S. Assessing the Usability of Raw Machine Translated Output: A User centered Study Using Eye Tracking. - International Journal of Human-Computer Interaction, 30(1), 2014. – P. 40–51.
2. Gentzlerl. E. Translation and Rewriting in the Age of Post-Translation Studies. – London, 2017. – P.77-79.
3. Larson, Mildred L. Penerjemahan Berdasar Makna. Terjemahan Kencanawati Taniran. – Jakarta: Arcan, 1991.
4. Miyanda, F. Total Meaning and Equivalence in Translation. NAWA Journal of Language and Communication. - University of Bostwana, 2004. – P. 120.
5. Nababan, M. Rudolf. Aspek Teori Penerjemahan dan Pengalihbahasaan. –Surakarta: UNS Press, 2011. – P. 77.
6. Nida,. E.A. Language and Culture: Contexts in Translating. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press. – P. 108-113.
7. Pym, Anthony. Natural and Directional Equivalence in Theories of Translation . - John Benjamins Publishing Company, 2010. - P. 271–294.
8. Snell-Hornby. The Turns of Translation Studies: New Paradigms or Shifting Viewpoint. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2006. – 45 p.

Islomjon TURDIYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi “Ingliz tili” kafedrasi o‘qituvchisi

INGLIZ VA O‘ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqola tadqiqot obyekti bo‘lmish ish yuritish terminlarining ikki til, ya’ni o‘zbek va ingliz tillarida o‘rganilishi haqida bo‘lib unda turli tadqiqotchilarning ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlari ko‘rib chiqiladi va xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: *amaliy tilshunoslik, ish yuritish terminlari, korpus lingvistikasi, qadimgi yozishmalar.*

Annotation: this article is about the study of office work terms, which is the object of research, in two languages, Uzbek and English, and it reviews and summarizes the research conducted by various researchers in this field.

Аннотация: данная статья посвящена изучению канцелярских терминов, являющихся объектом исследования, на двух языках – узбекском и английском, а также рассматривает и обобщает исследования, проводимые различными исследователями в этой области.

Ish yuritish terminologiyasi (maxsus yoki texnik terminologiya deb ham ataladi) ni tadqiq etish tilshunoslikning, xususan, amaliy tilshunoslik sohasining zarur bo‘limlaridan biridir. Ushbu sohada ixtisoslashgan tilshunoslar

ko‘pincha turli dunyo tillarida maxsus terminologiyani ishlab chiqish, standartlashtirish va qo‘llashga e’tibor berishadi.

Ish yuritish asosini hujjatlar tashkil qilib, ularning paydo bo‘lish tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ma’lumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyoda arxiv (hujjatlar to‘plami) yozuv bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan. Demak, ish yuritish sohasi qadimiy xalqimiz madaniyati, tarixi, tilning ajralmas qismi sifatida asrlar osha rivojlanib kelgan.

O‘rta Osiyo hududidan topilgan qadimgi madaniy obidalar, turli moddiy jismlarga bitilgan ma’lumotnomalar ajdodlarimizning qadimdan o‘ziga xos hujjatchilik an’analariga rioya qilganliklaridan dalolat beradi. O‘rta asrlarda ish yuritish huquqiy maqomga ega bo‘ldi, davlat mahkamasida munshaot tizimi shakllandi va qator hujjat turlari paydo bo‘ldi. Ish yuritish sohasi, ma’lum millatimizning uzoq va murakkab o‘zgarishlarga boy tarixini o‘zida aks ettirgan. Bugungi kunda fanga tariximizning turli davrlarida o‘rxun-enasoy, sug‘d, eski uyg‘ur, arab va boshqa yozuvlarda bitilgan juda ko‘plab hujjatlar, umuman, yozma manbalar ma’lum. Sharqda X-XIX asrlarda yorliq, farmon, noma, bitimlar, arznoma, qarznomalar, vasiqa, tilxat yoki mazmunan shunga yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqalgan. Yorliqlar mazmunan xilma-xil bo‘lgan: xabar, tavsif, farmoyish, bildirish, tasdiqlash va h.k. Bu o‘rinda To‘xtamishxonning 1393-yilda polyak qiroli Yag‘aylaga yo‘llagan yorlig‘i, Temur Qutlug‘ning 1397-yildagi yorlig‘i, Zahiriddin Boburning otasi Umarshayx Mirzoning marg‘ilonlik Mir Sayid Ahmad ismli shaxsga 1469-yilda bergan yorlig‘i, Toshkent hokimi Yunusxo‘janing 1797-yil 2-iyunda Peterburgga – Rossiya podshosiga o‘z elchilari orqali yuborgan yorlig‘i va boshqalarni eslab o‘tish mumkin. Mazkur davr yorliqlarida o‘ziga xos lisoniy qolip shakllangan, yorliqlar matn jihatidan an’anaviy tarkibiy qismlarga ega bo‘lgan. Masalan, eslab o‘tilgan yorliqlarning birinchisi – «To‘xtamish so‘zim Yag‘aylag‘a» deb, ikkinchisi «Temur Qutlug‘ so‘zim» deb, uchinchisi esa – «Sulton Umarshayx Bahodur so‘zim» deb boshlangan. Bayonda ham muayyan qolip bor, shuningdek, albatta, yorliq yozilgan sana va joy ko‘rsatilgan. XIX asrda Qo‘qon xonligida keng tarqalgan hujjatlardan biri «patta»lardir. Pattada ma’lum kishiga muayyan miqdordagi pul, mahsulot, urug‘ (don) yoki boshqa narsalami berish lozimligi haqida ma’lumot aks ettirilgan. Patta matnlarida ham o‘ziga xos doimiy muayyan tarkib va nutqiy qolip borki, bu ham o‘zbek (turkiy) hujjatchiligi uzoq tarixiy tajriba va tadrijiy takomil mahsuli ekanligining dalilidir.

Ish yuritish hujjatlari terminologiyasini, xususan, tilshunoslik sohasida o‘rganish ko‘pincha tilshunoslar, amaliy tilshunoslar va terminologiya bo‘yicha mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Aynan shu sohada o‘z faoliyati bilan umume’tirof etilgan aniq olimlar bo‘lmasa-da, terminologiya, amaliy tilshunoslik va hujjat tahlilining kengroq sohalariga salmoqli hissa qo‘shgan bir qancha tilshunos va tadqiqotchilar bor. Mana bir nechta taniqli shaxslar va ularning hissalari: Eugene Garfield: Eugene Garfield ma’lumot qidirish va terminologiyani boshqarish sohasiga katta hissa qo‘shgan taniqli axborot olimi edi. Uning iqtiboslarni tahlil qilish va indekslash tizimlari bo‘yicha ishi hujjatlarni, shu jumladan ish yuritish kontekstidagi hujjatlarni tashkil qilish va qidirishga katta ta’sir ko‘rsatdi. Garfildning kashshof tadqiqotlari zamonaviy axborot faniga asos soldi. Xuan C. Sager: Xuan C. Sager terminologiya ma’lumotlar bazalari va terminologiyani boshqarish tizimlarini ishlab chiqishdagi faoliyati bilan mashhur tilshunos va terminologiya mutaxassisi edi. Uning tadqiqotlari aniq va standartlashtirilgan til muhim bo‘lgan sohalarda, jumladan, huquqiy va ma’muriy hujjatlarda ta’sir ko‘rsatdi. Sue Ellen Wright: Sue Ellen Wright terminologiyani boshqarish va terminologiyani ajratib olish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan tilshunos. Uning ishi yuridik, biznes va texnik yozuvlar kabi katta hajmdagi ofis hujjatlarini ishlab chiqaradigan sohalarda amaliy qo‘llanmalarga ega . Garold B. Allen: Garold B. Allen tilshunos va hujjatlarni tahlil qilish va axborot qidirish sohasida mutaxassis edi. Uning tadqiqotlari hujjatlarni tasniflash tizimlarini ishlab chiqish va ish yuritish hujjatlarini tushunish va boshqarish uchun tegishli bo‘lgan hujjatlar ichidagi ma’lumotlarni tashkil etishga qaratilgan . Klaus-Dirk Shmits: Klaus-Dirk Shmits terminologiya bo‘yicha mutaxassis bo‘lib, u turli sohalarda, jumladan biznes va ma’muriy aloqada terminologiyani standartlashtirish va boshqarish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning ishi ofis kontekstlarida terminologiya resurslarini ishlab chiqish uchun amaliy ahamiyatga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu tadqiqotchilar ish yuritish hujjatlari terminologiyasi bilan bog‘liq sohalarga salmoqli hissa qo‘shgan bo‘lsa-da, ushbu aniq mavzuni o‘rganish ko‘pincha turli fanlar, jumladan, tilshunoslik, axborot fani va hujjat aylanishi mutaxassislari o‘rtasidagi hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, atamashunoslik va hujjatlar tahlili sohasi doimiy ravishda rivojlanib bormoqda, uning rivojlanishiga ko‘plab tadqiqotchilar va amaliyotchilar hissa qo‘shmoqda. Stiven Doheny-Farina tomonidan "Ish joyidagi texnik aloqa: Ofis bilan bog‘liq janrlarni o‘rganish": Ushbu tadqiqot ofis sozlamalarida texnik aloqada qo‘llaniladigan janrlar va tillarni o‘rganadi. U ishbilarmonlik aloqalarida muayyan atamalarning qo‘llanilishi va chastotasini o‘rganadi. Ushbu tadqiqotlar ingliz tilida ish yuritishda ishlatiladigan til va terminologiya haqida tushuncha beradi. Ular ofis bilan bog‘liq turli vazifalar va muhitlarda tushunish, muloqot va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, ish yuritish hujjatlari terminologiyasini o‘rganish tilshunoslar, tarjimonlar,

terminologlar, leksikograflar va til mutaxassislarini o‘z ichiga olgan ko‘p tarmoqli sohadir. Ushbu mutaxassislar turli tillar va madaniyatlarda ofis hujjatlarida qo‘llaniladigan maxsus lug‘atning ravshanligi, aniqligi va izchilligini ta'minlash orqali professional kontekstda samarali muloqotni osonlashtirish uchun ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov I., Ergashev F., Bo‘taev A. Arxivshunsolik. – Toshkent: Sharq, 1997.- B.Z.
2. Garfild, E. (1979). Iqtiboslarni indekslash: uning nazariyasi va fan, texnologiya va gumanitar fanlarda qo‘llanilishi. Wiley.
3. Rayt, S. E. (2019). Kundalik hayotda terminologiya. Jon Benjamins nashriyot kompaniyasi.
4. Sager, J. C. (1990). Terminologiyani qayta ishlash bo‘yicha amaliy kurs. Jon Benjamins nashriyot kompaniyasi).
5. Shmitz, K.-D. (2006). Xalqarolashuvning terminologiyaga ta’siri: Germaniya biznesi va boshqaruvi misoli. Jon Benjamins nashriyot kompaniyasi.
6. Sodiqov Q. Eski uyglur yozuvi. – T., 1989. 34-35-betlar.
7. Григорьев А.П. Конкретные формуляры чингизидских жалованных грамот XIII-XV вв. //: Тюркологический сборник. - М., 1978, стр. 198-218.
8. Троицкая А.JI. Ганчи, Ганчибоши в Кокандском ханстве (XIX в.) // Тюркологические исследования. М. - Д., 1963. стр. 252.

Toshqobil MUQUMOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SOMATIZMLAR ISHTIROK ETGAN QOFIYADOSH FRAZEOLOGIK BIRLIKLARGA DOIR

Annotatsiya: mazkur maqolada tildagi milliy olam manzarasi tushunchasining qofiyadosh frazeologiyada aks etish usullaridan biri hisoblangan somatizmlar ishtirokidagi qofiyadosh frazeologizmlarning ikki til sathida lingvokulturologik xususiyati jihatidan tahliliga e'tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *somatizm, ibora, frazeologizm, frazema, frazeologik birlik, frazeologik iboralar semantikasi, qofiyadoshlik, somatik leksema.*

Annotation: this article focuses on the analysis of rhyming phraseology with the participation of somatisms, which is one of the ways of reflecting the concept of the national worldview in language in rhyming phraseology, in terms of the linguistic and cultural characteristics of two languages.

Key words: *somatism, phrase, phraseologism, phraseme, phraseological unit, semantics of phraseological phrases, rhyming, somatic lexeme.*

Аннотация: данная статья посвящена анализу рифмованной фразеологии с участием соматизмов, которая является одним из способов отражения понятия национального мировоззрения в языке в рифмованной фразеологии, с точки зрения лингвокультурных особенностей двух языков.

Ключевые слова: *соматизм, словосочетание, фразеологизм, фразема, фразеологическая единица, семантика фразеологизма, рифма, соматическая лексема.*

Tilshunoslikda ushbu birliklarning naqadar murakkab obyekt ekanligi bu sohada hozirgi kunga qadar qilingan va hozirda qilinayotgan ilmiy izlanishlar orqali bilishimiz mumkin. Frazeologiya (grekcha phrasis – ifoda va logos – ta’limot) atamasi ikki ma’noda ya’ni biror bir tilning frazeologik tarkibini o‘rganuvchi soha va shu sohaning frazeologizmlari jamlanmasi sifatida qaraladi.

Tilshunoslik sohasida inson tana a’zolari nomlariga nisbatan qo‘llaniladigan “somatizm” atamasi birinchi marotaba eston tilidagi frazemalarni o‘rgangan olim F.Bakk amaliyotda qo‘llagan. U o‘zining dissertatsiyasida eston tilidagi frazeologik fondning anchagina qismini somatik frazemalar tashkil etishini ta’kidlab o‘tgan. “Somatik frazeologizm” atamasi esa birinchi marta rus olimi E.M.Mordkovich tomonidan inson a’zolari bilan bog‘liq “Семантико–тематические группы соматических фразеологизм” nomli maqolasida qo‘llagan edi. XX asrning ikkinchi yarmidan somatik frazeologizmlarni o‘rganish, shuningdek, ularning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etish boshlangan deyish mumkin. Somatik frazeologizmlarni bir til doirasida o‘rganish ishlarini 1964 yilda F.Bakk nomzodlik dissertatsiyasida boshlab bergan. U eston badiiy tilidagi somatik frazeologizmlarni o‘rgandi va “somatizm” atamasini yoritib berdi. Ilk marta aynan somatik frazeologik birliklar “component” tarkibini funksional – semantik yo‘nalishda 1977 yilda M.V.Oryol o‘z maqolalaridan birida tadqiq etgan. 1980 yilda V.M.Mokiyenko o‘zining “Славянская фразеология” asarida slavyan tilidagi frazeologizmlarni o‘rganib, somatik frazeologik birliklarga ham to‘xtalib

o‘tgan. Xuddi shu yilda R.M.Vayntraub o‘z maqolasida rus tilidagi somatik frazeologizmlarni tadqiq etgan. Somatik frazeologik birliklarni o‘rgangan olimlarning ayrimlari ularni ikki, uch va turli tillar doirasida qiyosiy metod asosida tadqiq etishgan.

O‘zbek tilidagi somatizmlar A.Isayevning “O‘zbek tilida somatik frazeologizmlar” deb nomlangan ilmiy tadqiqotida ham o‘rganilgan bo‘lib, ushbu ilmiy ishda somatizmlar ularning ma’nodoshligi, antonimiyasi, shakldoshlik va tilning kommunikativ funksiyasi kabi xususiyatlari nuqtai nazaridan o‘rganilgan .

Yana shuni ta’kidlash kerakki, ushbu ishida somatik iboralarni diaxron va sinxron aspektlarda o‘rganganligi diqqatga sazovordir. Leksemalarda mavjud bo‘lgani kabi, frazeologik birliklarning mazmun jihatida ham ikki hodisa alohida ajratilib ko‘rsatiladi:

1. Lug‘aviy ma’no, aniqrog‘i – frazeologik ma’no;
2. Baho semasi

Frazeologik ma’no deyilganda frazeologik birlikning voqelikka nisbatan ishlatiladigan lug‘aviy mazmuni tushunilishi hammaga ma’lumdir. Fransuz hamda o‘zbek tillarida boshqa tillardagi kabi somatizmli maqollar bo‘lib, ushbu ishimizda somatiklik xususiyatiga ega bo‘lgan qofiyadosh maqollarni ikki til misolida atroflicha ko‘rib chiqishga harakat qildek.

Avvalo fransuz tilidagi “Pied” (oyoq) somatizmi ishtirok etgan qofiyadosh frazeologik birlik tavsifiga to‘xtalsak: Tel pied, Tel soulier → ushbu frazeologik birlikni o‘zbek tiliga tarjima qilsak Eshagiga yarasha to‘shovi degan tarjima chiqadi. Ya’ni bu keng ma’noli maqol bo‘lib hayotimizning har bir jabhasida qo‘llashimiz mumkin. Masalan: birovga qanday muomala qilsang, undan ham shunday muomala olasan, yoki yozda qanday mehnat qilsang kuzda shunday hosil olasan.

Qofiyadosh frazeologik birliklarda qofiyadoshlikni hosil qilishda somatizmlar ishtirok etish yoki etmaslik holatlarini ko‘rish mumkin. Yuqoridagi frazeologik birlikda qofiyadoshlikni hosil qilishda “oyoq” somatizmi ishtirok etgan: “pied” [pje] – “soulier” [su-lje]. Bu holatda ikkala so‘z tarkibidagi [je] tovushlari ohangdoshlik ya’ni qofiyadoshlikni ta’minlamoqda.

Yuqoridagi misolning variantdoshi sifatida: Tel couteau, Tel fourreau – maqolini keltirish mumkin. Ushbu maqolni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak pichoq qanday bo‘lsa, shunday g‘ilof degan tarjima chiqadi. Lekin bu qofiyadosh frazeologik birlikda somatizm qatnashmagan. O‘zbek tili frazeologiyasida esa bu maqolga ekvivalent sifatida “Salomga yarasha alig” yoki “Eshagiga yarash to‘shovi” kabi turg‘un birikmalarni keltirish mumkin. Bu maqollar orqali shuni aytish mumkin-ki, ikkala til sohiblari bo‘lgan fransuz va o‘zbek xalqlari uchun ham muomala madaniyatida xushmuomalalik hamda qilingan mehnatga yarash natija kutish tushunchalari birdek taalluqlidir.

Fransuz tilidagi “Main” (qo‘l) somatizmi ishtirok etgan qofiyadosh frazeologik birlikka tuxtalsak: À qui se lève matin, Dieu prête la main – ushbu somatik frazeologik birlik harakat-holatni ifodalab kelib, inson kundalik hayotida erta turishning xislati, ya’ni erta turganning ishida baraka bo‘lishi kabi ma`noni ifodalaydi. Bunda ham ko‘rish mumkinki frazeologik birlikda qofiyadoshlikni hosil qilishda “main” (qo‘l) somatizmi ishtirok etmoqda. Bunda “main” [mɛ́] so‘zi “matin” [ma-tɛ́] so‘zi bilan [ɛ́] burun tovushi orqali ohangdoshlikni hosil qilgan. Fransuz tilidagi “Heure du matin, Heure du gain” qofiyadosh frazeologik birligi yuqoridagi maqolga ma’nodosh hisoblanadi. Vaholanki erta turish nafaqat fransuz xalqiga, balki o‘zbek xalqi mentalitiga ham xos bo‘lgan odatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘zbek xalqi orasida quyidagi qofiyadosh frazeologik birlik ishlatiladi. Masalan: Erta turgan ish bitirar, Kech turgan ko‘p turtinar

Bu maqol o‘zbek xalqining erta turishning xosiyati, erta bilan qilingan ishning barakasi bo‘lishini bildirishiga ishonishini bildiradi. Bu o‘zbek xalqiga xos odat hisoblanib, buning isboti sifatida yana bir nechta misollarni keltiramiz. Masalan: Ertalabki ish, Ko‘ngilni qilar xush, – kabi maqollarni keltirish mumkin-ki, erta turish o‘zbek mentalitetiga xos jihat hisoblanadi .

Fransuz tilidagi qofiyadosh frazeologik birliklar orasida “bras” (qo‘l) somatizmi ishtirok etgan quyidagi maqolga e’tibor qaratsak: Bras dessus, Bras dessous (qo‘lni qo‘lga berib yoki bir yoqadan bosh chiqarib kabi o‘zbek tiliga talqin qilsa bo‘ladi). Bu misolda esa ko’rishimiz mumkinki “qo‘l” somatizmi qofiyadoshlikni hosil qilishda qatnashmagan. Ushbu fransuzcha “qo‘l” somatizmi qatnashgan qofiyadosh maqolning o‘ziga xos e’tiborli tomoni shundaki, unda predloglar frazeologik birlik tarkibida tahlil qilishda tayanch vazifasini o‘tagan. Bu qofiyadosh iboralar ichida biz topgan yagona shunaqa misol hisoblanadi. Bunda qofiya hosil qilgan predloglarning ikkalasi ham yo‘nalish ma’nosini ko‘rsatuvchi predlog turidir.

Fransuz tilidagi somatik frazeologik birliklarda inson tana a’zolaridan, asosan, “qo‘l”, “oyoq”, “ko‘z”, “og‘iz” kabilar boshqa a’zolarga nisbatan ko‘proq uchrashini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, fransuz tilida “og‘iz” somatizmi qatnashgan quyidagi qofiyadosh frazeologik birlikka tuxtalsak: Bouche de miel, Cœur de fiel-(tili boshqa-dili boshqa). Ushbu qofiyadosh frazeologik birlikda ham ko‘rishimiz mumkinki somatizm qofiyadoshlikni hosil qilishda qatnashmagan. Qofiyadoshlikni “miel” [mjɛl] hamda “fiel” [fjɛl] so‘zlari hosil qilmoqda.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, fransuz va o‘zbek tillarida somatik birliklar ishtirok etgan qofiyadosh frazeologizmlar muhim ahamiyatga ega. Somatizmlar ishtirok etgan qofiyadosh frazeologik

birliklar yordamida boshqa turdagi frazeologizmlar kabi har bir xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va insonning ruhiy va jismoniy holatlarini namoyon qilish mumkin. Til va madaniyatning o‘zaro uyg‘unligi orqali somatizmli frazeologik birliklarning ahamiyati yuzaga keladi. Shuning uchun ham milliy olam manzarasini vujudga keltirishda ularning roli muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev D. Ayrim somatik frazemalar // Muloqot. 1997-yil 5-son.
2. Saussure F. De. Cours de linguistique générale. – Paris : Payot, 1985.–520 p.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. 2 издание, дополненное. - М.: Научное издательство Большая Российская энциклопедия, 2002. – С. 707.
4. Телия В.Н. Что такое фразеология. – Москва. Наука. 1966. – С. 10.
5. Beneviste E. Problèmes de linguistique générale . – Paris : Gallimard, 1966. – 286 p.
6. Тельмурзаева А. С. Соматизм как компонент фразеологияеской единицы. – С. 414-419. https://elib.bsu.by/bitstream.
7. Gadoeva, M. (2020, December). Comparative analysis of somatism" head" in the English and Uzbek languages in Konference.

Surayyo SAIDOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti,
fakultetlararo chet tillar kafedrasi
katta o‘qituvchisi

TALABALARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI CBI TEXNOLOGIYASI ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada CBI – sohaviy fanlar mazmuniga asoslangan o‘qitish texnologiyasi jahon amaliyotida qo‘llanilib kelayotgan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan biri bo‘lgan texnologiya o‘raganilgan. Kontent mazmuniga asoslangan CBI o‘qitish texnologiyasi – talabalarning xorijiy tilni sohaviy kontent orqali o‘rganadigan o‘qitish texnologiyasi hisoblanishi hamda, tilni o‘z sohalari doirasida tanlangan mavzular orqali qiziqtirishga undaydi, ularga o‘rganilgan malakalarni kontekstda qo‘llash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *CBI texnologiyasi, mavzulashtirilgan, himoyalangan model, kontentga asoslangan CBI o‘qitish texnologiyasi,integrativ yondashuv.*

Annotation: in this scientific article, CBI - teaching technology based on the content of field sciences, which is one of the modern educational technologies used in world practice, is discussed. CBI teaching technology based on content content is considered a teaching technology in which students learn a foreign language through field content and encourages them to be interested in the language through topics selected within their field, allowing them to apply the learned skills in context.

Key words: *CBI technology, thematic, protected model, content-based CBI teaching technology, integrative approach.*

Аннотация: в данной научной статье рассматривается CBI – технология обучения, основанная на содержании полевых наук, которая является одной из современных образовательных технологий, используемых в мировой практике. Технология обучения CBI, основанная на содержании контента, считается технологией обучения, при которой учащиеся изучают иностранный язык с помощью предметного содержания и побуждают их интересоваться языком через темы, выбранные в их области, что позволяет им применять приобретенные навыки в контексте.

Ключевые слова: *технология CBI, тематическая, защищенная модель, содержательная технология обучения CBI, интегративный подход.*

Ingliz tilini o‘qitishda turli qarashlar, texnologiyalar va usullar mavjud bo‘lib, CBI (Content Based Instruction) (keyingi o‘rinlarda CBI texnologiyasi tarzida qo‘llanililadi). Texnologiya jahon miqyosida tillar o‘qitish amaliyotida samarali qo‘llanib kelinayotgan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan biridir. Dastlab, CBI texnologiyasi atamasi bilan Kanadaning ikki tilli konteksti uchun Kvebekda ingliz tilida so‘zlashadigan kichik guruh talabalariga o‘rgatish uchun ishlab chiqilgan. CBI texnologiyasi 1980-yillarda oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy talablarga javob berish uchun to‘liq ishlab chiqilgan [1].

CBI texnologiyasi va uning modellari qo‘llanilish sohasiga ko‘ra, pedagogika – psixologiya yo‘nalishi talabalari

kasbiy soha xususiyatlarini inobatga olib, kasbiy yo‘nalishlarda ingliz tili ta’limi kontentiga singdirildi. Tahlil qilingan modellardan aynan adjunct modeli pedagogika-psixologiya ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalari ‘extensive’ o‘qish turini “Stress psixologiyasi” fani kontenti asosida rivojlantirishda samaradorlik darajasini sinab ko‘rdik. Tadqiqot maqsadi sifatida tanlangan pedagogika - psixologiya yo‘nalishi talabalari ‘extensive’ o‘qish kompetensiyasini CBI texnologiyasi adjunct modeli orqali rivojlantirishda hozirgi kunda yetarlicha tarqalmagan bo‘lib, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili o‘qituvchilari sohaviy fanlar kontentini rivojlantirishda o‘z bilimlariga tayangan holda sohaga mos mavzularda qiziqarli matnlarni tanlash mumkinligini tahlil qilishga erishdik. Misol tariqasida oladigan bo‘lsak, talabalar ehtiyojlari tilni bitta maxsus fan doirasida qiziqarli mavzularga asoslanib o‘rganish CBI texnologiyasi adjunct modelini qo‘llash o‘rinli bo‘ladi.

Ayni paytda CBI texnologiyasi adjunct modeli o‘qituvchi, talabadan o‘z ustida mustaqil hamda hamkorlikda ishlashni talab etadi.CBI texnologiyasi adjunct modeliga asoslangan darslar talabaga mustaqil o‘qishni o‘rgatish, o‘qish jarayonida o‘rgangan ma’lumotlarni anglab yetganliklarini tahlil etish hamda o‘z-o‘zini baholashga ham o‘rgatadi. Odatda CBI texnologiyasi adjunct modeli til materialini fanga tegishli bo‘lgan matn, kontent ustida turli topshiriqlarni uyda bajarishga hamda auditoriyada muhokama qilishga undaydi. Ularnig tavsiyasiga ko‘ra, sohaviy matnlar kalendar reja asosida tanlanadi, rivojlantirish xaritasi tuziladi va maxsus maqsadlarga erishish uchun yo‘naltiriladi. Natijasi kutilgan sohaviy matnning ikki turi farqlanadi. Birinchisi ko‘rsatma asosida matnlar ustida ishlash bo‘lsa, ikkinchisi soha bo‘yicha tanlab olingan darslik yoki gazeta, jurnal maqolalari, media matnlarini erkin tanlash orqali o‘quv jarayoni tashkil etiladi.

CBI texnologiyasi til va kontentni alohida-alohida o‘qitish metodikasini taklif qiladi, ammo soha kontenti bilan til integratsiya qilinadi. “Chet tilda o‘zlashtirilishi talab etilayotgan fanni o‘rganishda til vosita sifatida ishtirok etadi”, deb ta’kidlaydi, Benny Morris. CBI texnologiyasi umumlashtiruvchi atama deb yuritilib, tilning ijtimoiy-pedagogik umumkasbiy fanlar, xususan, pedagogika-psixologiya kabi fanlar tarkibiga kiruvchi fanlarni ingliz tilida o‘rgangan holda turli xil o‘quv materiallaridan foydalanishni tavsiflash uchun ishlatiladi [4].

Quyidagi maqsadlar CBI texnologiyasi adjunct modeliga yo‘naltirilgan kontent tarkibiga kiritiladi: 1. Kontent o‘quv dasturida kontent bilan bog’liq tanlangan mavzular yordamida egallanadi. 2. Vosita tili sifatida o‘rganilayotgan ingliz tilini sohaviy fan kontentini o‘rganish uchun vosita sifatida maqsadli qo‘llashga erishiladi. 3. Ingliz tili sohaviy fan kontenti orqali til va pedagogika-psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. 4. Kontent til integratsiyasi yordamida sohaviy matn extensive o‘qish turi orqali o‘zlashtirilib, o‘qish kompetensiyasi rivojlantiriladi.

Ilmiy–tadqiqot mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda CBI texnologiyasi modellaridan o‘quv jarayonida, pedagogika-psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari o‘qish kompetensiyasini sohaviy matnlardan foydalangan holda rivojlantirish ahamiyati, zarurati hamda samaradorlik natijalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Mavzulashtirilgan model (Theme-based model) (Language Driven) ingliz tilini xilma-xil (ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, siyosiy, ta’lim va tarbiya) kontentga asoslangan holda o‘qitish metodikasi bo‘lib, mazmun bilan til o‘zaro integratsiyalanadi. Bunday yondashuv orqali til alohida o‘qitilmasdan talabalar uchun qiziqarli bo‘lgan kontent ingliz tilida o‘qitiladi. Bundan asosiy maqsad tanlangan mavzular sinchkovlik bilan o‘rganilib, tahlil qilingach, kontent asosida til malakalarini rivojlantirishga erishiladi.

Mavzulashtirilgan modelda til asosiy o‘ringa chiqib, mavzu tanlashda yetakchilik qiladi. Maqsad - talabalarga tildan foydalanishda o‘z ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olishni nazarda tutadi. Mavzulashtirilgan model xilma-xil kontentga doir gazeta, jurnallar, ilmiy matnlardan foydalanishni ko‘zda tutib, ularga autentik vaziyatlarda tildan samarali foydalanish imkonini beradi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan bir nechta o‘quv turlaridan tadqiqot mavzumizga mos keladigan ‘extensive o‘qish turini qo‘llash metodikasini ochib berishda davom etamiz. ‘Extensive’ o‘qish turida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan me’yorlarni yodda tutish maqsadga muvofiq. Bunday me’yorlar sifatida tanlanadigan matn hajmi, talabada qiziqish uyg’otish darajasi, matnni talabaning tilni bilish darajasiga mosligi, matn ma’lumotining yangilik darajasi, boshqa yondosh fanlar bilan integrasiyalanganligi, matnning ishonchli manbalardan olinganligi, kontentni o‘qishga yaroqliligi kabi jihatlariga e’tibor qaratiladi.

Yakuniy ta’limiy maqsad - talabalarga qiziqarli kontent orqali extensive o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam berishni ko‘zlaydi. Mavzuga asoslangan ingliz tilini o‘qitish uchta kontent yaratishga asoslangan modellardan eng samaralisi hisoblanadi, chunki u har qanday o‘quv sharoitida amalga oshirilishi mumkin, chunki, bu model ko‘proq talabalarni extensive o‘qishga undashi bilan birga vaqtni tejash, dars materialini tez va oson egallashni nazarda tutadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, mavzu talabalar qiziqishlariga mos ravishda tanlangani bois, talabalar matnni qiziqish bilan o‘qishga kirishadilar. O‘qituvchi ko‘rsatmasiga binoan, matn hafta davomida

navbatdagi darsgacha o‘qib o‘zlashtirilgach, uni mustahkamlashga qaratilgan mashqlar (TAVI mashqlari) yordamida mustahkamlanadi. Yangi darsda matn davomi o‘qib o‘zlashtirilgach, talaba auditoriyasida keng muhokama qilinadi, matnni mustahkamlash maqsadida post-reading o‘qishdan keyingi summativ (umumlashtiruvchi) va (Q&A: question and answer) savol-javob mashqlari bajariladi. Ta’kidlab o‘tilganidek, extensive o‘qish uchun matn materiali “Stress psixologiyasi” fani mavzulari asosida tanlanadi. Yugandhar mavzuga asoslangan matnni o‘qitishda o‘qituvchi oltita asosiy jihatga e’tibor qaratishi kerak, deb hisoblaydi: 1. O‘rganilayotgan sohaviy matnni o‘qishga mo‘ljallangan til materialidan saralab olinishi. 2. Foydalaniladigan sohaviy matnlar bilan ishlash jarayonida nutqda aks etadigan grammatik va funktsional strukturalarga yetarli e’tibor berilishi. 3. Talabalar o‘quv jarayonida foydalanadigan CBI texnologiyasi adjunct modeli asosida extensive o‘qishni rivojlantirish (chetga chiqmaslik)ni yodda tutishi. 4. Til o‘rganishni osonlashtirish uchun mavzular ketma-ketligi asosida birlashtirilgan qatorini tuzish, ularga doir while-reading. 5. Ingliz tili kasbiy nutq malakalarini rivojlantirish uchun sohaviy matnlardan o‘rinli va samarali foydalanish. 6. Sohaviy fanlar mazmunini yoritib berishga qaratilgan mashq va topshiriqlar tizimini loyihalash, belgilangan kontentga muvofiq extensive o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va topshiriqlar tizimini tuzish [8].

CBI texnologiyasi adjunct modelining ijobiy xususiyatlaridan biri shundaki, dars jarayonida talabalarni kichik guruhlar, juft holda, butun guruhni jalb etgan holda ishlash mumkin. Masalan, akademik guruhni bir necha kichik guruhlarga ajratib, ularga ma’lum matnni taqdim etib, matndagi asosiy muammoli vaziyatlarni topish, unga doir o‘z fikrlarini bildirishlarini o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. So‘ngra uyda o‘qish uchun tavsiya etilgan matnni to‘liq tushunish, o‘zlashtirish uchun talabalarni quyidagi topshiriqlarni bajarishga undash mumkin: ma’lumot olish uchun o‘qishga; matndan qisqa, ma’lumot olishga; o‘qishni o‘rganish va texnikasini tezlashtirishga; ma’lumotlarni integratsiyalashga; yozish uchun ma’lumot to‘plashga; matnni tanqidiy tahlil qilishga; matndan umumiy ma’lumot olish va talaba dunyoqarashini rivojlantirishga; guruhlar o‘zaro ma’lumot almashishi va o‘qilgan ma’lumotlarni taqqoslashga; hisobot yoki prezentatsiya kabi yakuniy taqdimot tayyorlashga; taqdimot yakunida savol-javob mashqlari bajarilib, umumlashtiruvchi qisqa esselar yozishga.

Umumiy o‘qish kompetensiyasiga keladigan bo‘lsak, odatda CBI texnologiyasi adjunct modeli orqali tildan maqsadli foydalanishda kommunikativlik xususiyati ustunlikka ega ekanligini ko‘rdik. Chunki, talabalar nafaqat kontent bo‘yicha yetarli ma’lumotga ega bo‘lishadi, balki o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ko‘plab lingvistik bilimlarni ham o‘zlashtiradilar. Umuman olganda, talabalar ingliz tilini an’anaviy shakldan ko‘ra, CBI texnologiyasi adjunct modeli orqali o‘rganishda, extensive o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. CBI texnologiyasini EPP (English for Professional Purposes) sharoitida kolumbiyalik talabalar extensive o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishga ta’siri, sohaviy matn yordamida og’zaki nutq kompetensiyasi sezilarli tarzda rivojlanganligini aniqladilar, chunki CBI texnologiyasi tilni kontent bilan integratsiyalash orqali ijobiy natijaga erishishni kafolatlaydi, degan xulosaga kelingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alsheail, Abdulrahman. Teaching English as a Second/Foreign Language in a Ubiquitous Learning Environment: A Guide for ESL/EFL Instructors. (Master’s Project). 2016-yil 2-aprelda qaraldi.
2. Richards, Jack C. (2014) Approaches and methods in language teaching. (Cambridge language teaching library). Language and languages study and teaching.
3. Sami Al-M’Amuri. Methodology of Teaching English, November 2017. Publisher: Central Library of Diyala University ISBN: 3133 – 2017.
4. Benny Morris. The Valeo Method (2010). 480 pages. ISBN-10: 0615371299.
5. Shravan Kumar. (2020) English Language Teaching. A modern Approach. January 2016. Publisher: Atlantic Publishers & Distributors Editor: Shravan Kumar; Harleen Kaur ISBN: 978-81-269-2279-6.
6. Dudley-Evans, T. & M-J. St John (1998) Developments in English for Specific Purposes. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Aleidine J Moeller and Theresa Catalano, (2015). Teaching, Learning and Teacher Education, University of Nebraska-Lincoln, Lincoln, NE, USA.

Robiya G‘AFUROVA,
TDPU O‘qituvchisi

BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHISI KASBIY TERMINOLOGIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola hozirgi kunda dolzarb bo‘lgan mavzulardan biri bo‘lib, bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining ishlatadigan termin va atamalarini qanchalik to‘g`ri qo‘llashi muhimligi haqida so‘z boradi. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy terminologiyasi pedagogik ta’limning asosiy bo‘g`ini bo‘lib, uni talabalarga o‘rgatish zaruriyati hamda ushbu terminologiyaning xususiyatlari maqolaning ahamiyatini kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy terminologiya, lingvodidaktika, tilshunoslik, metodika, terminologik tizim, neologizmlar, akademik terminologiya, pedagogika.*

Annotation: this article is one of the topics that are relevant today, and it talks about how important it is to use the terms and terms used by the future foreign language teacher correctly. The professional terminology of the future foreign language teacher is the main link of pedagogical education, the need to teach it to students and the features of this terminology make the article important.

Key words: *professional terminology, linguodidactics, linguistics, methodology, terminological system, neologisms, academic terminology, pedagogy.*

Аннотация: данная статья является одной из актуальных на сегодняшний день тем, и в ней говорится о том, насколько важно правильно использовать термины и термины, используемые будущим учителем иностранного языка. Профессиональная терминология будущего учителя иностранного языка является основным звеном педагогического образования, необходимость преподавания ее студентам и особенности этой терминологии делают актуальной статью.

Ключевые слова: *профессиональная терминология, лингводидактика, языкознание, методология, терминологическая система, неологизмы, научная терминология, педагогика.*

Kirish qismi: Hozirgi kunda bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining terminologik madaniyatini rivojlantirish muhim jarayon hisoblanib, ta’lim tizimini takomillashtirishning eng asosiy omillaridan hisoblanadi. Albatta, bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy terminologiyasiga pedagogik terminologiyaning bir jihati sifatida qarash kerak. U pedagogika va lingvodidaktikaning eng muhim tushunchalarini, shuningdek, tegishli fanlarni, jumladan, falsafa, psixologiya, amaliy tilshunoslik va boshqalarni birlashtiradi. Ushbu maqolada biz lingvodidaktika terminologiyasi chet tilini o‘qitish metodikasi terminologiyasi bilan bir xil ekanligini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun avvalo chet tilini o‘qitish metodikasida qo‘llaniladigan va atamalarda ifodalangan tushunchalarni kategoriyalashga to‘xtalish joizdir. Chet tili o‘qitish metodikasi kategoriyalari quyidagilar:

-Falsafiy tushunchalar
-Umumiy-ilmiy tushunchalar
-O‘zlashtirilgan tushunchalar
-Mahalliy metodik tushunchalar

Lingvodidaktik (uslubiy) terminologik tizim - bu keng tarqalgan uslubiy terminologiyani o‘z ichiga olgan, lingvodidaktika (metodika) tushunchalarining hozirgi tizimini ochib beradigan, uning tilini aniqlaydigan tizimdir. Lingvodidaktika atamalarini tizimlashtirishdagi qiyinchiliklar pedagogika atamalarini tizimlashtirish qiyinchiliklari bilan bir xil. Shu bilan birga, lingvodidaktika atamalarini, chet tilini o‘qitish metodlarini tizimlashtirish ularning chet tilidagi hamkasblarining o‘ziga xos xususiyatlarini majburiy hisobga olishni talab qiladi, chunki chet tilini o‘rgatish sohasidagi mutaxassislar xorijiy kasbiy terminologiyani bilishlari, uni tarjima qilishlari zarur. Shunday qilib, bo‘lajak chet tili o‘qituvchisi uchun lingvodidaktikaning ikkala terminologik tizimini ham: ingliz va boshqa chet tillarini o‘zlashtirish bir xil darajada muhimdir. Mahalliy va xorijiy akademik terminologiyani o‘zlashtirish, ushbu atama tizimlarini o‘zaro bog‘lash, atamalarni adekvat va bir xil nomlash va talqin qilish muammolarini hal qilish zarurati zamonaviy oliy ta'lim tizimining voqeligi, globallashuv tendentsiyalari, xalqaro miqyosda xalqarolashuv tendentsiyalari bilan oqlanadi. Hozirgi vaqtda ayniqsa dolzarb bo‘lgan akademik terminologiyani tillararo o‘tkazish muammosi ko‘plab olimlarning diqqat markaziga aylandi.

Har ikkala terminologik tizim (o‘zbek va ingliz tillari) “makroterminologiyalar”ga taalluqli bo‘lsa-da, ularning o‘lchamlari teng deb baholansa-da, terminologik lug‘atni to‘ldirish manbalarida terminologik tizimlar farqlanadi. Shunday qilib, mahalliy akademik terminologik tizim qarz olish (repetitor, magistr) va neologizmlarning ko‘proq ifodalanishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, u ingliz tiliga tarjima qilinganda tushuntirishni talab qiladigan o‘ziga xos atamalarni o‘z ichiga oladi (juftlik (pair), avtomatik (automatic)[3]. Har ikkala atama tizimini atamalarning "motivatsiyasi" mezoniga ko‘ra qiyosiy tahlil qilish natijasi muhim ahamiyatga ega. M.E.Kupriyanovaning ikkala terminologik tizimni tahlil qilish asosida qilgan xulosasini ta'kidlash o‘rinlidir: rus

tilida til birliklarining ortiqchaligi aniq, ingliz tilida esa ularning iqtisodiyoti, ya'ni, yetarli emasligidir.[3]

Asosiy qism: Terminlar tizimidagi farqlar tillararo bo‘shliqlarning shakllanishiga olib keladi va akademik o‘zbek va ingliz atamalari o‘rtasidagi yozishmalarni topishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Lingvodidaktik atamalarni tarjima qilishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yozishmalarning kichik foizi ularni boshqa tilga o‘tkazish uchun turli tarjima strategiyalaridan foydalanish zarurligiga olib keladi.

Lingvodidaktik atamalar va terminlar o‘rtasidagi muvofiqlikning uch turini ajratib ko‘rsatish muhimdir. Ular: [6]

– *chiziqli* (ingliz tilidagi bitta atama o‘zbek tilidagi bitta atamaga mos keladi, masalan: "analytical reading" - "analitik o‘qish");

– *vektorli* (ingliz tilidagi bitta atama bir nechta o‘zbek tilidagi atamalarga to‘g‘ri keladi va aksincha, masalan: “skill” – “mahorat”, “talent”, “xato” – “mistake”, “error”;

– *bo‘shliqlar* (maxsus terminlarning yetishmasligi, masalan: “language awareness”).

Lingvodidaktik atamalarning chiziqli mos kelishiga misol tariqasida quyidagilarni nomlashimiz mumkin: “teacher” – “o‘qituvchi”, “skill” - “mahorat”, “visual aids” – “ko‘rgazmali qurollar”, “class” – “sinf”.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, chiziqli tur umumiy atamalar sonining faqat kichik foizini tashkil qiladi. Lingvodidaktika atamalarining katta qismining mos kelmasligi ikkita terminologik tizim bilan ishlashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Masalan, “linvodidaktika” kalit atamasi ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentiga ega emas. Mahalliy olimlar bu fanni "Ingliz tilini o‘qitish usullari" deb nomlab, chet tillarini o‘qitishning umumiy metodologiyasining bir qismidir, ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish mustaqil bo‘lib, alohida sohani ifodalaydi.

Mahalliy lingvodidaktikaning kontseptual o‘zagi, chet tilini o‘qitish metodikasi tilshunoslikdagi psixologik-pedagogik yo‘nalish bo‘lib, u o‘z navbatida kognitiv va antropotsentrik yo‘nalishlar doirasida rivojlanadi. Xuddi shunday xorijiy kasbiy soha asosan tilshunoslik, amaliy tilshunoslik, ijtimoiy va amaliy psixologiya asosida rivojlandi. Hatto kasbiy sohaning nomi ham, tarjimada “lingvodidaktika” atamasiga adekvat moslik izlash ham atamalarning bir tushuncha doirasida “tarqalishi” bilan murakkablashadi. “Lingvodidaktika”, “Chet tilini o‘qitish metodikasi”, “Chet tilini o‘qitish nazariyasi” atamalari ingliz tilidagi bir qator atamalarga mos keladi: “Metodologiya”, “Pedagogik grammatika”, “(Ikkinchi) til pedagogikasi”, “Ikkinchi yoxud xorijiy tillarni o‘qitish”, “Amaliy tilshunoslik” [5].

O‘zbek va ingliz lingvodidaktik (uslubiy) atamalar rivojlangan semantik tuzilishga ega bo‘lib, ularda barcha ma'nolar ekvivalent bo‘lib, ma'lum bir kontekstda ishlatilishi mumkin. Biroq, ko‘pincha bu qiyinchiliklarga olib keladi, chunki vaqt o‘tishi bilan tushunchalar murakkablashadi va ularning ma'nosi parchalanadi. Shunday qilib, masalan, “motivatsiya” atamasi ikkita aniqlovchi atama uchun umumiy tushunchadir: “ichki motivatsiya” va “tashqi motivatsiya” kabi terminlarga bo‘linadi. Demak, o‘qituvchining bir asl atamaning ekvivalentini bilishning o‘zi yetarli emas, kontekstga nisbatan mos atama tanlay olishi zarur. S. M. Fedoninaning lingvodidaktikaning atamalarini 4 guruhga bo‘lgan tadqiqoti katta qiziqish uyg‘otadi:[2]

1. *Didaktikadan olingan atamalar* (“technique”- “texnika”, “exercise” -“mashq”; “teaching procedure”- “o‘qitish tartibi”);

2. *Psixologiyadan olingan atamalar* (“habit”- “odat”,, “skill”- “mahorat”, “learning process” -“o‘rganish jarayoni”);

3. *Tilshunoslik fanidan olingan atamalar* (“word”- “so‘z”,, “sentence”-“gap”,“utterance” -“urg`u”, “language units” -“til birliklari”);

4. *Asl lingvodidaktik atamalar* (“pyramid drills”- “piramida mashqlari”, “speaking skill” -“nutq mahorati”).

Ushbu jarayonda tadqiqotchi tilimizda mavjud terminlarning kelib chiqish jarayonini tadqiq etadi va shu 4 asosiy guruhlarga bo‘ladi. Atamalarning ma’lum bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida ko‘pab qiyinchiliklarga duch kelish mumkin va ularni ham bir nechta kategoriyalarga ajratish lozim. Bular quyidagilar:

- *Tarjimasi noto‘g‘ri tushuniladigan va sodda ko‘rinadigan atamalar:* “technique” –“texnika”,, “design”- “dizayn”,“Total Physical Response”- “To‘liq jismoniy javob”.

- *Sinonimik atamalar:* “reading aloud” - “o‘qish texnikasi”, “silent reading” - “axborotni ajratib o‘qish”, “bottom-up processing” -“analitik o‘qish”, “top-down processing” - “sintetik o‘qish”.

- *Qarama-qarshi ta'riflar berilgan atamalar:* “communicative competence”-“kommunikativ kompetentsiya”. Ingliz tilidagi ilmiy va o‘quv adabiyotlarida bu atama grammatika, nutq qoidalari, kommunikativ madaniyatni bilish va ularni to‘g‘ri qo‘llashni anglatadi. Rus tilidagi ilmiy va ta'lim manbalari bu kompetentsiyani tilning umumiy bilimi sifatida izohlaydi.[1] Ingliz tilidagi lingvodidaktika terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bitta tushunchani parallel nomlash, mavjud tushunchalarni oydinlashtirishdir. Bu G‘arbda chet tilini o‘qitish kontekstidagi farqlar va o‘qitish yo‘nalishiga (maqsadiga) qarab atamalarning farqlanishi bilan bog‘liq. Umuman olganda, ingliz tilidagi lingvodidaktik terminologiya turli xillik, ochiqlik, dinamiklik, qat'iylik va sinonimik atamalarning ko‘pligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, ma’lum bir tilni yoxud fanni o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar ishlatayotgan termin va atamalarning kelib chiqishi, ularning ishlatilish vazifalarini juda ham yaxshi bilib

olishlari zarur. Chunki bu terminlar ilmning qanchalik chuqur o‘zlashtirilishi va ma’no kasb etishi uchun ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov, E. G. Uslubiy atama va tushunchalarning yangi lug‘ati (tillarni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti) / E. G. Azimov, A. N. Shchukin. - Moskva: ICAR, 2009. - 448 p. - ISBN 978-5-7974-0207-7.

2. Fedonina, S. M. Tadqiqotning lingvistik va ekstralingvistik jihatlarida ingliz va rus lingvodidaktik terminologiyasi: ixtisosligi 02/10/19 Til nazariyasi: filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati / Saratov, 1988. - 19 p.

3. Kupriyanova, M. E. Globallashuv sharoitida oliy ta'lim atama tizimining shakllanishi va faoliyati, ixtisosligi 02/10/20 Qiyosiy-tarixiy, tipologik va qiyosiy tilshunoslik: filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya / M. E. Kupriyanova. - Moskva; Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti, 2014. - 259 p.

4. Kupriyanova, S. A. Ta'lim vazifasi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy vakolatlarini rivojlantirish vositasi sifatida / S. A. Kupriyanova // Kostroma davlat universitetining xabarnomasi. N. A. Nekrasova. - 2016. - No 22. - B. 176-179.

5. Sarvarov, R. A. Kasbiy pedagogik madaniyat o‘qituvchining kasbiy faoliyatining asosiy asosi sifatida / R. A. Sarvarov // Pedagogik ta'lim, 2009. - P. 148-152.

6. Understanding Pedagogy and its Impact on Learning / edited by P. Mortimore. - London : Paul Chapman Publishing, 1999. - 236 p.

Dilafruz UMAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitish muammolari muhokama qilinadi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatishda o‘qituvchilar qanday qiyinchiliklarga duch kelishlari bilan birgalikda, maqolada nogiron bolalarni ingliz tilining grammatik, leksik va sintaktik tuzilmalarni o‘zlashtirish va yodlashga yordam beradigan o‘qitishning samarali usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, sotsializatsiya, guruhda ishlash, inklyuziv ta’lim, nogiron bolalar.*

Аннотация: в статье рассматриваются проблемы преподавания английского языка в условиях инклюзивного образования. Наряду с трудностями, с которыми сталкиваются учителя при обучении английскому языку учащихся с ограниченными возможностями, в статье представлены эффективные методы обучения, которые помогают детям с ограниченными возможностями усваивать и запоминать грамматические, лексические и синтаксические конструкции английского языка.

Ключевые слова: *английский язык, социализация, групповая работа, инклюзивное образование, дети-инвалиды.*

Annotation: the article discusses the problems of teaching English in the context of inclusive education. Along with the difficulties that teachers face when teaching English to students with disabilities, the article presents effective teaching methods that help children with disabilities learn and remember grammatical, lexical and syntactic structures of the English language.

Key words: *english language, socialization, group work, inclusive education, disabled children.*

Zamonaviy sharoitda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ta’lim muammosini o‘rganish ta’lim jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan dolzarbdir. Ma’lumki, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish” ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangandir. Ingliz tili bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab kommunikatsiya uchun asosiy til hisoblanadi. Bu esa ingliz tilini o‘rganishni muhim qiladi, chunki ingliz tili orqali insonlar o‘zaro muloqot qilishi, o‘qish-yozishi, ish topishi va turli sohalarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin.

Inklyuziv ta’lim esa har bir talaba uchun barqaror va imkoniyatlar bilan to‘g‘ri keladi. Bu, barcha talabalarning o‘zlarini qo‘llab-quvvatlash, o‘zlarini o‘zlashtirish va o‘z-o‘zini ifodalashlari uchun mos imkoniyatlarni berishni maqsad qiladi. Inklyuziv ta’limning asosiy mablag‘laridan biri, har bir talabani qabul qilish, o‘qitish va o‘rganish jarayonlarida qo‘llashning barcha o‘lchovlarini ta’minlashdir.

Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitish muammolari esa bir necha asosiy nuqtalarda ko‘rinadi:

Tarkibiy murakkablik: O‘qituvchilar inklyuziv ta’limning barcha talabalarni qamrab olgan holda dars o‘tkazishga intilishlari kerak. Bu, har bir talaba o‘ziga

mos keladigan o‘rganish usullarini va dars metodikasini talab etadi. Misol uchun, vizual aidlar (rasmlar, diagrammalar), audio materiallar (audio kitoblar, musiqalar) va interaktiv dasturlar talabalarning turli usullarda o‘rganishlarini ta’minlashda foydali bo‘ladi.

Bireysel talablar: Har bir talabaning o‘rganish usullari va tezliklari o‘ziga xosdir. Inklyuziv ta’lim sharoitida, o‘qituvchilar barcha talabalarning bireysel talablari va o‘rganish imkoniyatlarini hisobga olgan holda darslar tayyorlashlari kerak. Bu, talabalarning o‘zining eng yaxshi usullarida o‘rganishlariga imkon berishga asoslanadi. Bunda, inklyuziv ta’limning prinsiplari va asosiy tamoyillari bilan tanish bo‘lish juda muhimdir.

Qo‘llanish vositalari: Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan vositalar kengligini oshiradi. Bu, texnologik vositalar (kompyuterlar, interaktiv dasturlar, onlayn resurslar)dan foydalanishni, turli qamrovli o‘rganish o‘yinlari va o‘yinchoqlarini taklif etishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, barcha talabalarning o‘rganish usullarini qo‘llaydigan ergashtiruvchi vositalar, masalan, o‘qitishda vizualizatsiya qilish, audio kitoblar va harakatli matnlar kabi imkoniyatlar yaratishda juda foydali bo‘ladi.

O‘qituvchilar tayyorligi: Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitish uchun o‘qituvchilar o‘zlarini yanada tayyorlashlari kerak. Ular talabalarning turli xil o‘rganish usullarini tushunish, o‘rganishga moslashtirish, inklyuziv ta’limning tamoyillarini bilish va talabalarga qo‘zaro aloqani tuzishni bilishlari kerak. Bu, pedagogik tayyorliklarni yanada rivojlantirish va inklyuziv ta’limning prinsiplariga muvofiq darslar tayyorlashni talab qiladi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitish muammolari, har bir talaba uchun mos imkoniyatlarni ta’minlash va ularning o‘zlarini rivojlantirishga yordam berishga asoslanadi. O‘qituvchilar va o‘rganuvchilar o‘zlarini bu muammolarga moslashtirish, barcha talabalarni qabul qilish va ularga mos imkoniyatlar yaratishda ko‘p tomonlama va inklyuziv yaklaşimlardan foydalanishlari kerak. Bu esa har bir talabani o‘z potensialini bajarishga va muvafaqiyatga erishishga yo‘l qo‘ymoqda.

Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitish muammolari, o‘qituvchilar va o‘rganuvchilar uchun davolashgan bir so‘roq bo‘lib, ular bu muammolarni tahlil qilish, talabalarni kuzatish va har bir talabani o‘ziga mos keladigan o‘rganish usullarini topish va qo‘llash uchun ko‘p muhimdir. Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitish muammolari, o‘qituvchilar, o‘rganuvchilar, ota-onalar va talabalar uchun bir imkoniyat ham bo‘lib, ularning hammasi birgalikda ishlashini talab qiladi. Bu esa barcha tarqalgan o‘quvchilarga o‘zingizni qo‘llab-quvvatlash va ularga bir xil imkoniyatlar berishning muhimligini anglatadi. Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari va o‘zaro aloqalarni rivojlantirish orqali, barcha talabalarga ingliz tilini o‘rganishda barqarorlik va muvaffaqiyat ta’minlanadi.

Inklyuziv ta’lim, har bir talaba uchun mos imkoniyatlar bilan ta’limga qarashning muhim deb hisoblanishi talab etiladi. Bu, o‘qitish jarayoniga har bir talabani qamrab olgan holda o‘tkazish, ularning o‘zlari o‘rgangan va o‘rgatganlarini ifodalash, talabalarning barcha tomonlama qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslangan bir tizimni anglatadi. Inklyuziv ta’limga asoslanuvchi prinsiplar, barcha talabalarni qabul qilish, o‘qitish usullarini tanlash va maqsadga muvofiq imkoniyatlar yaratishda asosiy ko‘rinishni oladi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitish muammolari bir qancha mavzularda ko‘rinadi. Birinchi navbatda, har bir talaba o‘ziga mos keladigan o‘rganish usullarini aniqlash zarur. Talabalarning o‘ziga xos o‘rganish usullari va tezliklari bo‘lishi mumkin. Bunda o‘qituvchilar, talabalarning turli xil o‘rganish usullarini tushunish, ularni qo‘llash va ularning o‘zlashtirishlari uchun maqsadga muvofiq darslar tayyorlash jarayonida o‘z vazifalarini o‘zlashtirishlari kerak. Misol uchun, vizual aidlar, audio materiallar, interaktiv dasturlar va boshqa ergashtiruvchi vositalar bilan talabalarni qo‘llab-quvvatlash mumkin.

Ikkinchi navbatda, inklyuziv ta’lim sharoitida bireysel talablar jiddiy e’tiborga olinishi kerak. Har bir talabaning o‘ziga xos talablari va o‘rganish imkoniyatlari bo‘lishi tabiiydir. O‘qituvchilar bu talablarni hisobga olgan holda darslar tayyorlashlari kerak. Bunda, bireysel o‘zgarishlarga moslashtirilgan o‘rganish yo‘nalishlarini tanlash, talabalarning o‘zlarini rivojlantirishiga yordam beradigan individualizatsiya qilish jarayonlarini o‘rganishga intilishlari muhimdir.

Uchinchi navbatda, inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitish uchun qo‘llanish vositalari kengligini oshiradi. Texnologik vositalardan foydalanish, turli qamrovli o‘rganish o‘yinlari va o‘yinchoqlarini taklif etish bu haqiqatda talabalarning o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarador qiladi. Bu bilan birga, talabalarning o‘rganish usullarini qo‘llab-quvvatlash uchun ergashtiruvchi vositalardan foydalanish ham muhimdir. Masalan, o‘qitishda vizualizatsiya qilish, audio kitoblar, harakatli matnlar va interaktiv dasturlar talabalarning o‘rganishida foydali bo‘ladi.

Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga tengdoshlari bilan ingliz tilini o‘rganish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar milliy tilning grammatika, lug‘at va fonetikasini o‘rganibgina qolmay, balki jamiyatda ijtimoiylashadi, o‘z qobiliyatiga ishonch hosil qiladi, o‘z qadrini oshiradi. Ingliz tilini samarali o‘rganish uchun ma’lum moddiy-texnik yordam va moslashuvchan fikrga ega malakali o‘qituvchilar, shuningdek, nogiron bolalarga ingliz tili sohasida iloji boricha chuqurroq bilim berish istagi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni/ https://lex.uz/docs/5841063
2. Ibragimov, X., Abdullayeva Sh. “Pedagogika nazariyasi” (darslik). – T.: Fan va texnologiya, 2008. 288-bet.
3. Leontiev A.N. Selected psychological writings. M. 1983. English. M. 2002.
4. Nazarova N.N. (2022). Teaching professional English vocabulary to students with disabilities. Perspectives on Science and Education, (4(34)), 128-131.
5. Апарина Ю.И. Адаптивная речь учителя как продуктивное средство обучения в условиях инклюзивного образования // Инклюзивное иноязычное образование сегодня: проблемы и решения. Сборник статей по итогам VI заочной научно-практической конференции. 2020. С. 12-21.
6. Бондарева А. В. Реализация инклюзивного образования на уроках английского языка в общеобразовательной школе // Молодой ученый. 2017. № 5. С. 471-474.

Maqsudaxon SAIDOVA,
Oriental universiteti o’qituvchisi

TALABALARDA XORIJIY TILDA PRAGMATIK KOMPETENSIYAINING STRUKTURAVIY KOMPONENTLARI SHAKLLANISHI

Annotasiya: ushbu maqolada xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismidagi pragmatik kompetensiyaning elementlarni o‘z ichiga oladigan komponent tarkibi aniqlandi. Pragmatik kompetensiyaning komponentlarini shakllantirishga pragmatik markerlarga o‘qitish asosida qarashlar taklif etildi.

Kalit so‘zlar: *pragmatik kompetensiya, leksika, grammatika, struktura, diskurs, komponentlar shakllanishi.*

Annotation: in this article, the composition of the component of pragmatic competence, which includes elements of the component of communicative competence in a foreign language, was determined. Approaches to the formation of the components of pragmatic competence based on the teaching of pragmatic markers were proposed.

Key words: *pragmatic competence, vocabulary, grammar, structure, discourse, formation of components.*

Аннотация:в данной статье определен состав компонента прагматической компетентности, включающий элементы компонента коммуникативной компетентности на иностранном языке. Предложены подходы к формированию компонентов прагматической компетентности на основе обучения прагматическим маркерам.

Ключевые слова: *прагматическая компетентность, лексика, грамматика, структура, дискурс, формирование компонентов.*

Kirish qismi: Pragmatik kompetensiyaning xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiya tarkibidagi o‘rnini aniqlash muammosi lisoniy didaktika sohasidagi ko‘plab tadqiqotchilarning asarlarida o‘z aksini topgan. Uzoq vaqt davomida, xorijiy tilga o‘qitish tahsil oluvchilarning o‘rganilayotgan tilning faqat gramatikasini va leksikasini o‘zlashtirishlarini nazarda tutar edi. Biroq, yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida xorijiy tilga o‘qitishga kommunikativ yondashuvning paydo bo‘lishi bilan nafaqat avval amaliyotda bo‘lgani kabi (aynan grammatika va leksik birliklarni o‘z ichiga oladigan) lisoniy kompetensiyani, balki bir qator boshqa kompetensiyalarni ham o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj paydo bo‘ldi. Pragmatik kompetensiya ular qatoriga kiradi, va uning xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiya tarkibidagi o‘rni quyida ko‘rib chiqiladi. Avvalambor, pragmatikaga pragmatik kompetensiyaning markaziy ahamiyatli elementi sifatida ta'rif beramiz. Pragmatika tilning muloqotda nima(lar) aytilishiga emas, balki qanday, qay tarzda aytilishiga ko‘proq e'tibor berib qanday, qay tarzda qo‘llanilishini o‘rganadi.

Ilmiy muomalaga “pragmatika” atamasini Amerika faylasufi Ch. Morris kiritgan. Faylasuf uni semantika va sintaksis bilan bir qatorda semiotikaning tarkibiy qismi deb o‘rgangan. Semantika so‘zga uning qo‘llanilishi vaziyatlari va kontekstidan tashqarida qarab, u nimani anglatishi haqida savol bersa, pragmatika esa aksincha, aynan ushbu holatlarni birinchi o‘ringa chiqaradi.

Asosiy qism: Pragmatika, dastavval, gaplarni to‘g‘ri tuzish, ifodalash uchun qoidalar to‘plami bilan emas, balki tilning muloqotda qanday, qay tarzda, qay yo‘sinda qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Muloqot hech bo‘lmaganda ikki tomonning – so‘zlovchi va tinglovchi yoki yozuvchi va o‘quvchining bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun, pragmatikada doimo kommunikantlarning o‘zaro faoliyati o‘rganiladi. Demak, muloqot so‘zlovchining belgilarni kodlashtirish va tinglovchining ularni dekodlashtirishidan ancha katta,

keng hodisa. Bu ma'noda pragmatika “aytilmaganni (bayon, fikrni) tahlil qilish san'atidir”. Pragmatikadagi fundamental savol quyidagidan iborat: “Aytilgan (yozilgan) fikr bilan so‘zlayotgan (yozayotgan) shaxs nimani nazarda tutadi va ushbu berilgan vaziyatda uni tinglovchi (yoki o‘quvchi) qanday (nima deb) tushunadi?”. Nima o‘tkazilishi haqidagi xulosalar uchun muloqot sodir bo‘layotgan kontekst katta ahamiyatga ega. Qaysi faoliyat ichida qo‘llanilayotganiga qarab, muloqot turlicha tomonga rivojlanib ketadi. Tildan foydalanuvchi so‘zlovchining identikligi, uning tinglovchiga munosabati, so‘zlovchining faoliyat turi va nuqtai nazari kabi omillarni o‘z ichiga oladigan ijtimoiy vaziyatga bog‘liq ravishda lisoniy shaklni tanlaydi. Tinglovchilar bir vaqtning o‘zida yagona (odatda audialvizual) obraz ko‘rinishida o‘tkaziladigan va qabul qilinadigan turli kommusnikasion quyi tizimlardan (yoki “modalliklardan”) iborat o‘zarol faoliyat olib boruvchi xulq-atvor voqealarining butun bir yig‘indisidan kelib chiqib xulosalar chiqarishadi. Tilshunoslikda va til falsafasida nutq amali – tilda va kommunikasiyada performativ funksiyaga ega bayon (aytilgan so‘z, gap, fikr, izhor) hisoblanadi. Olim J.L. Ostinga ko‘ra, nutq amallarini uch darajada tahlil qilish mumkin:

•lokutiv amal (akt), ya'ni bayonni talaffuz etish;

•illokutiv amal (akt): bayonning pragmatik “illokutiv kuchi”;

• perlokutiv amal (akt): aytilgan bayonning (fikr, so‘z, gapning) asl faktik natijasi (ta'siri). Demak, xorijiy tilning pragmatik me'yorlarini bilish hamsuhbatdan istalgan perlokutiv amalni olishni ta'minlaydi, ya'ni samarali muloqotni t'a'minlaydi. Umumiy so‘zlar bilan pragmatik kompetensiyaga nazarda tutilayotgan fikrni uning har qanday ijtimoiy-madaniy kontekstda barcha nozik tomonlari bilan o‘tkazish (berish) va ushbu habarni so‘zlovchi qanday reja qilgan bo‘lsa, o‘shanda talqin qilish qobiliyati deb ta'rif berish mumkin. Biroq, turli olimlar pragmatik kompetensiyani qanday, qay tarzda va nima sifatida o‘rganganliklarini va ular pragmatik kompetensiya deganda nimani tushunganliklarini kuzatish e'tiborga loyiq. Olim Jon Lichning bergan ta'rifiga ko‘ra, pragmatik tilshunoslik (pragmalingvistika) ushbu illokusiyani kodlashtirish va koddan chiqarish uchun zarur bo‘lgan lisoniy strategiyalari va resurslarini ifodalaydi. Masalan, iltimosni qurish uchun lisoniy strategiya bilvosita iltimos hisoblanadi. Bunda, gapni til jihatdan rasmiylashtirish modal fe'lning mavjudligini, so‘roq shaklnining mavjudligini, hamda ihotalash, ya'ni iltimosni ma'lum bir darajada yumshoqlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bundan, biz pragmatilshunoslik pragmatikaga ko‘proq qarashli ekanligi, hamda har bir alohida olingan tilda individual tarzda namoyon bo‘lishi haqidagi xulosa chiqarishimiz mumkin. Ushbu komponent qanday paydo bo‘lganligi va nima hisoblanganligini aniqlash maqsadida, kommunikativ kompetensiyaning turli modellarini ko‘rib chiqamiz. Xorijiy mualliflar taklif etgan o‘z ichiga pragmatik kompetensiyani u yoki boshqa tarzda olgan yondashuvlar va modellarning butun turli tumanligi orasida ba'zi guruhlarni ajratib o‘krsatish mumkin. Misol uchun, olimlar V. Loflin, J. Ueyn va Y. Shmidgall uchta bunday yo‘nalishlarni o‘rganishadi: funksional yoki diskursga qaratilgan modellar; komponent modellar; ma'noga qaratilgan modellar.

D. Xayms va M. Kanal va S. Sueynning modellarida kommunikativ kompetensiyaning ikki yo‘nalishli talqinini topish mumkin. Birinchi yo‘nalish kommunikativ funksiyani bilimlarning xushbichim tizimiga tashkil qilingan qoidalar va shakllarning ma'lum bir yig‘indisi sifatida o‘rganadi. Ikkinchi yo‘nalish ushbu kompeetnsiyaga muayyan kontekstda tilni to‘g‘ri qo‘llay olish malakasi sifatida qaraydi. Keyinroq, olim M.Kanal ushbu uch komponentni yana bir komponent – diskursiv subkomponent bilan to‘ldirdi. Har bir komponentni batafsli qo‘rib chiqamiz. Grammatik subkompetensiya tilni qo‘llashning leksik, sintaktik, morfologik, fonetik, semantik va kogerent qoidalarini bilishni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-lisoniy subkompetensiya esa, unda: diskursni qurish va tashkil qilish qoidalarini bilish va qo‘llash malakasi, hamda tilni qo‘llashning ijtimoiy-madaniy qoidalarini bilisha va ularni qo‘llash kabi ikki yo‘nalishlarini ajratish qabul qilingan.

Olim M. Kanal ushbu modelni to‘rtinchi komponent bilan to‘ldirgan. Aslini olganda, bu modelni bevosita to‘ldirish bo‘lmagan, balki ko‘proq jihatdan, restrukturizasiyadan iborat bo‘ldi.

L.F. Baxmanning fikriga ko‘ra, til kompetensiyasi quyidagi darajalarpdagi ikki kompetensiyadan iborat: tashkilotchilik va pragmatik. Tashkilotchilik kompetensiyasi til foydalanuvchisining tilning rasmiy strukturasini nazorat qilish, grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplarni qurish va taniy olish, hamda ushbu gaplardan boshg‘langan matnni yaratish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiya yana ikki komponentni: grammatik va tekstual subkompetensiyalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu ikki komponentlarning birinchisi bevosita tilni qo‘llash bilan aloqador kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu yerga quyidagi kompetensiyalarni kiritish mumkin: leksikani, morfologiyani, sintaksisni, fonologiya bilish.

Matn kompetensiyasi gaplar til birligi sifatidagi matnga birlashish konvensiyalari va qoidalrini bilishdan iborat. Matn kompetensiyasi gaplarni moslashtirish qoidalarida, hamda ritorik tashkil etishda ifodalanadi. Gaplarni moslashtirish vositalari, misol tariqasida, quyidagilar bo‘lishi mumkin: referensiya (havola qilish), bog‘lovchi so‘zlarni qo‘llash, leksik moslashtirish va hok. Ritorik tashkil etish (etilganlik) matnning tildan foydalanuvchiga ta'siri bilan bog‘liq. Nutq amallaridan iborat bo‘lgan illokutiv kompetensiya

pragmatik komptensiyaning birinchi komponenti bo‘lib xizmat qiladi i funksiy. Bularning barchasi bayonlarning maqsadi va kommunikativ yo‘naltirilganligini, ularning diskursdagi aloqasini ifodalaydi. Pragmatik komptensiyaning ikkinchi element – ijtimoiy-lisoniy kompetensiya – “bayonlar yoki gaplar tilni qo‘llash kontekstining xususiyatlari bilan qay tarzda bog‘langan” masalaga taaluqli. Demak, u bayonlarni tilni qo‘llashga bo‘lgan muayyan ustanovka bilan tegishli ravishda taqqoslash uchun zarur bo‘lgan sotsiografik bilimlarni tasvirlaydi.

Xulosa qismi: Yakun sifatida, pragmatik kompetensiya bayonlarni qurish, ularni mantga birlashtirish (diskurs) bilimlari, qoidalari yig‘indisidan, bayonni turli kommunikativ funksiyalar uchun qo‘llash malakasi, xorijiy tilda bayonlarni kommunikantlarning o‘zaro faoliyatining xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy okntekstga muvofiq tarzda qura olish malakasini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya bayonni kommunikativ va pragmatik maqsadga muvofiq qura olish qobiliyatida ifodalanadi. Pragmatik kompetensiya quriladigan uchta tamoyil mavjud. Ulardan birinchisi – ifoda etilayotgan fikrning (narsa, hodisa, tushuncha, voqeaning) ma'nosi. Ikkinchi tamoyil – hamsuhbatlarning bir-birlari bilan va kontekstning ular bilan o‘zaro faoliyati, va kontekstning o‘zi esa uchinchi tamoyil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidova M. A. Development of students'oral speech in german language with the help of prezi program // Journal of Central Asian Social Studies. – 2021. – T. 2. – №. 01. – C. 75-79.

2. Saidova Makhsudakhon Abbasovna. Bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik zaruriyati. Научный вестник Наманганского государственного университета 2023/5/1. Страницы 618-623

3. Saidova Makhsudakhon Abbasovna. (2023). Die Entwicklung der pragmatischen Kompetenz durch Hörverstehen bei den Studierenden im DaF. International Scientific and Current Research Conferences, 1(1), 477–481. https://doi.org/10.37547/geo-88

4. Saidova Makhsudakhon Abbasovna. (2022). Determine pragmatic competence by listening in practical sessions. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(6), 139–142. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/103

5. Yuldasheva, N. K., & Djampulatova, N. M. (2022). Talabalalarning kommunikativ rivojlanishi kontekstida kouchinglik modeli. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 915-920.

6. Djampulatova, N. (2022). Ways to improve communicative competence in English in creating an integrative learning environment.

Zilola ABIDOVA,
O‘qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

TAFAKKUR FE’LLARINING INGLIZ TILI IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada tafakkur fe’llarining ingliz tili izohli lug’atlardagi talqini, so‘zlarning nutqda qo‘llanish xususiyatlari, semantik-sintaktik tabiati haqida ma’lumot beradi. Bir tilli izohli lug‘atdan bevosita shu tildagi matn tahriri uchun lingvistik asos ekanligi xaqida taxlillar berilgan.

Kalit so‘zlar: *tafakkur fe’llari, izohli lug’atlar, talqin va taxlillar, semantik-sintaktik tabiati, izohli lug‘atlarni takomillashtirish.*

Annotation: this article provides information about the interpretation of the verbs of thought in English explanatory dictionaries, the features of the use of words in speech, and the semantic-syntactic nature. Analyzes of the linguistic basis for editing the text in one language directly from the explanatory dictionary of one language are given.

Key words: *verbs of thought, explanatory dictionaries, interpretation and analysis, semantic-syntactic explanation, improvement of explanatory dictionaries.*

Аннотация: в данной статье представлена информация об трактовке глаголов мысли в английских толковых словарях, особенностях употребления слов в речи, а также семантико-синтаксической природе. Дан анализ лингвистической основы редактирования текста на одном языке непосредственно из толкового словаря одного языка.

Ключевые слова: *глаголы мысли, толковые словари, интерпретация и анализ, семантико-синтаксическое объяснение, совершенствование толковых словарей.*

Kirish qismi: Leksikografik tadqiqotlar natijasi bo‘lgan lug‘atlar tilning ta’lim jarayoni hamda turli ko‘rinishdagi tarjima ishlariga bevosita va bilvosita ta’sir qilishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, har qanday tilning so‘z va frazeologik birliklarining ma’nolarini shu tilning o‘zi orqali tushuntiradigan hamda lingvistik ta’minot bazasi hisoblangan izohli lug‘atlar qator vazifalarni bajaradi. Masalan, izohli lug‘atlar tilning leksik sathini semantik belgisiga ko‘ra tizimlashtirib, so‘zlarning nutqda qo‘llanish xususiyatlari, semantik-sintaktik tabiati haqida ma’lumot beradi. Bir tilli izohli lug‘atdan bevosita shu tildagi matn tahriri uchun lingvistik asos sifatida xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, leksemaning izohli lug‘atda tavsiya qilingan nutqiy qo‘llanish me’yorlariga tayanib nutq madaniyati, notiqlik san’ati kabi amaliy sohalarni qamrovchi tadqiqot, darslik va uslubiy qo‘llanmalarni shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bular esa izohli lug‘atlarning bevosita asosiy vazifalari sifatida qaraladi. Shunday ekan, turli prinsiplarga asoslangan keng qamrovli izohli lug‘atlar yaratish, mavjud izohli lug‘atlarni takomillashtirish tilshunoslikning leksikografiya tarmog‘i qarshisidagi muhim masalalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Asosiy qism: Xususan, ingliz lug‘atchiligi mavjud yirik izohli lug‘atlarni onlayn platformaga ko‘chirib, ulardan erkin foydalanish imkoniyatini yaratdi va bu manbalar muntazam ravishda yangilanib, to‘ldirilib borishi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu lug‘atlar dastlab til korpuslari tuzishda manba bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, hozirda bevosita yoki bilvosita neyron tizimlar qurishda, ya’ni sun’iy intellekt va inson o‘rtasida muloqot ko‘prigi bo‘lishga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Barcha yirik izohli lug‘atlar, jumladan, Kollinz, Longman, Vebster, Kembrij, Oksford kabi manbalar lingvistik ma’lumotni o‘ziga xos tizimlashtirgan, leksemalar izohi ham farqli usullarda shakllantirilgan. Ayni shu farqlarni ingliz tilidagi tafakkur fe’llari misolida ko‘rib chiqamiz. Quyida “to understand” fe’lining turli izohli lug‘atlarda berilishiga e’tibor qarataylik:

Kembrij izohli lug‘ati UNDERSTAND verb US /ˌʌn.dəˈstænd/ UK /ˌʌn.dəˈstænd/

understood | understood

(A1) to *know* the *meaning* of something that someone says:

- She *explained* the *whole idea* again, but I still didn’t understand.
- Is there anyone here who understands *Arabic*?
- I *think* he was *calling* from a *club* – it was so *noisy,* I couldn’t understand a word he said.

Ma’nolar ajratilishidan tashqari, ingliz tilini bilish darajasiga ko‘ra tabaqalangan. Ya’ni “birovning aytganini anglamoq” boshlang‘ich daraja, “biror hodisaning qanday sodir bo‘lishini idrok etmoq” ma’nosi til bilishning keyingi A2 darajasiga qo‘yilgan. O‘rta V2 daraja deb “kishining fe’l-atvori, o‘zini tutishi sababini anglamoq” degan ma’no ajratilgan. Yuqori daraja hisoblangan S1 maqomida “aytilgan narsani bilmoq, aytilgani sabab biror narsani tushunmoq” ma’nosi ko‘rsatiladi. Bunda birinchi ma’no va so‘ngisi bir-birini mazmunan takrorlamoqda. Boshqa ma’no turlarining ham bir-biridan farqi yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Demak, turli semalar deb ajratilgan izohlar lug‘aviy emas, kontekstual (nutqiy) ma’noni ta’riflaydi. Shunday ekan, izohlarda bir-birini takrorlovchi yoki mazmunan bir-biriga yaqin ma’nolar farqi tafsilotlik misollardan anglashiladi. Lug‘atda ajratilgan ma’nolar so‘zning ifodaviy, ya’ni kontekstual polisemiyasiga asoslanadi.

Izohlar bir-birini mazmunan takrorlamaydi, har biri alohida, mustaqil atash semasini ochib bermoqda. Navbatdagi assume so‘zining ma’nolari sifatida shak-shubhasiz ishonmoq, mas’uliyatni bo‘yniga olmoq, birovning mas’uliyatni bo‘yniga olmoq, biror xulq-atvorni o‘zlashtirmoq kabilarga ajratilgan. E’tiborlisi shundaki, sof lug‘aviy ma’nosida polisemiya kuzatilgan bu so‘zlar izohi qisqa, kichik kontekstual semalarning nutqiy ko‘rinishi misollar yordamida yoritilmagan. Lekin polisemik bo‘lmagan “tushunmoq” tafakkur fe’lining ma’nosi keng tahlil qilingan, maqolada takroriy izohlar uchraydi. Assume, think, evaluate so‘zlarining boshqa lug‘atlardagi izohiga e’tibor qaratamiz.

Shubhalanmoq. Shubha qilmoq, ishonchsizlik bilan qaramoq; gumonsiramoq.

“Kimdan shubhalanasan? “So‘fi ham domla-imom mendan shubhalanib, bir necha marta yer ostidan ko‘z qirini tashlab, xo‘mrayib qaradilar”. “Yigitlar ... uni shunchalik izzat qilishar ediki, Asror ota bu juvonning oddiy traktorchigina ekaniga shubhalanib qoldi”. Bu holat fe’lining yaqqol ko‘zga tashlanadigan salbiy konnotativ semasi mavjud. So‘z izohi qator ma’nodoshlardan iborat. Ma’nodoshlar deskriptiv jumla tarkibida emas, ketma-ket leksemalar shaklida keltiriladi. So‘zning asl mohiyatini misollardagi kontekstual aloqa ochib bergan. Bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi faqat aqliy faoliyat doirasida cheklanmagan. Bu holat fe’li hissiy fonga ham ega, ya’ni insonning ishonchsizlik holatini anglata oladi. Aynan shu hissiy fon so‘zning ma’nosi salbiy kontekstda namoyon bo‘lishini ko‘rsatib beradi. Bu so‘z izohi ham ma’nodoshlardan tuzilgan bo‘lsa ham, ma’no sun’iy ravishda ikkiga ajratilmagan. Bu esa lug‘at maqolaning ikkilanmoq izohidan ko‘ra ko‘proq mantiqiy asoslanganligini ko‘rsatadi.

“Gumonsiramoq. Biror kim yoki narsadan bir oz gumon qilmoq. Shubhalan-

moq”.

“Ergash stol oldiga kelayotib, orqasidagi Dobrotvorsevga yana gumonsirab qaradi”.

Ko‘pincha salbiy ma’noga ega leksemalar izohiga shu so‘zning teskarisini keltirish usulida yondashish imkoniyati bor. Masalan, deskriptiv izohlar quyidagi ko‘rinishda bo‘la oladi.

Ikkilanmoq – bir qarorga kelishga qiynalmoq, tanlovni amalga oshirishda jur'atsiz bo'lmoq.

Shubhalanmoq – tanlovda bir to'xtamga kela olmaslik, kishining xatti-harakati noto'g'ri ekanligini sezmoq, dalilsiz shunday fikrda bo'lmoq.

Gumonsiramoq – biror alomat-belgilarga tayanib, kishidan, xatti-harakatdan, vaziyatdan qat'iyatsiz shubha qilmoq.

Bo'lishsizlik shaklidagi holat fe'llaridan foydalanib, faqat ayrim leksemalarni izohlay olamiz. Bu leksik-semantik maydon tizimida ushbu so'zlar antonimlik ma'no munosabatiga ega ekanligiga qarab amalga oshadi. Agar so'z aniq ekvivalent, shu turkum doirasida antonimiga ega bo'lmasa, unda izoh deskriptiv yoki sinonimik bo'la oladi, xolos. Rejalashtirmoq, chamalamoq kabi fe'llar ana shunday ziddiyatga kirishmaydigan tafakkur fe'llariga misol bo'ladi. Ajratib olingan uch izoh uslubi orasida deskriptiv izoh barcha so'zlarga, xususan, hamma tafakkur fe'llari izohiga mos tushishi bilan ajralib turadi. Zid ma'noli so'zlarning bo'lishsizlik shakli va sinonimik yondashuv izohlanadigan leksemaning paradigmatik ma'no munosabatlariga asoslanadi. Agar leksema bunday ma'no munosabatlarining biriga ega bo'lmasa, ya'ni sinonim yoki antonimlari bo'lmasa, bu izoh usulini qo'llash ham mumkin bo'lmaydi.

Xulosa: Ma'no turiga ko'ra fe'llar ikki yirik guruhga holat va harakat turlariga bo'linadi. Ushbu ma'noni ifodalaydigan fe'llarning zamon, shaxs-son, mayl, nisbat kategoriyalari aniqlangan. Ularning ifoda shakllari turli tizimli tillarda farqlanadi. Masalan, ingliz tilidagi ayrim holat fe'llari, xususan, tafakkur fe'llari davomiy zamon kategoriyasida tuslanmaydi. O'zbek tilida esa bunday uslubiy funksional cheklov mavjud emas. Ingliz tilida ayrim tafakkur fe'llari davomiy zamonda tuslanganda semantik siljish ro'y beradi. Ingliz tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham ushbu fe'llar aqliy faoliyat fe'llari guruhi deb belgilangan. Tafakkur jarayonlarini anglatadigan holat fe'llari o'z leksik-semantik guruhi tarkibida yana boshqa xususiy ma'no turlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Madvaliyev tahr. ost. O'zbek tilining izohli lug'ati – Toshkent: O'zME, 2006. – B. 524.
2. Atkins B., Rundell M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. Oxford University Press Inc. – New York, 2008.-P.230
3. Касарес Х. Введение в современную лексикографию. 1958. – С. 65.
4. Абидова З. Ҳ. ТАФАККУР ФЕЪЛЛАРИ ТАРЖИМАСИДА СЕМАНТИК ДАРАЖАЛАНИШ ТАМОЙИЛИ // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 981-986.
5. Abidova Z. X. Ingliz va o 'zbek tillaridagi tafakkur fe'llarining tahlili //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 736-739.
6. Xabibullayevna A. Z. O'ZBEK TILIDA TAFAKKUR FE'LLARINING MA'NO XUSUSIYATLARI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 12. – №. 2. – С. 17-23.

Muxlisa SHERALIYEVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
xamdamovamuxlisa@mail.ru

YOSHLAR ORASIDA SLENGLARDAN FOYDALANISHNI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlar doirasida slenglardan foydalanish bilan bog'liq muammolar, ularning nutqda ishlatilishining sabablari, shuningdek ushbu so'zning tavsifi va qisqacha etimologiyasi keltirilgan. Shuningdek, ushbu maqolada sleng, jargon kabi til hodisalariga qarshi kurashish masalasi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *yoshlar slengi, kasbiy slenglar, psixologik ximoya, slenglashgan til.*

Аннотация: в этой статье будут рассмотрены проблемы, связанные с использованием сленга в молодежной среде, причины их употребления в речи, а также описание и краткая этимология этого слова. Также в данной статье рассматривается вопрос борьбы с такими языковыми явлениями, как сленг, жаргон.

Ключевые слова: *молодежный сленг, профессиональный сленг, психологическая защита, сленгизированный язык.*

Annotation: this article will address the problems associated with the use of slang among young people, the reasons for their use in speech, as well as a description and brief etymology of this word. This article also discusses the issue of combating such linguistic phenomena as slang, jargon.

Key words: *youth slang, professional slang, psychological protection, slangized language.*

Kirish. Mamlakatimizda norasmiy yoshlar uyushmalari va ularning til xususiyatlari puxta o'rganilmaganligi ushbu mavzuning dolzarbligini aniqlab beradi. Ma'lum bir yoshda, ayniqsa, o'spirinlik paytida har birimiz bu muammoga duch kelamiz. Ammo vaqt o'tib kattalarda adabiy og'zaki til shakllanadi.

Yoshlar, hamda talabalarning muhitida jargonlarning qo‘llanilishi bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, psixolingvistika kabi sohalarning bir qator ilmiy bilimlariga murojaat qilishga undaydi.[1]

Sleng foyda yoki faqat zarar keltirishini aniq tushunish uchun uning psixolingvistik xususiyatlarini ko‘rib chiqish kerak.

Yoshlar muloqot jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini har tomonlama yoritib beradigan dominant psixolingvistik yoki sotsiolingvistik nazariya mavjud emas. Kamdan kam hollarda biror bir nazariy yondashuv til va aloqa bilan bog‘liq murakkab jarayonlarni to‘liq ochib beradi. Yoshlar slengi jarayonida aks etadigan muhim ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va tavsiflashga yordam beradigan bir nechta nazariyalar mavjud.

Asosiy qism. Tildan foydalanib odamlar shu tilda so‘zlashuvchilar bilan munosabatlar qurishadi, muloqot qilishadi. So‘zlashuvning o‘zaro aloqasi muloqotning ajralmas xususiyatidir. M. Roloff aloqa jarayonining psixologiyasini o‘rganib, qoniqarli va qoniqarsiz aloqa jarayonini tavsiflovchi ijtimoiy almashinuv nazariyasini ishlab chiqdi. Ijtimoiy almashinuv nazariyasiga ko‘ra aloqa jarayonida odamlar pul almashinuvi jarayonidagi kabi o‘zaro manfaat tamoyilidan kelib chiqib bir-birlari bilan aloqa qilishga xarakat qilishadi. Masalan, agar suhbat davomida ishtirokchilardan biri boshqasiga iltifot ko‘rsatsa, unda qoida tariqasida, bu vaziyatda javob iltifoti kutiladi. Bundan tashqari, muloqotda ijobiy natijaga erishish uchun ular o‘rtasidagi vaqt oralig‘i nisbatan kichik bo‘lishi kerak. Muloqot ishtirokchilaridan biri qanday ohangda, qanday so‘zlar bilan, qanday pauzalar bilan, qanday yuz ifodalari bilan gaplashishi aloqa jarayonining muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. Agar suhbatdoshlardan biri uchun muvaffaqiyatli muloqotga erishish muhim bo‘lmasa, u aloqa almashinuvi umuman amalga oshirilmasligi uchun aloqadan qochish strategiyasiga murojaat qilishi mumkin.

Yoshlarning kunlik muloqot tili sifatida yoshlar jargonlari ularning rivojlanish darajasini, qiziqishlarini, didlari va ehtiyojlarini namoyon etadi. Ayniqsa, ijtimoiy hayotda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan talabalarning nutqi eng yuqori darajada o‘zgarish va ta’sir doirasiga ega bo‘ladi. [1]

Muloqot jarayonida qo‘llaniladigan noadabiy so‘zlarni o‘rganish va uni ilmiy tadqiq etish tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika sohalarida qator olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Umumiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika muammolari bo‘yicha V.V.Vinogradov, V.F.Gumbold, A.Vejbiskaya, Y.A.Zemskaya, A.A.Leontev, Ye.F.Tarasov, N.V.Ufimseva, D.A.Romanov, L.P.Krisin, V.Y.Mixalchenko, I.S.Kon, S.I.Levikova, S.Y.Matveeva, A.V.Gromov, V.T.Lisovskiy, A.A.Zalevskaya, N.G.Komlev, o‘zbek olimlaridan: I.Qo‘chqortoyev, M.Mirtojiyev, M.Qurbonova, R.Qo‘ng‘urov, T.Enazarov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, E.G‘oziyev, G‘.Shoumarov I.Azimova va boshqalar.

Yoshlar slengining o‘ziga xosligi birmuncha murakkab bo‘lib, uning ijtimoiy ildizlarini topib bo‘lmaydi, ayniqsa, o‘smirlar, o‘zlarini "tasdiqlash"ga erishish uchun, umumiy qabul qilingan nutq me’yoridan farq qiladigan so‘zlar va iboralarni qo‘llaydilar xolos. Bunda ba’zan ular chet tilidagi, mutaxassislik kasbiga oid bo‘lgan, vulgarizm, dialektizmga xos so‘zlarning tildagi turli xil elementlari qo‘llanilishi kuzatiladi. [1]

Yoshlar slengining eng asosiy roli bu katta avloddan psixologik himoyadir. [2] Boshqa tomondan, sleng yoshlarga birlashish tuyg‘usini, ijtimoiy guruh va kompaniyalarda “o‘zinikilarni” ajratib olishda yordam beradi. Agar yoshlar u yoki bu ijtimoiy guruhga tegishlilik ehtiyojini qondira olishsa o‘zlarini xavfsiz his qilishadi. Qizig‘i shundaki, slengning endigina shakllanayotgan shaxsga salbiy ta’siriga qarshi kurashishga harakat qilayotgan psixika ko‘pincha odamdan qarama-qarshi guruhga qo‘shilishga imkon beradigan biror narsa qilishni talab qiladi.

Shunday qilib, o‘smirlarda ijodkorlik hissi uyg‘onadi, ular she’rlar, kichik hikoyalar yozishadi, kundaliklar to‘ldirishadi. Bu hodisani o‘z-o‘zini himoya qilish instinkti deb hisoblash mumkin. Shunday qilib psixika she’rlarda slenglarga boy bo‘lgan nutqning aksi bo‘lgan elementlardan foydlanishga majbur qiladi. Agarda maxsus motivatsion rivojlanish bo‘lmasa, yozuvchilik iste’dodi paydo bo‘lmaydi. Buning o‘rniga yosh ijodkor o‘z asarlari syujetlarida iqtidori bo‘lgan yo‘nalishga ishora qiluvchi elementlardan foydalanadi.

Muhimi shundaki, unga qarshi kurashish faqat uning himoyasiga yo‘naltirilgan urinishlarning va yoshlar ongida slenglarning rolini yanada kuchayishiga olib keladi. Keyinchalik esa sleng yoshlar va kattalar o‘rtasidagi buzish juda qiyin bo‘lgan himoya devori vazifasini bajarishni boshlaydi. Shunday ekan zo‘ravonlik orqali yoshlarni adabiy me’yorlarga javob beradigan to‘g‘ri nutqdan foydalanishni o‘rgatib bo‘lmaydi. Shuningdek, to‘g‘ri nutqning afzalliklarini namoyish qilib berish orqali ham yaxshi natijalarga erishish mumkin. Lekin bu jarayonni to‘g‘ri va aniqlik bilan tashkil qilish lozim. Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, sleng bu, ko‘pchilik ta’kidlaydigandek, mustaqil muammo emas, balki shaxsning ma’lum ruhiy muammolarining ko‘rsatkichidir. Slengga qarshi kurashish uchun qilinayotgan barcha urinishlar uning sababi bilan emas, balki oqibatlariga qarshi kurashish bo‘lganligi uchun ham kutilgan natijalarni bermayapti. [3]

Tadqiqotimizning dolzarbligi ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar mamlakatimizda deyarli olib borilmayotganligi va norasmiy yoshlar uyushmalari

ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida tanlanmayotganligi bilan bog‘liq.

Biz norasmiy yoshlar uyushmalari vakillari o‘rtasida slenglardan foydalanish xususiyatlarini aniqlash va statistik tahlil qilishga qaratilgan tadqiqot o‘tkazdik.

Biz tadqiqotimiz obyekti sifatida kundalik muhitda yoshlar slenglaridan foydalanuvchi norasmiy yoshlar uyushmalari vakillarini tanlab oldik.

Yoshlar slenglarini psixologik nuqtayi nazardan ko‘rib tahlil qilingan o‘ziga xos lingvistik hodisa sifatida tadqiqotimizning predmeti etib belgilab oldik.

Tadqiqotda 15-40 yoshni tashkil etuvchi 40 ta respondent talaba va o‘quvchilar ishtirok etishdi.

Biz o‘z ishimizda oldindan tuzib olingan 15 ta savoldan tashkil topgan anketadan foydalandik. Savollarning bittasi ochiq savol shaklida berilgan bo‘lib, qolgan savollar test shaklida berildi. Ushbu tadqiqotdan olingan ma’lumotlar statistik ma’lumotlarni hisoblash usuli bilan qayta ishlandi.

Olingan ma’lumotlar natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

Slenglardan foydalanuvchilar 15-20 yoshlar atrofida bo‘lib, ularning asosiy qismini o‘quvchi yoki talabalar tashkil qiladi.

15-20 yosh oralig‘idagi talaba va o‘quvchilar slenglardan muntazam ravishda foydalanishsa, 20 yoshdan katta bo‘lganlar o‘z nutqlarida ulardan deyarli foydalanishmaydi.

Respondentlar oila a’zolari yoki yoshi katta odamlarga qaraganda jamoat joylarida va do‘stlar bilan muloqot qilishda nutqlarini tengdoshlariga tushunarli bo‘lishi maqsadida slenglardan foydalanishni afzal ko‘rishadi.

Respondentlarning asosiy qismi slenglardan o‘z o‘rnida foydalanishni oqlasalar, ma’lum qismi ular tilni boyitmaydi, ommaviy axborot vositalari va televideniyeda slenglardan foydalanishni cheklash kerak va slenglardan foydalanmasdan ham nutqni qurish mumkin deb hisoblashadi.

So‘rovnoma natijasida biz bir nechta ko‘p foydalaniladigan sleng so‘zlarni aniqlab oldik: univer, krash, g‘ijim, jirafa, chuchvara, qulog‘iga tepdi, tormoz, yemagan, vatan, qovun, jiza, gazini qo‘shdi, tank, brat, xarip, dup, limon, gadoy paket.

Xulosa. Ko‘pgina tilshunoslarning fikriga qo‘shilgan holda, shuni ta’kidlash kerakki, slenglar so‘z boyligini kengaytiradigan, rivojlantiradigan tilning ajralmas qismidir. Lekin slenglardan adabiy va rasmiy nutqda foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Kh.Ahmedova. Psycholinguistic features of jargon words. Journal of innovations in pedagogy and psychology, 2020 Journal of innovations in pedagogy and psychology 2020. pp. 522-531

2. Вишняков А.И., Киреева Н.В. // Психологические особенности сленговых отношений в этнокультурном и возрастном аспекте // Фундаментальные исследования. 2013. №6-1.-С. 174-178.

3. Локиев А.А. Бессознательное сленга // Иллюзии целостности человека в психологии: от частного подхода к истинной системности. – СПб.: Лема, 2009. – С.214–221.

Dilnoza TURSUNOVA,
Qarshi davlat universiteti 2-kurs doktoranti
Qarshi davlat universitet o‘qituvchisi
Email: tursunovadilnoza95@gmail.com

LAKUNALARNI TASNIFLASH TAMOYILLARI. LEKSIK LAKUNA

Annotatsiya: bizning tadqiqotimizda lingvistik lakunalarni qiyosiy jihatdan o‘rganish quyidagi omillarni aniqlashga imkon beradi: semantik, madaniy, psixologik, baholovchi, estetik. Bunday birliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish tilning mohiyatini va ona tilida so‘zlashuvchining milliy xususiyatini tushunishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: *lingvistik lakuna, ekstralingvistik lakuna, interlingvistik lakuna, intralingvistik lakuna, leksik valentlik.*

Аннотация: сравнительное изучение языковых лакун в нашем исследовании позволяет выявить следующие факторы: семантические, культурные, психологические, оценочные, эстетические. Знание особенностей таких единиц позволяет понять сущность языка и национальный характер носителя языка.

Ключевые слова: *лингвистическая лакуна, экстралингвистическая лакуна, интерлингвистическая лакуна, интралингвистическая лакуна, лексическая валентность*

Annotation: in our study, the comparative study of linguistic lacunae allows you to identify the following factors: semantic, cultural, psychological, evaluative, aesthetic. Knowing the peculiarities of such units makes it possible to understand the essence of the language and the national character of the native speaker.

Key words: *linguistic lacunae, extralinguistic lacunae, interlinguistic lacunae, intralinguistic lacunae, lexical valence.*

Kirish. Lakuna fenomenining murakkab tabiati, ushbu konsepsiyani talqin qilishning noaniq yondashuvi lakunalarning turli toifalarini ta'kidlashda aks etadi. Tilshunoslikda bugungi kunda lakunar birliklarning ko'plab tipologik tasniflari mavjud bo'lib, ularning tizimli tashkil etilishini tavsiflash turli xil asoslarga asoslanadi: tarixiy evolyutsiya nuqtayi nazaridan (sinxron va diaxron) (V. L. Muravyov), bitta til ichida yoki ikki tilni taqqoslashda (tillararo va muayyan til doirasida) (V.G. Gak, A. I. Belov, L. A. Leonova, D. Popova, I. A. Sternin va boshqalar), tildan tashqari omillar (lingvistik yoki madaniy, motivatsiyalangan yoki motivatsiyasiz) tufayli (I. Y. Markovina, Y. A. Sorokin, D. Popova, I. A. Sternin, G. V. Bykova), paradigmatika bo'yicha (tur yoki nasl) (V. L. Muravyev, B. Xaritonova, D. Popova, I. A. Sternin, A. I. Klishin), ularning ma'nolarining abstraktlik darajasi bo'yicha (mavzu va abstrakt) (D. Popova, I. A. Sternin) mavjudligini ta'kidlaydilar. Ko'rib turganingizdek, lakunalarning ko'plab turlarini sanab o'tish lingvistik ilmiy adabiyotlarda lakunalarning yagona tipologiyasi yo'qligini va tadqiqotchilar ularni turli xususiyatlarni hisobga olgan holda tasniflashlarini ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Bizning tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan, lakunalarning tildan tashqari tabiatiga ko'ra lingvistik (tilshunoslik) va ekstralingvistik (madaniy)ga bo'linishi muhim ahamiyatga ega. Lingvokulturologik lakunalar tipologiyada oraliq pozitsiyani egallaydi. Shuning uchun biz lingvistik lakunani o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan kamida ikkita til o'rtasidagi nomuvofiqlikning ifodasi sifatida belgilaymiz va quyidagi holatlarda uchratamiz:

a) tillardan birida ekvivalent til birligini boshqa tilga nisbatan taqqoslashning yo'qligi sifatida;

b) ikkita lingvistik madaniyat uchun yagona bo'lgan tushunchalarni ifodalashning turli usullarida;

d) leksik (yoki boshqa) birliklarning o'ziga xosligi bilan bir-biriga mos kelmagan holatlarda.

"Tillarni taqqoslashda uchraydigan lakunalar lingvistik, leksik, grammatik va stilistik, to'liq yoki qisman kompensatsiyalangan bo'lishi mumkin", deb yozadi I. V. Tomasheva [4, 124-bet].

Lingvistik lakunalarning bo'linishining asosiy mezonlaridan biri bu ularning tizimli-lingvistik mansubligi bo'lib, unga ko'ra ular interlingvistik lakuna (tillararo) va intralingvistik lakuna (til ichidagi) bo'linadi. Til ichidagi (intralingvistik) lakunar birliklar faqat bitta tilning paradigmalari ichida sodir bo'ladi – masalan, qarama-qarshi semantikaga ega leksemaning yo'qligi, har qanday stilistik bog'liqlik bilan til birligining yo'qligi, so'zning morfologik shakllaridan birining yo'qligi va boshqalar. Sterninning ta'kidlashicha, har bir tilning leksik-frazeologik tizimida ko'p sonli lakunar birliklar, ya'ni "bo'sh joylar" mavjud, garchi ular ma'no jihatidan o'xshash so'zlarga ega bo'lsa ham.[5, 9-bet]

Darhaqiqat, bunday misollar juda ko'p misol uchun rus tilida каток (konkida uchish) leksemasi mavjud, ammo bolalar va o'spirinlar yugurishni yaxshi ko'radigan muz ustidagi chizig'ini ifodalovchi maxsus so'z yo'q, o'rta maktab o'quvchisini atash uchun maxsus старшеклассник so'zi bor, lekin boshlang'ich sinf o'quvchisiga murojaat qilish uchun umumiy qabul qilingan birlik yo'q, "salbiy faktlar to'g'risida xabar berish" (жалоба, донос) ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar mavjud, ammo "ijobiy faktlar to'g'risida xabar berish" uchun maxsus atama mavjud emas.

Lingvistik lakunalarni ikki til doirasida (yoki bir nechta) ushbu tillarning leksik yoki grammatik tizimlarini yoki bir qator tillarda milliy madaniyatni idrok etishning lingvokognitiv mexanizmlarining xususiyatlarini aks ettiruvchi so'zlarning nisbiy semantik maydonlarini taqqoslash orqali aniqlash mumkin. Lingvistik lakunalar tillar birliklari o'rtasidagi nomuvofiqliklarni (bo'shliqlarni) aniqlaydi [6]. Masalan, ingliz tilidagi to case fe'li rus tilida класть в ящик tarzida, rus tili lug'atida mavjud кулек atamasi esa ingliz tilida small mat-bag tarzida izohlovchi so'zlar bilan beriladi. Shuningdek, nemis tilidagi ubelberaten termini rus tilida получивший дурной совет tarzida, rus tilidagi накануне tushunchasi esa nemis tiliga tags zuvor tarzida tarjima qilinadi.

Pauses in translation process are seen as indicators of cognitive processing, the centre discussion of translation process research [Alves 2006; Jakobsen 1998, 2002; Screen 2016]. As Kumpulainen [2015, p. 48] says that translation can be regarded as a complex cognitive task that involves planning and problem solving linked with interlingual and intercultural processing, and cognitive task is manifested in pauses. In line with Kumpulainen, Krings [2001, p. 304] states that language production research shows that pauses are of great value in the identification of processes, and especially process boundaries. In addition, the high operationality of pauses is an advantage for data analysis. He uses pauses as markers for identifying "writing acts" in post-editing activity. Pauses as indicators of cognitive processing have been frequently mentioned in the literature; however, differences arise as to the duration of what is regarded as a significant pause. For Krings, the duration of a pause is one second for being an arbitrary unit, but he justifies this by saying that it made sense for his data analysis: one second was long enough to identify a distinguishable gap in verbalization flow and pauses of that length were easy to identify acoustically and to record with relatively reliable inter subjectivity [Krings 2001, p. 210]. In addition, Jakobsen (1998) investigates pauses in the context of translation process analysis using the tool. He states that "the assumption that time delay during text production and translation correlates with cognitive processing is strongly supported by the systematic syntagmatic distribution of delays" [Jakobsen 1998, p. 100]. In his article describing how the keyboard monitoring software Translog records pauses, he claims that a pause unit of 0.20 seconds brings us close to many subjects' typing speed. He also suggests that a pause length of 1 (one) second is appropriate for observing delays in a text production event. He says that for the purpose of observing the

distribution of longer delays in a text production event, a representation with a second time unit will often turn out to be very appropriate because it represents all the delays we want to identify and suppresses most of the delays we are not interested in. On the other end of the scale, Jakobsen argues that a time delay greater than 10 seconds will identify text initial and text final delays, delays between paragraphs, and delays appearing less systematically in front of particularly difficult text segments [Jakobsen 1999, p. 84]. In addition, Jakobsen investigates how time is divided between translation phases across semi-professional (senior cycle students) and professional translators. The phases he identifies are the initial orientation phase, the middle drafting phase and the final revision phase. Jakobsen observes a difference between the professional and semi-professional translators in the allocation of time between the three phases. He reports that, on average, professional translators dedicated more time to the initial phase and less time to the drafting phase than semi-professional translators. Hansen investigates two hypotheses regarding the occurrence of pauses in the translation process. Her first hypothesis is that some translators demonstrate specific pause behaviour in translation which is independent of language direction. Her second hypothesis is that there is no correlation between the position, duration and number of pauses and the quality of the translation product. She classifies pauses into

- Orientierungspausen (orientation pauses);
- Kontrollpausen (control pauses);
- Binnenpausen (internal pauses);
- Monitoringpausen (monitoring pauses) [Hansen 2002, p. 33].

When looking into the methods and aims of various process studies, the variation in pause lengths appears logical and methodologically sound. While it cannot be denied that the interval length considered as significant is to some extent arbitrary, the findings from studies in other fields, particularly in writing research give some guidelines in the operationalisation of the concept. Some studies clearly describe the rationale for choosing a certain value, while in others this information is notably absent. Explicit justification is of vital importance, however, since a pause is not, as described above, a given measurement with a similar role as an indicator of cognitive processing in each study. When the focus of the study is on translation uncertainty and translation problems, it seems that the pause length can be set at a somewhat higher level than when the aim of the study is to investigate segmentation patterns in translation – problem spots seem to require more cognitive effort and subsequently take more time to resolve. In addition to cognitive process, this research also found the application of social affective process during pauses. The use of social affective method could be seen from the interaction of the participants with other people through their articles published in the Internet. The interaction done by the participants was not a face to face interaction or interaction via emails or other chatting media, but it was the interaction through reading. Nevertheless, as technology develops, it would be possible to do an online interaction with other people during translation process, i.e. the interaction through online social media such facebook, messenger, whatsapp, etc. Therefore, pauses in translation process should not only be regarded as cognitive processing, but also as social affective processing. By applying social affective process, a cognitive load would be reduced. In relation to the online activities while taking pauses, this research found that the Students and Professionals had low skill in online resource management. This low skill was caused by two factors:

Moreover, it is concluded that pauses can be defined as the activities in translation process in which typing activities are excluded; in other words, while a translator was not typing, he was taking a pause. This also means that any break in the writing process during the translation process is categorized as pauses. In addition, studying pauses also reveals the characteristics of the student and professional translators in doing revisions while translating the text.

REFERENCES:

1. Dragsted, B. Coordination of reading and writing processes in translation: An eye on uncharted territory. - Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 2010. - pp.41-62.
2. Jakobsen, A. L. Translation Drafting by Professional Translators and by Translation Students. - Copenhagen: Samfundslitteratur, 2002. - pp. 191-204.
3. Jakobsen, A. L. Effects of think aloud on translation speed, revision and segmentation. In F. Alves (Ed.), Triangulating translation: Perspectives in process oriented research. - Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 2003. - pp. 69–95.
4. Krings, H. P. Repairing Texts: Empirical Investigations of Machine Translation Postediting Processes. - Kent: Kent State University Press, 2001.
5. Kumpulainen, M. On the operationalisation of ‘pauses’ in translation process research. Translation & Interpreting. - Medan: University of Sumatera Utara, 2015.- pp. 47–58.
6. Sofyan, R. Translation Process and Translation Quality: A Study of Indonesian Student Translators. Dissertation. - Medan: University of Sumatera Utara, 2016.

Diyora KARIMOVA
Lecturer, Tashkent University of Information Technologies, Uzbekistan

A COMPREHENSIVE GUIDE TO MILITARY PHRASEOLOGY

Annotation: military operations necessitate a precise and efficient communication system. beyond standard language, military personnel employ a unique lexicon of specialized terms, acronyms, and euphemisms – military phraseology. This article delves into the intricacies of military phraseology, exploring its origins, functions, and various components. We will navigate the battlefield of language, deciphering commonly used phrases, codewords, and jargon, while examining the impact of cultural and technological advancements on military communication.

Key words: *communication in warfare, roots of military jargon, slang, maintaining cohesion, acronyms and initialisms, technical terms.*

Annotatsiya: harbiy harakatlar aniq va samarali aloqa tizimini talab qiladi. Standart tildan tashqari, harbiy xizmatchilar maxsus atamalar, qisqartmalar va evfemizmlarning noyob leksikasidan - harbiy frazeologiyadan foydalanadilar. Ushbu maqolada harbiy frazeologiyaning nozik tomonlari, uning kelib chiqishi, vazifalari va turli tarkibiy qismlari o'rganiladi. Madaniy va texnologik taraqqiyotning harbiy aloqaga ta'sirini o'rganib, keng tarqalgan ishlatiladigan iboralar, kodli so'zlar va jargonlarni hal qilib, tilning jang maydonida harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: *harbiy aloqalar, urushdagi muloqot, harbiy jargonning ildizlari, jargon, uyg'unlikni saqlash, qisqartmalar va boshlang'ichlar, texnik atamalar.*

Аннотация: военные операции требуют точной и эффективной системы связи. помимо стандартного языка, военнослужащие используют уникальный лексикон специализированных терминов, аббревиатур и эвфемизмов – военную фразеологию. Данная статья углубляется в тонкости военной фразеологии, исследуя ее происхождение, функции и различные компоненты. Мы будем ориентироваться на поле языковой битвы, расшифровывая часто используемые фразы, кодовые слова и жаргонизмы, а также изучая влияние культурных и технологических достижений на военное общение.

Ключевые слова: *общение на войне, корни военного жаргона, сленг, поддержание сплоченности, аббревиатуры и инициализмы, технические термины.*

Introduction: The Power of Words in Warfare. Throughout history, effective communication has played a pivotal role in military success. From the battlefield chants of ancient warriors to the encrypted messages of modern special forces, the ability to convey orders, share critical information, and maintain situational awareness has been paramount. Military phraseology serves as a specialized language, acting as a cornerstone for clear and concise communication within the ranks. The Roots of Military Jargon. The development of military phraseology is intertwined with the evolution of warfare itself. Early military forces adopted specific terminology to designate formations, maneuvers, and equipment. This specialized vocabulary not only fostered clarity but also served as a means of group identification, separating the military from the civilian populace. Military jargon is a fascinating mix of language sources, reflecting the long history and international nature of warfare. Here's a breakdown of its roots:

Acronyms and Abbreviations: The military loves acronyms, like AWOL (Absent Without Official Leave) or SNAFU (Situation Normal: All Fouled Up). These come from the need for clear, concise communication under pressure. Some speculate terms like SNAFU arose from soldiers' cynicism towards the military's love of acronyms.

NATO Phonetic Alphabet: A is for Alpha, Bravo for B, etc. This phonetic alphabet helps ensure clarity in communication over potentially noisy channels, especially when different nationalities are working together.

Formal Military Terms: Many military terms have specific meanings within that context. For example, "flanking maneuver" describes a specific tactic.

Loanwords: Military forces around the world have borrowed terms from each other. The Filipino word "bundok" for mountains became "boondocks" in American English during the Spanish-American War.

Slang: Soldiers are just like any other group - they develop their own slang. This slang can be humorous, cynical, or a way to build camaraderie. Terms like "AWOL" started out as slang.

The Functions of Military Phraseology. Military phraseology is more than just jargon used by soldiers. It's a meticulously crafted language that serves a multitude of functions crucial to the success of any operation. This essay will explore the key roles military phraseology plays in ensuring clarity, efficiency, and maintaining a cohesive fighting force.

Efficiency under Pressure: Time is of the essence in combat. Military phraseology condenses complex situations into concise reports and orders. Terms like "be advised," "situation normal," or "negative contact" allow for rapid information exchange with minimal ambiguity. This efficiency allows for quicker decision-making and a faster response to threats.

Maintaining Cohesion: A military unit is a well-

oiled machine. Military phraseology fosters a sense of shared identity and purpose. Terms like "hooah" or "roger" build camaraderie and a sense of belonging. Additionally, standardized reporting formats and briefings ensure everyone receives the same information and operates within the same framework. This cohesion fosters trust and cooperation, vital for navigating the challenges of war.

Beyond the Battlefield: Military phraseology's influence extends beyond combat zones. Acronyms like "AWOL" (Absent Without Official Leave) or "SNAFU" (Situation Normal: All Fouled Up) have permeated civilian language. This demonstrates the efficiency and clear communication achieved by military terms. Additionally, phrases like "gung-ho" or "boots on the ground" evoke the dedication and professionalism associated with the military.

Military phraseology is more than just a collection of words. It's a language designed for a specific purpose – ensuring clarity, efficiency, and cohesion in a high-pressure environment. Its influence extends beyond the battlefield, demonstrating its effectiveness in fostering clear communication and shared understanding. By understanding the functions of military phraseology, we gain a deeper appreciation for the complexities of military operations and the importance of clear communication in achieving success.

Components of Military Phraseology. Military phraseology encompasses a diverse range of elements, including:

Acronyms and Initialisms: Acronyms like "AWOL" (Absent Without Leave) and "ETA" (Estimated Time of Arrival) expedite communication.

Technical Terms: Military equipment, tactics, and procedures all have designated terms for clear understanding.

Euphemisms: Military personnel often use euphemisms to lessen the emotional impact of harsh realities. For instance, "friendly casualties" might be used instead of "dead soldiers."

Codewords: Classified information is often disguised using codewords to ensure operational security.

A Look at Common Military Phrases. To gain a deeper understanding of military operations, let's unpack the meaning behind some frequently used expressions. (This highlights the purpose of learning the phrases)

- **Affirmative:** Used to confirm receipt of a message.
- **Roger**: Indicates a message has been understood.
- **Over and Out**: Signals the end of a transmission.
- **Be advised**: A preface to important information.
- **Boots on the ground:** Refers to troops deployed in a specific location.

LZ (The military develops a unique language over time, a shorthand for complex ideas and situations forged in the crucible of combat and training. These phrases, while often cryptic to outsiders, serve a vital purpose within the military by promoting clear communication, fostering unit cohesion, and even offering a grim sense of humor in the face of danger. This essay will explore some of the most common military phrases, examining their meaning and significance. One category of military phrases deals with operational matters. Terms like "boots on the ground" signify the deployment of troops into an active conflict zone. "Roger" and "Wilco" are simple but essential confirmations of received messages. Others, like "SNAFU" (Situation Normal: All Fouled Up) or "FUBAR" (Fouled Up Beyond All Recognition), paint a vivid picture of chaotic situations using sardonic humor. Military life also necessitates a specific vocabulary for locations and equipment. A "FOB" is a Forward Operating Base, a temporary military installation. Soldiers might refer to a helicopter as a "bird" or a rifle as a "bang-bang." Understanding these terms ensures smooth communication and avoids confusion during critical moments. Beyond technical jargon, military phrases also build unit cohesion and morale. "Hooah" (Army) or "Oorah" (Marines) are motivational shouts used to inspire troops. Phrases like "got your six" (meaning "I have your back") foster trust and camaraderie among soldiers who rely on each other for survival. Even seemingly innocuous terms like "buddy" or "devildog" (Marine for fellow Marine) create a sense of belonging and shared experience. Some military phrases have bled into civilian life, enriching our everyday language. "AWOL" (Absent Without Official Leave) is a common term, while "bite the bullet" (to endure pain or hardship) speaks to the perseverance required in difficult situations. These borrowed terms serve as a reminder of the sacrifices made by those who serve. Military phrases are more than just jargon. They are a vital part of military culture, promoting clear communication, unit cohesion, and even dark humor in the face of adversity. Understanding these phrases offers a window into the unique world of the military and the experiences of those who serve.

The Impact of Culture and Technology. Military phraseology is not static. Cultural and technological advancements significantly influence its evolution.

Cultural Influences: Military forces from different nations often develop unique terminology reflecting their cultural backgrounds and military traditions.

Technological Advancements: The rise of new technologies like drones and cyberwarfare has necessitated the creation of new phrases and acronyms to describe these emerging domains of

warfare.

Conclusion: The Enduring Significance of Military Phraseology. Military phraseology serves as a vital tool for clear communication, efficient operations, and fostering a sense of shared identity within the armed forces. As the nature of warfare continues to evolve, so too will military phraseology adapt to meet the ever-changing demands of the battlefield. Understanding this specialized language offers a window into the world of the military, providing valuable insights into their operations and thought processes.

REFERENCES:

1. Abduvaxidovna, K. D. . (2022). THE POWER OF VOCABULARY AND PHRASEOLOGY. Confrencea, 7(7), 164–166. Retrieved from https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/359.
2. Karimova , Diyora Abduvaxidovna. 2022. “MILITARY VOCABULARY IN BUSINESS ENGLISH”. Innovative Development in Educational Activities 1 (6):177-80. https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/549.
3. ABDULLAYEVA SOKHIBAKHON YAKUBOVNA. (2021). FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES IN THE MODERNIZATION OF THE ECONOMY. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(10), 189–191. Retrieved from https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/251.
4. Sarimsakova , N. . (2024). INDUCTIVE WAY OF TEACHING VOCABULARY USING COLLAGATIONS. Наука и инновация, 2(2), 74–77. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/26315.

Nodira QURBONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
nnodira161194@gmail.com

YOZMA NUTQ KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH: HOLAT VA MUAMMOLAR

Annotatsiya: o‘zbek tili o‘qituvchilari o‘zbek tilini boshlang‘ich darajada biluvchi xorijlik talabalarda yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish jarayonida doimo qiyinchiliklarga duch kelishadi. Boshqa til ko‘nikmalaridan farqli o‘laroq faqatgina yozma nutq ko‘nikmasi qolgan uchta til ko‘nikmalari shakllanib bo‘lgandagina namoyon bo‘ladi. Bu ko‘nikma o‘zida barcha til ko‘nikmalarining jarayoni va o‘rganilganlik darajasining kombinatsiyasi sifatida yuzaga keladi.

Kalit so‘zlar: *yozma nutq ko‘nikmasi, grammatik qoida, o‘qitish usullari, muammolar, yechimlar.*

Аннотация: преподаватели узбекского языка всегда сталкиваются с трудностями в процессе обучения письму иностранных учащихся на начальном уровне. В отличие от других языковых навыков, письмо достигает совершенства только тогда, когда сформированы остальные три языковых навыка. Этот навык представляет собой сочетание процесса и уровня изучения всех языковых навыков.

Ключевые слова: *навыки письменной речи, грамматические правила, методы обучения, проблемы, ри ешения.*

Annotation: uzbek language teachers always face difficulties in the process of teaching writing to foreign students at the elementary level. Unlike other language skills, writing is only excelled when the other three language skills are formed. This skill is the combination of the process and level of learning of all language skills.

Key words: *writing skill, grammar rules, teaching methods, problems, solutions.*

Kirish. Til ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish o‘qituvchilar uchun doimo murakkab lekin qiziqarli vazifa bo‘lib kelgan. O‘rganuvchilar uchun ham ular orasida yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish biroz qiyin tuyuladi. Ammo o‘qituvchi mahorati va u tanlagan metodlar orqali bunday muammolarni hal etish murakkab emas. Ushbu maqolada til o‘qituvchisi va ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolarga e’tibor qaratiladi. Avvalo, o‘qituvchi sifatida talabalar bilan yozma nutq yaratishning maqsadlarini muhokama qilish va buni o‘rgatishning asosiy sababi – o‘z fikrlarini so‘z bilan ifodalashga yordam berish ekanligini anglatish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon odatda quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi: ko‘chirib yozish, “mashqlarni bajarish”, “yo‘naltirilgan yozma mashqni bajarish”, mustaqil yozish. Buning samarali usullaridan biri o‘quvchilarni har bir jarayondan so‘ng rag‘batlantirish va ularni keyingi yozish bosqichlari haqida xabardor qilishdir.

Til o‘rganish jarayonida talabalar aynan yozishni yoqtirmasliklarining asosiy to‘rtta sababi quyidagilar:

1. Bu ko‘nikmaning qanchalik o‘zlashtirilganlik darajasi boshqa ko‘nikmalarga taqqoslaganda ko‘proq daliliy hisoblanadi, shuning uchun ularga biroz xavf tug‘diradi.
2. Aynan ushbu jarayonda talabalar til bo‘yicha yetarli bilimga ega emasliklarini his qiladilar.
3. Yaratilayotgan har qanday yozma ish

grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi kerak deb hisoblaydilar.

4. Yozma nutqlarini birinchi urinishdayoq rasmiy jihatdan mukammal bo‘lishi kerak deb o‘ylashadi.

Asosiy qism. Chet tili sifatida til o‘rganuvchilar uchun yozishni o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi ko‘plab muhim jihatlarni hisobga olishi kerak. Har bir dars puxta tayyorgarlikni talab qiladi – darsni talabalarga qiziqarli tashkillashtirish uchun turli xil metodlar, mashg‘ulotlar va o‘quv qo‘llanmalarini dars davomida qo‘llash lozim. Ko‘plab sinflarda yozma nutq ko‘nikmasiga e’tibor juda kam, chunki unga faqatgina til bilish darajasining sinov vositasi sifatida qaraladi. Natijada esa yozish jarayonini o‘rgatish va o‘rganish biroz zerikarli tuyulishi mumkin. O‘qituvchilar odatda quyidagi muammolarga duch kelishadi:

– talabalar standarti va ularning boshlang‘ich darajadagi o‘rganish uslubi.

– boshlang‘ich darajadagi talabalar yarata oladigan yozish turlari.

– yozish bilan bog‘liq muammolarning sabablari.

– yozish muammolarini bartaraf etish uchun yechimlar?

Talabalar til o‘rganish jarayonining boshlang‘ich darajasida ekanliklarida ularda grammatika, so‘zlarning imlosi, so‘z tartibi va lug‘at bo‘yicha bilimlar yetarli bo‘lmaydi. O‘zbek tili ta’lim rejasiga o‘rganish sifatida kiritilgan bo‘lsa-da, ular uni faqatgina fan sifatida o‘rganadilar. Demak, xorijlik talabalar o‘zbek tilini til sifatida ishlatishga qiziqish bildirmaydilar va buning o‘rniga ular buni o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu deb bilishadi xolos. Ikkinchidan, talabalar o‘quv va badiiy nashrlardagi turli sarlavhalar ostida yozish uslublari va lug‘atlarni ajrata olmasalar, ko‘plab muammolarga duch kelishadi. Uchinchidan, yozishga qiziqish bildirmaslikning asosiy sabablari o‘zbek tilini o‘rganish uchun motivatsiyaning yetishmasligi va o‘quvchining qiziqishi yo‘qligi bo‘lishi mumkin. I.L.Bim chet tilini o‘qitishda yozish faoliyatiga muhim vosita sifatida qaraydi va yozma nutqqa alohida maqsadga yo‘naltirgan holda o‘qitish muhimligini, aks holda u samarali o‘qitish vositasi bo‘la olmasligini ta’kidlaydi.

Yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish haqida so‘z borganda, uni o‘rgatishda uchta ajralmas jihat borligini yodda tutishimiz kerak:

1. Chet tilining muhim qismi sifatida yozuv – bu tilning muhim elementlarini tinglab tushinish, gapirish va o‘qish jarayonida foydalana olishdir.

2. Xorijiy tilni o‘rganish maqsadi sifatida yozuv – bu turli xil real hayotiy vaziyatlar uchun qayd qilish, xulosa qilish, hikoya qilish, hisobot berish kabi maqsadlarni bajarish uchun yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

3. Mazmunli yozish – yozma matn qismlarining bir-biri bilan aloqadorligi, uzluksizligi va tashkiliyligi bilan bog‘liq bo‘lgan turli lingvistik vositalardan foydalanishdir.

Talabalarning yozma nutqini shakllantirish jarayonida, avvalo, ularning “ehtiyojlari va qiziqishlari”ni hisobga olish zarur. Buning uchun to‘g‘ri uslubiy yondashuvni tanlash jarayonida har doim quyidagi kabi savollar tug‘iladi:

1. Grammatik qoidalarni qachon va qanday tushuntirish zarur?

2. Chet tilida yozma matn yaratish jarayonida grammatikadan to‘g‘ri foydalanilmasa, umuman axborot bo‘lmaydi deb o‘ylaysizmi?

3. O‘qitishning o‘quv jarayonini qanday faollashtirish mumkin?

Boshqa tomondan qaraganda, talabalar o‘zbek tili grammatik qoidalarini o‘rganishlari, iloji boricha asl o‘zbek tilini eshitishlari va o‘qishlari, har kuni kamida 2-3 tadan yangi so‘zlarni o‘rganib borishlari va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun boshqa zarur amallarni bajarishlari kerak.

Ushbu jarayonda o‘qituvchi va o‘rganuvchi uchun ayrim qiyinchiliklar va muammolar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

O‘rganuvchi uchun:

1) so‘z boyligining kamligi;
2) grammatik bilimlarning yetishmasligi;
3) motivatsiyaning yetarli darajada emasligi;
4) o‘quv materiallarning kamligi

O‘qituvchi uchun:

1) motivatsiya;
2) texnologiya va metodlardan foydalanish;
3) sinf xonasini boshqarish;
4) talabalarning turli xil ta'lim uslublari;

Yuqoridagi muammo va qiyinchiliklarni bartaraf etish ko‘proq vaqt talab etadi. Muammo bo‘lgani kabi, albatta, uning yechimi ham mavjud. Yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish jarayonida eng asosiy komponentlardan biri lug‘at boyligi bo‘lganligi sababli, eng avvalo, uni boyitmoq lozim. Zerin taklifiga binoan topshiriq vaqtida eng yaxshi yordamchi hisoblangan va talabalar doimo olib yuradigan vosita – ularning smartfonlariga “Lug‘at ilovasi”ni yuklash taklif etiladi. Chunki u ham vaqt tejaydi va kerakli so‘zlarni topish ancha oson.

Grammatik muammolar yuzaga kelganda o‘qituvchining mas’uliyati yana ham ortadi. Har qanday grammatik mavzuni iloji boricha qisqa va aniq tushuntirish lozim. Rabeya Nasrin Xon (2007) so‘zlariga ko‘ra, bir til talabalar uchun xorijiy til sifatida o‘qitilayotganda boshlang‘ich darajalarda grammatik tarjima metodi eng maqbul variant. Chunki bu metodning asosida tilning aynan yozuv va grammatikasi yotadi.

Xulosa qilib aytganda, yozuv faoliyatining barchasi o‘rganuvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ularning amaliyoti imkon qadar real hayot bilan bog‘lanishi lozim. Shuningdek, motivatsiyaning talabalarning yozish qobiliyatiga

ta’siri ham juda katta bo‘lib, u mavzularni qanday o‘rganishlari va ularga qanday munosabatda bo‘lishlariga katta ta’sir qiladi. Bundan tashqari, ko‘plab talabalar aynan yozma nutq mahoratini eng murakkab ko‘nikmalardan biri deb hisoblaydilar, chunki u mukammal yaratilishi uchun to‘g‘ri qo‘llangan grammatika va so‘zlarni talab qiladi. Biroq, bularning barchasi o‘qituvchilarga bog‘liq. Talabalar e’tiborini qiziqarli metodlar bilan jalb qilish va ularda topshiriqlarni bajarishda o‘z xohishlarini kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mukminin, A.2011. Teacher Employment and Deployment: The Issues of Oversupply and Undersupply of Teachers. Florida University. Print
2. Richard. J. and Rodgers. T., (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Second Edition. Cambridge University Press. Print
3. Sheeba, Sheeba. (2018). Teaching Writing: Issues and Challenges.
4. Teacher’s Manual: Great Ideas. Cambridge University Press. Leo Jones and Victoria Kimbrough, 1989. Print
5. Zerin, S. 2007. Teaching Writing to young Learners. BRAC University
6. Бим И.Л., Леонтьев А.А и др. Общая методика обучения иностранным языкам. − М., Изд. Русский язык.1991.− С.53.

Shukrullo JO‘RAYEV,
JDPU mustaqil tadqiqotchisi

SO‘Z MULKIGA SAYOHAT YOXUD ERKIN VOHIDOV SABOQLARI

Annotatsiya: maqolada Erkin Vohidovning o‘zbek adabiyotida va she’riyatida tutgan o‘rni shuningdek adibning badiiy ijod olami hamda badiiy-estetik qarashlari, adabiy publitsistik asarlari tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, Erkin Vohidov, Badiiy publitsistika, “So‘z latofati”, “O‘zbegim”, “so‘z san’ati”, mumtoz adabiyot, adabiy tanqid, ijodkor shaxsida ilhom, adabiyot maydoni.*
Аннотация: в статье анализируется роль Эркина Вохидова в узбекской литературе и поэзии, а также его художественно-эстетические взгляды, литературно-публицистические произведения.
Ключевые слова: *Алишер Навои, Эркин Вахидов, литературная публицистика, «Благодать слова», «Узбегим», «искусство слова», классическая литература, литературоведение, вдохновение в личности творца, сфера литературы.*
Annotation: the article analyzes Erkin Vohidov's role in Uzbek literature and poetry, as well as his artistic and aesthetic views, literary publicity works.
Keywords: *Alisher Navoi, Erkin Vahidov, literary journalism, "The grace of words", "Uzbegim", "the art of words", classical literature, literary criticism, inspiration in the personality of the creator, the field of literature.*

O‘zbek xalqining shonli tarixi kabi uning tili va adabiyoti ham boy va yuksakligi bilan dunyo tamaddunida alohida o‘rin tutadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. ”Barcha ham yurtlarimiz va minglab xorijlik mutafakkirlarning ham yakdil fikrini ifodalagan bu ta’rifning nechog‘lik haqligiga hozirgi zamon adabiyoti misolida ham to‘la ishonch hosil qilish mumkin. Zero, XX asr o‘zbek she’riyati ham o‘zining ko‘plab yorqin iste’dodlari bilan ajralib turadi. Ana shunday nodir talant sohiblaridan biri O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidovdir. Bu haqiqatni atoqli adabiyotshunos – O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov havas bilan shunday e’tirof etadi: “Hech ikkilanmay, komil ishonch bilan aytish mumkinki, Erkin Vohidov hozirgi o‘zbek she’riyatining ko‘rki va faxri...”. O‘zining betakror she’r va g‘azallari, yetuk komediya va dostonlari, beqiyos hajviyoti va tarjimalari hamda teran nutq va maqolalari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan. Erkin Vohidov nomini bilmaydigan va uning durdona asarlari kirib bormagan biron shahar yo qishloq, biron xonadon yo‘q desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi [1].

Erkin Vohidov ijodining xalqimizga bu qadar manzur bo‘lishi va iste’dodlarga boy bo‘lgan adabiyot olamida bunday yuksak sharafga sazovor bo‘lishining asosiy sabab va omillari nimada? Bu savollarga javobni va Erkin Vohidov fenomenining o‘ziga xos jihatlari va ijodining ayrim muhim qirralarini ko‘plab she’r va dostonlari, jumladan, umri so‘ngida yozilgan “So‘z latofati” nomli yangi asari misolida ham yoritish mumkin. Shoir ijodida inson va jamiyat hayotining ko‘plab muhim muammolari chuqur va haqqoniy aks etganligini tadqiq etish, shubhasiz, tanqid-adabiyotshunoslik va ma’naviyatimiz uchun ham dolzarb vazifalardan bo‘lib sanaladi.

Biroq tanqidchiligimizda boshqa ulug‘ adiblar ijodiga nisbatan bo‘lganidek, Erkin Vohidov ijodi haqida ham yuzaki, nomaqbul fikrlar bildirish holatlari bo‘lganligini afsus bilan eslab o‘tishga to‘g‘ri keladi. Masalan, betakror shoirimizning sohir she’riyati va

yuksak poetik mahoratini to‘la anglab yetmagan ayrim tanqidchilar fikricha, Erkin Vohidov 1968-yili yozilgan “O‘zbegim” qasidasidan so‘ng o‘tgan o‘n yil davomida bironta salmoqli asar yaratmagan emish. Ajabo, she’riyat ixlosmandlari va hassos munaqqidlarining ham samimiy e’tirofiga sazovor bo‘lib. dunyo tillariga tarjima qilingan “Inson” qasidasi, “Qo‘llar”, “Biz ishlayapmiz”, “Uchi tugik dastro‘mol”, «Hozirgi yoshlar», «Ruhlar isyoni» kabi yetuk asarlar xuddi shu davrda yaratilgan-ku. Bu she’rlarni yod olgan minglab kitobxonlar ularning chuqur hayotiy mazmuni va shoirning yuksak so‘z san’atkorligidan hayratlangan. «Ruhlar isyoni» dostonini butun ijod ahli yakdillik bilan “bugungi lirik tafakkurning cho‘qqisi”[2] deb ta’riflashadi. Albatta, she’riyat rivojiga ulkan hissa qo‘sha olgan Erkin Vohidovday zabardast shoir va uning nodir asarlari badiiyati haqida bepisandlik bilan fikr yuritish biryoqlamalik va didsizlik bo‘lsa kerak. Ayrim kaltabin munaqqidlarning noxolis fikrlari va nohaq kamsitishlariga qaramay, Erkin Vohidov ijodi, shubhasiz, hozirgi o‘zbek adabiyotining yorqin bir sahifasini tashkil etadi deyilsa, xato bo‘lmaydi. Ayniqsa, g‘oyaviy-badiiy mukammalligi, go‘zal shakli va musiqiyligi bilan ajralib turuvchi sohir she’riyati va dostonlari allaqachon xalqimizning bebaho ma’naviy mulkiga aylanib, uning qalbi va tafakkurini beqiyos boyitib kelmoqda.

Erkin Vohidovning adabiyotimiz va xalqimiz oldidagi xizmatlari go‘zal she’rlaru yetuk dostonlar yaratishdangina iborat emas. Uning ko‘p yillar mobaynida turli nashri yotlardagi muharrirlik faoliyati hamda taniqli jamoat arbobi va xalq deputati sifatidagi samarali xizmati ham tahsinga loyiq. Erkin Vohidov iste’dodining yana bir yorqin qirrasi, jo‘shqin ijtimoiy va adabiy faoliyatining ibratli bir yo‘nalishi uning publitsistik asarlarida, xalqimiz hayoti va jamiyat rivojining dolzarb mavzularida hozirjavoblik va o‘ziga xos kuyunchaklik bilan bitilgan maqola va nutq-suhbatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, o‘zbek tilimiz rivoji va istiqboli borasida Erkin Vohidov faoliyati va uning “So‘z latofati” kabi asarlari alohida e’tiborga loyiq. 2014-yili kitobxonlarga taqdim etilgan va 2018-yili yanada to‘ldirilib, boyitilib, qayta nashr etilgan “So‘z latofati” asari adabiy va ma’naviy hayotimizda quvonchli bir voqea bo‘ldi. Kitob allaqachon xalqimizning ma’naviy-ruhiy mulkiga aylanib, ong-shuurini boyitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tomchida quyosh aks etgani kabi bu mo‘jaz asarda ham o‘zbek tilimizning o‘ziga xos inja bir olami –serqirra ma’nodorligi, serbo‘yoqligi va ohangdorligi kabi xususiyatlari E.Vohidovning shoirona talqinlarida ayon bo‘ladi.

Adabiy ijod, – deydi Erkin Vohidov, – hamisha So‘z olamiga sayohatdir. Buyuk mutafakkirlar ta’kidlaganidek, adabiyotning asosiy quroli tildir. Badiiy adabiyot “so‘z san’ati” deb ta’riflanishida ham katta asos va mantiq bor. Shu bois ham barcha ulug‘ adiblar badiiy asar tiliga va undagi har bir so‘z va iboraga alohida e’tibor bilan qarashgan. Bu qutlug‘ adabiy – estetik an’analar Erkin Vohidov kabi zabardast zamondosh adiblarimiz tomonidan ijodiy davom ettirilayotganligi ham milliy tilimiz va badiiy so‘z san’ati rivojining muhim bir omili ekanligidan dalolat beradi. Ustoz shoirimiz aytganidek, ona tili umummillat mulkidir. Demak, til oldidagi mas’uliyat ham umummilliy. Men o‘zbekman, degan har bir inson o‘zbek tili uchun qayg‘urmog‘i kerak. Darhaqiqat, bir millatni yo‘qotish uchun uni qirib tashlash shart emas, balki tili va tarixiy xotirasidan judo qilish kifoya ekan. Adabiyot va she’riyatda til va tarixiy xotira mujassam bo‘ladi. Navoiy zamonida har bir ilmli insonga ma’lum - mashhur rivoyatlar, payg‘ambarlar qissalari, tasavvuf aqidalarini, afsuski, mash’um siyosat tufayli o‘rgana olmaganmiz va Navoiy tilini lug‘atga qarab tushunsakda, mazmun - mohiyatini, nozik san’atini anglashga qiynalamiz. Aslida, o‘zbek tilimiz va adabiyotimizni dunyo miqyosida tarannum etgan va xalqimiz ma’naviyatining shakllanishiga benihoya kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan va endilikda yanada qadrlanayotgan benazir siymo –bu, shubhasiz, Navoiydir. Shu munosabat bilan muhim bir haqiqatni e’tirof etishimiz lozim.

Mumtoz adabiyotimiz bo‘yicha jiddiy tadqiqot olib borayotgan yuzlab adibu tilshunos va adabiyotshunoslar orasida O‘zbek tilimizga Davlat tili maqomi berilishida alohida jonbozlik ko‘rsatgan va Navoiyning tengsiz siymosi, beqiyos ijodi va so‘z san’atkorligi haqida Erkin Vohidovchalik teranlik va sharqona nuktadonlik bilan yoza olgan ijodkor kamdan - kam topilsa kerak. Eng avvalo, Navoiy asarlaridan ilhomlanib, ulug‘ mutafakkirimizning tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasidagi qutlug‘ an’ana va saboqlarini ham mohirona ijodiy davom ettirgan hassos shoirimizning ushbu asaridagi ko‘plab noyob so‘z-iboralar va she’riy misralar tahlili orqali bunga yana bir karra guvoh bo‘lamiz. Darhaqiqat, unutilgan so‘zlarimizni tiklash, borini boyitib borish, xorijiy atamalarga munosib istilohlar topish faqat tilshunos mutaxassislarning emas, butun millatning umumxalq ishidir. Tilga mehr-e’tibor ham muqaddas burchimiz. Bolalikdan shuurimizga singib ketgan ba’zi so‘zlarni eslaylik: dunyodagi qaysi tilda quyosh yo samoning o‘nlab nomlari bor? Osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, ko‘k... Bunday misollar tilimizda yuzlab topiladi va ulardan bizni E.Vohidov ogoh etgani ham ibratlidir.

O‘zbek tilimizning boyligi xalq hayoti va ko‘p asrli tarixiy ildizlariga bog‘liq. Ya’ni ma’nodosh so‘zlarimizning ko‘pligiga asosiy bir sabab shundaki, O‘zbek tilimiz uch daryodan suv ichgan. Diniy, ilmiy, ijtimoiy, atamalar asosan arab tilidan; ko‘pgina ish qurollar: jomadon, panjshaxa, xokandoz, dastshu, jomashu, dazmol, qog‘oz kabi hunarmandlikka oid so‘zlarimiz, shuningdek, yuksak she’riy uslubga xos

so‘z va izofali iboralar tilimizga fors tilidan kirib kelgan. Ismlarimiz ham xalqimiz tabiati va fe’lu a’moli kabi ezgu orzu-niyatlariga monand va ma’nodor. Qadim-qadim zamonlarda ajdodlarimiz quyoshga, oyga, yulduz va sayyoralarga topinib kelganlar. Dasht-u sahrolar osha olis, mashaqqatli yo‘llarda kunduzi quyosh, kechasi oy va yulduzlar ularga mash’ala, qiblanamo bo‘lgan. Shu bois o‘g‘lonlarining ismini yuksak orzular bilan Kuntug‘mish, Oybek deb, qizlarining ismlarini ham xalqona va shoirona tarzda Oybarchin, To‘lganoy, Yulduzxon, Zuhro, Surayyo, Mushtariy, Sitora... deb ataganlar.

Xalqimizning tili va dilining tarjimoni bo‘la olgan Erkin Vohidov chuqur ishonch va g‘urur bilan aytganidek:

Notiq dedi:
Bir til qolur dunyoda...
“Taqdir shul,
Barcha dedi barobar:
Bu jahoniy iroda,
“Va’zingni qo‘y, birodar,
Tillar yo‘qolur butkul,
Sen aytganing bo‘lmaydi.

“Ona tilim o‘lmaydi” Zero, erksevar va ma’rifatparvar xalqimiz qalbini oftob yanglig‘ munavvar etib turgan bu yuksak ishonch tilimiz, adabiyot va ma’naviyatimiz rivoji yo‘lida tog‘day tayanch bo‘lgan qudratli zamin-ga-tarixiy haqiqatga asoslangandir” [3]. Donishmandlar aytganidek, tog‘ cho‘qqilarining yuksakligi olisdan qaralganda, yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Bu tashbehni Prezidentimizning “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 21-oktabrni “O‘zbek tili bayrami kuni” deb nishonlash to‘g‘risidagi Farmoniga nisbatan ham qo‘llash mumkin. O‘zligini anglayotgan butun bir millatning xohish - irodasi va asriy orzularini ifoda etgan bu tarixiy Farmonlar halqimiz ongu tafakkuri, madaniyati va yosh avlod kamoloti uchun nechog‘lik katta ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy-estetik ahamiyatga ega ekanligi yillar o‘tgan sari yaqqolroq namoyon bo‘lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. So‘z latofati. T. O‘zbekiston. 2018
2. Sharafiddinov O. Xalq ustozim, men esa tolib // Haqiqatga sadoqat. –T.:1989.
3. G‘afurov I. Otalarning qutlug‘ izidan. Erkin Vohidov. Muhabbatnoma. Saylanma. 2-jild. –T.:1986.
4. Yo‘ldoshev Q, Qosimov U. Til - millat qo‘rg‘oni // Tafakkur ziyosi. No4. 2020.;
5. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida //Xalq so‘zi. 2019 yil 21 oktabr.

Adolatxon AKRAMOVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchi.

VAQTNI TO’G’RI BOSHQARISHNING MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING BOSHQARUV SAMARADORLIGIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada menejment to‘g‘risida tushuncha, vaqtni to‘gri boshqarishdagi muammolar, hosildorlik va samaradorlikni maksimal darajada oshirish, yaxshiroq professional obro‘ni rivojlantirish, ta’lim tashkiloti imidjini oshirish va boshqalar to‘g‘risida yozilgan.

Kalit so’zlar: *menejment, vaqt, boshqaruv, afzallik, hosildorlik, muammo, samaradorlik, imkoniyat.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются понятие менеджмента, проблемы правильного тайм-менеджмента, максимизации производительности и эффективности, развития лучшей профессиональной репутации, улучшения имиджа образовательной организации и т.д.

Ключевые слова: *менеджмент, время, менеджмент, преимущество, производительность, проблема, эффективность, возможность.*

Annotation: this article deals with the concept of management, the problems of proper time management, maximizing productivity and efficiency, developing a better professional reputation, improving the image of an educational organization, etc.

Key words: *management, time, management, advantage, productivity, problem, efficiency, opportunity.*

Bugungi barcha jabhalarda kuzatilayotgan shiddatli globallashuv davrida Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini samarali boshqarish ta’lim natijalarining yuqori sifati va operatsion samaradorligini ta’minlash uchun juda muhimdir. Ushbu samaradorlikka erishishning muhim jihatlaridan biri bu maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari

duch keladigan noyob talablarga moslashtirilgan vaqtni boshqarish taym-menejment strategiyalarini amalga oshirishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishga vaqtni to‘g‘ri boshqarish metodlarini ishlab chiqish va qo‘llash orqali erishish mumkin bo‘ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari o‘zi boshqarayotgan ta'lim tashkilotini boshqarishda vaqtni to‘g‘ri boshqarmasligi ish samaradorligiga salbiy ta'sir etishi va ular natijasida kelib chiqadigan quyidagi ayrim muammolarni keltirib o‘tamiz:

– Ta'lim sifatining pasayishi;

– Hujjatlar bilan ishlashdagi muammolar;

– Pedagog va xodimlar bilan munosabatlar;

–Tarbiyalanuvchilar va ota-onalar bilan munosabatlar;

– Tashkilotning umumiy faoliyati;

– Tashkilotning imidji va reytingi va hokazo muammolar.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori vaqtni to‘g‘ri boshqarmaganligi sababli ko‘plab operatsion va strategik muammolar yuzaga keladi, bu esa ta'lim sifatining pasayishiga, xodimlar va ota-onalarning noroziligiga va tashkilotning umumiy samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Vaqtni to‘g‘ri boshqarishning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini tahlil qilamiz.

Vaqtni samarali boshqarish quyidagilarga yordam beradi:

– Hosildorlikni oshirish: direktorlarga ish oqimlarini optimallashtirishga imkon beradi va shu bilan ularning sifatiga putur yetkazmasdan bajarilgan vazifalar hajmini oshiradi.

– Stressni kamaytirish: taym-menejment faoliyatning turli jihatlaridagi ortiqcha yuk va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish orqali stress darajasini pasaytirishga yordam beradi.

– Ta'lim jarayoni sifatini yaxshilash: aniq tashkil etilgan jadval va rejalarning mavjudligi direktorlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'lim faoliyatiga ko‘proq e'tibor berishga, uning samaradorligi va sifatini oshirishga imkon beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari ta'lim muhitining doimiy o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashishlari kerak, bu nafaqat vaqtni to‘g‘ri boshqarish sohasida chuqur bilimlarni, balki ushbu bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyatini ham talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan va har bir bolaning to‘liq rivojlanishi uchun sharoit yaratishga hissa qo‘shadigan taym-menejment bo‘yicha mavjud yondashuvlarni ishlab chiqish va moslashtirish kerak. Bugungi kun zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida vaqtni to‘g‘ri boshqarish muvaffaqiyatli boshqarishning asosiy elementi sifatida ta'kidlab, boshqaruv samaradorligini oshirish usullarini yanada o‘rganish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi.

Zamonaviy ta'lim amaliyotida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari turli xil vazifalarni samarali boshqarish zarurati bilan bog‘liq ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu vazifalar ma'muriy boshqaruv, ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlik va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish kabi keng ko‘lamli tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan taym-menejment oddiy rejalashtirish vositasidan tashqariga chiqadi va boshqaruv ishining yuqori ishlashi va sifatini ta'minlash uchun muhim omilga aylanadi. Vaqtni samarali boshqarish maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga nafaqat ish oqimlarini optimallashtirish, balki pedagogik faoliyat sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Taym-menejment texnikasini o‘zlashtirish o‘quv jarayonini yanada puxta tashkil etishga yordam beradi, bunga quyidagilar kiradi:

– Aniq rejalashtirish: tashkilot faoliyatining barcha jihatlarini hisobga oladigan aniq va amalga oshiriladigan ish rejalarini ishlab chiqish direktorlarga resurslar va vaqtni samarali taqsimlashga yordam beradi.

– Vazifalarni ustuvorlashtirish: shoshilinch va muhim vazifalarni birinchi o‘ringa qo‘yish menejment va pedagogikaning asosiy jihatlariga e'tibor qaratish, ortiqcha yuk va charchoq xavfini minimallashtirish imkonini beradi.

– Vazifalarni topshirish: taym-menejment ko‘nikmalari direktorlarni samarali delegatsiya qilishga o‘rgatadi, bu nafaqat ularning ish jadvalini pasaytiradi, balki xodimlar o‘rtasida kompetensiya va mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Monitoring va sozlash: rejalarning bajarilishini muntazam tahlil qilish va agar kerak bo‘lsa, tez moslashishga tayyor bo‘lish o‘quv jarayonining uzluksizligi va izchilligini ta'minlaydi.

Amalda, vaqtni to‘g‘ri boshqarish usullarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan direktorlar taym-menejment qobiliyatini yaxshiroq namoyish etadilar, bu esa tashkilotning umumiy ishlashi va muhitiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan birida har kuni ertalab o‘n besh daqiqalik kunlik rejalashtirish sessiyalarining joriy etilishi direktor va uning jamoasiga kunni aniq belgilash imkonini berdi, bu esa muntazam boshqaruv vaqtini qisqartirdi va strategik rejalashtirish va o‘qituvchilar va ota-onalar bilan muloqot qilish vaqtini oshirdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda taym-menejmentning ahamiyati, shuningdek, vaqtni boshqarish sifati va tashkilotning umumiy ishlashi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadigan pedagogika fanidagi tadqiqotlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Direktorlar kompetensiyasiga kiradigan vazifalarni strategik rejalashtirish va ustuvorlashtirish nafaqat ish vaqtidan unumli foydalanishga, balki ijtimoiy-

pedagogik ishning asosiy jihati bo‘lgan qulay ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vaqtni samarali boshqarish nafaqat operatsion ishlarni yaxshilashga, balki rahbarlarning umumiy psixologik holatiga ham hissa qo‘shadi, stress va kasbiy charchash darajasini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan, taym-menejment usullari nafaqat vazifalarni boshqarish vositalariga, balki ish hayoti sifatini oshirish vositalariga ham aylanadi. Taym-menejmentni kundalik boshqaruv amaliyotiga integrasiya qilish uchun direktorlar uchun rejalashtirish, vazifalarni ustuvorlashtirish va stressni kamaytirish usullarini o‘z ichiga olgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Le Blan, Raymond (2008). Maqsadlarga erishish oson! Amaliy maqsadlarni belgilash vositalari va tasdiqlangan vaqtni boshqarish usullari. Maarheeze: Cranendonck murabbiyligi. ISBN 978-90-79397-03-7.
2. Burkeman, Oliver (2021). To‘rt ming hafta. Mortals, Farrar, Straus va Giroux uchun vaqtni boshqarish. 978-0374159122
3. Shau, T. V. (2017). Formation of Preschool Management Model for Improving the Quality of Preschool in Sarawak. IOSR Journal of Sports and Physical Education (IOSR-JSPE), 4(2), 57-66. https://doi.org/10.9790/6737-04025766 Начало формы
4. Тимофеева, Ирина Вячеславовна. "Оценка управленческой деятельности руководителя дошкольным образовательным учреждением." Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, Московский педагогический государственный университет, 2004. Начало формы.
5. Архангельский Глеб Алексеевич. Тайм-менеджмент в системе управления организацией : Дис. ... канд. экон. наук : 08.00.05 Москва, 2005 133 с. РГБ ОД, 61:05-8/5114 Начало формы.

Sharofat ABDURAHMONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

BADIIY ASARNING KULTUROLOGIK TAHLILIDA ZAMON VA MAKON MASALASI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy asarni kulturologik yondashuv asosida tahlil qilishning makon va zamon bilan bog‘liq holda tasniflash spetsifikatsiyasi xususida so‘z boradi. Xalqlar madaniy hayotining badiiy ifodaga ko‘chishi, davrlar osha ma’no ko‘lami va qirralari turlicha aks-sado berishi hamda bu turlanishlarning makon bilan chambarchas jihatlari atroflicha tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: *makon, zamon, kulturologiya, tasnif, talqin, muallif, yondashuv, badiiy ifoda, madaniy yondashuv, estetik, nazariya.*

Annotation: this article deals with the specification of the classification of the work of art based on the cultural approach in relation to space and time. The cultural life of the peoples is transferred to the artistic expression, the different echoes of the scope and aspects of the eras, and the aspects closely related to the space of these types are analyzed in detail.

Key words: *space, time, culturology, classification, interpretation, author, approach, artistic expression, cultural approach, aesthetic, theory.*

Аннотация: в данной статье речь идет об уточнении классификации произведения искусства на основе культурологического подхода по отношению к пространству и времени. Культурная жизнь народов переносится в художественное выражение, подробно анализируются различные отголоски масштабов и аспектов эпох, а также аспекты, тесно связанные с пространством этих типов.

Ключевые слова: *пространство, время, культурология, классификация, интерпретация, автор, подход, художественное выражение, культурологический подход, эстетика, теория.*

Badiiy asar, avvalo, “adabiyot va san’atning voqe bo‘lish va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy muloqot vositasi”[1]dir, shu bilan birgalikda unga joylangan axborotlarni uzatishga mo‘ljallangan va muloqot yo‘nalishiga ega bo‘lgan o‘ziga xos alohida nutqiy tizim hamdir [2]. Adabiyot o‘qitish metodikasi bo‘lajak o‘qituvchiga ana shu muloqot va nutqiy tizimda o‘quvchi ma’naviyatining kamol toptiruvchi xususiyatlarini ochishi, rivojlantirishi va shuurida ezgu niyatlarni qaror toptirishda adabiyotning ta’sir kuchidan oqilona foydalanish yo‘llarini o‘rgatishdan iborat. Ammo “adabiyot o‘qitish samaradorligini oshirish yuzasidan beriladigan tavsiyalar qat’iy retsept yo‘sinida, bir marta o‘rganib olib umr bo‘yi qo‘llayveradigan o‘zgarmas statik usullar yig‘masi emas [3]. Bolalar va san’at(!) o‘rtasidagi izchil tashkil etilgan muloqotda o‘qituvchi pedagogik rezonansni aniq o‘lchashi mushkul jarayon[4]dir. Shu ma’noda “adabiyotni davolash shakli emas, borliqni atroflicha o‘rganish vositasi” [5] deb qabul qilish to‘g‘riroq

bo‘ladi. Badiiy olam o‘zlashtirilish jarayonini I. Herder madaniyat bilan bog‘laydi va uni “qayta ishlash”, “ruhni, aqlni tarbiyalash” atamalari bilan tenglashtiradi. K. Yung esa bunga yanada izchilroq izoh beradi: “madaniyat – inson psixikasining kollektiv ongsiz boshlanishining in’ikosi”. Adabiyotni kulturologik yondashuv nuqtayi nazaridan o‘rganish jarayoni o‘quvchilarning dunyo modellari va badiiy ongning turli jabhalarida singgan madaniyatlarda inson qiyofasi, qadimgi Sharq, antik davr, o‘rta asrlar madaniyatlari bilan tanishishlarini nazarda tutadi.

Baxtin adabiyotdagi madaniyatni uning matndagi muloqoti bilan bog‘laydi. Uning fikricha matn uch jihatdan farqlanadi:

– so‘zning tor ma’nosidagi matn, ya’ni tarkibiy qismi;

– muloqot jarayonidagi jonli nutq, matn ko‘rinishidagi shakli;

– ishora tizimlari orqali ifodalashning har qanday shakli.

Muallif ushbu mezonlarni kishining o‘z-o‘zini anglash shakli va kulturologiya o‘rtasidagi munosabat bilan bog‘laydi.

Har qanday madaniyat asari bir vaqtning o‘zida ko‘plab madaniyatlar makonida mavjud bo‘lib, o‘zaro ikki vaqtda yashaydi: kichik (sinxron) va katta (diaxron).

Kichik davr o‘z davri badiiy amaliyotining eng yuksak yutuqlarini, ilg‘or g‘oya va yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan haqiqiy badiiy ijodni o‘z ichiga oladi. Katta davr esa ushbu badiiy yaratiqning so‘nmasligi, uning o‘tmishdan hozirgi kungacha bo‘lgan holatini tadqiq qiladi. Domanskiy [6] ushbu katta davrning o‘zini to‘rt bosqichga ajratadi:

1. Tarixdan oldingi davri. Bu davr turli kultural davrlarga oid syujetlar, motivlar, belgilar, g‘oyalar, o‘tmish ijodining arxetiplari, shu jumladan, folklor syujetlari va tasvirlarini jamlash xususiyati bilan xarakterlanadi. Bunda asosiy e’tibor o‘tgan asrlarda to‘plangan madaniy ma’lumotlarga qaratiladi.

2. Adabiy asarning tug‘ilgan vaqti, ya’ni uning yaratilish tarixi. Uni o‘rganish uchun badiiy konsepsiyaning asosini qanday ijtimoiy fakt va holatlar, falsafiy-axloqiy g‘oyalar tashkil etishi, muallifning matn ustida qanday ishlaganligi, uning hayot va ijod yo‘li, shuningdek, adabiy manbalarni aniqlash zarur.

3. Tarixdan keyingi davri (posttarix). Bunda san’at asari zamon sinovidan o‘tib, davr va kulturologiyaning uzluksiz muloqotida qatnashib, o‘z davrini boshqa zamonlar bilan bog‘lay olsa va umuminsoniylikni ifodalay olsa, asrlar osha o‘z ahamiyati va o‘rniga ega bo‘ladi.

4. Asarning zamonaviy ovozi. Asarni zamonamiz qadriyatlari tizimi nuqtayi nazaridan o‘qish, dolzarblashtirish, o‘quvchining zamonamiz shaxsi sifatida ushbu matn muallifi qahramonlari bilan o‘zaro muloqoti va bu orqali madaniyatlarning buyuk muloqotida ishtirok etishi ko‘zda tutiladi.

Juravleva [7] kulturologik tahlilni umumiy mezonlar asosida tadqiq qilishga urinadi. Uning fikricha, badiiy matn, uning yaratilish tarixi, g‘oyasi va qay bir davrda qanday ma’no aks etishi – barchasi umumiy tamoyillar asosida 4 bosqichga birlashtiriladi, bunda zamon bilan bog‘liq tadrijiy bosqichlar bir umumiy tamoyilga birlashtiriladi:

1. **Tarixiylik tamoyili.** Mufassal bo‘lmagan boshlang‘ich tahlil bo‘lib, makon va zamon muhitidan turib baholashni ko‘zda tutadi.

2. **Ijtimoiy-genetik tamoyil.** Muallif badiiy niyati, g‘oyasi va hayot yo‘li bilan bog‘liq barcha jabhalarni qamrab oladi.

3. **Stilistik tamoyil.** Badiiy asar tuzilishi, emotsional ranglanishi, yozuvchining ijod uslubi, lingvistik vosita va ramzlar tadqiq qilinadi.

4. **Umuminsoniylik tamoyili.** Bu so‘nggi va eng asosiy bosqich bo‘lib, asarga yakdil xulosani berishqa qaratilgan. Bunda badiiy asarning ijtimoiy faoliyat ko‘rsatish dinamikasi va mexanizmlari o‘rganiladi. Asar badiiy konsepsiyanining ahamiyati uning aniq tarixiy va umuminsoniy ijtimoiy vazifalarga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Nemis faylasufi Nitsshe har qanday san’at turini o‘zaro ikki turda tasniflashni ilgari suradi: birinchi turga klassik ravshanlik va uyg‘unlik qonunlari asosida qurilgan, aniq ifodalangan ratsional tamoyilga ega asarlar kiradi. Ikkinchi turga esa irratsional, ongsiz, aql bilan turtki bo‘lmagan jihatlar ustunlik qilgan asarlar kiradi, masalan, qadimiy yunon afsonalariga xos xudolar va ularning yashash tarzi, psixikasi, odamlarning ular haqidagi tasavvurlari aks etgan antik davr adabiyoti namunalarini misol keltirish mumkin.

Umuman, badiiy adabiyotni kulturologik yondashuv asosida tahlil qilishda, avvalo, davrni ikki bosqichda tahlil qilish o‘rinli bo‘ladi:

– asar yaratilgan davrdagi ijtimoiy-madaniy ahamiyati va ijodkor badiiy niyati aks etgan g‘oyalar tasviri va o‘ziga xos uslubi;

– vaqt o‘tib ijodkor ko‘zlagan maqsaddan tashqari aks etgan va zamonaviy dunyoqarash asosida qayta ishlangan badiiy ijod mahsuli tushuniladi.

Badiiy asarda etgan tarixiy davrga xos jihatlar, xususan, motivlar, folklor bilan sug‘orilgan badiiy parchalar asarning qaysi davrda va qanday ma’no aks etishi emas, balki unda o‘tmish qanday voqealanganligi jihatidan turlarga bo‘linishini izchil tahlil qilish kulturologik ta’limning ilmiy tadqiqiga to‘g‘ri yondashish bo‘ladi. Bunda asarni tahlil qilish bosqichli izohlanmay, tamoyillar asosida guruhlanishi kulturologik yondashuvning asosini ochishga xizmat qiladi. Badiiy yaratiq umuminsoniy xarakterlanishidan tashqari xalqlarning makonga xos milliy an’analarini aks ettirishi, har bir xalq ning o‘ziga xos individual madaniyatining turfa jilolarda rang-barang namoyon

bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bunga yaqin o‘tmish davrida yaratilgan badiiy asarlarning bugungi kun, mustaqillik davri kitobxoni nigohi bilan qayta kashf qilingan yangidan yangi badiiy ifodalarni misol qilib keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. 42-bet.
2. Yakubov I., Omanova M. Badiiy tahlil asoslari. O‘quv-uslubiy majmua. – T., 2020. 7-bet.
3. Q. Yo‘ldosh, M. Yo‘ldosh. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. –T., 2022. 10-bet.
4. Кан-Калик А.В., Хазан И.В. Психолого-педагогические основы преподавания литературы в школе. –Москва. 1988. –С. 19.
5. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. – T., 2020. 20-bet.
6. Доманский Журавлева Н.Б. Культурологический анализ художественного произведения. Актуальные проблемы мировой художественной культуры. Материалы международной научной конференции. – Гродно. 2002. –С. 82-86.
7. В. Культурологические основы изучения литературы в школе. Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. –Томск. 2000. –С. 34.

Gulzoda G‘AYRATOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistri

SHAROF RASHIDOVNING “QUDRATLI TO‘LQIN” ROMANIDA SINONIMLARNING QO‘LLANISHI

Annotatsiya: leksik birliklar tilda mavjud bo‘lib, turli semantik munosabatlar asosida turli paradigmalarni hosil qiladi. Onaga sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabat shunday lisoniy munosabat. Sinonimiya. Shakllari har xil, lekin bir tushunchani turli rang va soyalar bilan ifodalovchi leksemalar sinonim deyiladi. Sinonim leksemalar orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deyiladi. Mazkur maqolada ma’nodosh birliklarning Sharof Rashidovning “Qudratli to‘lqin” asarida qo‘llanilishi, ularning stilistik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *sinonimik, leksema, nutq birliklari, so‘z birikmalari, mustaqil leksema, leksik so‘zlar, so‘z birikmalari, “Qudratli to‘lqin”.*

Аннотация: лексические единицы существуют в языке и образуют разные парадигмы, основанные на разных смысловых отношениях. Таким языковым отношением является синонимическое, антонимическое, градуонимическое, партонимическое, гипонимическое отношение к матери. Синонимия. Лексемы, имеющие разную форму, но выражающие одно и то же понятие разными цветами и оттенками, называются синонимами. Отношения между синонимичными лексемами называются синонимией или синонимическими отношениями. В данной статье анализируется употребление синонимов в произведении Шарафа Рашидова «Могучая волна» и их стилистические особенности.

Ключевые слова: *синонимия, лексема, речевые единицы, словосочетания, самостоятельная лексема, лексические слова, словосочетания, «Мощная волна».*

Annotation: lexical units exist in the language and form different paradigms based on different semantic relations. Synonymous, antonymic, graduonymic, partonymic, hyponymic relation to mother is such a linguistic relation. Synonymy. Lexemes that have different forms, but express the same concept with different colors and shades, are called synonyms. The relationship between synonymous lexemes is called synonymy or synonymous relationship. This article analyzes the use of synonyms in Sharaf Rashidov's "The Mighty Wave" and their stylistic features.

Key words: *synonymy, lexeme, speech units, word combinations, independent lexeme, lexical words, word combinations, "Powerful wave".*

Ma’nodosh so‘zlar (sinonimlar) talaffuzi, yozilishi har xil bo‘lgan bir umumiy tushuncha (ma’no) ifodalaydigan so‘zlardir. Sinonimlar bir-biridan qo‘shimcha ma’no qirrasi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanilishi jihatidan o‘zaro farqlanadi. Katta, ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant sinonimik qatorini tashkil qilgan so‘zlardan katta so‘zi keng tushunchani anglatib, aniq tushunchaga nisbatan ham, mavhum tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. Ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, ulkan so‘zlari hajmi ancha katta bo‘lgan narsalarga, bahaybat, haybatli so‘zlari esa o‘lchovi juda katta bo‘lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Yirik kam ishlatiladi. Gigant kitobiy uslubga xos bo‘lib, asosan joy, qurilishga nisbatan qo‘llanadi.

Til birliklari bir xil ma’noga ega bo‘lish hodisasi sinonimiya deyiladi. Bu hodisa qanday til birliklariga xosligiga qarab, lug‘aviy (leksik) sinonimiya, frazeologik sinonimiya, sintaktik sinonimiya kabilarga bo‘linadi. O‘zaro sinonim

bo‘lgan so‘zlar guruhi sinonimlar qatori deyiladi. Sinonimlar qatori ikki va undan ortiq so‘zdan tashkil topadi. Masalan, buloq — chashma Sinonimlar qatori ikki so‘zdan, yuz—aft—bashara—bet. Sinonimlar qatori esa ko‘p so‘zlardan tuzilgan. Ko‘p ma’noli so‘zlar muayyan ma’nosi yoki ma’nolari bilan bir yoki birdan ortiq Sinonimlar qatoriga kirishi mumkin. Masalan: bitirmoq so‘zi bir ma’nosi bilan tugatmoq, tugallamoq, tamomlamoq so‘zlari qatoriga, boshqa ma’nosi bilan ado qilmoq, yo‘qotmoq, yo‘q qilmoq so‘zlari qatoriga kiradi.

Leksemalarning ma’no qatoridagi ifoda sxemasi har xil. Ulardan ba’zilari quyidagilardir:

1) ijobiy yoki salbiy baho yoki munosabat;

2) leksema shaklning qo‘llanish davrini bildiruvchi termin: “eski”, “yangi”, “juda yangi”, “arxaik”, “tarixiy”;

3) leksema shaklning qo‘llanish doirasini ko‘rsatuvchi termin: “xarakterli”, “nutqga xos”, “kitobiy”, “ko‘tarinkilik” kabilar shu leksema atrofida birlashib, ma’no doirasini hosil qiladi. Dominant leksemalash, yuqorida sanab o‘tilgan barcha iboralar neytral, neytral. Masalan, “kitobiylik”, “ko‘tarinkilik” iboralari asosida [katta]-[ulkan]-[bahaybat] sinonimik qatori yasaladi.

Zamon talabidan kelib chiqib, jamiyat keraksiz iste’moldan xalos bo‘lib, yangilari bilan boyishda davom etmoqda. Nutqdagi ma’no qatorlari nutq birliklari, so‘z birikmalari, mustaqil leksema turlari, leksik so‘zlar, so‘z birikmalari, nutq o‘tishlari bilan to‘ldiriladi va kengaytiriladi. Bular kontekstli sinonim sifatida nutqning go‘zalligi va boyligini ta’minlovchi vosita hisoblanadi.

El boshga qanchadan-qancha g‘am-g‘ussa, qayg‘u- alamlar keltirgan qonli urushning kulfatlar kunlarida ham bahor yayrab-yashnaydi, olamga hayot bag‘ishlaydi. (7-bet)

G‘am-g‘ussa, qayg‘u-alamlar. Kishida paydo bo‘lgan ruhiy azob his-tuyg‘usi, ruhiyatdagi shunday holat. Tashvish so‘zi ko‘proq so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. G‘am so‘zi tashvish so‘zi bilan juftlashib keladi hamda "ruhan ezilish" ifodasini beradi. Nutqda bu ma’noda g‘am-koyish so‘zi ham ishlatiladi. Kulfat so‘zi bu ma’noni kuchli darajada ifodalaydi. Dard, alam so‘zlarida ruhiy azob ta’kidi kuchli. Bu so‘zlar juft holda qo‘llanib, mazkur mazmunni yanada kuchli ifodalaydi. Anduh eskirgan, kitobiy so‘z bo‘lib, poetik bo‘yog‘i bor. Ko‘pincha g‘am so‘zi bilan birga juft so‘z holida qo‘llanadi, bunda ma’noni yanada kuchli darajada ifodalaydi. “Qudratli to‘lqin” romanida ijodkor Sharof Rashidovning ma’nodosh so‘zlardan foydalanish mahoratini quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

Bolalar ko‘zlarida nafrat uchqunlari otilib turgan Po‘latning vajohatini ko‘rdilar, ***qo‘rqib, sarosimaga tushib*** *qoldilar.* (12-bet)

Qo‘rqmoq, sarosimaga tushmoq – qo‘rquv hissini tuymoq, cho‘chimoq, hadiksiramoq kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. “Sarosimaga tushmoq” iborasi “qo‘rqmoq” so‘ziga nisbatan badiiy bo‘yoqdorlikka ega.

Po‘lat Bahorni o‘z himoyasiga oldi-yu, ammo o‘zi qizning har bir so‘ziga quloq soladigan va unga bo‘ysunadigan bo‘lib qolganini sezmay qoldi. (13-bet)

Quloq solmoq, bo‘ysunmoq – birovning buyrug‘i, topshirig‘i, yo‘l- yo‘rig‘iga amal qilmoq, aytganini bajo qilmoq. Itoat qilmoq, asosan, kitobiy nutqqa xos.

...har kirganidan olamdan nima gaplar bo‘layotgani haqida o‘zidan qo‘shib-chatib, bo‘rttirib gapirib berar, Xalil o‘ta bo‘lsa qo‘shnisining munchoqday terilgan chiroyli va shirin so‘zlarini diqqat bilan tinglar edi. (20-bet)

Qo‘shib-chatmoq, bo‘rttirmoq – oshrib ko‘rsatmoq, ko‘paytirib yubormoq ma’nolarida qo‘llaniladi.

Axir, o‘yinqaroq qizcha bilan sho‘x yigitchaning do‘stligi boshqa, bo‘yi yetgan qiz bilan o‘spirin yigitning do‘stligi boshqa emasmi?(20-bet)

O‘yinqaroq, sho‘x – jismoniy hamda ruhiy jihatdan kuchga to‘lgan, serharakat inson o‘ynoqlab, tez harakat qiladigan, jismoniy harakatchan, o‘yin-kulgini, hazil-huzulni yaxshi ko‘radigan; xushchaqchaq, quvnoq. Sinonimlar qatorida “sho‘x” dominant so‘z sifatida ko‘p ishlatiladi. Uslubiy jihatdan badiiy, ilmiy, publitsistik va so‘zlashuv uslublariga xos.

Sharof Rashidov “Qudratli to‘lqin” romanida sinonimlardan unumli foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz. Sinonimlar badiiy matnda badiiy asarda uslub yaratish, takrordan qochish, voqea-hodisani aniq tasvirlashda, holatni kuchaytirishda, badiiy-stilistik vazifalarni bajarishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U.Tursunov, N.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1992-yil.
2. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. II qism. – Toshkent: «O‘qituvchi» nashriyoti, 1980.
3. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
4. M.Mirzayev va b. O`zbek tili. – T.: O‘qituvchi, 1978.
5. Hojiyev.A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – T., 1973.
6. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикология асослари. – Тошкент, 1995. –127 б.
7. Sharof Rashidov “Qudratli to‘lqin” romani. – O‘QITUVCHI NASHIRIYOTI, 1977.

Gulzoda ALIYEVA,
Doctorant à l'Institut d'État des langues étrangères de Samarkand

UNITES PHRASEOLOGIQUES FRANÇAISES AVEC UNE COMPOSANTE ZOONYME

Annotation: dans cet article, identifier et systématiser les caractéristiques lexicales-sémantiques, linguoculturologiques et structurelles des systèmes de noms personnels modernes en français. L'utilisation compétente de la forme anthroponymique, la connaissance d'une langue étrangère et la connaissance de modèles culturels étrangers de noms de personnes sont l'une des conditions les plus importantes pour le succès du processus de communication interculturelle. De nombreuses questions liées au fonctionnement des noms personnels ont été abordées par diverses disciplines.

Mots clés : *Zoonimie, onomastique, sémantique, identification, linguistique.*

Annotation: in this article, identify and systematize the lexical-semantic, linguoculturological and structural characteristics of modern personal name systems in French. Competent use of the anthroponymic form, knowledge of a foreign language and knowledge of foreign cultural models of personal names are one of the most important conditions for the success of the process of intercultural communication. Many questions related to how personal names work have been addressed by various disciplines.

Key words: *Zoonymy, onomastics, semantics, identification, linguistics.*

Annotatsiya: ushbu maqolada fransuz tilidagi zamonaviy shaxs ismlari tizimlarining leksik-semantik, lingvokulturologik va strukturaviy xususiyatlarini aniqlang va tizimlashtiring. Antroponimik shakldan malakali foydalanish, chet tilini bilish va shaxs ismlarining xorijiy madaniy modellarini bilish madaniyatlararo muloqot jarayoni muvaffaqiyatining eng muhim shartlaridan biridir. Shaxsiy ismlar qanday ishlashi bilan bog'liq ko'plab savollar turli fanlar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Zoonimiya, onomastika, semantika, identifikatsiya, tilshunoslik.*

La plupart des phraséologues ont accordé une attention particulière au statut particulier des unités phraséologiques dans la langue, à leurs propriétés catégorielles spécifiques et à leur structure syntaxique non modélisée. Le contenu interne de ces unités restait pratiquement hors de vue. De plus, la tâche d'identification de l'essence particulière du sens phraséologique a été résolue principalement en comparant les significations des unités phraséologiques et des mots.

L'essentiel des recherches des linguistes étrangers, notamment français, a été réalisé de manière diachronique. Typique à cet égard est le travail de P. Guiraud, qui s'intéresse principalement à l'étymologie des propriétés des unités phraséologiques, et qui voit la raison principale de la phraséologisation en présence d'archaïsme linguistique ou extralinguistique (extralinguistique) dans la composition du phrase.

Dans cette étude, nous n'avons pas abandonné la tentative de découvrir les raisons et les origines de l'apparition de caractéristiques pertinentes des unités phraséologiques. Mais nous avons essayé de transférer le sens de l'analyse de ces unités à la synchronie et, avant tout, à leur sémantique, comme la plus significative, essentielle, soulignant leur identité nationale et déterminant leurs propriétés sur les plans fonctionnel, communicatif et connotatif. En mettant en avant le concept de spécificité de la structure du contenu sémantique des unités phraséologiques, nous nous sommes fixé pour objectif d'étudier l'espace sémantique de la langue, qui se révèle en analysant la sémantique des unités phraséologiques à composante zoonyme dans la langue française. .

Ayant choisi des unités phraséologiques françaises contenant un zoonyme, on ne pouvait même pas prévoir qu'un ensemble relativement limité (seulement 1500 unités phraséologiques) apparaîtrait comme un phénomène exceptionnellement multiforme.

Nous avons examiné l'objet d'étude sous différents angles et, par conséquent, l'étude a acquis le caractère d'une analyse multidimensionnelle du matériel linguistique. L'ouvrage reflète diverses questions (certaines d'entre elles sont discutables dans la science moderne), telles que : l'organisation grammaticale formelle des unités phraséologiques, les spécificités de la structure sémantique, les caractéristiques fonctionnelles, le sens pragmatique, l'importance dans les processus de cognition et d'objectivation du monde.

Au cours de l'étude, nous avons tiré un certain nombre de conclusions.

Premièrement, nous classons les unités phraséologiques avec une composante zoonyme comme unités nominatives en raison d'une nomination indirecte secondaire en raison de la présence dans leur structure sémantique d'un noyau sujet-conceptuel, qui aide à corréler ces unités avec les réalités de la réalité environnante.

Deuxièmement, dans la structure du sens phraséologique, la composante dominante est la composante connotative, ce qui explique les possibilités illimitées des unités phraséologiques dans le rôle d'exprimer des significations émotionnelles et évaluatives, reléguant la fonction nominative au second plan.

Troisièmement, conformément à la nouvelle interprétation large, la connotation apparaît comme un composant du PU, qui contient les éléments sémantiques les plus importants en corrélation avec certains composants de la structure externe du PU et avec son objectif fonctionnel, ainsi qu'un large gamme d'informations ethnoculturelles. Les phraséologismes sont une encyclopédie du savoir sur les Français

- un locuteur natif du français : sur les traits de caractère uniques, les habitudes, les opinions, les coutumes, l'histoire, le mode de vie. Grâce aux unités phraséologiques, une personne pénètre dans une culture nationale inconnue et se familiarise avec l'énorme richesse contenue dans la langue étudiée.

Quatrièmement, les unités phraséologiques avec un zoonyme diffèrent des autres types d'unités phraséologiques de la langue française par leur réduction stylistique. Distribués principalement dans les registres fonctionnels familiers-familiers, vernaculaires et argotiques, ils constituent un moyen de communication, un moyen d'éclairer la parole et, dans une certaine mesure, un code de parole pour les couches inférieures de la société française et les groupes professionnels individuels.

Cinquièmement, du point de vue de l'expression du sens de l'évaluation globale « bon/mauvais », la grande majorité des unités phraséologiques étudiées sont notées négativement. De plus, un trait distinctif de ce type d'unités phraséologiques est l'inclusion dans l'aspect évaluatif de leur sens de diverses valeurs évaluatives privées (sensorielles-gustatives, psychologiques, esthétiques, éthiques, normatives), qui permettent de révéler les caractéristiques du échelle de valeurs des francophones.

Sixièmement, l'un des objectifs des unités phraséologiques à composante animale comme moyen nominatif-expressif spécifique est de dresser un « portrait » complet et finement différencié d'un représentant typique d'une communauté linguistique parlant français, et d'afficher ses caractéristiques physiques, morales, intellectuelles. , et l'apparence sociale. De là, nous concluons que les unités phraséologiques avec un zoonyme sont anthropomorphes, c'est-à-dire qu'elles reflètent les réalités et les sphères de la vie qui sont étroitement liées à la personne elle-même, à ses activités, à ses intérêts, etc.

Enfin, nous pensons que les spécificités de la structure du sens des unités phraséologiques françaises sont en partie dues à la sémantique du mot clé, qui est un zoonyme, qui influence la formation du sens phraséologique, introduisant des éléments de son contenu sémantique, à savoir : les sèmes « une personne possédant la propriété d'un animal », « propriété animale, inhérente à l'homme ».

Comme il nous semble à la suite de l'analyse effectuée, l'étude des unités phraséologiques à composante zoonyme serait utile à poursuivre en faisant appel à un matériel linguistique plus large, peut-être à certaines classes du vocabulaire de fond de la langue française ou encore à des corpus phraséologiques. d'autres langues, afin d'établir les raisons de la nature historique, étymologique, sociale des divers processus linguistiques.

Les références:

1.Avaliani Yu.Yu. Sur les connexions sémantiques des mots en fonction indépendante et dans le cadre d'unités phraséologiques // Questions de description du système lexico-sémantique du langage. Abstrait. rapport de la conf. scientifique - M., 1971. - P.15-19.

2.Avaliani Yu.Yu., Emirova A.M. Vers la structure sémantique des unités phraséologiques // Actes de l'État de Samarkand. Université nommée d'après A. Navoi. Vol. 217. Questions de phraséologie, IV. Samarcande, 1971. - P.29-34.

3. Alefirenko N.F. Isomorphisme onomasiologique des unités multi-niveaux du langage // Aspects onomasiologiques de la sémantique. Volgograd, 1993.-P.3-13.

4. Apresyan Yu.D. Sur la question du sens des unités phraséologiques (basées sur le matériel de la langue anglaise) // Langues étrangères à l'école. 1957. - N° 6. -AVEC. 12-22.

5. Arutyunova N.D. Types de significations linguistiques : Évaluation. Événement. Fait. M. : Nauka, 1988. - 314 p.

Umida KUCHKELDIYEVA
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

CHET TILNI O‘QITISH JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqola, chet tilini o‘rgatishda nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosi dolzarb mavzuligi, chunki zamonaviy sharoitda talabalarda nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘quv jarayonida yetarli vaqt ajratilmasligi, bu esa bir qator muammolarni keltirib chiqarishi, buning natijasida talabalar keyingi talaffuzi bilan jumlalarni malakali tuza olmasligi, chet tilidagi nutqni quloq bilan idrok eta olmasligi, shuningdek yozish va o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligiga bag’ishlangan.

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, nutq kompetensiyasi, ekstralingvistik qiyinchiliklar, nutq faoliyatining tuzilishi, tinglash, o‘qish, yozish, nutq qobiliyati, nutq mahorati.*

Аннотация: в данной статье проблема развития речевых навыков при обучении иностранному языку является актуальной, поскольку в современных условиях развитию речевых навыков у учащихся в ходе учебного процесса уделяется недостаточно времени, что вызывает ряд проблем. , в результате чего учащиеся не могут освоить предложения с последующим произношением, посвящено тому, что он не может сочинять, не может воспринимать речь на иностранном языке на слух, может иметь трудности при письме и чтении.

Ключевые слова: *английский язык, речевая компетентность, экстралингвистические трудности, структура речевой деятельности, аудирование, чтение, письмо, речевая способность, речевой навык.*

Annotation: in this article, the problem of the development of speech skills in teaching a foreign language is a topical issue, because in modern conditions, insufficient time is allocated to the development of students' speech skills in the educational process, which causes a number of problems, as a result of which students are unable to master sentences with subsequent pronunciation. It is dedicated to the fact that he cannot compose, cannot perceive speech in a foreign language by ear, and may have difficulties in writing and reading.

Key words: *English language, speech competence, extralinguistic difficulties, structure of speech activity, listening, reading, writing, speech ability, speech skill.*

Kirish qismi: Respublikamiz ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash tizimini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish hamda ilg‘or xorijiy tajribaga asoslangan holda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasi korpus texnologiyalari, Umumevropa CEFR talablari asosida talabalarga chet tillarini o‘rgatishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning me’yoriy asoslari va moddiy-texnik bazasi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada takomillashtirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish va ta’lim sifatini baholash asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish” ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitishda talabalarning nutq faoliyatini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida kasbiy fanlarga integrallashtirilgan holda o‘rgatish imkoniyati kengaytiriladi.

Zamonaviy dunyoda nutq qobiliyatini rivojlantirish juda zarur, chunki u odamlarga ma'lumot almashish, aloqa o‘rnatish va o‘zaro ta'sirni ta'minlash imkonini beradi. Ingliz tilini o‘qitishda nutq ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantirish, qoida tariqasida, maktabda boshlanadi, bu o‘qituvchining ishini sezilarli darajada osonlashtiradi, chunki o‘quvchilar o‘zlarining yosh xususiyatlariga ko‘ra chet tilini kattalarga qaraganda yaxshiroq o‘rganadilar.

Asosiy qism: Nutq faoliyatini rivojlantirishda bazi ichki omillar mavjud bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: bo‘lajak o‘qituvchining psixologik holati, grammatik va fonetik me'yorlarni bilmaslik, lingvistik va nutq vositalarining yetishmasligi, talabaning o‘zini o‘zi qadrlash darajasi, motivatsiya, o‘rganish, bilim darajasi yetarli darajada o‘zlashtirmaslik va boshqalar.

N.M.Ahmedova, chet tili darslarida innovatsion usullarni qo‘llash natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi. Bo‘lajak o‘qituvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rish kerakligini anglatadi degan fikrni ilgari surgan.

Til to‘sig'i kabi hodisaga e'tibor berish kerak. Bu hodisa nutq qobiliyatlarini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi, bu esa odamning boshqa til guruhiga mansub odam bilan aloqa qilishini qiyinlashtiradi. Bunday holda, ikkala suhbatdosh ham muloqotda qiyinchiliklarga duch kelishadi, chunki bir kishi o‘z fikrlarini takrorlay olmaydi va to‘g'ri yetkaza olmaydi, tinglovchi esa ma'ruzachini tushunolmaydi.

Til to‘sig'i ham lingvistik, ham psixologik bo‘lishi mumkin, lekin ko‘pincha talaba bir vaqtning o‘zida ikkita tur bilan shug'ullanadi. Chunki lingvistik tip til amaliyotining yetishmasligi, tinglash qobiliyatining yetishmasligi, lug'at yoki ma'lum bir sohaga oid bilimlarning yetishmasligi va hokazolarni bildiradi[4].

Chet tilini o‘qitish jarayonida til ko‘nikma va malakalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga ta'sir qiluvchi bir qator pedagogik shart-sharoitlarni rivojlantirish mumkin: ingliz tili darslarida boy til muhitini yaratish; nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarga amal qilish; psixologik to‘siq paydo bo‘lishining oldini olish uchun auditoriyada do‘stona mikroiqlimni ta'minlash; bo‘lajak o‘qituvchilarning individual yosh xususiyatlarini hisobga olish; bo‘lajak o‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish; muloqotga tabiiy ehtiyoj uchun muhit yaratish; nutqdan tilga yo‘nalishda oldinga siljish; o‘quv jarayonida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlariga rioya qilish; kommunikativ asosda o‘rganish va boshqalar.

Shuni esda tutish kerakki, nutq qobiliyatlarini rivojlantirish uchun talaba boshqa odamlarning nutqini idrok eta olishi kerak, bu tinglash, o‘qish, yozish va gapirishni birgalikda rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi, shuning uchun o‘qituvchi modulli nutqni boshqarishi kerak.

Keyinchalik, nutq ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi nutq faoliyatining asosiy turlarini ajratib ko‘rsatish kerak. Boshlash uchun siz munozara kabi turni ko‘rib chiqishingiz kerak.

Ushbu turning afzalligi shundaki, bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat bir-biri bilan, balki o‘qituvchi bilan ham muloqot qilishadi, bu esa auditoriyadagi mikroiqlimni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, muhokama qilish uchun mavzuni tanlash muhim emas, chunki talabalarning qiziqishlari va yosh toifalarini hisobga olish kerak. Dastlabki bosqichda o‘qituvchi bo‘lajak o‘qituvchilarni kichik guruhlarga bo‘linishi, har bir jamoa uchun mavzuni (afzal bahsli) e'lon qilishi va muhokamani boshlashi kerak.

Hamkorlikdagi ta'lim va o‘yin usullari ushbu sohadagi ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. Bunday faoliyatga misol sifatida rolli o‘yinlar bo‘lishi mumkin, bunda talabalar faqat ingliz tilida gaplashish orqali qisqa sahnalarni namoyish etishlari mumkin. O‘qituvchi talabalarga tayinlangan rol va ishlab chiqarish mavzusi haqida ma'lumot berishi kerak.

Siz hikoyani yakunlashga qaratilgan mashqlardan ham foydalanishingiz mumkin. O‘qituvchi talabalarga hikoyani ingliz tilida aytib berishi kerak, lekin oxirini ochmasligi kerak. Talabalar ingliz tilida hikoyaning davomini o‘ylab topishlari kerak. Bu mashq ijodiy salohiyatni rivojlantirishga, leksik me’yor va ifoda vositalarini tez egallashga xizmat qiladi.

O‘qituvchi ma'lum bir mavzuni asos qilib olishi kerak, masalan, turli turdagi rasmlarni stol ustiga joylang va tegishli rasmlar juftini tanlashni buyring. Taqdim etilgan rasmlarni taqqoslash yoki tasvirlash orqali talabalar dunyoqarashini kengaytiradilar va so‘z boyligini faollashtiradilar.

Albatta, nutqiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan boshqa usullar ham mavjud, lekin biz bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitishda qo‘llanilishi kerak bo‘lgan nutq faoliyati turlarini keltirdik.

Tugallangan topshiriqlar oxirida o‘qituvchi nazorat o‘tkazishi kerak. Boshqarish joriy, oraliq va yakuniy bo‘lishi mumkin. Biroq, olingan bilim va ko‘nikmalarni obyektiv baholash uchun o‘qituvchi o‘quv jarayonida nazoratning barcha turlariga rahbarlik qilishi kerak, bunda o‘qituvchi bilimdagi bo‘shliqlar ni tezda aniqlay oladi va ularni bartaraf etish choralarini ko‘radi.

Xulosa qismi: Ingliz tilini o‘rganish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ta’limda yangi texnologiyalarni o‘z ichiga olgan pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlamasdan turib darslarni tashkil etish mumkin emas, og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan malakalarni egallash tartibi ham muhim o‘rin tutadi.

Yuqoridagi usullardan foydalanish nafaqat nutq ko‘nikmalarini faollashtiradi va qulay mikroiqlimni yaratadi, balki talabaning har tomonlama rivojlanishiga har tomonlama ijobiy ta'sir ko‘rsatadi: o‘lkashunoslik bilimini olish, tanqidiy fikrlash va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish, lug'atni boyitish, frontal ishda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va ingliz tilini yaxshilash uchun rag'bat yaratish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пикеева Е.Н. Педагогические условия развития устной речи на уроках английского языка // Молодой ученый. 2015. № 9.1 (89.1). С. 73-75.
2. Axmedova N.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish: diss... PhD T:.2020. - 69 b.
3. Хужаниязова Г.Ю. Говорение как цель обучения английскому языку // Актуальные вопросы современной педагогики : материалы III Междунар. науч. конф. (г. Уфа, март 2013 г.). Т. 0. Уфа: Лето, 2013. С. 15-18.
4. Артемов В.А. Психология обучения иностранным языкам. М.: Высшая школа, 2002. 256с.
5. Зиновьева Л.А. Говорите по-английски! Speak English!: Развитие навыков устной речи. Рн/Д: Феникс, 2013. 239с.
6. Соловьева Е.Н. Методика обучения иностранным языкам. Базовый курс лекций. М.:Просвещение, 2015.

Shohista ABDUQODIROVA,
Buxoro davlat universiteti 3-bosqich talabasi

LEKSEMANING SO‘ZLASHUV NUTQIDA PRAGMATIK MA’NOLAR IFODALASHI

Annotatsiya: ushbu maqolada so‘zlashuv nutqida pragmatik ma’noning ifodalanishi va uning xususiyatlari haqida fikrlar bayon qilingan. Leksemalarning matn tarkibida va matndan tashqarida qanday pragmatik imkoniyatlarni ochib berishi badiiy asardan misollar keltirish orqali ochib berilgan. Leksemaning pragmatikadagi cheksiz imkoniyat va ko‘rinishlari izohlangan.

Kalit so‘zlar: *leksema, shkal, diskurs, nutq, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, sema, diskursiv marker, pragmafunksional, nomema.*

Аннотация: в данной статье высказываются мысли о выражении прагматического значения в разговорной речи и ее особенностях. Какие прагматические возможности раскрывают лексемы в тексте и вне текста, раскрывается на примерах из литературного произведения. Объясняются безграничные возможности и проявления лексемы в прагматике.

Annotation: in this article, thoughts are expressed about the expression of pragmatic meaning in conversational speech and its features. What kind of pragmatic possibilities lexemes reveal in the text and outside the text is revealed by giving examples from the literary work. The infinite possibilities and manifestations of the lexeme in pragmatics are explained.

Ma’lumki, leksemaning tashqi shakliy jihati uning mohiyati uchun ahamiyatsiz bo‘lib, sistem tilshunoslik leksemalarning ichki mazmuniy tomoniga asosiy e’tiborni qaratadi va xususiyliklarning umumlashmasi sifatida shakl va mazmun aloqadorligini tahlil qiladi. Sistem-tilshunoslik nomemalarga ko‘p ahamiyat bermaydi. Nomemaning aniq shakli nutq sharoiti bilan belgilanadi va u leksemaning mohiyatiga ta’sir etmaydi.

Tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida shakllangan psixolingvistika, kommunikativ tilshunoslik, ijtimoiy tilshunoslik, lingvogeografiya va uslubshunoslik sohalarini umumlashtiruvchi lingvistik pragmatika yo‘nalishi, asosan, leksemaning ichki mazmuniy tomoniga e’tibor berib, uning nutqdagi pragmafunksional belgilarini tadqiq etadi. Shu jihati bilan pragmatika sistem-tilshunoslik yo‘nalishi bilan uzviy bog‘lanadi. Leksemaning ichki mazmuniy tarkibi lingvistik pragmatika uchun moddiy baza hisoblanadi, lingvistik pragmatika ham asosan leksema sememalari yuzasidan ish ko‘radi.

Semalar so‘z sememasi tarkibida tutgan o‘rni va subyekt xabari nuqtayi nazaridan mantiqan informativ sema va pragmatik semalarga bo‘linadi. Informativ sema o‘z ichiga nomlovchi sema va relyativ semalarni oladi. Pragmatik sema tarkibida esa ham emotsional, ham ekspressiv semalar bor. Emotsional sema subyektning obyektga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini ifoda etsa, ekspressiv sema semema ifodasini yo kuchaytirib, yo ozaytirib ko‘rsatadi. Masalan, so‘zlashuv nutqida faol qo‘llanuvchi tuzuk, binoyi, nozanday, poshshaxon, qoyilmaqom, tag‘in, ketvorgan, barvasta kabi so‘zlar ijobiy emotsional munosabatni ifodalasa, so‘zlashuv nutqiga xos boshqa so‘z va iboralardan farqlanadigan, biroq ba’zan salbiy munosabatni bildiruvchi so‘zlar, masalan: surbet, muttaham; ahmoq, noinsof, mechkay, naynov, so‘tak, bachchag‘ar, boytevat, xomkalla, iblis kabilarda denotatga nisbatan norozilik, mensimaslik, nafrat kabi ottenkalar sezilib turadi.

So‘zlashuv uslubida ijobiy yoki salbiy emotsional munosabat bildiruvchi pragmatik semaga ega leksemalar talaygina. Jumladan, dag‘al so‘z va iboralarni qo‘llanish doirasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar.

Bunday so‘z va iboralarda, so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan salbiy munosabati, ichki hayajoni, nafrati kuchlidir: buzuq, xumpar, xomkalla, noinsof, sotqin, majmag‘il, ammamning buzog‘i, bir pul, kekirdagini cho‘zmoq, ko‘ngliga urmoq, mazasi yo‘q kabi. Masalan, eshigimga oyoq qo‘ysin-chi, buzuq (A.Muxtor); – O‘lguday lattachaynar, majmag‘il odam ekansan-da! (H. G‘ulom); – Shuncha imo qilsam ham tushunmaysan, anqov (Tuyg‘un). Keltirilgan misollardagi buzuq so‘zi axloqiy nosozlik, razil, chaqimchi ma’nosida, majmag‘il so‘zi betayin, lanj ma’nosida, anqov so‘zi bo‘sh, lapashang ma’nosida qo‘llanilgan;

b) kishilarning tashqi kamchiligini ko‘rsatuvchi vulgarizmlar. Bunday so‘z va iboralar biror predmet nomiga nisbat berish, yaqinlashtirish, o‘xshatish natijasida paydo bo‘ladi. Chunonchi, mechkay, ko‘ppak, qarg‘a, so‘tak, ayronbosh, gumbaz, qovoqbosh, kal kabi. Masalan: – Mahallaga sir berib qo‘yibsan-da, ayron bosh (“SHarq yulduzi”)

d) so‘kish-koyish bilan bog‘liq bo‘lgan vulgarizmlar. Bunday so‘z va iboralarda suhbatdoshlarning ichki hayajoni, ruhiy holati, g‘azabi kuchli bo‘ladi:

xoin, sotqin, vijdonsiz, ablah, iblis, isqirt, la'nati, benomus, iflos; esi og'moq (telbalanmoq), og'zi katta (kibr-havoli), nazari ilmaydi (mensimaslik) kabi.

Masalan: – Qoch vijdonsiz! Yo'qol, iflos! Yuviqsiz! — dedi Muqaddam qichqirib (O'.Hoshimov); Qoratoy Mirzakarimboyning Gulnorga uylanmoqchi bo'lganligini eshitgach, jahli chiqib bunday dedi: – "Ha, noinsof, ha ko'ppak, iflos qarg'a!" (Oybek);

Masalan, o'zbek so'zlashuv nutqida qo'llaniluvchi jigar so'zi (to'g'ri ma'noda inson, hayvon organizmining bir turi) umumnutqqa xoslangan so'z bo'lib, ko'chma ma'noda "yaqin o'rtoq", "do'st", "jo'ra", "yaqin qarindosh", "haqiqiy o'zbek" kabi ma'nolarida oddiy so'zlashuv nutqiga xoslangan birlikdir.

So'zlashuv uslubining o'ziga xos leksik xususiyatlaridan biri unda ijobiy yoki salbiy bo'yoqdor so'zlarning keng qo'llanishi, subyektiv munosabatni ifodalashga alohida e'tibor qaratilishidir. Jumladan, so'zlashuvda keng qo'llanuvchi jigar, asal, shakar, bo'taloq, qo'zichoq kabi so'zlar konnotativ ma'nosi bilan denotatga nisbatan ijobiy munosabatni ifodalaydi va pragmatik funksiya bajaradi. Bular konnotativ ma'no bo'lganligi uchun ifoda semalari tarkibiga kiritiladi. Chunki "ifoda" so'zining lug'aviy ma'nosida har qanday sotsial kontekst mazmunini anglash mumkin. Ifoda semalari ham leksema paradigmasidan aniqlanuvchi semalar qatoriga kiritilib, bular pragmatikaning fundamental asosi hisoblanadi. Bu ifoda semasiga xos uslubiy bo'yoq, munosabat ma'nolari bilan pragmatik maydonda umumlashadi.

Leksema sememasining tuzilishiga ko'ra turli darajadagi ma'no nozikliklari nutqdagi pragmasemantik vazifasiga ko'ra uch guruhga ajratiladi: betaraf (neytral), uslubiy bo'yoqdor va nutq vaziyati bilan aloqador ishora vazifasini bajaruvchi shaklan leksema, mazmunan esa ichi bo'sh so'zlar: bu, shu, u, o'sha, hamma, ya'ni mazmuni kishilar xotirasidagi tushunchalar bilan bog'lanmaydigan so'zlardir.

Leksema sememasining tarkibiy qismlarida neytral, uslubiy bo'yoqdorlik va ularning nutqdagi qo'llanish vazifasiga ko'ra his-hayajon belgilarining (leksema sememasiga xos his-hayajon semantikasi) mavjud yoki mavjud emasligi bilan lingvistik pragmatikaning zaxirasi sanaladi. Bularning barchasi nutqdagi funksional qo'llanishda so'zlovchining munosabatini ifodalash vazifasiga ko'ra emotsional va neytral pragmatik maydonga umumlashadi. Barcha nutq turlarida so'zning pragmatik funksiyasi ko'chimlar vositasida yuzaga chiqishi mumkin. Ayniqsa, so'z ma'nosining ko'chishi hodisasi so'zlashuv nutqi uchun xarakterli hodisa bo'lib, u tasvirlanayotgan voqea-hodisani individuallashtirish, baholashda qo'l keladi. So'zlashuv uslubida ma'noning barqaror ko'chishi natijasida jonli obrazlilik saqlanadi. So'zlashuv uslubidagi ko'chma ma'noli so'zlar adabiy tildagi ma'no xususiyatlariga nisbatan alohida obrazlilikka va ekspressivlikka egaligi bilan ajralib turadi.

O'zbek tilida nutqiy protsessda metafora hosil bo'lar ekan, bu hodisa hosila sememada pragmatik sema hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, sher, burgut, qashqir, lochin, ohu leksemalarining shaxs bildiruvchi semema, charos, la'l, bodom, gul leksemalarining kishi a'zosini bildiruvchi semema hosil qilishi metafora bo'lib, mazkur hosila sememalarda pragmatik sema yuzaga keladi. Hosila semema tarkibida pragmatik semaning yuzaga kelishi metafora hodisasi bilan emas, balki uning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi o'xshatish konstruksiyasini tuzish maqsadi bilan bog'liqdir. O'xshatish konstruksiyasini tuzish maqsadi pragmatikani, ya'ni denotatga nisbatan subyektiv munosabatni yuzaga chiqaradi. Metaforaning o'zi o'xshatish konstrukchsi etalonida qolgan komponentlarning nutq imkoniyatiga ko'ra implitsit ifodalanishidir. Masalan: buruqsamoq (nojo'ya gaplar gapirmoq), diydiyo (dard-hasrat), bez (surbet), artist (yuksak mahoratga ega bo'lgan odam), yog'li (yaxshi daromad beradigan), jaydari (sodda, dulvor), mixday (joyida), merosxo'r (davom ettiruvchi) kabilar. Keltirilgan misollarimizda so'zlar adabiy tildagi ma'nolaridan tashqari so'zlashuv nutqida boshqa ma'nolarga ega ekanligi bilan farqlanadi: Sattorqul akang uyni tuzattirib bermoqchi. Mayli o'shanda tokcha jiniga yoqmasa suvatib tashlay qolsin. (A.Qahhor). – Senga kim qo'yibdi bunday gaplarni! – deb vovullab berdi (P.Tursun).

Pragmatik tilshunoslikda «diskursiv marker» tushunchasi mavjud. Diskursiv marker deganda shaklan so'z yoki so'z birikmasi, hatto gap tuzilishiga ega bo'lib, shu diskursda//matnda o'z denotativ (va propozitsion) informativ qiymatini yo'qotib, eng avvalo, matnni jonlantirish, uni harakatdagi jarayon sifatida berish, shu bilan birga, uning butunligini ta'minlash, turli xildagi subyektiv emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini oshirish, adresantning individual uslubi xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladigan hosilalar tushuniladi. Diskursiv markerlar matnda harakatchanlik bo'yog'ini berish bilan birga ifodalanayotgan matn va diskursning o'tgan qismi orasidagi munosabatlar haqida xabar beradi (ya'ni, matn aloqadorligini ta'minlaydi) hamda kommunikatsiya paytida so'zlovchi va adresatning o'zaro munosabatini, so'zlovchi ichki (ruhiy) holatini ta'sirchan shaklda aks ettiradi.

Xorij tilshunoslari diskursiv markerlar sirasiga yuklamalar, bog'lovchilar, modal so'zlar, undovlar, ravishlar kabi ko'plab morfologik-sintaktik birliklarni kiritishadi. Yuqorida eslatib o'tilgan sabablarga ko'ra, bunday birliklarning soni tez ko'payib boryotganligi ularning o'rganilishiga bag'ishlanib ko'plab ishlarning yuzaga keltirgan. Bu ishlarda diskursiv markerlarning ko'rinishlari, so'z turkumlariga mansubligi, shakllanish va rivojlanish yo'llari haqida ham bahs boradi.

Diskursiv markerlarning o'ziga xos xususiyati

shundan iboratki, ularning ta'sir doirasi, odatda, gap yoki mikromatn chegarasidan chiqadi, katta kontekstlar bilan hatto metamatn – matndan tashqarida turgan holatu vaziyatlar, so'zlovchining zotiy (ontologik) xislatlari, ruhiy holati, ijtimoiy mavqeyi, madaniy saviyasi, bayon etilayotgan fikr va muloqot jarayoniga munosabati, muloqot jarayonining boshqa turdagi xilma-xil tarkibiy qismlarining xususiyatlari bilan ham aloqador bo'la oladi.

O'zbek tilida ham nutq jarayonida faol ishtirok etib, turli-tuman pragmatik vazifalar – eng avvalo, matnni jonlantirish va butunlashtirish, har xil konnotativ ma'nolar ifodalashga xizmat qiladigan nutqiy hosilalar (so'z, so'z birikmalari, gap qurilishi) juda ko'p. Ularning qaysi so'z turkumi (modal so'zlarni yoki undovlarni, yuklamalarni yoki bog'lovchilarni) tarkibiga kiritish har xil munozaralarga sabab bo'ladi, zeroki, ular bir xususiyati bilan modal so'zlarga o'xshasa, boshqa qirrasi bilan undovlarga yaqinlashadi. Biz shunday so'zlarni «diskursiv yuklamalar» atamasi ostida birlashtirdik. Bizningcha, o'zbek tilidagi diskursiv yuklamalar sirasiga quyidagi hosilalarni kiritishimiz mumkin: bale, bu, zab, hali, labbay, mayli, mana, ana, tuzuk, e, qani endi, qani, ishqilib, aytmoqchi, nega desang, baribir, o'lgur, qurgur, qurmagur, tushgur, tushmagur, bo'lgani bo'ldi, aytgin-aytgin, boringki, qo'yingki, kel, kelib-kelib, deyman, bu deyman, degin, shunday deng, yaxshisi, kimsan, bilasizmi, bormi, shunday, endi, savil, ha, bo'pti, xo'sh, xudo xohlasa, aytmaysizmi kabilar. Bu qatorni yana uzoq davom ettirish mumkin. Bu so'zlar, yuqorida aytib o'tganimizdek, olmosh, modal, undov, yuklamalar tarkibiga yoki so'z turkumlari tizimida ajratilishi mutlaqo asossiz bo'lgan kiritmalar sifatida baholanadi. Mazkur diskursiv yukalamalar so'zlashuv nutqida pragmatik ma'no ifodalash uchun xizmat qilladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirova Sh. Sifatning pragmatik xususiyatlari, O'zbekistonda milily tadqiqotlar: davriy anjuman. – Toshkent, 2022. 25-27-betlar.

2. Abduqodirova Sh. Leksik-semantik razmetkalash nazariyasidagi qarashlar. Modem scientific research:achievements innovations and development prospects. –Germaniya, 2023.

3.Toirova G. About the technological process of creating a national corps. // Foreign languages in Uzbekistan. Electronic scientific-methodical journal. Tashkent. 2020, №№ 2 (31), -8.57-64 https://journal.fledu.uz/uz/2-31- 2020

4.Ахманова О., Магидова И.М. Прагматическая лингвистика,
прагмалингвистика и лингвистическая прагматика. Вопросы языкознания.

5.Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусияти. ДДА. – Т.: 2000.

Nargiza MAXMUDOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti talabasi
E-mail: nargizamaxmudova057@gmail.com

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA BADIIY MAHORATDAN UNUMLI FOYDALANISH
("Anor" qissasi tahlili asosida)

Annotatsiya: ushbu Ilmiy maqolada Abdulla Qahhorning hikoyachilik va boshqa jabhalardagi badiiy nutq poetikasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, shu asnoda " Anor" hikoyasi badiiy tahlili keltirilgan. Abdulla Qahhor hikoyalarida hayotdagi inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlarni tanqid etgan. Adib hikoyalari o'zining ixcham va ravonligi bilan qalbga oson va tez kirib bora oladi.

Kalit so'zlar: *hikoyanavistlik, badiiy mahorat, haqqonoy talqin, anor daraxti, hayotdagi va inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlar, tanqid va tahlil…*

Аннотация: в данной научной статье особое внимание уделено поэтике художественной речи Абдуллы Каххора в повествовательном и других аспектах и в этом контексте представлен художественный анализ рассказа «Гранат». Абдулла Каххор в своих рассказах критиковал различные недостатки человеческой натуры. Рассказы писателя своей лаконичностью и беглостью легко и быстро проникают в сердце..

Ключевые слова: *повествование, художественное мастерство, честная интерпретация, гранатовое дерево, различные пороки жизни и человеческой натуры, критика и анализ...*

Annotation: in this scientific article, special attention is paid to the poetics of the artistic speech of Abdulla Qahhor in storytelling and other aspects, and in this context, the artistic analysis of the story "Pomegranate" is presented. Abdulla Qahhor criticized various flaws in human nature in his stories. Writer's stories with their conciseness and fluency can easily and quickly enter the heart.

Key words: *storytelling, artistic skill, honest interpretation, pomegranate tree, various flaws in life and human nature, criticism and analysis...*

Kirish. Abdulla Qahhor hayotda ham, badiiy ijodda ham o‘z haqiqatlarini topgan, shu haqiqatlar uchun sabot bilan kurashgan san’atkordir. Bu haqiqatlar uni qattiq qiynagan, qalbida og‘ir-og‘ir tebranish va tortishuvlar paydo qilgan. Ammo u ongli hayoti va iste’dod quvvatini aynan shu haqiqatlarga bag‘ishlagan. Ko‘nglini nurafshon aylagan shu haqiqatlarga suyanib, Abdulla Qahhor ma’nan ulg‘aygan, ma’nan ulg‘aygan sayin esa shu haqiqatlarning boqiyligidan ilhomlangan. Abdulla Qahhorning cho‘ng mehnat va zargarlik bilan yaratilgan har bir asarida boqiy haqiqat muhri va shukuhi bor. Abdulla Qahhorning ijodiy shaxsiyati behad boy va favqulodda saxovatli. Shuning uchun, rus olimasi I. Barolina to‘g‘ri qayd etganidek, “Abdulla Qahhor ijodiga qiziqish uning shaxsiyatiga, insoniy mohiyatiga qiziqish bilan bevosita bog‘langan. Uning shaxsiy fazilatlari – fikrlash tarzi, xarakteri, g‘ayrat-shijoati, ma’naviy dunyosi asarlarida shu qadar yorqin aks etganki, yozuvchi Abdulla Qahhor bilan uning shaxsi ichdan ajralmas aloqada bo‘lib ko‘rinadi”. Bu hammaga nasib etadigan va hamma yozuvchidan talab qilsa bo‘ladigan xususiyat emas. Barcha buyuk yozuvchilardek, Abdulla Qahhorning ham shaxsi – ijodiga, ijodi – shaxsiga bir ko‘zgudir. Adib ijodini sevganlar albatta uning shaxsiga maftun bo‘ladi, shaxsini bilganlar esa – uning ijodidan ayri yashayolmaydi. Olamning o‘zgarishi – odamning o‘zgarishiga bog‘liq. Odamning ongi, fikr-qarashlari yangilanmas ekan, hech qachon olam yangilanmaydi. Abdulla Qahhor mustabid xonlar, sultonlar hukmronlik qilgan eski zamon insonning qo‘l-oyog‘i bilan birga ongi, aqli va qalbini ham kishanlab tashlaganini bolaligidayoq ko‘rgan, o‘sha chirkin qullik muhitida yashab ulg‘aygan edi. Abdulla Qahhorning o‘nlab asarlari, xususan, “O‘tmishdan ertaklar” qissasida tasvirlangan voqea-hodisa va ijtimoiy manzaralar – asrlar mobaynida xalqni yanchib, ta’qib etib kelgan musibat, g‘am-anduh va fojialarning o‘ziga xos haqqoniy talqinidir.

Muhokama va natijalar.

Abdulla Qahhor odamning Odam bo‘lib kun kechirishini, inson o‘z ahvolini bilishda adashmasligini, tosh chaynasa ham haqiqatga xiyonat qilmasligini istagan. Agar o‘tmishda qullik, qaramlik, zabunlik hukm surgan bo‘lsa, kelajakda erkinlik, tenglik, baxtiyorlik qaror topadi, deb umid qilgan Abdulla Qahhor. Agar moziyda mehnatkash xalq ko‘zidan qonli yoshlar oqib, ajdodlarimizning boshi musibat va kulfatdan chiqmagan bo‘lsa, sho‘ro zamonida yig‘i – shodlikka, kulfat – quvonch va xotirjamlikka o‘rin bo‘shatar deb ishongan Abdulla Qahhor. Vaqt o‘tishi bilan buyuk adib bu ishonch aslida ulkan adashish, aldanish ekanini bilgan, shirin orzu va umidlar bag‘ridan umidsizlik va dilni cho‘ktirguvchi ishtibohlar ulg‘ayayotganiga iqror bo‘lgan. Abdulla Qahhorning o‘ttizinchi yillarda yozilgan “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Anor”, “Millatchilar” kabi hikoyalari menga yoqqan. Ularni o‘qib, “Xayriyat, shafqatsiz, adolatsiz, o‘sha tengsizlik zamonlari barham topgan. Xayriyat, xalqimiz o‘sha kulfat, musibat, son-sanoqsiz baxtsizliklardan xalos bo‘lgan”, deb o‘ylaganman. Ammo bir kun kelib, “Nainki, ho‘kizidan ayrilgan musibatdiyda bir mo‘ysafidga hech kim rahm qilmasa, axir amaldor ham odam-ku!.. Nainki, bemor xotinga go‘dakning saharlari qiladigan duosidan boshqa davo topilmasa; nainki, sog‘-salomat yigit boshqorong‘i xotiniga ikki donagina anor olib berolmasa…” qabilidagi e’tirozlar menda ham paydo bo‘lishini o‘ylamaganman. Ammo shunda ham negadir Qahhorni o‘qishdan o‘zimni to‘xtatolmaganman. Abdulla Qahhor o‘tmish mavzuiga bejiz qiziqmagan ekan. Moziyning zamon bilan doimo bog‘lanadigan nozik rishta va halqalarini topib, faqat tarix bag‘rida qolib ketmaydigan hayot haqiqatlari va fojialarini kuyibyonib tasvirlagan ekan. Abdulla Qahhor ijodidagi shafqatsiz realizmning tub ildizi ham balki ana shundadir.

Abdulla Qahhor hikoyalarida hayotdagi va inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlarni tanqid etgan. Odamzod mavjud ekan, baxillik, johillik, ochko‘zlik, maqtanchoqlik, xudbinlik va boshqa qusurlar, albatta, yashaydi. Bu qusurlar kimdadir kamroq bo‘lishi mumkin, lekin bu illatlar insonning qadr-qimmatini pastga uradi, chinakamiga barkamol bo‘lishiga halaqit beradi. Jahon adabiyoti namunalarida bunday masalalar doimo dolzarb bo‘lgan.

Adabiyotimizning yirik vakili, o‘zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o‘n yillardan buyon xalqimizning ong-u shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pesalari, aforizm darajasidagi tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko‘p avlodlar uchun mulohaza obyekti bo‘lib qolishi shubhasizdir.

Abdulla Qahhor hikoyalarida satirik va yumorist sifatida o‘z talantining yangi qirrasini namoyish qildi. Unda kulgichilikka tamoyili zo‘r edi. Buni juda ko‘p asarlari aytib turibdi. U zomonga o‘z idealini, davr nafasini qarshi qo‘yadi, asarlarining mazmuniga, xarakterlarning mohiyatiga kulgini, masxarani singdirib yuborish bilan uning jamiyatdagi ulkan kuchini, ijobiy xarakterini yaqqol ko‘rsatadi. Abdulla Qahhorni novellachilikda ulkan muvaffaqiyatlarga olib kelgan omillardan yana biri – uning mumtozlardan, ayniqsa, rus adabiyotidan o‘qish, o‘rganishi bo‘ldi. “Ulug‘ san’atkorning ijodi, – deb ta’kidlagan edi shoir, – badiiy mahoratimni oshirishda katta maktab bo‘ldi”.

O‘zbek hikoyachiligining cho‘qqilaridan hisoblangan “Anor” qissasida Abdulla Qahhorning obraz yaratishdagi yuksak mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘tmish voqealaridan xabar beruvchi bu asarda xotiniga ikkita anor topolmagan Turobjon, birgina orzusi anor bo‘lgan ayol obrazlari badiiy

yaratilgan.

Ish boshida quyidagi holatni kuzatamiz: Turobjon eshikdan otilib kirdi, qalamning yengi zulfinga ilindi, tirsagigacha yirtilib ketdi… Och qolgan xotini tugunni ko‘rdi. Qo‘lida chopqillab keliniga chopon kiydi… xor yerga to‘kildi. Bir tomondan Turobjonning ko‘ylagi “yaqinda” tirsagigacha yirtilgani bo‘lsa, ikkinchi tomondan xotinining asosiy rizqi hisoblangan makkajo‘xori to‘kilishiga e’tibor bermagani qiyinchilik bilan hayot kechirishidan dalolat beradi, voqea ular uchun juda muhim ekanligini xabar qiladi. Yozuvchi qahramonlar nutqidan unumli foydalanib, o‘quvchini personajlarning bu holati bilan yanada kuchliroq hayratga soladi.

– Akajon, degin!

– Akajon! Jo-on aka!..

– Nima berasan?

– Umrimning yarmini beraman!..

Er undan faqat “Aka” deyishni so‘rasa ham, xotini “Aka!” deb qo‘shib, “Jo-on aka!” deb qo‘shib qo‘yadi, agar birinchi “Akajon”ni iltimosiga ko‘ra aytilsa. Er, ikkinchisi “Jo‘on aka" "Meni uzoq kuttirmang” degani ko‘proq iltijoli ohangda. Shunday qilib, u qo‘shimcha sifatida nimanidir kutmoqda. Erining “Nima berasiz?”, degan savoliga “Umrimning yarmini beraman!” deb javob beradi. Ayol bu so‘zlarni chin dildan aytayotgani uchun bizga “men” deya olmayotgandek tuyuladi. Jonimni beradi!"

Tugunda nima borligini bilgan xotinini ko‘rib, ko‘zlarida yosh turganini ko‘rib, nima ekanligini bildimi? Asalari uyasi, — deydi Turobjon. Bozordan falon pul, piyodalar ham, ot minadiganlar ham topmaydigan ASALni topsa, xotini asal ekaniga ishonmasa, “Oh, qudrating bilan, yo‘q, yo‘q” deb yuboradi. Ishoning!”. Turobjon bu holatni tushunishni istamaganidan emas, tushunolmaganidan tushunmadi.

Spektakl boshlanishidagi quvonch so‘ndi. Turobjon yirtilgan ko‘ylagi va to‘kilgan makkajo‘xorini esladi. Er-xotin orasiga sovuqlik tushdi. Abdulla Qahhor bechoralar obrazini yaratishda qahramonlar harakati, so‘zi, o‘y-fikrlarining har bir detaliga ma’no-mazmun beradi: Turobjon boshidan qalpoqni oldi… Yengiga ko‘z yosh to‘kdi, yuragi og‘riydi: hozir. Bu uch-to‘rt marta yuvilgan yangi kurtka edi! Turobjandda yashovchilar uchun kurtka hali yangi, lekin o‘quvchi uchun yangilikmi? Ammo o‘sha davrdagi kambag‘allarning kiyinish uslubidan o‘ylasak, kiyimlar unchalik yangi emas. Yana bir misol: Taom pishirildi. Qozonning zangidan qorayib ketgan tvorogning rangi chiqolmadi. Bu qozon necha hafta, necha oy yog‘ ko‘rmasligi kerakki, qozon zanglab, hatto ovqatni qoraytiradi, qatiq esa bu qoralikni kesolmaydi?

Yozuvchining mahorati shundaki, u o‘z qahramonlari holatini tasvirlash bilan birga, o‘quvchini shubhalanmasligi uchun asar davomida voqelikka tayyorlaydi. Abdulla Qahhor obrazlarini shunday nochor, bechora tasvirlaydiki, Turobjonning kallasi xotiniga ikkita anor topolmaganiga shubha qilmaysan.

Adib Turobjonning o‘z yog‘iga qovurilayotgan ko‘m-ko‘k maysalariga qarab: — Mushak, Mullajonlar oilasining bog‘ida, — dedi. Qozi Mullajon beshik to‘y qildim, deb suratlarini yozib, otgan muskullar narxini yozib, sonlarini xom qila boshlaydi. Bu tepada Mullajonning bayramiga sababchi bo‘lgan go‘dakni tug‘ilmagan farzandi bilan qiyoslab, farzandi taqdiridan qayg‘urayotgan ota obrazi mahorat bilan yaratilgan. Asardagi bosh ayol obrazi ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Hikoyani yozishdan bir necha yil avval Abdulla Qahhor o‘z daftariga bosh ayol haqida shunday yozgan edi: “Er xotiniga jannatni ta’riflaydi. Ayol ko‘lmak va unda suzayotgan baliqdan boshqa hech narsani ko‘rmadi. Xotin baliqning boshidir. Yozuvchining bu qaydlari Turobjonning Qozi Mullajon va uning bog‘i haqida so‘z yuritayotganida xotinining ahvoliga juda o‘xshaydi: “Qozi Mullajonning bog‘ini ko‘rmagan, ammo ta’rifini eshitgan… bog‘, lekin anor daraxti”.

Yozuvchining o‘zi homilador ayolning ahvolini faqat homilador ayol tushuna oladi, degan edi. Ammo asarni o‘qiyotganda o‘quvchi ham bu holatni anglay boshlaydi. Muallif yozadi: “Dunyoda uning tayanchi er edi, birdan orzusi anor bo‘ldi”. Ko‘rib turganingizdek, ayolning dunyoda bor narsasi – eri va uning orzusi – anor. Ushbu tushunchalar o‘lchovning har ikki tomonida ham teng ko‘rib chiqiladi. Demak, o‘quvchi ayol yetakchi bo‘lsa, o‘zi xohlagan narsani dunyodagi hamma narsadan ustun qo‘ya olishiga shubha qilmaydi.

Ayol anor daraxtida shu qadar yonardiki, yuzi osmonga ko‘tarilgan erining dahshatidan qo‘rqmasdi. U erining “O‘tgan bozor kuni yegan anoringizni olib keldingizmi?!” degan savolini o‘yladi. Yozuvchi asar boshida bir-ikki satr bilan er va xotinning bir-biriga qanchalik mehr-muhabbat borligiga o‘quvchida shubha qoldirmaydi. Bunday odamlar faqirlik va nochorlikning barcha sinovlariga birga chidashlari, bir-birlarining ko‘nglini asrashlari aniq. Shunga ko‘ra, qissada anor Turobjon sevgisini sinash uchun ayol tomonidan o‘ylab topilgan injiqlik emas, balki qahramonning irodasiga kirmaydigan tabiiy zaruratdir. Ayni paytda muallif “Anor” qissasida bor-yo‘g‘i ikki inson obrazini mahorat bilan yaratib, maishiy hayotning bir parchasini jonlantirish barobarida katta ijtimoiy umumlashmalarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lgan.

Qahhor hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishontirish kuchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo‘lib o‘tgan voqea, real hayotning bir bo‘lagi, epizodi bo‘lib gavdalanadi; hikoyalarning ko‘pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o‘zi ko‘rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Biroq ular hayotning aynan nusxasi emas. «Agar yozuvchilik turmushdan nusxa

ko‘chirishdan iborat bo‘lsa, dunyoda bundan oson ish bo‘lmas edi, – deydi adib. – Hayotdan aynan ko‘chirish kitobdan ko‘chirishday gap. Nusxa nusxa bo‘lib qolaveradi. Bunday narsalardan originallik kutib bo‘lmaydi. Originallik hayot haqiqatini dildan o‘tkazish, uni his qilish, unga o‘ylab yurgan gaplarni singdirish, tilaklaringni qo‘shib ifodalash bilan yuzaga keladi. Zotan, yozuvchi hikoyalaridagi hayotiylik, ishontirish kuchi, siri ana shunda.

Bundan ham muhimi, yozuvchining o‘sha hayot hodisalarini o‘ziga xos tarzda badiiy idrok etishi, mag‘zini chaqib, ulardan xilma-xil original va teran ma’nolar topishi kashf etishi hikoyalariga o‘ziga xos joziba baxsh etgan.

Adib hikoyalari o‘zining ixcham va ravonligi bilan qalbga oson va tez kirib bora oladi. Sababi yozuvchining aksariyati tabiiy, hamda o‘ta tushinarli. A. Qahhor xalq tilini benihoya yaxshi bilar, qadrlar va unga ma’sulyat bilan yondoshar edi. Asarlarida birorta so‘z ochiqchaligi sezilmasdi, ixcham ibolardan tashkil topgan tasvirlar ma’nodorligi bilan istalganidan ko‘proq mazmun kasb etadi.

Xulosa qilib ayganda, odamlar turmushidan olingan epizodlarda, lavhalarda ular hayotiga, qismatiga daxldor fojeiy mohiyatni ko‘rish, teran his etish, personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida gavdalantirish Qahhor hikoyanavislik san’atining eng muhim jihatlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmon Qo‘chqor. Men bilan munozara qilsangiz... – T.: "Ma'naviyat", 1998.
2. Normatov U.Abdulla Qahhorni anglsh mashaqqati. – T.: "Universitet", 1999.
3. Abdulla Qahhor hikoyalar to‘plami. 9-bet.
4. Ibrohim Haqqul. Abdulla Qahhor jasorati. Esse. "Tafakkur" jurnali, 2007.
5. R.A. Saidova. Badiiy matndagi belgi munosabatlari. Dissertatsiya. – Buxoro, 2021.
6. www. Ziyo uz.com kutubxonasi.
7. https://kh-davron. Uz
8. https://oyina.uz

Marjona SHOMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi
E-mail: marjonashomurodova879@gmail.com

NISHOTIY LIRIKASIDA BADIIY SAN’ATLAR

Annotatsiya: maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining taniqli vakili Muhammadniyoz Nishotiy she’riyatida qo‘llangan she’riy san’atlar tadqiq qilingan. Xususan, shoir g‘azallari misolida ko‘plab she’riy san’atlar atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *g‘azal, bayt, she’riy san’at, timsol, qofiya, badiiy mahorat, lirik asar, badiiy tahlil.*

Аннотация: в статье рассматривается поэтическое искусство, использованное в поэзии Мухамедниязa Нишати, известного представителя узбекской классической литературы. В частности, на основе газелей поэта подробно проанализированы многие поэтические искусства.

Ключевые слова: *газель, бейт, поэтическое искусство, символ, рифма, поэтическое мастерство, лирическое произведение, поэтический анализ.*

Annotation: the article examines the poetic art used in the poetry of Mukhamedniyaz Nishati, a famous representative of Uzbek classical literature. In particular, many poetic arts were analyzed in detail on the basis of the poet's ghazals.

Key words: *ghazal, beyt, poetic art, symbol, rhyme, poetic skill, lyrical work, poetic analysis.*

O‘zbek mumtoz she’riyatining iste’dodli vakili Muhammadniyoz Nishotiy o‘ziga Hazrat Mir Alisher Navoiy, Lutfiy va Fuzuliy kabi buyuk shoirlarni o‘ziga ma’naviy ustoz deb bilib, ijodda aynan ularning izidan borishga harakat qilgan. Bizgacha Nishotiyning qasida, musaddas, muxammas va qariyb qirqqa yaqin g‘azali jamlangan “Devon”i yetib kelgan. Devondagi lirik asarlar turli yillarda bir necha bor nashr etilgan. Shoir g‘azallari 7 baytdan 14 baytgacha hajmga ega bo‘lib, asosan ishqiy mavzularda yaratilgan.

G‘azalnavislikda ijodkordan nafaqat shoirona iste’dod, balki misralarda so‘zlarni o‘rinli hamda yuksak badiiy mahorat bilan qo‘llay olish ham talab etiladi. Qadimda “Ilmi bade’” (badiiylik ilmi), “Ilmi qofiya” (she’rdagi qofiyadoshlik), “Ilmi aruz”(she’r vazni) kabilar maxsus fan sifatida o‘rgatilgan. Bu uch yo‘nalishda o‘rganilgan nazm ilmini she’rshunoslar “Ilmhoyi segona” (“Bilimlar uchligi”) deb ataganlar. Bular orasida “Ilmi bade’” (“Badoye’ us-sanoye”), ya’ni badiiy san’atlarning alohida o‘rni bor.

Badiiy san’atlar – asarda ifodalangan g‘oyalarni hayotiy va ta’sirchan ifodalanishini, lirik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishini, misralar, bayt va bandlarning badiiy nafosati va jozibadorligini ta’minlovchi vositalardir.

Quyida Nishotiyning lirik asarlarida qo‘llangan badiiy san’atlarning ayrimlarini tahlilga tortamiz.

Mumtoz she’riyatda keng qo‘llaniluvchi badiiy san’atlardan biri talmeh sanalib, she’rda o‘tmishdagi mashhur zotlarga, mashhur tarixiy va adabiy qahramonlar nomini zikr etish usulidir. Buni quyidagi misol orqali to‘laqonli anglashimiz mumkin:

Yuz quyoshcha partavafkandur safoi soidi,
Muncha ko‘p faxr etmasun Muso yadi bayzosidin.

G‘azallarda payg‘ambarlar va ularning ilohiy sifatlari bilan bog‘liq so‘zlarni qo‘llash talmeh san’atining eng keng tarqalgan ko‘rinishidir. Ikkinchi misrada qo‘llangan “Muso yadi bayzo”si (Muso alayhissalom mo‘jizalaridan biri) bunga yaqqol misoldir. Nishotiy g‘azallarida Xizr, Iso, Muso, Ya’qub, Yusuf alayhissalomlar va ularning karomatlari, mo‘jizaviy sifatlari bilan bog‘liq tasvirlar ko‘plab uchraydi.

Bundan tashqari, Sharq adabiyotida mashhur asarlar qahramonlari nomlari ham talmeh san’ati ifodasi o‘laroq, g‘azal baytlarida qo‘llanadi. Xususan, shoir o‘z g‘azallaridan birida mumtoz adabiyotda eng mashhur obrazlar bo‘lmish Parvez (Xusrav) va Farhod timsollaridan ustalik bilan foydalanib, talmeh san’atining yana bir ajoyib namunasini yaratadi:

Tong emas Parvez ila Farhoddek bo‘lsa g‘amim,
Ham tiling shakkardurur, ham lablaring shirin erur.

Nishotiy lirikasida faol qo‘llangan badiiy san’atlardan biri mubolag‘a bo‘lib, u tasvirlanayotgan narsa, shaxs va voqea-hodisaning muayyan jihatlarini bo‘rttirib, kuchaytirib tasvirlash usuli bo‘lib, Sharq mumtoz she’riyatida mubolag‘a san’atiga she’r ziynati sifatida qarab, “Ahsanahu akzabahu” (eng yaxshi she’r – eng yolg‘on she’rdir) degan naqlga amal qilganlar. Quyida buni Nishotiy g‘azallari misolida ko‘rib chiqamiz:

Orazing o‘trusig‘a, ey gul, netong, oy kelsa kam,
Husning afzundur damodam, ul bo‘lib kam dam-badam.

Shoir oshiq tilidan yorga murojaat qilib, uning yuzini mumtoz adabiyotda go‘zallikning eng yuksak timsoli bo‘lmish oydan-da ustun qo‘yadi.

Go‘zal yor qarshisida oyning husni fursat sayin kamaysa, yor go‘zalligi esa, aksincha, ortib borishini tasvirlaydi. Albatta bu holatni mantiqan tasavvur qilib bo‘lmasligi, shoir o‘z baytida mubolag‘a qilayotganiga yaqqol dalildir.

To soldi ul sumanbar jon-u dilimg‘a axgar,
Ohimni qildi sarsar, ashkimni etti to‘fon.

Ushbu baytda mubolag‘a san’ati yanayam aniqroq ko‘ringan bo‘lib, shoir “ul sumanbar” (yor, ma’shuqa) oshiq joniga “axgar” (olov, alanga) solib, oh-u fig‘onini “sarsar” (kuchli shamol) yanglig‘, ko‘z yoshini esa to‘fonga aylantirganini tasvirlagani holda tasavvurga zid, biroq ajoyib she’riy ifoda yaratadi.

Badiiy ijodda keng qo‘llangan she’riy san’atlardan yana biri takrir bo‘lib, bu she’rda u yoki bu so‘zni takror qo‘llash san’atiga nisbatan aytiladi. Buni Nishotiyning quyidagi misralari orqali ko‘rishimiz mumkin:

Ul ikki zulf-u qomat dod erdi-yu na qildi,
Dod o‘lsa ul uchovlon, kim desun oni bedod.

* * *

Garchi kamdirman otingning xoki poyidin yuz och,
Kamligimga, ey pari, qil ikki yuz birla karam.

Takrir badiiy san’atiga misol o‘laroq, dastlabki baytda shoir “dod” so‘zini misralarda takror qo‘llagan bo‘lsa, yana boshqa bir g‘azalidan olingan keyingi bayt misralarida “yuz” so‘zini takroran istifoda qiladi.

Yuqoridagi baytlarda takrir bilan birga kitobat san’ati ham mahorat bilan qo‘llangan. Birinchi baytda shoir “dod” (داد) so‘zidagi ikki “dol”ni yor zulfiga, “alif”ni uning qomatiga mengzaydi. Ikkinchi baytda esa “kam” (کم) so‘zining o‘rtasiga abjad hisobi bo‘yicha miqdori ikki yuz soniga teng harf –“re” kiritilsa, shoir ishora qilganidek, “karam” (کرم) hosil bo‘ladi.

Qisman takrirga o‘xshab baytda so‘zlarning takroriyligiga asoslangan yana bir badiiy san’at turi borki, u mumtoz adabiyotda tasdir deb ataladi. Uning takrirdan asosiy farqli jihati so‘zning joylashuv o‘rni bo‘lib, baytni boshlagan so‘z bayt so‘ngida ham takrorlanadi:

Shamshod topti shamni ul zulfi anbarindin,
Shod o‘ldi derlar ondin el ichra oni shamshod.

Badiiy san’atlar aro g‘azaliyotda ko‘p va xo‘b uchrovchi she’riy san’at tashbehdir. Tashbeh biror obraz yoki voqeani boshqa biror narsa yoki voqeaga qiyoslash orqali o‘xshatishga asoslangan badiiy san’at turidir. Bunda so‘zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa va hodisalar, xususiyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik, sifat, belgidagi umumiylik o‘zaro qiyoslanadi, tasvirlanayotgan narsa-hodisalarning ayrim xususiyati yorqin va ta’sirchan shaklda ochib beriladi. Masalan,

Tortib fig‘oni g‘ulg‘ul, hajringda misli bulbul,
Sansiz ko‘zimga, ey gul, mujgon nish-u paykon.

Mazkur baytda shoir yor hajrida “g‘ulg‘ul” (shovqinli) fig‘on tortish holatini bulbulga mengzaydi. Shunga o‘xshash tashbeh ifodasini shoirning boshqa bir g‘azal baytida ham ko‘rish mumkin:

Shomi hijron qaro qayg‘usidin etti ozod,
Mehri anvar kibi ruxsoringa qurbon o‘layin.

Baytda shoir yor go‘zalligini madh etib, ma’shuqa chehrasini “mehri anvar” (nurli quyosh)ga o‘xshatadi. Bu esa yor husni tasvirini yuksak darajaga ko‘taradi.

Mumtoz adabiyotda she’rning birinchi misrasida keltirilgan so‘z yoki so‘z birikmalarini keyingi misrada o‘rnini almashtirib qaytarish holati ham alohida badiiy san’at bo‘lib, badiiyat ilmida tardi aks deb nomlanadi. Masalan,

To‘tiyo gar ko‘z uchundir yetsa xoki maqdaming,
Etgamen ko‘z nurin o‘yla to‘tiyoning sadqasi.

Ajratib ko‘rsatilganidek, birinchi misradagi “to‘tiyo” va “ko‘z” so‘zlarini ikkinchi misrada “ko‘z” va “to‘tiyo” holida teskari qo‘llanishi baytda tardi aks san’atining vujudga kelishiga olib kelgan.

Mumtoz lirik asarlarning barcha ko‘rinishida birdek keng qo‘llanadigan badiiy san’at turi, shubhasiz, tanosubdir. U she’r baytlarida bir-biriga bog‘liq va bir-biriga mazmunan yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llash san’atidir. Shoir biror hodisani tasvirlar ekan, ma’no jihatidan unga yaqin so‘zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq, ishonchliroq tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan,

Parizodi Eram, yo hur deb tavsifi ruxsorin,
Junundin telba ko‘nglum dedi, har yon ishtiboh etti.

Ushbu baytning birinchi misrasida “parizodi Eram”, “hur” so‘zlari “Eram bog‘i parisi”, “malak” mazmunlarida bir-biriga yaqin bo‘lsa, ikkinchi misradagi “junun”, “telba” so‘zlari “aqldan ozganlik”, “devonalik” ma’nosida birlashib, tanosub san’atini vujudga keltirgan.

Mazmunan bir-biriga yaqin so‘zlarning qo‘llanilishi jihatidan tanosub san’atiga yaqin turuvchi badiiy san’atlardan yana biri ta’did san’atidir. U tanosubdan farqli o‘laroq, so‘z qo‘llashda fikriy rivoj, ketma-ketlik va tadrijiylikka asoslanib, she’rda mazmunan yaqin so‘zlarni ketma- ket keltirish jihatidan xarakterlidir. Masalan,

Ko‘z-u qosh-u qadd-u zulfidin niholidur daqiq,
Mundin ermishkim der erkanlar anga nozik nihol.

* * *

Kirpiking o‘qlaridan rahm et, ey qoshi kamon,
Siyna majruh-u, jigar resh-u, dilafgor o‘ldim.

Dastlabki baytda mumtoz lirikada oshiq tomonidan ma’shuqaning eng ko‘p madh etiluvchi jihatlari (ko‘z, qosh, qad, zulf) ketma-ket qo‘llangan bo‘lsa, shoirning boshqa bir g‘azaliga oid keyingi baytda oshiq holati tasviri (siyna majruh, jigar resh, dilafgor) xuddi shu yo‘sinda keltirilib, ta’did san’atini yuzaga keltirgan.

Yuqoridagi badiiy san’atlar (tanosub, ta’did) ma’noviy yaqinlikka, tadrijiylikka asoslansa, tazod san’ati shoirdan baytlarda o‘zaro ma’noviy zidlik hosil qiluvchi so‘zlardan foydalanishni talab qiladi. Nishotiy lirikasida tazod badiiy san’ati bilan bog‘liq misollar anchayin ko‘p. Masalan,

Dema, ishqimda Nishotiy tirik erkanmu o‘luk,
Gah tirik lutfing ila, gohi o‘luk nozingdin.

Badiiy ijodda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq yana bir badiiy san’at turi bu tajnis hisoblanib, tajnis san’ati so‘z qo‘llashda shakldoshlikni taqozo etadi. Bunda muallif bir necha so‘zlar ishtirokida ohoriy (original) shakldoshliklar yaratishi mumkin. Tajnis yaratish borasida turkiy anchayin katta imkoniyatlarga ega. Xususan, turkigo‘y shoir Nishotiy ham bundan unumli foydalanadi:

Jom aro may ko‘zgusi ichra yuzi aksin ko‘rub
Ushbu yuzdin gah Sikandar erdimu gah Jam edim.

Mazkur badiiy san’atga misol o‘laroq shoir ushbu baytda “yuz” so‘zini ikki xil ma’noda qo‘llaydi. Aniqrog‘i, baytning birinchi misrasidagi “yuz” so‘zi “oraz, chehra” ma’nosini, ikkinchi misrada esa “sabab, vaj” ifodalagan.

Mumtoz adabiyotda nafaqat bayt tarkibidagi bir nechta so‘z ma’nosi bilan, balki, bir butun bayt mazmunini o‘z ichiga oluvchi badiiy san’atlar ham bor. Ular biri tajohuli orif (bilib bilmaslikka olish) san’atidir. Nishotiy lirikasida to‘laligicha tajohuli orif asosida yaratilgan bir necha g‘azal uchraydi. Jumladan,

Bazmimiz ichra bu kun ul so‘zi shakkarmu ekan?
Yo magar anjuman oro shahi xovarmu ekan? –

baytida har ikki misrada qo‘yilgan savol javob talab qilmaydi. Xususan, birinchi misrada shoir yorni “bazm ichra ul so‘zi shakkarmi?” deya, ikkinchi misrada esa “anjumanga zeb beruvchi quyoshimikin?” deya savol berib, javobini bilsa-da, o‘zini bilmaganga oladi. Odatda, tajohuli orif g‘azalning har bir baytini qamrab oladi. Yuqorida matla’si keltirilgan g‘azalda ham xuddi shunday. Yoki boshqa bir g‘azalning maqta’siga diqqat qilaylik:

Ey Nishotiy, shavqidin qilg‘an jahon mulkin xarob,
Bahri ashkim mavjidur, yo seli to‘fonmu ekan?

Mazmuni: Ey Nishotiy, jahon mulkini xarob qilgan yor ishqining shavqi sabab to‘kkan ko‘z yoshim dengizining to‘lqinimi yoki seli to‘fonmikin?

Mohiyatan bayt mazmunini qamrab oluvchi badiiy san’atlardan yana biri husni ta’lil (chiroyli dalillash) san’atidir. U she’rda tasvirlanayotgan biror voqeani unga daxli bo‘lmagan boshqa hodisa bilan izohlashdir. Uning asosida muayyan bir hodisani hayotiy mantiq bilan emas, balki shoirona xayol – badiiy mantiq bilan “isbotlash” yotadi. Ushbu san’atni o‘z ijodida qo‘llay bilish shoirdan nafaqat ijodiy mahorat va iste’dod, balki mantiqiy zukkolikni ham talab etadi. Masalan,

Qoshing xayoli boshida gar o‘lmas ersa mudom,
Nedin Nishotiy, boshi uzra jo tutubdur “nun?”

Mazmuni: Agar boshida doim qoshing xayoli bo‘lmagan bo‘lsa, nima uchun Nishotiy boshi uzra “nun” joy olgandir?

Mumtoz adabiyotda yor qoshining shakli “nun” harfiga qiyoslanadi. “Nishotiy” so‘zi ham arab harflari bilan ifodalanganda so‘z boshi “nun” (ن) harfi bilan boshlanadi (نشاطی). Shoir “boshida yor qoshining xayoli joylashgani” va o‘z taxallusi (Nishotiy)ning “nun” harfi bilan boshlanishini shunday moslashtirganki, natijada baytda husni ta’lil san’atining ajoyib namunasi vujudga kelgan.

Nishotiy lirikasi bilan tanishar ekanmiz, shoirning nafaqat so‘z boyligi, balki badiiy so‘z san’atlarini qo‘llay bilishda ham sermahsul ijod qilganining guvohi bo‘lamiz. Bu esa shoirning o‘z davridagi adabiy muhit, qolaversa, o‘zbek mumtoz she’riyatida ham ijodiy barkamol shoir ekanini dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishotiy. Husn va dil. Doston. She'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
2. Nishotiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.

Gulmira BOZOROVA
3rd year student of
Bukhara State University
Gulmirabozorova020@gmail.com

THE ART OF TALMEH IN THE POETRY OF MUKHAMMAD YUSUF

Annotation: in this article, observations are made about the role of art in the work of the poet Muhammad Yusuf. In particular, it is tried to reveal Muhammad Yusuf's unique traditional poetry writing skill on the basis of the fragments of the poet's poetic samples, where the art of talmeh was involved.

Key words: *uzbek tunes, history, tradition, fine arts, talmeh, creative style, names of historical figures, the psyche of the heroes of the work.*

Annotatsiya: ushbu maqolada shoir Muhammad Yusuf ijodida badiiy san'atlarning tutgan o'rni masalasida kuzatishlar olib boriladi. Ayniqsa, shoirning she'riy namunalaridan talmeh san'ati ishtirok etgan parchalar asosida Muhammad Yusufning o'ziga xos an'anaviy she'r yozish mahorati ochib berishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: *o'zbekona ohanglar, tarix, an'ana, badiiy san'atlar, talmeh, ijodkor uslubi, tarixiy shaxs nomlari, asar qahramonlari ruhiyati.*

Аннотация: в данной статье сделаны наблюдения о роле искусства в творчестве поэта Мухаммада Юсуфа. В частности, на основе фрагментов поэтических образцов поэта, где было задействовано искусство тальме, делается попытка раскрыть уникальное поэтическое мастерство Мухаммада Юсуфа.

Ключевые слова: *узбекские напевы, история, традиции, изобразительное искусство, талмех, творческие стиль, имена исторических деятелей, психика героев произведения.*

The work of Mukhammad Yusuf, the favorite poet of the Uzbek people, does not require any additional explanations, because his poems are in harmony with the Uzbek melodies of our people, in harmony with our traditions and history. They do not have exaggeration and fakeness. Naturally, these features make Mukhammad Yusuf's poems close to the hearts of the people, proving that the main task of literature is to influence people's hearts through words. Although there is no need for any explanation to understand the meaning of Mukhammad Yusuf's poems, in this article we will try to identify the specific features of his poems, try to pay attention to the extent in which artistic arts are used, especially with the example of the art of talmeh. Of course, every artist uses art to enhance the artistry of their poems, but every poet or writer has an individual, unique way of writing. With these features, they figuratively leave their mark on their creations. Similarly, when a truly astute reader reads four lines of Mukhammad Yusuf's poem, he involuntarily realizes who its author is.

If we take an account that most of Mukhammad Yusuf's poems are about our country, history, our ancestors and human feelings, we can witness that his poems are rich in examples of the art of talmeh. In particular, in the following poetic analysis, we can witness the unique aspects of the poet's use of the art of talmeh.

Ko'ngilda pok niyat bo'lsa, nur bulog'i,
Cho'p minsangiz – Go'ro'g'lining arg'umog'i.
Ozod o'lka qalqonlari, qosh-qarog'i,
Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar. [1,8]

This poetic passage talks about the image of Gorogli, one of the national images of folklore. We know that Gorogli is extremely strong, intelligent and courageous hero. It is said that the most faithful friend of Bahadur boys is their horse. In this paragraph, it is exaggerated that even if the pure-hearted people ride on a stick, it will be like riding on the horse of Gorogly.

O'ping, ko'zingizga suring tuprog'in,
Har so'zin muqaddas duodek seving.
Qadang yuraklarga millat bayrog'in,
Vatanni Najmiddin Kubrodek seving. [1,14]

It is known from history that Najmuddin Kubro was martyred in the fight against the Mongol invaders. He fought valiantly, and even in the last moments of his life, he tirelessly strives for the freedom and independence of the Motherland. He will tear down the flag of the enemy and will not let it go even if his life is cut off. Mukhammad Yusuf appeals to his compatriots, the young generation, to love your country like Najmuddin Kubro.

Alpomishlar yurti bu diyor,
Doston bo'lgan Rustamlari bor.
Shu o'lkada oftob ayvoni,
Shu o'lkadan boshlanar bahor.
Go'zal yurtning ko'rkiga chiroy,
Uzun kokil malak Barchinoy.
Hur qizlari ko'cha to'ldirsa,
Go'yo yerda suzib yurar oy. [1, 15]

These poetic verses are also enriched with unique heroes of national Uzbek folklore. For example, like Alpomish, Rustam and Barchinoy. In the poem, the poet describes Uzbek boys as brave like Alpomish and Rustam, and their daughters are as proud and beautiful as Barchinoy.

Bu yorug' jahonda
Yo'g'u borimsan,
Tilimning ostida
Novvot – zarimsan.
Sen mening yogona
Payg'ambarimsan,
Men Bilol,
Men Habash –
Qulday sevaman. [1, 21]

Bilal - was one of the first Abissinians to accept Islam in Mecca and read the call to prayer for the first time. The poet expresses his love for the prophet as equal to Bilal's love, comparing himself to Bilal.

Yarim dunyo – yoysang butun qanotlaring,
Chavandozing qo'msab kishnar G'irotlaring.
Qadding ko'tar ko'kraging ker, ko'kaldoshim,
Madad bo'lsin ruhi aziz ajdodlaring.
Mag'rur chinor, yashil bayroq – tug' Turkiston,
Tarqab ketgan bolalaring yig', Turkiston. [1,26]

We know that not only the heroes themselves, but also their horses had their own qualities in the samples of folk art. Ghirot is a legendary horse typical of "Gorogli" series of epics. In this poem, the poet wants to help the people who were crushed by the invasion of the Soviets. He encourages his people to realize their identity by telling them that in the past, how intelligent their ancestors were, and how great their knowledge of the world was, and that even their vultures were worthy of the envy of other nations.

Alp o'g'lonlar o'lkasi bu ko'hna Turon,
Qalqonlari, qanotlari, ilm istang.
Yarim jahon bunyod etgan Sohibqiron,
Alisherning avlodlari, ilm istang!

Taxtdan tushganda ham otdan tushmay yurgan,
Ajdodingiz uy qurmagan – Davlat qurgan.
Yurti uchun yelkasida tog'lar surgan –
Rustamlari, Farhodlari, ilm istang.

Ko'z ochgandan kezib yetti bahri ummon,
Yetti tilda so'zlashgan biz tili biyron.
Vatanida Tojmahallar tiklar sulton –
Boburlari, Behzodlari, ilm istang.

Haq yo'lida siz limning ummatlari,
Xalq yo'lida hidoyati, himmatlari.
Madad bo'lsin Yassaviyning hikmatlari,
Bobo Mashrab bayotlari, ilm istang. [1,27]

Many examples of talmeh are also used in this poem, which urges the youth to act for the development of the country. They are Sahibqiron, Alisher, Rustam, Farhad, Babur, Behzad, Yassavi and Baba Mashrab.

Boshin ne toshlarga urdi bu diyor,
Necha vayron bo'ldi, qurdi bu diyor.
Tojmahal me'mori, Nilning mirobi,
Imom Buxoriylar yurti bu diyor.
Bizni yo'qlaganga bizdan ham salom,
Dunyolarni quchdi o'zbek degan nom. [1, 29]

Our Uzbekistan is so paradise-like that it raised such architects that built the Tajmahal. He produced such scientists that they were known as the mirob of the Nile. Imam Bukhari grew up in this blessed soil. Their name is known and famous all over the world.

Qalbga taskin izlasang –
Turg'un cholni so'ragin.
"Tanovar"ni tinglasang,
Sel bo'ladi yuraging.
Navolar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor…

Bizning bo'ston qayda bor,
Shohimardon qayda bor,
So'lim Surxon qayda bor,
Samarqandnon qayda bor-a,
O'zbekiston qayda bor! [1, 32]

Another type of talmeh is the use of the names of musical works that have become our national cultural wealth in poems. In this poetic passage, the name of the music "Tanovar" is also mentioned, and through this, the poet wanted to appreciate the the great historical music of uzbek people. There are many different shrines and ancient sites in Uzbekistan. One of them is Shahimardan mentioned in the poem.

Meni bilganim bekor,
Meni yozganim xato.
Mukka tushgan mo'ysafid
Tangritog' bersin sado:
Senda barcha bir mo'min,
Teng edi shohu gado,
Har sanam – Momo Havo,
Har odam – Odam Ato…
Sen o'zing ayt, onajon,
Sen o'zing aytgil, Vatan.
Inshoolloh, inshoolloh,
Aslingga qaytgil, Vatan.

There is a beautiful similarity in this poem. The mountain of Tangritog is likened to an old man that fell on the ground. That is because, this mountain is very ancient and extends to remote areas. That is why the poet humbly says that what I know is useless, what I wrote is wrong, and when talking about the past, look at the Tangritog. Eve and Adam are also examples of talmeh art, giving the poem a special divine meaning.

Jannat hurlaridan jamoli ko'rkam,
Suluv sanamlarning xayoli ko'rkam.
Bosh egib kelganda Otabeklar ham,

Kumushini ko'zi qiymagan shahar. [1,70]

Naturally, when talking about love, poets mention the images of Otabek and Kumush in their poems. This poem is about Margilan. The poet does not want to give away the Kumush of this city even if Otabek comes to bring it, and uses beautiful metaphors.

References:

1. Мухаммад Юсуф, Халк бул, элим. Тошкент. 2018.
2. Sulton. I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O'qituvchi, 2005.
3. Куронов Д., Мамажонов ва бошкалар. Адабиетшунослик лугати. –T.: Akademnashr, 2010.

Sevinch TILABJONOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi talabasi

PEDAGOGIK AMALIYOTNI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada pedagogik amaliyotni takomillashtirishda yangi pedagogik texnologiyalarning o'rni va ularni dars jarayonida qo'llash orqali ta'lim sifatini yaxshilash uni samarali hamda bu texnologiyalarning yaratayotgan qulayliklari va imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik amaliyot, yangi texnologiyalar, dars, o'qituvchi, sifatli, samarali, ta'lim, diagnostika.*

Аннотация: в данной статье представлена информация о роли новых педагогических технологий в совершенствовании педагогической практики и эффективности повышения качества образования за счет их использования на уроках, а также об удобствах и возможностях, создаваемых этими технологиями.

Ключевые слова: *педагогическая практика, новые технологии, урок, учитель, качество, эффективность, образование, диагностика.*

Annotation: this article provides information about the role of new pedagogical technologies in the improvement of pedagogical practice and the effectiveness of improving the quality of education by using them in the classroom, as well as the conveniences and opportunities created by these technologies.

Key words: *teaching practice, new technologies, lesson, teacher, quality, efficiency, education, diagnostics.*

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, barcha sohalarda o'zgarishlar sodir bo'lib, eng katta e'tiborni yosh avlod va ularning sifatli ta'lim olishiga yo'naltirdi. Mustaqillik yillarida davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni amalga oshirish istiqboli taqdirimizni belgilaydigan va jahon hamjamiyatida o'z o'rnimiz bo'lishini ta'minlaydigan jarayoniga aylandi. Ta'lim tizimiga tashqi tomondan doimo bo'lib turadigan o'zgarishlar amaldagi ta'lim tizimi oldiga fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish madaniyat va kundalik pedagogik amaliyot talabalarning ko'nikuvi muammolarini uzluksiz ravishda hal etish va takomillashtirish masalasini maqsad qilib qo'ydi.

Pedagogik amaliyot jarayoni va yurtimizdagi ta'lim tizimini yaxshilashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni kattadir. Hozirgi kunda texnologiyalar kundan-kunga rivojlanmoqda. Pedagogik amaliyot jarayonida yangi texnologiyalar pedagogik jarayoni hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik o'zgarishlar kiritish hisoblanadi. Texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan o'qituvchilar o'qitish va shu jarayon natijalarini yaxshilash uchun yangi pedagogik texnologiyalardan tobora ko'proq foydalanmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim berish, baholash va o'quvchilarning faolligini tartibga soluvchi ko'plab qulayliklarni taqdim etadi.

Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi [1., 4-b]. Bu texnologiyalarni amaliyot jarayonida qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada samarali tashkil etish mumkin. Chunki amaliyotchi talaba bu davrda o'zining pedagoglik mahoratini kashf etadi. Kasbiga bo'lgan hurmat paydo bo'ladi. Shu sababli, pedagogik amaliyotni takomillashtirishda yangi texnologiyalar, interfaol metodlar va multimedia vositalaridan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishishimiz mumkin.

Adabiyotlar va metodologiya.

Pedagogik amaliyot jarayonini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish kerakligi haqida bir qator ishlar olib borilmoqda. Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mutaxassislarni tayyorlash sifati va o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, zamonaviy hayot talablariga javob beradigan pedagogik korpusni tayyorlash va shakllantirish vazifasi mamlakat kelajagi uchun muhim ahamiyatga

ega. Ushbu muammoni hal qilish uchun bugungi pedagogik ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan o'qituvchilar zamonaviy maktab talablariga to'liq javob bera olmayotgani va buni bartaraf etish muhim vazifaga aylanmoqda. Shuning uchun amaliyot jarayonini yanada sifatli tashkil etish uchun yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilsa, bo'lajak pedagoglarga ham va tahsil olayotgan o'quvchilarga ham ancha oson bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim va pedagogik amaliyot davrida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi, amaliyotchilar bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.[2., 211-b]

Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi [3., 3-5-b].

Yangi pedagogik texnologiyalar o'qitish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan keng ko'lamli vositalar va platformalarni o'z ichiga oladi. Shular orasida ko'zga ko'ringan turlaridan biri bu o'rganishni boshqarish tizimlari, ular o'quv materiallari, baholash va aloqa uchun markaz bo'lib xizmat qiladi. Moodle, Canvas va Blackboard kabi platformalari o'quv davr mazmunini tashkil etish va mavzuni tushunishini osonlashtiradigan, muhokama hamda baho kitoblari kabi xususiyatlarni taklif etadi [4., 3-4-b].

